



Odil Yoqubov




# Ko'hnna dunyo



**ASR OSHGAN  
ASR LAR**

---

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2015



**ASR OSHGAN ASARLAR**

---

**ODIL YOQUBOV**  
**KO'HNA**  
**DUNYO**

*Roman*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2015

821.512.133-31 - Ўзбек адабиёти

UO'K 821.133-31

KBK 84(50')6

Y-32

Yo-93

Y-32 **Yoqubov, Odil.**

Ko'hna dunyo. Roman. /«Asr oshgan asarlar»  
turkumi. – T.: «Sharq», 2015. – 384 b.

ISBN 978-9943-26-402-1

UO'K 821.133-31

KBK 84(50')6

ISBN 978-9943-26-402-1

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati, 2008, 2013, 2015.

Alisher Navoiy

2016/24

6848

U'zbekiston MK

2104

## *Birinchi bob*

Shoirning asli ismi — Qutlug‘qadam. Ammo hech kim buni bilmaydi. G‘aznada u Malik ash-sharob, avomchasiga esa Maliqu'l sharob, ya'niki, g‘arib mayxurlar sultoni degan nom bilan ma'lum va mashhur.

G‘arib kulbasi esa, garchi sulton Mahmud G‘aznaviy qasriar bilan tenglasha olmasa ham, dovrug‘i butun dorus-saltanatga<sup>1</sup> ketgan. Shoirning kulbai vayronasi shaharning eng chekkasida, Bog‘i Firuz va Bog‘i Mahmud kabi ko‘rak bog‘lar, Osmon malikasi kabi marmar qasrlar, Ko‘shki davlat va Ko‘shki ma‘mur kabi tillakori saroylar, lojuvard gumbazli muhtasham machit va minoralar, sershovqin bozorlar, karvonsaroylar, bir-biriga tuta-shib ketgan obod rastalar kumush favvoralar o‘rnatilgan gulzor va maydonlardan yiroqda, gadolaf va yo‘qsizlar makoni bo‘lmish Afshon shol<sup>2</sup> dahasining xilvat bir burchagida joylashgan. Lekin bu qashshoq kulbaning o‘ziga xos ohanrabosi bor — u mulla mirqurnuq shoirlar, «chiqitga chiqqan» xonanda va sozandalar, saroylardan quvilgan munajjimlar, amirlar qahriga yo‘liqqan sarbozlar, qochqin g‘ulomlarning suyuqli makoniga aylangan.

Kechalari bu makonga oqib keladigan faqiru haqirlar garchi cho‘ntagida sariq chaqasi bo‘lmasa ham o‘z dovrug‘i, o‘z g‘urnriga ega. Mashshoqlar davrasidagi setorchi, shunchaki setorchi emas, balki Bobo Setoriy deb chaqiriladi, g‘ijjakchisi oddiy g‘ijjakchi emas. Piri G‘ijjakiy, hofizi shunchaki hofiz emas, Bobo Hofiz, Bulbuliy, shoir bo‘lsa nazm ahlining sultoni yoxud malikul kalom, deb ataladi. Hatto nay bobida ustasi

---

<sup>1</sup> D o r u s - s a l t a n a t — p o y t a x t

<sup>2</sup> A f s h o n s h o l — q a d i m i y G ‘ a z n a m a h a l l a l a r i d a n b i r i .

farang, gurganjlik<sup>1</sup> bukri attor ham oddiy bukri emas, balki «Piri Bukriy» nomi bilan dong chiqargan.

Bu g'arib kulba Malikul sharobga otasidan, fotihi muzaffar amir Sabuqteginning sodiq nadimi Qorag'ulomdan qolgan.

Malikul sharobning o'zi ham yoshligidan sultonning suyukli nadimi bo'lgan, ammo o'n to'rt yashar bir malak vajidan o'smirlik chog'laridayoq oralari buzilgan. Agar o'sha ofatijon sanam bo'lmaganida, hozir, ehtimol, sultonning suyangan tog'i yoxud eng yaqin lashkarboshisi bo'larmidi? Xo'sh, shunda nima yutardi? Boshi osmonga yetarmidi? Yo bu noraso dunyoning ustuni bo'larmidi? Undan ko'ra hozirgiday mayini ichib, ko'nglini xushlab yurgani ming chandon yaxshi emasmi?

Malikul sharob sharbat va may qilish hunarini hirotlik kekxa bir bog'bondan o'rgangan. Yillar o'tib, bu ishda shunday ustasi farang bo'ldiki, uning sharbatini ichgani nafaqat yupun shoirlar va yo'qsillar kelishadi, ba'zan manman degan bek va bekdodalar, hatto Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar, gohi-gohi esa ultonning suyukli madhiyabozi, shoir Unsuriy ham qadam ranjida qlladi, hatto amiralmo'aminning erkatoiy vaziri, mayparastlik va fohishabozlikda yagona bo'lmish Abul Hasanakning o'zi ham uning mayiga pinhona odam yuboradi...

Rost, ba'zan bozor mutasaddilari uni shakkoklikda ayblab, G'aznadan quvmoqchi ham bo'lishadi, biroq Qutlug'qadamning baxtiga bundan qirq besh yil muqaddam, o'sha, o'n to'rt yashar sohibjamol sabab, yosh Mahmud sodiq g'ulomini saroydan haydaganida, unga «boshqa jazo berilmasin» deb amru farmon qilgan. Shu farmon sabab, sobiq qulbachcha Malikul sharob har safar jon saqlab qoladi.

Malikul sharobning kulbasidagi suhbatlar, odatda, shomi g'aribonda boshlanadi.

Bugun mayxo'rlar barvaqt oqib kela boshlashdi. Poygak joylarni, odatga ko'ra, nashavand gadolar juldur-

---

<sup>1</sup> G u r g a n j — qadimiy Xorazm poytaxti.

voqi mayib-majruhlar, serjahl darveshlar egallashdi. Ulardan yuqoriroqda nazm shaydolari bo'lmish bir guruh tolibi ilmlar joylashishdi. To'rga esa qaysi bir shahardan kelgan ikki sayyoh taklif qilindi. Sayyohlarning biri yoshi elliklarga borib qolgan, moshguruch soqolmo'ylovi o'ziga xo'p yarashgan, egnidagi ko'k movut to'ni ustidan oq rido kiyib, boshidagi mo'risimon ko'k qalpoqchasi ustidan oppoq simobiy salla o'rab olgan allo-manamo bir kimsa, ikkinchisi esa, darvesh qiyofasidagi xushsurat yigitcha edi.

Ko'p o'tmay mayxonaning sodiq mayxo'rlari — g'ijjak va setorlarini qo'ltiqlab olgan Bobo Setoriy bilan Piri G'ijjakiy paydo bo'lishdi. Ulardan keyin qarib qolgan bo'lsa ham soqolmo'ylovlarini bo'yab yuradigan Bobo Hofiz Bulbuliy bilan Piri Bukriy degan, o'zi pakanagina bo'lsa ham boshi xumday, nimasi bilandir katta qora o'rgimchakka o'xshab ketadigan kekxa naychi kirib kelishdi.

Ovloq Xorazmdan, Abu Rayhon Beruniy yurtidan kelgan Piri Bukriy G'aznada attorlik qiladi. Afshon shol bozoridagi attorlik rastasida uning o'z do'koni bor. Bu majruh naychi to'g'risida shaharda har xil mishmishlar yuradi Go'yo u o'g'irlik mollar, oltin va javohirlarni sotib olar emish, o'ziyam behisob boyliklar sohibi emish, degan gaplar bor. Bu mishmishlarning qaysisi chin, qaysisi yolg'on — yolg'iz olloga ayon. Har qalay, Malikul sharob bu mishmishlarning hech biriga ishonmaydi, bil'aks, uni «xo'do urgan, payg'ambar esa aso bilan turtgan» bir bandai nogiron, deb biladi va unga rahm qiladi. Piri Bukriy ham uning bu mehru saxovatini yaxshi qadrlaydi. Har qalay, taqdir taqozosi bilan Gurganjdan kelibdiki Malikul sharob bilan birodarlik qiladi, salkam o'n besh yildan beri har oqshom uning mayxonasiga kelib nay chaladi, shunday chaladiki, ba'zan o'zi ham yig'lab, boshqalarni ham yig'latadi. Shunday paytlarda kekxa attorning qalbi allaqanday tizginsiz dardlarga to'la ekani ayon bo'ladi-yu, odamlar u to'g'ridagi mudhish mishmishlarni unutishadi...



Bundan yaqin bir oy avval Piri Bukriy Malikul sharobga nozik bir iltimos bilan murojaat qilgan. Malikul sharob esa, iltimosning nozikligi sabab, unga rad javobini berishdan boshqa chora topmagan edi. Shundan beri Piri Bukriy mayxonadan oyog'ini tortib qolgan, Malikul sharob bo'lsa eski qadrdonini ranjitib qo'yganidan pinhona ezilib yurardi. Bugun uning Hofiz Bulbuliy bilan birga kirib kelganini ko'rib, shunday quvonib ketdiki, yerto'ladan o'n yillik sharbat solingan katta bir xumni ko'tarib chiqishlarini shogirdlariga buyurdi. Bu gapni eshitgan faqirlar:

— Omad yor bo'lsin Malikul sharobga!

— Biri o'n bo'lsin Malikul sharobning!— degan xitoblar bilan g'ira-shira musofirxonani boshlariga ko'tarishdi.

Bir mahallar may ichishda hech kim Malikul sharobga bas kelolmas edi. Biroq so'nggi yillarda, yoshi oltmishdan oshib, ko'zidan nuri, belidan quvvati keta boshlagandan beri Malikul sharob kam ichar, u ko'proq boshqalarni mehmon qilib, gulgun suhbatlar qurishdan zavq olardi. Yaxshi g'azal o'qigan, yaxshi kuy chalgan yoki qiziq hangoma so'zlab bergan kimsa bir kosa tekin sharbat bilan taqdirlanar, bu esa mushoirani zavqshavqqa to'ldirib yuborardi. Lekin bugun nima ham bo'ldi-yu, Malikul sharobning o'zi ham bir ho'plam, yarim ho'plamdan olib o'tirib, shirakayf bo'lganini sezmay qoldi. Avvalambor, bir oydan beri arazlab yurgan eski qadrdoni Piri Bukriy o'z oyog'i bilan kirib keldi, keldi-yu, Piri G'ijjakiyga jo'r bo'lib, nayda shunday bir kuy chaldiki, sharbatxonada yig'lamagan bir kimsa qolmadi. Qolaversa, mehmon bo'lib kelgan ikki sayyoh Xurosondan, nazm ahlining sultoni Abulqosim Firdavsiy yurtidan ekan, gap aylanib «Shohnoma»ga borib taqaldi. «Shohnoma»dan Mahmud G'aznaviyga, undan shoirning sulton haqidagi mashhur hajviga o'tdi-yu, suhbat go'yo shabada tekkan gulxanday lovillab ketdi. Birov shoirga hamdu sanolar o'qib, «Shohnoma»ni ko'klarga ko'tarib maqtasa, birov aksincha: «Agar Abulqosim Firdavsiy dono bo'lsa, nechun ijodining gultoji bo'lmish

«Shohnoma»ni o'zi suymagan sultonga in'om etdi?» deb t'ana qildi. Yana birov esa, shakkok gaplardan cho'chib, o'zini chetga oldi, hatto sekin tisarilib, kulbani sharpa-sizgina tark etganlar ham bo'ldi.

Malikul sharob, boshida kulohsimon eski qalpoq, egnida eski bo'lsa ham gard yuqmagan toza bo'z yaktak, shoirona to'zg'igan soqol-mo'ylovlarini tutamlab, mayxona ahlining betartib bahs-munozaralariga jimgina qu-loq solib o'tirarkan, ko'z oldiga lop etib ustod Abulqosim Firdavsiy keldi.

Yodida bor: Abulqosim Firdavsiy, — ollo undan rozi bo'lg'ay! — g'aznani tark etishdan avval uning kulbai vayronasiga tashrif buyurgan edilar. Tashrif buyurishlaridan bir kun avval esa, shaharda ajib bir gap tarqalgan edi. Birov sulton Mahmud ul nazm sultoniga katta lufu ehson ko'rsatib, «Shohnoma»ning har misrasiga bir tilladan haq to'labdi, desa, boshqa birovlar, bil'aks, sulton buyuk shoirning qadriga yetmabdi, hatto egniga sarupo ham yopmabdi, degan gaplarni topib kelgan edi. Ustod esa, go'yo sulton bergan yo'lni cho'ntagiga solib, to'g'ri hammomga borgan emishlar, hammomdan chiqqach, bor aqchasini gadolarga ulashib, o'zlari sultonga hajv bitgan emishlar!

Malikul sharob bu mishmishlarni haqiqat qilib ulgur-masdanoq ustod o'zlari uni yo'qlab kelib qoldilar. Ustod kekxa bo'lsalar ham bo'y-bastlari kelishgan, oppoq soqollari ko'ksiga tushgan, tiyrak ko'zlariyu o'tkir so'zlariga hech kim dosh berolmaydigan, tili achchiq, qaysar odam edilar. U kishi goho-goho may istab kelganlarida kayflari chog' bo'lsa «Shohnoma»dan hikoyatlar o'qib berar, donolar bisotidan rivoyatlar aytib, hammani xushnud qilar, mabodo kayflari buzuq bo'lsa, qalang'i-qasang'i mayxo'rlar bilan o'tirishni istamay, tikka turganlaricha bir piyola may ichardilar-da, o'z yo'llariga ravona bo'lar-dilar.

O'shanda, so'nggi marta kelganida, ustod, xuddi be-sabab qamchi yegan asov tulporday, betoqat edilar. Soch-soqollari to'zg'igan, yuzlari bo'g'riqqan, oppoq

qoshlari tagidagi tiyrak ko'zlari allaqanday ichki bir alamdan yonar, o'zlariyam odatdagi kimxob to'n o'rniga odmigina qora chakmon kiyib, boshlariga eski qalpoqni qo'ndirib olgan, qo'llarida aso, yelkalarida xurjun, tarki dunyo qilgan bir zohidga o'xshar edilar.

— Malikul sharob! — dedilar ustod o'shanda, poygakda to'xtab. — Faqiru haqir sen bilgan nazm sulтони Abulqosim Firdavsiy emas, cho'ntagida hech vaqosi yo'q bir gadomen. Ollo yo'liga bir piyola sharbat tutsang, dilimda senga hamdu sano o'qib ichamen, bermasang... labimda kulgu, ichimda duoyi bad qilib, mayxonangni tark etamen!..

Ustod Malikul sharob tutgan bir kosa sharbatni bir sipqarishda bo'shatib, kosani qaytarib berarkanlar:

— Yo'q!— deb xitob qildilar.— Yo'q, Malikul sharob! Faqir qorninga emas, qadrimga yig'laymen!.. Shu boisdan, sulton bergan barcha in'omlarni gadolar va yo'qsil-larga ulashdim! Bir mirini qoldirmay ulashdim-u, mana endi, farishtaday ma'sum, go'dakday qip-yalang'och, o'z yurtimga otlandim!.. E voh! Bu gumroh shohlar oldida bizday faqir shoirlar qismati shu ekan! Ne chora? Ayb o'zimda! Bil'aks, insof va adolatni kuylab, odil shohlar tarixini bitgan shoir, kelib-kelib shu mustabid sultondan haqiqat qidirib kelurmenmi? O, gumrohlar, gurohlar! Kamina go'yokim Eron bilan Turonni bir-biriga qarshi qo'ygan emishmen! Go'yokim forsiy shohlarni ulug'lab, turkiylarni kamsitibmen!.. Yo'q! — dedilar u kishi to'satdan kulohli boshlarini baland ko'tarib, — bir elni boshqa bir elga qarshi, qo'ymoq — donolar ishi emas! Bu — shohlar va sultonlar ishi! Kamina o'z asarimda faqat haqiqatni yozdim! O'lim haq! Vaqtiki kelib faqir ham bu olamni tark eturmen. Ammo, inshoollo. «Shohnoma» toabad qolur! Kim haq, kim nohaq, har kim o'zi o'qib olur, o'zi bilib olur. Malikul sharob!

Ustod shunday dedilar-da, ikkinchi kosani ichishdan bosh tortib, musofirxonani tark etdilar.

..Malikul sharobning xayolini sharbatxo'riarning jo'r qiyqirig'i bo'lib yubordi.

Uning ro'parasida kir-chir, soqoli ko'ksiga tushgan juldurvoqi bir mo'ysafid bo'sh kosani cho'zib turar, kulbaga yig'ilgan g'aribu g'urabo mo'ysafidni qurshab olgan, hammaning ko'zi Malikul sharobda edi.

Malikul sharob bu mo'ysafidni yaxshi tanirdi. Ko'plar uning nasl-nasabini bilmasa ham o'zini hamma tanir, birovlar uni Bobo Xurmo deb chaqirsa, birovlar Bobo Savdoi deyishadi.

Odamlarning aytishicha, bir mahallar hozirgi Bog'i Firuz o'rnida mo'ysafidning katta xurmozori bo'lgan. Bundan yigirma yil muqaddam, sulton Mahmud Bog'i Firuz uchun joy tanlaganda mo'ysafidning xurmozori ma'qul tushib, uni o'z mulkiga qo'shib olganu, suyukli bog'idan ayrilgan keksa bog'bon xiyol savdoyi bo'hb qolgan. Shu-shu, ko'chama-ko'cha yurib tilanchilik qiladi.

Bobo Xurmoning kechmishini bilgan odamlar unga rahm qilishar, Afshod shol dahasining churvaqalari esa uni jonlaridan ham yaxshii ko'rishar doim:

*Bobo Xurmo!  
Qilg'il duo,  
Bergil xurmo! —*

deya chug'ur-chug'ur qilishib, cholning orqasidan ergashib yurishardi.

Hozir ana shu Bobo Xurmo Malikul sharobning oldida nechundir kulimsirab, tavoze bilan qo'l qovushtirib turardi.

— Afv et, Malikul sharob! Bu suhbat i gulgunda yaxshi shohu yomon shohlar haqida bahs ketdi. Ijizat etsang, kamina shu to'g'rida bir rivoyat so'zlasam!

— So'zla, Bobo Xurmo!

— So'zlayman, ammo so'zim haqini kim to'laydi, Malikul sharob?

Kulba gado va yo'qsillarning jo'r qiyqirig'idan larzaga keldi:

— So'zlayver, Bobo Xurmo! Bir piyola emas, o'n piyola sharbat desang ham yo'q demaydi Malikul sharob!

— Og'zingni och, xumi bilan quyadi!

Malikul sharob kulimsirab, Piri Bukriyga yuzlandi:

— Qo'yib ber, to'yguncha ichsin!

Bobo Xurmo kipriksiz ko'zlarini mastona o'ynatib, bir emas, ikki kosa sharbatni ust-ustiga sipqardi-da, g'alag'ovur bosilishini kutib, hikoyasini boshladi:

— Shundaykim, qadim zamonlarda ikki xesh, ikki birodar safarga chiqmish. Yo'l yursa ham mo'l yurib, sahroda o'sgan bir sada tagiga borib qo'nmish. Topgan-tutganlarini baham ko'rib, suhbat qurmish. Shunda bir do'st ikkinchidan: agar senga saodat yor bo'lib, poshsho bo'lsang nima qilar eding, deb so'rarmish.

— Agarchand, — demish birinchi sayyoh — saodat yor bo'lib, poshsho bo'lsam, yurtimda insofu adolat o'rnatar edim. Odamlar nimaiki orzu qilsa, hammasini ro'yobga chiqarar edim!

— Kamina poshsho bo'lsam, — demish ikkinchi sayyoh, — bani odam atalmish bu nodonlarni tavbasiga tayantirar edim. Qashlashga tirnoq ham qoldirmay, kafangado qilardim bularni!

— Sabab?

— Sababi — na yaxshilikni biladi bu gumrohlar, na yomonlikni!

Ertasiga ikki sayyoh yo'llarida davom etmish. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, bir shahri azimga yetib bormish. Qarasalar, ark oldidagi maydonda odam tirband, hammaning qo'lida bir parcha go'sht, osmondagi qushga tikilar emish. Ma'lum bo'lishicha, bir kun avval poshsho olamdan o'tgan, poshsho befarzand bo'lib, taxt vorisi yo'q emish. Shu boisdan, shahar donishlari yig'ilib, poshshoning qari burgutini uchirmoqqa ahd qilmish, toki burgut kimning boshiga qo'nsa, o'sha odam poshsho bo'lsin! Burgut esa, falakning gardishi bilan bemehr sayyohning boshiga kelib qo'nmish.

Shahar donishlari sayyohning musofir ekanini eshitib, burgutni qayta o'chirmish. Burgut maydon uzra uchib yurib, yana o'sha sayyohning boshiga qo'nmish. Shu yo'sin uch marotaba uchirilib, uch marotaba sayyohning boshiga qo'ngandan so'ng, shahar ahli uni taxt-

ga o'tqazmish. Sayoh esa taxtga o'ltirgan hamon, o'z aytganini qilmish: mamlakat ahlini zir titratmish, behisob boju xiroj solib, hammani kafangado qilmish. Shunda odamlar poshsho bo'lgan sayyohning do'stini qidirib topmish, poshsho ustidan arz qilib, undan najot so'ramish. Faqir sayyoh poshsho bo'lgan do'stining huzuriga bormish. Poshsho uni shod-xurramlik bilan kutib olmish, ammo so'zini eshitib: «Sen bu ishga aralashma,— deb tanbeh bermish.— Agar men bu odamlarga zulm qilgan bo'lsam, gumrohligi va nodonligi uchun shunday qildim. Agar bular nodon bo'lmasa, xudoning aqlsiz bir maxluqiga inonib, kaminani taxtga ko'tarishmas edi! Beaqil maxluqqa inonib meni poshsho qilishgan ekan, rahm-shafqat ne darkor bularga? Dono poshsho donolarga loyiqdur! Nodonlarga nodon poshsho yarasur!»

Kulba jo'r kulgu va qiyqiriqlardan larzaga keldi.

— Bu rivoyatdan maqsading ne, Bobo Xurmo?

— Maqsadi ayon! Senday nodonlarga sulton Mahmudday poshsho yarashur, demoqchi Bobo Savdoyi!

— O'z so'zi emas, sultonning g'animi imom Ismoil so'zi bu!

— Ofarin! Betavfiq isyonchilar makoniga aylanmish bu makon!

— Og'zingni yum! Sulton eshitsin bu so'zlarni, oyog'ingdan dorga osib, ostingdan o't qo'yadi, ahmoq!

— Vo ajabo! Sultonning ayg'oqchilari qayda?

— Ko'rsat menga o'shal ayg'oqchingni! O'zim dorga tortamen uni!

Malikul sharob qo'lini ko'tarib, g'ala-g'ovurni arang bosdi-yu, Bobo Xurmoga yana bir piyola sharbat tutishni buyurdi.

Shundan keyin nima bo'ldi, suhbat davom etdimi, yo navbat mashshoqlarga keldimi, Malikul sharob yaxshi bilolmay qoldi. Bir mahal ko'zini ochsa... ichkarida, Nargizabonuning torgina xonasida, to'g'rirog'i, xonani ikkiga bo'lgan pardaning bu tomonida yotibdi. Tepasida qo'lida miltiragan sham, Piri Bukriy turibdi.

Xonaning g'ira-shira qorong'iligida egniga qora chakmon, boshiga xorazmcha cho'girma telpak kiygan bukri chindan ham bahaybat qora o'rgamchiga o'xshab ko'rindi-yu, Malikul sharob seskanib ketdi, xayolidan esa: «Tag'in eski gapmi?» degan fikr o'tdi.

Bundan uch oy muqaddam Malikul sharob qul bozoridan o'n besh-o'n olti yashar bir joriya sotib olgan edi. Joriyaning ismi Sadaf bo'lib, o'zi Xorazmdan, ko'p yillik qadrdoni Beruniy yurtidan edi.

Sadafbibi qo'l-oyog'i chaqqongina, yoqimtoygina qiz ekan, birpasda hammaga yoqib qoldi, ko'p yillardan beri dard chekib, to'shak yozib yotgan nogiron kampiri Nargizabonuga ham juda qo'l keldi. Lekin bundan bir oy muqaddam, Sadafbibini ko'rib, u bilan suhbatlashib qolgan birodari Abu Rayhon: «Joriyangni menga ber, mening uyimda xizmat qilsin, juda pok qiz ekan, bu shilqim mayxo'rlar orasida unga jabr bo'libdi», deb qoldi.

Malikul sharob boshda Abu Rayhonga ham rad javob berdi, biroq keyin o'ylab ko'rib, uning haq ekaniga iqror bo'ldi-yu, Sadafbibini unga berishga rozi bo'ldi. Aksiga olib, xuddi o'sha kunlari bu bukri ham Sadafbibini so'rab keldi. Malikul sharob Abu Rayhonga va'da berib qo'yganini aytsa ham, yalinib-yolvorib turib oldi, katta pul, o'z narxida o'n baravar katta pul va'da qilib, oyog'iga yiqildi...

Abu Rayhon Sadafbibini so'rab kelganida bir narsani ro'kach qilgan, ya'ni, uni bibining xorazmcha chuchuk tili rom qilganini aytgan edi. Ajabo: bu bukrini ham xuddi shu narsa maftun etgan emish! Biroq maftun bo'lsin-bo'lmasin, Sadafbibini qaytarishning iloji yo'q, u Abu Rayhonning ixtiyoriga o'tgan edi. Shundan beri Piri Bukriy Malikul sharobdan arazlab yurardi. Nahot bugun tag'in o'sha iltimos bilan kelgan bo'lsa?

— Xo'sh, xizmat, azizim?

— Malikul sharob, — dedi Piri Bukriy shivirlab. — Boyagi ikki sayyohning biri g'avg'o ko'tarib, to'polon qiladur.

— To'polon qilsa, to'rt tomoni qibla! Ne deb to'polon qiladi?

— Joy so'raydur, shohona joy!

— Shohona joy tilasa mening kulbai vayronamda ne qiladi? Ayt, sulton Mahmudga borsin! Shoyad Osmon malikasidan joy bersa?

Piri Bukriy qo'lidagi shamni balandroq ko'tarib, burchakka tutilgan narda tomon o'g'rincha bir qarab qo'ydi.

— So'zimga quloq soling, pirim! Yosh sayyoh aytadiki, yonidagi keksa sayyoh o'shal... hakimi davron... hazrat Abu Ali ibn Sino emish! Ul zoti sharifning hurmatini bajo keltirmoq darkor emish!..

— Ne deding? Hazrat Ibn Sino?

— Shunday, pirim, O'shal, dong'i olamga ketgan hakimi davron Abu Ali ibn Sino hazratlari emish!

Malikul sharob qizargan ko'zlarini katta ochib, bir zum angrayib qoldi, so'ng, patak soqolini silab mastona kuldi:

— Ibn Sino hazratlari bo'lsa... sulton Mahmudga borsin! Mana, yigirma yildirki, sulton uni topolmay silab mastona kuldi:

— Ibn Sino hazratlari bo'lsa... sulton Mahmudga borsin! Mana, yigirma yildirki, sulton uni topolmay dog'da yurmish!

Piri Bukriy negadir yana burchakdagi parda tomon ko'z tashlab:

— Pirim, — deb shivirladi. — Yosh sayyoh bir surat ko'rsatdikim, mavlono Beruniy ko'rsatgan suratning baayni o'zi! Bu sayyoh bilan o'shal suratdagi Ibn Sinoni ajratib bo'lmas, pirim. Bamisoli bir tomchi suv!

Malikul sharobning yumuq ko'zlari yarq etib ochilib ketdi. U olacha to'nini egniga tashlab, o'rnidan tura boshladi. Biroq shu payt parda ichidan ayol kishining «mirzam», degan zaif ovozi eshitildi. Malikul sharob bukriyga «sen boraver», deb imo qildi-da, pardani ko'tarib go'shaga kirdi.

Parda orqasidagi to'shakda... sochlari qorday oppoq, ko'zlari katta-katta, nimjongina bir ayol o'tirar, uning



pehonasidagi moshdekkina qizil xoli ayolning hind yuridan ekanini ko'rsatib turardi.

Malikul sharob to'shak chetiga tizza bukarkan o'zgacha bir muloyimlik bilan:

— Nechun uxlamaysiz? — deb so'radi. — Yana og'riq boshlandimi, bonu?

Nargizabonu, ikki barmog'i kesilgan mayib qo'li bilan to'zg'igan sochlarini tuzatarkan, katta-katta timqora ko'zlari allaqanday charaqlab:

— Bu so'z rostmi, mirzam? — deb so'radi. — Hazrat Ibn Sino...

— Shoyad rost bo'lsa! — Malikul sharob ayolning barmoqlari yarmidan kesilgan to'mtoq kaftini qo'lga olib, lablariga bosdi, bosarkan, odatdagidek, yana o'sha yiroq, ammo har eslaganda xuddi kechagina ro'y bergandek, vujudida titroq uyg'otuvchi unutilmas bir manzara ko'z oldiga keldi.

G'azna chekkasidagi hindlar dahasi. Dahaning eng xilvat joyidagi pinhoni bazmxona. Go'zal raqqosalar, xonanda va sozandalar bazmxonasi. Amir Sabuqteginning erka farzandi, yosh Mahmud o'zining eng yaqin g'ulomi, bolalikdan birga o'sgan tengdoshi Qutlug'qadam bilan har kecha shu xufiya bazmxonaga ravona bo'lishadi. Taqvodor otadan yashirincha, go'zal raqqosalar bazmini ko'rgani borishadi. Yo'q, hamma raqqosalar emas, ofatijon raqqosalar orasidagi eng ofatijon Nargizabonuning raqslarini tomosha qilgani borishadi. Nargizabonu endi o'n uchga to'lib, o'n to'rtga qadam qo'ygan, biroq uning husni, tilla ma'budadek nozik bo'y-basti, pehonasidagi moshdek qizil xoli, ayniqsa doim kulib turguvchi katta-katta timqora ko'zlarini bir ko'rgan yigit toabad unutmaydi. Raqslari esa... uning raqslari ham go'dak kulgusiday ma'sum, ham bamisoli olov! Xuddi lovillab yongan olov yanglig' bu raqs tirik jon borki yondiradi, o'liklarga esa jon ato qiladi...

O'sha oqshom ham, ikki po'lat qilich qinidan chiqqan o'sha mash'um oqshom ham Nargizabonu egnida harir ipak sari, bejirim oyoqchalarida qo'sh-qo'sh tilla

xol-xol, qo'llarida yoqut qadalgan qo'sh-qo'sh tilla uzuk, nozikkina yarim yalang'och tanasini ming muqom bilan qilpillatib shunday xiromon qildiki, amir Mahmud bilan uning sodiq g'ulomi Qutlug'qadam raqqosa oldida barobar tiz cho'kib, unga chiniy piyolalarda barobar sharbat tutishdi.

Timqora ko'zlari yulduzday chaqnagan yosh malak, lablarida ma'sum tabassum, sersoqol sozandalar soziga mos xiromon qilganicha, ikki mashhur mehmonga yaqinlashib bordi, so'ng tamanno bilan egilib ta'zim qildi-da, tirnoqlariga xina qo'yilgan nozik qo'llari bilan amir Mahmudning... yo'q, Mahmud emas, uning g'ulomi Qutlug'qadamning piyolasini oldi. Olishga oldiyu, piyolaga lab tekkizishga ulgurmasi. Yosh amir, qo'lidagi sharob to'la kosani shiftga qarab qulochkashlab otdi-da, o'rnidan sapchib turib, shartta qilichini qinidan sug'urdi. Undan u yog'i bir zumda, ko'z ochib-yumguncha sodir bo'ldi: Nargizabonu qo'lini boshi uzra ko'targancha faryod chekib, o'zini sozandalar davrasiga urdi. Biroq g'azabdan jazavasi tutgan yosh amir ikki hatlashda malakka yetib, uning boshi uzra ko'targan nozik qo'llariga qilich soldi. Qo'sh barmog'i uchib ketgan raqqosaning zorli faryodi bazmxonani zir titratdi. Bu faryoddan o'ziga kelgan Qutlug'qadam ham sakrab turib amirga tashlandi. U jonholatda qilich tig'ini changallab olgan ekan, uning qo'lidan ham tirqirab qon oqdi. Lekin u og'riqni sezmasi. Qo'lidan tirqirab oqqan qonni ham ko'rmadi. Uning ko'zi kesilgan barmoqlarda edi. Raqqosaning xina qo'yilgan nafis qoramtir barmoqlari, xuddi joni borday, yerda dik-dik sakrar, boshi uzilgan mitti qushchalarday pitirlardi!..

...Ertasiga ularni amir Sabuqtegin o'z ko'shkiga chaqirtirdi. Keksa amir, bir yonida bosh vazir, bir yonida qadrdon sarbozi Qorag'ulom, oltin taxtda qovog'ini uyib o'tirardi. U o'ziga yarashgan qalin ketmon soqolini tutamlab, ikki og'izgina va'z aytdi:

— Faqir senlarni aka-ukaday inoq, ikki do'st, ikki birodar bo'lib ketar, deb o'ylagan edim.

bo'lg'aykim, oralaringda raqobat paydo bo'libdi. Raqobat bor joyda sadoqat bo'lmas! Shu bugundan boshlab saroyda sening qorangni ko'rmayin, Qutlug'qadam! Seni ham Qorag'ulom!.. Bilamen, sen menga salkam yigirma yil halol xizmat qilding. Ammo bukun men seni farzandingga qo'shib dargohimdan haydamoqdan boshqa choram yo'q... Ayb menda emas, Qorag'ulom, ayb takabbur zurriyotingda! Bergan tuzimga rozimen, Qorag'ulom!..

Valine'mat padari Qorag'ulom — ollo uning ruhini shod etgay, — cho'yanday qop-qora, alpqomat odam edi. Keksa amirning bu so'zlaridan battar qorayib ketdi. Biroq lom-mim demadi. O'g'liga zimdan ko'z qirini tashlab: «Yur!» deb ishora qildi-da, indamay eshik tomon yo'naldi.

...Malikul sharobning xayolini Nargizabonuning:

— Sizga ne bo'ldi, mirzam? — degan ovozi bo'ldi. — Ko'zingizda yosh...

Malikul sharob chandiq qo'li bilan nam kipriklarini silab, istehzoli kulimsiradi:

— Kechirgaysiz, bonu, kayfim oshib qolibdi...

Nargizabonu, xuddi go'dakni koyigan onaday, ma'yus kulimsirab:

— O, mirzam, mirzam! — deb oppoq boshini sarak-sarak qildi.— Qo'ying shu mayu sharbatxonangizni! Payg'ambar yoshiga bordingiz, mana!..

— Avf etasiz, bonu, faqir o'zi qarisa ham, ko'ngli qarigani yo'q. May esa...

*May men uchun ohu ko'zli malakdur,  
Bo'sa uning justfi, jonparvaridur.  
Ohu ko'zlar porlar, nechun o'pmayin,  
Oltin sharbat chorlar, nechun ichmayin  
Sanam yanglig'... ul xasta dil oromi...*

Nargizabonu mayib kaftini yuragiga bosib asta pichirladi:

— Boring, Ibn Sino hazratlari kutib qolmish!

— Shoyad sizning baxtingizga bu gap rost bo'lsa! — Malikul sharob tokchadagi shamni qo'lga olib, turtinib-surtinib go'shadan chiqdi.

...Mayxona hamon boyagiday g'ira-shira edi. Ikki sayyohdan boshqa mayxo'rlar tarqab ketgan, faqat poygakdagi bo'yra ustida notanish bir devona yirtiq kulohini boshiga qo'yib, g'ujanak bo'lib uxlab yotardi.

Ikki sayyohning biri, soqol-mo'ylovlari o'ziga xo'p yarashgan allomanamo keksa sayyoh to'rdagi ko'rpachada, qo'sh bolishga suyanganicha pinakka ketgan, uning shogirdi esa, beriroqdagi xontaxta oldida shokosaning yuzidekkina suratni Piri Bukriyga ko'rsatib, gap uqtirib o'tirardi.

Malikul sharob poygakda to'xtab, bir qo'sh bolishga suyanib pinakka ketgan keksa sayyohga, bir shogirdining qo'lidagi suratga ko'z tashladi... Vo darig'! Bu o'sha aziz birodari Abu Rayhonning uyida ko'rgan hazrat Ibn Sining surati edi! Chiroyli moshguruch soqolini ko'ksiga bosib pinakka ketgan to'rdagi xushsurat sayyoh esa... suratdagi Ibn Sining o'zi, baayni o'zi edi!..

Yosh sayyoh eshikda paydo bo'lgan Malikul sharobni ko'rib, mastona chayqalib o'midan turdi.

— Jumlai jahon darveshlarining piri murshidi Malikul sharob hazratlari salomat bo'lsinlar!

— Tashakkur, azizim! — Malikul sharob mast-alast mayxo'rlarni sira xushlamas edi, biroq bu yosh sayyohning sarmast qiliqlari yosh bolaning erkalanishlaridan samimiy va yoqimtoy edi.

— Kechirgaysiz, pirim! Biz haqirlar sizday pirimning shuhratini eshitib, shahri Tusdan chiqib kelgan edik. Ming afsuskim, bu yerda kamina u yoqda tursin, hakimi davron... ustod Abu Ali ibn Sino hazratlari ham o'z hurmatiga munosib izzat-ikrom topmadilar!

«Shahri Tus? Abu Rayhonning aytishicha, Ibn Sino hazratlari Buxoroi sharifda dunyoga kelgan edi chog'i?».

— Kechirgaysiz, azizim. Bu hakimi zamon hazrat Ibn Sino... shahri Tusda tavallud topganlarmi?

— Yo'q, taqsiri olam! Ibn Sino hazratlari Buxoroi sharifda tavallud topganlar. Ammo Buxoroi sharif ilk xonlar tasarrufiga tushibdiki, ular xizmatida bo'lishdan bosh tortib, shaharma-shahar, elma-el darbadar kezib yuradurlar! Ammo qayerga bormasinlar, ahli mo'min bu

zoti muborakni boshlariga ko'tarib izzatladilar. Siz G'azna ahli esa, hakimi hoziqning qadrini bilmadingiz! — shogirdning ovozi to'satdan qandaydir tahdid bilan yangrab ketdi-yu, kekxa sayyoh cho'chib boshini yostiqtan ko'tardi. U bir mastona chayqalib turgan shogirdiga, bir hayratda qotib qolgan Piri Bukriyga, bir Malikul sharobga qaradi, so'ng, hamma gappa tushundi chamasi:

— O, tentak, tentak! — dedi kuyinib. — Kamina senga necha marta aytdim, nomimni sotma, kimligimni oshkor qilma, deb! Necha marta aytdim...

Kekxa sayyohning allaqanday ichki dard bilan aytgan bu so'zlarida, xushsurat chehrasida, serviqor nigohida kishini o'ziga rom qiluvchi shunday zo'r bir iqtidor bor ediki, Malikul sharob beixtiyor qo'lini ko'ksiga qo'yib, unga ta'zim qildi.

— Uzr, ustod. Osiy banda g'arib kulbanga sizday tabarruk zotning qadam ranjida qilganlaridan bexabar qolibmen! Hoy, kim bor? Darhol ichkariga joy qilinglar! Darhol!

## ***Ikkinchi hob***

«Men senga sulton Mahmud G'aznaviy yurishlari to'g'risida gapirgan edim. Biroq men Mahmud davrining boshqa bir buyuk vakili to'g'risida hali gapirmadim. Bu — al-Beruniydir. Cheksiz qirg'inbarot va shafqatsizliklar davrida u hayotga chuqur razm solib, haqiqatning tagiga yetishga intilgan ulug' olim sifatida ajralib turadi...»

**Javoharlal Neru.**

«Jahon tarixiga bir nazar».

1-jild, 300-bet.

### 1

Bir haftadan beri bezgak xuruj qilib, noxush yotgan Beruniy bir lahza ko'zi ilingan ekan, «Ustod! Ustod!» degan muloyim ovoz qulog'iga chalinganday bo'lib, uyg'onib ketdi. Bu — yosh joriya Sadafbibining ovozi edi. Vaqt xuftondan oshgan bo'lsa kerak, tokchalardagi shamlar yoqilgan, devorlariga kitob javonlari o'rnatilgan

torgina chorburchak xona kunduzgiday yorug' edi. Sadafbibi, chamasi, uni uyquda deb o'ylab, javondagi kitoblarning changini artmoqda edi.

Egnida yo'l-yo'l ko'k baxmal ko'ylak, boshida qizil shoyi durra, oyog'ida uchi egik ko'k saxtiyon kavush, qiz eshitilar-eshitilmas tovushda qandaydir bir kuyni xirgoyi qilib, zavq bilan ishlar, dam javon changlarini artar, dam qizil, ko'k, sariq jildli og'ir kitoblardan birini olib hayrat bilan varaqlashga tutinar edi. Kitob varaqlaganda xirgoyi qilishdan to'xtar, kulchadekkina yumaloq yuzida taajjub va hayrat aks etar, kitobni joyiga qo'yishi bilan yana asta xirgoyisini boshlar edi.

Har safar Sadafbibining mana shu muloyim ovozi, xirgoyisining nozik ohanglarini, ayniqsa, sal chuchuk, yoqimtoy tilda so'zlashlarini eshitganda Beruniy g'alati bo'lib ketar, negadir bolalik va o'spirinlik chog'lari yodiga tushar, lop etib, Jayhun<sup>1</sup> sohillari ko'z oldiga kelardi. Bu ohang, bu qo'shiq, bu chuchuk va yoqimtoy tilni bir eshitishni orzu qilib, sog'inib yurganlariga necha zamonlar o'tdi?

Bundan bir-ikki oy muqaddam Sadafbibini Malikul sharob degan ko'p yillik birodarining mayxonasida ko'rib qolganida Beruniyni qizning husnidan ham burun mana shu mayin ovozi, sal chuchuk, yoqimtoy tili, ona suti bilan birga qoniga singib ketgan Xorazm lahjasida gapirishlari maftun etgan edi. Keyin surishtirsa, Sadafbibi chindan ham uning yurtidan, Gurganj bilan Qiyot<sup>2</sup> o'rtasidagi kichik qishloqdan ekan. Qaysi bir quljallob uni o'sha tomonlardan olib kelib, Afshon shol bozorida sotgan ekan!.. Beruniy bu gapni eshitdi-yu, qadrdoni Malikul sharobga qattiq yopishdi.

Sadafbibi kelguncha Beruniy bu uyda hindistonlik shogirdi Sabhu bilan birga turardi, Sabhu ham uy-ro'zg'or ishlarining ko'zini biladigan, qo'l-oyog'i chaqqon yigit, biroq Sadafbibi ostonani hatlab o'tgan hamon hamma narsa o'zgardi, go'yo bu uyga yosh joriya

---

<sup>1</sup> J a y h u n — Amudaryo.

<sup>2</sup> Q i y o t (Q o t) — Beruniy tug'ilgan qadimiy shahar.

emas, mayini bahor oftobi mo'raladi-yu, hammayoq allaqanday iliq nurga cho'milib, charaqlab ketdi!..

Ajabo, o'sha kundan beri allaqachon yigitlik davridan o'tib, keksalik manziliga qadam qo'ygan Beruniyning ko'nglida ham bahor. U umrida faqat bir marta, o'n olti-o'n yetti yashar mahalida mana shunday yorug' kunlarni boshidan o'tkazgan edi. Bahorday tez kelib, tez ketgan, lekin qalbida toabad so'nmas nur qoldirgan u kunlar Rayhonabonu bilan bog'liq edi.

Yo'q, Sadafbibi Rayhonabonuga o'xshamaydi. Nasroniy dini'ga mansub mashhur Qiyot savdogarining qizi Rayhonaning ko'zlari bahor osmoniday ko'm-ko'k, cho'zinchoq yuzlari sutday oppoq, yelkasida to'liqinday mavj urgan sochlari esa, bir jom cho'g'day qizg'ish edi. Sadafbibi esa qoramag'izdan kelgan, yuzlari yum-yumaloq, qosh-ko'zlari qop-qora. Lekin, bari bir, nimasi bilandir Rayhonabonuga o'xshab ketadi. Nimasi bilan?.. Buni Beruniyning o'zi ham aytib berolmaydi, biroq Sadafbibini ko'rishi bilan, uning ovozi eshitishi bilan esiga Rayhonabonu to'shadi-yu, ko'ngli suv ichganday yorishib ketadi... Mana, hozir ham...

Sadafbibi, go'yo uning tikilib qolganini sezganday, «yalt» etib qaradi, ko'zlari javdirib, bir zum tikilib turdi, so'ng, asta yurib, xontaxta yoniga keldi.

— Buyurgan dorungizni olib keldim, ustod.

Xontaxtadagi sharbat to'la ko'zacha yonida ipak tasma bilan bog'langan o'rog'lik qog'oz turardi.

— Doruga kim bordi? Sabhumi?

— Yo'q, Sabhu ovqat boshlagan edi, o'zim bordim,— Sadafbibi qizil shoyi durrasining uchi bilan yuzini yarim to'sib, xontaxta oldiga cho'nqaydi, cho'nqayarkan, birdan ovozi o'zgarib:

— Ustod! — dedi allaqanday siniq tovushda. — Agar ijozat bersangiz... endi attorlik rastasiga bormaymen!

— Nechun?

— Anov bukri... to'nkaga o'xshagan bukri attor yo'limni to'sdi.

---

<sup>1</sup> Nasroniy dini — xristian dini.

— Ne deydi?

— Yomon soʻzlar. Siz soʻramang, men aytmayin, ustod...

Beruniyning katta, qoramtir barmoqlari beixtiyor musht boʻlib tugildi.

Kecha ertalab u dori buyurish uchun attorlik rastasiga oʻzi borgan edi. Tanish attorga uchrab, uyga qaytayotgan edi, muyulishdagi doʻkondan, Sadafbibi aytganidek, toʻnkaga oʻxshash bir kimsa otilib chiqdi-da, pildirab kehb, yoʻlini toʻsdi.

Bu oʻsha, Malikul sharobning mayxonasida kechalari nay chalgʻuvchi, mayxoʻrlar orasida «Piri Bukriy» laqabi bilan dong chiqargan bukri attor edi. Hayot Beruniy bilan bu bukrini bundan salkam qirq yil muqaddam Qiyotda, Rayhonabonular xonadonida toʻqnashtirgan edi. U mahalda bukri ham Beruniy kabi Qiyotda yashar, Rayhonaning otasiga shogird tutingan savdogar edi. Lekin ustoz hayot vaqtida ipakday muloyim, itday sadoqatli boʻlgan bu bukri savdogar jon taslim qilgan kuni kechasi uning qiziga, eri oʻlib tul qolgan qizi Rayhonabonuga tajovuz qilgan, ular shu vajdan qattiq toʻqnashgan edi. Shundan keyin Beruniy uni koʻrmagan edi. Taqdirning gʻalati oʻyinini qarangki, bu mashʼum voqeadan salkam qirq yil oʻtgach, hayot ularni Gʻaznada, toʻgʻrirogʻi, Malikul sharobning mayxonasida yana bir-biriga duch keldi. Maʼlum boʻlishicha, bukri ham falakning gardishi bilan dunyo kezib yurib, oxir-pirovardida Gʻaznaga kelib qolgan ekan. Bu yerda u attoriik doʻkoni ochgan, kechalari esa Malikul sharobning mayxonasida mashshoqlik qilar, Bobo Setoriy va Piri Gʻijjakiylarga qoʻshilib nay chalar, shunday chalar emishki, har safar majlis ahlini sel qilar emish. Rost, oradan qirq yil oʻtgan boʻlsa ham, Qiyotdagi mashʼum voqea hamon esida turgani uchun boʻlsa kerak, Piri Bukriyning oʻzi ham, nodir sanʼati ham Beruniyning koʻngliga koʻp oʻtirmadi. U kecha ertalab attorlik rastasida uchrashganlarida ham gaplashishga toqati yoʻq edi, biroq qaydandir paydo boʻlgan Piri Bukriy pildirab kelib, yoʻlini toʻsdi-da:



— Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, mavlono! — deb xitob qildi. — Eslik odam eskini eslamas, derlar. Eski nizolarni ko'ngildan chiqaraylik, mavlono! Eshitishimcha, siz nodir toshlar borasida piri komilsiz. Falakning gardishi bilan faqirning qo'liga bir noyob tosh tushgan edi, shuni bir ko'rib bahosini aytib bersangiz, mavlono!

Yo tavba! Piri Bukriy bilibmi, bilmaymi — Beruniyning eng nozik joyidan ushlagan edi. U ko'p yillardan beri nodir toshlar haqida katta bir asar yozishni orzu qilib, juda ko'p ilmiy ma'lumotlar va hatto har xil rivoyatlar yig'ib yurardi!

Beruniy indamay bukrining orqasidan ergashdi. Ular torgina, pasqamgina, ko'rimsizgina do'konga kirishdi, undan tagiga bo'yra tashlangan hujranamo bir xonaga, xonadan sichqon hidi anqigan nimqorong'i yerto'laga tushishdi. Tokchasiga bittayu bitta sham qadalgan g'ira-shira yerto'la har xil katta-kichik sandiqlar, allanimalar solingan xum va xumchalar, quti va qutichalarga to'la edi.

Piri Bukriy yerto'laning eng qorong'i burchagiga o'tib, otning kallasiday qulf osilgan og'ir temir sandiqni ochdi, uning qopqog'ini ko'tarib, uzoq timirskilangach, toshbaqaday yum-yumaloq bir temir qutichani olib, Beruniyning oldiga keldi.

— Bu qutichadagi toshni kamina bag'dodlik bir savdogardan xarid qildim, mavlono. Katta pulga xarid qildim... Ammo... olishga oldimu hanuz ishtibohdamen!

Piri Bukriy shunday deb, qutichaning tagidagi tugmani bosdi. Bosishi bilan quticha darang-darang ovoz chiqarib, ochildi-yu, g'ira-shira yerto'la go'yo to'satdan o'nlaracha sham yonganday charaqlab ketdi. Qutichaning tagida... kaptarning tuxumidek keladigan va kamalak rangida nafis tovlangan ajib bir javohir yarqirab yotardi!..

Beruniy o'z ko'zlariga ishonmay qoldi. U nafis ranglarda jilolanib, nimqorong'i yerto'lani yoritib yuborgan bu nodir javohirni bir ko'rishdayoq tanisa ham, anchagacha o'z ko'zlariga ishonolmadi. Vo ajabo? Bu

---

<sup>1</sup> I s h t i b o h — shubha.

o'sha, bir mahallar Bag'dod xalifasi Xorun ar-Rashid xazinasida saqlangan, so'ng qayoqqadir yo'qolib, ko'p nizo va qatlu qirg'inlarga sabab bo'lgan, tarixiy kitoblarda ta'rif va tavsif qilingan mashhur javohir edi!..

Beruniy javohirni qutichadan asta olib, kaftiga qo'ydi. Yong'oqdekkina nodir javohir uning kaftida yana ham nafisroq tovlanib, go'yo yangi ranglar kasb etgandek, yarqirab ketdi.

«Yo tavba! Bu iblis bukri shohlar xazinasini bezab turguvchi bu nodir ziynatni qaydan oldi? Bundan chiqdi, bu makkor to'g'risida yurgan mudhish mishimshlar to'g'ri ekan-da?».

— Bu javohirning bahosi shundaykim, yarim G'aznani sotib olishga qudratingiz yetadi!

Piri Bukriy, go'yo Abu Rayhonning bu so'zidan qo'rqib ketganday, uning kaftidagi javohirni «shap» etib yulib oldi-da, shosha-pisha yumaloq qutichasiga yashirdi.

Beruniy indamay orqasiga burildi, biroq hujraga o'xshash o'rtancha xonaga chiqqanida Piri Bukriy uni quvib yetdi:

— Mavlono Abu Rayhon! Kamina sizga bir iltimosim bor!.. O'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz: faqir ko'chada qolgan bir gado emasmen. Qancha desangiz... xoh oltin, xoh javohir... qancha desangiz oling! Sizdan yolg'iz iltimosim bor!.. — Bukrining allaqanday ma'sum ko'm-ko'k ko'zlari telbaning ko'zlariday charaqlar, iyagidagi siyrak malla soqoli dir-dir titrar edi. — Birdan-bir iltimosim... anov joriyangizni, Malikul sharobdan olgan anov joriyangizni kaminaga in'om etsangiz, mavlono!..

Beruniy shartta burilib ketmoqchi edi, bukri og'ir hansirab uning qo'liga yopishdi:

— Mavlono! Istasangiz anov javohirni, bahosi yarim G'aznaga teng anov nodir javohirni oling!

Piri Bukriy telbalarcha harakat qilar, tirqirab oqqan ko'z yoshlari yuzini yuvib, siyrak mallarang soqoliga quyilardi.

— Faqirga rahm qiling, mavlono, rahm!

Yo tavba! Salkam qirq yil avval ham oralarida xuddi shunday bir gap bo'lib o'tgan edi. Hozir ham!

— Qo'lingni ol, piri Bukriy! Men quljallob emas menki, bir sho'rlikni senga oltinga sotsam! — Beruniy shunday deb, bukrining temir iskanjaday qattiq, yopishqoq qo'lidan qo'lini bazo'r tortib oldi-da, tashqariga otildi.

Taqdirning ajab savdosi: unda, Qiyotda, Rayhona-bonuga yopishgan edi bu iblis, endi Sadafbibiga!..

Beruniy xayol og'ushidan bazo'r qutulib, ro'parasida mung'ayib o'tirgan Sadafbibiga qaradi.

— To'g'ri so'zlading, bibim, ko'cha yumushlarini Sabhu qilsin...

Beruniyning so'zi og'zida qoldi. To'satdan tashqaridan gurs-gurs qadam tovushlari eshilib, xonaga Sabhu kirdi. U nimadandir hayajonlangan, boshidagi oq qalpoqchasi bir tomonga og'ib ketgan: qo'lidagi kapgiri dir-dir titrar edi.

— Ustod! Sizni saroydan bir beka so'roqlab keldi!

— Saroydan? Beka?

— Ha, soyabon aravada keldi. Yonida bir qancha suvorilari ham bor!

Ajab hol: kunduz saroydan chopar kelgandi. Chopar ertaga saroyda o'tadigan mashvaratda hoziru nozir bo'lishi to'g'risida amru farmon keltirgan edi. Endi esa...

Beruniy bir narsa deyishga ulgurmadi, eshik shitob bilan ochilib, xonaga bekaning o'zi kirib keldi.

## 2

Egnida... tiriklar va g'oliblar libosi: uzun qora ipak-ko'ylak va ko'ylak ustidan kiyilgan xipcha bel qora kimxob kamzul, yuzida zar sochilgan uzun qora durra, oyoqlarida uchlariga dur qadalgan bejirim qora kavush, xina qo'yilgan barmoqlarida yoqut ko'zli yirik oltin uzuk, beka poygakda to'xtab, nazokat bilan bosh egdi.

— Bevaqt, kelganim uchun ma'ruz tutasiz, mavlono!..

«Xatlibegim! Sultonning erka singlisi Xatlibegim!» — Beruniy shitob bilan qaddini rostladi, ovozi beixtiyor titrab:— Qadamlariga hasanot, begim! — dedi.— Kami-

nani kechirgaysiz, sababi xastalik, istiqbolingizga chiqolmadim.

— Tashakkur! — Xatlibegim asta yurib xontaxtaga yaqinlashdi-da, xonani nafis mushk-anbar bo'yiga to'ldirib, nazokat bilan ko'rpachaga tizza bukdi, bukarkan, keskin harakat bilan yuzidagi harir qora pardani ko'tarib, yelkasiga otdi.

Beruniy chekkada haykalday qotib turgan Sadafbibiga yuzlandi:

— Sen bora ber, bibim, Sabhuga qarashib yubor...

Sadafbibi hurkak kiyikday chopqillab chiqib ketdi, Xatlibegim eshik yopilguncha uning orqasidan qarab turdi, so'ng:

— Ayol zotini avf etasiz, mavlono, — dedi. — Bu sanam kim?

— Bu sanam... faqirning joriyasi, begim.

Xatlibegimning yupqa lablariga bilinar-bilinmas kulgu yugurdi:

— Ofarin! Joriya tanlashni bilar ekansiz, mavlono!

«O, ayol zoti, ayol zoti! Zaifa deb bejiz aytmaganlar!»

Beruniy ko'nglidagi g'alayonni bosish uchun mo'risimon qalpoqchasini to'g'rilab, boshini xam qildi. U ro'parasida o'tirgan bu ayol sultonning suyukli singlisi Xatlibegim ekaniga ham ishongisi kelar, ham ishongisi kelmas edi. Biroq bu o'sha, bundan o'n yil muqaddam Hindiston yo'lida, to'g'rirog'i, Sind viloyatidagi go'zal bir ko'l sohilida pinhona uchrashgan Xatlibegimning o'zginasi edi! Yo'q, o'zginasi emas, unda sulton haramiga rahnamolik qilguvchi bu shaddod, o'ktam ayol xiyla yosh, xiyla ko'hlik edi. O'n yil ichida o'zini ancha oldirib qo'yibdi. Chakka suyaklari turtib chiqqan yumaloq qoramtir yuzida, hatto upa aralash nozik bo'yoq surtilgan yonoqlarida bilinar-bilinmas ajin nishonalari ko'zga chalinadi, biroq surma tortilgan qiyg'och ko'zlarida, qattiq qisilgan yupqa lablarida o'sha shiddat, og'asi amiralmo'mininga xos o'sha sovuq bir o'ktamlilik bor. Yoki bu ifoda, qiyg'och ko'zlaridagi bu sovuq shu'la yasamami? Axir o'shanda, bundan o'n yil muqaddam, go'zal ko'l sohiliga tikilgan saropardada

o'tgan pinhoniyl kechada hozir sovuq chaqnagan bu ko'zlar tamom boshqacha porlagan emasmidi?..

Beruniy to'satdan toshqinday toshib kelgan g'alayonni bosish umidida shosha-pisha qo'lini chiniy ko'zaga cho'zdi. Bir zum uning ko'z oldiga qimmatbaho sheroziy gilamlar to'shalgan ipak saroparda keldi. Saropardaning to'rida, qat-qat shoyi tushakda betoqat to'lg'anib yotgan yarimyalang'och sanam nigohi oldida namoyon bo'ldi, uning issiq bo'salari, betoqat harakatlari esiga tushib, horg'in tanasidan o't chiqib ketdi. O'sha mahallarda saroy ahli orasida bu tantiq va shaddod bekaning nomi ibrat ma'nosida tilga olinar, go'yo u erkak yuzini ko'rmaslikka qasam ichib, go'shanishinlikni ixtiyor etgan, degan gaplar yurardi. Bu gaplar rostmi, yolg'onmi — buni yolg'iz ollo biladi va lekin bu o'ktam, erkatoy beka o'shanda, ko'l sohilidagi ko'kalamzor qirlarga tikilgan qorong'i saroparda ichida unga — yosh tilmoch Abu Rayhon Beruniyga unutilmas go'zal bir oqshom in'om etgan edi!..

Beruniy sharbat to'la piyolani ta'zim bilan bekaga uzatdi, uzatarkan, uning yupqa lablarida hamon o'sha bilinar-bilinmas kulgu alomatini ko'rdi. «Yo rab, u ham esladi!»

— Marhamat, bekam!

— Tashakkur! — Xatlibegim piyolani olish o'rniga qora kimxob kamzulining cho'ntagidan og'ir qahrabo tasbeh olib, bitta-bitta o'girishga tutindi. Beruniy ichida bir kulib qo'ydi: «Xayriyat, yoshlik chog'larini eslagani kelmapti, eslagani kelganida ne qilarding, sho'rlik Abu Rayhon?»

Xatlibegim qo'lidagi tasbehini xontaxtaga qo'yib, piyoladagi sharbatdan bir ho'pladi.

— Mavlonol Men sho'rlik sizni yo'qlab kelishdan murodim, xabaringiz bor, ul valine'mat davlatpanoh, — iloyo umri uzoq bo'lg'ay! — og'ir dardga chalinmish. Saroy to'la alloma, malikul kalom, davrug'i jahon hakimlar, biroq sho'rlik og'am o'z o'tida o'zi qovrilib yotmish! Dardiga davo, ko'ngliga orom berguvchi na bir habibi bor, na bir tabibi. — Xatlibegim harir durrasining

uchini ko'ziga bosib, piq-piq yig'lab yubordi. — Olampanohning dardiga davo qidirish o'rniga saroyda ig'vo, fisqi fasod! Inongan tog'lari Ali G'arib bilan Abul Hasanak bo'lsa martaba talashishdan boshqani bilmas. Davlatpanoh olamdan o'tsa, — iloyo bichgan kafanlari o'zlariga buyurg'ay! — taxtga kim o'ltiradi? Shundan boshqa tashvishlari yo'q ularning! To'ng'ich o'g'il amir Mas'ud qolib, kichik o'g'il, aqli noraso Muhammadni taxtga ko'tarmoq rejasini tuzadurlar!

«Hammasidan boxabar! Yer tagida ilon qimirlasa biladi bu xotin! Ammo... bu mash'um sir-asrorni aytishdan murodi ne? Bu ig'vo, bu fisqi fasod ishlarga daxlim ne mening?»

Xatlibegim to'satdan durrasining uchini jahl bilan yelkasiga otib, Beruniyga tik qaradi, surma tortilgan ko'zlari allaqanday sovuq chaqnab:

— Nahot bu dardning davosi bo'lmasa, mavlono? — deb so'radi. — Kecha saroyda nazm ahlining sultoni janob Unsuriy bir so'z aytmiş. Hindiston tomonda, qaysi bir nahr o'rtasidagi orolda «ne'mati ilohiy» degan g'aroyib bir daraxt o'sar emish. Bu daraxtning mevasini tanovul qilgan xastai notavon tanasidagi barcha dardlaridan forig' bo'lur, chol bo'lsa qirchillama yigit, kampir bo'lsa... yosh malakka aylanur emish. Janob Unsuriy bu so'zni eski kitoblarda o'z ko'zi bilan o'qigan emish. Siz o'sha yurtlarda bo'lgansiz, mavlono, ayting, maslahat bering, qaydan topsa bo'lur bu «ne'mati ilohiy»ni?

Beruniy Xatlibegimning iltijo bilan javdiragan g'amgin ko'zlaridan nigohini uzib, yerga qaradi, qarashi bilan Hindistonda shaharma-shahar darbadar kezib yurgan chog'larida kekxa kohinlardan eshitgan g'alati bir rivoyat esiga tushdi...

«Hindiston muzofotlarinnig birida dong'i olamga ketgan bir podsho bo'lgan emish. Uning go'zal bir to'tisi bo'lib, poshshoyi olam unga cheksiz mehr qo'yan emish. Kunlardan bir kun o'sha to'ti qafasda turib, poshshoyi olam bilan so'zlashar ekan, nogahon osmonda yana bir to'ti paydo bo'libdi-yu, ikki to'ti so'zlasha ketibdi. Ammo sal o'tmay qafas ichidagi to'ti betoqat

bo'lib qaltiray boshlabdi, so'ng yiqilib jon taslim qilibdi. Poshshoyi olam ko'p qayg'u va hasrat chekib, to'tining jasadini boqqa olib chiqib tashlabdi. To'ti esa qafasdan qutulgan hamon uchib, daraxt shoxiga borib qo'nibdi. Poshshoyi olam hayron bo'lib:

— Ey, qushlarning sarvari! — debdi. — Mendan ne yomonlik ko'rdingki, suhbatimdan qochasen?

To'ti shakarguftorlik qilib:

— Shohim, — debdi, — xizimating haqini unutmaymen. Ammo... men ham to'tilar poshshosi edim. Taqdir meni senga giriftor qilib, qafasingga solgandan buyon tobelarim mening firoqimda motam tutmishlar. Yoniga kelgan bu to'ti mening inimdir, inim aytdiki: «E, og'am, poshshoyi olamdan bir necha kunga ruxsat ol, yor birodarlaring yoniga borib, ul majruhlarni hijron azobidan qutqaz, so'ng yana qaytib kelib, valine'mating xizmatini qil». Men unga: «Poshshoyi olam so'zimga ko'nmaydi», dedim. Inim aytdiki: «Sen o'zingni o'likka sol, zero, o'lmayin qutulmaysen!» Alqissa, men shu tadbir bilan o'zimni xalos qildim! — To'ti shu so'zni aytib, inisi bilan birga uchib ketdi.

Poshshoyi olam kechayu kunduz yig'ida bo'ldi. Bu necha kundan so'ng uning visolidan umid uzib o'ltirgan edi, qarasa, o'sha to'ti qayta parvoz qilib keldi. Tumshug'ida bir daraxt niholchasi bor edi. Poshsho nihoyatda xushvaqt bo'lib dedi: «Ey, to'ti! Meni firoq balosiga tashlab ketgani qanday jur'at etding?»

To'ti aytdiki: «Bir qoshiq qonimdan keching, poshshoyi olam, zerokim, ko'p muddatdan beri xeshu aqrabolarimdan judo bo'lib, ko'nglim vayron edi. Bordim, ularning diydorini ko'rdim va mana, qaytib, dargohingizga keldim».

Poshshoyi olam to'tini ko'p e'zozladi. So'ng: «Bu olib kelganing qanday nihol?» — deb so'radi. To'ti aytdi: «Shohim, men sizdan ketib o'z makonimga borganimda do'stlardan hazratimga munosib tuhfa tayyorlashlarini iltimos qildim. Ulardan biri: «Men falon orolda bir daraxt ko'rganmen. Mevasining xosiyati shulki, agar qari yesa darhol yigit bo'lur, xastai notavon yesa, shu zamon

sihat topadur», dedi. Men: «Olamda mundan yaxshi tuhfa yo'qdir», deb mazkur daraxtdan bir niholcha olib, dargohingizga keltirdim».

Bu so'zdan mamnun bo'lgan poshshoyi olam bog'bonini chaqirib: «Bu mevasi navjuvonlik ato qilguvchi mo'jiza daraxt niholidur, uni yaxshiroq parvarish qil!» — dedi. Bog'bon niholni boqqa eltib o'tqazdi, mehr bilan parvarish qildi. Nihol tez fursatda kamolga yetib, bir necha yildan so'ng meva qildi. Ittifoqo, uning mevasidan yerga tushganini bir ilon og'ziga olib, zahar soldi. Bundan bexabar bo'lgan bog'bon mevani tovoqqa qo'yib, poshshoyi olamning oldiga keltirdi. Poshsho mevani yemoqchi bo'ldi. Uning bir vaziri bor edi, dedi: «Shohim, sizday poshshoyi olam uchun bunday narsalarni sinab ko'rmay tanovul qilmoq joiz emas!»

Alqissa bu mevani mulozimlaridan biriga yedirdilar. U odam mevani yegan zamon jon taslim qildi. Poshshoyi olam ajab holatda qolib, to'tiga dedi: «Ey, badbaxt! Sen menga dushmanlik azmida jonimga qasd qildingmi?»

To'ti harchand: «Shohim, bu ishni tekshirib haqiqat qilgil. Bu ishda bir sir-asror bor», demasin, poshsho uning so'ziga quloq solmadi. To'tini o'ldirdilar. Poshsho daraxtni ham yiqitib, o'tin qilishni buyurdi. Vazir aytdi: «Shohim, bunday mevai badhazm sizday poshshoyi olam xazinasida bo'lmog'i lozim. Dushmanni yo'qotmoq uchun bundan a'lo doru yo'q».

Ittifoqo, bog'bonning bir oshnasi bor edi. Qarilik yuki qomatini kamondek egib qo'ygan edi. U bog'bonni ko'rgani kelib, bog'ni sayr qilar edi. Bog'bon yo'q edi. Nogoh o'sha daraxt oldiga kelib qarasa, mevasi g'arq pishgan. Undan bir dona tanovul qilgan edi, darhol navjuvon yigit bo'ldi. Bog'bon kelib qarasa, bir yosh yigit xiyobonda yuribdi. Darg'azab bo'lib so'radi:

— Seni bu boqqa kim kirgizdi?

— E, birodar, men falon do'sting bo'lamen.

— Noma'qul gapni qo'y, u kekxa edi, sen qirchillama yigitsen!

— Ey, birodar! Bog'ingda bir turlik meva ko'rdim,



undan tanovul qildimu, shu sifatga kirdim, o'zim ham hayronmen.

Alqissa, bog'bon o'sha mevadan bir tovoq olib, o'z birodari bilan poshshoyi olam huzuriga ravona bo'ldi. Kelib bo'lgan voqeani arz qildi. Poshsho sinab ko'rib amin bo'ldiki, to'ti rost aytgan ekan. Shunda poshsho bog'bondan: «Sen oldingi mevani daraxtdan olibmiding yoki yerdan?» — deb so'radi Bog'bon yerdan olganini aytdi. Ma'lum bo'ldiki, unga ilon zahar solgan. Poshsho to'tini o'ldirganiga pushaymon chekib, butun umri qayg'u bilan o'tdi...»

«G'aroyib rivoyat! Johil hokimlarni sabr-toqat va adolatga chorlovchi ibratli rivoyat!»

Beruniy bu rivoyatni eshitgan zahotiy oq uni ko'p yillardan beri yig'ib yurgan afsonalar va rivoyatlar daftariga yozib qo'ygan, bir kun o'zining «Al-Osor al-Boqiya» degan tarixiy asariga kuritish orzusida edi. Lekin hozir... hozir bir hikoyat, har qanday xastaga sihat-keltiruvchi «ne'mati ilohiy» to'g'risidagi bu hangoma shunchaki bir cho'pchak ekanini, abadiylik orzusida ojiz banda yaratgan shunchaki bir rivoyat ekanini qanday aytadi? Yaxshi bo'lsin, yomon bo'lsin, bir mahallar unga bir necha totli daqiqa bag'ishlagan, hozir esa mudhish haqiqat oldida undan najot so'rab kelgan bu zaifaga ne deydi? Yuz amri issiq, uning ko'nglini qanday og'ritadi?

— Begim, — dedi Beruniy, ko'zini yerdan uzmay, — uning ming yillarki, bani bashar siz aytgan bu «ne'mati ilohiy»ni qidiradi, ming yillarki, uni topishni orzu qiladi. Ammo uni topmoq hech bir kimsaga nasib etgan emas, begim!

Beruniyning so'zini Xatlibegimning:

— Yo parvardigor! — degan faryodi bo'ldi. — Nahot hech bir najot bo'lmasa? Yetti iqlimni zabt etgan fotihi muzaffar, dong'i olamga ketgan poshshoyi olam bukun... jismida uqubat, ko'nglida tavahhum<sup>1</sup>, najotsiz to'lg'anib yotsa? Nahot suronli janglarda chek qo'yib, endi farog'at gulshaniga yetdim deganida... nogahon yopishgan bu

---

<sup>1</sup> T a v a h h u m — vahima.

dardi bedavo sabab... shami shabistoni so'lsa'. Bechora og'am. Endi uning bor umidi hazrat Ibn Sinoda!

— Hazrat Ibn Sino?

— Ha, — dedi Xatlibegim. — Mana, uch oydirki, davlatpanoh Ibn Sino hazratlariga elchi yo'llamish! Ming taassufkim, hanuz darak yo'q! Yana bir umidimiz siz bilan amir Mas'udda! Ul shahzodai valiahd Isfahonga yurish qilib, uni zabt etgandur. Biroq, nechundir undan ham darak yo'q.

«Ibn Sino!..»

Bu ikki so'z Abu Rayhonning diliga bamisoli iliq bir nur bo'lib quyildi-yu, ko'ngli yorishib ketdi. Yo rab? So'ngbor Gurganj sarhadida, ko'zlarida yosh, quchoqlashib vidolashganlariga necha yil bo'ldi? O'n sakkiz, yo'q, salkam o'n to'qqiz yil bo'libdi! O'n to'qqiz yildirki, bir-birining diydoriga zor! Gurganjda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida o'tgan qizg'in bahs-munozaralar, dilrabo mushoiralar, tongotar suhbatlar qayda qoldi? Faqat ko'ngilda! Ular xuddi tushdagi ro'yoday o'tdi-ketdi! Goho-goho keladigan uzuq-yuluq xabarlar, onda-sonda bo'ladigan yozishmalardan boshqa aloqa yo'q... Hatto yozgan kitoblarni o'qishga ham zor! Abu Rayhon uning dong'i olamga ketgan «Al-Qonun» asarining faqat bir jildini o'qishga muyassar bo'ldi, Ibn Sino esa uning «Hindiston»ini hali ko'rmadi ham!

— Ha, — dedi Beruniy hushiga kelib. — Ibn Sino hazratlari kelsa ko'p yaxshi bo'lur. Ul hakimi davroning bilmagan dorusi, davolamagan dardi yo'q.

Xatlibegim tasdiq ishorasida boshini irg'adi-da:

— Xabarim bor, — dedi qovog'ini uyib. — Ul takabbur hakim bir mahallar G'aznaga kelishdan bosh tortib, Jurjonga qochgan. Bilishimcha, siz ul allomai davron bilan ko'p muloqotda bo'lg'ansiz, mavlono. Baniyati shifo, yaxshi niyat qilib, hakim hazratlariga bir maktub yozib bersangiz. Tag'in bir chopar yo'llasak. Ul allomai davron G'azna saroyida xizmat qilishni tilamasa tilamas, biroq bir bandai ojiz dardga chalinganda uni davolamoq

---

<sup>1</sup> Sh a m i s h a b i s t o n — bu yerda umr shami ma'nosida.

hakim uchun ham farz, ham qarz emasmi, mavlono? — dedi Xatlibegim, lablari titrab. — Bechora og'am! Na ko'zida uyqu bor, na ko'nglida taskin, har oqshom saroyda soya yanglig' tanho kezib chiqadi!..

Xatlibegim, go'yo o'z gapidan o'zi qo'rqib ketgan-day, birdan hushiga kelib, yuziga qora durrasini tortdi. Xatti-harakatlarida boyagi shiddat, gap-so'zlarida boyagi qat'iyat zohir bo'lib, shitob bilan o'rnidan turdi.

— Bu sirni men sizga inonib aytdim, mavlono! — dedi u, chamasi, ortiqcha gapirganidan pushaymon bo'lib. — Bu so'zlarni tirik bir jon bilmasligi darkor! Oftobli olamga ulug' martabalar in'om etgan xudovandi karim, inshoollo, undan o'z mehri shafosatini darig' tutmagay! Maktubni yozib qo'ysangiz erta-buruskun odam yuboramen! Qo'zg'almang, mavlono, siz ham betob ekansiz, men o'z dardim bilan bo'lib, bilmabmen. Xayr, olloga toshirdim sizni! — Xatlibegim boshini baland ko'targanicha, viqor bilan yurib, hujradan chiqdi. Beruniy holsizlanib joyiga cho'zildi.

### 3

Haqiqatan ajab hol: kunduz farmoni oliy keltirgan choparlar! Oqshom esa... sulton bo'lmasa ham, o'ktamlikda sultondan qolishmaydigan bu o'ktam begimning pinhoni tashrifi!..

Beruniy uchlari jingalik, qalin mosh-guruch soqolini tutamlaganicha o'yg'a toldi. Tokchadagi shamlar shu'lasida uning bir-biriga tutashgan o'siq qoshlari, cho'zinchoq qoramtir yuzi, chambarak qalpoqchasi tagidan bo'rtib chiqqan do'ng peshonasi, uzun qiyg'ir burni — butun qiyofasi qandaydir juda shiddatli ko'rinar, zotan, dong'i olamga ketgan allomalardan ko'ra suronli janglarda toblangan lashkarboshiga o'xshab ketardi.

Mana, bir necha oydirki, dorus-saltana G'azna, nainki G'azna, butun mamlakat notinch. Amiral mo'minin atalmish sulton Mahmud G'aznaviy to'g'risidagi sovuq mishmishlarning cheki yo'q. Birov uni allaqanday davosiz dardga yo'liqqan desa, birov tavahhum kasaliga giriftor bo'lib, vasvas bo'lib qolgan deydi. Bu mishmish-

laruing qaysi biri chin, qaysi biri yolg'on — yolg'iz ollo-ga ayon. Faqat shunisi rostki, hamma tahlikada, ayniqsa, hakimlar va allomalarning ahvoli og'ir.

Sulton bundan ikki oy muqaddam Beruniyni chaqirtirib, zoyicha<sup>1</sup> tuzib berishni buyurgan edi. Beruniy o'shandayoq sultonni ko'rib, qo'rqib ketgandi. Azaldan novcha, bo'ydor odam, u xuddi ichini qurt yeb, qurib qolgan ulkan terakni eslatardi. Faqat ko'zlari... o'ymoq tagidagi simobday miltiragan qisiq ko'zlari yaralangan qushning ko'zlariday mungli edi. Sultonning ko'zlaridagi bu tizginsiz mung sabab, Beruniy, garchi umrida hech qachon ilmi nujum<sup>2</sup> bilan shug'ullanmasa ham, sul-tonning iltimosini qaytarmadi.

Saroydan qaytgach, munajjimlar yo'l-yo'rig'idan foydalanib, zoyicha tuzdi, hatto unga jinday tuzatishlar kiritib, sultonning ko'ngliga tasalli beruvchi so'zlar yozib yubordim. Kim bilsin, ehtimol, ertaga mashvarat vaqtida sulton uni shu xususda so'roqqa tutar, ehtimol, tuzgan zoyichasidan biror xato topib, intiqom olar!.. Hayhot, Beruniy umrida bir marta, unda ham bir xastai notavonning ko'ngli uchun o'z e'tiqodidan xiyol chekingan edi, mana endi bu gunohi uchun intiqom xavfi tug'ildi...

Esida bor, o'sha uchrashuv chog'ida Beruniyning so'zlaridan tasalli topgan sulton birdan chehrasi yorishib, undan o'z ishlarini, xususan, Hindiston to'g'risidagi asarini so'rab-surishtirgan edi.

Beruniy yaxshi bilar: sulton uning bu asaridan ko'p narsa kutar, bu kitob uning Hindistonda qilgan jangu jadallari to'g'risida, majusiy shohlar ustidan qozongan ulug' zafarlari haqida bitilgan zo'r qasida bo'lishiga ishonar edi. Beruniy esa... Beruniy buni o'ylasa uyquasi qochadi. Har safar o'n yildan beri yozayotgan bu kitobga nuqta qo'yishni o'ylaganda, negadir Sind muzofotida bo'lgan mudhish qirg'in esiga tushadi. Tushadi-yu, butun fikr-xayoli ag'dar-to'rtar bo'lib ketadi...

O'shanda, Ind daryosi sohilidagi ko'rkam qal'a ichidagi muhtasham ibodatxonaga o't qo'yish to'g'risida

<sup>1</sup> Z o y i c h a — goroskop.

<sup>2</sup> I l m i n u j u m — astrologiya.

amru farmon berilganida, Beruniy asir olingan hind lashkarboshilari bilan birga sulton oldida tiz cho'kib, undan shafqat so'ragan, mahbuslarning ko'z yoshi aralash qilgan iltijolarini tarjima qilayotganida esa, o'ziyam ko'z yoshini tiyolmagan edi! Lekin sulton shafqat qilmadi. Muazzam qal'aning to'rt tarafidan o't qo'yishni buyurdi. Qal'aga yashiringan ellik ming odam, barobar tiz cho'kib ibodat qilganicha yo'q, ibodat emas, yuraklarni tilka-pora qiluvchi mungli bir qo'shiqni aytganicha, alanga ichida kuyib kul bo'ldi... O'limga mahkum etilgan ellik ming mahbusning barobar tiz cho'kib aytgan va go'yo mungli qo'shiqday yangragan bu ibodati hanuz qulog'i ostida turipti, eslasa hanuz larzaga soladi uni, go'yo bu beshafqat qirg'in sulton Mahmud G'aznaviyning amri bilan emas, uning amri bilan bo'lganday, a'zoyi badani qaqshab ketadi. Uni Hindistonda qolishga da'vat etgan narsa ham mana shu gunohkorlik tuyg'usi bo'ldi. Hindlar yurtiga jindak xizmat qilib bo'lsa ham, ko'nglidagi bu g'uborini yuvish istagi bo'ldi.

Qo'lida aso, yelkasida xurjun, Abu Rayhon avval bir o'zi, keyinroq esa Lohur ko'chalaridan topib olgan yetimcha Sabhu bilan birga yarim Hindistonni aylanib chiqdi. Shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yayov yurib, avvalambor bu xalqning tilini, so'ng yozuvini, keyin ko'hna ibodatxonalari kabi ko'hna tarixini o'rgandi. Bozorlarda, ibodatxonalar bo'sag'asida o'tirib keksa vedachi kohinlardan qadim afsonalar va rivoyatlarni eshitdi, ilmi riyozat<sup>1</sup> va handasa haqidagi kitoblari va taqvimlari bilan tanishdi, «Mahabharata» va «Ramayana» kabi dostonlari, ertaklari, hikoyatlari, qo'shiqlari, hayitlari, ulug' ayyomlari, oy va yillar haqidagi tushunchalari, hatto ko'hna vayronalarga bitilgan ko'hna yozuvlarigacha yod oldi. So'nggi bir necha yilni esa rasadxonalarda o'tkazib, hind allomalarning falakiyot bobidagi tasavvurlarini, sayyoralar harakati to'g'risida tuzgan jadvallarini to'pladi... Mana endi, hindlar yurtida to'plagan bu ilmlarning hammasini jamlab, «Kitobu fi tahqiqi mo

---

<sup>1</sup>Ilm iriyoziyot — matematika.

lil hind min ma'qulatin maqbulatin fil aqli av marzulin», ya'niki, «Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi» degan ulkan asar yozdi. O'zicha esa uni qisqacha qilib «Hindiston» deb ataydi.

Beruniy suyukli asarining har bir bobini tugatganida shogirdi Sabhuga ko'chirishga beradi. Abu Rayhon uni topib olganida Sabhu yetti-sakkiz yashar bir norasida edi. Mana endi nihoyatda ziyrak bir mullavachcha bo'lib yetishdi. Qarigan chog'ida unga ham do'st, ham shogird, ham yordamchi bo'ldi... Bundan bir hafta muqaddam Beruniy unga «Hindiston»ning so'nggi bobini ko'chirishga bergan, o'zi esa, ko'p yillardan buyon yozishga jazm qilib yurgan «Al-Xazniy» degan ma'danlar to'g'risidagi kitobini bitishga tutingan edi. Lekin birdan xuruj qilib qolgan xastalik o'ylagan ishining beliga tepdi. Boz ustiga, bir-biridan sovuq bu mishmishlar, telba sultonning telba-teskari farmonlari!.. Kim bilsin, vasvas dardiga duchor bo'lgan bu qahri qattiq hokim erta mashvaratda ne deydi? Uni ne savdolar kutadi?

O'lim haq! Beruniy sultonning qahridan qo'rqmaydi. U faqat bir narsadan — niyat qilgan ishlarining chala qolishidan, yoza boshlagan asarlarining nihoyasiga yetmay qolishidan qo'rqadi, xolos!..

Beruniy, xontaxtadagi sopol ko'zachadan bir ho'plam sharbat quyib ichdi-da, yostig'i tagidan shaqildog'ini olib shaqillatdi. Darhol eshik ochilib. Sabhu kirdi. Uning katta-katta qop-qora ko'zlari bolalarcha bir samimiyat bilan porlab turardi.

— Kel, o'g'lim, o'tir!

Sabhu kavushini poygakka yechdi, yerga to'shalgan qalin jun namatni tovushsizgina odimlab, ustozining ro'parasiga kelib cho'kkaladi. Shundagina Beruniy shogirdining allaqanday ichki bir hayajon ichida to'lg'anayotganini sezib qoldi.

— Senga ne bo'ldi, Sabhu! Kim seni ranjitdi, bolam?

— Ranjitdi? Nechun? — Sabhu ko'z yoshi aralash jilmaydi, jilmayganda oppoq tishlari «yarq» etib, ozg'in

qoracha yuzi nur tushganday yorishib ketdi. — Men hozir... ustozimning kitobini ko'chirib bo'ldim, — dedi u va «qult» etib yutindi. — Buyuk kitob! Mening yurtimni butun olamga mashhur qilg'usidir bu kitob! Uni tezroq ko'chirmoq lozim, husnixat xattotlarga berib, ko'p nusxada ko'chirmoq darkor, ustod!

Beruniy indamay boshini xam qildi. U umrida juda ko'p do'stu birodar, juda ko'p shogird orttirdi, ularning yaxshilarini ham, yomonlarini ham, omad kulib boqqanda atrofida girgiton bo'lib, omad ketganida xoinlarcha yuz o'girganlarini ham — har xilini ko'rdi. Lekin Lohur ko'chasidan topib olgan bu yetimchaday sadoqatli shogirdni ko'rmadi... Bo'y-basti kelishgan, mo'ylovi endigina sabza ura boshlagan, tol chiviqday nozik bu yigitchada o'z elining hamma fazilatleri — muloyimligi, mehnatsevarligi, kamtarligi yuz foiz mujassam. Beruniy u bilan bir lahza suhbat qursa go'yo Hindistonga qaytib borganday, bosib o'tgan yo'llariyu kezgan shaharlarida qayta kezib yurganday bo'ladi, shunda yuragining bir burdasi o'sha ulug' makonda qolganini, bu makonning zahmatkash, mo'min-muloyim xalqi esa xuddi o'z eldoshlariday qadrdon bo'lib qolganini his etadi. Ajabo! Nechun goho bir el ikkinchi el bilan oshno bo'lmasdan turib yotsiraydi, faqat o'z tilim, o'z kuylarim va o'z qo'shiqlarim yaxshi deb o'ylaydi! O'ylaydi-yu, qatlu om qilib bo'lsa ham o'z urf-odatlarini boshqa yurtlarga yoymoqchi bo'ladi!.. Shehlar-ku mayli! Uning o'zi ham, oqu qorani tanigan Abu Rayhon Beruniyning o'zi ham bir mahallar shunday deb o'ylagan emasmidi? O'zi tug'ilib o'sgan Jayhun zaminidan yaxshi zamin, turkiy urf-odatlardan yaxshi urf-odatlar, turkiy qo'shiq va turkiy kuylardan yaxshi kuy va qo'shiq yo'q, deb o'ylamaganmidi?.. Xayriyatkim, birda Jurjon, birda Hindistonday buyuk va g'aroyib yurtlarni ko'rib ko'zi ochildi, har bir mamlakat, har bir el noyob va go'zal bir olam ekanini bildi, bilib «Hindiston»ni yozdi! Faqat... ming afsuski, bu asarini, o'n yil umri ketgan bu suyukli kitobini hozircha pinhona tutishga majbur.

— Rahmat, azizim, — dedi Beruniy chuqur xo'rsi-

nib.— Hozir bu kitobni xattotlarga topshirib, allomalarga tarqatib bo'lmaz, o'g'lim.

— Sabab, ustod?

— Sababi... kamina uni, avvalambor, sulton Mahmud G'aznaviyga tortiq qilmog'i lozim!

— Tortiq qiling! Ko'p in'omlar olasiz, ustod!

Beruniy shogirdining hayrat bilan porlagan ko'zlariga tikilib, miyig'ida bir kulib qo'ydi: «Yo'q, ilmda zukko bu yigit bu dunyo yumushlari bobida hanuz go'dak, ona suti og'zidan ketmagan ma'sum go'dak!»

— O, bolam! Ko'p in'omlar olmoq uchun bu kitobda ul amiralmo'ninga hamdu sanolar o'qimog'im, sening yurtingda qilgan qatlu qirg'inlarni madhlamog'im darkor emasmu, o'g'lim?

Sabhu gunoh ish ustida tutilgan yosh boladay qizarib:

— Buni o'ylamabmen, afv eting, ustod! — dedi boshini egib.

Beruniy ko'zachadagi sharbatdan yana bir qultum ichdi-da, ko'zini yumdi. Nazarida, miyasi cho'g'dek qizib, xayoli chuvalashib ketayotgandek edi, lekin shunday bo'lsa ham ko'nglining bir chetida yengib bo'lmaz bir istak — qalbining eng tupkarisida yotgan dardlarini aytmoq istagi tobora avj olib borardi. Kim bilsin, bu telba shohning telba mashvaratidan sog'salomat qaytadimi, yo'qmi? Vasvas dardiga yo'liqqan hokimdan har narsani kutmoq mumkin!

— Bolam, Sabhu, — dedi Beruniy, boshini yostiqdan ko'tarib. — Kamina ertangi mashvarat ne maqsadda chaqirilgan — buni aytolmaymen. Shu sababdan bir narsani senga izhor etmoqni lozim ko'ramen... Yodingda bo'lsin! Faqir bu kitobni... sen mehr bilan oqqa ko'chirgan bu asarimni yozishdan murodim — sening yurting... Hindiston oldidagi gunohlarimni yuvmoq edi!..

Sabhu butun vujudi bilan oldinga talpinib:

— Siz? Gunohkor? — deb so'radi. — So'zingizni anglamadim. Hindistonni toptagan siz emas, ustod, siz emas!..

— Ha, kamina hech bir kimsaning burnini qonatganim yo'q! — dedi Beruniy. Uning isitmadan bo'g'ilgan



ovozi to'satdan allaqanday ochilib, torgina chor burchak hujrani yangratib yubordi. — Qon to'ksa... amirlar mo'minin lashkarlari to'kdi! Shaharlarni talab, ibodatxonalarga o't qo'ydi! Hammasi to'g'ri! Va lekin... barl bir, sening yurtingda mening elim to'g'risida yomon taassurot qoldi, bolam. Yo'q, ul qatlu qirg'inlar uchun mening elim gunohkor emas! Aslo! Ammo sulton Mahmud yanglig' jahongirlar, lashkarboshilar, mustabid shohlarning aybi ham shundadurki, ular faqat o'z nomlari emas, balki o'z eli nomiga ham dog' tushirishga qodirdurlar! Biz kabi ma'rifatli zotlar esa loaqal ezgu niyat va yaxshi xizmatlarimiz bilan bo'lsa ham ma'lum ellar yuragidagi bu yomon asoratni yo'qotmog'imiz darkor. Faqir sening yurting haqida, Hindiston haqidagi kitobimni shu niyatda yozganmen! Bilib qo'y, bolam!

Beruniy buning hammasini allaqanday yonib, ilhom va hayajon bilan gapirdi-yu, birdan holsizlanib boshini yostiqaqa tashladi, tashlarkan, dehqonning kaftiday katta, qoramtir kaftlarida shogirdining titroq lablarini his qildi.

Beruniy ko'ngli «shig'» etib, shogirdining yelkasini asta siladi, xayolidan esa negadir: «Ko'zim tirigida bu sho'rlikni uylantirib qo'ymog'im lozim», degan fikr o'tdi. Ha, Sadafbibi ikkisini qovushtirib qo'ysa uzukning ko'ziga solingan yoqutday yarashmaydimi? Yarashadi! Bir farzandi ikki bo'ladi, u esa tinchib, bus-butun mutolaa va mushohada daryosiga sho'ng'iydi!

Beruniy ko'ngliga kelgan bu gapni shogirdiga aytmoqchi bo'ldi-yu, biroq bir zum o'ylanib qoldi. Qiziq: u endi, bu ikki yoshni qovushtirish fikri ko'ngliga kelgandagina sezdi: Sadafbibi, yurish-turishlaridan, so'zlari, hatto olgan nafasidan ham Jayhun nafasi ufurib turgan bu yoqimtoy qiz unga juda aziz bo'lib qolgan edi! Yo'q, yigitlik davridan o'tib, keksalik manziliga qadam qo'yganida ko'ngliga erk bermoq gunohi kapidur! Beruniy o'z tuyg'ularini jilovlay oladi. Yuragiga erk berish vaqtdan o'tgan! Albatta jilovlay oladi! Faqat... bu gapni qo'zg'ashdan oldin Sadafbibidan so'z olmoq, uning ko'nglini bilmoq lozim emasmu?

Beruniy shu qarorga keldi-da, Sabhudan Sadafbibini chaqirib berishni iltimos qildi.

Zum o'tmay, eshik tovushsizgina ochilib, Sadafbibi kirib keldi. Ma'yus quralay ko'zlarida allaqanday hadik, qiz harir ipak durrasi bilan yuzining bir tomonini xayol yashirganicha Beruniyning yoniga kelib o'tirdi... Beruniy yuragidagi hayajonni bosish uchun yana sharbat to'la ko'zaga qo'l cho'zdi.

— Bibim, kamina bir narsani niyat qilgan edim, shu niyatimni aytgani chaqirtirdim seni!

Sadafbibidan sado chiqmadi. U go'yo sovuq xabar eshitishdan qo'rqqanday rangi o'chib, o'tirgan joyida haykalday qotib qoldi.

— Bibim! — Sen qizim bo'lsang, Sabhu mening o'g'lim. Mana o'y yildirki. Sabhu faqirga xizmat qiladi. Ko'p olijanob, yaxshi yigit ul...

Beruniyning so'zi bo'g'zida qoldi. Sadafbibi to'satdan yuzini kaftlari bilan yashirib, piq-piq yig'lab yubordi.

— Senga ne bo'ldi? Nechun yig'laysen, bibim?

— Ustod! — dedi Sadafbibi yig'i aralash. — Men... men sho'rlikka rahm qiling! Diydoringizni ko'rmoq baxtidan judo qilmang meni, judo qilmang!

Sadafbibi shunday deb, boshini egdi-yu, yuzini Beruniyning kaftlariga yashirdi.

Beruniy qizning boshini silamoqchi bo'lib, qo'lini ko'tardi, biroq bunga kuchi yetmaganday qo'li «shilq» etib tushdi-yu, birdan holsizlanib o'zini yostiqqa tashladi.

## ***Uchinchi bob***

Amiralmo'minin sulton Mahmud ibn Sabuqtegin G'aznaviy ko'kragi tilla tasmalar bilan ziynatlangan jan-govar fil yelkasida, tepasiga ipak soyabon tutilgan oltin taxtda o'tiribdi. Fil atrofini arg'umoq o'ynatgan lashkar-boshilar, amirlar, vaziru vuzaro qurshab olgan.

Qalin chakalakzor bilan qoplangan qir etagidan keng o'zan o'tar, o'zanning u yuzidagi tepalikda atrofi baland

devor bilan qurshalgan muazzam qal'a ko'rinardi. Qal'a ichida esa, yuksak peshtoqlari falakka qadalgan, uchlik qubbalari sof tilla bilan naqshlangan g'aroyib bir ibodatxona yal-yal yonib, ko'zni olar, yo'q bu ibodatxona emas, arshi a'loga bo'y cho'zgan bir mo''jiza edi!

Sulton turgan qir ham, pastdagi soy ham, soyning u yuzidagi tepalik ham — hammayoq hisobsiz lashkarga to'lgan, u yoqdan-bu yoqqa ot surgan suvorilar hayqirig'i, qurol-yarog'larining sharaq-shurug'i, otlar dupuri, jangovar fillar na'rasi yeru ko'kni larzaga solgan. Lekin sultonning qonini jo'shtirgan bu yoqimli suronni hazin qo'shiqqa o'xshash bir ovoz buzib turar, bu — qal'adagi muhtasham ibodatxonaga berkinib, ibodat qilayotgan mahbuslar ovozi edi. Yurakni zir titratguvchi bu hazin qo'shiq tobora avjga chiqib, sultonning yuragiga g'uluv solmoqda edi...

Yo tavba! O'zanning bu yuzidagi ulkan shahar kecha bir hamla bilanoq taslim bo'lgan. Ana, qarorgoh tevaragidagi qalin chakalakzorlarda qo'llariga kishan urilgan hind sarbozlari to'p-to'p bo'lib yotibdi. Ularning qurol-yarog'lari tog'-tog' bo'lib uyulgan, jangovar fillari esa sulton qo'shinlariga xizmat qilmoqda, lekin bu muazzam qal'a hamon taslimdan bosh tortmoqda. Bu yurish chog'ida o'nlarcha shaharlarini bir hamla bilan zabt etgan sultonning muzaffar qo'shinlari esa bu qal'a ro'parasida ojizlik qilmoqda, ne-ne qal'a devorlariga yetgan narvonlar bu qal'aning osmono'par devorlariga yetmayapti, boshqa qal'alarni qog'ozday teshgan arrodalar bu qal'aning metin devorlariga «tishi» o'tmay turipti. Ulardan otilgan toshlar qal'a devorlariga tegib, bamisoli koptokday qopchiydi... Bu ne hol? Nahot ne-ne shaharlarni bir hamla bilan tiz cho'ktirgan sultoni muntasirning<sup>1</sup> muzaffar qo'shini bu qal'a uchun tag'in bir necha kun jang qilsa?

Sulton Mahmud erka vaziri Abul Hasanak tutgan tilla qadahni bir ko'tarishda sipqarib, yelkasi osha osmonga otdi. Oltin qadah havoda mo''jaz qushchaday

---

<sup>1</sup>Sultonimuntasir — yengilmas sulton.

yarqirab, yerga tushdi-yu, musaffo jaranglab, o'siq maysalar orasiga yumalab ketdi. Sulton novcha bo'y-bas-tini rostlab, hammasi bir xil qora arg'umoqlarini o'ynatib turgan lashkarboshilarga yuzlandi, qahrli qisiq ko'zlari o'tday chaqnab:

— Amir Nushtegin! — deb na'ra tortdi.

Surmarang sallasiga amirlik nishoni qadalgan yo'g'on, chorpahil lashkarboshi ostida yer depsingan qora arg'umog'ini niqtadi. O'rgatilgan arg'umoq qasir-qusur bostirib kelib, fil ro'parasida cho'kkaladi. Amir Nushtegin esa, egardan tushmay, qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

— Oftobi olamning xizmatiga muntazirmen!

— Muntazirsen! — dedi sulton achchiq kinoya bilan.

— Ikki kundirki, kichik bir qal'ani zabt etolmay ovorasen! Shahar taslim bo'lmasa ne qilmoq darkor, amir Nushtegin?

— O't qo'ymoq, oftobi olam!

— O't qo'ymoq bo'lsa nechun qo'ymaysen? Nechun?

«O't» so'zini eshitganda yaqindagi chakalakzorda g'uj bo'lib yotgan, hammasi bir xil sariq ko'ylak, bir xil sariq ipak shalvar kiygan qora tanli hind zodagonlari orasida g'ala-g'ovur ko'tarildi. So'ng chehrasidan allaqanday shuur yog'ilib turgan allomanamo bir kimsa davradan otilib chiqdi-da, oppoq boshini egib, bir nimalar deb iltijo qildi. Sulton atrofiga olazarak boqib:

— Bu majusiy ne deydi? Abu Rayhon qayda? — deb so'radi. Chakalakzor orasidagi havorang chodirdan ko'k banoras to'n kiyib, boshiga oq salla o'ragan, kaltagina uchburchak soqoli uzunchoq qoramtir yuziga yarashib tushgan novcha bir alloma chiqib, sipolik bilan bosh egdi.

— Yaqinroq kel, Abu Rayhon! Bu g'ayridinning so'zini eshit! Arzi ne — senga so'zlasin, sen bizga so'zla!

Beruniy ot tuyoqlari ostida ezilgan qalin maysalarni ship-ship bosib nuroniy cholning yoniga keldi, boshini osiltirganicha mo'ysafidning hayajonli, palapartish so'zlarini eshitdi.

— Bu bandai ojiz sizday amiral mo''minindan mehri shafqat tilaydi! Deydikim, bu qasrda ellik ming g'aribu g'urabo yig'ilgan!

— G'aribu g'urabo! — dedi sulton ovozi moma-qal-diroqday qaldirab. — G'aribu g'urabo bo'lsa... nechun lashkari muzaffarga qarshilik qiladi? Nechun taslim bo'lmaydi?

— Oftobi olam! Qal'a ahlining aksari ojizalar emish, begunoh norasidalar emish, chollar emish, davlatpanoh!

Beruniy so'zini tugatmagan ham ediki, boyagi nuroniy chol yuztuban yig'ilib, qo'llari bilan yer tirmashga kirishdi. Beruniy «yalt» etib yuqoriga, fil yelkasida oyoq kerib turgan sultonga qaradi, beixtiyor oldinga talpinib:

— Olampanoh! — deb xitob qildi. — Shafqat qiling, olampanoh!

Uning so'zlarini amiralmo'amininning:

— Amir Nushtegin! — betoqat hayqirig'i bosib ketdi. — Taslimdan bosh tortgan qasrga o't qo'ygil, o't!

Chakalakzorda bir-biriga suyanib, guj bo'lib o'tgan hind mahbuslari qoramtir qo'llarini ko'kka cho'zib, uvvos tortib yig'lashdi, lekin pastga qarab ot surgan Nushtegin navkarlarining g'olibona qiyqirg'i mahbuslar nolasini ko'mib yubordi. Zum o'tmay, to'rt tomondan ko'tarilgan alanganing qizg'ish tillari muazzam ibodatxonani ajdaho yanglig' yalab, oftobday charaqlagan oltin qubbalarini yamlab yutdi...

Alanganing mudhish tillari shunday shafqatsiz, olov ichida qolgan muazzam ibodatxonaning yarqirashi shunday... go'zal ediki, qir yonbag'ridagi behisob lashkar, go'yo bu manzaradan sehrlanganday qotib qoldi. Bu sovuq va ulug'vor go'zallikka faqat bir narsa xalaqit berar, u ham bo'lsa qal'a ichidan, yong'inda qolgan ibodatxona tuynuklaridan eshitalayotgan boyagi hazin kuy, yuraklarni timdalovchi boyagi mungli qo'shiq edi! Uzoqdan kelayotgan bu hazin qo'shiqqa endi qandaydir yomon, ko'ngilni ozdiruvchi qo'lansa hid ham qo'shilgan edi. Ajabo: qo'lansa hid kuchaygan sayin ko'ngilni vayron qiluvchi bu qo'shiq ham avjga chiqmoqda, go'yo yer qa'ridan kelayotgan o'liklar faryodiday tizginsiz mung bilan yangramoqda edi.

— Ey, Yaratgan egam! — dedi sulton yuragi uvi-shib.— Nahot bu majusiylar tiriklayin o'tda kuyib ketadi-ki, ammo tiz cho'kmaydi? Qo'shiq aytib tiriklayin yong'uvchi elni birinchi ko'rishim!

Sultonning xayolini Beruniyning g'amgin ovozi bo'ldi.

— Yo'q, bu qo'shiq emas, amiralmo'minin! Ellik ming begunoh bandalarning nolasi bu! Ular toat-ibodat ila parvardigori olamga nola qilmish! Gunohimiz ne, deb yig'lamish ular!

— Bas, Abu Rayhon! Takabburlik sabab, tag'in mubohasaga jazm etdingmi? Men seni ul mutakabbir hakim... Ibn Sinoni topib kel, deb yo'llagan edim. Sen bo'lsa uni topib kelmoq o'rniga... g'animlarim yonini olib, menday amaralmo'mininga so'z qaytarasen! — Sulton shunday deb, qilichini shartta qinidan sug'urdi-da, boshi uzra ko'tardi, biroq nogahon biqiniga qadalgan sanchiqdan ingrab yubordi-yu... uyg'onib ketdi.

Shiftdagi oltin qandillarga terilgan shamlarning ko'pchiligi so'nib qolgan, devorlariga sarg'ish ipak pardalar tutilgan katta tanobiy xona g'ira-shira, ham-mayoq suv quygandek jimjit edi.

Sulton go'yo o'z xobxonasida emas, sovuq go'rd a yotganday bo'lib, jismidan sovuq ter chiqib ketdi. Yuragi qoqsuyak ko'kragini yorib chiqqudek gurs-gurs urar, ko'z oldida hanuz alanga olgan muazzam ibodatxona turar, quloqlari ostida o't ichida qolgan ellik ming mahbusning mungli qo'shig'i yangrardi...

Yo tavba! Unga ne bo'ldi? Ne sababdan bunday ko'p yillar muqaddam o'tgan bu jangu jadal tushiga kirdi? Allaqachon yodidan ko'tarilgan bu voqealar nechun qayta yodiga tushdi? Nahot amiralmo'mininday fotihi muzaffar lashkariga bo'ysunishdan bosh tortganlarning ta'zirini bermoq gunoh bo'lsa?..

Sulton bezillab og'rigan biqinini silaganicha, uzoq xayolga toldi. Mana, bu dardibedavoga giriftor bo'lgani-ga bir necha oy bo'ldi, shundan beri ko'ngli notinch, joni behalovat, kechalari yomon tushlar ko'rib, vahima bosadi. Nechundir ezgu ishlari, qurgan qasrlari, yaratgan bog'lari, barpo qilgan machit va maqbalari emas, janglar

suroniyu otlar dupuri, kesilgan boshlar, dorda chayqalgan murdalar, yong'inda qolgan shaharlar yodiga tushadi. Miyasida ilgari hech qachon o'ylamagan yomon o'ylar charx uradi...

Yo rab! Ul kimsan sulton Mahmud hindlar yurtiga o'n yetti marotaba yurish qilib, bunday vahshiylikka yo'l qo'ymagan edi. Rost, o'rmonga o't ketsa ho'li-quruq barobar yonadur, deganlaridek, yurishlar talofatsiz bo'lmag'on, lekin bunday qatlu qirg'inlar... Yo'q, bunday qirg'inlarga yo'l qo'ymag'on erdi sulton Mahmud. Bas! Shundoq erkan, qarigan chog'ida qaydan keldi bul mudhish tushlar? Qaysi gunohlarim uchun bul vahima, bul qorong'u tushlar?

Uning yurishlarida yo'ldosh bo'lg'on Abu Rayhon Beruniy qayda? Bugun ham, tongla mahsharda ham ul aytsin bor haqiqatni!

Ha, buning hammasiga mana shu dard, uch-to'rt oydan beri yopishib olgan mana shu davosiz dard sabab. Rost, so'nggi kunlarda Chin' va Hind mamlakatlaridan keltirilgan ikki hakimning qilgan muolajasi yoqib, biqinidagi og'riq xiyol bosilgan, har oqshom yuragini chulg'ab olguvchi sovuq tavahhum sal ko'tarilgan edi. Kecha hatto sodiq vaziri Abul Hasanakka aytib, saroy mutriblarini chaqirtirgan va ozgina ko'ngilxushlik ham qilgan edi. Bazmdan keyin esa erkato'y vaziri Abul Hasanak yoshlik paytlarini eslab, sultonning yuragini qitiqlovchi bir gapni qo'zg'ab qoldi.

Go'yo Buxoro hokimi Aliteginning suyuqli kenja xotini sultonning visolini ko'rish ishqida yonib, tunu kun motamda emish!

Sulton Aliteginning bu kenja xotinini bundan uch to'rt yil muqaddam, Buxoroga yurish qilganida asir tushirib olib ketgan, biroq o'zini ko'rmagan, ko'rishga hushi ham yo'q, uni tutqunda saqlashdan maqsad esa — betavfiq Aliteginni cho'g'day qovurish edi, xolos. Lekin kechasi Abul Hasanak sultonning ishqida yongan bu xotinni shunday ta'rifu tavsif qildiki, sulton ham noga-

---

'Ch i n — Xitoy.

hon qitig'i qo'zib, avval may buyurdi, so'ng, ishq o'tida yongan malakni ko'rish istagini bildirdi.

Osmon malikasi qasrining eng xilvat burchagida sultonning maxfiy go'shasi bo'lar, go'sha devorlari «Alfiya-shalfiya»<sup>1</sup> dostonidan ko'chirilgan hayosiz suratlar, yalang'och ayol va erkak sevgisini tasvirlovchi rangdor rasmlar va hind poshsholari qasrlaridan olib chiqilgan yalang'och sanamlarning oltin haykalchalari bilan bezatilgan edi. Odatda, haram bekalari in'omga kelgan yosh ma'sumalarni hammomga solishib, pardo-andozlarini joyiga qo'ygach, shu go'shaga olib kirishar, bu hayosiz suratlar yosh go'zallarda shahvoniy hirs uyg'otib, ularni sultonning zinosiga «shay qilib» qo'yardi. Rost, so'nggi yillarda, payg'ambar yoshidan o'tib, taqvodorlikni ixtiyor etgan sulton maxfiy go'shani taqa-taq berkitgan edi. Biroq, kecha uning kutilmagan istagidan quvonib ketgan haram bekalari maxfiy go'shani o'zlaricha ochtirib, Buxoro malagini shu yerga olib kelishibdi.

Qisqasi, sulton yelkasida yengil banoras, to'n, beliga oltin kamar, beholgina odimlab, maxfiy go'shaga kirganida... Buxoro sanami, oppoq durkkun tanasini hayosizlarcha ochib, qat-qat ipak to'shak ustida chalqancha tushib yotardi. Uning ko'zlari yumuq, harir guldor ro'moli orasidan toshib chiqqan mayin qo'ng'ir sochlari yerdagi qirmizi gilamda betartib sochilgan, o'zi esa, xuddi otash ichida qovurilayotganday to'lg'anar edi.

Sulton ostonani hatlab o'tishi bilan sanam sapchib turdi, gilamga tiz cho'kib, uning oyoqlarini quchdi-da, tizzalarini, sonlarini silashga tutindi. Sulton ham suyulgan qoni birdan ko'pirib, sanam tomon egildi. Biroq xuddi shu payt, Buxoro malagingning cho'g'day issiq tanasiga qo'li tekkan payt, so'nggi kunlarda tinchib qolgan qornidagi «tipratikon» go'yo to'satdan «uyg'onib» ketdi-yu, og'riqning zo'ridan bo'kirib yubordi.

Sultonning na'rasini eshitib, avval Abul Hasanak, uning ketidan ranglari quv o'chgan haram bekalari yugurib kirishdi...

---

<sup>1</sup>«Alfiya shalfiya» — Sharqning mashhur erotik dostoni.



Mana, shundan beri to'lg'anib yotibdi, yolg'iz og'riqdan emas, notinch o'ylardan, ko'rgan tushlaridan, yuragini chulg'ab olgan sovuq vahima va adolatsizlik tuyg'usidan to'lg'anib yotibdi.

Yo parvardigori olam! Osiy bandangni o'zing kechirgaysen! Va lekin... bu neko'rgilik ekankim, ojiz bandang sulton Mahmud, haq va hidoyat yo'lida qirq yil suron solib, mashriqdan mag'ribgacha neki majusiylar bor, barchasini qatli om qilsa, poyqadami yetgan el borki, hamma yerda osoyishtalik o'rtansa, bu yo'lda unga qirq yil zafar ustiga zafar keltirsangu endi, rohat-farog'atda kun kechirmoq mavridi kelganda, uni bu bedavo dardga mutbalo qilsang? Hayhot! Agar bu dard chindan ham bedavo bo'lsa, unda amiralmushmin atalmish gunohkor bandangning qirq yillik toatu ibodatidan ne foyda? Nahot bu butkul ro'yi zaminni zabt etib, behisob boyliklar orttirganida, o'z dorussaltanati G'aznai munavvarani jahonda eng ko'rkam shaharga aylantirib, unda o'nlab maschitlar go'zallikda benazir jannatmonand bog'lar yaratganida, Osmon malikasi kabi qasrlar qurib, ularni hech bir shoh ko'rmagan zebu ziynatlar bilan bezatganida... nahot oxir-pirovardida topgani bu bedavo dard bo'lsa? U o'z haramiga Chin va Misr, Hindiston va Rumdan husnda yagona huriliqolarni yig'dirsa, raqsda tovusdek tovlanguvchi go'zal raqqosalar, bulbul yanglig' xushovoz xonanda va sozandalar, nomi olamga ketgan malikul kalom va vohidi zamon allomalarni to'plasa!.. Bu ne'matlarning hammasini o'zing in'om etsangu tag'in o'zing hammasidan benasib qilsang?

Yo'q, noumid shayton! Kecha nazm ahlining sultoni saroy shoiri Unsuriy yaxshi xabar topib keldi. Bu xabarni u majusiylar tilida bilgan eski bir risolada o'qigan emish. Mashriq mamlakatlaridan birida, hududsiz ummonlar orasidagi mo'jiz bir oralda, «ne'mati ilohiy» atalmish mo'jiza bir daraxt o'sar emish. Kimki bu daraxtning mevasini iste'mol qilsa, hamma dardlardan forlg' bo'lib, chol bo'lsa navjuvon yigitga, kampir bo'lsa bokira qizga aylanar emish...

Risoladagi so'z chinmi, yolg'onmi? Bu yolg'iz olloga

ayon. Ammo... chin bo'lmog'i darkor! Zerokim... nahot butkul ro'yi zaminni zir titratgan sulton Mahmud yanglig' fotihi muntasir... nogahon yopishgan bir dard sabab, Afshon shol dahasidagi g'aribu g'urabolar yanglig' o'lib keta bersa? Yo'q, bunga inonib bo'lmas! Amiralmo'minunday shohlarni yaratib, ulami «as salotin zulallohu fil arz», ya'niki, «shohlar mening yerdagi soyamdur», degan ul sarvari koinot, ular uchun Unsuriy aytgan ne'mati ilohiy kabi mo'jiza ne'matlar ham yaratmog'i darkor! Faqat bu ne'mat o'sgan makon qayda? Shuni bilmoq va topmoq darkor, xolos!

Sulton risolani eshitib, darhol Chin va Hind tabiblarini chaqirtirdi. Lekin ulardan ko'ngil to'ladigan bir javob ololmadi. Bu yanglig' rivoyatlarni ular ham eshitganlarini, demakkim, bunday mo'jiza daraxt borligiga imonlari komil ekanini bayon qilishdi, ammo ul ne'mati ilohiy o'sgan makon qayda? Bu jumboqqa javob berishga o'zlik qilishdi. Sulton, avval darg'azab bo'ldi, keyin, xiyol o'ylab ko'rib, barcha allomalarni ertalabki mashvaratga chaqirtirdi. Chaqirilgan allomalar orasida hozirgina tushiga kirgan Abu Rayhon Bemniy ham bor. Kim bilsin, Unsuriy aytgan ne'mati ilohiy qayda o'sadi, balki u bilar. Axir u ko'p yillar hindlar yurtida turgan, shahar-ma-shahar kezgan, ularning hamma ilmlarini o'rgangan, hatto tillarini o'rganib, qadimiy kitoblarigacha mutolaa qilgan... Shoyad ul ne'mati ilohiy to'g'risida shu eski kitoblarda aniq bir narsa zikr qilingan bo'lsa! Har qalay, hech kim bilmasa ham, hakimi davron atalmish anov takabbur hakim... hazrat Ibn Sino bilmog'i darkor! Ne chora? Mana, uch oydirki, sultonning ikki ko'zi Xuroson yo'lida, ammo yuborgan eng sodiq mushriflardan<sup>1</sup> hanuz darak yo'q. Birov, ul hakimi davron yo'lga chiqqan desa birov, G'aznaga kelishni istamay boshini olib gochgan, deydi...

Attang, bundan uch oy avval, sulton ul butavfiq hakimga eng ishonchli nadimi, ariz<sup>2</sup> Abulvafo Sariqni

---

<sup>1</sup> M u s h r i f — elchi, maxsus davlat nazoratchisi.

<sup>2</sup> A r i z — harbiy devon sohibi, vazir.

yuborarkan, bu ishni hammadan, hatto Xurosonga yurish qilib, shu kunlarda Isfahonda lashkar tortib turgan o'g'li amir Mas'uddan ham sir saqlashni qilgan edi. Kim bilsin, ehtimol, elchilarni Hamadon hokimi Alouddav-laga emas, hozir Isfahonda turgan shahzoda Mas'udga yo'llaganida... Yo'q... sulton unga, o'z pushtikamaridan bo'lgan zurriyotiga inonmaydi. Chunki, biladi: shahzoda Mas'ud, o'zi Isfahonda bo'lsa ham, ikki qulog'i G'azna-da, padari buzrukvorining o'limi to'g'risidagi xabarni kutib yotibdi! Bu bemehr zurriyoti hazrat Ibn Sinoni bu yo'ldan qaytarsa qaytaradiki, xasta padariga yubormaydi, yo'q, zinhor yubormaydi!

O'g'lini eslashi bilan sultonning ko'kragida alam aralash isyonkor bir tuyg'u «lov» yondi-yu, qoqsuyak qo'llarini gilamga tirab, asta o'rnidan turdi.

— Astag'firullo, astag'firullo!.. — Sulton, qornidagi «tipratikon»ni uyg'otib yuborishdan qo'rqib, ko'zlarini yumganicha bir nafas qimir etmay yotdi, so'ng, tokchadagi shamlardan birini olib, yo'lakka chiqdi.

Shiftdagi billur qandillarda milt-milt yongan bittayarimta sham shu'lasida hududsiz yo'lak bo'm-bo'sh va allaqanday sirli tuyuldi. Yo'lakning oxiri ko'rinmas, ikki tomondagi tilla tasmalar bilan qoplanib, dur va zabarjad qadalgan behisob eshiklarning hammasi berk, tiq etgan tovush eshitilmas edi. Vo darig'! Saroy ahli qayda? Uning eng inongan nadimlari, vaziru vuzarosi, sadoqati zohir lashkarboshlari qayga gumdon bo'ldi? Bosh vaziri Ali G'arib, suyukli nadimi Abul Hasanak nechun ko'rinmaydi? U, kimsan amiralmo'minin, bedavo bir dardga muhtalo bo'lib, o'z o'tida o'zi qovurilib yotsa-yu, uning saxovati ila yuksak martabalarga erishgan bu vaziru vuzaro, uning inongan tog'lari bo'lmish bu amiru umaro osoyishta uyquda yotsa, yoxud yosh kanizlari bilan o'z haramlarida o'ynashib, kayfu safo qurib o'tirishsa? Yo'q! Kayfu safo qurib o'tirishibdimi ul iblislar yoxud biror xilvatga yashirinib olib, uni toju taxtdan mosuvo qilmoq rejalarini tuzib yotishibdimi? Tirikligida unga kafan bichib, biror go'shada sultonga choh qazmoqdami bu betavfiqlar?

Amiralmoʻminining azaldan bir odati bor — yiroqdan boʻlsa ham xatar shabadasini sezganda gʻazabi sherday joʻshib, vujudida sher kuchi uygʻonadi. Bu safar ham shunday boʻldi-yu, bir qoʻlida fil tishidan zeb berilgan argʻuvoniy aso, bir qoʻlida dir-dir titragan sham, nimqorongʻi yoʻlak boʻylab yurib ketdi. U bir necha qadam bosgach, asosi bilan oʻng tomonidagi eshikni turtib ochdi. Xona zim-ziyo edi. Undan qandaydir sovuq bir nafas kelganday, goʻshaning eng tupkarisida, zulmat ichida allaqanday bir narsa gʻimirlaganday tuyuldi-yu, sulton, yuragi «shuv» etib, orqaga tisarildi. Shu-shu, boshqa eshiklarni ochishga yuragi dov bermay, besh-oʻn qadam bosdi. Lekin oʻng qoʻldagi dur va sadaf terilgan ikki tavaqali zalvarli eshikni koʻrganida beixtiyor toʻxtadi va bir zum ikkilanib turgach, uni asosi bilan asta turtdi. Bu — mashvaratxona edi!

Devorlari oq marmar bilan qoplangan oʻrdaday keng mashvaratxonaning shiftidagi billur qandilda bir necha sham yonar, bu shamlar shuʻlasida toʻrdagi suyachiq-lariga inju qadalgan oltin taxt ajib jilo sochib yarqirab turardi... Qubbasimon lojuvard shifti sof qizil tilla bilan ziynatlangan bu xonada eng muhim mashvaratlar oʻtar, davlat ahamiyatiga molik masalalar hal qilinardi. Ertaga boʻladigan allomalar anjumani ham shu yerda oʻtmogʻi lozim.

Sulton yuragi allanechuk boʻlib, ichkariga kirdi. Jim-jit. Tiq etgan tovush yoʻq. Ana, toʻrt tomondagi mehrob-simon joylarda zabt etilgan yurtlarning koʻk, sariq, oq tugʻlari turipti! Magʻlub tugʻlar! Magʻlub lashkarboshilarning oltin va kumush dubulgʻalari, tillodan jilo berilgan sovut va qalqonlari osib qoʻyilgan. Ularning yonida bandlariga laʼl va zabarjad qadalgan egri qilichlar, oʻq terilgan charm sadoqlar, suyak sopli xanjarlar, uzun-qisqa tigʻlar... bu qurollar, bu sovgʻalarning har biri bir doston! Uning, sulton Mahmud Gʻaznaviyning behisob yurishlari, suronli safarlaridan hikoya qiluvchi bebaho dostonlar... Sulton bu oʻljalarning qaysi birini qoʻliga olsa lop etib oʻsha muzaffar jang koʻz oldiga keladi, zabun boʻlgan ne-ne lashkarboshilar, man-man degan

amirlar, kalondimog' hokimlar, hatto shahanshohlar esiga tushadi. Butkul ro'yi zamindan, hatto Chin va Rumdan kelgan elchilar bu bebaho o'lja, rang-barang tovlangan bu mag'lub tug'larni ko'rganda damlari ichiga tushib ketadi. Mana, sof tilladan yasalib, hoshiyalariga yoqut, la'l va javohir qadalgan ulkan qalqon. Uning yonida nozik oltin halqalardan yasalgan katta sovut... Kashmir poshshosidan olingan sovg'a!.. Esida bor: haramida mingdan ortiq kanizi bo'lgan bu alp qomat, kalondimog' shoh maydonga quturgan jangovar fil minib chiqqan edi. U esa quturgan fildan tap tortmay, qora qashqa arg'umog'ini o'ynatib, maydonga mardonavor kirib borgandi. Na quturgan filning mudhish na'rasi qulog'iga kirgan, na vahimali vajohati ko'ziga ko'ringan edi o'shanda! Sulton, qo'rquvdan osmonga sapchigan qora arg'umog'ini achchiq qamchilaganicha, jangovar fil ustiga bostirib borgan, borganu oyoqlarini o'zangiga tirab, bir zarb bilan kalondimog' shohni fil yelkasidan ururib yuborgandi o'shanda!

Ha, sulton Mahmud shunday mard, shunday tanti edi! U hech qachon pistirmada turib jang qilmagan, eng shafqatsiz qirg'inlarda ham o'zini lashkar panasiga olmagan! U mashriqdan mag'ribga cho'zilgan bu hududsiz saltanatini o'z salohiyati, kuch-qudrati va sher yuragi bilan orttirgan... Hayhot! Bu cheksiz davlat, bu shonshuhurat, bu hisobsiz xazina, «amiralmo''minin» degan bu ulug' martabalardan ne foydaki, agar qarigan chog'ida bu ayanchli ahvolga tushib qolsa? Dardiga davo topolmay, kechalari to'lg'anib chiqsa? Uning amiral-musliminning harom tukiga arzimaydigan Ibn Sino atalmish bir tabibni yo'qlasa-yu, uch oydan beri ikki ko'zi to'rt, uning yo'liga tikilab yotsa? Uning saxovati va tuznamagi bilan odam bo'lgan muqarriblari esa boshiga mushkul tushgan bu og'ir onlarda ahvoling ne deb so'ramasa? Bil'aks, pana-panada ig'vo va fisqu fasod bilan band bo'lsa!..

Sulton, to'satdan ko'z oldi qorong'ilashib, qo'lidagi arg'uvoniy asoni qulochkashlab osmonga otdi. Fil suyagidan jilo berilgan og'ir aso oltin taxt tepasidan uchib

o'tib, to'rdagi qurol-aslahalar ustiga borib tushdi. Joyidan ko'chgan sovut va qalqonlar bir-biriga tegib, o'rday keng mashvaratxonani daranglatib yubordi. Qo'ng'iroqday tiniq bu musaffo ovoz mashvaratxonannig qubbasimon lojuvard shiftida aks sado berib, uzoq yan-gradi-yu, asta tindi. Tingan zahoti yo'lakning ikki yonidagi behi-sob eshiklar sharaq-shuruq qilib ochildi, yo'lakda vahimali shivir-shivirlaru, tap-tap oyoq tovushlari eshiltildi. So'ng, rangi quv o'chgan, qizil banoras to'ni ostidan oppoq lozimlari ko'rinib turgan, xushqad, xushsurat vazir Abul Hasanak ko'rindi, uning ketidan bosh vazir Ali G'aribning qip-qizil yumaloq yuzi bir zum ko'zga chalindi-da, yana g'oyib bo'ldi.

Abul Hasanak poygakka tiz cho'kib, yer o'pdi.

— Oftobi olam!..

— Ofobi olam!.. — dedi sulton, lablari asabiy titrab. — Ajalimdan besh kun burun menga kafan bichib, ig'vo yo'liga o'tdingmi, battol?

— Valine'mat!

— O'tmagan bo'lsang... qayga gumdon bo'lding? Ul meshqorin Ali G'arib qayda? Nechun inongan mushriflarimdan hanuz darak yo'q? Qachon keladi ul betavfiq Ibn Sino?

— Keladur, pushti panoh!.. Yaqin kunlarda yetib kelmog'i darkor!

— Shu hafta yetib kelmasa... dorga tortamen! Barchangni dorga tortamen. Tuzimni ichib, tuzlig'imga tupurgan nobakorlar! Uqdingmi, murtad? Shu hafta!..

— Uqdim, poshshoyi olam!

— Uqsang, chaqir allomalarni! Mashvaratga chaqir darhol!

### ***To'rtinchi bob***

Beruniy ustiga yangi ko'k baxmal to'n kiyib, boshiga uchli olacha taqiya ustidan simobiy sallasini o'rab, shogirdi yordamida otga minganida oftob endi chiqqan edi. Kechasi shivalab o'tgan yomg'irdan keyin havo

musaffo, ariq bo'ylaridagi giyohlar, paxsa devor va hatto uylarning tomlarini qoplagan maysalar yuvib qo'yilganday yam-yashil, tiniq.

Tundagi isitma pasaygan bo'lsa ham, Beruniy o'zini hamon noxush sezardi. U ko'ragini to'ldirib-to'ldirib nafas oldi-da, otini asta yo'rtirib, shaharni ikkiga bo'lgan Afshona soy sohiliga chiqib oldi. Soyning o'ng yuzidagi keng sayhonlikni beqiyos, behudud Bog'i Firuz egallagan. Tungi yomg'irdan so'ng bog' ham allaqanday yashnab ketgan, har joy-har joyda to'p-to'p bo'lib gullagan bodom va shaftolilar endigina kurtak chiqara boshlagan o'rik, olma, nok va behilar orasida xuddi oq, qizil, nimpushti liboslar yopingan go'zal malaklarni eslatadi. Hududsiz bog'ning mashriq tomonida oppoq marmar qasr osmonga bo'y cho'zgan. Nimasi bilandir ulkan oq qushga o'xshab ketadigan bu ko'rkam qasrning nomi o'ziga monand — Osmon malikasi! Osmon malikasining Quyirog'ida Ko'shki davlat saroyining tillakori gumbazlari yarqiraydi, undan nariroqda esa lashkar devoni va boshqa ma'muriy binolar saf tortgan, lekin ular Bog'i Firuzdan quyida, soyning u yuzida.

Bu yerdan, sohil bo'yidan pastdagi shahar kaftday ko'rinadi. Soy bo'yini bora-borguncha yam-yashil tutash bog'lar egallagan. Bu bog'lar ichida oq, qizg'ish nafis havorang marmardan qurilgan ko'rkam binolar, ko'shklar, kichik-kichik saroylar ko'zga chalinadi. Bu yerda amirlar, lashkarboshilar, devon beklari, boy tijorat ahli istiqomat qiladi. Undan yiroqroqda karvon-saroylar, bozorlar, timli rastalar, hammom gumbazlari ko'rinadi, ulardan avloroqda esa, bir-biriga tutashib ketgan kulba va kulbachalar ko'zga chalinardi. Qandaydir betartib qurilgan bu kulbai vayronalar, do'kon va do'konchalar Beruniy kelayotgan daryo sohilidan, xuddi «gardkam» deb sohib yuborilgan oshiqqlarga o'xshaydi.

Uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketgan bu beqiyos shaharning hamma daha, hamma burchaklarida behisob machitlar qad ko'targan, ularning rang-barang koshinlar bilan bezatilgan yuksak gumbazlari, tillakori peshtoqlari

oftobda ajib tovlanib, tog'lar bilan qurshalgan G'aznai munavvaraga o'zgacha bir zeb berib turibdi.

Oldinda ikki qirg'oqni tutashtirgan ulkan ko'prik ko'rindi. Ko'prik ro'parasida uzundan-uzoq otxona binosi bo'lib, bino oldida hammasi birday qizil chakmon va qizil etik kiygan yosh g'ulomlar saf tortgan, ular har tomondan oqib kelayotgan amirlar, a'yon va boyonlarni otdan tushirib, tavoze bilan xizmat qilishmoqda.

Beruniy ko'prikka yaqinlashib qolganida, o'ng qo'ldagi bog' ko'chadan xachir qo'shilgan ikki g'ildirakli bir arava chiqdi. Aravada eski kulohini boshiga bostirib kiygan bir kimsa sekin xirgoyi qilib kelardi. Ajabo: bu kulohli darvesh u yoqda tursin, uncha-muncha asilzodalar ham, yurolmaydigan bu joylarda pachaq arava nechuk adashib yuripti?

— E, e! — Beruniy arava egasini tanib, otining jilovini tortdi. — E-ha, G'azna faqirlarining sultoni Malikul sharob hazratlari! Qaysi shamol uchirdi janoblarini?

Malikul sharob aravasini to'xtatdi, rangini bilib bo'lmaydigan patak soqolini silab, g'alati ishshaydi:

— O'zlaridan so'rasak, azizim? Faqir kulbamizga nechun qadam ranjida qilmay qo'ydilar desak, eski qadrdonni tark etib, yangisini topibdilar-da, mavlonai zamon!— U ko'zini qisib, saroy tomonga ishora qildi.— Yangi do'st — sulton Mahmud muborak bo'lsin, mavlono!

Beruniy beixtiyor kulib yubordi.

— Malikul sharob atalmish sizday g'ariblar sultonini unutib bo'lurmu? Gulgun sharbatxonangizga tashrif buyurmagan bo'lsak, sababi xastalik, azizim!

— Xasta bo'lsalar... davosi bir qultum may!

— Ofarin! Jannatiy sharobingdan jon-jon deb bir piyola sipqarar edim, ammo ne chora, hozir saroyda mashvarat boshlanur!

Malikul sharob, boshidagi eski kulohini bir tomonga qiyshaytirib, kallasini ma'yus likillatdi. — O, mavlono-mavlono! Nahotki shu aqlu zakovating bilan shohlar va sherlardan yiroq yurmoq lozimligini bilmasang?

— Ne chora?



— Ofarin! Bor, yo'lingdan qolma, azizim, shoyad shoir Unsuriy kabi ulug' martabalarga musharraf bo'lsang!

Malikul sharob xachiriga qamchi urdi-yu, negadir yana to'xtadi.

— Xah, esim qursin, senga aytadurg'on bir yangilik bor, mavlono!.. Kecha oqshom kulbai vayronamga ajib bir musofir alloma tashrif buyurdilarki, ko'rsang boshing osmonga yetadi!

— Ajabo! Kim ekan ul alloma?

— Bu yog'i shunday sir-asrorkim, uni o'zimga aytishdan ham qo'rqamen! — Malikul sharob shunday dedi-da, xachirini qamchilab uzoqlashib ketdi.

«Sirli alloma? Uni aytishdan qo'rqamen? Yopiray. Bu darvesh ne deydi? Bu so'zi rostmi yo uning ko'ngliga g'uluv solish uchun aytdimi?»

Odamlar hamon ko'prik tomon daryoday oqib borardi. Beruniy ko'prik oldida egardan tushib, otining jilovini hoziru nozir turgan yosh g'ulomga tutqazdi. Ko'prikdan to Bog'i Firuzning darvozasigacha, hatto bog' ichidagi Osmon malikasi qasrining marmar zinalarigacha qirmizrang ipak gilamlar to'shalgan edi.

Beruniy xiyobonning ikki yonida qilich yalang'ochlab g'oz turgan navkarlar orasidan o'tib, saroyga kirib borganida anjuman hali boshlanmagan, biroq urdaday keng, sutday oppoq mashvaratxonada odam tirband edi.

Turda, naqshli suyanchiqlariga dur va javohirlar qadalgan oltin taxtning o'ng tomonida vaziri a'zam Ali G'arib boshliq saroy a'yonlari va devon beklari, chap tomonda amirlar va sarkardalar saf tortgan, devon beklarining oppoq simobiy sallalariga tig'simon tilla nishonlar qistirilgan, kimxob va movut to'nli amirlarning qunduz telpak va suvsar bo'rklariga uch qirrali oltin jig'alar qadalgan, bellaridagi serbar kamarlariga kumush g'ilofli egri qilichlar taqilgan. Ularning kumush tepki taqilgan ko'k va qizil charm etiklari yurganda jarang-jurung ovoz chiqaradi. Taxt yonidagi vaziru vuzaro va devon beklaridan quyiroqda Unsuriy boshliq bir guruh shoirlar ko'rinar, ulardan nariroqda esa boshiga chamberak qora

qalpoqcha kiygan, iyagida to'rttagina tuk o'sgan Chin hakimi o'z tilmochiga allanimalarni bidir-bidir qilar, uning yonida sariq ipak ko'ylak va keng sariq shalvar kiygan hind tabibi kamtarona qo'l qovushtirib turardi. Chap qo'ldagi kalondimog' amir va sarkardalar bilan bir qator-da boshlariga surmarang salla o'ragan bir guruh din peshvolari saf tortgan, ulardan quyiroqda esa uch-to'rttagina tanish allomalar ko'rinar, ularning ichida keksa munajjim mavlono Farruxiy bilan yosh tarixchi Abulfazil Bayhakiy ham bor edi. Hammaning ko'zi to'rda, oltin taxtning ortidagi fil suyagidan jilo berilib, nozik tilla tasmlar qoqilgan ikki tavaqali o'ymakor eshikda... Yig'ilgan raiyat pichirlab gaplashar, hammaning chehrasida qandaydir tahlika va taraddud muhrlangan, go'yo hozir yomon, mudhish voqea sodir bo'lg'usi edi.

Beruniy horg'in odimlab allomalar yoniga o'tdi, ular bilan ko'risharkan, bosh devon sohibi Abu Nasr Mishkon janoblarini ko'rib qoldi. Soch-soqoli oppoq, mittigina, lekin zuvalasi pishiq Abu Nasr Mishkon janoblari ham uni ko'rib, yaqinroq keldi.

— Tag'in bezgak xuruj qildimi? Bay-bay-bay!

Beruniy bosh devon sohibi bilan ko'risharkan, nariroqda, bir guruh nazm ahli qurshovida turgan shoir Unsuriyning unga qarab qandaydir sirli jilmayib qo'rganini payqab qoldi. Unsuriy yon-veriga allanechuk viqor bilan boqar, boshqalarning yuzida tahlika va hadik alomati muhrlangan bo'lsa, uning naqsh olmaday qip-qizil yuzida vaziyatiga nomunosib bir mamnunlik barq urardi. Shoir eng katta mashvaratlarda kiyadigan zarbof to'nini kiyib, surmarang sallasiga amiralmo'mininning bo'lakcha lutfu ehsonini bildiruvchi tilla nishonni qadab olgan, qo'lida esa, zar qog'ozga o'ralgan yostiqlay kitob.

«Bu tilyog'lamachi nechun xushnud? Nechun og'zi qulog'ida?» — dedi Beruniy ichida, biroq shu payt, to'rdagi ikki tavaqali og'ir o'ymakor eshik asta g'ichirlab ochildi-yu, hamma boshlar bab-baravar o'sha tomonga o'girildi. Bo'sag'ada... egnidagi ko'k movut to'n ustidan qo'sh tasma osib, sallasiga nayzasimon oltin nishon

qadalgan saroybon ko'rindi. U eshikda qilich yalang'ochlab turgan ikki sarboz yonidan o'tib, taxt oldiga keldi-da, qo'lidagi oltin shaqildog'ini shaqillatdi:

— Barcha ahli mo'minning piri buzrukvori, saltanatimizning shon shuhrati, toju taxtimizning baxti saodati, fотиhi muzaffar, amiralmuslimin sulton Mahmud ibn Sabuqtegin G'aznaviy hazrat oliylari!..

Oq marmar mashvaratxonaning qubbasimon shiftlari aks sado berib, g'alati yangrab ketdi: «Sulton... G'aznaviy hazrat oliylari...»

Mashvaratxonani to'ldirgan oq, ko'k, surmarang sal-lalar, qunduz va suvsar telpaklar egilib yerga tegdi. Shu payt... bir yonida qop-qora soqol-mo'ylovi o'ziga yarashgan, xushqad, xushsurat Abul Hasanak, bir yonida piri murshid, Qozi imom Sayid hazratlari, sulton Mahmud G'aznaviy paydo bo'ldi.

Hamma bilan barobar egilib ta'zim qilgan Beruniy eshik tomon o'g'rincha ko'z tashladi, tashladi-yu, beix-tiyor seskanib ketdi. Imom Sayid bilan Abul Hasanak o'rtasidagi sulton... Hamon kuch-g'ayratga to'la ko'rinar-di. Azaldan juda bo'yodor, qora, qotmadan kelgan sulton, go'yo burungidan ham cho'zilgan, go'yo yana sal cho'zilsa, tojdor boshi shiftga tegardi, faqat ko'zlari... mung to'la qisiq ko'zlari allaqanday charaqlab turardi. Biroq, ajabo: yig'ilgan izdihomni ko'rishi bilan sulton nechundir bir g'ijindi-yu, shitob bilan yurib taxt oldiga o'tdi, u yerda bir zum to'xtab, egilgan boshlarga, behisob qabrlarday do'ppayib turgan a'yonu boyonlarning do'ng yelkalariga qadalib qaradi, so'ng, og'ir odimlab, taxtga chiqdi.

Taxtning o'ng tomonidagi tillakori kursiga imom Sayid hazratlari o'tirdi, chap tomondagi xuddi shunday kursiga sobiq suyukli nadim, endilikda erkatoy vazir Abul Hasanak o'tirishi lozim edi. Abul Hasanak o'tir-madi. Ellikdan oshgan bo'lsa ham, hanuz yosh ko'ringan xushqad, xushsurat Abul Hasanak, go'yo raqs tushayot-ganday, qilpillaganicha oldinga o'tib, yig'ilgan raiyatga qarata va'z aytdi. Uning ovozi xuddi sayroqi qushning ovoziday yoqimli, suvday tiniq, baxmalday mayin edi. U

parvardigori olamdan amiralmo'ʻmininga sihat-salomatlik, saltanatga shonu shavkat, toju taxtga baxtu saodat tilab, vaʼzini davom etirmoqchi edi, toʻsatdan taxtda qovogʻini uyib oʻtirgan sulton vazirning soʻzini kesib:

— Ul malikul kalom Unsuriy qayda? — deb soʻradi. Uning ovozi bugʻiq, horgʻin, biroq allaqanday pinhoniyl tahdidga toʻla edi.

— Faqir oftobi olamnig xizmatlariga muntazirmen! — shoir Unsuriy, yer supurgan zarbof toʻning etagiga oʻralashib borib taxt oldida tizza bukdi.

Sultonning siyrak moʻylovli yupqa lablariga bilinar-bilinmas kulgu yugurdi, tahdidli ovozi xiyol yumshadi.

— Biz saltanatimiz shon-shuhratini madh etguvchi oʻz shuaromizdan minnatdormiz! Mashvarat ahliga ayon boʻlsin! Mana, nodir salohiyat sohibi, nazm boʻstonining bogʻboni, janob Unsuriy bizga izhori ixlos etmoq istagida tunu kun kitob koʻrib, shunday bir jannatiy neʼmatdan darak topmishkim, ul neʼmati ilohiyni tanovul qilgan osiy banda hamma dardlarga davo topgʻusidir! Bu soʻz haqiqatmi, malikul kalom?

— Filhaqiqat, davlatpanoh!

— Oltin! Ogʻziga siqquncha oltin oshatilsin!

Darhol toʻrdagi eshik ochilib, oltin dinor toʻla barkash koʻtargan tanish saroybon koʻrindi. Unsuriy hayajondan koʻzlari chaqnab yon-veriga qaradi.

— Ol, nazm boʻstonining bogʻboni, toʻyguningcha osha! Sening xizmating haloldur!..

Unsuriy, goʻyo oldida tilla emas, eng lazzatli taom turganday tamshanib, ogʻzini katta ochdi-da, barkashdagi oltin dinorlarni oshashga kirishdi. Mashvaratxonani toʻldirgan izdihom «gur» etib bir tebranib oldi.

Beruniy bunday marosimlarni, sultonning lutfi karamiga sazovor boʻlgan kishilarga oltin oshatish marosimlarini avval ham koʻrgan, hatto oltinga tiqilib, oʻlar holatga tushganlarning ayanchli ahvollariga shohid ham boʻlgan. Ammo hozirgi manzara... Yo tavba! Shoir Unsuriy, oʻymoqdekkina ogʻzini katta ochib, anjirdayanirday yum-yumaloq tilla dinorlarni xuddi eng lazzatli taomni oshayotgan och gadoday oshardi. Uning yuzlari

bug'riqib, lunjlari pufakday shishib ketdi, barkashga tikilgan ko'zlaridan tirqirab yosh oqa boshladi, biroq og'zi oltinga to'lsa ham, hamon oshashdan to'xtamas edi. Mashvaratxonaga yig'ilgan izdihom ham negadir Unsuriyga qo'shilib tamshanar, lablarini yalar, hamma ko'zlarda hasad uchquni chaqnar edi...

Ana, barkashdagi oltin yarimlab qoldi. Lekin shu payt nazm bo'stonining bog'boniga nimadir bo'ldi. U lablari bilan yana bir oltinni himarib, og'ziga olmoqchi bo'ldi-yu, ko'zlari kosasidan chiqquday olayib... qattiq o'qchidi. O'qchiganda bir nechta dinor og'zidan otilib chiqdi-da, darang-durung qilib yumalab ketdi.

— Ofarin, malikul kalom! Oltin qusgan shoirning qusug'i ham o'ziga doru! Terib ol oltinlarni!

Sulton gilam ustida emaklab yurgan Unsuriydan yuz o'girib o'rnidan dast turdi. Turishi bilan Beruniyning esiga ichi kavak bahaybat terak tushdi. Biroq bu terakning vajohatidan qo'rqqulik, unda kishini zir titratguvchi pinhoniylar bir kuch bor edi!

— Biz saltanatimiz shavkatiga shavkat, dovrug'iga dovrug' qo'shgan, muzaffar yurishlarimiz madhini olamga taratgan o'z shoirimizdan mamnun va minnatdormiz... Malikul kalom Unsuriy!

— Labbay, valine'mat.

— Agar yanglishmasam, siz aytgan ne'mati ilohiy mashriq mamlakatlarining biridadur?

— Shunday, davlatpanoh! Ehtimolkim, Chin yoxud Hind mamlakatining mashriq tomonida, ummonlar qa'ridagi orollardan biridadur. Bu risolai muborakda shunday deyilgan! Ne chorakim, biz nazm ahli ilmi hikmatdan yiroqdurmiz. Shoyad, mashvaratga yig'ilmish allomalari ulamoi zabardastlar aniq joyini aytib bersalar, davlatpanoh!

Taxtning chap tomonida qo'l qovushtirib turgan yum-yumaloq vaziri a'zam Ali G'arib pildirab oldinga chiqdi:

— Chin hakimidan so'ramoq darkor, pushti panoh!— dedi u, tavoze bilan bosh egib.— Yana bir marotaba so'ramoq darkor!

Sulton bu so'zdan afti burishsa ham:

— Chin-mochin! — deb chaqirdi. — Tilmochlar qayda?

Chin hakimi qora chambarak qalpoqcha qo'ndirilgan mushtdekkina boshini likillatib avval sultonga, keyin barcha mashvarat ahliga ta'zim qildi-da, shirin iljayib, bir nimalar dedi. Tilmoch darhol tarjima qildi. U yana ilgari gapini ta'kidladi, ya'niki, shoir Unsuriy aytgan janatiy daraxtni Chin hakimlari ham eshitgan, ammo, nadomatlar bo'lg'aykim, bu savolga aniq bir so'z aytishga ojjizlik qiladilar.

Chin hakimidan keyin navbat yana hind tabibiga keldi. Biroq u ham eski javobini takrorlab, qandaydir rivoylardan so'z ochgan edi, sulton to'satdan betoqat qo'l siltab:

— Bas! — deb xitob qildi. — Tag'in mujmal javob! Tag'in safsata! Anig'ini aytadurg'on kim bor?

Beqiyos mashvaratxonaning yuksak qubbasimon shifti yana aks sado berib yangradi: «Anig'ini aytadurg'on kim bor? Anig'ini!»

Beruniyning nazarida, mashvaratxonani yangratib yuborgan bu aks sado sultonga qandaydir kuch va ilhom bag'ishladi. Mung to'la qiyg'och qahr bilan charaqlab:

— Hazar, alhazar! — deb xitob qildi. — Bu ne shuaro, ne allomai davron, ne ilmi urfonkim, qirq yil tuzimni ichib, jo'n bir jumboqni yechib berolmasa. Nahot menim saltanatimda bu sir-asrorni yechadurg'on bir donishmand bo'lmasa?.. Abu Rayhon Beruniy qayda? — to'satdan so'radi u. Lojuvard gumbaz uchinchi bor tantanali va tahdidli aks sado berdi: «Abu Rayhon Beruniy qayda?»

Qayta ko'tarila boshlagan haroratdan karaxt bo'lib turgan Beruniy bir sapchib tushdi-yu, tavoze bilan bosh egdi.

— Xizimatingizga hozirmen, davlatpanoh!

— Hozir bo'lsang, nechun sukut saqlaysen? Kim seni o'n yil Hindiston yurtida umri o'tgan allomai vohid deydi? Hujrangda kalamushday yashirinib, yostiqlay-yostiqlay kitob bitasen. Va lekin bizga lozim bo'lgan sir-asrorni yechmoqqa aqling yetmaydi?

Beruniy yuragining gurs-gurs urishiga quloq solib:

— Oftobi olam!.. — dedi sekin. — Faqir... shoir Unsuriyga bir savolim bor...

— Shoir emas, malikul kalom!

— Malikul kalom janoblari ul ne'mati ilohiy to'g'risidagi so'zni qaysi kitobda o'qiganlar?

Unsuriy, qandaydir besaranjom pitirlab, yon-veriga qaradi.

— Barcha parrandayu darranda tilini bilgan... ul Sulaymon payg'ambar alayhissalom, — ollo uning pokiza ruhini shod etgay! — Ul tabarruk zot haqida bitilgan ushbu muborak kitobda zikr etilgandur bu daraxt! — dedi shoir va og'ir hansirab qo'ynidagi kitobini boshi uzra ko'tardi.

— Ijzat etsalar, bu tabarruk kitobni kamina ham o'qib ko'rsam!

Unsuriy, lo'ppi yuzida zo'r hayajon, bir yonidagi sheriklariga, bir qovog'ini uyib turgan sultonga qaradi.

— Ber, o'qib ko'rsin!

Beruniy, mashvaratxonaga cho'kkan chuqur sukut ichida, qo'lma-qo'l o'tib kelgan charm jildli og'ir kitobni olib ochdi. Butun raiyat, mashvaratxonaga yig'ilgan barcha a'yonu boyonlar, amiru umaro, devon beklari, ulamoyi kiromlari ilm ahli, hatto allaqanday munqayib qolgan sultonning o'zi ham unga qadalib qolgan edi. Mashvaratxona jim, faqat qo'l qovushtirib turgan odamlarning hansirab nafas olishlari eshitiladi, xolos.

«Nechun bir mahallar yarim jahonni zir titratgan bul bandai ojizning dilidagi so'nggi umidlarini so'ndirdim! — dedi u xayolan afsus chekib. — Qarigan chog'ida bedavo dardga giriftor bo'lgan bul sho'rlik menga ne yomonlik qildi? O'zi bilan Hindistonga olib ketdi. Faqir ul yurtda hind tilini o'rganib, ul g'aroyib xalqning urf-odatlarini ila tanishdim. Olamga mashhur kitob bitdim. Bul zoti sharif faqirga rasadxona qurishiga imkon berdi. Men ersam...»

... Yo'q, Beruniy yanglishmagan, bu o'sha, kecha Xatlibegim kelganidayoq esiga tushgan ko'hna rivoyatning o'zginasi! O'z poshshosiga yaxshilik qilish niyatida unga mo'jiza nihol in'om etib, boshidan judo bo'l-

gan to'tiqush to'g'risidagi ibratli cho'pchakning o'zginasi!

Yo tavba! Sulton-ku cho'kayotgan cho'pga tarmashar degandek, sababi bedavo dard, bu qadim ertakka inonsa inongandur! Ammo... nazm ahlining sultoni atalmish bu shoir, bu vaziru vuzaro, bu amirul umaro!.. nahot bular ham bu cho'pchakka inonsalar? Yo bular aqldan ozgan, yo... sababi bezgak, uning o'zi aqli hushidan ayrilgan!

Harqalay bu holni ko'rib turib, bul bandai ojizga ne deydi? Birda qahr otiga minib, uni tahqir qilsa, birda boshini silab, himmat ko'rsatgan bul sohibi toj umrining so'nggi daqiqalarini ko'rib turib qattiq so'zlashga qanday tili boradi uning?

— Nechun og'zingga talqon solding? So'zla, Abu Rayhon!.. «So'zla, Abu Rayhon!»

Beruniy yuksak shiftda yangragan aks sadodan seskanib ketdi-yu:

— Hayhot! — deb yuborganini o'zi ham bilmay qoldi. — Yo'q, bu allomalar bitgan kitob emas, davlatpanoh cho'pchak bu! Cho'pchak!

...Mashvaratxonani to'ldirgan olomon birdan harakatga kelib, «gurr» etdi-yu, darhol jim bo'ldi. Bu mudhish jimlikdan sultonning allaqanday tahdidli titroq ovozi eshitildi:

— Cho'pchak?

Beruniy birdan bo'shashib, devorga suyandi.

— Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, oftobi olam! Va lekin, taassuflar bo'lsinkim, chindan ham eski cho'pchak bu!..

U so'zini tugatmasdanoq shoir Unsuriy, zarbof to'ninging etaklariga o'ralashib, qoqilib-surilganicha taxt ro'parasiga borib yuztuban yiqildi.

— Oftobi olam! Bu nobakor Abu Rayhon... payg'ambar alayhissalom... Sulaymon payg'ambar so'zini cho'pchak deb yolg'onga chiqardi! Inchunin, shakkoklik qildi bu gumroh!

— Gumroh! — dedi sulton, allaqanday cheksiz bir alam bilan. — Hammang gumroh, hammang nobakor! Qirq yil tuzimni ichib, tuzlig'imga tupurgan nonko'rlar!



Boshimga musibat tushganida najot topa olmagan aqli ko'toh allomalar! O, o'lmagan holim mening!.. Vaziri a'zam!..

Taxt oldida haykalday qotib turgan Ali G'arib, xuddi birov oyoqlariga bolta urganday, mukkasidan tushib, yer o'pdi.

— Anov betavfiq... hazrat Ibn Sino qayda?

— Davlatpanoh! Inshoollo, xudovanda karim o'z inoyatini darig' tutmas! Ul najot farishtasi Ibn Sino yo'lga chiqmish!

— Yo'lga chiqmish! — Sulton bir yulqinishda belidagi oltin bandli egri qilichini qinidan sug'urib oldi. — Qayda yurmish ul hakimi mutakabbir? Qayda? Yo darhol topasen uni, yo hammangni chopamen! Hammangni!

U yog'i nima bo'ldi — Beruniy yaxshi anglamay qoldi. Mashvaratxonani to'ldirgan izdihom birdan harakatga keldi-yu, bir-birini bosib, yanchib, ko'chaga qarab yopirildi... Bir zumda hammayoq ostin-ustin bo'lib ketdi, kimdir yiqilgan edi, bir necha odam unga qoqilib o'mbaloq oshdi... Zum o'tmay mashvaratxonada faqat ikki odam qoldi — biri qilich yalang'ochlaganicha hamon taxtda tebranib turgan sulton, biri ko'z odi qorong'ilashib, devorga suyanib qolgan Beruniy edi!..

## ***Beshinchi bob***

«Bukun, to'rt yuz yigirma birinchi yil hijriy, rabbiul avval oyining uchinchi kuni<sup>1</sup> namozshom oldida shayxning ulkan chorxari xonasiga qirq nafar husnixat xattot yig'ildi.

Shayx<sup>2</sup> xattotlarni «Ash-Shifo» kitobining nabotot faslini ko'chirish maqsadida lutfan taklif qilgan edi, biroq namozi asrda banogoh Hamadon hokimi Alouddavla hazratlaridan qo'sh chopar kelib, shayxni saroyga olib ketdilar.

---

<sup>1</sup> 1030-yil fevral oyining oxiriga to'g'ri keladi.

<sup>2</sup> Ibn Sinoni shayx ur-raisi, ya'ni allomalar raisi, deb ataganlar.

Shayx otga mina turib, saroydan qaytguncha majlis ahlini mehmon qilib turishni kaminaga topshirdi. Kamina dasturxon yozib, ularni mehmon qildim, so'ngra qog'oz-qalamlarni shaylab, shayxni kutdik.

Shayx, odatda, to'rda o'tirib, o'ylagan asarini o'zi yoddan aytib turar, husnixat xattotlar esa so'zma-so'z yozib borar, shu yo'sin, bir kechada o'ttiz-qirq nusxa matn tayyor bo'lardi.

Shayx «Al-Qonun»ni yozib tugatgandan keyin ham shunday qilgan, Isfahonda husnixat xattot borki, hammasini yig'ib, o'zi aytib turgan, xattotlar esa so'zma-so'z yozib borgan edi. So'ngra har bir xattot o'z yoniga yana yigirma-o'ttiz nafar tolibi ilmlardan yig'ib shayxdan yozib olgan matnni o'qib berar, tolibi ilmlar esa buni yozib olar va shu yo'sin bir yo'la bir necha yuz nusxa kitob tayyor bo'lardi. «Al-Qonun»ning el orasida tez-tez tarqab, shuhrat topganining boisi ham shundadir.

Shayx saroydan xuftondan keyin qaytdi. Ustod qattiq hayajonda edi. Xattolar yig'ilgan xonaga kirib, majlis ahlidan uzr so'radi-da, xattotlarga ijozat berdi. Biz yolg'iz qoldik. Shayx darhol kiyim-kechak va uch-to'rt kunlik oziq-ovqat g'amlashimni iltimos qildi. Ma'lum bo'lishicha, G'azna hokimi sulton Mahmud G'aznaviydan Hamadonga elchi kelibdi. Elchi shayxni yerning tagidan bo'lsa ham topib, darhol G'aznada hoziru nozir qilish to'g'risida sultondan farmon keltiribdi. Bu amru farmonni o'qib, kapalagi uchgan Alouddavla a'lo hazratlari shayx bilan pinhona uchrashib, uning o'ziga maslahat solibdi. Shayx G'aznaga borishdan qat'iy bosh tortibdi. Ittifoqo, elchi ketguncha shayxning biror joyga yashirib turishini ma'qul topibdurlar.

Biz ustimizga eski chakmon, boshimizga eski kuloh kiyib, xurjunlarni ko'tarib, tun yarmida uydan chiqdik.

Shayx qattiq iztirobda edi. Bundan besh-olti oy muqaddam, amir Mas'ud Isfahoni zabt etganda shayx undan qochib, Hamadonga kelgan edi. Bundan bir oy muqaddam esa shayxning Isfahondagi hovlisiga o't tushgani to'g'risida ko'ngilsiz xabar kelgandi. Aytishlaricha, yong'in chog'ida shayxning nodir kutubxonasi yonib ket-

gan. Inisi Abu Mahmud esa, tirikmi, yo'qmi, bu yog'i ham hanuz qorong'i. Shayx butun topgan dunyosini shu kutubxonaga sarf qilgan, unda ustodning ko'p qo'lyozmalari, «Al-Qonun», «Ash-Shifo» kabi kitoblarining eng xushxat xattotlarga ko'chirtirilgan noyob nusxalari saqlanur edi. Ishqilib, ular ham boshqa kitoblar bilan birga yonib ketmagan bo'lsin!

So'nggi yillarda shayx Isfahonda insof va adolat haqida, odil va noodil shohlar to'g'risida «Kitob al-Insof» degan bir asar yozishga kirishgan edi. Isfahondan sovuq xabar kelganda shayx bir inisini o'ylab kuyunsa, bir kutubxonasi va shu kitobini o'ylab ezildi, sababi — bu asarning qo'lyomasi chala qolgan edi. Endi esa Isfahondan qochgan odam, Hamadonda ham hammadan yashirinib, pinhona kun kechirishdan boshqa chora qolmadi. Yo tavba! Keksaygan chog'ida bu ne ko'rgulik! Ustodning mutolaa va mushohadadan boshqa niyati yo'q. Sho'rlik shayx qachon bu niyatga yetadi? Qachon osoyishta kun kechiradi?»

*(Abu Ubayd al-Juzjoniy xotiralaridan.)*<sup>1</sup>

## **Oltinchi bob**

Bosh vazir Ali G'arib saroydan ko'ngli g'ash bo'lib qaytdi. Tunov kungi mash'um mashvaratdan keyin sultonning ahvoli yana ham og'irlashdi, injiqlashdi; na og'zidan tuzuk bir gap chiqadi, na unga gap uqtirib bo'ladi. O'shandan beri sulton faqat bir narsa bilan qiziqadi, u ham bo'lsa hakimi davron Ibn Sino! Hazrat Ibn

---

<sup>1</sup> Ustoz Ibn Sinoning sodiq shogirdi, ajoyib inson Abu Ubayd al-Juzjoniy xotiralarini biz uchun bebaho bir merosdir. Lekin, afsuski, bu bebaho xotiralar hanuzgacha to'raligacha topilgani yo'q. Qishlog'imizda madrasa tahsilini ko'rgan, yangichadan ham yaxshigina xabardor bir domla bo'lardilar. Elliginchi yillarning boshlarida, universitetning birinchi kursini tamomlab, yozgi ta'tilga borganimda, shu domla bir kun meni uylariga taklif qildilar.

— Hozir Toshkentda buyuk hakim Abu Ali ibn Sino asarlariga qiziqish katta emish, — dedilar u kishi. — Asarlari arabchadan o'zbekchaga tarjima qilinayotgan emish. Bu savob ishdan xabaring bormi, bolam?

Yosh student, men bu ishlardan bexabar edim, biroq keksa domlanning oldida «nodon»ligimni oshkor qilmaslik uchun:

— Xabarim bor, domla, — dedim, — juda katta ishlar bo'lyapti.

Sinodan darak bormi yo'qmi — bir kunda o'n marotaba so'rab-surishtiradi, bosh vazir bilan Abul Hasanak esa ming xil yolg'on-yashig' gaplar bilan kunni kech qilishadi, biroq ertangi kunni o'ylasalar, yurak o'ynog'i tutib, tong otguncha to'lg'anib chiqishadi. Shu boisdan Ali G'arib go'zallikda benazir, lekin shu kunlarda uning ko'ziga jahannam bo'lib ko'ringan Osmon malikasi saroyidan qaytgach, «besh kundlik dunyo», deb bor vujudi bilan aysh-ishratga sho'ng'iydi.

Vaziri a'zamning bog'i Firuz bog'i bilan, saroyi Osmon malikasi saroyi bilan raqobat qila olmasa ham, o'ziga yarasha fayzi bor. Shu kunlarda bog'da shaftoli va chillaki o'riklar qiyg'os gullagan, mayin qizil qum sepilgan xiyobonlar chetidagi xushqad sarvlar nafis mitti yaproqchalar bilan burkangan, ariq bo'ylaridagi majnun-tollar esa nozik sochpopuklar yozib, go'yo suv bo'yida soch tarab o'tirgan sanamlarday ochilib ketgan, ayniqsa shomdan keyin, gulzor va xiyobonlardagi kumush favvoralar ishga tushib, tosh fonuslar yoqilganda bog' yana ham yashnab ketadi, chiroyiga chiroy, fayziga fayz qo'shiladi.

Bosh vazir, odatda, kechqurunlari saroydan qatgach, egnidagi zarbof to'nini yechib, yengil libosga o'ranadi, boshidagi oltin nishon qadalgan surmarang sallasi o'rniga shaftoli gulli duxoba takya, oyog'iga yengil

---

— Balli, — dedilar domla quvonib, — buyuk hakimning Abu Ubayd al-Juzjoniy degan ko'p zukko bir shogirdi bo'lgan. Menda o'sha odamning hazrat Ibn Sino to'g'risida yozilgan xotira daftari bor. Istasang o'qib beraman.

Domla shunday deb, tokcha to'la eski kitoblar orasidan qora jildli bir kitobni oldi. Domla arabcha kitobni o'qib, so'zma-so'z tarjima qilar, men eshitar edim. G'aroyib qo'lyozma haqidagi bu suhbat bir necha kun davom etdi. Men boshda uncha qiziqmasam ham, keyin juda qiziqib ketdimu, oxir-pirovardida domladan kitobni so'radim, agar domla istasa, uni toshkentlik sharqshunos olimlarga eltib berishni va'da qildim. Domla mening bu taklifimni qat'iy rad etdilar. «Yoshim va sog'lig'im imkon bersa, o'zim tarjima qilib, o'zim eltib beraman», deb javob berdilar. Ming afsuski, sal o'tmay domla olamdan o'tdilar. Men navbatdagi ta'tillardan birida, domlanning xonadoniga borib, bu nodir kitobni surishtirdim. Biroq kitob qayoqqadir yo'qolgan edi. Ko'p afsus chekdim. Ushbu asarga kirishganimdan keyin o'ylab qaragam, ancha narsa xotiramda qolgan ekan. Xotira nozik narsa, unga ko'p ishonib bo'lmaydi, albatta, hechdan ko'ra kech bo'lsa ham degandek, Abu Ubayd al-Juzjoniy esdaliklarini yodimda qolgancha tiklashga urinib ko'rdim (*muallif*).

kavush kiyib hududsiz bog'da yolg'iz sayr qilishni yaxshi ko'radi. Har biri o'z latofati, o'z ko'rki, betakror go'zalligi bilan ajralib turgan bodomzor va shaftolizorlar, xurmozor va anorzorlarni asta kezib, davlat ishlari haqida tanho o'ylashni, hovuz bo'ylariga qurilgan shinam shiyponlar, to'rt tarafi ochiq, gumbazli bolaxonalarda o'tirib, eng murakkab muammolar, serjumboq yumushlarni hal qilishni, yechilmas tugunlarni yechishni ma'qul ko'radi. Serg'alva ishlar, xatarli yumushlar, yechilmas tugunlar esa kundan-kunga ko'payib bormoqda. Bu jumboqlarning eng chigali tabiiy, toju taxtning vorisi kim bo'ladi, sultonning o'ziday jangari, qaytmas, bir so'zli amir Mas'udmi yoxud mo'min-qobilgini shahzoda Muhammadmi, degan jumboqdir. Chunki boshqa hamma chigalliklar, arkoni harb va arkoni davlat, vaziru vuzaro, a'yonu boyonlar orasidagi tarafkashliklar, nizoyu nifoqlar, fisqu fujurlar — hammasi shu chigal muammoga borib taqaladi. Chigal muammolar esa hushyorlik va ehtiyotkorlikni taqozo etadi, chunki vaziri a'zam biladi: davlat ishlari — bu jang maydoni emas, bu ishda bor kuch bilan kamondan o'q uzib bo'lmaydi!

Durust, sultonning o'zi allaqachon kenja o'g'li shahzoda Muhammadni valiahd deb fatvo bergan. Lekin avvalambor, bu fatvo hali xutbaga qo'shib o'qigan emas, tor doirada, vaziru vuzaro davrasidagina ma'lum, qolaversa, amiralmo'mininning bu qaroridan ko'plar norozi. Ular orasida zaifa bo'lsa ham davlat yumushlariga bosh suqib, saroy ahlini yot deb yotqizib, tur deb turg'azib o'rgangan, sultonning suyuqli singlisi Xatlibegimdan tortib, bo'yi mushtdekkina bo'lsa ham, kallasi xumdek, devon sohibi Abu Nasr Mishkan janoblarigacha bor. Bosh vazir biladi — ularning hammasi amir Mas'ud bilan pinhona aloqada, har on, har daqiqa saroydagi ishlardan ko'z-quloq bo'lib, «tiq» etgan tovushga qo'loq solib turishibdi. Agar amir Mas'ud bu xatarli kunlarda Isfahonday ovloq joylarda jangu jadal qilib yurmaganida saroydagi fisqu fasodlar bundan beshbattar avj olardi.

Bosh vazir, xiyobon va gulzorlarni asta aylanib, yechilmas jumboqlarni tanho yecharkan, yurishdan char-

chagan chog'larida hovuz bo'ylariga qurilgan shiyponlarda o'tirib orom oladi. Shiyponlarda esa hamma narsa — bejirim billur idishlarda nafis tovlangan shafaq-rang mayu sharbatlardan tortib, jizillab turgan bedana kaboblargacha, tandirlardan hozirgina uzilgan issiq patirlardan tortib, pista-bodomlargacha — hamma narsa muhayyo bo'ladi. Ali G'aribning istagiga ko'ra, bir joyda hali mo'ylovi sabza urmagan yosh g'ulomlar xizmat qilsa, bir joyda harir ipak ko'ylaklari ichidan oppoq siynalari ko'rinib turgan, hali onalari o'pmagan go'zal kanizlar nazokat bilan bosh egib turishadi, bu pakanagina, yum-yumaloq odamning har bir so'zi, har bir ishorasini mahliyo bo'lib kutishadi...

Lekin bugun vaziri a'zam saroydan yuragi g'ash bo'lib qaytdi-yu, sayr qilish ham ko'ngliga sig'may, darvozadan to'g'ri ikki oshyonali ko'shikka o'tdi.

So'nggi paytlarda, ayniqsa amiralmo'minning ahvoli og'irlashib, dardiga duchor bo'lganidan buyon, bosh vazir o'z ko'shkidagi barcha qimmatbaho buyumlarni, Hindistondan keltirilgan oltin ma'budalar, billur idishlar, ipak gilamlar, noyob zeb-ziynatlar, quyma tillalar, xum-xum oltin qum va behisob dinorlar, fil suyagidan yasalgan nodir qutichalar, g'aroyib hayvonlar va qushlarning mo'jaz haykalchalari — hamma-hammasini xufiya joylarga yashirgan, koshona xonalarida eng oddiy jihozlargina qolgan.

Bugun bosh vazir ko'shkning huvillab qolgan xonalaridan biriga kirib, ko'rpachaga yonboshladi. U bir on ko'z ilintirib, og'ir tashvishlardan g'ovlab ketgan miyasiga jindakkina orom bermoqchi, so'ng ta'zimga kelgan tijorat ahlini, tungi suhbatga chaqirilgan xufiyalar, mushriflar, amiru umaroni qabul qilmoqchi edi. Vaziri a'zam uyquga ketishdan avval etiklarini yechib, oyoqlarini uqalatishni yaxshi ko'rar, to'g'rirog'i, busiz ko'ziga uyqu kelmas edi. Biroq bugun to'shakka cho'zilib, endi oyoqlarini uzatganida, ko'shik og'asi kirib, Afshon shol dahasidan bir xufiya kelganini, xufiya bosh vazir janoblariga darhol izhori ixlos bildirmoq azmida betoqat bo'layotganini arz qildi. Bosh vazir, odatda birinchi

galda tijorat ahlini qabul qilar, chunki ular hech qachon quruq kelmas, ayniqsa, xorijiy yurtlardan tashrif buyurgan savdogarlar katta in'omlar, qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan kelishardi. Biroq Afshon sholdan xufiya kelganini eshitgach, tijorat ahlini ham ikkinchi galga qo'ydi.

Afshon shol — shaharnig eng kambag'al, eng serg'alva dahasi. Undagi xufiyalarning xabarlari alohida ahamiyatga molik.

Ali G'arib oyog'ini uqalash uchun kirgan erka g'ulomiga ruxsat berdi-da, ayg'oqchini chaqirtirdi. Sal o'tmay bo'sag'ada ustiga eski qora chakmon, boshiga qora ag'darma telpak kiygan bir kimsa paydo bo'ldi, paydo bo'ldi-yu, ulkan qora qurtday qimirlab kelib, gilamga tizza bukdi.

Vaziri a'zam, negadir, ehtimol o'ziga o'xshab pildirab yurgani uchundir, bir qarashda ulkan qora qurt-ni eslatuvchi bu eski xufiyani ko'p xushlamas edi. Biroq Piri Bukriy degan bu kekxa ayg'oqchi doim muhim xabarlar keltirar, Malikul sharob atalmish anov shakok shoir mayxonasida bo'ladigan nojo'ya yumushlar, saltanatga qarshi qaratilgan ig'vo gaplarni oqizmay-tomizmay yetkazib turishda bebaho edi!

Bu safar ham shunday bo'ldi. Piri Bukriy qarmoqqa o'xshash qiyshiq qo'llarini ko'ksiga qo'yganicha, boshini bukri yelkasiga suqib, g'alati bir gapni aytib berdi. Go'yoki, o'sha betavfiq shoir Malikul sharob musofir-xonasida ikki sirli sayyoh paydo bo'lgan emish. Biri yosh, ikkinchisi esa chehrasi bag'oyat nuroniy, gap-so'zlari bag'oyat ma'noli bir alloma emish. Yosh sayyohning mast-alastlikda aytgan so'ziga qaraganda, yuzidan aql-zakovat yog'ilib turgan bu alloma... hakimi davron Ibn Sino hazratlari emish!..

Vaziri a'zam ikki bukilib o'tirgan Piri Bukriyning allaqanday ma'sum ko'zlariga tikilib, miyig'ida kuldi:

— Shu so'zga inondingmi, Piri Bukriy? Ofarin senga! Bundan chiqdi, sen... o'zlarini hazrat Ibn Sino deb avomni aldab, pulini to'nab yurgan mug'ambirlarni eshitmabsen! Chin Ibn Sino bo'lsa nechun ul betavfiq mayxo'ring iprindi mayxonasida ivirsib yuradur!

Piri Bukriy ko'zini yumib, boshini sarak-sarak qildi:

— Bilmam, taqsiri olam, boshda kamina ham inonmadim va lekin suratini ko'rdim?

— Ne surat?

— Anov... suratkash Abu Nasr Arroq<sup>1</sup> chizgan va qirq nusxa ko'chirtirilib, qirq yurtga yuborilgan hazrat Ibn Sino surati? Pinhona kelgan bu sayyoh o'shal suratdagi hazrat Ibn Sinoning baayni o'zi, taqsiri olam!

— Baayni o'zi? — Ali G'arib yum-yumaloq bo'ybastiga zid bir chaqqonlik bilan qaddini rostlab o'tirdi. U bir nima demoqchi bo'lib og'iz juftladi, biroq shu payt yana ko'shak og'osi kirib ta'zim qildi:

— Taqsiri olam ma'zur tutsinlar. Teginoboddan<sup>2</sup> mushrif keldi!

— Teginoboddan?

— Shunday, taqsiri olam. Teginoboddan, ariz Abulvafo Sariqdan kelmish!

Vaziri a'zam bir zum ikkilanib turgach, Piri Bukriyga tashqariga chiqib kutib turishni buyurdi.

— Chaqir mushrifni!

Yo tavba! G'alati hangoma! Hangoma ustioa hangoma!

Bir hafta egardan tushmay ot surib kelgan mushrif poygakka tiz cho'kdi-da, belidagi nosqovog'i ichidan vaziri a'zamga nos hidi ufurib turgan bir maktub olib berdi. Maktubdagi gaplar... vo darig'! Piri Bukriy topib kelgan xabardan ham g'alatiroq edi...

Bosh vazir bilar: bundan uch oy muqaddam Ibn Sino hazratlarini yerning tagidan bo'lsa ham topib kelish sharti bilan uzoq Hamadonga yuborilgan ariz Abulvafo Sariq tarvuzi qo'ltig'idan tushib, G'aznaga quruq qaytmoqda edi, bosh vazir bu xabarni bundan bir hafta muqaddam o'z xufiyalari orqali bilgan edi. Ma'lum bo'lishicha, Abulvafo Sariqning elchi bo'lib borayotganidan xabar topgan hazrat Ibn Sino Hamadonni tark etib, qayoqqadir bosh olib qochgan, uni hatto Hamadon hokimi

<sup>1</sup> Abu nasr Arroq — Ibn Sinoning zamondoshi, rassom va tarixchi.

<sup>2</sup> T e g i n o b o d — Sabuqtegin asos solgan shahar.



Alouddavla ham topib berolmagan. Isfahonni zabt etib, Hamadon yaqinida lashkar tortib turgan amir Mas'ud esa bu ishda Abulvafoga yordam qilish u yoqda tursin, aksincha, qarshilik ko'rsatgan. Xullas, Hamadondan ikki qo'lini burniga suqib qaytgan Abulvafo Sariq, amiralmo'mininga ko'rinishga yuragi dov bermay, Teginobodda turib qolgan!

G'alati dunyo ekan bu dunyo! Bundan uch-to'rt yil muqaddam Ali G'arib bilan bosh vazirlikni talashgan bu to'pori Abulvafo Sariq, mana endi boshi devorga borib «taq» etib urilgandan keyin, yana Ali G'aribga murojaat qilgan, bir parchagina maktubda uning nomiga ming marotaba hamdu sanolar o'qib, yo'l-yo'riq so'ragan edi.

Battar bo'lsin! Agar bu naynov arizning aqli bo'lsa, bundan uch oy muqaddam, amiralmo'mininning sharaflari topshirig'ini oldim, deb hovliqmasdan, yo'lga chiqishdan oldin bosh vazirga bir og'iz maslahat solsa bo'lmasmidi?

O'shanda, sulton in'om etgan arg'umoqlar, eng dovyurak navkarlar, oliy yorliqlar, xurjun-xurjun oltinlardan mast bo'lib, bosh vazirdan bir og'iz yo'l-yo'riq so'ramagan bu befahm ariz endi nechun uyalmasdan undan maslahat so'raydi? Nos hidi ufurgan xatini ko'z yoshi bilan yuvib, nechun izhori ixlos qiladi?

Abulvafoning o'zidan ham beso'naqay dastxat bilan yozilgan bu maktubning birinchi qismidagi gaplar, shu o'ylar sabab, vaziri a'zamning yuragidagi eski muzni erita olmadi. Lekin xatning ikkinchi qismi!.. Ikkinchi qismidagi gaplar... bukri topib kelgan boyagi gaplardan ham g'alatiroq edi!..

Go'yokim, Abulvafo Sariq, umidlari chil-chil sinib, uzoq Hamadondan Teginobodga quruq qaytib kelgan kunlari shahar bozorida o'zini hazrat Ibn Sino deb, fuqaroni davolab yurgan bir alloma paydo bo'lgan emish. Tabobat bobida yagona bo'lmish bu hakimi davronni o'z ko'zlari bilan ko'rganlar, uning dori-darmonlaridan davo topgan bedavo xastalar son mingta emish!..

Ariz Abulvafo Sariq bu xabarni eshitib, ul hakimi hoziqqa darhol chopar yuborgan emish. Ammo chopar-

dan xabar topgan tabib darhol bor bisotini yig'ishtirib, bir kechada qaygadir gumdon bo'lgan emish!..

Burni tagidan shunday quyonna qochirib yuborgan aqli ko'toh ariz bu bema'ni xabarni yetkazar ekan, ko'z yoshi to'kib, bosh vazirdan maslahat so'ragan, maslahat orasida esa... Teginoboddan qochgan bu hakimi davron mabodo G'azna tomon yo'l olganmikin, degan mujmal bir gapni ham qistirib ketgan edi.

Vaziri a'zam befahm arizning bema'ni maktubini o'qib nihoyasiga yetmagan ham ediki, to'satdan, uning miyasida nimadir yulduzday «yarq» etib yondi-yu, o'rnidan turib ketdi.

Bosh vazirning miyasida «yarq» etib yongan bu fikr... xatarli va g'aroyib edi! Shunday g'aroyib va shunday xatarli ediki, Ali G'arib, ko'shk bo'sag'asida kutib turgan mushriflar, muzofatlardan kelgan divsuvorlar<sup>1</sup>, izhori ixlos ma'nosida tashrif buyurgan savdogarlar u yoqda tursin, hatto machit va madrasa kavaklaridan o'rmlab chiqqan shaxsiy ayg'oqchilarini ham qabul qilmadi. Ko'shk og'asiga sharob keltirishni buyurib, ust-ustiga bir necha kosa may sipqardi.

Yigirma yillik qo'lbola sharob o'z ishini qildi. Zum o'tmay hozirgina g'aroyib tuyulgan g'aroyib fikr juda tabiiy, xatarli reja esa juda dadil va mardonavor rejaga aylandi. Vaziri a'zam, zebi ziynatlardan soqit bo'lgan xufiya go'shana asta aylanib, ko'ngliga kelgan bu fikr va rejalarni obdan pishirish niyatida edi, biroq shu payt eshik beraxsat ochilib, shaxsiy qushchisi ta'zim qilib kirib keldi.

— Afv etgaysiz, valine'mat!.. Xeshingiz Abul Hasanak janoblaridan elchi keldi. Kecha bolalagan ona kiyikni berar emishsiz!

— Ona kiyik?

— Ha, ona kiyikni bolasi bilan birga so'rab keldi!

— Vo ajabo, tun yarmida ona kiyikni ne qiladi u?

— Bilmam, taqsiri olam, elchining aytishicha, oftobi olam... ovga otlanmish!

---

<sup>1</sup> Divsuvorlar — choparlar.

— Oftobi olam ovga o'tlanmish? Bir necha oydan beri vasvas bosib, oyog'ini bazo'r sudrab yurgan davlatpanoh ovga chiqarmish! Ajab jumboq!

Amiralmo'minin so'nggi yillarda yomon bir odat chiqargan, vaziri a'zam bir chetda qolib, eng maxfiy yumushlarini shu hezalak vaziri Abul Hasanak bilan maslahatlashadigan bo'lgan. Aftidan, ov ham shunday maxfiy yumushlardan biri edi. Ali G'arib shuni o'ylab, tirmoqlarigacha zirqirab ketdi-yu, lekin Piri Bukriyning gapi yodiga tushib, ko'ngli xiyol taskin topdi.

Mayli, ular ovda yurganida Ali G'arib bu ishni o'ylab oladi, obdan o'ylab, obdan pishitib oladi. Shu qarorga kelgan bosh vazir Piri Bukriyni chaqirtirdi.

## *Yettinchi bob*

### 1

Kechasi bir guruh navkarlar nogahon bostirib kirishganda o'zini hazrat Ibn Sino deb atagan keksa sayyoh mast uyquda edi. U dod solishga ham ulgurmadi, navkarlar uning sallasini og'ziga tiqib, qo'l-oyoqlarini bog'lashdi-da, egarga o'ngarib, qasir-qusur ot surib ketishdi.

Keksa sayyoh egarda qimiz solingan meshday chayqalib borarkan, ich-ichidan kuyinib:

«Bu kuningdan beshbattar bo'l, miyasiz tentak! — dedi o'z-o'ziga. — Kim senga o'zingni hazrat Ibn Sino deb, dovruc sol, dedi, nodon? Ajalingdan besh kun bu-run o'lishni tilagan bo'lsang tilagingga yetding, mana!»

Ko'kda, tariqday sochilgan yetti qaroqchi tagida yangi hilol yangi zarb qilingan oltin dinor parchasiday yarqirab turar, u negadir yangi tug'ilgan chaqaloqni eslatar, chaqaloqday ojiz, chaqaloqday nogiron edi. Kechagina bahor giyohlarining o'tkir va xushbo'y atrini sochib esgan iliq shabada bugun tanani junjiktiruvchi sovuq shamolga aylangan, bu shamol ostida yo'l bo'yidagi daraxtlar — azim chinorlar, quloch yetmas oq teraklar, sadalar, arg'uvonlar asov daryoday shovullar, go'yo

ko'kka talpingan ulkan qora qushlarday talpinar, yulqinar edi!..

Shahar mast uyquda, ko'chalar, rastalar, guzarlar suv quyganday jim-jit, hatto qorovullarning shaqildog'i ham eshitilmas, guzarlardagi toshfonuslar ham o'chgan, shahar zimiston edi!..

Qo'l-oyoqlari chandib bog'langan keksa sayyoh ot ustida ming azob bilan tebranib borarkan, negadir Buxoro hokimi Aliteginning mudhish zindonlari ko'z oldiga kelib, vujudi qora terga tushdi.

«O, nodon shogird! Tentak shogird! Agar u o'sha kuni kechasi Malikul sharobning bir piyola mayidan mast bo'lib, noehtiyotlik bilan valdirab qo'ymaganida, ehtimol, bu mudhish voqea ro'y bermas edi! Shogirdning mast-alast so'zlari sabab, mana endi uning hamma o'ylari, bir necha oydan beri tuzib kelgan barcha rejalari barbod bo'ldi! Barbod!»

G'aznai munavvaraning kimsasiz ko'chalari, guzar va rastalaridan dukur-dukur ot choptirib o'tgan navkarlar shahar o'rtasidagi qandaydir baland qo'rg'on oldida egardan tushishdi. Navkarlarni qarshi olgan keksa darvozabon qo'lidagi toshfonusni ko'tarib, egar ustida bir kundaday ko'ndalang yotgan keksa sayyohga ko'z qirini tashladi-da, qo'rg'onga kirishga ijozat berdi.

Qo'rg'on ichi hududsiz bog' bo'lib, uning o'rtasida ikki qavatli marmar qasr oppoq oqarib turardi. Qasrning darichalarida «milt» etgan chiroq ko'rinmas, hammayoq zim-ziyo, faqat ikkinchi oshyonaning eng chekkasidagi bittayu-bitta darichasi osmondagi yana hilolday nogirongina miltirardi.

Hovliga kirgach, navkarlar keksa sayyohni egardan yerga tushirib oyoq-qo'llarini yechishdi-da, bo'shagan belbog' bilan ko'zlarini mahkam bog'lab, qayoqqadir sudrab ketishdi.

Keksa sayyoh xuddi boshiga gurzi tushgan odamday, karaxt bo'lib qoldi. U na qayoqqa ketayotganini o'ylar, na qancha yurganini bilardi. Bir mahal sharaq-shuruq ochilgan qulflar ovozidan hushiga keldi. Dimog'iga «gup» etib kalamush hidi urdi. Uni qandaydir zax, sovuq

bir yerto'laga sudrab kirishdi. Ketma-ket eshik taraqlab yopildi-da, yana ilinayotgan qulflarning sharaq-shurug'i eshitildi.

Keksa sayyoh ko'ziga bog'langan qalin belbog'ini yulib oldi, biroq kalamush hidi ufurgan yerto'la shunday zim-ziyo ediki, hech narsani ko'rolmadi. U oyoqlari qaltirab, turgan joyiga tiz cho'kdi-yu, alam va og'riqdan yer timdalashga tutindi.

## 2

Uning asli ismi Abu Halim edi, biroq yoshlik — beboshlik deganlaridek, yoshlikdagi sho'xliklari sabab, yor-birodarlari unga Abu Shilqim ibn Shahvoniy degan laqab qo'yishgan edi.

Abu Halim Buxoroi sharifda, o'sha, hazrat Ibn Sino istiqomat qilgan Juyi Mo'liyon<sup>1</sup> dahasida, Buxoro hokimi Nuh ibn Mansurning suyuqli tabibi Abu Faysal xonadonida tavallud topdi.

O, bu Abu Ali ibn Sino! Ibn Sino!

Abu Shilqim esini tanib, yoshlik tulporiga minibdiki, ko'ksini tizginsiz bir hasad bamisoli ochko'z kalamushday kemiradi. Bu hasad, bu raqobat qachon boshlandi — buni Abu Shilqimning o'zi ham bilmaydi. Boshda, Ibn Sinolar xonadoni Buxoroi sharifga ko'chib kelganida, hech kim ularni nazarga ilmagan edi. Garchi, Abu Alining otasi Abu Abdulloh amir devonida mirzalik qilsa ham, Juyi Mo'liyon dahasining kazo-kazolari ularni «kelgindi», deb kalaka qilishardi. U mahalda Abu Shilqimning otasi Abu Faysal Buxoro hokimining bosh tabibi hisoblanar, dahada ularning qo'yo'sh oshyonali ko'rkam qo'rg'oni va hududsiz bog'lari bo'lar, bu bog'lar Juyi Mo'liyon dahasining ko'rkiga ko'rk, savlatiga savlat qo'shib turardi. Ularning bog'lari va muazzam qasrlari oldida Abu Alilar hovlisi shohona to'n yonidagi darvesh jandasiday g'arib ko'rinardi.

U mahalda o'n bir-o'n ikki yoshlardagi Abu Shilqim arab zodagonlari dahasidagi madrasai kalonda tahsil

---

<sup>1</sup> Juyi mo'liyon — Buxoroda Ibn Sino yashagan mahalla.

olar, zarbof liboslarda yuradigan yosh mullavachcha «kelgindi» hamsoyalarining «kelgindi» o'g'lini nazariga ham ilmas edi. Hatto bu ozg'in, qiyg'ir burun «kelgindi» bola to'g'risida, uning aql bovar qilmas zakovati to'g'risida har xil mishmishlar tarqalganda ham yosh Abu Shilqim pinagini buzmasdi. U paytlarda Abu Shilqim, boshida o'smirlikning humo qushi, yoshlik gashtini surar, Juyi Mo'liyon kazo-kazolarining erkatoy boyvachchalari bilan ulfatchilik qilar, gulgun bazmi jamshidlardan boshi chiqmas, bog'larda yashirinib, marmar hovuzlarda cho'milguvchi yalang'och sanamlarni pinhona kuzatish, yorug', oydin kechalari esa, xilvat xi-yobonlarda ularning yo'llarini to'sishdan qo'li tegmas edi. Abu Ali esa... Abu Alini u gohi-gohida bozorlarda, attorchilik va baqqolchilik rastalarida, faqir kitobfurushlarning g'arib do'konlarida ko'rib qolardi. Qalang'i-qasang'i attorlar rastasida allaqanday giyohlarni hidlab, eski kitoblarni titib yurguvchi bu xayolparast o'spirin u paytlarda Abu Shilqimning kulgusini qistatardi, vassalom.

U mahalda Abu Shilqim va uning do'stlari saxiy Buxoro bozorlariga faqat bir maqsadda borishar, u ham bo'lsa, dong'i olamga ketgan zeb-ziynatlar rastasiga qatnaydigan malaklarning chehrai shamslarini ko'rib, orqalaridan gap otish edi, xolos.

Shahriston ichida joylashgan bu hashamatli do'konlarda nodir zeb-ziynatlar, nafis tilla sirg'a va bilaguzuklar, sof qizil oltindan yasalgan nozik baldoqlar, shoda-shoda marjonlar, bebaho sadaflar, kimxob yostiqchalarga qadalib, oftobda ajib tovlanib turguvchi yoqut va injular, la'l va durlar, qo'yingki, yetti iqlimning hamma ganjlari topilar edi. Bu ziynatlarni ko'rgani Buxoro zodagonlarining erkatoy sanamlari kelishardi. Nozik oyoqchalaridagi nozik kavushchalaridan tortib, peshonalaridagi tillaqoshlarigacha dur va injular bilan bezalgan bu ofatijon sanamlar mashhur zargarlik rastasiga odatda soyabon aravalarda kelishardi. Ular ko'k, qizil, pushtirang parda bilan to'silgan aravachalaridan go'yo rang-barang kapalaklarday lip-lip uchib chiqishar va yuzlarini harir

durralari bilan to'sishib, do'kon tomon shoshilishar, go'yo nodir zeb-ziynatlardan boshqa hech narsa qiziqtirmas edi ularni. Lekin Abu Shilqim va uning takasaltang birodarlari buning hammasi mug'ambirona bir o'yin ekanini yaxshi bilishardi. Chunki soyabon aravalardan mitti qushchalarday «par-par» uchib chiqqan bu malaklar ularning yonidan chopqillab o'tisharkan, birlari harir durralarini to'g'rilagan bo'lib, chehrai mohlarini bir ko'rsatib olishsa, boshqa birlari ko'z urishtirib o'tishar, bu ko'z urishtirish va imo-ishoralar goho-goho Juyi Mo'liyon bog'larining eng xilvat burchaklarida pinhona uchrashuvlar bilan tugardi!..

Kunlari mana shunday pinhoni uchrashuvlar va totli bo'salar bilan o'tgan Abu Shilqim va uning do'stlariga «xayolparast kelgindi»ning kitobfurushlar rastasida kitob titib, ivirsib yurishlari chindan ham kulgili tuyular, goho-goho ular Abu Alining yo'lini to'sib, gap qotishardi:

— Hey, birodar! Bu iprindi ishlaringni qo'yib, biz bilan yur! Ark yonidagi balxlik savdogarning kenja xotini alacha choponingga ko'zi tushib, oshiqu beqaror bo'lib qolibdi! Istasang, kechasi guzarga chiq. Sekin olib borib qo'yniga solib qo'yamiz!..

Ular shunday deb, qah-qah otib kulishar, Abu Ali esa, rangi «quv» o'chganicha, lom-mim demay yonlaridan o'tib ketardi.

Bir kun tong chog'i qaysi bir bazmdan qaytib, dong qotib uxlayotgan Abu Shilqimni kimdir tepib uyg'otdi. Ko'zini ochsa, tepasida padari buzrukvori, — ollo uning tuprog'ini yumshoq qilg'ay, — qaqqayib turibdi. Boshidagi hakimlar kiyadigan oq taqyasi bir tomonga og'ib ketgan, ko'zlari chaqchaygan, ko'ksiga tushgan oppoq soqoli jonli maxluqday dir-dir titraydi!

— Befarosat ho'kiz! Ana, kelgindi mirzoning sen tengi farzandi davlatpanohni davolab, behisob in'omlarga sazovor bo'ldi. Sen ho'kiz bo'lsang... yotibsen harom-xarish ishlardan boshing chiqmay!

Abu Shilqim keyin bilsa, eskifurushlar rastasida kitob titib yurguvchi bu xayolparast mullavachcha tabobat ilmini shunday o'rganibdiki, Buxoro hokimi No'h ibn

Mansurning og'ir dardiga davo topib, uning katta ehsonlariga sazovor bo'libdi!..

Kim bilsin, Abu Shilqimning yuragini kalamushdek kemirgan hasad va raqobat tuyg'usi o'shanda, g'azabdan soqoli dir-dir titragan padari buzrukvorining ilk tepkisini yegan kechasi tug'ilgandir? Har qalay, xayolparast mullavachchanning tabobat bobidagi shuhrati ortgan sayin, padari buzrukvorina emas, Abu Shilqimning ham ichi tuz ichganday achishadigan bo'ldi.

Sal o'tmay, keksa Nuh ibn Mansur olamdan o'tdi, uning kaltabin zurriyotlari bir-birlari bilan toju taxt talashib, ko'hna somoniylar davlatini batamom barbod qilishdi. Faqat Buxoro va Samarqand emas, butun Movarounnahr sahronishin qoraxoniylar hukmiga bosh egdi. Kechagina sahroyilarni mazax qilib, ustlaridan kulib yurgan Buxoro zodagonlari endi serviqor turkiy beklar bilan qiz berib, qiz olishishni o'zlari uchun ulug' baxt va katta sharaf, deb biladigan bo'lishdi.

Kunlardan bir kuni padari buzrukvori Abu Faysal Abu Shilqimni otga mindirib, sahroga olib chiqib ketdi. Ular Hurmiton<sup>1</sup> bog'laridan o'tib, Afshona tomonga ravona bo'lishdi. Ilk bahor edi. Afshona ortidagi bepoyon dasht uyur-uyur yilqiga, suruv-suruv qo'y-qo'zilarga to'lib ketgan, hammayoqda oq, qizil, jigarrang o'tovlar do'ppayib turar, ularning atrofida ot o'ynatgan bo'z bolalar, boshlariga ukki patlari qadalgan qizil qalpoqcha kiyib, sochlariga kumush ziynatlar taqib olgan qiz-kelinchaklar chopqillab yurishardi.

Abu Faysal eng baland qirdagi eng ko'rkam oq o'tov oldida otdan tushdi. Ota-bolani boshiga oq qalpoq, egniga uzun oq chakmon kiyib, belini kumush kamar bilan bog'lab olgan, uzun bo'yli, keksa bek kutib oldi. U Abu Faysalni oq o'tovga boshladi, Abu Shilqim esa o'tov yonida xizmat qilib yurgan qiz-kelinchaklarni tomosha qilib, tashqarida qoldi.

Qiz-kelinchaklarning aksari qizil guldor ko'ylak kiygan, oyoqlarida qizil, ko'k-sariq saxtiyon etikcha, bosh-

---

<sup>1</sup> H u r m i t o n — hozirgi Romiton.



larida esa o'sha, uchiga ukki pati qadalgan qizil chambarak qalpoqchalarni qo'ndirib olishgan. Ularning yumyumaloq, kulcha yuzlari ochiq, quralay ko'zlari sho'x chaq nab turar, yurganda sochlaridagi kumush ziynatlari ajib ovoz chiqarib jaranglar, bunga muloyim kulgulari qo'shilib, Abu Shilqimning yuragiga jaz-jaz tegardi.

O'sha kuni kechqurun Buxoroga qaytib ketayotganlarida otasi unga bir gap aytdi. Go'yo bu turkiy bekning davlati Buxoro hokimining davlatidan kam emas emish... Bekning o'n olti yashar bir qizi bo'lib, u betob emish. Biroq, inshoollo, tuzalib ketar, dedi otasi. Otasining bu gaplarini eshitarkan, Abu Shilqimning ko'z oldiga hozirgina ko'rgan qiz-kelinchaklar, kulcha yuzlarini yashirmay, muloyim kulib turgan sho'x sahronishin malaklar kelib, yuragi battar jazillab ketdi...

Bir necha hafta o'tdi. Bir kun kechasi, Abu Shilqim o'z bog'larida yor-do'stlari bilan chaqchaqlashib o'tirgan edi, ko'chadan otasi kirib keldi. Uning vajohatidan odam qo'rqqulik, rangi devorday oqargan, oppoq qoshlari tagidagi ko'kimtir ko'zlari qon talashgan. U sarmast odamday chayqala-chayqala shiyponga chiqdi-da, do'stlar davrasida may ichib o'tirgan erka zurriyotining orqasiga bir tepdi. Tepkiga bir-ikki musht ham qo'shmoqchi edi, biroq, osmonga ko'targan serhasham asosi to'satdan qo'lidan tushib ketdi-yu, bir qop go'shtday lor-sillagan odam, bor vujudi bilan yerga gursillab yiqildi...

Abu Shilqim keyin bilsa, otasining yo'lini tag'in o'sha kelgindi yosh tabib kesib o'tgan ekan. U bek qizining davosiz dardiga davo topib, katta in'omlar olgan, bek qizi esa yosh tabibga oshiqu bo'lib qolgan ekan. Rost, bek bu ishdan xabar topib, mash'um ishga to'g'anoq solibdi, qizini olib, bir kechada Afshonadan ko'chib ketibdi...

Kim bilsin, Abu Shilqimning yuragini och kalamushday kemirgan raqobat tuyg'usi o'shanda uyg'ongandir!

Yosh tabibning shon-shuhratiga dosh berolmay, hasad o'tida kuyib ketgan padari buzrukvori erka zurriyotiga ikki tepki in'om etib, o'sha yerning o'zida jon taslim qildi. Shundan keyin nima bo'ldi — buni Abu

Shilqimning o'zi ham bilmaydi. Chunki, «Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi» qabilida ish tutib, padarining jismi-ni tuproqqa berib kelgan kuniyoq ko'zini chirt yumib ayshga sho'ng'igan Abu Shilqim otasi yiqqan davlatni batamom sovurib bitirgandagina ko'zini bir ochdi. So'nggi somoniylar hukmdorining bosh tabibi Abu Faysal janoblarining dunyosi esa behisob edi. Oldin chuqur yerto'lalardagi po'lat sandiqlar ochildi, ulardagi ganjlar, nodir oltin buyumlar ketdi, keyin zeb-ziyatlar, noyob uy jihozlari, ipak gilamlar, billur idishlar, tilla va kumush qandillar, shamdonlar, ot-aravalar bozorga chiq-di, keyin ikki oshyonali niliy qasr, qasrdan keyin xiyo-bonlariga kumush favvoralar o'rnatilgan behudud bog', bog'dan keyin qasr oldidagi otxonalar, otxonalardan keyin molxonalar!.. Qo'ldan ketgan bu behisob boylik bilan birga Abu Shilqim ham yuqoridan pastga qarab yumalab tushaverdi: ikki oshyonali niliy qasrdan xiz-matkorlar uyiga ko'chib o'tdi, undan bog'dagi shiypon-ga, shiypondan otxonaga, otxonadan molxonaga... Axiyri bir kun ko'zini ochib qarasa... bog' etagidagi xaroba bir kulbada yotibdi? Na ichishga may qolgan, na yeyishga bir burda non! Egnida gadolar ham jirkanadigan eski chopon, tagida uvada namat, qolgan bitta-yarimta sandiq va qo'tichalarda hech vaqo yo'q, mog'orlab ketgan qan-daydir giyohlar, mayda-chuyda shishachalarga solingan allaqanday sassiq suyuqliklar! Yonida na onaizori bor, na hamtovoq yor-birodarlari va na aka-ukalari. Bari uni tark etgan, to'g'rirog'i, Abu Shilqim o'zi hammasini kafanga-do qilib tariqday sochib yuborgan edi!

Ne chora? Boshga tushganni ko'z ko'rar ekan. Tirikchilik — tirriqchilik ekan! Abu Shilqim yig'lab-siqtab, yor-birodarlaridan egniga bitta to'n, boshiga bitta dastor, tagiga qirchang'i bir eshak so'rab oldi, otasidan qolgan-qutgan giyohlarni, suyuqliklar solingan shisha-chalarni xurjunga joylab, tabib Abu Halim ibn Faysal nomi bilan sahronishinlar ovullarini kezib ketdi... Shu-shu, birda och bo'lsa, birda to'q, birda shohu birda gado, yillar o'tdi. Yuziga ajin, soch-soqoliga oq oraladi. U taqdirga tan berib, boriga shukur qiladigan bo'ldi. Faqat

bir narsa ba'zi-ba'zida tinchini buzib, yuragini tuz sep-ganday achitar, u ham bo'lsa, yana o'sha eski raqibi Abu Ali edi!

Abu Shilqim goho-goho biror sabab bilan dongdor hakimlar yoxud xorijiy sayyohlar majlisiga kirib qolgudek bo'lsa, aksar hollarda yana o'sha, bir mahallar kitobdolar va giyohvandlar do'konlarida ivirsib yurguvchi yosh tabibning nomi tilga olinar, cheksiz hurmat va iftixor bilan tilga olinardi! Emish, go'yo bu xayolparast tabib tibbiyot bobida tengsiz alloma bo'lgan emish, ajaldan boshqa neki kasal bo'lsa, hammasiga davo topar emish! Go'yo «Qonun» degan bir kitob bitgan emishkim, bu kitobni oltinga ham topib bo'lmas emish!..

O, bu Ibn Sino! Yoshlik chog'laridayoq yuragida hasad o'tini yoqib, halovatini buzgan, tinch, beg'ubor hayotini raqobat og'usi bilan zaharlagan Ibn Sino!

... Abu Shilqim ibn Shahvoniy peshonasini devorga gurs-gurs urib, yana yer tirnashga kirishdi. Shu payt to'satdan G'aznaga kelib, bu zindonga tushishga sabab bo'lgan g'aroyib bir voqea esiga tushdi, tushdi-yu, o'zi ham sezmagani holda yana xayol daryosiga sho'ng'idi.

... Bu g'aroyib voqeaning sodir bo'lganiga mana, o'n yildan oshdi. Xuddi hozirgiday ilk bahor edi. Abu Shilqim, tagida xachir, egnida ko'k movut to'n, boshida yangi simobiy salla — bu mahalda u Buxoro tevaragidagi qishloqlarda ancha-muncha ixlosmandlar orttirib, qorni to'ygan, qirchang'i eshagini xachirga, eski cho-ponini ko'k movut to'nga almashtirgan edi! Hurmiton bozori qaydasen, deb yo'lda yo'rtib borardi.

Hurmiton — Buxoro asilzodalari, arkoni davlat va arkoni harb, vaziru vuzaro, a'yonu boyonlarining yozgi qarorgohi. Ayniqsa qafasday tor shahar hovlilariga o'rganolmagan turkiy beklar Hurmiton tevaragidagi bepoyon dashtlarni xush ko'rishar, ko'klam chiqishi bilan mol-mulklarini tualarga ortib, turmaqator bo'lib qir va adirlarga ko'chib chiqishar edi. Bu payt Hurmiton bozorlari ham gullab ketar, Xurosonu Shosh, Tolos va Oloy tomonlardan boy karvonlar azim daryoday oqib kelardi!

O'sha kuni, turkiy beklar ovulida tabiblik qilib, xurjunining ikki ko'zini in'omlarga to'ldirib olgan Abu Shilqim xushnud kayfiyatda Hurmiton anhuri bo'yidagi bir karvonsaroyga kelib tushdi. Anhor sohili gavjum, oshxonalarda kabobpazlar kabob pishirar, somsa-pazlar somsa, novvoylar non yopishar, qovurilgan piyoz va go'sht, issiq non va qalampir hidi dimoqqa gup-gup urardi. Anhor bo'yidagi gilam to'shalgan so'rilarda zarbof va kimxob to'nli asilzodalar, kalondimog' tijorat ahli yonboshlab yotar, yo'qsillar, darveshlar, juldur chopon gadolar esa quyiroqdagi ko'm-ko'k o'tloqlarda to'p-to'p bo'lib o'tirishar, har kim topganini o'rtaga to'kkan edi... Abu Shilqim xachirini bir chetga tushovlab, zodagonlardan pastroq, gadolardan yuqoriroq bir so'ridan joy oldi-da, bir kosa qimiz bilan ikki six kabob so'radi.

U sopol kosadagi qimizni bir ko'tarishda bo'shatib, kabobga kirisharkan, quyiroqda o'tirgan, chap ko'zi ko'r bir darvesh yolg'iz ko'zini unga o'qdek qadab, tikilib-tikilib qarayotganini payqab qoldi. U nechundir yuragi «shuv» etib, ko'zini ko'r darveshdan olib qochdi. Biroq ko'r darvesh darhol o'rnidan turdi-da, ro'parasiga kelib, ta'zim bajo keltirdi:

— Assalomu alaykum, hakimi davron... Abu Ali ibn Sino hazratlari!

Abu Shilqim og'zi ochilganicha darveshning cho'g'day yongan yolg'iz ko'ziga hayrat bilan tikildi.

— Hakimi davron... Ibn Sino? Sen faqirni boshqa birovga o'xshatding, darvesh!

— Muborak nomingizni yashirmoqdan ne foyda, taqsim?— dedi ko'r darvesh, negadir ovozinı pasaytirib.— Bundan bir yil muqaddam kamina sizni Isfahonda, amir Alouddavla davrasida ko'rganmen. Isfahon ahli sizga sajda qilib, tabarruk jubbangiz etaklarini o'pganini o'z ko'zim bilan ko'rganmen!... Nechun o'z el-doshlaringizni bu saodatdan benasib qilasiz, taqsim?

«Yopiray! Bu telba darvesh ne deydi? Murodi ne buning?»

— Hozir ahli mo‘minni ogoh qilamen, toki ahli imon yaxshi doru darmonlaringizdan bahra olsin, xastalar davo topsin!

Yuragi orqasiga tortib ketgan Abu Shilqim, «hoy-hoy», deguncha bo‘lmadi. Ko‘r darvesh kaftlarini og‘ziga karnay qihb:

— Hoy ahli imon, yaxshilar! — deb xitob qildi. — Eshitmadim demanglar, g‘aflat uyqusida qolmanglar! Allomalar mukammali va hakimlar afzali hazrat Ibn Sino tavallud topgan o‘z yurtiga qadam ranjida qilmish! Kimki bu hakimi hoziqning yuksak kamoli va nurli jamohdan bahra olib, davosiz dardiga davo topmoq istasa — marhamat qilsin!

— Anhor sohilini to‘ldirgan «ahli imon» birdan «gurr» etib ko‘tarildi-yu, Abu Shilqim bilan ko‘r darvesh tomon yopirildi. Rost, chinor soyasida so‘rilarda yonboshlab yotgan serviqor asilzodalar orasida masxaraomuz kulib qo‘yganlar ham bo‘ldi, biroq ularning kulgusi birdan «gurr» etib ko‘tarilgan olomonning shov-shuvi ostida ko‘milib ketdi. Nogahon yopirilib kelgan «ahli imon» bir-birining gapiga quloq solmas, hamma to‘satdan «hazrat Ibn Sino»ga aylangan Abu Shilqimni ko‘rishga intilar, birov juldur kiyimini shartta yechib, irigan-chirigan oyog‘ini namoyish etar, birov yarasini, birov chaqasini degandek, birov nogiron bolasini ko‘rsatar, birov onasini! Xullas kalom, bir zumda bo‘ldi to‘polon, bo‘ldi to‘polon!

Ko‘r darvesh zudlik bilan chopib borib, xachir ustidagi xurjunni sudrab keldi. Shundan keyin Abu Shilqim ham lom-mim demay xastalarni «davolash»ga, ya‘niki, xurjunidagi giyohlarni ulashishga tutindi. U og‘ziga kelgan gapni aytib giyoh ulashar, ko‘r darvesh esa, yomg‘irday yog‘a boshlagan oqchani yig‘ar edi! Xurjunning ikki ko‘zini to‘ldirgan giyohlar — tuyatovon, otquloq, yovvoyi yo‘ng‘ichqa, cho‘girtikonlar talqoni, rayhon va kiyik o‘ti, bodom va tog‘ yalpizi, turfa gullar aralashmasi, yantoq va shuvoq ildizlari, nasha, ko‘knori poyalarining qaynatmalari va ularning urug‘lari, qo‘yingki, Abu Shilqim keksa tabiblardan nimaniki eshitib,

tog'u toshlardan nimaniki yig'ib olgan bo'lsa, hammasi ko'z ochib-yumguncha kumush va hatto oltin tangalarga aylandi... Shundan keyin ko'r darvesh «hakimi davron» charchaganini ro'kach qilib, kimki chorasi topilmas dard va qutulib bo'lmas ajal balosidan qutulmoqni istasa, ertaga Hurmiton bozoriga marhamat qilishlarini tayinladi-da, yig'ilgan «ahli imon»ni tarqatdi... Lekin ertasiga ular Hurmiton bozori emas, sayqali ro'yi zamin Samarqand qaydasen deb, Samarqand tomon ravona bo'lishdi.

Shu-shu, falakning gardishi bilan hazrat «Ibn Sino»ga aylangan Abu Shilqim ibn Shahvoniy firib bobida ustasi farang ko'r darvesh bilan birga butun Movarounnahrni kezib chiqdi. Ular Samarqand va Shosh, O'tror va Yassi, Gurganj va Sig'noq — qo'ying-chi, bormagan shahri, ko'rmagan yurti qolmadi. Asta-sekin oddiy choponlar kimxob va banoras to'nlarga, otlar soyabon aravalarga almashtirildi, mayda chaqa va kumush tangalar oltin dinorlarga aylandi. Ko'r darvesh kamlik qilib, qo'l-oyoqlari chaqqon, dasti beminnat yosh g'ulomlar xizmatga olindi. Ular endi yo'lga chiqsa eng badavlat tijorat ahli bilan, katta karvonlar bilan birga chiqishar, shaharlarga borganda eng boy karvonsaroylarni tanlashar, eng ko'rkam, eng ziynatli xonalarga tushishardi. Ertasiga, egniga g'aroyib janda, boshiga g'aroyib telpak kiyib, kashkuliga isiriq solib olgan ko'r darvesh, ikki yonida ikki g'ulom, bozorga chiqardi:

*Hoy, ahli mo'min, yaxshilar,  
Eshitmadik demanglar!  
Luqmon hakim duogo'y,  
Pirlaridan boobro'y,  
Ibn Sino nomi bor,  
Yetti iqlim dong'i bor!  
Dard yo'qdir ul bilmagan,  
Chorasini qilmagan!  
Baloni daf etadi,  
Qazoni daf qiladi.  
Ahli imon, yaxshilar,  
Eshitmadik demanglar!..*

Bu orada ko'r darveshdan saboq olgan yosh g'ulomlar o'zlarini olomon orasiga urishar, bir to'pdan ikkinchi to'pga o'tib, hazrat Ibn Sino to'g'risida har xil hikoyat va rivoyatlar aytishardi:

— Xudovandi karim bu zoti muborakka shunday salohiyat ato qilgankim, tibbiyot bobida bilmagan ilmi yo'qdir. Birgina tomir urish holatiga qarab, sakkiz yuz sakson sakkiz dardni topadi. Yaqinda hazrat Ibn Sino huzuriga Nishopurdan bir navjuvon yigitni olib keldilar. Olib kelguncha esa, yetti iqlim hakimlariga ko'rsatganlar, ammo hech bir tabib, na Chin, na Hind va na Rum hakimlari sho'rlikning joniga ora kirganlar, dardiga davo topganlar! Shunda hazratim bu foniyy dunyodan ul boqiy olamga rixlat qilishga chog'langan bu majruhning tomirini ushlab, tug'ilgan shahrini so'radilar. Aytdilar. So'ngra hazratim yigit tavallud topgan shaharning barcha dahalarini nomma-nom sanab chiqishlarini so'radilar. Sanab chiqdilar. So'ngra hakimi davron nomi zikr qilingan dahadagi har bir ko'chani bir-bir aytib o'tishlarini so'radilar. Aytdilar. Shunda hakimi hoziq bu ko'cha-da istiqomat qilg'uvchi barcha xonadonlarni nomma-nom atab chiqishlarini so'radilar. Atab chiqdilar. Shunda taqsiri olam bu xonadonning hamma a'zolarini bir-bir sanab o'tishlarini so'radilar. Sanab o'tdilar. Bas! Sanash chog'ida bir sohibjamol ismi tilga olingan edi, sho'rlik yigitning yuziga qizillik yugurib, yumuq ko'zlari «yarq» etib ochilib ketdi. Shunda xastaning tomir urishiga quloq solib o'ltirgan hakimi davron uning qo'lini qo'yib yuborib kuldilarkim:

— Yigitning dardi oshiqlikdur! Darhol tug'ilgan shahringizga qayting! Xasta farzandingizga o'shal sohibjamolni olib berib, to'y-tomosha bilan ularni qovushtiring, illo, yigit dardining davosi visoldur!

Ikkinchi g'ulom sershovqin bozorning boshqa bir joyida atrofiga bir guruh bekorchilarni yig'ib, ollo onasining qornidayoq tengsiz salohiyat va cheksiz zakovat ato qilgan allomai zamonning zakiyligi to'g'risida va'z aytardi:

Shundaykim, hazrat Ibn Sino hali tili chiqmagan chog'ida ularning xonadonida bir yosh cho'ri xizmat qil-

gan. Cho'ri go'dakni, go'dak uni yaxshi ko'rgan. Bir kun cho'ri uy bekasining yoqut ko'zli nodir uzugini olib, go'dakka ko'z-ko'z qilib o'ynab o'tirgan ekan, uzuk bir qop tariq ichiga tushib ketgan, cho'ri esa, buni bilmay qolgan. Chunki shu payt uni uy bekasi chaqirib qolgan.

Bir mahal uy bekasi cho'risidan uzugini so'raydurkim, uzuk yo'q. U uzukni qayga qo'yganini bilmaydi. Bas, cho'rini o'g'rihikda ayblab, uydan haydab yuboradilar. Cho'ri yig'lay-yig'lay xonadondan chiqib ketadi. Buni ko'rgan go'dak ham chirqirab yig'laydi. U ikki kun tinimsiz yig'laydi, nechundir bir qop tariqqa talpinib yig'laydi. Buni ko'rgan go'dakning otasi bu qopda bir sirasror bo'lsa kerak deb, qopdagi tariqni yerga to'kib, uni titib ko'radi. Qaraydiki, tilla uzuk tariq ichida! Ota-ona go'dakning zakiyligiga lol qolib, cho'rini topib keladilar va undan afv so'raydilar!

Shahar bozorlarining eng gavjum joylarida, rasta va guzarlarda ko'r darvesh boshliq g'ulomlar hazrat Ibn Sino to'g'risidagi bunday rivoyatlarni to'qishda davom etar, Abu Shilqim esa, egnida qimmatbaho movut to'n, boshida hakimlar kiyadigan ko'k movut qalpoq, qo'lida oltin barobariga sotib olingan «Al-Qonun», serhasham xonaning to'rida savlat to'kib o'tirar va eshikda turnaqator tizilgan xastalarni bitta-bitta qabul qilardi. U, ko'zlari yumuq, xushsurat, cho'zinchoq yuzida viqorli tabassum, goh xastalarning tomir urishlariga, goh qorin va ko'krak qafaslariga quloq tutar, so'ng, giyoh to'la sandiq oldida qo'l qovushtirib o'tirgan ziyrak g'ulomiga murojaat qilardi. Forsiy kirsra giyohlar nomini turkiy, turkiy kirsra forscha aytar, bu narsa nechundir xastalarni lol qoldirar, ularning qalbida «hakimi davron»ga nisbatan cheksiz mehr va ixlos uyg'otardi. Eng qizig'i, Abu Shilqim buyurgan dorular aksar hollarda bo'lmasa ham, bot-bot xastalarga shifo keltirar, shunda basavlat va badavlat a'yonlar ta'zimga kelar, ta'zim bilan birga lutfi ehson deganingiz yomg'irday yog'ilib kelaverardi. Biroq, e voh! Po'lat sandiqlarni to'ldirib yuborgan bu oltinlar oxir-pirovardida faqat yaxshilik emas, baloi nafs atalmish dardi bedavoni ham yetaklab keldi-yu, bir kuni



Abu Shilqim bilan ko'r darvesh orasida yomon o't chiqdi!

— To'g'ri, tushgan oqchalarda sening ham ulushing bor, shaytoni basir! — dedi Abu Shilqim. — Ulushingni olib turibsen, shukur qil! Bu ehsonlar senga keldimi yo hakimi davron... ya'niki, kaminagami?

Ko'r darvesh, yolg'iz ko'zi sovuq chaqnaq, zaharxanda qildi:

— Hakimi davron emish! Hali sen chin Ibn Sino ekaningga inonib ham qolgandursen? Yomon eshak o'z egasini ustiga mindirmaydi. Seni «hakimi davron» qilgan kim ekani yodingdan chiqibdi, ho'kiz!

Lekin ho'kizdan «hakimi davron» yaratgan ko'r darvesh nechog'liq yanglishganini bilmas, Hurmiton bozori-dan topgan bu «ho'kiz» allaqachon qashqirga aylanganidan bexabar edi. Bu qashqir o'zi yollagan katta karvon bilan ovloq Gurganjdan Buxoroga qaytarkan, bir kun kechasi joniga tekkan «shaytoni basir»ni sodiq g'ulomlariga ushlatib, qo'l-oyog'ini bog'latdi-da, hadsiz qumliklar orasiga tashlab ketdi. Qashqir qashqirligini qildi. Uning ko'nglini na ko'r darveshning achchiq far-yodi erita oldi, na yolg'iz ko'zidan tirqirab oqqan obidiy-dasi!

Kim bilsin, ehtimol, Abu Shilqim ibn Shahvoniy bu ayovsiz ishni qilmaganida bugun boshiga bu savdolar tushmas edi. Zotan, kimsan Ibn Sino nomi bilan shuncha boylik orttirganidan keyin bu qaltis ishni qo'yib, tinchgina kun kechirsa bo'lmasmidi? Shunday qilganida hozir, ehtimol, bu sovuq qabrda yer tishlab yotmas edi!

Ha, Abu Shilqim o'shanda ona yurti Buxoroga behisob davlat bilan qaytdi. Ota mulkini sovurib, gado kiyimida chiqib ketgan Abu Shilqim o'n-o'n besh yildan keyin bir karvon mol-dunyo, o'nlab g'ulomlar, bir nechta go'zal kanizlar va xurjun-xurjun ganj bilan qaytdi. U nafaqat Juyi Mo'liyon dahasidagi bog'u rog'larini qaytarib oldi, balki saroy tabiblari davrasiga kirishga ham muassar bo'ldi. Rost, Buxoroi sharifda chin Ibn Sinoni ko'rganlar va bilganlar bo'lgani uchun o'zini hazrat Ibn Sino deb atashga jur'at etmadi. Lekin bunga ehtiyoj ham

yo'q edi. Busiz ham sal o'tmasdanoq Buxoro hokimi amir Aliteginning eng yaqin habibi va tabibiga aylandi. Padari buzrukvor Abu Faysal so'nggi somoniylar davrida qanday izzat-e'tiborga ega bo'lgan bo'lsa, Abu Shilqim somoniylar davlatini zer-zabun qilgan ilxonlar saroyida shunday izzat-ikromga erishdi. Ammo... baxtga qarshi, bundan uch-to'rt yil muqaddam mana shu mustabid sulton Mahmud G'aznaviy o'n ming jangovar fil va hisobsiz lashkar bilan Buxoro sarhadiga bostirib kirdi-yu, Abu Shilqimning inongan tog'i amir Alitegin Buxoroni tashlab qochdi. O'n ming tuyalik mol-dunyosi, sandiq-sandiq oltinu kumushlari, mashhur harami, haramidagi kenja xotini bilan suyakli qizini tashlab qochdi. Aliteginning bu behisob ko'chi orasida Abu Shilqimning ham o'ttiz-qirq tuyalik mol-mulki, bir necha sandiq ganji va bir necha go'zal kanizlari qolib ketdi.

Mayli, bosh omon bo'lsa telpak topilar, degan gaplar rost ekan. Abu Shilqim sal o'tmay sulton Mahmud suvorilari qo'lida ketgan qirq tuya dunyosini qayta tiklab oldi. Alitegin ham o'n ming tuya dunyosini yuz ming tuya qilib qaytarib oldi. Sultondan emas, yo'q, jafokash fuqarodan qaytarib oldi. Ammo sultonning qo'lida ketgan haramini, to'g'rirog'i, haramidagi suyakli kenja xotini bilan suyakli qizini qaytarib ololmadi.

Alitegin necha marta G'aznaga elchi yubordi, xotini bilan qizi o'rniga ulardan ming chandon suluvroq kanizlar va'da qildi, lekin sulton Mahmud nechundur bu ikki asirani qaytarishni istamadi.

Har safar G'aznaga yuboriladigan elchilar quuruq qaytib kelganda amir Alitegin qafasga tushgan yo'lbarsday o'kirib, sulton Mahmudga qarshi lashkar tortishga chog'lanardi. Biroq g'azabidan tushib, sal hushiga kelgach, barobar qadam tashlaganda Buxoro tuprog'ini larzon-larzon qilgan o'n ming jangovar fil ko'z oldiga kelar, xartumlarning barobar ko'tarib, barobar o'kirganda osmoni falakni zir titratgan na'ralari quloqlari ostida qayta yangraganday bo'lardi-yu, dami ichiga tushib ketardi...

Bundan besh-olti oy muqaddam kutilmagan bir voqea sodir bo'ldi-yu, Abu Shilqimga bir umr tinchlik bermagan hazrat Ibn Sino yana uning halovatini buzdi.

Vaqt tun yarmidan oshgan edi. Kechasi bilan aysh qilib charchagan Abu Shilqim mast uyquda edi. Banogoh saroydan chopar kelib uni uyg'otdi.

Abu Shilqim saroyga yetib borganida amir Aliteginning mashvaratxonasiga Buxoroi sharifdagi barcha ulamoi zabardastlar, mashhur allomalar, saroy tabiblari va shoirlari yig'ilgan edi. Amirning o'zi, odatdagiday, qovog'i soliq, bir mahallar Nuh ibn Mansur o'tirgan oltin taxtda bir tutam siyrak soqolini silab, xayolga cho'mib o'tirar, uning o'ng tomonidagi kursini notanish, qiyg'ir burun bir kimsa egallagan edi. Ma'lum bo'lishicha, surmarang sallasiga elchilik nishoni qadalgan bu kimsa amiralmuslimin sulton Mahmud G'aznaviyning maxsus va muxtor elchisi bo'lib, hazrat Ibn Sinoni qidirib yurgan ekan. Elchining qo'lida shohkosaning yuzidekkina yumaloq surat bo'lib, bu Ibn Sino hazratlarining suratlari edi. Amir Alitegin elchining qo'lidan bu suratni olib, mashvarat ahliga namoyish qilar ekan, puchuq burnini jiyirib kuldi:

— Ehtimolkim, oralaringda yashirinib yurgandur bu hakimi davron? Ana, Abu Halim ibn Faysalga qaranglar! Suratdagi hazrat Ibn Sinoning baayni o'zi? Vo ajabo! Nechun yashirinib yuribsiz, taqsiri olam? Yashirinmang! Toki, amiralmo'aminin Ibn Sino hazratlariga bo'yi barobar oltin in'om etmoq azmida emish!

Amir Alitegin shunday deb qah-qah otib kuldi. Lekin Abu Shilqimga yalt etib qaragan mashvarat ahli orasida: «Yo tavba, xuddi o'zi-ya! Xuddi...» — deb shivir-shivir qilganlar ham bo'ldi... Sultonning elchisi ham mushukning ko'zlariday sarg'ish ko'zlarini chaqchaytirib, Abu Shilqimga qadalib qolgan edi. Biroq Abu Shilqimni har kuni ming marotaba ko'rib, u bilan ming marotaba so'zlashib yurgan odamlarning uni hazrat Ibn Sino deb tan olishlari jezni oltin deyish bilan barobar edi!

Darhaqiqat, mashvarat ahlining «Yo tavba! Xuddi o'zi-ya! Xuddi!» degan shivir-shiviriari avval kulguga,

kulgu piching va kesatiqlarga aylandi-yu, Abu Shilqimning usiz ham hasad va raqobat o'tida kuygan yuragi batar kuydi. U shunday yonib ketdiki, ertasiga bor mulkini, kanizlari va g'ulomlarini Buxoro bozoriga chiqarib pulladi, uy-joyini ishonchli odamlar qo'lga topshirdi, so'ng saroy musavviriga elchi suratidan bir nusxa ko'chirtirib xurjuniga joyladi-da, Balx tomon otlangan katta karvon bilan birga subhi sodiq Buxoro darvozasi-dan chiqdi. Ikki haftadan keyin, ko'r darvesh bilan birga qilgan ishini Balxda takrorladi. Jarchi yollab jar soldirdi. Buxorolik yosh shogirdi esa hazrat Ibn Sino to'g'risidagi hikoyalardan so'zladı. Sinov Abu Shilqim ibn Shahvoniy kutgandan ming chandon yaxshi o'tdi. Xasta borki, unga asalga yopishgan pashshaday yopishdi. Pul deganingiz yomg'irday yog'ildi. Shundan keyin ular Teginobodga, Teginoboddan G'aznaga yo'l olishdi...

Xo'p, u yog'i-ku shunday bo'ldi, endi bu yog'i ne bo'ladi? Taqdiri ne kechadi? O, qarib quyulmagan nodon! Bir oyog'ing yerda bo'lsa, bir oyog'ing go'rda turganida hazrat Ibn Sino bo'lishni orzu qilgan miyasiz eshshak!

Yo'q, nafsilamrini aytganda Abu Shilqim ibn Shahvoniy hazrat Ibn Sino bo'lish uchun qilmadi bu ishni. U faqat... omadi kelib, sultonning qalbiga yo'l topa olsa, amir Aliteginning kenja xotini bilan suyuqli qizini qutqazib olish niyatida jazm qilgan edi bu yumushga! Ularni qutqazib, Aliteginga in'om qilish va bu bilan Buxoro hokimining cheksiz muhabbatiga erishish niyatida bel bog'lagan edi bu ishga! Mana, niyatiga ham yetdi! Yetdi-yu, yiqildi! Endi bu sovuq go'rdan chiqishi amrimahol uning! O'ligi chiqadi bu go'rdan! Yo'q, o'ligi ham chiqolmaydi, kalamushlarga yem bo'ladi o'ligi, yem!..

Abu Shilqim ibn Shahvoniy yana peshonasini yerga gurs-gurs urib, yer tirnashga kirishdi.

## **Sakkizinchi bob**

Beruniy go'yo yomon tush ko'rib bosinqiragan odamday, yuragi gurs-gurs urib uyg'onib ketdi. U anchagacha qayerga kelib qolganini anglay olmay yotdi, so'ng ko'zi shiftdagi do'ppidekkina tuynukka, g'adur-budur devor tokchasida miltirab turgan moychiroqqa tushdi, tushdiyu, yuragi orqasiga tortib ketdi.

Subhonollo! U tanish hibsonada, bundan o'n uch yil muqaddam G'aznaga kelgan, to'g'rirog'i, majburan olib kelingan yili tushgan zindonda yotardi! Faqat unda bir o'zi emas, yonida keksa ustod Abdusamad Avval ham bor edi.

Kecha Osmon malikasi qasrida bo'lgan mashvaratdan keyin Beruniyning harorati oshib, ahvoli shunday og'iriashdiki, bu sovuqtosh qafasga qanday kelganini bir eslasa, bir eslay olmaydi.

U hamon o'z ko'zlariga ishonmas, nazarida, hamon tush ko'rayotganday edi. Yo'q, bu tush emas, u chindan ham o'n uch yil muqaddam tushgan zindonda yotardi. O'n uch yil ichida zindonda hech narsa, hatto yerga to'shalgan eski bo'yralar ham o'zgarmabdi! Faqat ustod Abdusamad Avval yo'q, ustod yotgan joyda hozir qora qurum bosgan katta cho'yan qumg'on turardi, xolos.

Ustod Abdusamad Avval!..

Beruniy a'zoyi badani zirqirab, asta ko'zini yumdi, yumgan zahoti nigohi oldiga Ko'shki davlat maydoniga yig'ilgan behisob olomon keldi... Olomonning qoq o'rtasidagi ochiq joyga baland so'ri qurilib, unga to'rtta dor tikilgan, dorlar tagida soqollari ko'ksiga tushgan to'rtta mo'ysafid turar, ular orasida... ustod Abdusamad Avval ham bor edi.

Qo'llarida og'ir kishan, egnida kafan yanglig' uzun bo'z yaktak, yalang bosh, yalang oyoq, osmonga tikilgan ko'zlarida qo'rquv emas, yo'q, cheksiz bir qahr, soqol bosgan shiddatli yuzida mag'rur sokinlik!

Yodida bor, bu mudhish voqeadan bir hafta oldin ularni, ya'ni Gurganjdanday haydab kelingan bir guruh allo-

---

<sup>1</sup> Mashhur olim, Beruniyning ustozlaridan biri.

malarini Ko'shki davlat saroyiga taklif qilishgan edi. Xuddi kechagiday noyob zebi ziynatlar, ipak gilamlar, billur qandillar, g'aroyib oltin ma'budalar bilan bezatilgan mashvaratxonada ularni sulton o'zi qabul qilgan edi.

U mahalda sulton hali yigitday navqiron edi, egnida zarbof to'n, boshida injular qadalgan toj, serbar tilla kamarida tilla shamshir, oyog'ida kumush nag'al qoqilgan g'arch-g'urch etik, sulton Mahmud o'shanda Xorazmdan keltirilgan allomalarga, ayniqsa Abu Rayhon bilan ustod Abdusamad Avvalga katta izzat-ehtirom ko'rsatgan, ularni ulug'lab, oltin kosalarda sharob sipqargan, ziyofatdan keyin esa, egnilariga kimxob to'nlar yopgan, qimmatbaho sovg'a-salomlar in'om etgan edi. Abu Rayhon ziyofat vaqtidayoq g'aznalik shoirlar, xususan, ulamoi zabardastlarning qovoq-tumshuqlari osilib qolganini payqab, ko'ngli g'ash bo'lgan edi. Darhaqiqat, uch-to'rt kun o'tmasdanoq, tun yarmidan oshganda uning hujrasiga bir guruh navkarlar bostirib kirib, uni «Qal'ai qahr» deb dong chiqargan mana shu tosh qafasga olib kelib tiqishgan edi. Eng yomoni — uni olib kelishganda hozir qora qumg'on turgan joydagi eski bo'y-rada... ustod Abdusamad Avval yotgandi!

Keyin bilsa... mashvarat vaqtida qovoqlaridan qor yoqqan G'azna ulamolari ularni sotqinlikda ayblashgan, bunga esa Berniyning qarmatiylar<sup>1</sup> rahnamosi imom Ismoil kechmishlari haqidagi bir risolasi sabab bo'lgan ekan?..

Xorazmda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida xizmat qilib yurgan chog'larida pinhona yozilgan bu risolani dunyoda faqat bir odam, u ham bo'lsa ustod Abdusamad Avval bilar, to'g'rirog'i, risola o'zi ustodning iltimosiga binoan yozilgan edi. Yoshlik chog'larida badavlat padarining badavlat xonadonini tark etib, tabiblik bilan kun kechirgan ustod Abdusamad avval yolg'iz imom Ismoilni tan olar, haq yo'lida esa tariqatdan boshqa hamma narsani inkor etardi! U namozni birda o'qisa, birda o'qimas, ro'zani ham birda tutsa, birda tutmas,

<sup>1</sup> O'rti asrlarda diniy g'oyalar vositasida feodal zulmiga qarshi qaratilgan kurashchilar oqimi.

ammo bir burda non topsa yo'qsillar va yetim-esirlar bilan baham ko'rardi. U faqir hujrasida zohidlik qilib, yo'qlab kelgan bitta-yarimta kasallarni davolar ekan, hech kimdan tap tortmay:

— Qur'oni karim nedur? — deb xitob qilar va o'zi javob berardi: — Adlu haqiqatdur! Gunohi kabir nedur? Zebi ziynat va ayshi ishratdur! Savobi azim nedur? Mehri shafqatdur! O'zing yanglig' bandalarni suymoqdur! Baloi nafsnı tiymoqdur!..

Ustod Gurganjda, o'z kulbai vayronasida o'tirib, kelgan-ketganlarga o'z e'tiqodini bayon etarkan, birovlar uning va'ziga quloq solsa, birov quloq solmas: ko'plar uni tarkidunyo qilgan bir devona deb hisoblar edi. Lekin bir qarashda g'arib ko'ringan bu chol faqat tabobat emas, boshqa ilmlar bobida ham tengsiz edi!

Tarki odat amrimahol, deganlaridek, ustod G'aznaga kelgandan keyin ham o'z odatini qo'ymadi, hech kimdan tap tortmay o'z so'zini so'zlayverdi. U hatto o'sha kuni, Ko'shki davlatda bo'lgan sulton G'aznaviy mashvaratida ishtirok etgan kuni ham, ketayotganlarida, egniga yopilgan kimxob to'nini yechib tashlab ketgan va uning zindon qilinishiga bu mislsiz «takabburligi» ham sabab bo'lgan edi!

O'shanda, mana shu zil-zalvar eshik ochilib, Beruniyni bu tor qafasga itarib yuborishganlarida, ustod bo'yraga tiz cho'kib, namoz o'qib o'tirardi. Toat-ibodatga birda rioya qilib, birda rioya qilmaydigan ustod eshikda Abu Rayhonni ko'rib «yalt» etib qaradi. Osoyishta sersoqol yuzida kishini rom qiluvchi bir shiddat, o'siq qoshlari tagiga yashiringan sinchkov nigohida o'zgacha bir qat'iyat.

— Yodingda bo'lsin, Abu Rayhon! Imom Ismoil... — tangri uning qabrini munavvar etgay! — Imom Ismoil tariqati to'g'risidagi risolani kamina bitganmen! Sen emas, kamina bitganmen! So'zimni angladingmu, Abu Rayhon!

Beruniy beixtiyor boshini xam qilib:

— Bu so'zga kim inonadi, ustod? — deb so'radi. — Risolaga kaminaning nomi bitilgan.

— Yo‘q, faqir sening nomingni o‘chirganmen. Ne chora? Gurganjdan kelgan munofiq bir hamyurtimiz, sababi baxillik, ig‘vo qilmish! Yodingda bo‘lsin — sen yoshsen, kamina esam, yoshimni yashab, oshimni oshab bo‘lganmen.

— Ustod!

— Bas! — chol, to‘satdan oldidagi qora qumg‘onni olib, yerga gursillatib urdi. — Agar bu tilagimni bajo keltirmasang bergan ilmimga rozi bo‘lmasmen!

Beruniy arang boshini ko‘tarib, qora qumg‘ondan bir qultum suv ichdi, hamon ko‘z oldida turgan to‘rtta dorni haydamoqchi bo‘lib yana ko‘zini yumdi, lekin bu voqea go‘yo o‘n uch yil avval emas, xuddi kuni kecha bo‘lib o‘tganday, sira nigohii oldidan ketmas edi.

Ustod, egnida oq kafan kabi uzun bo‘z yaktak, yalang bosh, yalang oyoq baland dor tagida turipti, taqir qirilgan ulkan boshini baland ko‘tarib, ko‘krak kerib turipti, osoyishta chehrasida, ko‘kka tikilgan o‘tkir ko‘zlarida na qo‘rquv bor, na iztirob!

Ana, osmoni falakni zir titratgan nog‘oralar gumburiyu karnay sadolari ostida darvoza ochilib, saroydan... bir yonida vaziru vuzaro, bir yonida qozi Sayid, sulton Mahmud ko‘rindi. Qilich yalang‘ochlab, ot o‘ynatgan yuzlarcha sarbozlar qurshovida sulton dor ro‘parasidagi ulkan marmar supaga chiqdi, chiqishi bilan Ko‘shki davlat maydonini zir titratgan nog‘oralar gumburi, osmoni falakni larzaga keltirgan karnay sadolari tinib, dengizday guvillagan olomon birdan suv quyganday jim bo‘ldi.

O‘shanda hibsdan chiqib, yana allomalar davrasiga qo‘shilgan Beruniy ikki ko‘zi ustodda, karaxt bo‘lib turar, u butun vujudi bilan ustod tomon talpinar, u bilan so‘ngbor quchoqlashib vidolashgisi kelar, ayni zamonda, qandaydir bir mo‘jiza ro‘y berib, dor tagida turgan ustodning afv etilishini ko‘kdan iltijo qilardi.

Yo‘q, Beruniy kutgan mo‘jiza ro‘y bermadi. Karnay sadolari va nog‘oralar gumburi to‘xtab, yig‘ilgan olomon sukutga cho‘mishi bilan qozi Sayid o‘rmidan turib, va‘z aytdi. U adolat qilichini qo‘lida mahkam ushlab, barcha



g'animlarni qatlu om qilishga ahdu jahd etgan, kulli mo''minlar mukammali va bani odamlar afzali amiral-muslimin, sulton Mahmud ibn Sabuqtegin a'lo hazratlariga hamdu sanolar o'qidi. Egnida tiriklar libosi bo'lmish qora libos, boshida oftobda ajib tovlangan surmarang salla, qoziul quzzot<sup>1</sup> Sayid hazratlarining ovozi tobora tiniqlashib borar, yig'ilgan olomonni sehrlovchi ajib ohanglar kasb etib, maydon uzra bir tekis oqardi. Lekin, banogoh, imom hazratlari endi ilhomga kirib, ovozi endi yuqori pardalarga ko'tarilganida dor tagida turgan ustod qo'lini betoqat silkitdi-yu:

— Xudo nedur, ey betavfiq? — deb xitob qildi. — Xudo — bu adlu haqiqatdur!

Kutilmaganda momaqaldiroqday qaldiragan bu ovoz Ko'shki davlat qasrining yuksak tillakori peshtoqlariga urilib, o'n barobar kuchli aks sado berdi: — Adlu haqiqatdur?... Savobi azim nedur? — Yetim-yesirlar boshini silamoqdur! Gunohi kabir nedur? — Sen betavfiq yanglig' ayshu ishrat va zebi ziynat ishqida insofu diyonatni unutmogdur!

Ustod har safar ovozi momaqaldiroqday qaldirab xitob qilganida saroy peshtoqlari yuz barobar kuchli aks sado berar, butun maydon — nain-ki maydon, hatto soyning u yuzidagi shahar, behisob ko'chalar, ko'chalardagi rastalar, karvonsaroylar, guzarlar — butun dorusaltana bu xitob, bu aksi sado sehriга mahliyo bo'lib qolgan edi. Go'yo bu so'zlar tiriklayin oq kafanga o'ralgan yalang oyoq, yalang bosh bir allomaning va'zi emas, g'oyibdan kelayotgan ilohiy nido edi!

Bu nido sehridan birinchi bo'lib hoziul quzzot hazratlari hushiga keldi.

— Siphosolor qayda? Bu shakkok so'zlarni eshitmoq — gunohi kabir emasmu? O'chir ovozini bu betavfiqning! O'chir!

«O'chir! — sado berdi tillakori peshtoqlar. — O'chir!».

Dor tagida qandaydir kurash boshlandi. Ustodning boshiga sirtmoq tashlandi, ammo shu payt hamon den-

<sup>1</sup>Qoziul quzzot — bosh qozi.

gizday guvillagan olomon uzra yana o'sha ilohiy ovoz yangradi:

— Hoy, ayshu ishrat azmida imonu e'tiqodini yodidan chiqargan bandai ojiz! So'nggi kalomimni eshitgaysen!.. Xudovandi karim gunohlaringni kechirmaydi sening!.. Qilichidan qon tomgan senday mustabidni...

— Chop!

Qoziul quzzotning hayqirig'idan hushlariga kelgan suvorilar olomon tomon ot surdi-yu, hammayoq ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi...

...Mana, o'n uch yildirki bu manzara, bu alamli tuyg'u Abu Rayhonning xayolidan ketmaydi, bil'aks, har eslaganida ko'ksiga nina sanchilganday bo'ladi...

O, ustod, ustod!

Mana Beruniyning o'zi ham esini tanibdiki, haqiqat izlaydi. Haqiqat yo'lida kirmagan ko'chasi, yurmagan yo'li qolmadi. Birda uni ko'kdan kutsa, birda ilm va aqlu idrokdan qidirdi, yana birda Qobus ibn Vushmagir, Ma'mur ibn Ma'mun va sulton Mahmud kabi hokimlarni yo'lga solib, haqiqatni qaror toptiraman, deb o'yladi, biroq, e voh, ustoz aytgan adlu haqiqat hamon undan qochmoqda, shamol kabi, yovvoyi o'hu kabi tutqich bermay qochmoqda. U bo'lsa umri bino bo'ptiki, «haqiqat» deb atalmish bu «ohu»ni quvib yuribdi. Bil'aks, tunov kuni Unsuriy aytgan «ne'mati ilohiy»ni inkor etmay, uni «bor» deb qutulib ketsa bo'lasmidi? Unsuriy kabi og'zi to'lguncha oltin oshasa bo'lasmidi? U esa... hayhot, haqiqatni aytaman deb, mana, sovuq go'rda yotibdi!

Bundan uch-to'rt yil muqaddam, Hindistondan endi qaytgan mahallarida, bir kun sulton uni Ko'shki davlat saroyiga chaqirtirdi. U paytlarda Abu Rayhon o'zi qurgan rasadxonadan chiqmas, kechalari sayyoralar harakatini kuzatar, kunduz kunlari Hindistondan olib kelgan kitoblari va yozgan asarlarini tartibga solish bilan band bo'lardi.

Ko'shki davlatga chaqirishdan bir necha kun avval Buxoro yurishiga hozirlanayotgan sulton unga zoyicha tuzib, safar uchun saodatli onlarni aytib berishni top-

shirgan, Beruniy esa, munajjimlik ilmiga ishonmasligini bahona qilib, bu ishdan bosh tortgan, shu sababdan saroyga o'tlanarkan, ko'ngli g'ash edi.

Beruniy borganda, sulton shoir Unsuriy kabi madhiyabozlar davrasi-da o'tirar edi. Beruniyning juda sovuq qarshi oldi, hatto o'tirishni taklif qilmay, darhol «maq-sadga» o'tdi.

— Mavlono Abu Rayhon! — dedi sulton qovog'ini uyib. — Yor-birodarlaring seni vohidi zamon alloma deb, hamdu sano o'qiydilar. Sen bo'lsang... osiy banda neki topshiriq bersa, o'zingni nodonlikka olib, iltimosimni rad etasen!..

Beruniy qo'lini ko'ksiga qo'yib ta'zim qildi:

— Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, davlatpanoh. Aqli ojizim yetguncha valine'matimga xizmat qilmoqqa bel bog'laganmen. Ammo aqlim yetmasa.

Sulton o'tirgan joyida betoqat tebranib:

— Biz ham sening aqli zakovatingni sinamoq azmida chaqirdik!— dedi zaharxandalik bilan.— Boshingni ko'ta-rib atrofimgga nazar sol, mavlono. Bu mashvaratxonada qancha eshik bor?

— To'rt eshik, olampanoh!

— Borakallo! — dedi sulton. — Hozir men o'rnim-dan turib, shu eshiklarning biridan tashqariga chiqamen. Sen esa... qaysi eshikdan chiqishimni qog'ozga bitib, yostig'im ostiga qo'yasen. Topsang, to'n kiyasen, top-masang... egningdagi to'ningni yechib berasen! — Sulton shunday deb, Unsuriyga yuzlandi:

— Qog'oz-qalam ber mavlono!

Shoir Unsuriy apil-tapil o'rnidan turib, hamon o'rtada qaqqayib turgan Beruniyga qog'oz-qalam tutdi.

Beruniy bir qovog'idan qor yoqqan sultonga, bir negadir kinoyali kulimsirab o'tirgan davra ahliga sinov-cha tikildi-yu, to'satdan hamma narsani angladi: sulton uni mot qilish maqsadida chaqirtirgan! Qanday bo'lmasin — mot qilish maqsadida! Bas, shunday ekan...

Beruniy, go'yo miyasida allaqanday pinhoni murvatlar ishga tushganday, ko'zlari yonib, xonaning to'rt eshik va to'rt devorini ko'zdan o'tkazarkan, xayoliga

kutilmagan bir fikr keldi-yu, shoirning qo‘lidagi qalam-qog‘ozni yulib oldi. U bir zum ham ikkilanib turmasdan javobni tez yozdi-da, qog‘ozni to‘rt buklab, sultonga uzatdi. Sulton qog‘ozni olib yostig‘i tagiga yashirdi, biroq o‘rnidan turib tashqariga chiqish o‘rniga:

— Ustalar qayda? Chaqiring! — deb farmon berdi.

Darhol bo‘stag‘ada oybolta va cho‘kich ko‘targan besh-olti odam paydo bo‘ldi.

— Anov qibla tomondan tuynuk ochinglar! Darhol!

Ustalar devorni taraq-turuq chopib, bir zumda odam sig‘adigan tuynuk ochishdi. Sulton miyig‘ida kulimsiraganicha o‘rnidan turib tuynukdan tashqariga chiqdi-da, shu zahotiyuq qaytib kirdi:

— Javobni o‘qi! — dedi u Unsuriyga qarab.

Unsuriy ham kinoyali kulimsiraganicha yostiq tagidan qog‘ozni olib och-di, ochdi-yu, rangi o‘chib, serrayib qoldi.

— O‘qi!

— Ja... javob to‘g‘ridur, olampanoh!

— Ya‘ni?

— Ya‘ni siz valine‘mat tayyor eshiklardan chiqmay, devordan tuynuk ochtirar emishsiz va shu tuynukdan tashqariga chiqar emishsiz, davlatpanoh!

— Yo qudratingdan! — deb yubordi davradagilardan biri.

— To‘n va sharob! — Sulton shunday deb amr qildi-da, yuzini teskari burib: — Istasang... Hamma baloga aqling yetadi, mavlono! — dedi g‘ijinib. — Istamasang... Zoyicha tuzib, saodatli onlarni aytib berishni ham xohlamaysen!

— Olampanoh!

— Senga ijozat, mavlono!

Darhaqiqat, o‘shanda ham Beruniy qilmagan ishni shoir Unsuriy qildi. Zoyicha tuzib, g‘alaba keltirguvchi saodatli onlarni aytib berdi. So‘ng, Buxoroga birga borib, hisobsiz in‘omlar, tillik va tilsiz boyliklar orttirib qaytdi. Beruniy esa... anov madhiyaboz to‘qigan cho‘pchakni haqiqat deb, og‘zi to‘la oltin oshash o‘rniga uni inkor etib yuripti! Undan ko‘ra ul «ne‘mati ilohiy»

Hindiston yo Chin-mochin tomonlarda o'sadi, deb Unsuriy kabi ulug' martabalarga erishsa bo'lmasmidi? Bo'lar edi! Chunki... ul «ne'mati ilohiy»ni topib kelguncha yo sulton o'lardi, yo elchining o'zi!.. Beruniy bo'lsa... Mayli, hamma in'om, hamma boyliklar o'shal madhiyabozlarga buyursin! U esa... uning uchun bittayu bitta tasalli qoldi. U ham bo'lsa ilm, bitgan va bitmoqchi bo'lgan asarlarini nihoyasiga yetkazmoq. Shundan boshqa orzusi yo'q uning! Yozishni niyat qilgan bu kitoblari orasida ustod Abdusamad Avvalga bag'ishlangan risola ham bor. Ammo... nahot uning bu ezgu orzulari ro'yobga chiqmasa? Nahot taqdiri azal unga shunchalar beshafqat bo'lsa? Nahot e'tiqod va haqiqat deb bu sovuq qafasda toabad qolib ketsa?

## *To'qqizinchi bob*

### 1

Vazir Abul Hasanak kiyik oviga Gardiz qal'asi yaqinidagi tog' oraliq'ini tanladi. Bu yerda, atrofi qorli cho'qqilar bilan o'ralgan daralarda qoplonlar, chiyabo'rilar, yo'lbarslar makon qurgan, yuqorida, tog'u toshlar ustida yovvoyi echkilar, mugizlari quloch-quloch arxarlar gala-gala bo'lib izg'ib yurar, tog' etagidagi qir va sayhonliklarda esa, yosh kanizlarday hurkak, go'zal ohular uchrardi. Eng muhimi, sultonning padari buzrukvori amir Sabuqteginga omad va saodat keltirgan ilohiy kiyik xuddi shu vohada, Gardiz qal'asi oldidagi sayhonlikda uchragan.

Amirning aytishicha, o'shanda ham xuddi hozirgiday bahor fasli ekan. Qaysi bir jangda mag'lubiyatga uchragan amir Sabuqtegin, — ollo ruhini shod etgay! — ko'ngli vayron, yuragi g'ash, otda G'aznaga yolg'iz qaytayotgan ekan.

Amir Gardiz qal'asidan chiqib, keng sayhonlikdan o'tayotganida uning yo'lini uloqchasini ergashtirib olgan bir ona kiyik kesib o'tibdi. Amir darhol qo'liga kamoni olib, otishga chog'lanibdi, biroq jajji uloqchaga rahmi

kelib, bolalik kiyikni tiriklay ushlashga ahd qilibdi-da, otining boshini qo'yibdi. Lekin ona kiyik tutqich bermabdi, toshdan toshga sakrab, bir zumda ko'zdan g'oyb bo'libdi, mitti uloqcha esa, qocholmapti, ingichka oyoqchalari mayishib, ora yo'lda to'xtab qolibdi. Shunda amir otdan tushib, dir-dir titragan uloqchani egarga o'ngarib olibdi-da, o'z yo'liga ravona bo'libdi. Biroq sal o'tmay, orqada xuddi ona yig'isiday zorli bir nido qulog'iga chalinibdi. O'girilib qarasa, boyagi ona kiyik toshlar orasidan chiqib, amirning orqasidan ma'rab kelayotgan emish. Amir uni tutib olish azmida yana ot solibdi. Lekin ona kiyik yana toshdan-toshga sakrab, qirlarga chiqib ketibdi. Bu hol necha bor takrorlanibdi. Shunda amir Sabuqtegin ona kiyikka rahmi kelib, ko'ziga yosh olibdi-yu, uloqchani qo'yib yuboribdi. Ona kiyik bolasini ergashtirib chopqillaganicha tog'larga chiqib ketibdi...

Shu-shu, amirning boshida aylanib yurgan qora bulutlar to'zg'ib, unga omad va saodat yor bo'libdi...

Kecha oqshom sulton bu hikoyani gapirib berarkan, qilt-qilt yutini, ko'ziga yosh oldi.

Ular sultonning suyakli shabistonida yolg'iz suhbat qurishar, shift va tokchalardagi shamlarning aksariyati o'chirilgan, darichalariga shoyi pardalar tutilgan g'irashira xonada allaqanday sirli bir ruh hokim edi.

Sulton, qoqsuyak oyoqlarini Abul Hasanakka uqalati, to'rt qavat shoyi ko'rpachada yonboshlab yotardi. Uning chuqur botgan mungli ko'zlari burchakdagi qoramtir soyalarga tikilgan, go'yo bu soyalar orasida padari buzrukvorining arvohi bor, go'yo sulton otasining ruhi bilan suhbatlashar edi...

Abul Hasanak sultonning allaqanday sirli hikoyasiga quloq solib o'tirarkan, a'zoyi badani go'yo chumoli o'rmalaganday jimirlab ketdi. Keyin negadir yaqinda bosh vazirning bog'ida ko'rgan bolali kiyik yodiga tushdi-yu, birdan ko'ngli ravshan tortib:

— Oftobi olam! — deb xitob qildi. — Hozir ayni ov chog'i! Siz vali-ne'mat ham ko'pdan beri ko'ksingizga shamol tegmay, diqqinafas bo'lib yotibsiz...

Sulton, mungli ko'zlarini burchakdagi sirli soyalardan uzib, sodiq nadimiga qaradi:

— Hm... ovga chiqsak... omadimiz kelurmi?

— Inshoollo, kelur! — dedi Abul Hasanak. — Ayni bahor, bir o'q bilan ikki qo'shni uradurg'on merganlar bor...

— Bas! Qushchilarga farmon ber: suyukli qora lochinim bilan takaturkman qorabayirimni shaylasinlar!

Abul Hasanak o'sha kechasiyoq vaziri a'zamning ko'shkiga odam yuborib, uning bolali kiyigini so'rab oldirdi. Rost, so'nggi paytlarda Gardiz qal'asi atrofidagi tog'larda imom Ismoil G'oziy degan bir betavfiq makon qurgan, degan mishmishlar tarqalgandi. Qandaydir paydo bo'lgan bu imonsiz imom Ismoil go'yo dordan qochgan qulli qalang'i-qasang'ilarni yoniga yig'ib, sultonga qarshi g'azavot e'lon qilgan emish!

Ammo, birlamchi, qamchisini qadab ketsa ne-ne hokimlar qirq yil sajda qiladigan sultoni salotinga qarshi bir to'p juldurvoqi gadolarning bosh ko'tarib chiqishiga inonmoq qiyin, ikkilamchi, ehtiyot choralarini ko'rib qo'ymoq mumkin. Abul Hasanak shunday qildi ham. Ovga chiqishdan bir kun avval Gardiz qal'asi tevaragiga pinhona ikki yuz nafar suvori yubordi. Sulton bilan ovga chiqadiganlar sonini esa o'n kishidan oshirmadi, ular orasida sultonning eng yaqin nadimlaridan faqat bir odam, shoir Unsuriy bor edi, xolos.

Ular shahardan chiqib Gardiz qal'asi etagidagi ko'm-ko'k yassi qirlarga yetguncha sulton soyabon aravada bordi.

Bu qirlar tik qoyalarga, qoyalar ko'z ilg'amas baland tog'larga tutashib ketardi. Niliy osmon kabi ko'm-ko'k bu tog'lar tepasida, burgutlar makon qurgan yuksakliklarda Gardiz qal'asi elas-elas ko'zga chalinardi.

Kun iliq, terak bo'yi ko'tarilgan oftob pastdagi zamanga allaqanday iliq bir mehr bilan nur sochar, go'yo o'zi hayot bergan olam go'zalligidan zavqlanib, unga muloyim kulib boqardi. Olam esa chindan ham go'zal, ovloq tog'largacha cho'zilgan qir va adirlar yam-yashil, gurkirab o'sgan yovshan, shuvoq, kiyik o'ti va yovvoyi

bedalar orasida mitti-mitti chitirgullar, nafarmon rang no'xataklar, binafsha va chuchmomalar yal-yal yonar, o'tlar orasida ko'zga ko'rinmas qushlar sayrar, havoni yalpiz, kakra, shuvoq va yana allaqanday giyohlarning sal taxir, xushbo'y hidi tutgan edi.

Sulton ipak pardalar bilan o'ralgan tepasi ochiq aravada chalqancha yotar, g'ir-g'ir shabada uning ochiq ko'ksini, oq oralagan siyrak soqol-mo'ylovlarini silab-siy-par, biroq sulton buni sezmas edi. Uning g'amgin nigohi artilgan shishaday tiniq osmon qa'rida ko'z ilg'amas yuksakliklarda sokin so'zib yurgan qora burgutlarda edi. Go'yo bu mayin oftob, bu tiniq niliy osmon, qorli tog'lar uzra asta suzib yurgan bu burgutlar uning qalbidagi allaqanday hasratli torlarni chertib, xayolini qayoqqadir olib qochgan, sultonning hazin nigohida unga yot bo'lgan tizginsiz bir g'am muhrlangan edi.

Sultonning qarshisida o'tirgan Abul Hasanak uning holiga yuragi zirqirab, Unsuriyga qaradi: «bir yo'lini topib, ko'nglini ko'tar davlatpanohning!» degan ma'nodan imo qildi.

Shoir Unsuriy qiziq hangomalar, kulguli voqealar, askiyalar, ko'ngil ochguvchi nozik rivoyatlar bobida ustasi farang, shu boisdan amiralmo'aminning hamma safarlarida hamroh, hamma bazmi jamshidlarida hoziru nozir. Lekin hozir, olampanoh unga yot bo'lgan g'ayritabiiy bir ma'yuslikka cho'mib yotganda...

Shoir Unsuriy vazir janoblarning chertsan qon sachragudek qip-qizil, chiroyli yuziga hadiksirab qaradida, haram kanizlarining qo'llaridek nozik, oppoq qo'llarini ko'ksiga qo'ydi:

— Oftobi olam afv etsinlar! Kaminaning yodiga g'aroyib bir rivoyat tushdi...

Sulton so'nik nigohini niliy osmondan uzib, Unsuriyga qaradi. Uning chuqur botgan ko'zlari yaralangan qushning ko'zlariday unsiz bir alam bilan javdirab turardi.

— To'xta, shoir... Deydilarkim, nazm ahli xudovandi karimga yaqin emish. Shu boisdan nazm ahlini payg'ambar alayhissalom siylagan emish...



— Shunday, olampanoh!..

— Shunday bo'lsa... ayt-chi, nazm bog'ining bog'boni! Ollo taolo bu osmon, bu olam, bu parrandayu dar-randani nechun yaratmish? Kim uchun, ne maqsadda yaratmish bu go'zallikni?

Shoir Unsuriy «yalt» etib Abul Hasanakka qaradi. Ammo vazirning qip-qizil ko'hlik yuzida sarosimadan boshqa ifoda yo'q edi.

— Davlatpanoh! — dedi Unsuriy hayajondan duduqlanib. — Ollo taolo bu osmon, bu qushlar, bu go'zallikni bani bashar uchun, ya'niki o'z bandalarining ko'zini quvontirib, dilini shod etmoq azmida yarat-gandir!

— Bendasining ko'zini quvontirmoq, dilini shod etmoq azmida yaratgan bo'lsa... nechun unga o'limni ravo ko'radi?

Sultonning mumday sarg'ish yuziga qizillik yugurib, mungli ko'zlari allaqanday ichki bir isyondan charaqlab ketdi.

— Hukmi ollo shu erur, bandai ojiz uning hukmiga itoat etmoqdan boshqa choramiz yo'qdir, olampanoh!..

— Hukmi ollo! — dedi sulton alam bilan. — o'zing avf etgaysen, parvardigori olam! Va lekin... Yo'q, shoir! Men sendan boshqa bir javob kutgan edim, sen esang... qozi imom Sayid so'zini so'zlading!

Unsuriy madad tilab Abul Hasanakka qaradi, biroq vazir hamon sarosimada edi. Umri ayshi ishrat va kayfi safo bilan o'tgan Abul Hasanak bunday chigal, serjum-boq gaplarni birinchi eshitishi. Shu yaqin kunlargacha unga sultoni salotining hamma gaplari, bosgan har bir qadami, hatto o'ylagan o'ylarigacha — hammasi ravshan edi. Ammo bu davosiz dardga chalinibdiki, sultonning gap-so'zlari uni faqat cho'chitadi, yuragiga allaqanday noaniq, sovuq g'uluv soladi, xolos!

Boz ustiga bu ov, o'zi o'ylab topgan bu qaltis ov! Kim bilsin, bu ovchilar hamma ishni Abul Hasanak ayt-gan tarzda qoyilmaqom qilib bajo keltira oladilarmi yoxud «ov» chog'ida kutilmagan bir ishkal chiqib qoladi-mi? Shaytonga ustozlik qilguvchi bosh vazirning qo'lbola

ohusi-chi? Pistirmaga qo'yilgan ovchilar ohuni mo'ljallagan paytda pistirmadan haydab chiqara oladilarmi yoki haydab chiqaramiz deb, o'zlarini bildirib qo'yadilarmi? Boringki, bildirib qo'yishmagan taqdirda ham bu qo'lbola ohu otliq sultonni ko'rib qochadimi yoxud odamga o'rgangan, befahm maxluq qochmay, turib oladimi?

Gardiz qal'asiga yaqinlashgan sayin bu o'ylar Abul Hasanakning miyasida g'ujg'on o'ynab, ko'nglidagi tahlikaga tahlika qo'shmoqda edi...

Merganlar qurshovidagi soyabon arava goh keng sayhonliklar, goh ko'm-ko'k qirlar osha qalin archazor tog'lar bag'riga kirib bordi.

Haligina dimoqqa gup-gup urgan yalpiz, kiyik o'ti va yovvoyi yo'ng'ichqa atir endi bittayu bitta shu xushbo'y hid, archa hidi bilan almashdi.

Ana, soyabon aravaga qo'shilgan yo'rg'a otlar, asta yo'rtib, tepasida bir tup sada o'sgan baland qirga chiqdi. Qir ortida yana bir ko'z ilg'amas keng sayhonlik ko'rindi.

Mashriq tomoni qorli tog'larga borib tutashgan bu behudud sayhonlikning har joy-har joyida to'p-to'p gujumlar o'sar, ovloqda kumush tasmalardek yarqiragan jilg'alar ko'zga chalinar, kecha pinhona jo'natilgan suvorilar ko'rinmas, ular, aftidan, tog'u toshlar orasida pisib yotishardi.

To'satdan sultonning.

— To'xta!— degan bo'g'iq ovozi eshitildi.— Qorabayirim qani? — sulton arava soyaboniga tirmashib, o'rnidan dast turdi. Tuya junidan to'qilgan oq chakmon ichida uning qurigan terakday baland bo'y-basti yana ham balandroq ko'rinar, birdan charaqlab ketgan qisiq ko'zlarida, butun vajohatida ilgarigi kuch, ilgarini iqtidor barq urar edi!

Yelkasiga qora lochin qo'ndirib olgan bosh qushchi siynasi qaldirg'och qanotiday yaltillagan qorabayirni yetaklab keldi.

Peshonasiga ipak popuklar taqilgan, o'mrovi tilda, tasmalar bilan ziynatlangan qorabayir oltin suvlig'i-

ni chaynaganicha, betoqat yer depsinib o'ynoqlab turardi.

Sulton uzun, qoqsuyak qo'llarini quyma tilladan yasalib, ustiga ipak gilamcha tashlangan egarga qo'ydi, ko'zlarini yumib, uzoq pichiriab turdi, so'ng qo'ltig'idan olmoqchi bo'lgan Abul Hasanakning qo'lini siltab tashlab, shaxt bilan o'zini egarga oldi.

— Iloyo omin! — shoir Unsuriy ko'ziga yosh olib, oppoq nozik qo'llarini duoga ochdi. — Xudovandi karim sizday dini islom homiysidan o'z inoyatini darig' tutmag'ay! Niyatingiz mustajob bo'lib, ovingiz o'ngidan kelgay, bu ishda padari buzrukvoringiz ruhi siz olampanohga madadkor bo'lg'ay, omin!

— Ilohi omin! — sulton yuziga fotiha tortib, to'satdan tirqirab oqa boshlagan ko'z yoshlarini sidirib tashladi-da, qorabayiriga qamchi bosdi. Usiz ham betoqat pishqirib turgan qorabayir, osmonga sapchidi-yu, qushday uchib ketdi.

Bir necha navkar sultonning ketidan chopmoqchi bo'lib, otlarini niqtashdi, biroq Abul Hasanakning «To'xta!» degan hayqirig'i bilan otlarining jilovini tortishdi.

Sulton tez uzoqlashib borardi. Egnida tuya junidan to'qilgan oq chakmon, boshida qora hoshiyali oq qalpoq, sulton, xuddi qorabayir ustiga qo'nib olgan katta oq qarg'aga o'xshar, uzoqlashgan sayin bu o'xshashlik ortib borardi... Ana, qorabayir yo'l yoqasidagi bir to'p gujumdan o'tib, ikkinchi g'ujunga yaqinlasha boshladi. Ana, g'ujunga yetib ham bordi. Shu payt... Yo rab! Qorabayirga qo'nib olgan oq qarg'aning oldida ikki qora nuqta, biri kattaroq, biri kichikroq ikki qora nuqta paydo bo'ldi-yu, tez uzoqlasha boshladi.

— Ohu! — dedi Abul Hasanak, quvonchdan entikib. — Olloga shukur! Amiralmo'aminning pok niyati mustajob bo'ldi! Bolali ohu!..

Shoir Unsuriy tiz cho'kib, qiblaga qarab yer o'pdi.

— Fayzi ilohiyning alomati bu! Xudoga shukur! Sultoni salotinning nidosi dargohi ilohiyga yetib bormish!

Ana, qushday uchib borayotgan qorabayir oldinda lip-lip etgan qora nuqtalarning birini quvib yetdi. Otga qo'nib «oq qarg'a» pastga egilib, uni ko'tarib oldi, lekin sal o'tmay uni yana qo'yib yubordi-da, asta orqaga burildi.

Abul Hasanak aravadan irg'ib yerga tushdi, shatakda turgan arg'umoqlardan biriga sakrab mindi-da, uzoqdagi gujumlar tomon ot surdi.

«E, yaratgan egam! Nahot uning rejalari ro'yobga chiqqan bo'lsa? U o'ylaganidan ham ziyodroq, bekami ko'st, bexatar tarzda ro'yobga chiqqan bo'lsa! Nahot sulton salotin bu ishlardan keyin ham Abul Hasanakni ul betavfiq Ali G'aribdan past ko'rsa? Nahot bundan keyin ham vaziri a'zamlik lavozimini ul xomsemiz battoldan unga olib bermasa?»

Sulton, otini asta yo'rttirib, yaqinlashib kelardi. Uning ko'zlaridan tirqirab yosh oqar, bir-birini quvib oqqan yosh tomchilari keng yuzini selday yuvib, oq oralagan siyrak soqoliga, soqolidan bo'yniga tomchilardi. Lekin sulton buni sezmas, sezsa ham yashirmas edi. Sultonning ko'z yoshlari Abul Hasanakning dilida jo'sh urgan quvonchga quvonch, hayratga hayrat qo'shdi, shoir Unsuriy esa, bil'aks, amiralmo'mininni ko'rib ho'ngrab yubordi.

— Olloga shukur! Istiqbolning xayrli foli bu, oftobi olam! Xayrli foli!

Sulton qo'lini ko'tarib uni to'xtatdi-da, tomog'ini bo'g'gan yig'ini «qult» etib yutdi.

— Sadoqati zohir vazirim! Darhol Ali G'aribga chopar yo'llang! Inshoollo, bukungi fayzi ilohiy sabab yaqin kunlarda «Mozori kalon»da g'aribu g'urabo va yetim-esiriarga osh berilgay! Qirq ho'kiz, qirq tuya, qirq biya, qirq qo'chqor so'yib, qirq botmon guruch damlagay!.. Hozir esa... hozir barcha mulozimlarga! — sulton yaqinlashishga jur'at etmay, uzoqroqda to'xtagan qushchilar va merganlarga imo qildi. — Barcha mulozimlarga chopon kiydiring, qo'y so'yib ziyofat bering!

«Sadoqati zohir vazirim! Sadoqati zohir!» — Abul Hasanak hamma bilan barobar «ilohi omin!» deb xitob

qilarkan, to'satdan tomog'i g'ip bo'g'ilganini sezib, boshini pastroq egdi.

2

Peshinda boshlangan ziyofat namozi asrga yaqin tugadi. Qo'y so'yilib, hammaga chopon, shoir Unsuriyga kimxob to'n, Abul Hasanakka esa zarbof to'n yopildi.

Sulton gujum tagiga o'rnatilgan taxtiravonda yon-boshlab yotib, bu shodiyonani jimgina kuzatar, uning bilinar-bilinmas qizillik yugurgan yalpoq yuzida allaqanday sirli, ilohiy bir shu'la aks etardi. U goho-goho mizg'iganday bo'lib, ko'zlarini yumar, shunda nigohi oldiga darhol gujum ortidan yugurib chiqqan ona-bola ohular kelardi. Sultonning ko'nglini ravshan qilgan ichki shu'la ham o'sha daqiqada lop etib yongan edi... Boshda, sulton qorabayirini qamchilab, bostirib borganida ona kiyik go'yo undan qo'rqmaganday uloqchasi atrofida gir aylanib qoldi. Oyoqchalari mitti-mitti, ko'zlari katta-katta kulrang uloqcha esa, ot dupurini eshitgandayoq pildirab qochdi-yu, onasidan o'zib ketdi. Ona kiyik avval uning ketidan asta chopqillab bordi, biroq ot dupuri kuchaygach, shamolday uchib, uzoqlashib ketdi-da, uloqcha orqada qoldi...

Sulton, dilida ajib bir nur, qoqsuyak vujudida favqulodda bir kuch, hamon tasir-tusur ot surib borar, u bilan uloqcha o'rtasi tobora qisqarmoqda edi. Nihoyat, uloqchani quvib yetdi-da, lochinday chang solib, ko'tarib oldi. Shu zahotiyoyq yiroqlashib qolgan ona kiyik shartta to'xtadi, bir zum joyida dir-dir titrab turdi-da, asta-sekin orqaga qayta boshla-di...

Yo rab! Xuddi padari buzrukvori amir Sabuqtegin aytgan ish bo'ldi! Darhaqiqat, istiqbolning xayrli foli bu! Xayrli foli!

Sulton hayajon ichida asta egilib, dir-dir titragan uloqchani yerga qo'yib yubordi, qo'yib yuborishi bilan dilida ajib bir chirog' «lop» etib yondi-da, vujudida o'zgacha bir holat, qandaydir sirli, ilohiy bir holat sodir bo'ldi. Hatto o'ng biqinidagi og'riq ham tappa to'xtab, ko'ziga qorong'i ko'ringan olam birdan yorishib ketdi.

Shundan beri o'zini onadan qayta tug'ilgan go'dakday his etmoqda. Tog'lar bilan o'ralgan bu keng sayhonlik boyagidan ham keng, boyagidan ham tiniq, archalar hidi boyagidan ham xushbo'y, qorli cho'qqilar boyagidan ham yuksak, odamlar esa bir-biridan yaxshi, bir-biridan mehribon ko'rinib ketdi sultonning ko'ziga. Hatto peshindan keyin sevalab yog'a boshlagan yomg'ir ham uning ko'nglini xira qila olmadi, bil'aks, bu iliq, mayin yomg'ir ham boyagi bolali ohu kabi istiqbolning yaxshi alomati bo'lib tuyuldi. Ha, padari buzrukvori Muzaffar amir Sabuq-teginning chehrasida valilik muhri bor edi! Shoshlik<sup>1</sup> lashkarboshining o'g'li Sabuqtegin Sayhun<sup>2</sup> bo'ylarida bo'lgan bir jangda somoniylar qo'shiniga asir tushib, Buxoro bozorida sotilgan. Uni sotib olgan quljallob Buxorodan Balxga yayov haydagan. Savdogar shunday berahm-beshafqat ekanki, otasining oti yo'l azobiga dosh berolmay yiqilib qolganida, o'lgan otining egar-jabduqlarini ham qulining yelkasiga yuklagan... Shunda, bu azobi uqubatlardan holdan ketib yiqilib qolgan padari buzrukvori tush ko'rgan, tushida Xizr alayhissalom ayon bo'lib, bu uqubatlarga dosh berishini, toki, oxir-pirovardida unga saodat yor bo'lishini aytib, oq fotiha bergan. Xizr alayhissalomning bu fotihasi mustajob bo'lib, Balx bozorida padari buzrukvorini amir Alptegin sotib olgan. Alptegin, — ollo unga o'z dargohidan joy ato qilg'ay! — yosh g'ulomi Sabuqteginga mehri tushib, uni o'ziga mahram qilib olgan. Shu-shu padari buzrukvorining qora kunlari orqada qolib, taqdir unga kulib boqqan. Yosh nadimining mardligi va salohiyatiga amin bo'lgan amir Alptegin bu bevafo dunyoni yetim qoldirib, u boqiy dunyoni munavvar qilmoq kuni kelganda, uni, ya'ni suyuqli lashkarboshisi Sabuqteginni o'z taxtiga voris qilib qoldirgan.

Agar amir Sabuqtegin o'z xo'jasi amir Alpteginning bergan tuzini oqlagan bo'lsa, sulton Mahmud o'z padari buzrukvorining tuzini oqladi. Amir Sabuqtegin tuzgan

---

<sup>1</sup> Sh o sh — Toshkentning qadimgi nomi.

<sup>2</sup> S a y h u n — Sirdaryo.

davlat sarhadini o'n barobar kengaytirdi, mustahkamladi, unga meros qolgan G'aznai munavvarani butun ro'yi zaminda go'zallikda tengsiz bir shahri muazzamga aylantirdi!.. Bas, padari buzrukvorining ruhini shod etgani uchun, mana, boshiga og'ir kunlar tushganida, uning arvohi sultonni qo'lladi, ohu timsolida otasiga ayon bo'lgan fayzi ilohiy unga ham ayon bo'ldi. Shoyad padari buzrukvorining tushida namoyon bo'lgan Xizr payg'ambar uning ham tushiga kirsa, unga ham oq fotiha bersa!..

Sulton, g'oyat xushvaqt bir kayfiyatda ko'zi ilingan edi, vujudiga orom berib, ko'nglini munavvar qilgan bu ezgu o'ylar tushida ham davom etdi. Har qalay, allaqanday tiniq kuylar, xushovoz xonandalarning dilrabo qo'shiqlari qulog'iga quyilib, ko'ngli yana ham ravshan tortdi. Sulton bu kuy, bu dilrabo qo'shiqlarni toabad eshitishga tayyor edi, biroq to'satdan ularga allaqanday dag'al ovozlari qo'shildi, o'tirgan taxtiravon qattiq silkindanday bo'ldi-yu, afsus bilan ko'zini ochdi.

U taxtiravonda emas, aravada yotar, arava haligi bir tup gujum tagida emas, baland bir qir yonbag'ridagi qo'shaloq chinor yonida to'xtab turardi. Yomg'ir tingan, yuksak qorli tog'lar ustiga yonboshlagan oftob chinor yaproqlaridagi billur tomchilar bilan o'pishib o'ynar, olam iliq nur seliga cho'milgan edi!..

Sulton hayrat bilan yon-veriga qaradi. U soyabon aravada yolg'iz yotar, yonida Abul Hasanak ham, shoir Unsuriy ham yo'q edi. Chinor tagidan eshitalayotgan kuy va qo'shiq asta tindi, faqat tanbur ovozi yana bir-ikki marta diring-diring qildi-da, u ham o'chdi:

— Ul zoti oliy Malikul davlat bo'lsa, kaminai kamtarin Malikul sharob bo'lamen!

— Malikul sharob emish! Yo'ldan daf bo'l, tentak! Bo'lmasa hozir navkarlarga farmon beramen — oyoq-qo'lingni bog'lab, chinor shoxiga osadilar!

— Ofarin! Shu aqli farosat bilan sulton Mahmudga vazir bo'ldilarmi janoblari? Malikul sharobni dorga osadurg'on bo'lsa, yolg'iz Malikul davlat osadi.

«Qutlug'qadam!»

Nogahon sultonning yodiga bolalik va o'smirlik chog'lari tushdi. Suyukli nadimi Qutlug'qadam bilan Afshon soy sohilida kurash tushib, merganlik va chavandozlik bobida olishib yurgan onlari «lop» etib ko'z oldiga keldi-yu, oftob nuriday iliq bir narsa yuragini yoqimli silab o'tdi. U beixtiyor boshini yostiqdan uzib, ipak pardaning chetini ko'tardi.

Arava oldida boshiga eski qalpoq, egniga eski qora chakmon kiygan, soch-soqoli o'sib, patak bo'lib ketgan devonasifat bir kimsa Abul Hasanak bilan shoir Unsurining yo'lini to'sib turardi. Yo'ldan nariroqda, bir-biriga chirmashib o'sgan qo'sh chinor tagida esa bir guruh mashshoqlar o'tirishardi. O'rtaga yozilgan dasturxonda ikkita xum ko'zga chalinardi. Mashshoqlar, birining qo'lida g'ijjak, birining qo'lida setor, birining qo'lida nay, juldur to'nli darvesh bilan Abul Hasanak o'rtasidagi «jangu jadal»ni jimgina kuzatishar, bu dahanaki jang ularga katta zavq berayotgan bo'lsa kerak, hammasi tirjaygan, hammasining og'zi qulog'ida.

Bu manzara sultonning dilida ham favqulodda bir zavq uyg'otdi. U soyabon aravaning ipak pardasini shartta yulib oldi-da, asta o'rnidan tur-di:

— Hoy, sultoni salotinga yo'lto'sarlik qilishga jur'at etgan kim? Qutlug'qadam? Yo tavba! Men seni allaqachon arshi a'loda aysh qilib yuribdi desam, hanuz bu bevafo dunyoda ivirsib yuribsenmu?

Hamma arava tomon burilib qaradi. Malikul sharob besh panjasi bilan soqol bosgan yuzini ishqab mug'am-birona ishshaydi.

— Ne chora, amiralmo'minin! Bog'i Eram ham bizday g'aribu g'uraboga emas, sizday sultoni salotinlarga atalgan emish! Inchunin, u dunyoga shoshib ne qilamiz? Undan ko'ra faqirlar dunyosi bo'lmish bu dunyoda ivirsib yurganimiz ma'qul emasmi, amiri kalon? Bu kun navro'zi olam! Qani, g'arib dasturxonimizga marhamat qilg'aysiz, sultoni salotin!

Chinor tagidan «Navro'zi olam! Navro'zi olam!» degan xushnud xitoblar eshitildi.

«Navro'zi olam? Yo rab! Bundan chiqdi hozir unga



ayon bo'lgan ilohiy alomat bejiz emas ekan!» — Sultonning mumday sarg'ish chehrasi birdan yorishdi.

— Malikul sharob! Qani, o'shal dong'i olamga ketgan sharobingdan bir kosa keltir!

Malikul sharob darhol chinor tagiga yuzlanib:

— Hey, Bobo Setoriy! — deb chaqirdi-da, ko'zini qisib, xushnud kuldi:

*Qo'lg'a olib setoring, jon qirg'izgaysen,  
Mayi nobdin bu jomingni to'lg'izgaysen!  
Gulob kabi pokdur gadolarning dili,  
Sungil sultonimga, bitsin, mushkuli!*

Chinor tagidan kimdir hayrat bilan:

— Tasanno, Malikul sharob! Tasanno! — deb xitob qildi, ketma-ket nay, setor va g'ijjaklar barobar yangrab, allaqanday sho'x, o'ynoqi kuy boshlandi.

Malikul sharob davradagilar qo'lidan may to'la kosani olib, hanuz miyig'ida kulimsiraganicha aravadan tushgan sulton tomon yurdi.

*Gado shoddir har kuni,  
Jomdan uzmas ilkini,  
O'tar-ketar bu dunyo,  
Ketsin badar u dunyo!  
Fursat, umr g'animat,  
Ertang qilgung azimat!  
Besh kun davron surib qol,  
Bukun o'ynab-kulib qol!*

Shoir Unsuriy to'satdan oyoq ostidagi ho'l maysaga tiz cho'kib, sultonning etagini yuziga surtdi.

— Oftobi olam! Farishtalar omin degan shunday munavvar kunda bu shakkokning so'ziga kirmang!

Shoirning tavallosiga Abul Hasanakning nidosi qo'shildi:

— Haq so'z bu, olampanoh!.. Bu tog'larda anov imon-siz imom Ismoil G'oziy makon qurg'an, olampanoh!

— Qaysi imom G'oziy? Ne deb valdiraysen? — Sulton qo'lini bir siltadi-da, nogahon yuragini chulg'ab olgan allaqanday yorug' tuyg'uga bo'ysunib, kosa to'la sharobni bir ko'tarishda bo'shatdi.

— Ollo o‘zi afv etgay! Olti oy bo‘ldi, ko‘nglim qorong‘i tunday zimiston edi, shu bukun bir chirog‘ yondi!.. Abul Hasanak! — dedi u, to‘satdan qiyg‘och ko‘zlari hayrat bilan charaqlab. — Hammangga ijozat! Ot-arava bilan ikki navkar qolsa bas! Faqir bukun shu darvesh bilan suhbat quramen!

— Darvesh emas, Malikul sharob! — dedi Qutlug‘qadam. — A‘lo hazratlari Malikul davlat bo‘lsalar, kamina Malikul sharob bo‘lamen!

Shoir Unsuriy «endi jazosini tortadi bu shakkok» degandek, umid bilan sultonga qaradi. Biroq sulton g‘alati kulimsirab tavoze bilan bosh egdi:

— Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, valine‘mat» Ijizat etsalar, faqir siz hazratimning bir oniy suhbatlarida bo‘lsam!..

— Marhamat! Malikul sharob davrasida shohu gado barobar!

Hanuz tizza bukib turgan Unsuriy ko‘zlari mo‘ltirab Abul Hasanakka qaradi, biroq sultonning odatini yaxshi bilgan Abul Hasanak lom-mim demay olisroqda turgan navkarlar tomon yo‘naldi.

Keksa mashshoqlar surilib, sultonga joy berishdi. Sulton, dilida hamon ajib bir shu‘la, eski namatning chetiga asta yonboshladi.

Yo tavba! Osmon boyagidan ham tiniq, havo boyagidan ham musaffo, giyohlar hidi — qoqilar, chuchmolar, buloq bo‘yidagi yalpizlar, yovvoyi rayhon va archalar, qirlar sathini qoplagan yovshan va shuvoqlarning aralash-quralash atri boyagidan ham o‘tkir, boyagidan ham xushbo‘y!

Biri oq tuyaga, biri bo‘taloqqa o‘xshash ikki oq bulut ostida oq yelkanlarni eslatuvchi ulkan oqqushlar juft-juft bo‘lib suzib yurar, ulardan ham yuqoriroqda, niliy osmon tagida, ulkan qora burgutlar ko‘zga chalinardi... Mashshoqlarning kechki oftobday tiniq va hazin musiqasi sultonning tashna diliga suvday yoqar, eshitgan sayin eshitgisi kelardi, Vo darig‘! Nechun u shu bukungacha bu mislsiz go‘zallikdan bebahra ekan? Ajabo, salkam qirg‘ yil saltanat tebratib, bunday go‘zallikni

ko'rgan emas, bunday musiqani eshitgan emas, bunday saodatli damlarni boshidan kechirgan emas!.. Hatto unga eng katta zavq bergan onlar, Hindiston va Xuroson, Xorazm va Buxoro tojdorlarini bir hamla bilan zabun qilib, oldiga tiz cho'ktirgan chog'larida ham bunday zavqlangan emas u! Ha, u hindlar yurtidagi muazzam qal'alarni bir zarb bilan zabt etganida, tog'-tog' oltin va javohirlarni o'ljaga olgan damlarida yoxud Jayhun bo'ylariga saroparda qurdirib, karnay va surnaylar sadosi ostida yuz minglagan suvorilarni bitta-bitta sanab o'tkazgan onlarida mislsiz iftixor tuyg'usi uni o'z qanotlariga o'tqazib, go'yo osmoni falakka olib chiqib ketardi! O'sha damlarda unga dunyoda eng yoqimli sado — jangovar fil-lar na'rasi-yu, otlar dupuri bo'lib tuyular, g'olib qo'shin-ning «urha, ur, surha, sur!» degan suronli qiyqirig'i bilan nog'oralar gumburidan yoqimli sado yo'q deb o'ylar, olamda eng go'zal narsa esa qilich-qalqonlari muzaffar lashkarining g'olib tug'lari bo'lib ko'rinardi! Endi bilsa... u bilgan go'zallikdan a'lo go'zallik, u o'ylagan baxtdan o'n chandon ulug' baxt, g'arib bo'lsa ham, qandaydir beg'alva, betashvish bir hayot bor ekan. Bunday tiniq osmon, biri tuya, biri jajji bo'taloqqa o'xshash oq bulutlar, bunday giyohlar, kishi qarab to'ymaydigan yuksak niliy tog'lar bor ekan!.. Ana, ro'parasida bolalik va o'spirinlik yillarining shohidi bo'lgan bir shoir o'tiribdi. Boshida eski telpak, egnida eski to'n... Biroq ikkisi-ning qaysi biri baxtliroq? Butun ro'yi zaminni tiz cho'k-tirgan sulton Mahmud G'aznaviyimi yoxud o'zi yanglig' faqiru haqirlar davrasida dilxo'shlik bilan umr o'tkazgan bu darveshmi?

Chashmaday tiniq, dilrabo kuy tobora avjiga chiqmoqda, Bobo Setoriy boshliq xonandalar boshlarini egib, go'yo o'z kuylaridan o'zlari erib ketayotganday ko'zlarini yumib, tebranib chalishar, kekxa bukri naychining esa ko'm-ko'k ma'sum ko'zlaridan tirqirab yosh oqardi.

Ana, nihoyat, kuy ham tugadi, tugashi bilan sulton qorni ochganini sezib, qaddini rostlab o'tirdi.

Dasturxonda birida may, birida sharbat to'la ikki xum, xumlarning yonida ustiga yovvoyi piyoz to'g'ralgan

bir tovoq suzma, bir dasta arpa non va bir lagan yalpiz somsadan boshqa yegulik narsa yo'q edi. Lekin yalpiz solingan tandir somsa asaldan ham shirin, suzma og'izda erib ketar, hatto arpa nonni ham yegan sayin yegisi kelardi kishi.

Mashshoqlar bir piyoladan sharbat ichishib, yana asboblarini qo'llariga olishdi, biroq sharbat o'rniga bir kosa may ichgan sulton to'satdan dilida suhbatga moyilik sezib, Malikul sharobga yuzlandi.

— Agar taqsim ijozat etsalar, mutriblarga tashakkur aytib, bir on dam bersak!

Malikul sharob baroq qoshlarini silab, tavoze bilan bosh egdi.

— Olampanoh bu kun bizga aziz mehmondurlar. Amri mehmon vojibdur biz uchun!

Bu gapdan keyin mashshoqlar asboblarini chinorga suyab, o'rinlaridan turishdi.

Sulton haqiqatan ham yuragida jo'sh urgan tuyg'ulariga erk berish istagida edi. Bukun uning ko'ngli nechundir ezgu tilaklar bilan to'lib-toshgan, shu topda u vaqat yaxshi gaplar aytib, ezgu ishlar qilgisi kelar, hatto qilgan gunohlari uchun avf so'rashga ham tayyor edi.

To'satdan, o'smirlik paytlarida hindlar bazmxonasida bo'lgan mash'um janjal sultonning yodiga tushdi, tushdiyu, nechundir yuragi «shig'» etdi. Kim bilsin, ehtimol hind malagi sabab, o'sha mash'um janjal bo'lmaganda, hozir ro'parasida xayolga tolib o'tirgan bu darvesh bukun uning quli yoxud eng salohiyatli lashkarboshisi bo'lar-midi?

— Birodarim Qutlug'qadam! — dedi sulton, nogahon ovozi samimiy qaltirab. — Sababli yoshlik, kamina senga o'rinsiz ozor berganim yodimdan chiqmaydi...

Malikul sharobning serajin, sersoqol yuzida hayratga o'xshash bir ifoda zohir bo'ldi. U sultonning allaqanday dardga muhtalo bo'lib, g'alati odatlar chiqarganini eshitgan edi. Biroq... bu so'zi, bu qilig'i! Eng yaqin nadimlarini haydab yuborib, u bilan may ichib o'tirishi! Bu telba-teskari gaplari!..

— Mayli, davlatpanoh, o'tgan ishga salavot! Eski yarani tirnamoqda foyda yo'q...

— Foyda bormi, yo'qmi, o'shal ish uchun uzr so'raymen sendan. Benuqson parvardigor, deydilar. Avf et, birodar!

Malikul sharobdan sado chiqmadi. Sulton chindan ham uning yuragidagi bitmas yarani qayta tirnadi. Ko'ngli keng odam, u yuragida kek saqlamas edi, biroq bu yara, hanuz jizillab turgan bu eski yara!..

— Ajab hol, — dedi Malikul sharob, miyig'ida kulimsirab, — kamina bir narsaga sira farostim yetmaydi, amirim!

— Ya'ni?

— Ya'ni... ollo taolo o'z bandasiga shunday aql-zakat ato qilibdi. Bandasi esa... nechun hamisha aqlga zid ishlar qiladi? Nechun faqat boshiga musibat tushgan chog'laridagina yaxshilik va ezgulikni o'ylaydi? Nechun o'zi choh yoqasiga borib qolgandagina qilgan gunohlarini, boshqalarga o'tkazgan jabr-sitamlarini eslaydi? Nechun?

Sultonning sharob tapti urib bo'g'riqqan yuzidan qoni qochib, yalpoq burnining keng parraklari asabiy pirliradi.

— Meni choh yoqasiga bordi deb kim aytdi senga?

— Hech kim! Telba shoir, xayolinga kelgan telba gapni aytdim, xolos. Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, poshshoyi olam!

Amiralmo'minin chuqur tin olib, bolishga holsizgina yonboshladi, yonboshlarkan, yana artilgan shishaday tiniq osmonga ko'zi tushib, ko'ngli yorishib ketdi.

— Sen ham kechir. Qutlug'qadam. Bukun faqir g'a-royib bir hodisaning shohidi bo'ldim... gardiz qal'asi tomon ovga chiqqan edim... Nogahon yo'limni bolali bir ohu kesib o'tdi. Kamina ona-bola ohuga ot soldim. Onasi shamolday uchib, tutqich bermadi. Uni quvib otib olsam bo'lur edi, rahmim keldi. Bolasi esa... qocholmadi, uni tutib olib ortimga qaytdim. Bir mahal orqamga burilib qarasam...— sulton to'satdan tomog'i g'ip bo'g'ilib, dag'al kafti bilan quyilib kelgan ko'z yoshlarini

artdi. — burilib qaragam, ona kiyik faryod chekib, orqamdan ergashib kelur! Ko'nglim vayron bo'lib, uloqchani qo'yib yubordimu o'z yo'limga ravona bo'ldim...

Malikul sharob nima deyishini bilmay talmovsirab qoldi. Ajabo: ne-ne shaharlarni zer-zabar qilib kelgan bu fотиhi muzaffar bitta ohuning zorli nidosiga ko'ngli vayron bo'lib, yum-yum yig'laydi!

Sulton mungli ko'zlarini yumdi, go'yo oldida sobiq quli Qutlug'qadam emas, qo'l berib yukingan piri murshidi o'tirganday, sirli ovozda davom etdi:

— Yo'q, bu ona-bola ohuning faqirga duch kelishi bejiz emas! Parvardigori olamning inoyatidan alomat bu! Zerokim, padari buzrukvorim ham boshiga mushkul tushgan kunlarda shunday bir ohuga duch kelib, uni qo'yib yuborgan ekan. Shu sabab, omad yor bo'lib, saodat oftobi kulib boqqan ekan!

«E voh! Nechun bu mustabid shoh bunchalar adli insofga kelib qoldi, desam, bo'rk ostida takya bor ekan-da!»

Malikul sharobning xiyol yumshagan ko'ngli qayta muzlab, boshini pastroq egdi.

— Nasib qilsa, erta-biriskun «Mozori kalon» qabristonida is chiqaramen. Qirq ho'kiz, qirq tuya, qirq biya, qirq qo'chqor so'yib, qirq botmon guruch damlab, yurtga osh beramen. Barcha beva-bechoralar, yetim-esirlar, gadolar va yo'qsillarga oqcha ulashib, valilar ruhini shod qilamen. Begunoh parvardigor, Qutlug'qadam! Agar, osiy banda yoshlikda birovlarning ko'ngliga ozor bergan bo'lsam, endilikda, inshoolloh, savob ishlar ila, ollo yo'liga xayr-ehson ila gunohlarimni yuvmoq niyatidamen!

Malikul sharob to'satdan qo'llari qaltiray boshlagani ni sezib, ichida o'zidan bir kulib qo'ydi:

«Ha, nechun ilonga ro'baro' bo'lgan baqaday qaltiraysen, Malikul sharob? Qariganda joning shirin bo'ldimi? Qo'rqma, birodar! Qirq yil ko'nglingni kemirib yotgan alamlarni to'kmoq mavridi keldi. To'k bu alamlarni! Yo boshing ketar, yo ustingdagi uvada to'ning!»

Malikul sharob kosa to'la sharobni olib, bir ko'tarishda bo'shatdi-da, shirakayf ko'zlarini suzib sultonga qiyg'ir qarash qildi. Uning ilhomi kelib jazavasi tuta boshlagan edi.

— Kamina bir narsadan qo'rqamen, amir! Amirim qirq tuya, qirq biya emas, qirq ming tuya, qirq ming biya so'ysalar ham yetmas, poshshoyi olam!

— Qirq ming tuya, qirq ming biya? — sulton lom-mim demay qo'lidagi kosani to'ldirib may qo'ydi-da, go'yo Malikul sharobga taqlid qilganday, uni bir sipqarishda bo'shatib, dasturxonga otib yubordi.

— Lozim bo'lsa, qirq ming emas, yuz ming tuya va yuz ming biya so'yamen, Qutlug'qadam!

— Yo'q, oftobi olam! Yuz ming biya, yuz ming tuya so'ymoq tugul, bor davlatlari, Osmon malikasi yanglig' saroylari, Bog'i Firuz yanglig' bo'stonlari, xazinalari to'la ganjlari, haramlari to'la kanizlari va hattoki butun saltanatni sovursalar ham kamlik qilur amirim!

Malikul sharob jahl ustida bu gaplarni aytishga aytdiyu, birdan hushyor tortib, sultonga o'g'rincha nazar tashladi. Amiralmo'minin esa, ajabo, darg'azab bo'lish o'rniga jimgina bosh egib o'tirar, go'yo sobiq quining so'zlari uning dilida isyon emas, yo'q, chuqur afsusnadamat uyg'otgan edi.

— Osiy banda, — dedi sulton, xiyol ovozi titrab. — Men seni tengqurim deb, yoshlik chog'larimning shohidi bo'lgan aziz birodarim deb, yaxshi niyatlarimni izhori ixlos qilsam, sen... tag'in dilozorlik qilding, tag'in gus-tohligingga borib, dilimni og'ritding, Qutlug'qadam!

Malikul sharob bir zum aytgan so'zlaridan pushaymon qilib, dovdirab qoldi.

— Oftobi olam! Kamina... siz valine'mat amirimning hazinai davlati behuda isrof bo'lmasin, deb qayg'urdim, xolos.

Sulton, ko'zlari o't chaqnab, Qutlug'qadamga tikildi:

— Zaharxanda qilma, betavfiq! Jahongirlik qilgan bo'lsam... Obod qildim! Ha, bani odamda insof yo'q ekan, insof! Hamma mening qattiqqo'llig'idan so'zlaydi. Va lekin... bu dorus-saltanatni dorus-saltanat qilgan kim?

Osmon malikasi yanglig' saroylar, Ko'shki davlat va Ko'shki ma'mur kabi qasrlar qurgan, Bog'i Firuz yanglig' jannatmonand bog'lar yaratgan kim? Bu ko'shk, bu bog'u bo'stonlarni kim uchun qurdim men?

— Kim uchun? Fuqaro uchun, g'aribu g'urabo uchun qurganlar valine'mat! — Malikul sharob qo'lini bigiz qilib, tepadagi gujumni ko'rsatdi. — Anov gujum ostida turgan olacha to'nli gadoga bir qarasinlar, amirim!

Sulton kutilmagan bir itoatkorlik bilan Malikul sharob ko'rsatgan tomonga qaradi. U yerda, bir tup rayhonday bejirim gujum tagida bir nechta mashshoqlar davra qurib o'tirishar, davraning o'rtasida olacha to'nli kekxa bir darvesh qiyshanglab raqs tushardi.

— Bobo Xurmo Savdoyi deydilar bu gadoni!

— Bobo Xurmo?

— Ha, Bobo Xurma Savdoyi! Poshshoyi olamning Bog'i Firuz o'rnida bu gadoning xurmozori bo'lg'usi edi. Amirim uni tortib olib, o'rgina o'shal jannatmonand bog'larini qurdilar! Makonsiz qolgan bu sho'rlik esa, mana, yigirma yildirki, bemakon tentirab yuribdi! Amirim esa... bu bog'u rog'larni kim uchun yaratdim, deb gerdayadilar!

Sulton boshini xam qilganicha yana bir daqiqa jim qoldi. So'ng, go'yo kimgadir arz qilganday:

— Tiling zahar sening, zahar! — deb ingradi-da, besaranjom bo'lib:

— Qaydasen, Abul Hasanak? Sarbozlar! — deb qichqirdi.

Soyabon arava yonida qaqqayib turgan ikki navkar qilichlarini yalang'ochlaganlaricha qo'sh chinor tomon intilishdi.

Malikul sharob, soqol bosgan serajin yuzi lov-lov yonib, sultonga qaradi-yu, to'satdan «san»sirab:

— Yodingdami, sulton? — deb xitob qildi. — Yoshlikda, o'zing bilgan Afshon shol dahasidagi hindlar bazmxonasida aysh qilib yurgan chog'larimiz xotiringda bormi, amiralmo'aminin! Sening kosangni emas, mening kosamni qo'liga olgani uchun hasad o'tida qovurilib, o'n to'rt yashar ma'sumaga qilich ko'targaning esingdami?



Esingda bo'lsa, bilib qo'y, sulton: o'shal raqqosa... Nargizabonu ham tirik!

— Nargizabonu... hind raqqosasi Nargizabonu?

— Ha, sen qilich ko'targan o'shal zaifa hanuz hayot! Qo'llari mayib, bir umr seni qarg'ab o'tgusidir, amiralmo'minin!...

Sulton nogahon «hmm» deb, o'ng biqinini changal-ladida, xuddi bo'ron sindirgan kekxa tolday ikki bukilib qoldi.

Malikul sharob buni ko'rdi-yu, yuragidagi g'azab xuddi suv sepilgan gulxanday so'nib, dilida pushaymon-ga o'xshash bir narsa uyg'ondi. Hoy, attang! Yaxshi bo'lsin, yomon bo'lsin, har qalay, yoshlik yillari birga o'tgan, endi esa... usiz ham olloning qahriga yo'liqqan bir bandai ojizga bu so'zlarni aytmoq darkormidi?

Malikul sharob, to'satdan yuragi qattiq achishib, hanuz ikki bukilib turgan sulton tomon intildi, biroq, shu payt qayoqdandir tasir-tusur ot surib kelgan Abul Hasanak bilan shoir Unsuriy navkarlarni u yoq-bu yoqqa surib, sultonning qo'ltig'idan olishdi. Sulton sekin ingrab ularning qo'llarida osilib qoldi.

«Gunohkor bandangni o'zing kechirgaysen, parvardigori olam! Nechun u boya vafodor vazirining so'ziga kirmadi? Nechun Malikul sharob atalmish bu shakkokning gapiga kirib, uning kufr sharobini ichdi?..»

Navkarlar yordamida aravaga chiqqan sulton birdan holsizlanib boshini yostiqa qo'ydi, qo'yarkan, ko'zi yana osmonga tushdi. Lekin boyagi artilgan shishaday tiniq, niliy osmon o'rniga tubsiz chohday zimiston bo'shliqni ko'rdi.

## *O'ninchi bob*

Beruniy bir necha kun harorat ichida alahlab yotdi. U xuddi uzluksiz yomon tush ko'rayotgan odamga o'xshar, bu tushdan qutulish uchun bir «silkinib» uyg'onib ketishga urinar, biroq uyg'ona olmas, uyg'ongan paytlarida esa, ko'zini ochishga majoli yo'q, xayol oqi-mida jimgina suzardi.

Xayol esa, negadir, ehtimol yoshlik davridan o'tib, keksalik manziliga qadam qo'ygani uchundir, ko'proq allaqanday beg'ubor bolalik chog'lariga talpinadi, o'z yurti tomon, loyqa Jayhun sohilida qad ko'targan Qiyot tomon parvoz qiladi. Ko'zini bir zum yumsa Qiyot chekkasidagi hammollar va o'tinchilar mahallasi, mahal-ladagi paxsadan yasalgan g'arib kulbalar nigohi oldida ko'ndalang bo'ladi. Kichkina Abu Rayhon esini tanibdi-ki, kunduz kunlari gular do'kondorlarining xizmatini qiladi. Ularga quduqdan suv tashiydi, do'konlarini supu-radi, halvofurushlarning o'chog'iga o't yoqadi, somsapaz-larning somsalarini sotib beradi, kulollarning dastgoh-larini aylantiradi, temirchilarning bosqonini bosadi. Qo'l-oyog'i chaqqon bu ozg'in, qoramtir bolakayni hamma yaxshi ko'radi, chunki u arablar rastasida yurib arab tilini, hindlar rastasida hind tilini, hatto bidir-bidir so'zlarini hech kim uqolmaydigan chin savdogarlarning tilini ham tez bilib oladi va bepul, beg'alva tilmochlik qiladi. Kechqurunlari, kun botib, qosh qoraygan mahal-da esa, Jayhun sohiliga chiqib, sahro tomon tikilib o'tira-di. Bir mahal ufqda chumoliday tizilgan odamlar ko'rinadi, ko'rinishi bilan yalang oyoq, yalang bosh Abu Rayhon ular tomon qushday uchadi. U na oyog'iga qadalgan tikan, na chag'irtoshlarni sezadi, shamolday uchib boradi-yu, bir quchoq sazoq<sup>1</sup> tagida egilib, uzun asosini do'qillatib kelayotgan qoqsuyak ayol bag'riga o'zini otadi.

— Momojon! Sazoqingizni menga bering, men orqalaymen, momojon!

Ayol yurishdan to'xtab, ozg'in qoramtir yuzidan oqqan marjon-marjon terni artadi, so'ng, sazoqday dag'al, qop-qora qo'llarini o'g'lining boshiga qo'yadi.

— Momojon, degan tillaringdan momong aylansin, toychoq'im! Shu bir og'iz so'zing bilan yelkamdagi yukimni yengil qilding, shuning o'zi kifoya, toychoq'im!

— Yo'q, yo'q, — deydi Abu Rayhon, momosining qoqsuyak, dag'al kaftlarini o'pib. — Endi siz uyda o'lti-

---

<sup>1</sup> S a z o q — saksovul.

rasiz, momojon, men o'zim o'tinkashlik qilamen! Sazoq tashib, sizni boqamen, momojon!

Ayolning horg'in ko'zlari to'satdan jiqqa yoshga to'ladi.

— Yo'q, toychog'im, sen hech qachon o'tinkash bo'l-maysen. Kecha halvofurushning do'konida bir alloma meni chaqirib aytdi: ollo o'g'lingga tengsiz zakovat va mislsiz salohiyat ato qilgan, dedi. O'g'lingni menga ber, o'zimga shogird qilib olamen, saboq o'rgatamen, dedi. Sen o'qib alloma bo'lasesen, do'konlarga mirza bo'lasesen. Shunda momong ham sahrodan sazoq tashishdan qutuladi. Sen ul allamaning etagidan qattiq ushla, toychog'im!

— Siz Abu Sahl Masihiyni aytasiz! Ulug' alloma ul, momojon!

— Momojon degan tilingdan momong aylansin, toychog'im! Nasroniy dinidan bo'lsa ham, yaxshi odam ekan ul Abu Sahl Masihiy, etagidan mahkam ushla uning, toychog'im!

Abu Sahl Masihiy!

Ajab hol: ustod Masihiyni eslashi bilan Beruniyning miyasida go'yo zaif shamday miltirab turgan narsa «lip» etib o'chdi-yu, «yarq» etib boshqa bir chiroq yondi.

Avji bahor. Jayhun sohiliga tutashib ketgan ulkan bog' ayni gulga kirgan. Bog' o'rtasidagi ikki qavatli ko'shk xiyobonlarida kamalak rangli tovuslar tovlanadi, daraxtlar orasida yovvoyi kiyiklar ko'zga chalinadi, chetlari nozik chiniy koshinlar bilan bezatilgan hovuzlarda bulutday oppoq oqqushlar suzadi.

Yosh Abu Rayhon ustod Abu Sahl Masihiy bilan oq ayiqlarning momiq terilari to'shalgan zinalardan yurib, ko'shkning ikkinchi qavatiga chiqadi.

Ustod, tokchalarida kuppa-kunduz behisob shamlar yongan uzun yo'lakning oxiriga borib, turnaqator eshiklardan birini ochadi...

Devorlariga bug'u mugizlari, olmaxon va suvsar mo'ynalari osilgan, tagiga oq va qora ayiqlarning yumshoq terilari tashlangan keng xonaning o'rtasida mallarang soqolli ko'ksiga tushgan, ko'zlari ko'm-ko'k bir chol parqu yostiqlarga suyanib yonboshlab yotibdi.

Uning yonida ko'zlari xuddi cholning ko'zlariday moviy, uzunchoq yuzi bozordagi Hazor joriyalarining yuzlariday oppoq bir sohibjamol hisobcho't qoqib, daftariga bir nimalarni yozib o'tiribdi. Mehmonlarni ko'rgan sohibjamol daftar-qalamini ko'ksiga bosganicha, nazokat bilan yurib chiqib ketadi. Chol esa mehmonlarni dasturxonga taklif qilib, ustod Masihiy bilan o'z tillarida uzoq suhbatlashadi, so'ng, Abu Rayhonni oldiga chaqirib hisob ilmidan sinov qiladi. Sinovdan keyin ustod ketadi, Abu Rayhon esa savdogarning uyida qoladi. U hisob-kitob ishlaridan qutulgach, tun yarmigacha o'z hujrasida mutolaa bilan shug'ullanib o'tiradi. Nihoyat, mutolaadan charchab, endi to'shakka cho'zilganida kimdir eshigini gurs-gurs uradi, ketma-ket ayol kishining «Mirzam!» degan zorli nidosi eshutiladi. Abu Rayhon o'rnidan sakrab turib, eshikni ochadi. Ostonada... oppoq qo'llarida dir-dir titragan sham, Rayhona degan boyagi moviy ko'zli sohibjamol turardi! Sohibjamol Abu Rayhonni ko'rib:

— Otam! Mehribon otam! — deydi-yu, yerga tiz cho'kib, yuzini kaftlari orasiga yashiradi. Abu Rayhon marmar zinalardan kiyikday sakrab tepaga chiqadi. Chol o'sha, darichalari Jayhunga qaragan serhasham xonada qavat-qavat shoyi ko'rpachalar ustida chalqancha yotar, uning ochiq qolgan ko'm-ko'k ko'zlarida hayot so'ngan, dahani osilib qolgan.

... Boshqa oqshom. Dafn marosimidan keyin savdogarning serhasham ko'shki motam sukutiga cho'mgan. O'z hujrasida yana kitob mutolaa qilib o'tirgan Abu Rayhon qandaydir taraqturuq ovozlardan cho'chib boshini ko'taradi. Bu tovushlar ikkinchi qavatdan, Abu Rayhonning hujrasi tepasidagi Rayhonabonu xonasidan eshutiladi.

Tepada, Rayhonaning xonasi oldida... savdogar hayot vaqtida uning eng yaqin mahrami bo'lgan bosh mirza bilan... yumaloqdan kelgan, ko'm-ko'k ko'zlari go'dakning ko'zlariday ma'sum bir bukri turardi. Egniga suvsar po'stin, boshiga suvsar telpak kiyib, belini oltin kamar bilan bog'lab olgan bu bukri — yo rab! — ko'p yillardan

keyin G'aznada paydo bo'lgan, o'zining nayi va attorlik do'konchasi bilan dong chiqargan Piri Bukriy edi!..

Yosh Abu Rayhon uni taniydi. U mahalda buкри Qiyot shahrining eng mashhur savdogarlaridan biri hisoblanardi!..

Bukri, qo'lida qandaydir qalin daftar, zulfini uzilib tushgan eshikni zo'r berib o'ziga tortar, Rayhona esa, dag'-dag' titrab uning ko'krigidan itarardi.

Yoshlik ekan, qaynoq o'spirinlik chog'lari ekan, Abu Rayhon nima bo'layotganini so'rab-surishtirib ham turmaydi. Rayhonaning yosh bilan yuvilgan yuzini ko'radi-yu, avval bosh mirzani, keyin nimalardir deb baqirayotgan bukrini giribonidan olib, marmar zinalar tomon otadi. Bosh mirza oyoq ostidagi sip-silliq ayiq terisiga sirg'anib yiqiladi, chorpahildan kelgan buкри esa marmar zinadan xuddi to'nkaday gumburlab yumalab ketadi.

Beruniy keyin surishtirib bilsa Rayhonaning otasi bukridan qarzdor ekan, biroq bukrini bu qarz emas, hatto choldan behisob davlat ham emas, balki uning yolg'iz qizi, go'zal Rayhona qiziqtirar ekan!..

O'sha kecha Rayhona Abu Rayhonning quchog'ida yig'lay-yig'lay uxlab qoladi, erta tong esa Rayhonaning issiq bo'salaridan mast bo'lib endi uyquga ketgan Abu Rayhon vahimali qiyqiriqlardan uyg'onib ketadi.

Yo'q, bu — bosh mirza bilan ayyor buкри ko'targan to'polon emas, Qiyotga nogahon bostirib kelgan Xorazmshoh qo'shinlarining qiyqirig'i edi!..

O'sha tong Qiyot hokimi qal'asida boshlangan yong'in bir zumda butun shaharga taraladi, chunki sahroda ko'tarilgan dovul yong'in uchqunlarini osmoni falakka olib chiqib, yon-yoqqa sochadi, ulardan ko'tarilgan olov esa ajdaho kabi dahadan-dahaga, uydан-uyga, do'kondan-do'konga sakrab, butun-butun rastalar, saroylar, qasrlarni yamlab yutadi.

Abu Rayhon qo'lida behush Rayhonabonu, boqqa qochib chiqadi. Jayhun sohilida turib, Qiyot boshiga tushgan mislsiz ofatni, go'yo bir bog' shuvoqday lovillab yongan do'konlar, tutash rastalar, uylar, karvonsaroylar,

qasrlarni o'z ko'zi bilan ko'radi, jahannam ichida qolgan odamlarning faryodini, dumlari va yollari yongan otlarning kishnashi, qo'y va echkilar, mushuk va itlarning odam bolasi yanglig' zorli yig'isini eshitadi, ko'zida yosh, yuragi qon bo'lib eshitadi.

Qiziq dunyo ekan bu dunyo! Keyin bilsa... o'sha kecha nasroniy savdogarning ko'shki bilan birga Rayhonabonu ishqida yongan bukrining ko'shklari ham barobar kuyib, barobar kul bo'lgan ekan!

Beruniyning miyasida bazo'r miltiragan xira chiroq «lip» etib o'chadi-yu, boshqa bir chiroq yonadi.

Bepoyon sahro. Tun. Hammayoq gulxan, to'g'rirog'i, so'nayotgan gulxanlarning zaif shu'lasini, go'yo osmon to'la yulduzlar o'sha oqshom yerga yomg'irday yog'ilganu hududsiz sahroga tariqday sochilib ketgan. Sahroda, yulduzday milt-mult etgan bu gulxanlar atrofida uvada-juvada odamlar. Bular mag'lub Qiyotdan muzaffar Gurganjga haydab ketilayotgan behisob mahbuslar. Ular, Xorazm-shoh sarbozlari qurshovida kunduz yo'l yurib, kechalari sahroda tunashadi, gulxan yoqib isinishadi, suv qaynatishib, sarbozlar ulashgan zog'ora nonlarni tanovul qilishadi. Rayhona tushgacha bir amallab o'zi yuradi, tushdan keyin chag'irtikon va toshlar tilka-tilka qilgan oyoqlarini bosolmay, yig'ilib qoladi, shunda Abu Rayhon uni opichlab oladi.

... Ko'kada ham, yerda ham behisob yulduzlar miltiraydi. G'ir-g'ir esgan sovuq shabadada so'nayotgan gulxanning zaif cho'g'lari nogirongina jimirlaydi. Abu Rayhon, ustidagi uvada chakmonini yechib, behol dildirab yotgan Rayhonaning ustiga tashlaydi. Shu payt qorong'ida bo'g'iq xirilloq yo'tal eshitiladi.

— Ollo yo'liga bir tishlam non!..

Zimiston qorong'ilikda... egniga juldur chopon, boshida eski quloh kiygan pakanagina bir kimsa paydo bo'ladi. Kimsaning soqol-mo'ylovi, qosh-kipriklari kuyib, yuzi sovuq bir niqobga o'xshab qolgan.

Gulxan yonida isinib o'tirgan Rayhona gadoni ko'rib, o'zini Abu Rayhonning quchog'iga otadi! Yo tavba! Soch-soqoli kuyib, qosh-kipriklari to'kilib, arvohga

o'xshab qolgan bu kimsa... o'sha, Qiyot shahrining eng badavlat kishisi bo'lgan bukri savdogar edi.

Ha, taqdirning o'yini qiziq ekan!..

Ko'p o'tmay, Abu Rayhonning ko'z ochib ko'rgan sevgilisi Rayhonabonu olamdan o'tadi. Abu Rayhon Qiyot qirg'inidan so'ng Gurganjni tark etib, Jurjonga, Jurjondan Rayga, Raydan Hamadonga o'tib, musofir yurtlarda darbadar kezib yurganida olamdan o'tadi. Ilonning yog'ini yalagan bu bukri esa hanuz tirik, hanuz oyoq ostida ivirsib yuribdi! Ivirsib emish! Daf'atan ko'rgan kishi rahm qiladigan bu ayyor tunov kuni kimsan Horun ar-Rashid g'aznasidan yo'qolgan mashhur javohirni ko'z-ko'z qilib, undan Sadafbibini so'radi. Kim bilsin, Abu Rayhon bu sovuq go'rda tiriklay ko'milib yotganida, u battol bukri yerto'lasiga yashiringan hisobsiz dunyosini sochib, Sadafbibini olib ketgandir ham!..

Yo alhazar! Bu ne? Tushimi, o'ngimi? Ana, eshik tovushsizgina ochilib, Sadafbibi kirib keldi. Ma'yus quralay ko'zlarida allaqanday hadik, yumaloq kulcha yuzi hayajondan oqargan. U harrir ipak durrasi bilan yuzining bir tomonini xiyol yashirganicha Beruniyning yoniga o'tirdi.

Yo'q, hozir emas, o'sha kuni, mashvaratdan bir kun avval, Xatlibegim kelib ketgan kuni bo'lib o'tdi bu voqea, lekin go'yo hozir bo'layotganday ko'z oldida turibdi. O'z so'zlari ham, Sadafbibining javoblari ham — hamma-hammasi quloqlari ostida qayta yangrayotganday bo'lyapti unga.

— Bibim. Sen qizim bo'lsang, Sabhu mening o'g'lim.

— Ustod! Meni... men sho'rlikni quvmang! Diydo-ringizni ko'rmoq baxtidan judo qilmang meni, judo qilmang!

Mana, o'shandan beri necha kun o'tdi! Biroq Beruniy hamon kaftida qizning issiq lablarini his etadi, hamon uning hazin, dardli ovozini eshitadi. Yo tavba! Unga ne bo'ldi? Bu ne o'y, ne orzu? Bilagidan kuchi, belidan quvvati ketib, bu sovuq go'rga tiriklayin tiqilganda o'ylaydigan o'ymi bu?

Beruniy yuragi yonib ketayotganday bo'lib, qora

qumg'ondan bir qultum suv ichdi... Yo'q, hozir alamli o'ylar payti emas, bunday o'ylar bilan usiz ham o'rtanib turgan yurakni battar o'rtaydigan payt emas!

Beruniy, butun irodasini to'plab, xayolini boshqa tomonga burishga urindi. Haqiqatan, sal o'tmay, miyasidagi ko'ngilni g'ash qiluvchi xira chiroq o'chib, shu'lasini tiniqroq boshqa bir chiroq yondi.

... Yana bepoyon sahro. Yana seryulduz, zimiston kecha. Yana gulxan lovillab yonadi. Biroq gulxan yonida Rayhona emas, Ibn Sino. Ikkisi ham chuqur sukutda.

Qiyot qirg'inidan keyin ko'p yillar o'tgan, ko'p suvlar oqib ketgan. Jurjon va Rayda, Qobus va Vushmagir kabi manman, kalondimog' hokimlar saroyida kechgan musofirlik yillari orqada qolgan, u o'z eliga qaytgan. Lekin o'z eliga qaytgach topgan izzat-ikromlari, Gurganj hokimi Ma'mun ibn Ma'mun saroyidagi «Majlisi ulamo»da kechgan mas'ud damlar, shirin suhbatlar, qizg'in munozara va mushoiralar ham — hammasi o'z intihosiga yetgan. Chunki G'azna hokimi sulton Mahmuddan farmoni oliy kelgan. Ma'mun ibn Ma'mun saroyidagi barcha allomalar G'aznaga, sulton saroyiga jo'natilmog'i lozim. Sulton istagan allomalar orasida Abu Ali ibn Sino bilan ustod Masihiy ham bor. Lekin ular sulton tilagini rad etib, Jurjon tomon bosh olib ketishga ahd qilishgan.

Zim-ziyo kecha. Osmon allaqanday musaffo, oppoq yulduzlarga to'la... Jayhun sohilidan esgan g'ir-g'ir shabada o'rtadagi gulxanni goh u yonga, goh bu yonga yelpib o'ynaydi.

Beruniy bir Jurjon tomonlarda o'tgan musofirlik yillarini eslab, xomushlanadi, bir bo'lg'usi judolikni o'ylab, uf tortadi. Abu Ali esa, qandaydir yaxshi umidlar qanotida parvoz qiladi, u Beruniyni ham birga ketishga undaydi. Boshga tushganni birga ko'raylik, deb yolvoradi.

— Birga bo'lishni men ham istaymen! — deydi Beruniy xo'rsinib. — Dil-dilimdan istaymen. Ammo tag'in Jurjonga bormoq, tag'in Qobus ibn Vushmagir yanglig' hokimlar xizmatida bo'lmoq!.. Yo'q, kamina ularni ko'rib to'yanmen, azizim.



— Sulton Mahmud-chi? — deydi Abu Ali. — Qobus ibn Vushmagirdan nesi afzal uning? Yo Hindistonu Xurosonda qilgan qilmishlari yodingizdan chiqdimi, ustod?

— Yo‘q, azizim, yodimdan chiqqani yo‘q. Kamina G‘azna hokimini Jurjon hokimidan afzal ko‘rmaymen. Oq qarg‘a, qora qarg‘a — bari bir qarg‘a. Va lekin...

— Yo‘q, ustod! — deydi Abu Ali qizishib. — Hamma hokim bir xil emas, somoniylarni eslang!

— Vo ajabo! Somoniylar Buxoro va Xurosonni qonga belamaganmi? Ahli mardurning boshiga kulfat solmaganmi?

— Solgan? Ammo, bilasiz, bu foniylar dunyoda hamma narsa nisblydur. Somoniylar...

— Yoshlik qilasen, Abu Ali!..

Har qalay bul osiy banda faqat yomonlik emas, ko‘p yaxshiliklar ham qilg‘on. G‘aznani obod etdi, ilm va nazm ahlining boshini siladi.

Gunoh ne kerak? Sulton Mahmud bir makonni vayron qilsa, ikkinchi makonni obod qildi. Boz ustiga sen ila mening har bir qadamimizni poylab yurganlar bor!

— Qochamiz. Pinhona qochamiz, ustod... Kamina kichik bir karvon bilan ahdlashib qo‘yganmen. Mavlono Masihiy ham ketmoqqa bel bog‘lagandur, ustod.

— Sizlarga oq yo‘l, azizim! — deydi Beruniy. — Yo‘llaringiz bexatar bo‘lsin. Men esam... yo‘q, bir borgan joyimga ikkinchi marotaba borishga na ko‘nglim chopadi, Abu Ali, na toqatim yetadi! Charxi falak hali necha bor aylanib kelur. Nasib etsa tag‘in diydor ko‘rishgaymiz. Ko‘rishmasak... rozi bo‘l, azizim. Oramizdan yaxshi-yomon so‘z o‘tgan bo‘lsa, kechirgaysen, inim!

— Siz ham kechirgaysiz, ustod! — deydi Abu Ali Qorong‘ida uning «qult» etib yutingani eshitaladi. — Gunohkor banda, gustohlik qilib ko‘nglingizni og‘ritgan bo‘lsam... kechirgaysiz, ustod!

Yillar o‘tadi. G‘aznaga kelgan Beruniy shahar chekkasida rasadxona quradi. Sultonning farmoni bilan qurilishga Isfahon va Hamadondan bir guruh me‘morlar taklif qilinadi. Ular Beruniyga Ibn Sinodan ilk maktub

keltirishadi, maktub bilan birga sovuq bir xabar keladi: Abu Ali bilan Gurganjdan chiqib, Jurjon tomon pinhona yo'l olgan ustod Abu Sahl Masihiy yo'l azobiga dosh berolmay, sahro qo'ynida jon taslim qilgan emish!..

Mana, bu mash'um xabar kelganiga o'n besh yildan oshibdi. Biroq Beruniyini hanuz tizginsiz bir o'y ezadi: nechun o'shanda Abu Alining nasihatini olmadim, nasihatini olganimda, ehtimol, cho'l bag'rida keksa ustodga madad berarmidim, degan betaskin bir o'y ko'nglini xufton, dilini vayron qiladi.

Ibn Sino esa... mana, salkam yigirma yildirki, Beruniy uni bir ko'rsam, deb orzu qiladi. Ayniqsa, Hindistondan qaytib, uning «Al-Qonun»ini o'qigandan beri bu orzu unga tinchlik bermaydi, goho uni tushlarida ko'rib chiqadi...

Kim bilsin, tunov kuni Xatlibegim aytganidek, Ibn Sinoga maxsus elchilar yuborilgan bo'lsa, ehtimol, kelib ham qolar... Yo'q, bo'yi barobar oltin va'da qilganda ham sultonga xizmat qilishga ko'nmagan Ibn Sino endi ham ko'nmas. Bordi-yu, ko'nganda ham u yetib kelguncha uning o'zi tirik bo'ladimi yo bu go'r azobiga dosh berolmay jon taslim qiladimi? Uni ko'rmas, uning o'z qo'lidan «Al-Qonun»ini olib, «Hindiston»ini unga in'om etish baxtiga muyassar bo'lolmay olamdan o'tadimi?

Yo tavba! Bu g'am, tuzday taxir bu ko'z yoshi qaydan keldi? Boshingga bundan yuz barobar katta musibatlar tushganda ham bu qadar ezilmagan eding, bu qadar bukilmagan eding! Senga ne bo'ldi, Abu Rayhon?

Beruniy miyasidagi xira shamni o'chirib, tiniqroq shamlarni yoqishga uzoq urindi, biroq qaysi sham yonmasin, oxir-pirovardida bora-bora xiralashib qolar, ko'nglidagi yorug' esdaliklar og'ir, notinch o'ylar bilan almashardi.

## O'n birinchi bob

Sultonning tantiq vaziri Abul Hasanak amiralmo' mininning shabistonidan<sup>1</sup> shirakayf odamday gandraklab chiqdi-da, salomxonadagi kursiga o'zini tashladi. Kimdir yo'talganday bo'ldi. Salomxonaga... qozi Sayid kirib keldi.

Qo'lida og'ir kahrabo tasbeh, egnida bo'y-bastiga yarashgan safrorang jubba, boshida safrorang salla, ikki yuzi anorday qip-qizil qozi hazratlari kursida bema-jol o'tirgan Abul Hasanakka qarab bilinar-bilinmas bosh irg'adi-da, boqma g'ozday kekkayib ichkariga kirib ketdi.

Abul Hasanak bazo'r o'midan turdi, bazo'r yurib salomxonadan chiqdi. Shu topda u hech kimga duch kelishni istamas, uning ko'ngli faqat bir narsani tilar — tezda o'z ko'shkiga yetib borsa-yu, ust-ustiga bir-ikki pi-yola may ichib, xobxonada bo'lib o'tgan sovuq gaplarni xayolidan chiqarsa. Lekin qasdiga olib, saroydan chiqishi bilan dunyoda eng yomon ko'rgan odami — vaziri a'zam ali G'aribga duch keldi.

Ali G'arib, saroy oldidagi xiyobonda, o'z g'ulomlari qurshovida turar, ulardan nariroqda yana to'rt nafar suvoriy ko'zga chalinar, bular Abul Hasanakning shaxsiy g'ulomlari edi.

Abul Hasanak darvozadan chiqishi bilan Ali G'arib yoshi ulug' va martabasi baland bo'lsa ham pildiraganicha uning istiqboliga yurdi.

— Inim Abul Hasanak! Maslahatli ish buzilmas, degan gap bor. Siz bilan maslahatlashadurg'on bir yumush chiqib qoldikim, iltimos — g'arib kulbamizga iltifot etsangiz!

— Ne maslahat? — Abul Hasanakning ovozi shubha aralash sovuq tahdid bilan yangradi. U bosh vazirdan hamisha hadiksirar, bu qari tulki uni sinash maqsadida chaqirayotganini sezar va bundan qo'rqar edi. Ali G'arib buni payqab chuqur xo'rsindi.

---

<sup>1</sup>Shabiston — yotoqxona.

— Ollo shohid, inim, amiralmo‘mininning boshida-  
gi musibat siz bilan mening boshimizga tushgan musi-  
batdur. Illo, bu musibatdan olampanohning dushmanlari  
shod bo‘lsa, do‘stlari qon yig‘laydur. Bas, bu so‘z haqi-  
qat ekan, siz bilan biz bir-birimizga suyanib ish tut-  
mog‘imiz darkor. Otga mining, inim!

Qosh qorayib qolgan, shahar harir nimqora parda  
bilan o‘ralganga o‘xshar, har joy-har joydagi toshfonuslar  
xira yulduzday elas-elas ko‘zga chalinardi. Shahar  
ko‘chalari kimsasiz, do‘konlar yopilgan, faqat soy  
bo‘yidagi ba‘zi karvonsaroylaridagina tungi sirli hayot  
nishonalari sezilar, qo‘rg‘onlarda gulxan yonar, o‘choq-  
lar atrofida odamlar kuymalanar edi.

Bosh vazirning baland qo‘rg‘on bilan o‘ralgan ko‘shki  
soyning chap sohilida, Bog‘i Firuzdan bir chaqirim quyi-  
da, zodagonlar dahasining boshida edi.

Ko‘shk darvozasida gulxan yoqib o‘tirgan yasovul-  
lar barobar qilich yalang‘ochlab, yo‘l to‘shid, biroq  
oldinda ot choptirib kelgan sardorning, «Vaziri a‘zam  
janoblari!» degan xitobi bilan darhol qilichlarini  
sharaq-shuruq qinlarga urishib, otlarning jilovidan  
olishdi.

Nafis havorang marmar bilan ziynatlangan ikki qavat-  
li muazzam ko‘shk darvozadan ancha yiroqda, ulkan  
bog‘ning o‘rtasida edi. Hozir ko‘shkning faqat bir nech-  
tagina darichalari yorug‘, qolganlari o‘yib olingan  
ko‘zday qorayib turar hammayoq suv quyganday jimjit,  
faqat bog‘da, daraxtlar orasida qandaydir soyalar g‘imir-  
lab yurardi.

Ali G‘arib xuddi bosh vazir emas, Abul Hasanakning  
itoatkor g‘ulomiday oldinda pildirab: «Marhamat, azi-  
zim, marhamat», deganicha, xiyobon bo‘ylab ko‘shkka  
yo‘l boshladi. U ko‘shk bo‘sag‘asida qo‘l qovushtirib tur-  
gan sertavoze g‘ulomlar yonidan o‘tib, ikkinchi oshyo-  
naga ko‘tarildi-da, o‘ng qo‘ldagi ikki tavaqali o‘ymakor  
eshikni ochdi. Bu — Abul Hasanak kutganidek, shohona  
jihozlangan xona emas, aksincha, faqirona bezatilgan  
chog‘roq xona edi. Xonaning eshik va darichalariga od-  
migina ko‘k darpardalar tutilgan, yerdagi paloslar ustiga

qizil bo'z ko'rpachalar to'shalib, qizil bolishlar tashlangan.

Xonaning o'rtasida nozi ne'matlarga to'la sakkiz qirrali katta xontaxta turardi. Oddiygina sopol taqsimchalarda pista va bodom, asal va shinnilar, murabbolar, ulkan laganlarda tog'day uyilgan bedana qovurdoqlar...

Abul Hasanak to'rdagi qizil bo'z ko'rpachaga o'tib o'tirarkan, vaziri a'zamning xonasini yana bir ko'zdan kechirdi, kechirarkan, negadir bundan uch-to'rt yil muqaddam sobiq bosh vazir Xo'ja Ahmad Maymandiyga<sup>1</sup> taqilgan ayblar yodiga tushdi. Sobiq bosh vazirga taqilgan eng katta ayb — o'z mansabidan foydalanib, hisobsiz boylik orttirganlikda edi. Rost, uning kimsan Xo'ja Ahmad Maymandiyning tillik<sup>2</sup> va tilsiz boyliklari hech kimga sir emas edi, chunki sobiq bosh vazir aql va makrda yagona bo'lsa ham, boyligini hech kimdan sir tutmas, aksincha, Osmon malikasi kabi ko'rkam saroyini, saroyidagi harami, haramidagi onasi o'pmagan kanizlarini, yiqqan zeb-ziynatlarini ko'z-ko'z qilishni yaxshi ko'rar, to'y-hashamlarda esa, topgan dunyosini shamolday sovurar edi. Ammo bu saxiylik, bu oshkora namoyishlarning oqibati nima bo'ldi? Sobiq bosh vazirning g'animlari, jumladan, Abul Hasanakning o'zi ham Xo'ja Ahmad Maymandiyi yiqitishda uning ko'rkam qasrlari, haramlari va haramlaridagi husnda tengsiz joriyalarini ro'kach qilmadimi?.. Ro'kach qildi! Abul Hasanak ham, sobiq bosh vazirning tagiga suv quygan bu makkor Ali G'arib ham Xo'ja Ahmad Maymandiyga «saltanat xazinasiga chang soldi», degan ayb taqib, uni o'z yoyi, o'z o'qi bilan otib qulatishdi... Ammo... ilonning yog'ini yalagan bu tulki Maymandiy taqdiridan o'zi uchun katta xulosa chiqaribdi, u esa, hovliqma Abul Hasanak esa... bu ishdan hech bir saboq olmabdi!

Abul Hasanak bilar, bir qarashda chumoliday beozor ko'ringan, bu yum-yumaloq xomsemiz odam hamma shahar, hamma muzofot hokimlarini qo'lga olgan,

<sup>1</sup> Sulton Mahmudning mashhur bosh vaziri.

<sup>2</sup> Tillik boylik — qullar ma'nosida.

ayniqsa boy tijorat ahli undan zir titrar, birorta xorijiy savdogar katta in'omlarsiz saltanat sarhadini hatlab o'tolmas edi. Ajabo! Unda o'z bo'y-bastiga zid pinhoniyy bir iqtidor bor edikim, bu kuch va makmning hammasini u faqat bir maqsadga, boyluk orttirish maqsadiga qaratgan edi. Abul Hasanak buni bilars, har qalay bu battolning boyligi Xo'ja Ahmad Maymandiyning boyligidan yuz barobar oshib ketganini sezar va bugun bo'lmasa ertaga uni fosh qilib, boshiga sobiq bosh vazirning kunini solaman, deb yurardi. Ammo, e voh, bu qari tulki u o'ylagandan o'n chandon mug'ambir ekan, pinhona ishlarining izini ham qoldirmay, hammayoqni shipshiydam qilib qo'yibdi. U bo'lsa...

Abul Hasanakni yolg'iz qoldirib qayoqqadir gumdon bo'lgan Ali G'arib, lahza o'tmay, bo'yni ingichka, qomi katta chiroyli billur idish ko'tarib kirdi. Idish oltinday tovlangan shafaqrang may bilan to'ldirilgan edi. Bosh vazir miyig'ida kulimsirab, billur idishni tokchadagi shamga tutib tomosha qilarkan:

— Qirq yil yerto'lada yotgan bir xum mayim bor edi, — dedi tamshanib. — Siz azizim sharafiga shu xumni ochtirdim, inim...

— Vo ajabo! Agar yanglishmasam, janoblari sharob ichmoqni gunohi azim, deb bilur edilar!

— Ollo o'zi kechirgay! Bukun oftobi olamning ahvoli ruhiyasini ko'rib jigar-bag'rim ezilib ketdiki, ko'ngil chigillarini jinday yozmoq gunoh bo'lmas, azizim. Qani, baniyati shifo! Sultoni salotinga shifo bergay. Ilohi omin!

«Chamasi bu tili shakar, ichi zahar qari tulkining yomon bir muddaosi bor. Ehtiyot bo'lmoq darkor!»

Abul Hasanak oltinday tovlangan shafaqrang maydan bir ho'plab, piyolani qaytarib bermoqchi edi, biroq musallas shunday xushbo'y, shunday xushta'm ediki, tomog'idan «qult» etib o'tib ketganini o'zi ham sezmay qoldi.

— Bay-ba-bay! Filhaqiqat, qirq yil saqlabsiz!

Abul Hasanak bu pakanagina, lo'ppi yuz odamni jinidan yomon ko'rsa ham, undan doim hadixirab yura-

di. Rost, sobiq bosh vaziri ag'darishda ular bir yoqadan bosh chiqarishgan, lekin Abul Hasanak bu shirin zabon tulki bilan Xo'ja Ahmad Maymandiyga qarshi zimdan til biriktirganida uni vaziri a'zam bo'ladi, degan o'y yetti uxlab tushiga ham kirmagan, aks holda til biriktirmas edi.

To'g'ri, amiralmo'minin uni, Abul Hasanakni o'z farzandidan ham yaxshi ko'radi, eng yaqin nadimim deb biladi. Ilgari, bu mudhish vasvas dardiga giriftor bo'lishidan avval, usiz biror o'ltirish qilmas, Abul Hasanak sultonning hamma anjumanlarida bosh-qosh bo'lar, bazmi jamshidlarida soqiylik qilar, yaxshi so'zlari, madhiyalari, lutflari bilan amiralmo'mininni ham, boshqa a'yonu boyonlarini ham xushnud etib kelardi. Shu boisdan hamma uni sultonning eng yaqin muqarribi deb bilardi. Endi o'ylab qarasa, sultonning bu iltifotiga suyanib, ko'p hovliqibdi, ko'p dushmanlarning dodini beribdi-yu, ammo-lekin oyoq ostidan bu falokat chiqib qolishini xayoliga ham keltirmabdi. Uning nazarida, suyangan tog'i amiralmo'minin taxtda o'ttiz-qirq yil emas, toabad turmog'i lozim edi. Hayhot, faqat ojiz bandalar emas, sultoni salotinday «metin tog'» ham abadul-abad turmas ekan bu dunyoda.

Xumda qirq yil asir yotgan «shayton» o'z ishini qila boshladi: Abul Hasanakning ichini yondirib, tomirlaridagi qonini jo'shtirib yubordi. Bosh vazir ham mitti ko'zlari artilgan sirg'aday yaltillab, lo'ppi yuzlari naqsh olmaday taram-taram qizardi, biroq ikkala vazir ham gap boshlashga jur'at etolmas, xayollarida tug'yon fikrlarni jilovlashga urinib, hadeb nozi ne'matlarga zo'r berishar, «oling, oling»lashib, izzat-ikromda bir-birlari bilan musobaqalashardi.

Nihoyat, Ali G'arib, lo'ppi yuzini silab, cho'zilib ketgan sukutni buzishga jur'at etdi.

— Shak yo'q, olampanohning tilagini hech bir kimsa tarki vojib qilolmaydur. Amri poshsho vojibdir. Davlatpanoh katta o'g'li amir Mas'udni emas, kenja zurriyoti shahzoda Muhammadni valiahd deb fatvo bergan ekan...— Ali G'arib tilining uchiga kelgan so'zini ichiga

yutib, ro'parasida yonboshlab yotgan Abul Hasanakka ko'z qirini tashladi, tashladi-yu, darhol nigohini uzdi. Abul Hasanakning mastona suzilgan ko'zlarida qandaydir yomon bir hadik jilva qilardi.

— So'zlang, so'zlay bering, taqsimim...

— Yo'q, mening ortiqcha so'zim yo'q, — dedi Ali G'arib, darhol hushyor tortib. — Shahzoda Muhammad diyonatli, mo'min-qobil yigit. Va lekin faqir amir Mas'uddan qo'rqamen. Davlatpanoh uni toju taxtdan mosuvo qilib, shahzoda Muhammadni valiahdim deb fatvo berganda... siz bilan men kalomulloni qo'lga olib, qasam ichdik. Shak yo'q, qasamyod qilg'animiz amir Mas'udning qulog'iga borib yetdgandur!

Abul Hasanak to'satdan shiddat bilan qaddini rostlab:

— Muddao? — deb so'radi. — Bu so'zdan maqsad ne? Ochiq ayting, janob bosh vazir?

— Yo'q-yo'-yo'q! Hech bir niyatim yo'q! — Ali G'arib shosha-pisha piyolalarga may quydi, quyarkan, nimjongina momiq qo'llari titrab ketdi-yu, tillarang sharobdan bir necha tomchisi oppoq dasturxonga tomib, pushtirang nuqtalar qo'ydi.

— Siz yoshsiz, azizim, kamina esa, ko'p balolarni ko'raverib, ko'sa bo'lganmen, inim.

«Balli, ana endi haq gapni gapirding!»

— Faqir sizni bu g'arib kulbamga taklif qilib, ko'nglimni ochgan bo'lsam, boshimizga qilich kelganini sezib qildim bu ishni! Toki, bu qilich ikkimizning boshimizda barobar turibdi! — Ali G'arib to'satdan ko'ziga yosh oldi. — Takror aytamen, inim, amri poshsho vojibdur. Va lekin... amir Mas'ud!.. Toju taxt deganda hech narsadan qaytmaydi u nobakor!

— Xo'p! — Abul Hasanak may to'la piyolani xontaxtaga «taq» etkizib qo'ydi-da, kaftining orqasi bilan qopqora bejirim mo'ylovini siladi. Uning sharobdan bo'g'riqqan chiroyli yuzida, haram go'zallarining ko'zlariday katta-katta serkiprik ko'zlarida qandaydir kishini o'ziga rom etguvchi shiddat va qat'iyat zuhur etdi. — Boshimizga ne musibat kelmasin... kamina ul oftobi olamning izmi ixtiyoridin chiqmasmen!



— Borakallo! — dedi Ali G'arib, momiq qo'llarini ko'ksiga qo'yib. — Ammo... amir Mas'ud!

— Ota rozi — xudo rozi! Padari buzrukvori norozi bo'lg'on zurriyotdan xudo ham norozi! — dedi Abul Hasanak, allaqanday jo'shib. — Bas! Amir Mas'uddan qo'rqmoq emas, qilich charxlamoq darkor, janobi bosh vazir, qilich!..

— So'zingiz to'g'ri, azizim. Ammo-lekin, o'zingizdan qolar gap yo'q, inim, barcha amir, barcha lashkarboshilarning amir Mas'udga ixloslari balanddur.

— Yo'q! — dedi Abul Hasanak bo'g'iq, tahdidli ovozda. Uning uchlari buralgan bejirim mo'ylovi dikrayib, ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi. — Balki lashkarboshilar orasida fitna bordur? Balki amiralmo'minin olamdan o'tmasdan turib, unga choh qazish payida yurgan nonko'rlar bordur? Balki bu fitnaning boshida vaziri a'zam janoblari o'zlari turgandur? — Abul Hasanak, o'z so'zidan o'zi junbishga kelib, o'ng qo'lini qilich dastasiga qo'ydi. Uning ola-kula ko'zlarida telbalik alomatlari zohir bo'ldi. — Agar fitna bo'lsa, bilib qo'ying, vaziri a'zam! Faqir tirik ekanmen, ikki amiralmo'mininga choh kavlasa, o'zi shu chohga qulaydi! — Abul Hasanak, qilichining bandini ushlaganicha, o'rnidan tura boshladi, biroq turib ulgurmadi. Ali G'arib baqaloq gavdasiga zid bir chaqqonlik bilan o'rnidan sapchib turdi.

— Tort qo'lingni qihchdan! Yo hozir g'ulomlarimni chaqiramen! Qo'llaringga kishan urdirib, zindonga tashlaymen, tentak!

Abul Hasanak, go'yo o'z quloqlariga ishonmaganday, ko'zlarini katta ochib angrayib qoldi, dikraygan mo'ylovining uchlari xuddi o'q yegan qushning qanotlariday pir-pir uchdi-yu, qilichining bandini qo'yib yuborib, ko'rpachaga holsizgina yiqildi.

— Ke... kechirgaysiz, valinemat!

U, garchi bosh vazirning firib bobida benazir ekanini bilsa ham, ko'nglining tupkarisida uni pisand qilmas, nazarida, agar astoydil kirishsa, uni vaziri a'zamligidan ag'darib tashlashga ham qurbi yetar edi. U endigina bu

yum-yumaloq, baqaloq odamning butun mudhish qudratini his etdi.

Ali G'arib, go'yo hech narsa bo'lmaganday, qayta joyiga o'tirdi, bo'g'iq tahdidli ovozi qayta muloyimlashib, sekin davom etdi:

— Kamina sizni o'z inimday yaqin tutib, ko'nglimdagi dardlarimni izhor etsam, siz...

— Uzr, valine'mat. Yoshlik qildim!..

— Boshga qilich kelganda kishi yurak amriga emas, aql-idrok amriga tayanmog'i darkor. Bilib qo'ying, inim, ne ko'p, siz bilan bizning dushmanimiz ko'p. Qo'lingizda qilich, belingizda quvvat bor ekan, ular sizga ta'zim bajo keltirib, iljayib turadi. Qilichingiz qo'lingizdan tushsa o'zlari qilich yalang'ochlaydi. Siz bilan biz amiralmo'mininning qo'lidagi qilichlari edik. Yodingizda bo'lsin, yangi shoh, avvalgi shohning qilichlarini taqmaydi, bil'aks, ularni sindirib tashlab, o'z qilichlarini taqqusidir. Amiralmo'minin, — ollo uning umrini uzoq qilg'ay,— bu bebaho dunyoni yetim qilib, ul dargohi ilohiyini munavvar etadurg'on bo'lsa, siz bilan biz o'sha kuniyoq eski qilichga aylanurmiz. Bu musibat faqat biz emas, bola-chaqalarimiz, nasl-nasabimizning boshiga ham tushmasa deb qo'rqamen. Qo'rqqanim sabab, sizga ko'nglimni ochib, dardimni aytdim, siz esa... so'zimizning «xudo»sini eshitib, «berdi»sini eshitmadingiz, inim!

Vo darig'! Bir qarashda lanj va beso'naqay ko'ringan bu ko'rimsizgina xomsemiz odam, bir necha oydan beri Abul Hasanakning ko'ngliga g'uluv solib, uyqu bermay kelayotgan gaplarni gapirdi. Baayni uning o'ylarini, uning yuragini kemirib kelayotgan shubha va hadiklarni bir-bir sanab berdi.

— Qissadan hissa shulki, ul takabbur hakim Ibn Sino hazratlariga yuborilgan ariz Abulvafo Sariqdan mushrif kelmish!

— Mushrif? Qachon? Ne mujda keltirdi u?

— Mujda!.. — Bosh vazir o'ymoqdekkina og'zini yalab kinoyali kulimsiradi. — O, azizim, azizim! Mujda kelsa — kamina sizni bu kulbaga chaqirib, bu so'zlarni so'zlab o'ltirmas edim! Taassuflar bo'lg'aykim, ul

betavfiq hakimi davron, elchining daragini eshitib, qochibdi! Bundan o'n sakkiz yil muqaddam olampanohga xizmat qilishni istamay, Gurganjdan Jurjonga qochgan bo'lsa, bu safar ariz Abulvafoning daragini eshitib, Hamadondan qochibdi.

— Qayga?

— Qayga qochganini o'zidan borib so'raysiz, azizim!

Abul Hasanak bosh vazirning zaharxandasini ichiga yutib:

— Voy tavba! — deb yoqasini ushladi. — Davlatpanoh unga bo'yi barobar ganj va'da qilgan bo'lsa... tag'in ne kerak ul takabbur hakimga?

— Siz hakimni qo'yib, o'z ahvolimizni so'zlang, azizim. Oftobi olamning so'zini eshitdingiz. Ul betavfiq hakimni bir-ikki haftada hoziru nozir qlimasak, siz bilan bizning boshimiz tanimizdan judo bo'lg'usidir. Siz esa hakimni so'zlaysiz!

Abul hasanakdan sado chiqmadi. Uning esiga hozirgina sultonning xobxonasida bo'lib o'tgan suhbat tushdi, amiralmo'amininning bo'g'iq qahrii ovozi quloqlari ostida qayta yangrab ketdi: «Tilyog'lamalik qilma, Abul Hasanak, bilasen — faqir yolg'on so'zga inonmaymen yo sen hazrat Ibn Sinoni bir haftada hoziru nozir qilasen, yo men hammangni duoi bad qilamen!»

Abul Hasanak esa kiyik ovidan keyin yuksak rutbalar kutar, hatto eski raqibi Ali G'aribning o'rniga vaziri a'zam bo'lishni umid qilib yurardi!

Abul Hasanak «may!» deb, piyolasini Ali G'aribga uzatdi. Biroq ali G'arib may quyish o'rniga pildirab borib, eshikni zichlab yopib qaytdi.

— May ichishdan avval so'zimning «berdi»sini eshitding, azizim! — vaziri a'zam yo cho'ntagini kavlashtirib, to'rt buklangan bir qog'oz oldi.

— Omadsiz elchimiz Abulvafo Sariqdan kelgan maktub: «Toju taxtimizning ko'rki, saltanatimizning ziynati, ul oftobi olamning sihat-salamatligini ollo taolodan har laylu nahor tilab turibmiz» va hokazo, va hakazo. — Bosh vazir maktubni ko'z oldiga yaqinlashtirib, bir zum lablarini pichirlatib ichida o'qidi-da:

— Ha, mana! — deb yutindi. — Mana... «Ul sarvari saltanatning suyangan tog'i, toju taxtimizning aqli idroki bo'lmish siz valine'matimga ketib ma'lum bo'lg'aykim, biz faqiru haqir Isfahondan umid oftobimiz so'nib, Teginobod muzofotiga kelib qo'ng'animizda ajab bir hangomaning shohidi bo'ldik. Shundaykim, shahar bozorida bir chehrasi munavvar zoti tabarruk o'zini hakimi davron hazrat Ibn Sino deb, ta'rif qilganlar va ko'p xastalarning dardlariga davo topib, ularning duoi saodatlari-ga musharraf bo'lganlar. Bu ajib hangoma kaminaning qulog'iga yetgach, ul hakimi davronni o'z qarorgohimga oldirishga jazm etdim. Ammo, afsuslar bo'lsinkim, kaminaning bu istagidan ogoh topgan ul allo-mai zamon bir kechada qaygadir gumdon bo'lmish. Faqir yon-yoqqa ayg'oqchilarni safarbar qilib, so'rab-surishtirdim hamki, ammo darak topmadim. Har yoqqa ot choptirib ketgan mushriflar oxir-pirovardida tag'in bir ajib xabar topib keldilar. Shundaykim, o'zini Abu Ali ibn Sino deb ta'rif qilgan bul hakimi hoziq mashriq sari, inchunin, G'aznai muborak tomon yo'l olgan emish.

Alqissa, bu g'aroyib hangomani siz oliymaqom vaziri a'zam janoblariga yetkazmoqdan maqsad shulkim, ehtimol, o'zini hazrat Ibn Sino deb ta'rifu tavsif qilgan bu allomai davronni dorisaltanatidan surishtirib ko'rsangiz va lozim topsangiz, oftobi olamning quloqlariga yetkazsangiz. Kamina esa, poshshoyim olamning nigohiga tushmoqdan qo'rqib Teginobod muzofotida, shahar qal'asi tashida qo'nib turibmen, ko'zim yo'lda, siz valine'matimning duoi salomlarini kutib yotmoq-damen...

Toabad duoi joningizni qilib, g'arib qulingiz» va hokazo, va hokazo...

Ali G'arib, munchoqday miltiragan qisiq ko'zlarini xatdan uzib, to'rda toshday qotgan Abul Hasanakka qaradi.

— Xo'sh, so'zlang, azizim!..

— Siz, — dedi Abul Hasanak, tili og'zida zo'rg'a aylanib. — Siz... bu yolg'on hangomaga inonib, o'zini

Ibn Sino deb ta'riflagan soxta tabibni axtarmoq niyatidasiz?..

— Axtarmoq! Kamina uni allaqachon topib, hibsgildirdim!

Abul Hasanak chiroyli ko'zlarini ola-kula qilib:

— Inchunin, — dedi hansirab. — Inchunin uni olampanohga ro'baro' qilmoqchisiz?

— Yo'q! Hazrat Ibn Sinoni avval qamoq qilib, keyin amiralmo'ninga ro'baro' qilib bo'lmas!

— Xo'sh? Xo'sh?

— Buning uchun hakim hazratlarini mushriflarga qo'shib darhol Teginobodga, ul xumkalla Abulvafo Sariq huzuriga qaytarmoq darkor! So'ngra...

— So'zlang! So'zlay bering, taqsim!

— So'ng ul hakimi hoziqni o'z martabalariga munosib as'asayu dabdaba ila kutib olmoq lozim, egniga shohona liboslar yopib, izzat-ikromini bajo keltirmoq darkor. Ana shundan keyingina...

— Bas! So'zingizni angladim. Hammasini angladim! — dedi Abul Hasanak negadir rangi o'chib. — Maqsadingiz... Bu yolg'on dabdaba bilan yolg'on Ibn Sinoni chin Ibn Sinoga aylantirmoq! Chin Ibn Sinoga aylantirib, sultoni salotinga ro'baro' qilmoq! Yo rab! Bu yolg'on oshkor bo'lsa...

— Oshkor bo'lsa! — Vaziri a'zam qo'lidagi piyola to'la mayni qahr bilan devorga qarab sepd, naqsh olmay qip-qizil yuzidan qon qochib: — Bu yolg'on oshkor bo'lsa, chinini toping! — deb o'shqirdi. — Yo chin Ibn Sinoni toping, yoki bu qovoq kallangizni suyuqli rahnamongiz qilichiga tutib bering!

Abul Hasanak qaltiroq qo'llari bilan boshini changalab oldi, so'ng, go'yo butun salobati, dimog'-firog'i, g'ururi — hammasi yodidan chiqqanday, ikki bukilib vaziri a'zamning oldiga tiz cho'kdi.

— Afv eting, valine'mat! Befarosat iningizni afv eting!

## O'n ikkinchi bob

Noshud shogird sabab hibsga tushgan «hakimi zamon» Abu Shilqim ibn Shahvoniy bir-ikki kundayoq adoyi tamom bo'ldi. Zax va zimiston yerto'lada, u yoqdan-bu yoqqa tapir-tupur yugurib, ko'zi ilingudek bo'lsa oyoq-qo'llarida o'rmalab yurguvchi yovuz kalamushlar «davrasida» o'tgan har bir kun ming kunga tatirdi. Uchinchi kuni Abu Shilqim ibn Shahvoniy hayotdan batamom umidini uzdi, «endi o'ldim, bu sovuq go'rga tiriklayin ko'mildim», degan o'yg'a bordi, bordi-yu, qibla tomonga sajda qilib, uzoq yig'ladi. Biroq yig'i ham yuragiga taskinu tasalli berolmadi, bil'aks, ko'nglidagi eski alamli o'ylarni qayta qo'zg'adi:

«Kim senga hazrat Ibn Sino bo'lamen deb, bu qing'ir yo'lga kir dedi! Bu kuningdan beshbattar bo'l, miyasini yegan eshshak!» — dedi Abu Shilqim, o'z yog'ida o'zi qovurilib. U bir o'zini, bir mastona valdirab, unga pand bergan shogirdini so'kib, ko'kka tavallo qilarkan, nechundir bot-bot ko'r darvesh esiga tushar, nazarida, u battol sovuq yerto'laning zim-ziyo burchagida turib uni kalaka qilayotganday bo'lardi. Go'yo u yolg'iz ko'zini o'ynatib, qiqir-qiqir kular: «Ha, al qasosil minalhaq! Qasosli dunyo bu! Menga neki yomonlik qilgan bo'lsang hammasi qaytgusidir, qaytib yoqangga yopishg'usidir!» deb g'o'ldirar edi.

Qamalishining uchinchi kuni bu vasvas va sovuq vahimalardan aqli chuvalashib, o'tirgan joyida yiqilib qoldi. Yiqilganda bir lahza ko'zi ilindi chog'i, tapir-tupur oyoq tovushlarini eshitib, cho'chib ko'zini ochdi. Zum o'tmay, eshik zulfinlarining shaqir-shuquri eshitildi.

«Yo parvardigor! — pichirladi Abu Shilqim, tirmoqlarigacha muzlab. — O'z hifzi himoyatingda saqlaygay-sen!»

Qo'sh tavaqali zalvarli eshik go'yo kimgadir nola qilganday uzoq g'ichirlab, bazo'r ochildi.

Bo'sag'ada... boshiga yaltiroq mis dubulg'a kiyib, beliga qilich taqib olgan novcha bir sarboz sham ko'tarib turar, uning orqasida zarbof to'nli yum-yumaloq bir

odam ko'zga chalinardi. Eshik ochilishi bilan novcha sarboz orqaga chekinib, zarbof to'nli yum-yumaloq kimsaga yo'l berdi u esa qo'l qovushtirib:

— Assalomu alaykum, ha... hakim hazratlari! — deb g'udrandi-da, yurib emas, yo'q, allaqanday pildirab kelib, Abu Shilqim ibn Shahvoniyga ta'zim bajo keltirdi. — Hakimi zamon hazratlari afv etsinlar! Faqir vaziri a'zam Ali G'aribmen!

«Vaziri a'zam Ali G'arib? Amiralmo'minning suyangan tog'i Ali G'arib?»

— Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, taqsiri olam! — dedi vaziri a'zam hamon qo'l qovushtirib. — Navkar ahlini bilasiz. Bu ho'kizlar bosh olish bobida ustasi farangu, ammo lutfi karam ne, izzat-ikrom ne — fahmi farosatlarini yetishmaydi. Shon-shuhratingizga munosib izzat-ikrom ko'rsatmoq o'rniga bu sovuq yerto'laga qamaganlar. Biz gumrohlar esa bu yumushdan bexabar qolibmiz!

Abu Shilqim ibn Shahvoniy har narsani kutsa ham, hozirgina to'kkan ko'z yoshlari arshi a'loga bunchalik tez yetib borishini kutmagan edi!

«Yo rab! Nahot munchoq ko'zlari anov shamday zaif miltirab turgan bu qari tulkinging so'zlari rost bo'lsa? Nahot makr bobida benazir deb nom chiqargan bu qari iblis uning, Abu Shilqim ibn Shahvoniyning chin Ibn Sino ekaniga inonsa?»

— Tasanno sizga, allomai zamon, tasanno! Amiralmo'minin siz hazratimni lutfan taklif etib, Hamadon va Isfahonga eng mo'tabar zotlarni elchi qilib yuborgan edi. Siz hazratim bo'lsa... o'z oyog'ingiz bilan yurib kelibsiz. Ofarin sizga, hazratim!

Abu Shilqim ibn Shahvoniyning yuragi «shuv» etib, a'zoyi, badanidan behisob chumolilar o'rmalab o'tdi.

«Biladi! Hamma sir-asrorini biladi bu battol!».

— Elchi... Elchingiz Hamadondan qaytdimi, taqsiri olam? — dedi Abu Shilqim va bosh vazirning yuzida bilanar-bilinmas zaharxandani ko'rib, ichida so'kindi:

«Ho'kiz! Ho'kiz bo'lmasang buni so'rab ne qilasen, gumroh!»

— Elchi... Elchimiz shu fursatda Teginobodda.

Isfahondan siz hazratimni topolmay, tarvuzi qo'ltig'idan tushib qaytmish!

Abu Shilqim ibn Shahvoniy yengil nafas olib, vaziri a'zamga dadilroq boqdi. Bosh vazirning lablaridagi kinoyali tabassum so'ngan, to'lin oyday yum-yumaloq, qip-qizil yuzida cheksiz hayrat va chuqur ehtirom ifodasi balqib turardi.

— Ul oftobi olam har on, har daqiqa siz shayx ur rais hazratlarini ko'rmoq va izzat bajo keltirmoqqa mushtodurlar. Va lekin... agar siz hazratimga ma'qul va manzur tushsa, bizda bir maslahat bor, mavlono!

— Bosh ustiga!

— Kamina siz hazratimga lutfi karam tamanno aylamoqdan boshqa maqsadim yo'qdir. Bas, biz sizni shu bukun yaqin bir muzofotga uzatsak. Siz hazratim esa bir-ikki haftadan keyin G'aznai munavvaraga o'z nomingizga munosib shonu shavkat va izzat-ikrom ila tashrif buyursangiz. Toki, biz faqirlar sizday allomai davronni o'z dovrug'ingizga loyiq tarzda qarshi olsak va lutfi ehson va izzatu ikrom ila ul oftobi olamga taqdim etmoq baxtiga muyassar bo'lsak!

«Chin so'zmi bu yo burgaga tuzoq qo'ygan bu qari shaytonning hiylai nayrangimi?» — Abu Shilqim ibn Shahvoniy vaziri a'zamga yer ostidan o'g'rincha nazar tashladi, ammo uning hamon tavoze bilan bosh egib turganini ko'rib o'zi ham bosh egdi.

— Vaziri a'zam janoblarining istagi bizday faqir hakimlar uchun vojibdur, taqsiri olam!

### *O'n uchinchi bob*

Haftaning so'nggi kunlarida Beruniy o'zini xiyol yengil sezdi. Isitmasi qaytdi, ko'ngli sal ravshan tortdi, faqat hanuz darmonsiz.

Vaqt choshgohga yaqinlashib qolgan bo'lsa kerak, tepadagi to'ynukdan hibsxonaga bir jom nur quyilmoqda, bu nur g'adir-budar xarsangtoshlardan qurilgan tor qafasni bir nafasga bo'lsa ham yoritgan edi.



Beruniy bosh tomonidagi ikki qumg'onning birini olib, yuzini yuvdi, zindonbon qo'yib ketgan arpa nonni suvga botirib bir burda yedi. U o'zini sal bardam sezib, o'rnidan turmoqchi edi, shu payt tepadagi tuynukda nimadir pitir-pitir qildi. Beruniy yalt etib tuynukka qaradi. Tuynukdan qandaydir bir qush «par» etib uchdi, uchganda yong'oqdekkin bir tosh «chars» etib uzildi-da, suv to'la qumg'onga kelib «cho'lp» etib tushdi. Qumg'ondagi suv chayqalib ketdi-yu, jo'mragidan tirqirib suv oqdi.

Beruniy, go'yo favqulodda bir hodisa ro'y berganday, yuragi gurs-gurs urib qumg'onga, to'g'rirog'i, qumg'on jo'mragidan oqib chiqib yerni ho'l qilgan suv tomchilariga tikilib qoldi. Keyin, apil-tapil o'rnidan turdida, qafasday tor xonani gir aylanib, yong'oqday-yong'oqday bir nechta tosh terib keldi, so'ng, yerga tiz cho'kib, bu toshlarni qumg'ondagi suvga bitta-bitta tashlab ko'rdi.

Har safar toshni qumg'onga tashlaganida uning jo'mragidan bir necha tomchi suv oqib chiqar, kattaroq tosh tashlasa, tomchilar ko'proq tushar, kichikroq tosh tashlasa suv kamroq oqardi!..

Juda oddiy, ammo... baribir ajab hodisa! Nechun bu sodda, ammo kunday ravshan fikr uning miyasiga avvalroq kelmadi?

Beruniy, xuddi hibsdan ozod bo'lishi to'g'risida farmoni oliy kelganday, yuragi hapriqib, tor xonani yana bir necha marta aylanib chiqdi.

U go'yo ko'pdan beri miyasini band qilib kelayotgan chigal bir jumboqning kalitini topganday hayajonlanar, entikar edi.

Yo'q: suv to'la idishga biror jism tushganda idishdan ma'lum miqdorda suv oqib tushishi uning uchun yangilik emas... Bu hodisa yunon olimi Arshimidus' asarlarida qayd qilingan. Suvga tashlangan jism o'zi siqib chiqargan jismdan og'ir bo'lsa — cho'kishi, barobar bo'lsa suzib yurishi unga ayon. Ammo... tuynukdan nogahon uzilib tushgan bu tosh! Qumg'on jo'mragidan oqib chiqqan bu

---

<sup>1</sup> A r s h i m i d u s — Arximed.

bir necha tomchi suv! Ajabo, juda oddiygina bu hodisa Beruniyning miyasida ko'pdan beri aylanib yurgan murakkab bir muammoga kutilmagan bir tiniqlik kiritdi!

Mana, o'n-o'n besh yildirki, Beruniy nodir ma'danlar to'g'risida bir kitob yozish orzusida yuribdi. U oltin; kumush va noyob ma'danlar to'g'risida ko'p ilmiy ma'lumotlar, g'alati rivoyatlar to'pladi, ular keltirgan fojialar haqida ko'p g'aroyib hangomalar yig'di, ham ilmiy, ham bani bashar uchun ibrat tarzida yozilajak bu kitobning nomini ham topdi. Uning nomi «Javohir-noma» bo'ladi! Endi eng qiyin ish — noyob ma'danlarning tuzilishi, tarkibi, qattqlik va yumshoqlik darajasi, eng muhimi — solishtirma og'irligini aniqlash ishi qoldi! Buning uchun esa nozik bir olat yasash, to'g'rirog'i, bu olatni kashf qilish lozim!

Beruniy ko'pdan beri bu nozik va murakkab asbob haqida o'ylar, goho uni kashf qilganday ham bo'lar, yana ozgina bosh qotirsa, bas, ixtiro ro'yobga chiqadigandek tuyular edi, biroq sal o'tmay, kalavaning uchi qayta yo'qolar, yechish lozim bo'lgan yangi muammolar paydo bo'lardi.

Mana endi masala oydinlashdi!

U xuddi mana shu qumg'onga o'xshash bir idish yasaydi. Idishning tagi keng, bo'yni ingichka bo'ladi. Shundaykim, tariqday narsa tushsa, tariq barobar, yong'oqday narsa tushsa, yong'oq barobar suv oqib chiqishi lozim. Jo'mrakning beliga esa, kaftdekkina taqsimcha yopishtirib, unga nozik tarozi o'rnatadi. Bu tarozi shunday nozik va «sezgir» bo'lsinki, bir misqolning<sup>1</sup> o'ndan birini ham aniqlay olsin! O'lchov birligi sifatida esa, ma'danlar sultoni oltinni oladi! Ha, bu ishda oltindan a'lo ma'dan yo'q! Masalan, yuz misqol oltin olib, boshqa ma'danlarning solishtirma og'irligini shu oltin og'irligiga nisbatan aniqlash mumkin!

Beruniy hayajon ichida tor xonaning u boshidan bu boshiga uzluksiz borib-kelar, boyagi darmonsizlikdan asar ham qolmagan, xayoli esa tobora ravshanlashib

---

<sup>1</sup> M i s q o l — 4,5 grammga teng og'irlik o'lchovi.

borar, bir-biridan o'tkir, bir-biridan yorqin fikrlar tur-naqator bo'lib tizilib kelardi!

Ha, g'alati narsa ekan hayot! Mana, tasodifan tuyenukdan tushgan bitta tosh sabab, uni ko'p yillardan beri qiynab kelayotgan murakkab bir jumboq yechildi hisob! Bundan bir necha yil muqaddam Hindistonda, Nanda shahri tevaragidagi baland toqqa chiqayotganida ham xuddi mana shunday g'aroyib bir hodisa ro'y bergan, miyasida nimadir «yarq» etib, yoshlik chog'laridan beri uni qiynab yurgan chigal bir muammoning uchi topilgan edi!

Beruniy yurishdan to'xtab, devorga suyandi, suyanishi bilan uning ko'p yillik farazini tasdiqlab, ulug' ixtiro ato qilgan Nanda tog'i «lop» etib nigohi oldiga keldi.

Tog'ning to'rt tarafi yong'oq otsa yumalab ketadigan cheksiz-chegarasiz sayhonlik edi.

Beruniy toqqa chiqishga ahd qilib, uning etagiga borganida ko'nglida hali hech narsa yo'q edi. Nechundir faqat bir narsa, olis ufqda qaqqayib turgan yolg'iz daraxt uning e'tiborini jalb etgan edi, xolos. U toqqa asta-sekin o'rimalab, ikki yuz qadamcha ko'tarilgach, nafasini rostlash uchun to'xtadi, to'xtadi-yu... beixtiyor boyagi daraxtni qidirdi. Ajabo: boya ufqda turgan daraxt tog'tagiga kelib qolgan, ufq esa yiroq-yiroqlarga chekingan edi! Rost, bu hodisa ham Beruniy uchun yangilik emas edi. Lekin balandlab borgan sari yangi ko'z ilg'amas ufqlar ochilishini kuzatarkan, xuddi bugungiday, miyasida allanarsa «yarq» etdi-yu, uni yillar davomida qiynab yurgan chigal bir muammo birdan ravshanlashdi: bu zamin — gir aylanasi osmoni falak bilan chegaralangan bu zamin, hamma o'ylaganidek, tep-tekis emas, yo'q, tekis emas!

Beruniy xayoliga kelgan allaqanday fikrdan bugungidan ham qattiqroq hayajonga tushib, olis ufqda o'sgan bir juft chinorni ko'z ostiga oldi-da, yana uch-to'rt yuz qadam o'rladi. Yo'q, u yanglishmagan, ufq boyagidan ham olisroqqa chekingan, bir juft chinor esa go'yo toqqa yaqinroq surilib kelgan edi.

Beruniy xarsangga o'tirib, birpas nafasini rosladida, yana toqqa o'rladi. Yana o'sha hodisa! Ufq yana yiroq-yiroqlarga chekindi, Beruniy ko'z ostiga olib qo'ygan narsalar esa go'yo toqqa yanada yaqinroq siljib kelganday bo'ldi.

Rost, bu hodisa ham Beruniy uchun yangilik emas edi. Lekin toqqa o'rlagan sari ufq chekinib, yangidan-yangi ko'z ilg'amas kengliklar ochilishini hayajon bilan kuzatarkan, miyasida nimadir yarq etib yondi-yu, ko'pdan beri unga tinchlik bermay yurgan notinch bir o'y, mavhum, ammo g'aroyib bir faraz favqulodda oydinlashdi.

Bu o'y, bu noaniq, ammo g'aroyib faraz Beruniyga yoshlikdan beri orom bermay kelardi. Nechun quyosh ertalab chiqib, kechqurun botadi, nechun oy har o'n besh kecha-kunduzda bir yangilanadi, nechun yulduzlar holati fasllarga qarab o'zgaradi? Nechun yozda osmonning bir burjida bo'lgan yulduzlar qishda boshqa bir joyga o'tib qoladi?

Beruniy tug'ilib voyaga yetibdiki, bu jumboqqa javob qidiradi. Uni yechish umidida o'zi qurgan rasadxonada kechani kunduzga, kunduzni kechaga ulab rasad o'tkazdi, arab hind, yunon allomalarining kitoblarini suv qilib ichdi. Uning ko'nglida zaif shamday miltiragan bu farazlar o'shanda, rasadxonada bedor o'tgan tunlarda tug'ilgan edi. Nanda tog'idagi kuzatishlar esa xuddi bugun tuynukdan tushgan tosh kabi, uni ko'pdan beri qiynab kelgan fikrlarga ajib bir ravshanlik kiritdi!

Shu-shu, Beruniy tog' yonbag'riga chodir qurib, bir haftagacha har xil o'lchovlar bilan shug'ullandi. Avval tog' etagidan ko'ringan ufqni odimlab chiqdi, keyin, asta-sekin toqqa ko'tarildi, ko'tarilarkan, har yuz qadamda «ochilgan» yangi ufqlar oralig'ini o'lchadi, so'ng olingan raqamlarni tog' balandligiga ko'paytirib, hosil bo'lgan burchaklarni aniqladi. Eng muhimi — topilgan «markaz»ni yer kurrasining har qanday nuqtasi bilan bir-lashtirguvchi to'g'ri chiziqni aniqladi, bu esa uni eng ko'p qiynagan muammoni hal qilish imkonini berdi, ya'niki, yer kurrasining tep-tekis emas, yumaloq ekanini

raqamlar vositasida isbotlash imkonini berdi!.. Keyinchalik, Hindistonda shaharma-shahar yayov kezib yurgan chog'larida Beruniy vedachi kohinlardan g'alati bir rivoyat eshitdi: go'yo olam yaralishidan avval na quyosh bo'lgan, na oy va na yulduz! Birinchi bo'lib zulmat, zulmatdan suv, suvdan esa olov bunyod bo'lgan. Olovdan tuxum barpo bo'lib, u ummonlar qa'rida suzib yurgan. So'ng, tuxum ichidagi oltin homiladan hindlar xudosi Borahim tug'ilgan. Borahim tuxumni yorib chiqqanu uning bir palasidan osmon, bir pallasidan yer hosil bo'lgan, shuning uchun ham hindlar boshda tuxum shaklida yaralgan bu olamni Borahim tuxumi deb ataydilar!

Yodida bor, keksa kohinlardan eshitgan bu rivoyat ham, xuddi bugun tuyrukchadan tushgan tosh kabi, Beruniyga yer kurrasi to'g'risidagi risolasini yozishga yaxshi bir turtki bo'lgan edi. Yo'q, bugun topgan ixtirosi hali-hozir faqat kallasida, bu ixtironi hali nihoyasiga yetkazish kerak, ko'nglida endi unib chiqqan bu niholni parvarish qilib, undan hosil olish kerak hali!

Yo rab! Nahot boshlagan bu ishlari, yozgan va yoza-yotgan kitoblari — hammasi chala qolsa? Ularni nihoyasiga yetkazolmay, bu sovuq go'rda toabad qolib ketsa?

To'xta! Bu ne? Eshik taqilladimi yo unga shunday tuyuldimi? Ana, zulflar shaqir-shuqur qildi, temir tas-malar bilan qoqilgan zalvarli eshikning bir tavaqasi asta ochilib, qo'llarida nayza, ikki sarboz, ularning orqasida esa... egnida zarbof to'n, boshida oppoq simobiy salla, kichkinagina, oppoqqina bir mo'ysafid ko'rindi. Bu — bosh devon sohibi Abu Nasr Mishkan janoblari edi!

Sohibi devon qo'lida naysimon yorliq, bemajol devor-ga suyanib qolgan Beruniy tomon yurdi:

— Muhtaram birodarim Abu Rayhon! — Abu Nasr, ko'zida yosh, pildirab kelib Beruniy bilan ko'rishdi-da, darhol qo'lidagi yorliqni ochdi.

— Ul oftobi olamning mehri muruvvati cheksizdur, azizim. Mana, sizday allomai davronni ozod etmoq to'g'risida farmoni humoyun bitib, faqirni huzuringizga yo'lladilar!

Sohibi devon qo'lini ko'tarib, yorliqni Beruniyning ko'ziga tutdi. Biroq yoriqdan ham burun Beruniyning ko'zi eshikdan ko'rinib turgan tog'larga tushdi. Tog' etagidagi ko'm-ko'k qirlarda qiyg'os gullagan bodomzorlar aniq ko'rinardi. To'p-to'p gullagan bodomzorlar qir yonbag'rida emas, yuksak bo'shliqlarda asta suzib yurgan nafis oq-pushti bulutlarga o'xshardi.

Yopiray! Nahot bu sovuq go'rdan chiqib, o'sha yamyashil qirlarda yurmoq yana nasib etsa? Bu go'zal oq-pushti bodomzoriarni kezib, ularning nozik hidini to'yib-to'yib hidlamoq nasib qilsa unga?

Abu Nasr Mishkan janoblari, go'yo Beruniyning xayolidan o'tgan fikrlarni ilg'ab olganday, chehrasi yorishib:

— Ul mehri daryo Xatlibegim omon bo'lsinlar! — deb xitob qildi. — Begim omon bo'lsalar hamma narsa o'rniga tushadur, mavlono.

Beruniy beixtiyor nigohini tog'lardan uzib:

— Xatlibegim? — deb so'radi.

— Ofarin, mavlono! Begim sizni ul hakimi davron hazrat Ibn Sinoga yo'llashni olampanohga maslahat berganlar! Begimning bu maslahati amiralmo'aminga ma'qul va manzur bo'lgandur.

— Kaminani Ibn Sinoga yo'llamoqchilar?

— Balli! Bundan uch oy muqaddam ul hakim hazratlariga yuborilgan elchilardan hanuz darak yo'q. Siz esa... hakimi davronning eng yaqin birodarisiz. Shu boisdan Xatlibegimning maslahati olampanohga ma'qul bo'lgan!

Sohibi devon uning sukutini alomati rizo, deb tushundi chamasi, eshikda serrayib turgan navkarlarga yuzlandi:

— Nechun qoqqan qoziqday qaqqayib qoldinglar? Kelinglar, qo'ltig'idan olib yordam beringlar mavlonoga!

### *O'n to'rtinchi bob*

Amir Mas'ud kechasi tomog'i qaqrab uyg'onib ketdi. Maxfiy ishratxona tokchalaridagi ba'zi shamlar o'chgan, ba'zilari bazo'r miltirab turardi...

Amir bosh tomondagi olti qirrali xontaxtani paypaslab, tog'-tog' noz-ne'matlar orasidan bir piyola sharbat olib ichdi-da, yonidagi to'shakka qaradi. Kechasi haram bekasi yozgan qalin shoyi to'shak bo'm-bo'sh edi. Bu bo'sh to'shak amirga kechasi olishaverib bo'y bermagan hurkak malakni, uning bo'g'izlanayotgan qo'zichoqday zorli nidosini eslatdi-yu, yuzi burishib ketdi.

Ko'zlari bo'taloqning ko'zlariday javdirab turgan bu yosh, hurkak malakni (uning ismi ham jismiga monand — Qorako'zbe'gim edi!) amirga Buxoro hokimi Alitegin in'om qilib yuborgan. In'omdan maqsad esa: bundan uch-to'rt yil muqaddam sulton Mahmud Buxoroga yurish qilganida asirga olib ketgan suyukli kenja xotini bilan suyukli qizini amir Mas'ud yordamida tutqundan qutqazish edi.

Rost, Hirotdan Hamadon tomon yurish boshlagan amir Mas'ud birda Isfahon uchun bo'lgan qattiq janglar sabab, birda G'aznadan kelayotgan noxush xabarlar sabab, aysh-ishratga uncha hushi yo'q, ko'ngliga qil ham sig'masdi. Lekin Buxoro hokimi Alitegin in'om etgan bu sanam... uning minilmagan toychoqday hurkak qiliqlari, ko'z yoshlari, oppoq siynasi... mana hozir ham amir kechasi bu xurkak toychoqni jilovlay olmaganini esladi-yu, vujudida yana o'sha tizginsiz hayvoniy hirs uyg'ondi. U haram bekasini chaqirish uchun yostig'i tagidan shaqildog'ini qidirdi, biroq shu payt tashqarida dukurdukur oyoq sharpasi eshitildi. Zum o'tmay, kimdir eshikni betoqat qoqdi.

— Kim bu, tun yarmida behalovat qilg'on?

— Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, amirim! Dorussaltanadan mushrif kelmish!

«Sipohsolor Abu Tohir! Shahzodaning inongan tog'i!»

— Hozir, Abu Tohir, hozir, — amir Mas'ud sapchib o'rnidan turdi. Uning xayoliga hammadan burun: «Nahot... nahot?» degan fikr keldi. Mana, bir oydan oshdi, G'aznadan maxfiy elchi Abulvafo Sariq kelib, Ibn Sino hazratlarini topolmay noumid qaytib ketdi hamki, amir

har on, har daqiqa G'aznadan sovuq xabar kutib (gunohkor bandangni o'zing kechirgaysen, xudovandi karim!) betoqat bo'ladi, kechalari mijja qoqmay chiqadi.

Abu Tohir, egnida sariq banoras to'n, belida po'lat shamshir, haramxona yo'lagida asabiy odimlardi.

— Ne xabar? Valine'mat qiblagohim...

— Olloga shukur, qiblagohingiz salomatdurlar!

«Yo parvardigor! Valine'mat padari buzrukvori... bir oyog'i yerda bo'lsa, bir oyog'i go'rda. Va lekin ul boqiy dunyoning g'amini yemoq o'rniga bu noraso dunyoning yumushlarini o'ylaydi. O'z zurriyotiga inonmay, mushrif ustiga mushrif yo'llaydi!»

— Kecha mushrif, bukun mushrif! Keltirgan nomai saodati qayda uning?

— Nomai saodatni faqirga inonmadi, inonsa, amirning uyqusini behalovat qilmas edim, shahzodai vali-ahd!

— Xo'p, hozir orqangdan yetib boramen!

Tong yaqin, ko'kdagi yulduzlar xiralashib qolgan, bog'da qiyg'och gullagan o'rik va olmalar, xiyobon bo'yidagi sarvlar subhidam shabadasida asta chayqalar, havoni bahor giyohlarining nozik xushbo'y hidi tutgan edi. Amir, bog' o'rtasidagi xiyobonga tushib, — bu xiyobon to'g'ri saroyga olib borardi, — ishratxonadan uzoqlasha boshladi. Biroq, sal yurmay nechundir yuragi qattiq uvishib, xiyobon o'rtasida to'xtab qoldi. Negadir, ehtimol hozirgina ishratxonadan chiqqani uchundir, bultur Hirotda, xuddi mana shu paytlarda sodir bo'lgan yomon bir voqea amirning esiga tushdi. O'shanda ham amir Mas'ud o'z haramida xuddi bugungiday yosh bir kaniz bilan aysh qilib yotgan edi. Tun yarmida mana shu sipohsolor Abu Tohir to'satdan eshikni duk-duk urdi. Ma'lum bo'lishicha, unda ham xuddi hozirgiday G'aznadan, bosh devon sohibi Abu Nasr Mishkan janoblari-dan mushrif kelgandi. Mushrif keltirgan nomada aytilishicha, padari buzrukvori sulton Mahmud amir Mas'udning Hirotda saroyida qurdirgan maxfiy harami va bu haram devorlariga chizilgan shahvoniy suratlardan ogoh topgan. Va shahzodaning bu ishidan darg'azab bo'lib,



uni taftish, qilish maqsadida maxsus mushrif yo'llashga ahd qilgan!

Ustoz Abu Nasr Mishkan amirni o'z xufiyasi orqali bu ishdan ogoh qilar ekan, unga darhol haram devorlariga chizilgan shahvoniy suratlarni yo'q qilishni maslahat bergandi.

Darhaqiqat, amir o'z tasarrufiga Hirot muzofoti tekkandan keyin, Bog'i Hirotning eng xilvat joyiga maxfiy ishratxona qurdirgan, qizil marmardan barpo bo'lgan bu pinhoniy ishratxona uning eng suyakli oromgohiga aylangan edi. Bino tomida katta hovuz bo'lib, tog' chashmasidan keltirilgan suv avval shu hovuzga, hovuzdan yuzlarcha mayda quvurchalar orqali pastga shaloladay oqib tushar, binoni yomg'irday yuvgan bu shalola eng jazirama kunlarda ham ishratxonani salqin va bahavo qilib turardi. Ishratxonaga amirdan boshqa hech kim tumshuq suqolmas, uning devorlariga haqiqatan ham «Alfiya-shalfiya» dostonidan olingan nozik suratlar chizilgan edi. Eng nafis bo'yoqlar bilan chizilgan bu behayo suratlarda qip-yalang'och sohibjamollar bilan alpqomat yalang'och yigitlarning ishrat holatlari tasvir etilgandi... Bu ishratxona qurilibdiki, amir undan chiqmas, eng yosh, eng go'zal kanizlari bilan kunini shu dargohda o'tkazar edi. Shu sababdan ham ustoz Abu Nasr Mishkaning maxfiy nomasini olib, alamdanda «dod» deb yubordi. Biroq bosh devon sohibining maslahatiga kirmasdan iloji yo'q, padari buzrukvor bilan hazillashib bo'lmas edi...

Amir o'shanda maxfiy nomani olgan kuniyoq ustalarni chaqirtirdi, bir kechada suratlarni o'chirtirib, hamma devorlarni ganch bilan qayta shuvatdi... Bu ishini ayni vaqtida qildirgan ekan, ertasigayoq sultonning maxsus mushrifi yetib keldi. U otdan sakrab tushdida, bir qo'lida noma, bir qo'lida yalang'och qilich, amirga salom ham bermasdan to'g'ri boqqa, bog'dan ishratxonaga o'tdi. U ishratxonaning kalitini so'rab ham o'tirmadi, eshikdagi qulfni qilichi bilan bir urib chindirdi-da, haram bekalarini siltab tashlab, ichkariga kirdi...

E voh, mushrif kechikkan, ganch bilan qayta shuvalgan ishratxonaning devorlaridagi hayosiz suratlardan asar ham yo'q edi!

...Bu esdaliklardan bo'g'ilib ketgan amir Mas'ud banoras to'ninging yoqasini ochib, otash ko'ksini shabadaga tutdi.

Ha, nechun bo'g'ilmasin? Payg'ambar yoshidan oshgan qiblagohi o'zi hanuz ayshu ishrat qilsin! Osmon malikasi kabi muazzam saroylar qurdirib, ularga mashhur mutriblar, xonanda va sozandalar, husnda benazir raqqosalar, dovrug'i butun ro'yi zaminga ketgan malikul kalom va vohidi zamon allomalarni yig'sin. Haramiga u yog'i Hindiston va Movarounnahr, bu yog'i Xuroson paripaykarlarini to'plasin. Unga esa, o'z pushtikamari-dan bo'lgan zurriyotiga esa, buning hammasini taqiqlasin! Axir, — u — amir Mas'ud, Hirotda ishrat-xona qurdirgan bo'lsa, buni o'z padaridan o'rganib qur-dirdi. Otasining olamga mashhur ko'shklarida xilvat go'shalar bor, bu go'shalar shahzodaning ishratxonasida-gi suratlardan yuz barobar behayo suratlar bilan bezatil-gan, yalang'och ayol va erkaklarning oltin haykallari bilan ziynatlangan.

Payg'ambar alayhissalom yoshidan oshgan padari bu pinhoniyo go'shalarda sovigan qonini ko'pirtirib, behisob viloyatlaridan in'omga kelgan huriliqolar bilan ayshini sursin, uni esa, o'z zurriyotini, bu ne'matlardan mosuvo qilib, mashriq tomon otlanishga da'vat etsin! Mayli, amir Mas'udning o'zi ham so'nggi yillarda jang-jadal ishqida ko'p yonar, mag'ribda butkul Xuroson, Bag'dod va hat-tokim Rungacha zabt etib otasi yanglig' fotihi muzaffar bo'lish orzusida yashardi. Bu to'g'ri. Ammo suyukli padari unib u ishga da'vat etarkan, nechun o'z o'g'lidan og'ir dardga chalinganini yashiradi? Undan, o'z zurri-yotidan yashiradi-yu, hazrat Ibn Sinoni so'roqlab, pin-hona elchi yo'llaydi! Bu jumboq, bu sir-asrordan murodi ne? To'ng'ich farzandi amir Mas'udni G'azna taxtidan mosuvo qilib, erkatoy kenjatoyi shahzoda Muhammadni taxtga o'tqazishmi? Ehtimol, bevaqt tashrif buyurgan bu mushrif shu to'g'rida farmoni oliy keltirgandir?

Bog'ning etagidagi havorang marmardan qurilgan ikki oshyonali saroy bir-biri bilan taxt talashib kelgan ikki hokim — Shamsuddavla bilan Alouddavlalarning o'zlariday sovuq va ko'rimsiz edi.

Amir eshikda serrayib turgan nayzagor suvorilar yonidan o'tib, ko'shikka kirdi. Kechasi yoqilgan shamlar o'chirilmagan, ikkinchi oshyonaga olib chiqadigan tor yo'lak ham, yuqoridagi mashvaratxona ham yop-yorug' edi. Havoda kuygan sham hidi anqir, devorlari niliy koshinlar bilan qoplangan, tagiga guldor qirmizi paloslar to'shalgan keng mashvaratxona ko'shkning o'ziday fayzsiz edi.

Amir kirganda mo'ylovi endigina sabza urgan saroybon o'rtadagi do'ngalak xontaxtaga dasturxon yozmoqda edi.

— Abu Tohir qayda? Ayt, mushrifni olib kirsin!

Amir mashvaratxonaning shahar maydoniga qaragan darichalari oldiga borib, og'ir xayolga cho'mdi.

Saroy oldidagi maydon bo'm-bo'sh, faqat kungurador qo'rg'on burjlarida bitta-yarimta soqchilar ko'zga chalinardi. Qo'rg'on ortidagi shahar tong qorong'isida elas-elas ko'rinar, Zarrinrud daryosining u yuzidagi tor ko'chalarda qandaydir ko'lagalar g'imirlar, har joy-har joyda, chamasi, guzarlardagi karvonsaroylarda gulxan yonardi.

Amir, qal'a ortidagi g'ira-shira maydonlarda ivirsib yurgan soyalarga allaqanday juldurvoqi gadolarga ko'zi tushishi bilan shaharda bir oydan beri qora o'lat kezib yurgani esiga tushdi, tushdi-yu, ko'ngli g'ash bo'lib, teskari burildi... Ha, shaharda qandaydir mudhish kasal boshlangan, bu kasal dahama-daha, ko'chama-ko'cha, uyma-uy dahshat solib kezib yurar, shu boisdan saroy ham, shahar darvozalari ham taqa-taq bekilgan.

Ajabo! Bu g'arib shaharga nechun yurish qildi u? Nechun G'aznai munavvara turib, qaysar, beitoat forsiylar yurtiga ot soldi?

Yo parvardigor! Bu padari buzrukvori uni qachon, qaysi gunohlari uchun yomon ko'rib qoldi? Yozug'i ne uning?

Yo'q, bundan besh-o'n yil muqaddam Hindistonga yurish qilgan chog'larida sulton uni yonidan jildirmas, behisob qal'alar, qasrlar, muazzam shaharlar uchun bo'lgan ayovsiz janglarda unga eng og'ir qo'shinlarini ishonib topshirardi. Yosh amirning suronli janglardagi matonatini, yov ustiga sherday na'ra tortib, burgutday bostirib borishlarini ko'rganida ko'ziga yosh olib duo qilar, jangu jadallardan so'ng beriladigan bazmi jamshidlarda esa, uni bobosi amir Sabuqteginga o'xshatib, iftixor bilan so'zlar edi.

Hadsiz o'rmon va hududsiz chakalakzorlarda bo'ladigan ov paytlarida-chi?

Ov chog'ida jangovar fillarga minib olgan filkachlar o'rmon ichida nog'oralar chalib, yo'lbars va qoplonlarni ochiq maydonlarga quvib chiqishar, filga mingan sulton esa, qo'lida kamon, o'z lashkarboshilari qurshovida otishga shay bo'lib turardi. Bir mahal, nog'oralar gumburi va ayyuhannos solgan ovchilar qiyqirig'i ostida o'rmon orasidagi ochiq maydonlarga go'yo alangaday lov-lov yongan qoplonlar, mudhish o'kirgan yovvoyi yo'lbarslar otilib chiqardi. Esida bor. Sind viloyatida bo'lgan shunday bir ov paytida chakalakzordan qochib chiqqan ikki yo'lbars yomg'irday yog'ilgan kamon o'qlaridan vahshiyona o'kirganlaricha, sultonni qurshab olgan lashkarboshilarga hamla qildi.

Amir Mas'ud o'q tekkan yo'lbarslarning butun dahshatini o'shanda birinchi marta ko'rdi! Sulton mingan fil na'ra tortganicha, xartumini karnayday ko'tarib, lapanglab qochishga tutindi. Sultonni qurshagan suvorilar esa, go'yo ikki juft emas, ikki ming yirtqich hamla qilganday, sepilgan tariqday sochilib ketdi. Kimningdir oti do'mbaloq oshib, egasi egardan qalpoqday uchib ketdi, sulton esa, bir qo'li oltin taxtda, bir qo'li bilan jonholatda qilichni sug'urib olmoqchi bo'lar, biroq shoshganidanmi yo filning lapanglashidanmi, sug'urib ololmas, ola-kula ko'zlari fil dumiga osilib olgan yarador yo'lbarsda edi!

Amir Mas'ud buni ko'rdi-yu, dahshatdan osmonga sapchigan qora bedovini sulton tomon burdi. O'shanda

u qo'rquv nimaligini bilmas, agar bitta emas, yuzta yo'lbars hamla qilsa ham tap tortmas, uni faqat bitta o'y — ostimdagi otim pand bermasa edi, degan o'y cho'chitar edi, xolos. Yo'q, amirning jur'ati, ko'pirgan qonining tizginsiz harorati ostidagi otiga ham o'tdi-yu, yarador yo'lbarsni dumiga mindirib olib, lapanglab qochib ketayotgan fil ustiga bostirib bordi!..

Ha, o'z joni ko'ziga ko'rinmay ot surib bordi-yu, fil ustida hanuz o'kirib ketayotgan yarador yo'lbarsning boshiga qilich soldi...

Gunohkor bandasini ollo o'zi kechirgay! Ammo... ba'zi-ba'zida, ayniqsa, otasining unga qilayotgan adolat-sizliklarini eshitganida, amir Mas'ud yomon o'ylarga boradi. Nechun o'shanda, yarador yo'lbars hamla qilgan paytda ot solib borib uni ajal changalidan qutqarib qoldim, degan kufr fikrlargacha boradi u! Yo'q, ayb yolg'iz padarida emas, hamma baloga sabab — uning yonidagi vaziru vuzarosi, betavfiq Ali G'arib bilan anov... hezbachcha Abul Hasanakda. Bu ikki iblis sul-tonning eng vafodor nadimlari, eng salohiyatli lashkar-boshilari, itday sodiq g'ulomlari, hamma-hammasini yomonga chiqarib saroydan yiroqlashtirishga muvaffaq bo'lishdi. Shular sabab nafaqat G'azna, butun saltanat fisqi fasod uyasiga aylandi. Ammo sulton buni bilmaydi, yo bilsa ham o'zini bilib bilmaganlikka oladi, uning ko'zi ko'r, qulog'i kar...

Amirning xayolini Abu Tohirning:

— Valine'mat, amirim! — degan ovozi bo'ldi.

— Mushrif qayda?

— Mushrif... ikki hafta tunu kun ot surib, holdan ket-mish.

— Nomai saodat?

— Nomai saodatni uning qo'ynidan bazo'r topib oldim, marhamat, valine'mat! — Abu Tohir cho'ntagidan mittigina qora tumorcha chiqarib, ta'zim bilan amir-ga uzatdi. Ustiga uchta mitti kahrabo sadaf taqilgan bu qora tumorchaga ko'zi tushishi bilan amirning yuragi hapqirib ketdi: mehribon ammasi Xatlibegimning tumorchasi!..

— O'qi! — Amir xontaxtadagi guldor ko'zachadan bir piyola sharob quyib bir ho'plam ichdi-da, o'zini yostiqqa tashlab, Xatlibegimning nomasini eshitishga chog'landi...

Olloga ming qatla shukurkim, dorusaltanada amirni go'dakligidan yaxshi ko'rgan bu aziz zot bor!..

Mehri oftob ammai zori! U erka jiyaniga cheksiz izhori muhabbat va behisob duoi salom yo'llab, birda ko'z yoshi bilan, birda qayg'u-hasrati bilan dorusaltanadagi pinhoni yumushlarini bayon qilibdi.

Xatlibegimning xabar berishicha, saltanatning shonu shavkati, toju taxtning zebi ziynati amiralmu'minin, garchi sababi xastalik, o'z yog'ida o'zi qovurilib yotsa ham, noumid shayton, ollo taolo o'z bandasiga shifo ato qilsa ajab emas, faqat toju taxtning taqdiri qil ustida turganda uning, saltanatning yolg'iz umidi — amir Mas'udning yiroq-yiroqlarda bo'lishi aqldan emas. Sababi, sultonni avrab, uning bag'riga kirib olgan Ali G'arib bilan Abul Hasanak kabi nobakorlar yomon rejalar bilan mashg'uldirkim, bu mash'um niyatga ko'ra, sultoni salotin bu foni dunyoni yetim qilib, ul boqiy dunyoni munavvar etadurg'on bo'lsa, ular subutsiz shahzoda Muhammadni taxtga o'tqazmoq matlabidadur. Agar bani odam qiyofasidagi bu ikki shayton o'z murodlariga yetsa, saltanatning ahvoli ne bo'ladi? Zero, saltanat bamisoli bir daraxt bo'lsa, G'azna uning ildizi, boshqasi yaprog'idur. Bas, amir Mas'ud daraxtning yaprog'i emas, ildizini o'ylamog'i darkor.

Suyukli ammai zori!..

Amir Mas'ud Abu Tohirning bir me'yorda sokin oqqan ovozi eshitarkan, mehribon ammasining chehrasi ko'z oldida namoyon bo'ldi. Jussasi chog'roq, o'zi ozg'ingina, qorachagina bo'lsa ham, yurish-turishlari shiddatli, gap-so'zlari o'tkir, ayni choqda, surma tortilgan timqora ko'zlarida ichki bir iqtidor tovlanib turguvchi Xatlibegim bobosi amir Sabuqteginni eslatardi. Go'dakligidan ammasining bag'rida o'sgan amir Mas'ud uni o'z volidasidan ham yaxshi ko'radi. Go'dakligi emish! Mana hozir ham, ko'zini bir zum yumsa, kechalari ammasining qo'ynida cho'pchak eshitib yotgan

ma'sum bolalik chog'lari yodiga tushadi, quloqlari ostida uning «oppog'im», «qo'zichog'im», «bo'talog'im» deb erkalaguvchi muloyim ovozi yangraydi.

Amir, «hazrat Ibn Sino», degan so'z qulog'iga chalinganday bo'lib, xayol og'ushidan chiqdi.

— Ibn Sino? Qaysi Ibn Sino? Qayta o'qi!

Abu Tohir ko'zini maktubdan uzib, amirga «yalta» etib qaradi-da, itoatkorlik bilan takror o'qishga kirishdi:

«Ko'zimning nuri, belimning quvvati, mehriboni boshafqat jiyanimga yetib ma'lum bo'lsinkim, biz dorusaltanada ajab bir savdoning shohidi bo'lib turibmiz... Bundan uch-to'rt oy muqaddam valine'mat qiblagohingiz ariz Ablvafao Sariqni Hamadon tomon yo'lagan edikim, allomai zamon Ibn Sino hazratlarini topib kel deb. Padari pokingiz bu tabibi davronga shunday ixlos qo'ygankim, bu ixlosni uning diliga ollo o'zi solmish. Ammo elchi Abulvafo Sariq hazrat Ibn Sinoni topa olmay o'zi qaytib kelayotgan emish, degan xabar keldikim, bu xabarni eshitib ko'p aziyat chekdik. Ajab holki, bu orada dorussaltanada boshqa bir mish-mish tarqaldi, go'yo ul hakimi hoziqning o'zi G'aznai munavvarada paydo bo'lgan emish! Ammo biz bu mish-mishlarni haqiqat qilib ulgurmagan ham edik, ul hakimi hoziq qaygadur gumdon bo'ldi. Qay yo'sin sirli paydo bo'lgan bo'lsa, shu yo'sin siril gumdon bo'ldi. Axir nahot ul takabbur hakimni topib bo'lmasa, bo'tam? Qidirib ko'r, shoyad topsang! Shoyad ul hakim kelib, og'am sho'rlikning dardini daf qilsa, shunda olampanoh ham aqli noraso shahzodadan ko'ngli sovib, shoyad mehri senga og'sa, qulunim!..»

Ajab maktub! Ajab savdo!

Ariz Abulvafo Sariq bundan bir yarim oy muqaddam amir Mas'ud huzuriga tashrif buyurgan edi. Ikki qo'li ko'ksida, ko'zida munchoq-munchoq yosh, xuddi mana shu ko'rpachada o'tirib, amirga hamma sir-asrorni so'zlab bergan edi. Ammo amir bu odamning na so'ziga inondi o'shanda, na to'kkan obidiydasiga! Chunki amir bilar: G'aznada lashkar devonini boshqargan bu mu-

g'ambir ariz unga bosh egib kelishdan avval o'z navkarlari bilan pinhona Hamadon hokimi Alouddavla huzuriga o'tgan, unga birda yalinib-yolvorib, birda do'q-pisanda qilib, hazrat Ibn Sinoni topib berishni talab qilgan. Ibn Sino hazratlari gumdon bo'lib, talabi ro'yobga chiqmagandan keyin esa, tarvuzi qo'ltig'idan tushib, amirning oldiga yukinib kelgan edi!

Padari sulton Mahmud: «Menga Abulvafo Sariqning bo'yi bilan sallasi yoqmaydi», deb bejiz aytmagan ekan! O'shanda, katta surmarang sallasi boshida xunuk qo'nqayib turgan bu beso'naqay odam unga ham yoqmadi.

Avvalambor, vallahamat qiblagohi, qolaversa, bu beso'naqay ariz bu ishlarni undan sir saqlashni lozim ko'rishgan. Agar lozim ko'rishmaganda, Hamadonga pinhona o'tishdan avval unga murojaat qilishar edi! Agar xudo saxt-sumbat berib, aql bermagan bu echki soqol ariz Hamadonga pinhona o'tishdan oldin uning oldiga kelganida edi, kelib hamma sir-asrorni bayon etganida edi, amir Mas'ud allaqachon ul hakimi zamanni topib bergan bo'lardi! Chunki ko'pdan beri amir Mas'uddan hadiksirab yurgan Hamadon hokimi Alouddavla endilikda sulh istab, har kuni elchi yuboradi, elchilar bilan tuyatuya sovg'a-salomlar yo'llaydi...

Bo'yi bilan sallasi yoqmasa ham sultonning ishonchini qozona olgan Abulvafo Sariq ko'z yoshlari bilan echki soqolini yuva-yuva Isfahonni tark etdi! Amir Mas'ud esa... burgaga achchiq qilib ko'rpaga o't qo'yibdi!

Amir yurishdan to'xtab, Abu Tohirga qadalib qaradi:

— Darhol Hamadonga, Alouddavlaga chopar yo'lla! Darhol bilmoq darkor — ul hakimi davron G'aznaga ketgani yo hanuz Hamadon tevaragida yashirinib yuriptimi? Bor, devon beklariga farmon ber: darhol noma bitsinlar!

Amir Mas'ud shunday deb, ko'rpachaga yonboshladi-da, sharob to'la ko'zaga qo'l uzatdi.



## *O'n beshinchi bob*

### 1

«Bukun, to'rt yuz yigirma birinchi yil hijriy, rabbiul oxir oyining to'rtinchi kuni bomdod chog'ida Hamadondan chiqib, namozi asrda shahardan besh farsang joydagi bir rabot yoniga kelib qo'ndik. Shayx rabotga tushishni istamadi, rabotdan yiroqroqdagi bir qir etagiga chodir tikib, otlar bilan tuyalarni tushovlab o'tloqqa qo'yib yubordik.

Kecha tun yarmida yana saroydan chopar kelib, shayxga noma topshirdi. Nomada aytilishicha, Hamadon hokimi Alouddavlagi Isfahonni zabt etib turgan amir Mas'uddan elchi kelgan. Elchi shayxni qidirib kelgan. Bundan ikki oy muqaddam ham shayxni yo'qlab elchi kelgan, u G'aznai munavvaradan, sulton Mahmudning o'zidan kelgan edi. Shayx unda ham sulton xizmatiga borishni istamay, yashirinishga majbur bo'lgan, biroq shahardan chiqib ketmagan edi. Bu safar Hamadondan bosh olib chiqib ketmoqdan boshqa chora qolmadi, sababi, sulton Mahmud uzoqda bo'lsa, amir Mas'ud qo'l cho'zsa yetadigan joyda. Isfaxonda. Boz ustiga, Hamadon hokimi Alouddavla amir Mas'uddan baloyi azimdan qo'rqqanday qo'rqadi, chunki Isfahonni bir hamla bilan bosib olgan amir, istasa, Hamadonni ham bir kunda zabt etmoqqa qodir.

Biz kechasi bilan yo'l hozirligini ko'rdik. Bir sandiqqa kitoblarni joyladik, bir sandiqqa noyob dorularni. Har ehtimolga qarshi meshlarga suv to'ldirdik, dashti biyobonda boshpanasiz qolmaylik deb, chodir oldik. Qolgan narsalarni yor-birodarlar erta-buruskun yetkazib bermoqlari darkor.

Subhi sodiq shahar darvozasidan chiqdik. Men shayxdan: «Qayga boramiz», deb so'radim. Shayx uf tortib: «Qayga bosh qo'yishni o'zim ham bilmaymen, o'g'lim, — dedi. — Mana, tavallud topgan yurtimni tark etib, musofirlik jandasini kiyganimga chorak asr bo'ldi. Ammo qayga muqim qo'nib, qachon halovat topamen, o'zim ham bilmaymen. Ehtimol, Bag'dod tomon ravona bo'lurmiz, bolam».

Shayx shunday deb, otini chuhladi va shu rabotga kelib qo'ngunimizcha undan sado chiqmadi.

Shayxning ahvoli ruhiyasi menga ayon. Mana, necha oydirki, Isfahondan xabar yo'q. Yolg'iz inisi Abu Mahmud tirikmi, yo'qmi — hanuz qorong'i. Yong'inda qolgan kutubxonasidagi noyob kitoblari-chi? Nodir qo'lyozmalari-chi? Hanuz darak yo'q. Shahar qamalda. Shayx shuni o'ylab, kechayu kunduz iztirob otashida qovuriladi.

Rabot yaqiniga qo'nib, chodirlarni tikib bo'lgunimizcha namozi asr bo'ldi. Namozdan keyin shayx, bir aylanib kelamen, deb qirga chiqib ketdi.

Kun iliq. Qir-adirlar ko'm-ko'k, ko'rgan ko'z quvonadi. Chamasi, bu yerlarga amir Mas'ud lashkarlari yetib kelmagan, uzoq-yaqindagi kichik-kichik qishloqlar osoyishta.

Shayx kun botib, qosh qorayganda qaytib keldi. U yana qattiq hayajonda edi.

— Ajab hol! — dedi shayx. — Bu dasht, bu adirlar xuddi Buxoro tevaragidagi dashtu adirlarga o'xshaydi. Anov qishloqlar esa, yo tavba! — xuddi kamina tavallud topgan Afshonaning o'zi. Baayni o'zi!.. Shayx shunday deb ko'ziga yosh oldi.

— Tavallud topgan joylaringizni sog'inibsiz, ustod, — dedim. — Bag'dodni qo'yib, Buxoro tomon yo'l olaylik!

— Koshkiydi, Buxoroni ko'rmoq nasib etsa! — dedi shayx ma'yuslanib. — Sen bilmaysen, bolam, u yerda Alitegin degan bir hokim bor, bu hokim oldida amir Mas'udning etagida namoz o'qisa bo'lur!

Shayx shunday deb, qalam-qog'oz keltirishni iltimos qildi.

— Bukun «Kitob al-Insof»ni qayta tiklashga urinib ko'raylik, — dedi shayx. — Men aytib turamen, sen yozasen!..

Shayx hamisha shunday qiladi. Boshiga bir musibat tushsa yoxud alamli o'ylar yuragini iskanjaga olsa, hamisha o'zini ish bilan ovutadi, hamma narsani yig'ishtirib qo'yib, biror asarini yozmoqqa kirishadi.

Bukun ham biz tun yarmigacha ish bilan mashg'ul bo'ldik. Men «Kitob al-Insof»ning qo'lyozmasini o'qigan edim, biroq yodimda yaxshi saqlanib qolmagan edi. Shayx esa, hammasi yodida ekan, chodirda u yoqdan-bu yoqqa yurib, aytib turdi, men aytganini yozib bordim. Shu tariqa tun yarmigacha yigirma sahifani to'ldirdik. Tun yarimdan oshganda shayx ikkimiz chirog'ni o'chirib, to'shak yozib yotdik. Kamina charchagan ekanmen, darhol uxlab qoldim. Bir mahal uyg'onib ketsam, shayx uyqudan turgan ekan. Sham yoqib, egniga quroq janda, boshiga eski kuloh kiymoqda edi. Men hayron bo'lib, o'rnimdan turgan edim, shayx:

— Tavallud topgan joylarim yodimga tushib, ko'zimdan uyqu qochdi, — dedi. — Sen uxlay ber, bolam, kamina atrof-tevarakni bir aylanib kelamen.

Men undan, nechun ustingizga janda, boshingizga kuloh kiydingiz, deb so'radim. Shayx: «Ehtiyot shart», deb javob qildi.

Shayx shamni o'chirib, chodirdan chiqdi, men qayta yotib uxlab qoldim».

*(Ubayd Juzjoniy xotiralaridan)*

## 2

Ibn Sino to'ngi shudringda ho'l bo'lgan chodir etagini ko'tarib, tashqariga chiqdi.

Bepoyon dasht artilgan tilladay tiniq yirik yulduzlarga to'la, go'yo osmon bilan dasht qo'shib ketganu oppoq yirik yulduzlar bahorgi giyohlar orasiga tariqday sochilib ketgan, go'yo ularni hovuchlab terib olsa, hovuchlab sochib yuborsa bo'ladi.

Ibn Sino, to'satdan yuragi «shig'» etib, chodir yonida to'xtadi. Nigohi oldiga xuddi mana shunday iliq tun qo'ynida, tuproq yo'lda ketayotgan ho'kiz arava keldi, arava uzra asta aylanyotgan tungi osmon o'shanda ham mana shunday oppoq, musaffo yulduzlarga to'la edi.

— Bibijon!

— Hov, oltinim? Nechun uxlamaysen?

Qorong'ida tilla taqinchoqlar nozik jaranglaydi, so'ng, uch-to'rt yashar go'dakning dimog'iga «gup» etib

sut va issiq non hidi uradi. Kichkina Abu Ali onasi Sitorabonuning iliq kaftini tutib, cho'lp-cho'lp o'padi, yuziga ko'zlariga surtadi.

— Bu yulduzlar qaydan kelgan, bibijon?

— Ularni ollo yaratgan, oltinim.

— Ollo, qayda, bibijon?

— Yetti qavat osmonning ustida, arshi a'loda. Uxla, qo'zichog'im...

Sut va issiq non hidi ufurgan mayin qo'llar go'dakning yuzini mehr bilan silab ko'rpani yopmoqchi bo'ladi, biroq go'dak betoqat tipirchilab, ko'rpani ochib tashlaydi.

— Bu yulduzlarning oti bormi, bibijon?

— Bor, oltinim, ularni ulamolar biladi. Katta bo'lganingda sen ham ulamo bo'lase... shunda hammasini bilib olasen.

— Yo'q, bibijon, men bilamen. Huv anov, qoq tepadagi katta oq yulduzni Oltin qoziq deydilar. Oltin qoziqning ostidagi yetti yulduzning nomi Banot na'sh. Anov chekkada yaltirab turgan yulduzni Utorid yulduzi deydilar, bibijon!

Go'dak so'zini tugatolmaydi. To'satdan yuzida, peshonasida onasining isiq lablarini his etadi, ko'z yoshi aralash pichirlab aytgan gaplarni arava g'ildiraklarining g'ichir-g'ichirini bosib ketadi:

— Iloyo bu zehnni ato qilgan tangrim o'z panohida asragay seni! Iloyo umring uzoq yulduzing yorug' bo'lg'ay, bolajonim! Endi uxla, qo'zichog'im. Hozir Afshonaga yetib boramiz. O'riklar dovuchcha tukkandur! Gulruxsor opang dovuchcha terib, seni kutib o'tirgandur? Uxla, oltinim!

Gulruxsor — tog'asining katta qizi. To'rt yashar Abu Ali uni o'z tug'ishgan opasi Gulnoradan ham yaxshi ko'radi. Gulruxsorning qo'llari onasi Sitorabonuning qo'llaridan ham mayin, muloyim, chiroyli. Ko'zlari osmonday ko'm-ko'k, tili novvotdan ham shirin Gulruxsor hovuch-hovuch tut terib, Abu Aliga tutadi, Abu Ali esa, xuddi oxurdan yem yegan toychoqday, uning hovuchiga tumshug'ini tiqib, sadafday-sadafday

marvarid tutlarni bitta-bitta terib yeydi, yeb bo'lib, allaqanday xushbo'y giyohlar atri ufurgan nozik barmoqlarini o'padi, bitta-bitta o'padi. Gulruksor qotib-qotib kuladi. Uning kulgusidan zavqlangan Abu Ali yana o'padi, qayta-qayta o'padi. Kechalari esa, Gulruksorning rayhon hidi kelgan yumshoq, silliq sochlarini o'ynab yotadi, yuzini uning oppoq mayin siynasiga bosib uxlashni yaxshi ko'radi.

— Bibijon! — deydi Abu Ali entikib. — Men opajonimni yaxshi ko'raman, bibijon!

— U ham seni yaxshi ko'radi. Uxla, oltinim, uxlab tur, opajoningni ko'rasen!

E voh! Gulruksorni ko'rish nasib etmaydi. Abu Ali ertalab yurakni tilka-pora qilg'uvchi yig'i va faryodlardan uyg'onib ketadi. Arava tog'asining chorbog'i yonida turipti. Eshik oldida tumonat odam. Onasi Sitorabonu o'zini ko'k mato yopilgan tobutga tashlab, faryod chekmoqda. Abu Ali nima bo'lganini anglay olmaydi, lekin ko'k mato yopilgan tobutni quchoqlab yig'layotgan onasini ko'rib, aravadan sakraydi-yu, onasiga qo'shilishib u ham faryod chekadi.

Tun. To'rt yashar Abu Ali o'z hovlilaridan, katta shottut tagidagi supada yotipti. Tepasida iyagini tizzalariga qo'yganicha Sitorabonu mung'ayib o'tripti. Go'dak ko'zini ochishi bilan onasining yosh to'la ko'zlarini ko'radi.

— Bibijon! Nega yig'laysiz, bibijon?

— Nega yig'lamayin! Opajoningni berib qo'ydik, oltinim.

— Opajonimni kimga berdingiz, bibijon?

— Opajoningni farishtilar olib ketdi, oltinim!

— Farishtalar opajonimni qayga olib ketdilar, bibijon?

— Jannatga, oltinim, bog'i firdavsga olib ketdilar, qo'zichog'im...

— Opajonim jannatdan qachon keladi, bibijon?

— Koshkiydi kelsa, oltinim! Kim bilsin, Buxoroda bo'lib yaxshi hakimlar ko'rganida, shifo topib, tuzalib ketarmidi opajoning! Bu yerda na bir yaxshi tabib bor, na bir habib, na chora, oltinim?

— Yaxshi hakim deganingiz ne, bibijon?

— Katta bo'lganingda bilasen, oltinim. Xastalarni davolaguvchi allomalarni hakim deydilar. Kim bilsin, yaxshi hakim bo'lganida opajoningdan ayrilib qolmasdik, oltinim?

— Bibijon! Katta bo'lganimda hakim bo'lamen. Opajonimni davolab, jannatdan olib kelamen, bibijon.

Go'dak so'zini tugatolmaydi. Sitorabonu o'g'lini bag'riga bosadi-yu, ko'z yoshlari bilan go'dakning yuzini yuvib, uni qayta-qayta o'padi.

— Iloyo farishtalar omin degay bu so'zingga, oltinim! Omin degay!

Ajab hol! Oshini oshab, yoshini yashab deganday, ellikdan oshib qolganida ma'sum go'daklik chog'larini eslab iztirobga tushsa? Bu ma'yus o'ylarning sababi ne? Hamadon sarhadidagi bu ko'm-ko'k dasht Buxoro dashtlarini yodiga solganidanmi yo olisdagi anov qishloqlar u tavallud topgan suyukli Afshonani eslatganidanmi? Agar faqat eslatgani uchun yuragi shunday pitirlasa, ona yurtini ko'rganda qay ahvolga tushadi? Musofirlikda necha bor tushlariga kirib chiqqan Buxoro ko'chalaridan qayta o'tsa, Afshona bog'lariga kirib, go'daklik chog'lari-dagidek, o'z qo'li bilan tut va dovuchcha terib yesa ne bo'ladi?

Tong yaqin. Ana, olis-yaqinlarda xo'rozlar qichqirdi, eshaklar hangradi, har joy-har joyda cho'kib yotgan tuyalar, tushovlangan otlar ko'zga tashlandi, rabot qo'rg'oni tomonda gulxan yoqib, isinib o'tirgan sarbozlarning gangir-gungur ovozlari quloqqa chalindi.

Ha, Ibn Sino yanglishmagan, yam-yashil maysalar bilan qoplangan bu dasht, ko'kni to'ldirgan bu oppoq yulduzlar, gurkirab o'sgan shuvoq va yovshanlar, kakra va yantoqlarning o'tkir bo'ylari, ularning betakror atri, hamma-hammasi Buxoro zaminini, Buxoro giyohlarini esga solardi!

Ibn Sino giyohlar to'g'risidagi ilk saboqlarni avval mashhur arab allomasi Abubakr ar-Roziy, keyin Buqrot hakim bilan Jolinus kitoblaridan o'qib bilgan, biroq eng katta ilmni Afshona qirlari ortidagi saksovulzor qumlik-

larni yayov kezgan chog'larida, avom bo'lsa ham giyohlar sirini yaxshi bilgan cho'pon-cho'liqlar davrasida orttirgan edi!..

Yana dard, yana bemor, yana dorivor giyohlar! Qachon bu o'y xayolidan ko'tarilib, bir on orom beradi unga?

Dashtni chulg'ab olgan harir tuman sal tarqab, osmonning mashriq tomoni oqara boshladi, ko'kda g'uj-g'uj yongan yulduzlar siyraklashdi, xiralashdi. Oyoq ostida gilamday yastangan maysalar to'piqqa kelgan yovshan va shuvoqlar, mitti shamlarday yalt-yalt etgan chirog'poyalar, yer bag'rini ignaday teshib chiqqan piyozi anzuriylar bu qirlarni bezash orzusida, danakday-danakday meva tukkan lolaqizg'aldoqlar, o'tkir tikanaklar bilan o'ralgan yantoqlar, moviy gulchalarga bezangan noxatak va chitir gullar, kakra va yovvoyi bedalar ertalabki shudringda cho'milib, allaqanday yashnab ketgan. Ibn Sino ularning betakror muattar hidlarini hidlab to'ymas, nazarida, go'yo hamma giyohlar unga erkalanib boqayotganday, go'yo «meni tanidingmi, men qaysi dard, qaysi kasalga malham bo'lishim yodingdami», deb iltijo qilayotganday tuyular, u yerga tiz cho'kib, bu giyohlarni asta silab qo'ygisi, yuziga, ko'zlariga surtgisi keldi!

Ibn Sino qir yonbag'rida o'sgan sada tagida to'xtab, to'yib-to'yib nafas olarkan, shogirdi Abu Ubayd al-Juzjoniyning bir so'zi yodiga tushib, ichida kulib qo'ydi:

— Ustod! Sizdan bir so'z so'rasam maylimi?

— Xo'sh?

— Aytadilarkim, siz o't-o'lanlar tilini bilar emishsiz. Qirma-qir, dashtma-dasht yurib, giyohlar bilan so'zlashar emishsiz. Giyohlar sizga bo'y cho'zib, «men falon dardga davomen, men pismadon kasalga shifo bo'lamen», deb sir-asrorlarini bayon qilishar emish. Shu gap rostmi, ustod?

— Xo'sh-xo'sh?

— Aytadilarkim, bir xastaning dardiga davo topolmay, ko'nglingiz g'ash bo'lib, tog'larga chiqib ketgan emishsiz. Tog'ma-tog' yurib giyohlar bilan so'zlashgan

emishsiz. Shunda bir giyohning so'zi sizni lol qoldirgan emish. Bu giyoh o'sha, bevaqt olamdan o'tgan xastaning dardiga davo ekan. Shunda siz qattiq kuyunib:

— Nechun bu so'zingni avval aytmading? — deb so'ragan emishsiz. — Yo kechlik qilmasmikin? U sho'rlik hali dafn qilingani yo'q, seni olib borib, muolija qilib ko'rsammikin? — degan emishsiz. Shunda giyoh ham taassuf bildirib:

— Yo'q, hakimi hoziq, men ul sho'rlikning dardiga davo bo'lur edim, biroq ajalga davo bo'lolmaymen! — deb javob bergan emish. Shu so'z haqiqatmi, ustod?..

Ajal! Hayot va o'lim! Mana, salkam qirq yildirki, bu yechilmas tugun ibn Sinoning xayolini betinim band etib keladi, bu chigal sir-asrorning tagiga yetish orzusida u qay ko'chalarga kirib chiqmadi, ne-ne dorularni yaratmadi! Ajab hol: yoshlikda, Buxoro hokimi Nuh ibn Mansurni davolab, uning kutubxonasi-dagi Abu Bakr ar-Roziy, Buqrot hakim va Jolinus kitoblarini «chaynamay yutib» yurgan chog'larida, kelgusida uning uchun yechilmaydigan jumboq bo'lmasligiga, hatto ajalga ham davo topishiga amin edi. Endi esa, minglab giyohlar sirini anglab, serjumboq tabiatning ko'p hodisalariga tushunganida esa, yoshlik orzularining puchligiga inondi. Hayhot, tabiat sirlarini o'rgangan sayin uning tagi chuqurlashib bormoqda, bir jumboqni yechsa, ikkinchisi, ikkinchisini yechsa, uchinchisi ro'baro' bo'iadi. Mana, soqoliga oq oralab, ko'zidan nuri, belidan quvvati keta boshladi hamki, ilm bobidagi bu quvdi-qochdining intihosi ko'rinmaydi.

Durust, u endi tabiat sirlarining ibtidosini biladi. Tirik mavjudot borki, chumolidan tortib bani odamgacha — hammasi to'rt unsur — tuproq, suv, olov va havodan barpo bo'lgani ayon unga! Bu olamning yaratilishi, tabiat hodisalarining bir-biriga chambarchas bog'lanib ketishi metin bir qonuniyatga asoslanganini, qonuniyat esa, o'z navbatida, buyuk bir zarurat poydevoriga qurilganini anglab oldi. Faqat bu qonuniyatning tagiga yetmoq, bu ulug' zaruratni anglamoq qoldi, xolos. Anglamoq uchun esa, aql-idrokka suyanmoq zarur.



Shuning uchun ham u, avvalambor, ko'kka, ikkilamchi, aql-idrokka sig'inadi, aql-idrok oldida bosh egadi.

Ha, bu tafakkur, bu aql-idrok bani odamga faqat bir maqsadda, o'zi yashagan bu olamni bilmoq, tabiat sir-larini anglamoq va nihoyat, oqu qorani tanib, o'z ha-yotini insof va adolat asosiga qurmoq uchun ato qilin-gan! Bani odam esa, e voh, hanuz chirkin istak va tuban hissiyotlar tuzog'idan chiqolmaydi! Shu boisdan o'zi yanglig' odamlar ustidan hokim bo'lish istagida yongan sulton Mahmud kabi fotihlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lib yuribdi! Shu boisdan ularga donolar so'zidan mustabid shohlar amri, a'lo tuyuladi, donolar qolib, fotihlar so'ziga yuradi!.. Umr esa, e voh, qisqa ekan, o'lim, ha-yhot, haq ekan!

«O'lim» so'zi xayoliga kelishi bilan negadir yana yoshlik yillari esiga tushdi, «Juyi Mo'liyon» ko'chasining oxiridagi «Dorush shifo» shifoxonasi ko'z oldiga keldi.

Zimiston tun. Shifoxona uyquda. Eng chekkadagi chog'roqqina hujrada Jolinus kitobidan ilmi tashrihga<sup>1</sup> oid bobini ko'zdan kechirib o'tirgan yosh tabib Abu Ali eshik taqillaganini eshitib, cho'chib boshini ko'taradi.

Bo'sag'ada... ustiga to'n, ustidan uzun oq rido kiyib, og'zini oq ro'mol bilan bog'lab olgan ustod Abu Mansur qamariy<sup>2</sup>, — ollo uning ruhini shod etgay! — shogirdiga sinovchan tikilib turipti. Ustod bilan shogird muzxonaga tushib, o'sha kuni olamdan o'tgan bir gadoning mur-dasini yorib ko'rmoqlari lozim. Abu Ali buni biladi. Shuning uchunmi yo ustodning ustidagi oq kiyimi sabab-mi, bo'sag'ada turgan ustod — ustod emas, marhumning arvohi bo'lib tuyuladi-yu, a'zoyi badanidan sovuq ter chiqib ketadi.

«Dorush shifo» hovlisining eng chekkasida ming xil dorivor giyohlar saqlanadigan chog'roq xona, xonaning tagida esa, yozda ham qishdagiday salqin turadigan katta yerto'la bo'lardi. Xastalar u yoqda tursin, hatto qorovullar ham cho'chib, chetlab o'tadigan bu «muz-

---

<sup>1</sup> Ilmi tashrih — anatomiya.

<sup>2</sup> Abu Mansur Qamariy — buxorolik tabib, Ibn Sinoning ilk ustози.

xona»da marhumlar jasadi saqlanar, to qarindosh-urug'lari kelib olib ketguncha, jasadlar shu yerga qo'yilar edi.

Zimiston kecha... Hamma uyquda, hatto qorovullar ham pinakka ketgan, hovlida tiq etgan tovush eshitilmaydi.

Ustod, oyoq uchida yurib, hovlining mashriq tomoniga o'tadi, u yerdagi bostirma tagiga kirgach, tik zinalardan yurib, «muzxonaga» tushadi-da, qo'lidagi shamni yoqadi.

Abu Ali, o'sha kungacha ustod rahbarligida qo'yechki va it-mushuklarni so'yib, ichki a'zolarini o'rganib yurgan bo'lsa ham, odam murdasini yorib ko'rishni o'ylamagan, shu boisdan bo'lsa kerak, hamon a'zoyi badanida chumolilar o'rmalaydi.

Marhumning jasadi maxsus qurilgan baland so'riga qo'yilib, ustiga boshdan-oyoq oq mato yopilgan.

Ustod, eshik zanjiriga ishonmay, uni ichidan tirkalaydi, so'ng, marhumning bosh tomoniga cho'kkalab, uzoq tilovat qiladi. U «Surai yosin»ning uzun yo'lini o'qiydi, Abu Ali esa poygakka cho'nqayib, surani so'zma-so'z takrorlaydi. Ajabo, tilovatdan so'ng uning ko'ngli xiyol tinchiganday bo'ladi, go'yo ular «bu kufri» ishlari uchun marhumdan avf so'raydilaru so'roqlari ijobat bo'ladi!

Muzxonaning darichasi yo'q, kunduzlari faqat eshikdan shu'la tushar, eshik yopilsa yerto'la zimiston bo'lardi. Ustod o'zi olib kelgan shamlarni bitta-bitta yoqib, tokchalarga qadab chiqadi, tilovatdan so'ng sal hushiga kelgan Abu Ali esa, nashtarlarni, jom va qumg'onlarni tayyorlaydi. Hamma narsa taxt bo'lgach, ustod, hamon pichir-pichir duo o'qiganicha, murdaning yuzidan oq matoni oladi...

Bir kun avval olamdan o'tgan bu gado so'rida chalqancha yotar, uning ko'zlari ochiq qolgan, u go'yo tirigu ularning ishini ko'p xushlamay jimgina kuzatib yotganga o'xshardi.

Yillar o'tadi. Ilmi tashrihni mukammal bilmoq niyatida Ibn Sino yana ko'p murdalarni pinhoniylar yorib

ko'radi, har bir a'zoning holati va tuzilishigina emas, bu a'zolarning eng mayda qon tomirlarigacha tekshiradi, o'rganadi. Zotan, Buqrot hakimning: «Kimni dori tuzatmasa, giyoh tuzatadi, kimni giyoh tuzatmasa, pichoq tuzatadi, kimni pichoq tuzatmasa, o'lim tuzatadi», degan naqliga amal qilib, pichoqni shifo bobidagi o'zining eng ishonchli quroliga aylantiradi. Lekin «Dorush shifo»dagi bu yerto'la, yerto'laning to'rida go'yo tirik odamday ularga jimgina tikilib yotgan ko'zi ochiq bu gado!.. Yo'q, ko'ngliga mudhish qo'rquv solgan bu oqshom hech qachon esidan chiqmaydi uning!

Ustod esa... shogirdining sovuq vahima og'ushida titrab turganini ko'rib:

— Ollo o'zi kechirgay, bolam!... — deb shivirlaydi. — Kamina yoshimni yashab, oshimni oshab bo'lganmen. Bu ishni men, avvalambor, sen uchun qilmoqdamen. Xudovandi karim o'z bandasini qanday yaratgan — buni bilmoq gunoh emas, bolam. Bil'aks, yaxshi tabib buni bilmog'i darkor, davolash borasida foydalanmog'i darkor! Hamma narsa ollodan, bolam, ammo yaratguvchi o'z bandasiga aql-zakovatni shu matlabda in'om etgankim, u hammasini bilmog'i lozim! Bas, davolash yo'llarini bilmoq — biz hakimlar uchun ham farz, ham qarzdur! Qo'rqma, bolam, nashtarni qo'lingga olib, yaqinroq kel!..

Ustod shunday dedi-da, hamon bilinar-bilinmas qaltiragan qo'llari bilan murdaning qorniga nashtar soldi.

Ha, Ibn Sino tabobatga ixlos qo'yibdiki, olamda neki dard bo'lsa, hammasini bilishga harakat qildi, ularga davo axtarib, salkam uch ming giyohning shifobaxsh sirlarini o'rganib chiqdi. Bu dardlar tafsiri «Al-Qonun» kitobining besh jildini, dorivor giyohlar bayoni esa «Ash-Shifo» asarining ikki jildini tashkil qildi!.. U kasalliklarni ikkiga, ya'niki murakkab va sodda kasalliklarga ajratdi va shunga qarab murakkab va sodda dorular yaratdi. Yuzlarcha shifobaxsh giyohlar va ne'matlar birikmasidan yasalgan bu murakkab dorular ojizlik qilganida jarrohlik san'atini ishga soldi, o'nlab jarrohiya asboblarni, huqna<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Huqna — klizma.

qilishning yangi yo'llarini o'ylab topdi. Va shu yo'sin ming-ming xastalarning davosiz dardlarini daf qilib, duolarini oldi. Faqat, hayhot, o'limga davo topmadi!

Hayot ne? O'lim ne? Agar bu noraso olamdan boshqa olam, boshqa hayot bo'lmasa, bani odam nechun kelib, nechun ketdi?

Har safar uning dorulari kor qilmay, biror ojiz banda qo'lida jon taslim qilganida bu notinch o'ylar, bu shakkok fikr unga oylab tinchlik bermaydi!

Yo tavba! Bu g'alati o'ylar qaydan keldi? Xayoli nechun bunchalik parishon bugun? Bunchalik hazin? Nahot bunga sabab Buxoro qirlariga o'xshash bu ko'm-ko'k qirlar bo'lsa? Afshonani eslatuvchi anov ko'm-ko'k qishloqlar bo'lsa?

### 3

Qirlar ustidagi oqish tuman tarqab, dasht butun lato-fati bilan namoyon bo'ldi. Ana, ko'kdagi siyrak oq bulutlar lovillab yona boshladi, qirlar ortidan ko'tarilgan oftobning serjilva o'ynoqi nurlari giyohlar bargidagi shabnam bilan o'pishib, butun dashtni ajib bir shu'laga cho'miltirdi-yu, yiroqdagi bog'lar boyagidan ham yashnab ketdi.

Bog'lar orasida pastak yapasqi uylar elas-elas ko'rinar, faqat qishloq o'rtasidagi ulkan maschitning qubbador gumbazi charaqlab turar, u xuddi Afshona maschitini eslatar edi. Juma kunlari Afshona maschitiga yaqin tevarakdagi qishloqlargina emas, hatto Buxorodan ham namozxonlar daryoday oqib kelar, machit oldidagi maydon va chorrahalar, turnaqator rastalar, do'kon va do'konchalar ot surgan zodagonlarga, hammasi birday oppoq kiyingan ulamolarga, zikr tushgan qalandarlar, tilanchilar, gadolar, moxovlar, oyoq-qo'llaridan ayrilgan mayib-majruhlarga to'lib ketar, bog'lar bilan qurshalgan Afshona qal'asi ari uyasiday g'uvillar edi.

Afshona! Yana Afshona! Mana, salkam o'ttiz yiidirki, bir zum yolg'iz qolsa lop etib ko'z oldiga tug'ilgan joylari keladi, Afshonaning bog'lari, ko'm-ko'k qirlari, hadsiz sayhonliklari yodiga tushadi.

Ibn Sino bir-bir bosib ro'paradagi qirga chiqdi. Qir etagidan katta anhor o'tardi. Anhorning u yuzida, bo'z yaktak kiygan bir necha bolalar sigir boqib yurishar, olis-roqdagi yalanglikda omochlariga ho'kiz va xachir qo'shib yer haydayotgan dehqonlar ko'zga chalinardi.

Yo tavba! Afshona chekkasidan ham xuddi mana shunday anhor o'tar, anhorning chap sohilida bepoyon qovun polizlar yastanib yotardi.

Bu polizlarda shirin-shakar amiriylar, bosvoldilar, sahar payti tun sukutini buzib kars-kars yorilg'uvchi shakarpalak, to'rlamalar, kattaligi mushtdekkina bo'lsa ham, sharbati til yorg'uvchi qora qovunlar bitardi. Kichkina Abu Ali kechalari qamish kapa yonidagi shohsupada ilk ustozi Notiliyning po'stiniga o'ranib yotib, osmon to'la yulduzlarni sanashni yaxshi ko'rardi. Subhidam esa, kars-kars yorilgan to'rlamalarning ovozi-dan uyg'onib ketar, sovuqdan dir-dir titrab polizga tushar, shudringda cho'milgan muzday palaklarni yalang oyoq oralab, yorilgan qovun parchalarini terib yeyishni sevar edi!

O, bolalik! Beg'ubor, betashvish bolalik! Kechasi uchgan yulduz yanglig' «yalt» etib, bir chaqnadingu o'tding-ketding!

Bir-biridan ma'yus, ammo allaqanday tiniq esdaliklar xuddi tasbeh munchoqlariday bir-biriga ulanib borardi.

Avji bahor. Afshona tevaragidagi yam-yashil sayhonlikda oq, jigarrang, qora-qizg'ish o'tovlar saf tortgan, anhor yoqasidagi tepalikka esa rang-barang ipak tasmalar bilan bezatilgan o'n ikki qanotli ulkan oq o'tov tikilgan. O'tovning to'rida, baland qilib to'shalgan oq kigizlar ustida, uzun timqora sochlariga behisob kumush tanga va mitti qo'ng'iroqchalar taqilgan bir qiz yotibdi. Qizning ko'zlari yumuq, majolsiz, nimjon qo'llari baland to'shakdan sirpalib tushib, holsizgina osilib qolgan.

Yosh tabibni o'tovga boshlab kirgan kulcha yuzli, bodomqovoq kanizak asta borib to'shak oldiga tiz cho'kadi. Shunda sharpani sezgan qiz qalin kipriklarini bazo'r ochib, poygakda jimgina tikilib turgan yosh tabibga qaraydi, qaraydi-yu, «qult» etib yutinadi. Yutinganda

go'dakning tomog'iday nimjon, oppoq tomog'ining ostidagi moshdek qora xoli qandaydir o'jizgina qimirlab qo'yadi...

... Ibn Sino, go'yo bu voqea bundan o'ttiz yil burun emas, hozir sodir bo'lganday, yuragi allaqanday jizillab ketdi.

Ha, Bo'tako'zbeğim degan bu sahronishin suluv ham uning hayot osmonida bir lahza yongan yorug' yulduzday yarq etdi-yu, o'tdi-ketdi!

Ne chora? Bani odam hayoti shunday qisqa ekan, ham qisqa, ham g'urbatga to'la ekan! Hayhot! Uning bolalik yillarini yorug' nurga yo'g'irgan bu mehri daryo insonlardan kimlar qoldi? Kimlar bor? Olloga shukr, padari buzrukvorini o'z qo'li bilan Buxoro tuprog'iga dafn etdi, onaizorini esa dafn etish nasib ham qilmadi. Singlisi Gurganjda qoldi, yolg'iz inisi Abu Mahmud esa... o'likmi, tirikmi, yoxud uning kutubxonasini asrayman deb, yong'in ichida qoldimi — mana, necha kundirki, bu notinch o'y Ibn Sinoga na uyqu beradi, na orom!

Ota-onā, qarindosh-urug'larining qismati shu bo'ldi! Ona yurti-chi?

Aytishlaricha, ilxonlar avlodidan bo'lmish amir Alitegin Buxoroni ko'p xushlamas emish. Qishda shaharda tursa ham, yozda ko'ngliga yaqin dashtlarga ko'chib chiqar emish, behisob o'tovlar qurdirib, kuni ov bilan, uloq va ko'pkari bilan, qo'shni shaharlarga qiron keltirish bilan o'tar emish!

Alitegin ham mayli, anov sulton Mahmud-chi?

Mashriqda Hindiston, mag'ribda Xuroson yetmagandek, sulton bundan uch-to'rt yil muqaddam Buxoro va Samarqandga o'n ming jangovar fil bilan bostirib borgan emish. O'n ming jangovar fil barobar qadam tashlaganda Buxoro tuprog'i larzon-larzon bo'lgan emish, bir joyda to'xtab, barobar na'ra tortganda esa osmonu falak zir titragan emish!..

Ajabo, mana endi u, kimsan Ibn Sino, Buxoroga qirg'inbarot keltirgan shu sultonni davolamog'i darkor emish, bedavo dardiga davo topib, boshqa qirg'inlarga yo'l ochib bermog'i lozim emish! Buning uchun esa sul-

ton makon qurgan G'aznai munavvaraga bormog'i dar-  
kor emish!

Rost, ojiz banda, uning o'zi ham odil poshsho qidirib ko'p yanglishdi. Shamsuddavla va malikai Saida kabi aqli ko'toh gumrohlarni insof va adolat yo'liga solaman deb, umrining eng mas'ud yillarini yo'qotdi, shu niyatda hatto ularga vazirlik ham qilib ko'rdi, biroq, hayhot, shon-shuhrat ishqida yongan bu johil hokimlarning tuban istaklari oldida uning ezgu orzulari bamisoli toshga tekkan oynaday chil-chil sindi. Va lekin... bu dunyoda hamma narsa nisbiy!

Faqat bir nara G'aznani o'ylaganda uning yuragini allaqanday jizillatib yuboradi — u ham bo'lsa ustod Beruniy bilan diydor ko'rishish istagi! Ular so'ngbor ko'rishganlariga, to'g'rirog'i, kechasi Gurganj darvozasi-dan pinhona chiqib, qalin saksovulzor orasida so'ngbor vidolashganlariga necha yil bo'ldi. Mana, salkam yigirma yil bo'libdi. Shundan keyin ilmiy muammolarga oid uch-to'rtta maktub va sayyoralar orqali yetib kelgan uzuq-yuluq gaplarni hisobga olmaganda, ustoddan darak yo'q. Ba'zi xabarga qaraganda ustod Beruniy Gurganjni tark etib, G'aznaga borgandan keyin u yerda katta rasadxona qurgan, rasadxonasi sultonga ma'qul tushib, uni o'zi bilan birga Hindistonga olib ketgan. U yerda ustod hindlar tilini o'rganib, avval sultonga tilmochlik qilgan, keyin esa, bu yurt haqida, uning tarixi, ilmi hikmatlari, urf-odatlari, qo'shiq va dostonlari, hikoyat va rivoyatlari to'g'risida katta kitob yozish maqsadida Hindistonda uzoq fursat qolib ketgan.

Bu gaplarning qaysi biri rost, qaysi biri yolg'on — Ibn Sino aniq bilmaydi. Lekin yoshlikdagi uchrashuvlari, suhbatlari, ayniqsa Gurganjda, «Majlisi ulamo»dagi bahsmunozaralari yodiga tushib, qattiq sog'inadi. Shunday paytlarda kitob javonidagi eng noyob qo'lyozmalar orasiga yashirib qo'yilgan ustodning maktublarini olib o'qiydi, qayta-qayta o'qiydi, rost, murakkab tabiat hodisalari haqida yozilgan bu maktublarda ustod uni qattiq koyigan joylari ham bor, ayniqsa, muallimi avval Aras-tuning «Ilohiyat»iga ko'r-ko'rona taqlid qilgansan, deb

undan norozi bo'lgan satrlari ham yo'q emas, biroq, baribir, nechundir ularni qayta-qayta o'qirkan, ustodning qoramtir shiddatli chehrasi nigohi oldiga kelib, yuragida yana o'sha sog'inch tuyg'usi lovillab yonadi...

Yaqinda, har shanba Hamadonda bo'ladigan ulamolarni majlisida, G'azna tomondan kelgan bir savdogar g'alati bir gap aytdi-yu, uning ko'nglida cho'g'day miltiragan sog'inch tuyg'usi battar yallig'landi.

Shundaykim, ustod Hindistondan qaytib kelgandan keyin sulton uni Osmon malikasi qasriga taklif etgan emish!

«Ey, allomai zamon! Ilmi irfon orasida shunday gap borkim, go'yo sen yecholmaydurg'on muammo, sen bilmaydurg'on sir-asror yo'q! Bu gap haqmi yo lofmi, buni sinamoq azmida hozir o'rta masala tashlaymen, yechsang vazning barobar oltin olasen, yecholmasang xumkallangni tanangdan judo qilamen!

— Marhamat, ayting masalangizni! — degan emish ustod.

— Masala shulkim, sen o'ltirg'on bu mashvaratxonaning to'rt eshigi bor. Hozir faqir o'rnimdan turib, shu eshiklarning biridan ko'chaga chiqamen. Sen aql-zakovatda yagona bo'lsang, qaysi eshikdan chiqishimni qog'ozga yozib, yostig'imning ostiga qo'yib ketasen. Orqangdan men chiqamen, so'ng, jumboqni to'g'ri yechdingmi, yo'qmi, yozgan qog'ozingni olib o'qib bilamen!

Ustod uzoq o'ylab turmay xat yozib sultonga bergan emish, sulton esa qog'ozni yostiq tagiga yashirib, ustalarni chaqirtirgan emish, ularga mashvaratxona devorini buzdirib, tuynuk ochtirgan va shu tuynukdan tashqariga chiqqan emish. So'ng yostiq tagidagi qog'ozni olib alommalarga o'qittirgan emish.

Vo darig'! Qog'ozda shunday deb yozilgan emish: «Olampanoh to'rt eshikning hech biridan chiqmaydur, devorni buzdirib, tuynuk ochtirur va shu tuynukdan tashqariga chiqadur!»

Bu hikoyani eshitib, butun majlis ahli yoqasini ushladi, Ibn Sinoning yuragidagi sog'inch uchqunlari esa battar yallig'landi...



Ha, Ibn Sino ustodni bir ko'rish, u bilan to'yib-to'yib suhbatlashish uchun na yo'l azoblaridan qo'rqadi, na boshqa qiyinchiliklardan. Ammo bu sulton!.. Allomalarga telba-teskari masalalar berib, ulardan dono javoblar kutguvchi bu telba hokim!..

Nagohon qir etagida xachir yetaklagan bir odam ko'rindi. U to'ppa-to'g'ri Ibn Sinoga qarab kelardi. Ibn Sino negadir bu odam bilan uchrashgisi kelmay o'rnidan turdi.

— Qayga shoshasen, ey darvesh?

Ibn Sino beixtiyor to'xtadi. Uning ro'parasida soch-soqoli o'sib ketgan, ochlikdanmi, betoblikdanmi ko'zlari ichiga botib, uzun burni so'rrayib qolgan bir mo'ysafid turardi. Mo'ysafidning egnida quroq-quroq bo'z ko'yлак, bo'z shalvar, oyog'ida chilvir bilan chandib bog'langan eski choriq, xachirining belidagi xurjunning bir ko'zida katta suvqovoq, bir ko'zida bo'yni cho'ziq sopol xum ko'rinar, aftidan, u yaqindagi rabot meshkobchisi edi.

— Assalomu alaykum...

— Vaalaykum assalom...— meshkobchi kirtaygan ko'zlari bilan Ibn Sinoga bir daqiqa sinovchan tikilib turdi, so'ng:— Muroding qorin to'ydirmoq bo'lsa... yo anov qishloqqa, yo rabotga bor,— dedi hamon Ibn Sinodan nigohini uzmay.— Olloga hamdu sano o'qib rizq-ro'zingni terib ye! Sabab, bu qirlarda daydib yuribsen, ey darvesh?

Yo tavba! Soch-soqoli o'sib ketgan bu keksa meshkobchi kimgadir o'xshar, juda-juda o'xshardi!

Ibn Sino yuragiga quyilib kelgan ichki g'alayonni zo'rg'a bosib:

— Peshonamga yozilgani shu bo'lsa ne qilay, ey bandai mo'min? — dedi.

Meshkobchi, go'yo bir nimadan cho'chiganday, sal orqaga chekinib: «Yopiray! deb pichirladi.

— Devonalik joningga tekkan bo'lsa bizning karvonga bor. Tuyakashlik qil! Usting but, noning halol bo'lur, faqir banda!

— Qaysi karvon?

— Isfahondan chiqib, Buxoroi sharifga borayotgan katta karvon!

— Buxoroi sharif?

— Vo ajabo! Buxoroi sharifni eshitmagan gumrohlar ham bormi olamda? Dong'i yetti iqlimga ketgan shahri munavvardur Buxoro! Yura ber, ham ziyorat, ham tijorat bo'ladi sen uchun!

«Astag'firullo! Musofir yurtida suv tashib yurgan bu meshkobchini qayerdadir ko'rgan u! Ha, buxorolik... yo'q, afshonalik bir kimsani eslatadi bu meshkobchi! Juda-juda eslatadi! Yo'q-yo'q, keksayganda qayoqdagi o'ylar keladi kishining xayoliga!»

— Lutfu karaming uchun tashakkur, birodar, ammo tuyakash bo'lishga keksalik qilamen! — Ibn Sino hayajon ichida teskari burilib, pastga qarab yo'naldi, biroq bir necha qadam yurmasdan meshkobchining «Yo parvardigor!» degan xitobini eshitib, beixtiyor to'xtadi.

Keksa meshkobchi hanuz o'z joyida turardi. Ibn Sino to'xtab orqasiga qarashi bilan uning qo'lidagi qamchisi yerga tushib ketdi, o'zi esa yoqasini ushlab:

— Yo tavba! Abu Ali?! — deb xitob qildi.

— Shokalon?

— Abu Ali? — meshkobchi qo'llari qaltirab oldinga talpindi-yu, negadir jur'ati yetmay, yana to'xtadi. — Yo'q! Ko'zlarimga inonmaymen! Abu Ali ibn Sino darvesh bo'lmish? Dong'i olamga ketgan hakimi davron Ibn Sino devona kiyimida tilamchilik qilib yurmish? Bu ne hol, yo parvardigor?

Ibn Sino ham hamon o'z ko'zlariga ishonmay lol bo'lib turardi.

«Yo rab! Telba taqdirning ne o'yini bu? Yoshlik birodari Shokalon bu musofir yurtlarda meshkobchilik qilib yurgan bo'lsa!»

Shokalon, patak soqoli dir-dir titrab, Ibn Sino tomon yurdi. Ikki do'st, ko'zlarida yosh, uzoq quchoqlashib turishdi.

— Astag'firullo! Nahot bu ko'rib turganlarim tush emas, o'ngim bo'lsa, Abu Ali?

— Sen'chi? Senga ne bo'ldi? Bu musofir yurtga

qachon kelding? Faqirga ters qaragan telba taqdir senga nechun ters qaradi, Shokalon?

— So‘rama, Abu Ali! — xitob qildi Shokalon. — Sen so‘rama, men so‘zlamay, so‘zlab bag‘rimni tig‘lamay! — Shokalon kirtaygan ko‘zlarini uqalab Ibn Sinoga qaradiyu, uchinchi bor:

— Yo‘q, inonmaymen! — deb yoqasini ushladi. — O‘z ko‘zlarimga inonmaymen! — O‘z ko‘zlarimga inonmaymen! Biz seni Hamadon va Isfahonda vaziri a‘zam deb eshitgan edik, Abu Ali!

Ibn Sino ma‘yus bosh chayqab:

— Farqi ne? — deb kulimsiradi. — Vaziri a‘zammi, derveshmi, farqi ne, Shokalon?

— Yo‘q! Ajab dunyo ekan bu dunyo, Abu Ali! Tavallud topgan yurtningda sening noming odamlar tilida davri doston, sen bo‘lsang...

— Mayli, Shokalon, meni qo‘yib Afshonadan so‘zla! Buxoro qalay? El-yurtning ahvoli nechuk?

— O, Abu Ali, Abu Ali! — dedi Shokalon boshini g‘amgin tebratib. — El-yurtning ahvolini so‘rama! Sen bilan Afshonadan yolg‘iz kultepa qolgan! Bilmam, eshitdingmi, yo‘qmi, bundan to‘rt-besh yil avval Buxoroga sulton Mahmud bostirib keldi.

— Ming taassuf, eshitdim.

— Eshitsang... Afshona xonavayron bo‘ldi. Abu Ali, xonavayron! Bog‘-rog‘lar jangovar fillar ostida toptaldi. Sen so‘rama, men yuragimni tig‘lamay, Abu Ali!

Ibn Sino boshini changallaganicha uzoq sukutga toldi.

— E voh! Bundan chiqdi, sen ham faqirga o‘xshab... sulton tazyiqidan qochib yuribsen, Shokalon?

— Yo‘q, Abu Ali! — dedi Shokalon uf tortib. — Faqir bu musofir yurtiga yolg‘iz zurriyotim Shoyusufni qidirib keldim.

— Zurriyotingga ne bo‘ldi?

— O, Abu Ali, Abu Ali! — dedi Shokalon, o‘tirgan joyida og‘ir tebranib. — Taqdirning o‘yiniga chora yo‘q ekan! O‘g‘limning qismati sening qismatingga o‘xshadi. Uning ishq Bo‘tako‘zbeginning qiziga tushdi, Abu Ali!

— Bo‘tako‘zbegin!

— Ha, g'alati dunyo ekan bu dunyo, Abu Ali! O'g'lim ham o'shal sen suygan baxtiqaro Bo'tako'zbekimning qizini suyib qoldi. Ul ham senga o'xshab, ma'shuqasining visoliga yetolmay, «yohu», deb bu tomonlarga bosh olib ketdi!

«Bo'tako'zbekim? Uning qizi? Yo tavba! Bu sho'rlik meshkobchi ne deydi? Aqli hushi joyidami buning yo boshiga tushgan musibatlardan telbalanib qolganmi?»

— Yo tavba! Bo'tako'zbekim tirikmi?

— Yo'q, sho'rlik begim, — ollo uning qabrini charog'on qilg'ay, — olamdan o'tdi. O'zing davolagan zotiljam dardi olib ketdi ul notavonni. Biroq undan Qorako'zbekim degan bir ojiza qolgan edi. Olloning qudrati bilan quralay ko'zlaridan tortib, bo'ynidagi qora xoligacha marhumaning o'zi edi! Ne chora? Qismati ham sho'rlik Bo'tako'zbekimning qismatiga tortdi. Bultur ko'klamda bek qo'rg'onini bir kechada qaroqchilar bosib, Qorako'zbekimni o'g'irlab ketdi. O'g'lim esa... O'g'lim misoli bir shunqor edi, Abu Ali! Qizning otasi o'g'limni o'ziga sarboz qilib olgan edi!

Shokalon dam-badam uf tortib, o'g'lining boshiga tushgan musibatni uzoq so'zladi. Uning aytishicha, bu sirni, bek qizini olib qochgan qaroqchilar sirini hech kim bilmas emish. Birovlar, Qorako'zbekimni olib qochgan bebosh sahronishin beklar desa, birovlar, Buxoro hokimi Alitegin, der emish. Bundan to'rt-besh yil muqaddam, sulton Mahmud Buxoroga bostirib borganda, Aliteginning kenja xotini bilan suyukli qizini asir qilib olib ketgan emish. Alitegin ularni qaytarish umidida, bek qizini bosib olib, uni Isfahonga, amir Mas'ud haramiga in'om etib yuborgan emish. Shokalonning o'g'li esa, bu gapni eshitib ma'shuqasining izidan Isfahon tomonlarga bosh olib chiqib ketgan emish. Ota ekan, Shokalon ham bu musibatga chiday olmay, yolg'iz farzandini qidirib kelgan emish...

Ibn Sino Shokalonning hikoyasini birda ilg'asa, birda ilg'amadi. Uning xayoli xuddi uya qo'ygan joylariga talpingan qushday yana Afshona tomon parvoz qildi, ko'z oldida esa ulkan oq o'tov to'rida yotgan Bo'tako'zbekim

namoyon bo'ladi! Yo'q, bu — ilk bor ko'rganida ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan nogiron Bo'tako'zbekim emas, bir oylik muolaja sabab, onadan qayta tug'ilgan, xuddi bo'taloqning ko'zlariday qop-qora serkiprik ko'zlarida sho'x uchqunlar paydo bo'lgan tamom boshqa, latif va muloyim bir qiz edi!

Qanday dorular ishlatgan edi u o'shanda? Salkam o'ttiz yil o'tgan bo'lsa ham hanuz yodida turipti: oq tuyaning qimroniga yantoq shakarini, mo'miyoga asalari sutini qo'shib bergan, ishtaha uchun esa ko'knori po'stining qaynatmasi bilan Misr sabri'sining sharbatini ishlatib, shaftoli va achchiq bodom yog'ida qovurilgan barra qo'zi go'shtini buyurgan edi!

Bu — o'zi kashf etgan murakkab dorularni ikkinchi bor ishlatishi edi! Birinchi marta Buxoro hokimi Nuh ibn Mansurni shifolab, uning boy kutubxonasiga kirish baxtiga erishgan, ikkinchi bor esa, Bo'tako'zbekimni davolab, uning muloyim tabassumiga sazovor bo'lgandi.

Hanuz nigohi oldida turipti. Bo'tako'zbekim, o'tovga kirgan yosh tabibni ko'rib, qaddini rostlab o'tiradi, rostlaganida uzun timqora sochlariga taqilgan kumush qo'ng'iroqchalar va nozik tilla halqachalar ajib ovoz chiqarib jaranglab ketadi. Begimning xatti-harakatlarida, chehrasida, boqishlarida nimadir o'zgargan. Abu Ali sezadi: qizning nigohidagi bu o'zgarish faqat sog'lig'i yaxshilanganidan emas, yo'q, uning yuragida qandaydir qaynoq bir ehtiros paydo bo'lgan!

Abu Ali yuragi «jiz» etib, bo'sag'ada to'xtaydi. Begimning lablaridagi, bo'taloqning ko'zlariday katta-katta ma'sum ko'zlaridagi sirli tabassum uni sarosimaga soladi. Begim esa yosh tabibning sarosimaga tushib, «duv» qizarganini ko'radi-yu, muloyim kuladi:

— Keling, o'ltiring, hakim hazratlari! — deydi qiz qo'sha-qo'sha bilaguzuklar taqilgan nozik qo'llarini yosh tabibga cho'zib.

— Nechun mendan qochasiz? — deb so'raydi u, so'raydi-yu, to'satdan ko'ziga yosh oladi. — Kelasiz,

---

<sup>1</sup>Sabri — aloe.

biroq yonimda lahza o'tirmay, tag'in qochasiz. Uzun kun yo'lingizga tikilamen... siz esa... yonimda lahza o'ltirmay qochasiz...

Bo'tako'zbekim yana «qult» etib yutinadi, yutinganda tomog'idagi moshdekkina qora xoli odatdagiday ojizgina qimirlaydi. Bu qora xol, yo'q, xol emas, «qult» etib yutinganda uning allaqanday ojiz qimirlashi yosh tabibning yuragidan o't chiqarib yuboradi.

— Sizing mehri sharofatingiz bilan men sho'rlik bir o'limdan qoldim, — deydi begim. — Bu yaxshiligingizni toabad unutmaymen, hazratim!

«Hazratim» so'zi begimning tilida juda g'alati eshitiladi. Abu Alining nazarida Bo'tako'zbekim go'yo undan kulayotganday tuyuladi-yu, «Bu so'zni bir aytdingiz, qayta aytmang!» degisi keladi, biroq hayajondan tili aylanmay g'o'ldirab qoladi.

— Endi ijozat etsangiz, o'nimdan tursam, — deydi Bo'tako'zbekim, allaqanady nozli yolvorib. — Bu qafasdan chiqsam, dala-dashtlarni kezib, to'yib-to'yib nafas olsam, chechaklar tersam...

— Yo'q, yo'q, dala-dashtlarni kezishga hali ertadur, begim!

Qiz asabiy harakat bilan to'zg'igan sochlarini orqaga tashlaydi.

— Bugun ijozat etmasangiz, ertaga kech bo'ladi, hazratim!

Begimning so'zlarida kishini cho'chitadigan pinhoniylar bir ma'no bor. Bu sirli ma'no Abu Alini vahimaga soladi.

— Mayli, men ijozat beramen, ammo otangiz...

— Amri tabib — vojib. Otam sizing so'zingizni vojib deb biladi!

O'shanda ham bahor edi. Ayni bahor. Bepoyon Cho'li malik sahronishin chevarlar to'qigan guldor paloslarni eslatadi. Gurkirab o'sgan giyohlar to'piqqa keladi, yam-yashil yantoq, shuvoq, yovshan, bo'ztikan, qo'ng'iroq gullar orasida piyoladay-piyoladay lolaqizg'aldoqlar cho'g'day yonadi. Binafsharang chuchmomalar ipakday eshiladi, sachratqi va noxatak gullarida asalarilar vizillaydi:

Hadsiz-hududsiz dashtning har joy-har joyiga oq, qizil, qo'ng'ir o'tovlar tikilgan, gala-gala qo'y-echkilar, uyur-uyur yilqilar ko'rinadi, bo'taloqlarini yetaklab olgan tuyalar vazmin «bo'x-bo'x»lab yuribdi... Goho-goh sahro tinchini uyur talashgan ayg'irlarning muzaffar kishnashi buzadi, qo'y-qo'zilarining allaqanday yoqimtoy ma'rashi va otlar dupuri yurakni qitiqlaydi. O'tovlar tevaragida esa qizil ko'ylak ustidan qizil nimcha kiyib ukki pati taqilgan g'alati qalpoqchalarini boshlariga qiya qo'ndirib olgan qiz-kelinchaklar ko'rinadi: ularning sho'x qiliqlari, qaltis hazillari, muloyim kulgulari yurakka jaz-jaz tegadi...

Kechalari, biyalar tushovlanib, sigirlar sog'ilib, o'choqlarda olov so'ngach, pana joylarga bo'z yigitlar yig'ilib, qiz-kelinchaklarni kutishadi. Nihoyat, keksalar uyquga ketgach, qiz-kelinchaklar o'tovlardan chiqib kelishadi. Ular taqinchoqlarni mayin jaranglatib, uzoqdan piqir-piqir kulishib, to'p-to'p bo'lishib kelishadi-yu, darhol o'z juftlarini topib olishadi, so'ngra g'alati o'yinlar, tortishuvlar, cho'lp-cho'lp o'pishishlar bilan tugaydigan berkinmachoqlar boshlanadi, taraf-taraf bo'lib lapar va o'lanlar aytiladi...

Buxoroda yuzlari ochiq qiz-juvonlarni ko'rmagan yosh tabibga bu o'yin-kulgular, bu erkin va latif munosabatlar, allaqanday hazin nurga yo'g'rilgan o'lan va laparlar juda g'alati tuyuladi. U go'yo bu zamindan boshqa, go'zal bir olamga tushib qolganday sezadi o'zini. Bo'tako'zbekim esa... Yigitlar orasidan doim yosh tabibni tanlaydi. Issiq lablari bilan Abu Alining yuziga jaz-jaz tegib, berkinmachoq paytida qayerga yashirinishini oldindan shivirlab aytadi. Shuning uchun ham birinchi bo'lib begimni Abu Ali topadi, qizning cho'g'day issiq bo'sasi ham aksar hollarda Abu Aliga nasib etadi! Yosh tabibni faqat bir narsa qiynaydi — u qiz-yigitlarning o'lan va laparlariga qo'shila olmaydi. Aytishuvlarda so'z topolmay qiynaladi. Lekin bu tiniq, seryulduz dasht oqshomlarida Bo'tako'zbekimning yonida yonboshlab yotib, bu o'lanlarni, dasht oqshomiday tiniq, ma'yus laparlarni tong otguncha eshitgisi keladi, shirin tushga o'xshagan bu mas'ud damlar toabad tugamasa deydi!..

...Ibn Sino yuzini iliq bahor oftobiga tutib, uzoq sukutga ketdi. Shokalon ham negadir sukutga cho'mgan, aftidan, darvesh qiyofasidagi hamyurtining xayolini bo'lishni istamaydi.

Ibn Sino bo'lsa hamon bir-biridan g'alati, bir-biridan hayajonli esdaliklar oqimidan chiqolmaydi. Esdaliklar esa go'yo guldanda gulga uchib-qo'nib yurgan kapalaklarga o'xshaydi, lip-lip etib, bir voqeadan ikkinchisiga, ikkinchisidan uchinchisigacha uchib o'tadi.

Mana, kelinchakday yashnab ketgan dasht bag'rida o'n chog'li qiz-yigitlar ot surib ketyapti. Oldinda Bo'tako'zbekim. Uning ostida yoliga ipak popuklar taqilgan chiroyli saman yo'rg'a. Begimni uch-to'rtta otliq kanizlar qurshib olgan. Orqaroqda esa sahroyi bekning shaxsiy sarbozlari, ular orasida... mana shu Shokalon bilan Abu Ali ham bor. Bo'tako'zbekim oldinda ot choptirib bormoqda. Abu Alining ikki ko'zi qizda. U ko'k qashqa bedovining boshini qo'yib, qizni quvib yetgisi, uning ochiq yuziga, serkiprik bo'ta ko'zlariga tikilib, yonma-yon ketgisi keladi. Biroq sarbozlaridan iymanadi.

Ana, ular dasht bag'ridan chiqib, lolaqizg'aldoqlar chaman ochilgan qumliklar bag'riga sho'ng'iydi. Sho'ng'ishlari bilan Bo'tako'zbekim orqaroqda kelayotgan Abu Aliga qarab ko'z qisadi-yu, ostidagi saman yo'rg'asiga qamchi bosadi. Qizning «men qochamen, siz quving», deganini tushungan Abu Ali ham, yuragi gurs-gurs urib, ko'k qashqa bedovining boshini qo'yadi, qo'yarkan, ularni boshlab ketayotgan ko'sa yasovulga ko'zi tushadi. Yasovulning ko'zlari chaqchayib ketgan. Biroq Abu Ali unga e'tibor bermaydi. Yosh tabibning fikri xayoli kumush tangalar taqilgan sochlarini yoyib, qumliklar orasida shamolday uchib ketayotgan Bo'tako'zbekimda, Abu Alining ko'k qashqabedovi go'yo uning yuragidagi g'alayonni sezganday, qumliklarga sho'ng'ib ketgan saman yo'rg'a ortidan qushday uchadi. Qiyqiriq ko'tariladi. Ot tuyoqlari ostidan otilib chiqqan lolaqizg'aldoqlar go'yo yaradan otilib chiqqan qon yanglig' har tomonga sochiladi.



To'satdan, oldinda qushday uchib ketayotgan qiz otining boshini qalin saksovulzorga buradi, buradi-yu, Abu Aliga qarab sharaqlab kuladi.

— Balli! Ot chopishni o'rganibsiz, hazratim!

— Yo'q, chavandozlikda sizga bas kelolmaymen, begim!

— Begim dedingiz... — deydi qiz erkanib. Uning bo'taloqning ko'zlariday ma'sum ko'zlari allaqanday charaqlab ketgan, titroq ovozida, xatti-harakatida yaqindagina to'shakdan turgan xasta emas, yo'q, sahronishinlarga xos bir qat'iyat bor. — Bilib qo'ying, hazratim, otam... erta-burun ko'chib ketmoq niyati bor! Siz unga ayting! muolaja fursati tugagani yo'q, deng. Hali bir oy davolamoq darkor, deng, hazratim, bir oy!

Begimdagi hayajon Abu Aliga o'tadi.

— Bir oy emas, bir yil bor, bir yil!..

— Rostmi bu so'zingiz? — deydi begim titrab. Uning yumuq ko'zlaridan tirqirab oqqan yosh tomchilari lovilab yongan yuzini yuvib, bo'yniga yumalab tushadi-yu, tomog'idagi moshdekkina qora xolida turib qoladi. Abu Ali yaqinlashib kelayotgan ot dupurini eshitadi, biroq ko'ziga hech narsa ko'rinmay, otini oldinga niqtaydida, qizning ingichka nozik belidan quchadi. Qiz ko'zini yumganicha cho'g'day issiq yuzini uning yuziga bosadi...

Ot dupuri, vahimali hayqiriq tobora yaqinlashib keladi...

— Bilib qo'ying, hazratim! Siz meni o'lim changalidan xalos qildingiz. Endi sizdan ayrilmoqdan o'lim afzal menga!

Abu Ali qizning pir-pir uchgan sho'rtang lablaridan, yosh to'la quralay ko'zlaridan, tomog'idagi moshdekkina qora xolidan o'padi, shoshib, entikib, yonib o'padi, so'ng... so'ng kimningdir dag'al harakatidan o'ziga keladi. Tepasida... ko'sa yasovul! Uning sarg'ish ko'zlari qisilgan, cho'qmorday qora mushti qattiq tugilgan.

— Sen... tabib emas, bek qizini yo'ldan urish niyati-da yurgan iblis ekansen!

Yasovulning soʻzini:

— Bas! Hakim hazratlarini haqorat qilmang! — degan titroq ovoz boʻladi. Bu — begim. Uning koʻzlarida halqa-halqa yosh!

— Hakim hazratlari? — kuladi yasovul. — Uyatsiz! Dasht havosi bahona, diydor gʻanimat! Qani, otingning boshini orqaga bur, behayo!

Abu Ali garang. U ham koʻsa yasovulga oʻxshab dag-dagʻ titraydi, biroq tiliga hech bir kalima kelmaydi. Yasovul esa, faqat uni emas, begimni ham haqorat qilib soʻkadi, saman yoʻrgʻaning jilovidan olib, orqaga sudraydi. Qiz, hamon kipriklarida halqa-halqa yosh, kanizlar va yasovullar qurshovida, orqaga qaray-qaray uzoqlashib ketadi...

Kapalakdek qoʻnimsiz xotira bu maʼyus manzaradan «lip» etib uchadi-yu, boshqa bir mudhish manzaraga borib «qoʻnadi».

Subhi sodiq. Kechasi bilan mijja qoqmay qovurilib chiqqan Abu Ali tong payti ot dupurini eshitib uygʻonib ketadi. Bu — begimning kanizi bilan ot surib kelgan — Shokalon! Mana shu Shokalon!

— Qarorgohni yov bosdi! — deydi kaniz yigʻlab. — Shoʻrlik bekam! Shoʻrlik bekam!..

— Tez! — deydi Shokalon. — Otinga mingash! Tezroq boʻl, Abu Ali!

Haqiqatan, qayerdandir ovloqdan, bek qarorgohi joylashgan qir tomondan, qandaydir vahshiy hayqiriqlar keladi, «Ur, ha, ur!», «Chop, ha, chop!» degan xitoblar eshitiladi, otlar kishnaydi.

Abu Ali jonholatda Shokalonning otiga mingashdi. Biroq, e voh! Ular oq koʻpikka choʻmilgan otlarini shafqatsiz qamchilab, qarorgohga yetib borganlarida: «Ur, ha, ur! Chop, ha, chop!» degan hayqiriqlar tingan, ot dupuri uzoqlashgan edi. Tepalikda faqat agʻdarilgan oʻchoqlar, tutab yotgan oʻtovlar qolgan, har joy-har joydan ingrangan ovozlari eshitilar, sahroyi bekning sarbozlarigina emas, oʻzi ham chavaqlangan, Boʻtakoʻz begim esa... uning izlari ham yoʻqolgan edi!..

...Ibn Sino goʻyo bu mudhish voqea oʻttiz yil muqad-

dam emas, hozir ro'y berganday, yuragi tinimsiz bezilab uzoq yotdi.

Ajabo, o'shanda taqdir unga kulib boqib, o'z suygani bilan qovushganida nima bo'lardi? Saodat yor bo'larmidi ularga? Yor bo'lganda u hozirgidek «hakimi davron» degan nom chiqararmidi? Tabobat bobida qilgan ishlari, yozgan yuzlab asarlarini yoza olarmidi? Faqat avom emas, hatto jahonni titratgan shohlargacha undan shifo izlab, oldida bosh egib turisharmidi? — dedi o'zicha Ibn Sino, dedi-yu, ichida bir kulib qo'ydi.

«O, Abu Ali, Abu Ali! Donolikni da'vo qilasen, ammo nodonlarning o'yini o'ylaysen! Yoshing ellikka kelganda hamon chirkin shon-shuhrat g'amini chekasen? E voh! Bu dovrug', bu shon-shuhratdan yoshlik chog'larida o'sha dasht sanami bilan o'tgan mas'ud visol onlari afzal emasmidi? Mabodo charx bir aylanib, o'sha betakror onlar qaytib kelsa, qaysi birini tanlar eding? Ul beg'ubor muhabbat damlarinimi yoxud bu bevafo shon-shuhratnimi?»

Ibn Sino kinoyali kulimsiraganicha uzoq sukutga toldi, uning yuragi hamon bezillab og'rur, nazarida, Shokalon aytgan qiz unga yot emas, yo'q, jigarining bir parchasidan bunyod bo'lgan o'z zurriyoti edi!

Yodida bor: bundan o'n-o'n besh yil muqaddam Hamadonda, gumroh Shamsuddavlaning vazirlari to'qigan fisqi fujur sabab, bir bevaning xonadonida yashirilib yotgan chog'larida ham xuddi shunday bir voqea sodir bo'lgan edi.

Eri o'lib, tul qolgan yoshgina, ko'hlikkina bevaning uch-to'rt yashar bir qizchasi bo'lardi. Ibn Sino bevaning tashqi hovlisida turar, beva esa qizalog'i bilan ichkari hovlida yashardi. Avval-boshda beva undan tortinib o'zini olib qochdi, biroq asta-sekin ust-boshiga, uy-ro'zg'or yumushlariga qarashib yurib, o'rganib ketdi-yu, oralarida allaqanday tiniq samimiy bir yaqinlik vujudga keldi. Bu yaqinlikka bevaning uch-to'rt yashar qizalog'i ham sabab bo'ldi. Tili chuchuk, ko'zlari ko'm-ko'k bu qizaloq sal o'tmay uni o'z otasiday sevib qoldi.

Yozda, ayni saraton chog'larida, Ibn Sino Isfahonga

safar qildi-yu, u yerda bir-ikki hafta qolib ketdi. Qaytib kelsa, qandaydir taomdan zaharlangan qizaloq o'lim to'shagida qovurilib yotar, aqli hushini yo'qotib qo'ygan beva esa nima qilishini bilmas edi.

Ibn Sino darhol muolajaga kirishdi. Huqna qildi, har xil dorular berdi. Uning davosidan keyin behush yotgan qizaloqning yuziga qon yugurib, ko'zini ochdi, uni tani-di chog'i, ko'kargan lablarini bazo'r qimirlatib: «Ota! Otajon!» — deb pichirlagan bo'ldi-yu, ko'zini qayta yumdi.

Shu-shu, Ibn Sino qancha urinmasin, qizaloq ko'zini ochmadi.

O'sha kecha, quloqlari ostida bevaning betasalli nolasi, qo'lida jonsiz qizaloq, Ibn Sino hovlida ko'kka tikilib tong ottirdi! Dilida ko'kning qudratiga shubha va isyon, xayolida o'lim va hayot haqida eski notinch o'ylar, u tong otguncha mijja qoqmadi. Keyin esa go'yo begona qizaloq emas, o'z pushtikamaridan bo'lgan jigarbandidan ayrilganday bir necha oygacha iztirob chekib yurdi. Hozir ham... Bo'tako'zbekim!

Ibn Sino osmondan ko'zini uzib, qaddini rostlab o'tirdi. Shokalon patak soqolini tutamlab, hamon o'yma cho'mib yotardi.

— U sho'rlik... Bo'tako'zbekimning qizi...

— Qorako'zbekim, — dedi Shokalon.

— Qorako'zbekim... Isfahonda amir Mas'ud haramida ekani aniqmi?

— Men qaydan bilay, o'g'limning so'zini aytamen, Abu Ali.

— O'g'ling qayda?

— Isfaxon yonida bir g'orni makon qilib ko'ksini zaxga berib, zohidlik qilib yotipti. Ammo bundan ne foyda? Shahar darvozalari berk. Shaharda qora o'lat daydib yurmish!

Ibn Sino bir sapchib tushdi. Rangi quv o'chib:

— Qora o'lat? — deb so'radi.

— Ha, odamlar shunday deydilar. Shaharda qora o'lat boshlanib, ahli mo''minlarni tutdan to'kmoqda emish. Isfahonga hech kim kira olmas, hech kim undan

chiqa olmas emish. O'n ikki darvozaning hammasi taqataq berk emish. Ne chora? O'g'limning yonida bir oy turib, orqamga qaytdim. Mana shu karvon bilan Buxoroga qaytmoq azmida karvonga meshkobchi bo'lib yollandim, Abu Ali.

Ibn Sino soqolini tutamlab bir lahza o'yg'a toldi-yu, to'satdan shaxt o'rnidan turdi.

— Faqir... Isfahonga ravona bo'lamen, istasang birga olib ketamen, Shokalon!

### *O'n oltinchi bob*

Ariz Abulvafo Sariq Teginobod tomon ot choptirib ketgan sarbozlar orqasidan uzoq tikilib qoldi. Sarbozlar sariq parda tutilgan soyabon aravani qurshab olgan aravada G'aznadan kelgan hakimi davron... ibn Sino hazratlari bor edi. Rost, ariz Abulvafo Ibn Sino hazratlarini ko'rolmadi, chunki, avvalambor, hazrat soyabon aravadan chiqmadi, qolaversa, aravada o'tirgan hakimi hoziqning yuziga nechundir qora charm niqob kiydirilgan, niqob ichidan faqat cho'g'day yongan ko'zlarigina ko'rinardi.

Abulvafo Sariq buni arava qo'zg'alib, ipak pardaning bir cheti xiyol ko'tarilganida ko'rib qoldi, ko'rdi-yu, vahima bosib, tirmoqlarigacha muzlab ketdi.

Kecha yuzi g'irt cho'tir, serjahl bir mushrif G'aznadan, vaziri a'zam Ali G'aribdan maxfiy noma keltirdi. Nomada aytilishicha, cho'tir mushrif boshlab boradigan hakim hazratlarini toki Teginobod bozorida jar solinib, odamlarga ayon qilinmaguncha hech bir kimsa ko'rmasligi darkor. Jar solinib fuqaroga ayon bo'lganidan keyin esa, maxfiy mushrif hakimi davronni Abulvafo Sariq ixtiyoriga yetkazadi. Abulvafo esa, hakim hazratlarini zo'r lutfi karam va izzat-ikrom bilan kutib olmog'i, so'ng, Teginobod hokimini bu ishdan bir og'izgina xabardor qilib, G'azna tomon ravona bo'lmog'i darkor!

Abulvafo Sariq garchi hazrat Ibn Sino to'g'risidagi pinhoniylar gapni boshda o'zi chiqargan bo'lsa ham, vaziri

a'zamning maxfiy nomasini o'qib, yuragi uvishib ketdi, chunki Ali G'aribning rejasida Abulvafo o'ylaganidan ham xatarli va mudhish bir narsa bor edi! Lekin faqat bukun, yuziga qora charm niqob kiyib olgan bu noma'lum kimsani ko'rganidan keyingina vaziri a'zam rejasi-ning butun dahshatini his etdi... Ana, soyabon aravani qurshab olgan sarbozlar yaqindagi rabot qo'rg'oni yonidan o'tib, olisdan elas-elas ko'zga chalingan Teginobod qal'asi tomon ot surishdi. Sal o'tmay, soyabon arava ham, uni qurshab olgan sarbozlar ham g'irashira tong qorong'iligida g'oyib bo'lishdi.

Abulvafo Sariq, bir-bir bosib, qir yonbag'riga tikilgan qizil saropardaga qarab yurdi. Bundan bir oy muqaddam, Abulvafo Hamadondan qaytganida atayin mana shu rabotni tanlagan edi. Chunki amiralmuslimin farmoni bilan shaylangan uning maxsus karvoni hech narsaga muhtoj emas, karvonda hamma narsa mavjud — oziq-ovqatdan tortib ot-ulovgacha, qurol-aslahadan tortib kiyim-kechagu xurjun-xurjun oltingacha — hammasi muhayyo edi.

Ariz Abulvafo bir-bir bosib tepasiga zar popuklar taqilgan qizil ipak saropardaga yaqinlashganda undan o'n besh-o'n olti yashar, ko'zlari katta-katta nozikkina bir o'spirin chiqib ta'zim bajo keltirdi. Bu — ariz janoblarining suyuqli g'ulomi edi. Qizil ipak ko'ylak va qizil ipak shalvar kiyib, xipcha belini ingichka kumush kamar bilan bog'lab olgan yosh g'ulom uyatchan kanizlarday nazokat bilan bosh egib:

— Mustahab' qilasizmi, taqsirim? — deb so'radi.

Boshqa payt bo'lganda Abulvafo Sariq suyuqli g'uloming tomog'ini silab erkalagan bo'lardi, lekin hozir ko'ngliga qil ham sig'may:

— Xufiyalar qayda? — deb so'radi.

— Chodir ortida. Taqsirimning xizmatlariga muntazirdurlar.

— Chaqir!

Ariz gapini tugatmagan ham ediki, chodir orqasidan

---

<sup>1</sup> Tahorat.

to'rt nafar qalandar chiqib keldi. Hammalarining ustlarida juldur chopon, boshlarida quloq, qo'llarida aso, yelkalarida xurjun.

Abulvafo Sariq sarg'ish qoshlarini chimirib, ularning yuzlariga bitta-bitta qadalib qaradi:

— Tunda aytgan so'zlarim eslaringda bormu?

Mo'risimon to'rtta quloq bab-baravar egildi:

— Toabad esdan chiqmaydur!..

— Ana! — Ariz qo'lini niqtab, yiroqda elas-elas ko'ringan Teginobod qo'rg'oniga ishora qildi. — Hozir ketgan suvorilarni ko'rdinglar. Darhol orqasidan ot suring! Kecha aytdim, tag'in aytamen: biror xato bo'lib, hakimi davronning izi yo'qolsa, hammangning kallang ketadi! So'zim ayonmu?

Eski kulohli to'rt kalla yana baravar egildi.

— Ayon, valine'mat! Abulvafo Sariq qalandarlar ot surib ko'zdan g'oyib bo'lguncha orqalaridan tikilib turdi, so'ng, chodir panasiga o'tib, tahorat qildi. Odatda, u, bomdod namoziga o'tirishdan avval qarorgohni bir aylanib chiqar, soqchilardan xabar olar, otlar, tuyalar, chodirlar, xullas, maxsus karvonning hamma ikir-chikirlarini bir-bir nigohidan o'tkazar edi. Bugun qarorgohni aylanishga ham hushi bo'lmadi, olisroqda gulxan yoqib, ovqat yeyishga tutingan bakovullarga bir ko'z tashladi-da, horg'in odimlab chodirga kirdi, to'rdagi gilam joy-namozga o'tib, ikki rakat namoz o'qidi.

Mana, yaqin uch oy bo'ldiki, ariz Abulvafo Sariq shu «hakimi zamon»ni deb sarsonu sargardon.

Bundan uch oy muqaddam, tun yarmida uyiga bostirib kirgan ikki mushrif uni issiq to'shagidan ko'tarib, G'uzg'anon qal'asiga olib borishdi.

Osmonni qora bulut qoplagan, sovuq zimiston kecha edi. Atrofi baland devor bilan qurshalgan tosh qal'ada tiq etgan tovush eshitilmas, qat'i ko'hna maqbaraday sovuq va osuda edi. Tor yo'laklarning marmar devorlariga qadalgan tilla shamdonlarda bitta-yarimtagina sham yonar, ularning hazin shu'lasida qasr ichi, garchi zarhal bezaklar va g'aroyib hind paloslari bilan bezatilgan bo'lsa ham allaqanday g'arib va mungli ko'rinardi.

Sulton qasrning eng tupkarisida, devorlari havorang koshinlar bilan qoplangan ulkan chorburchak xonaning to'rida, parqu yostiqlarga suyanib yonboshlab yotar, oldidagi oltin xontaxtada bittagina shaftoli gulli ko'zacha bilan bittayu bitta nozik chiniiy piyola turardi.

Sultonning azaldan qoqsuyak, bo'ychan gavadasi burungidan ham cho'zilgan, saxroyilarga xos keng, suyakdor yuzi sariq charm qoplangan niqobga o'xshar, taralmagan siyrak mosh-guruch soqol-mo'ylovlari paxmaygan, faqat ko'zlari, siyrak qoshlari tagiga yashiringan qiyg'och ko'zlarigina burungiday tiyrak va sinchkov edi.

— Janobi ariz! Faqir sizni katta bir umid bilan chaqirtirdim. Ammo bu umidimni izhor etishdan aval, sizga aytadurg'on boshqa bir so'zim bor.— Sulton cho'gir qovunday so'poq boshini xam qilib, uzoq o'yga toldi. Uning ovozi ham tanish, ham allaqanday notanish, nogiron edi.

— So'zim shulki, faqirni afv eting, janobi ariz! Men sizning qirq yillik sadoqati zohir xizmatlaringizni unutib, behuda ozor berdim... Benuqson parvardigor, bani odam, xoh shoh bo'lsin, xoh gado, oxir pirovardida o'jiz banda ekanmiz...

Yo tavba! Ariz Abulvafo olamni zir titratgan bu fотиhi muzaffarning qo'lida qirq yil xizmat qilib, bunday nogiron va notavon so'zlarni birinchi eshitishi edi!

— Oftobi olam! Oradan neki so'z o'tgan bo'lsa, ayb sizda emas, ayb beadab qulingizdadur!

Sulton «o'tiring», deb imo qildi-da, yana ko'zini yumdi. Uning marjon-marjon terlagan keng yuzi bujmayib, yupqa lablari qattiq qisildi:

— Saltanat g'animlari yomon so'z tarqatganlar... Go'yokim, faqir og'ir dardga chalinganmen, go'yokim tanimdan kuch, belimdan quvvat ketgan emish! — Sultonning uzun qoramtir barmoqlari asta yig'ilib, cho'qmorday mushtga aylandi. — Yolg'on! Ollo taologa ming qatla shukurkim, tan-jonim salomat, to'rt mucham but! Menga o'lim tilagan barcha g'animlarim bilan oshkora kuch sinashga quvvatim yetadur! Ammo...



ko'ksimda bir armonim bor! — dedi sulton va go'yo u bu armon yuragini ezib yuborayotgandek, jundor ko'kragini asta siladi. — U ham bo'lsa... hazrat Ibn Sino degan hakim hoziqni bir ko'rmoqdur!.. Durust, mana, yigirma yildirki, bu takabbur hakim bizga xizmat qilishdan bosh tortib, elma-el qochib yurmish! Ammo men ham shu bukunga qadar u bilan ishim yo'q edi. Agar men ul allomai davronni o'z gulshanimda ko'rishni istaganimda, yetti qavat yerning ostidan bo'lsa ham toptirib keltirar edim! Osmonga chiqsa oyog'idan tortib tushirar edim, yerga kirs qulog'idan tortib chiqarar edim! Endilikda esa... endilikda ko'rmog'im darkor uni! — Sultonning ovozi nogahon momaqaldiraqday qaldirab, ulkan tanobiy xonani yangratib yubordi. Shunday bo'lsa ham ariz Abulvafo sultonning ruhida qandaydir majruhlik borligiga, u to'g'rida shaharda yurgan gaplar, allaqanday vasvas dardiga muftalo bo'lib qolganligi haqidagi mishmishlar haq ekaniga inondi.

G'aznada anchadan beri kezib yurgan bu sovuq mishmishlar sultonning do'stlarini dahshatga solsa, g'animlarini behad shod etmoqda, tarafdorlari ollo dan unga shifo tilasa, dushmanlari tunu kun unga o'lim tilamoqda edilar. Shu tufayli dorus-saltana notinch, hammaning qulog'i saroyda, mash'um xabar tilagida edi. Uning o'zi, bir necha yil avval harbiy devondan chetlashtirilgan Abulvafo Sariqning o'zi ham, shaxsiy ko'shkida har kun, har on bu mash'um xabarni kutib yotardi. Shu boisdan ham sultonning so'zini eshitganda xayoliga kelgan birinchi fikr — qochmoq bo'ldi! Duch kelgan tomonga bosh olib qochmoq va bu ishlar bir taraf bo'lmaguncha yashirinib yotmoq bo'ldi. Biroq sultonning oldidan chiqqach, bu fikrining noo'rirligini tushundi, o'zi ham tushundi, pinhoni kengashga yig'ilgan xeshu aqrabolari ham tushuntirishdi. Birlamchi, qo'l cho'zsa, qo'li mashriqdan mag'ribga yetguvchi bu qora quzg'undan qochib qutulmoq amrimahol, ikkilamchi, hamma narsa olloning irodasiga bog'liq. Ollo taoloning inoyati bilan amiralmo'minin shifo topsa, uning holi ne bo'ladi? Faqat o'zi emas, barcha zurriyotlari, avlodu ajdodlari-

ning ahvoli ne kechadi, degan o'y duch kelgan tomonga bosh olib qochish fikridan qaytardi uni.

Xullas kalom, mana, yaqin uch oydirki, maxfiy elchi Abulvafo Sariq yo'lda, yo'q, yo'lda emas, ikki o't orasida! «O't» so'zi nechundir amir Mas'udni yodiga soldi. Amirning xuddi otasining ko'zlariday sovuq qiyg'och ko'zlari esiga tushdi, quloqlari ostida uning bo'g'i, tahdidli ovozi yangrab ketganday bo'ldi. Darhaqiqat o'ngga yursang ajdahoga duch kelasan, so'lga yursang jahan-namga!

Abulvafo Sariq bu og'ir o'ylardan charchab boshini yostiqqa qo'ydi, qo'yan zahoti pinakka ketgan ekan, bir mahal allaqanday shov-shuvni eshitib, ko'zini ochdi.

Kun peshindan oqqan, saroparda tevaragidagi ko'm-ko'k adirlar bahor oftobining iliq seliga g'arq bo'lgan.

Soyning u yuzidagi Teginobod qo'rg'onlari tomondan bir guruh suvorilar ot surib kelar, ularning orqasida sariq ipak parda yopilgan soyabon arava ko'rinar, aravaning ortida yana bir guruh navkarlar ko'zga chalinardi.

Ana, oldindagi guruhdan sallasiga elchi nishoni qadalgan bir kimsa uzilib chiqib, Abulvafo tomon ot surdi.

«Mushrif! Kecha vaziri a'zamdanda maxfiy noma keltirgan cho'tir mushrif!»

Sallasiga elchi nishonini qadab olgan cho'tir mushrif, og'zi qulog'ida, ot surib kelib, egardan sakrab tushdi.

— Janobi ariz! Siz qidirgan hakimi davron... Abu Ali Ibn Sino hazratlari topilmish! Hazratim Hirot bozorida jar soldirib, nogiron va notavon bandalarni davolab yurgan ekanlar, mana, huzurlariga tashrif buyurdilar!

«Bu ishing uchun befahm kallangdan judo bo'lishingni bilmay tirjayasen, ahmoq!» — dedi Abulvafo ichida, dediyu, har tarafdan yugurishib kelayotgan g'u-lomlar, bakovullar, sarbozlarni ko'rib:

— Hakimi davron... Ibn Sino hazratlarining qadamlariga hasanot! — deb xitob qildi. — yo qudratingdan o'rgulay, parvardigori olam! Bukun Xizr alay-hissalomni yo'qlasak bo'lur ekan. Niyatimiz xolis ekan,

mana, olloga ming qatla shukrkim, Ibn Sino hazratlarini yetkazdi bizga!

U gapini tugatmagan ham ediki, sariq ipak parda yopilgan soyabon arava yetib kelib, ariz janoblarining ro'parasida to'xtadi.

Sallasiga nishon qistirilgan cho'tir mushrif chopqillab borib, soyabon aravaning pardasini ko'tardi.

— Ariz Abulvafo janobi oliylarining qarorgohiga xush kelibsiz, Abu Ali ibn Sino hazratlari! Qadamlariga hasanot!..

Arava zinasida oldin soqol-mo'ylovi endigina sabza urgan xushqomat bir g'ulom ko'rindi. U saroparda oldida jimgina bosh egib turgan izdihomga allaqanday sinovchan nazar bilan tikilib qaradi-da, pardani ochib:

— Marhamat qilg'aysiz, shayx ur-raisi! — deb ta'zim qildi.

Bir oniy sukutdan keyin parda ichidagi parda ochilib, egniga ko'k movut to'n ustidan sutday oq rido kiygan, boshidagi uchli ko'k taqiya ustidan oppoq simobiy salla o'ragan «hakimi davron...» Abu Shilqim ibn Shahvoni ko'rindi. Bir qo'lida saxtiyon jildli yostiqlay kitob, bir qo'lida fil suyagidan jilo berilgan arg'uvoniy aso, Abu Shilqim, arava zinasiga oyoq qo'yib, atrofiga allaqanday viqorli qarash qildi.

Yo'q, bu Malikul sharob kulbasidagi Abu Shilqim ibn Shahvoni emas, moshguruch soqoli o'ziga xo'p yarashgan, butun vajohati — egnidagi movut to'nidan tortib, boshidagi simobiy sallasigacha, qo'lidagi yostiqlay kitob va hatto arg'uvoniy asogacha — butun borlig'ida allaqanday ulug'vorlik muhri zuhur bo'lgan bir donishmand, shayx ur-raisi, desa degudek, chehrasidan nur yog'ilib turgan bir... «allomai zamon» edi! Shundaykim, yig'ilgan raiyat bir zum esankirab qoldi. Faqat hushyor turgan cho'tir mushrifgina:

— Taqsiri olam! — deb «allomai zamon»ga ta'zim bajo keltirdi. — Ul amiralmo'minning o'ng qo'li bo'lmish ariz janoblarining munavvar saropardasiga marhamat qilg'aysiz! Qadamlariga hasanot, taqsirim!

Ibn Shahvoniy joyidan jilmadi. U Abulvafo Sariqning beso'naqay bo'y-basti bilan qo'pol surmarang sallasiga ijrig'anib qarab qo'ydi-da:

— Tashakkur! — dedi miyig'ida kulimsirab. — Ammo faqirga alohida saroparda darkor! Qani saroparda?

Cho'tir mushrif yalt etib arizga qaradi:

— Ha, shayx ur-raisa hazratlariga alohida saroparda tikilmog'i darkor! Alohida!

Shu zahotiy oq bir necha g'ulomlar: «Saroparda! Saroparda!» deb qichqirganlaricha uzoqdagi oq o'tovlar tomon yugurib ketishdi.

Cho'tir mushrif yana «hakimi davron»ga qarab ta'zim qildi:

— Taqsiri olam! Siz hazratimga saroparda tikilguncha ariz janoblarining chodiriga marhamat qilg'aysiz!

— Qadamlariga hasanot! — dedi Abulvafo Sariq beso'naqay qaddini ikki bukib.

Ibn Shahvoniy xushsurat shogirdining yelkasiga qo'lini qo'yib, aravadan tushdi, viqor bilan yerni bir-bir bosib, qizil ipak chodir tomon ravona bo'ldi.

Hamma, hatto Abulvafo Sariqning o'zi ham, martabalariga zid bir shoshqaloqlik bilan orqaga tisarilib, unga yo'l berishdi, yolg'iz sallasiga nishon qistirilgan cho'tir mushrifgina «hakimi davron hazratlari»ni chodirga boshlab kirishga jur'at eta oldi.

«Hakimi davron» Teginobod bozorida jar solinib, olomon olqishiga sazovor bo'lgandan keyin nechog'li o'zgarib qolmasin, cho'tir mushrif nechundir, ehtimol, «hazratlari»ni G'aznadan o'zi olib kelgani uchundir, uni uncha nazariga ilmas edi. Garchi, to'satdan dimog'firog' paydo qilgan «allomai zamon»ning bema'ni qiliqlarini kechirishga majbur bo'lsa ham, ichida undan kular, nazarida, «shayx ur-raisa» bir necha daqiqadan keyin o'ziga kelib, mo'minlashib qoladigandek tuyulardi. Shuning uchun ham to'rdagi olti qirrali xontaxta atrofiga joylashib, duo o'qilgandan keyin, gapni yana cho'tir mushrif boshladi.

U kelgusi ishlarni maslahatlashib olmoqchi edi, biroq endi og'zini ochgan ham ediki, «hakimi hoziq» barmoq-

laridagi qo'sha-qo'sha tilla uzuklarini ko'z-ko'z qilib, oppoq nozik qo'lini ko'tardi.

— Safar haqida hali ko'p so'zlashamiz, janobi mushrif! Biz hakimlar aytamizkim, avval taom, ba'daz kalom! Bilib qo'ying — bu naql ko'p purhikmat naqldur?..

«Hakimi davron» shunday deb, quyiroqda kamtarona bosh egib o'tirgan Abulvafo Sariqqa yuzlandi:

— Faqirni kechirgaysiz, janob ariz, biz hakimlar tanovulga kirishishdan avval dasturxonga tortiladurg'on taomlarni bilmog'imiz darkor...

— Sho'rvai, — dedi Abulvafo Sariq, — sho'rvai sher nomi bilan dong chiqargan xo'roz sho'rvai, hazratim.

— Bu shunday sho'rvai! — dedi cho'tir mushrif. — Ichgan xo'roz bo'lur, ichmagan makkiyon!

— Borakallo! Ming makiyondan bir xo'roz a'lodur! — dedi «hakimi zamon», — Zotan, tabobatda xo'roz go'shti ming bir baloga davodur. Yana?

— Kabob! Emchakdan uzilmagan barra qo'zichoqning jigaridan qilingan tandir kabob, hazratim. Archa ko'mirida pishirilgan.

— Balli! Archa ko'mirida pishirilgan bo'lsa, yomon bo'lmas. Xo'sh, endi, maydan so'zlang, janobi ariz!

— May!

— Ha, may! — «Hakimi davron» chiroyli qaychilangan mosh-guruch soqolini silab, to'satdan qah-qah otib kuldi. — Yo ariz janoblari umrida sharob ichmaganlarmi, yo sho'rvai sherdan boshqa ne'matni iste'mol qil-maganlarmi?

Mushrif ham «hakimi davron»ning kulgusiga qo'shilib qah-qah otib kuldi.

— O, siz janobi arizni bilmaysiz, hazratim! Yoshlikda ariz janoblarining saroyida bo'lgan gulgun o'ltirishlari bu o'ltirishlarni bezagan nutriblar, malikul kalomlar! Daryo yanglig' oqqan sharobu guloblar!..

— Nozaninlar-chi? Yo xo'roz sho'rvani tanovul qilib makiyonlardan qochganlarmi, ariz janoblari?

— O, siz ariz janoblarining kanizlarini ko'rmagansiz, hazratim! — dedi cho'tir mushrif va barkash ko'tarib kirgan bakovullarni ko'rib:

— Boda! Bir xum boda! — deb buyurdi.

Zum o'tmay, o'rtadagi olti qirrali xontaxta yuz xil nozi ne'matlarga to'ldi. Nafis kumush taqsimchalarda po'sti yupqa g'alvirak bodomlar, xurmo va pistalar, qora mayiz va ko'k kishmish, qaymoqqa qorilgan issiq patirlar, somsa va bedana qovurdoqlar, bug'i burqirab turgan sho'rvai sher, qo'yingki, olamda neki ne'mat mavjud, hammasi muhayyo bo'ldi.

«Hakimi davron» cho'tir mushrif tutgan piyolani bir ko'tarishda bo'shatdi-da, ariz Abdulvafoqa qarab:

— Ming afsuski, janoblari faqirning kitoblarini mutolaa qilmabsiz! — dedi qo'sha-qo'sha tilla uzuklar bilan bezalgan oppoq qo'lini tizzasidagi yostiqlay kitobga qo'yib, — faqir bani bashar g'amida tunlarni bedor o'tkazib, bunday bebaho kitoblar bitdim. Bani odam esa, bu noyob durdonalardan benasib, ya'niki, donolar fikridan bexabardur. Agar bahramand bo'lib, bu bebaho durdonalardan boxabar bo'lg'oningizda bilur edingiz: yaxshi sharob ham go'zal nozanin kabi olloning bebaho ne'matidir! Shunday ne'matim, bu ne'matni iste'mol qilmoq gunoh emas, bil'aks, uni iste'mol qilmaslik gunohi azimdir! Alxusus, sho'rvai sherdan keyin. Yo janoblari bu bebaho ne'matni iste'mol qilish baxtidan mosuvodirlarmi? Mosuvo bo'lsalar davosini qilurmiz!..

«Hakimi zamon» bilan cho'tir mushrif barobar qahqah otib kulishdi. Abulvafo Sariq esa, hamon sigirning ko'zlariday sarg'ish ko'zlarini lo'q qilib o'tirar, aftidan, u «hakimi davron»ning tagdor so'zlarini hanuz yaxshi ilg'ab ololmas edi.

— Bas! — «allomai zamon» to'satdan shogirdiga yuzlandi. — Biz o'z istaklarimizni qog'ozga bitib bermasak, ariz janoblari tushunmas ekanlar. Qalam-qog'ozingni ol. Oldingmi? Yoz!.. Avvalambor, har laylu nahor tog'ohusi sutidan olingan bir kosa qaymoq muhayyo qilingay!

Abulvafo Sariq ma'sum ko'zlarini javdiratib, cho'tir mushrifga qaradi.

— Tog'ohusi?

— Ohu emas, sut! Ya'niki, ohu sutidan olingan qay-

moq! Yo umrida qaymoq tanovul qilmaganlarmi janobi ariz?

— Qilganmiz, taqsir, qilganmiz, ammo... tog' ohusi?

— Nechun ajablanasiz, janobi ariz? Yo amiralmo''mininning viloyatlarida tog'lar yo'qmi?

— Bor, taqsirolam!

— Yo bu tog'larda ohu yo'qmi, janobi ariz?

Bu safar Abulvafo Sariq o'rninga cho'tir mushrif:

— Ofarin! — deb xitob qildi. — Sizday allomai zamon uchun ohu suti uyoqda tursin, anqoning urug'i desangiz ham muhayyo qilurmiz, hazratim!..

— Borakallo, inim!.. Balx tutining sharbati!

Abulvafo Sariq ko'zlari piriqirab:

— Hirot tutining sharbati bo'lsa-chi? — deb so'radi: — Ya'niki, Hirotida payvand qilingan Balx tutining sharbati!

— Yo'q, yo'q! Balx tuprog'ida o'sgan Balx tutining sharbatidan boshqa sharbat iste'mol qilmaymen!..

— Bosh ustiga! — dedi cho'tir mushrif, hayrat to'la ko'zlari chaqrab.

— Peshinga... Bodom yog'ida qovurilgan ohu bolasining go'shtikim, unga kiyik o'ti bilan rayhon talqoni, zira va qoraqat urug'i solinmog'i darkor!.. Yodingizda bo'lsin, bu giyohlardan birortasi bo'lmasa bir chaqirim yiroqdan sezib olamen!..

— Bosh ustiga, hazratim!

— Kechki taom yengil bo'lmog'i darkor! Bir juft bedana kabob bilan boya aytgan xo'roz sho'rvakim, bu sho'rvani nozik bir makiyon bilan, ya'nikim, onasi o'pmagan yosh malak bilan birga baham ko'rsak nur ustiga nur bo'lur!

— Tasanno hazratim, tasanno! — qichqirdi cho'tir mushrif mastona ishshayib. Abulvafo Sariq esa, boshidagi beso'naqay sallasi bir tomonga og'ib, bir nuqtaga tikilib o'tirar, u xuddi piri murshidi oldida dovdirab qolgan muridga o'xshardi.

Qiziq, boya ertalab, yuziga niqob kiygan bu kimsani tasodifan ko'rganida ko'ngliga yopirilib kelgan shubhalar endi, «hakimi davron»ning g'aroyib talablaridan keyin

tamom tarqab ketdi. «Hakim hazratlari»ning talablari ortib borgan sari, ajabo, ariz janoblarining qalbidagi hurmat-ehtirom ham ortib borar, faqat bittayu bitta talabi, ya'niki, onasi o'pmagan malak to'g'risidagi talabi uni xiyol dovdiratib qo'ygandi.

— Shayx ur-ra'is hazratlari faqirni avf etsinlar, — dedi ariz qo'rqa-pisa. — Mavlonoi zamon aytgan ul jannatiy malak... har kuni yangisi bo'lmog'i darkormi yoxud...

— O, janobi ariz! Koshkiydi, har kuni yangisi bo'lsa!.. Bu ne'matning yangisiga ne yetsin taqsim? — «Hakimi davron» yana boyagiday qah-qah otib kuldi-yu, to'satdan nimadir esiga tushib, kulgusini tiydi. — Ha, inchunin, kamina eshitgan edim... Buxoro hokimi amir Aliteginning suyakli kenja xotini Teginobod qal'asida asira deb eshitgan edim!

Ariz ko'zini lo'q qilib cho'tir mushrifga qaradi.

— Amir Aliteginning suyakli xotini?

— Ha, ul oftobi olam sulton Mahmud bundan uchto'rt yil muqaddam, Buxoroi sharifga yurish qilganida amir Aliteginning suyakli xotini bilan erka qizini asir qilib olib ketgan emishkim, eshitishimcha, bu go'zal mahbuslar Teginobod qal'asida emish. Ehtimol, ularni toptirib kelursiz?

— Yo'q, yo'q, chorasi yo'q buning! — dedi ariz qo'rqib ketib. — Birlamchi, go'zal asiralar Teginobodda emas, boshqa joyda saqlanur! Ikkilamchi, ular amiralmo'minning qattiq nazoratidadur!

— Ofarin sizga, janobi ariz! — «Hakimi zamon» uchinchi piyola sharobni sipqarib, chiroyli mo'ylovini siladi. — Go'zal asiralar olampanohning nazoratida bo'lsa, olampanohning o'zlari, erta-indin, faqirning nazoratiga tushgusidir. Chumchuqday joni kaminaning qo'lida bo'lg'usidir! — dedi «hakimi davron», dedi-yu, to'satdan ko'zlari baqrayib bo'sag'aga qarab qoldi.

Saroparda bo'sag'asida, qo'lida nozi ne'mat to'la kumush barkash, Abulvafo Sariqning yosh g'ulomi turar, uning qizlarning ko'zlariday qop-qora serkiprik ko'zlari hayo bilan yerga tikilgan edi.

— Kel, yulduzim, tortinma, kelaver, oppog'im!



Ko'zlarindan og'ang aylansin! — dedi «allomai zamon», og'zining tanobi qochib. — Sizlarga ruxsat, janobi ariz va janobi mushrif! Faqir dam olmog'im darkor! Xizmatimga shu chehrai shamsni qoldirsangiz bas. Sizlarga ruxsat, birodari azizlar!

Abulvafo Sariq najot so'rab mushrifga qaradi.

— Bul yosh g'ulom...

— Daf bo'l ko'zimdan! — ibn Shahvoniy qo'lidagi piyolani xontaxtadagi kumush barkashga qarab otdi. — Kimsan, «hakimi davron Ibn Sino hazratlari»ga so'z qaytarmoq!.. Ko'zimdan yo'qol, miyasi aynigan tentak!

Abulvafo Sariq boshidagi, beso'naqay sallasini to'g'rilab, bir narsa demoqchi bo'ldi, biroq cho'tir mushrif uning qo'lidan «shap» ushlab, tashqariga sudradi.

— Vazmin bo'ling, janobi ariz, vazmin bo'ling!

«Allomai zamon», ya'niki Abu Shilqim ibn Shahvoniy ularga qayrilib ham qaramadi. U shirkayf ko'zlarini mastona suzib, yosh mahramni yoniga tortardi.

Abulvafo Sariq, xuddi bo'talog'idan ayrilgan katta tuyaday, orqasiga qaray-qaray chodirdan chiqdi.

## *O'n yettinchi bob*

### 1

Beruniyni «Qal'ai qahr»dan olib chiqqan Abu Nasr Mishkan uni o'z navkarlari bilan to hovlisigacha kuzatib qo'ydi. Xayrlasharkan, saroydan shu bugunoq choparlar kelib, uni olib ketishini, sulton bilan uchrashishga hoziru nozir bo'lib turishini tayinladi.

Eshikni Sabhu ochdi, ochdi-yu, ustodni ko'rib, salomlashish o'rniga turgan joyiga tiz cho'kdi, goh nigohini osmonga tikib, goh yer o'pib, ko'kka tavallo qilishga tutindi. Azaldan qop-qora, ozg'in yigit, u burungidan ham ozib, cho'p bo'lib qolgan, g'am cho'kkan ko'zlari ichiga botib, so'nayotgan shamday miltirab turardi. Beruniy Sabhuni o'rnidan turg'azib hovliga kirdi. Hovliga suv sepilgan, ariq bo'ylariga gul va rayhon nihollari o'tqazilgan, hammayoq saranjom-sarishta edi. Lekin

Beruniyga nimadir yetishmayotganday tuyulib, Sabhuga qaradi.

— Sadafbibi qayda?

— Sadafbibi... bibim!— Sabhu eshik tutqichini qo'yib yuborib yana turgan joyiga tiz cho'kdi-yu, peshonasini yerga gurs-gurs urdi. — Bibidan ayrilib qoldik, ustod. Ayrilib qoldik!

— Qachon?

— O'shal... siz hibsga tushgan kuni tunda... to'rt nafar sarbozlar bostirib kelib, soyabon aravaga tiqib olib ketdilar.

Beruniy devorga suyanganicha uzoq turdi. Bu sovuq xabarni eshitishi bilan negadir esiga lop etib Piri Bukriy tushdi. Nigohi oldiga qorong'i yerto'la keldi, yerto'la-ning burchagida ulkan qora kalamushday g'imirlab, yum-yumaloq qutichani topib chiqqani, uning ichidagi beba-ho javohirni ko'z-ko'z qilib, Sadafbibini so'rab yalinib-yolvorganlari xayolida jonlandi-yu, a'zoyi badanini sovuq ter bosdi. O'sha! Bukriy! Biroq... bukri bo'lsa, Sabhu aytgan sarbozlar qaydan keldi? Yo'q, tunda bostirib kelish faqat saroy sarbozlarining qo'lidan keladi! Lekin unday desa... nahot sulton, harami to'la kaniz, ishq shu sho'rlik joriyaga tushgan bo'lsa?

Ehtimol, bu jumboqni Malikul sharob yechib berar? Ehtimol, bu sirdan voqifdur u, dedi Beruniy. Biroq Sabhu uning bu umidini ham chil-chil sindirdi. Ma'lum bo'lishicha, Beruniy hibsga tushgan kunlari Malikul sharob ham zindon qilingan, buning sababini ham hech kim bilmas, birovlar shakkoklik qilib, sultonga qarshi gapirgan, desa, birovlar uni zindonga tashlagan sulton emas, vaziru vuzaro deyishardi!..

Sadafbibidan judo bo'lgan faqir kulba xuddi shamsiz hujraday xiralashib, huvillab qolgan edi. Beruniy o'zi ham endi bildi: uning kulbasini to'ldirib, oftobday yashnatib turgan Sadafbibi ekan. Qizning kulgu arimaydigan kulcha yuzi, xorazmcha sal chuchuk tili, birda sho'x, birda mungli, ammo yoqimtoy qo'shiqlari ekan!

Ne qilmoq kerak? Qaydan qidirmoq kerak? Bu ishda Xatlibegimdan boshqa biror kimsadan najot kutish qiyin

edi. Shu boisdan Beruniy, garchi bu o'ktam, shaddod xotinga ro'baro' bo'lishdan yuragi bezillasa ham, Abu Nasr Mishkan aytgan choparlarni sabrsizlik bilan kuta boshladi. Biroq sohibi devon aytgan choparlardan nechundir darak yo'q edi.

Beruniy garchi uydan chiqmasa ham shahardagi tahlika battar kuchayganini, saroyda boshlangan pinhoni kurash battar avj olganini payqar, shuning uchun ham birda choparlarning kelmaganidan suyunsa, birda shahardan bosh olib chiqib ketgisi kelar, ammo Sadafbibi bilan Malikul sharobning taqdiri uni bu fikrdan qaytarar edi.

Beruniy ularni qutqarish choralarini o'ylab, xayolan ming bir ko'chaga kirib chiqar, biroq hech bir chora topolmay ko'ngli xufton bo'lardi-yu, bu tizginsiz o'ylar girdobidan qutulish umidida goh «Hindiston»ni qayta qo'lga olib, uni yangi sahifalar bilan to'ldirar, goh «Qal'ai qahr»da xayoliga kelgan ixtironi nihoyasiga yetkazish umidida rasadxonaga yo'l olardi.

Rasadxona «Gardiz» qal'asidan beriroqdagi «Ko'hsheer» cho'qqisining tepasida bo'lib, uni bundan o'n ikki yil muqaddam, Hindiston safaridan avval Berunif o'zi bosh bo'lib qurdirgan edi. Ikki oshyonali muazzam binoning yuqori qavatida sayyoralar harakatini kuzatuvchi murakkab olatlar joylashgan, xona devorlariga taqvim va jadvallar osilgan. Birinchi qavatda esa ilmiy anjuman va mushoiralar uchun maxsus xonalar, sultonga atalgan doston va qasidalarni ko'p nusxalarda ko'chiruvchi husnixat xattotlar uchun qurilgan shinam hujralar bor. Ilgari, rasadxona qurilgan dastlabki yillarda sulton bu yerga ko'p kelar, kechalari u murakkab olatlar yonida o'tirib, munajjimlar bilan sirli suhbatlar qurishni, ayniqsa, nazm bo'stonlarining bog'lonlari bitgan doston va qasidalarni eshitishni yaxshi ko'rardi. Keyin xushxat hattotlar sultonga yoqqan eng dabdabali qasidalarni yuzlarcha nusxalarda ko'chirib, qo'l ostidagi barcha hokimlarga, elchilar orqali esa xorijiy ellarga sovg'a qilib jo'natardi. Lekin keyingi yillarda, sulton dunyoviy ishlardan sal o'zini tiyib, taqvoga yuz tutgandan buyon, ayniqsa kasalga

chalinib, dabdabayu as'asalardan ko'ngli sovigandan beri rasadxonadan fayz ketgan, ko'p allomalar ham qadamlarini tiygan, faqat kekxa munajjim mavlono Abu Tolib Farruxiy bilan shoir Ziynatiy, yoshlardan esa salohiyatli tarixchi va noyob xushxat sohibi Abu Fazl Bayhokiygina hamon kelib-ketib turishardi.

Beruniy ilgari ham ko'p vaqtini rasadxonada o'tkazar, uning tinch, osuda xonalarida o'tirib, mutolaa va mushohada bilan shug'ullanar, bu ishlardan charchagan chog'larida esa, o'z hamkasb birodarlari bilan ilmi nujum, handasa va falsafa haqida suhbat qurishni yaxshi ko'rardi. Mana endi ham aziz do'sti Malikul sharob bilan Sadafbibidan ayrilib, o'zini qo'yadigan joy topolmay qolgan bu og'ir kunlarda ham rasadxona uning joniga ora kirdi. U rasadxona ustaxonasiga maxsus dastgoh o'rnatib, «Qal'ai qahr»da xayolan ixtiro qilgan g'aroyib olatni yasashga kirishdi.

Obdasta shaklida yasaladigan bu olat va uning tuzilishi Beruniyning kallasida obdan pishgan edi, biroq shunday bo'lsa ham, bu ixtiro uni ko'p qiynadi. Ayniqsa, obdasta jo'mragi tagiga o'rnatiladigan tarozuni yasash mushkul bo'ldi, chunki bu tarozu haqiqatan ham nihoyatda «sezgir», ya'ni, bir misqolning yuzdan birini ham aniqlay olishi lozim edi. Shundaykim, suv to'la obdastaga solingan ma'dan o'z hajmi barobar suv tomchilarini siqib chiqarganida «nozik tarozu ma'dan og'irlig'ini, to'g'rirog'i, ma'dan og'irlig'ining siqib chiqarilgan suv og'irlig'iga nisbatini aniqlamog'i lozim. Bu nisbat, o'z navbatida, oltin og'irlig'iga nisbatan solishtiriladi va shu yo'sin tabiatda neki ma'dan bo'lsa, hammasining solishtirma og'irlig'ini aniqlash niyati yaraladi!..

Beruniy avval bu «nozik» tarozuni topish umidida rastama-rasta yurib, hamma tanish zargarlarni aylanib chiqdi, Piri Bukriydan boshqa hamma attorlarning tarozularini ko'zdan kechirdi, biroq o'zi istagan «sezgir» tarozuni hech kimdan topolmadi. Hatto xazinadorlarning oltin tarozulari ham u tilagan darajada «nozik» emas edi!.. Ammo Beruniy ko'p qiynagan bu muammoning yaxshi tomoni ham bor — u fikrni chalg'itib,

ko'nglida zil bo'lib yotgan og'ir o'ylarni xiyol tarqatar edi. Shu boisdan Beruniy bir necha kun kechayu kunduz rasadxonadan chiqmadi. Bugun bir lahza orom olish umidida shahar hovlisiga kelgan edi, g'am-anduhda yurgan Sabhuni ko'rib tag'in ko'ngli g'ash bo'ldi-da, yana tong otguncha ish bilan o'zini chalg'itdi. Tong payti o'tirgan joyida ko'zi ilingan ekan, Sabhu kirib uyg'otdi.

## 2

Tashqarida to'rt nafar navkar ot o'ynatib turar, ular orasida boshiga ko'k salla o'rab, ustiga ko'k movut to'n kiygan sohibi devon ko'rinar.

Tong yaqin, tevarak-atrofdan xo'rozlar qichqirar, itlar hurar, goho-goho eshaklar hangrar, lekin osmon hanuz yulduzga to'la, zodagonlar dahasining har joy-har joyiga o'rnatilgan toshfonuslar hanuz o'chirilmagan edi.

Afshon soy yoqasidan tasir-tusir ot surib ketayotgan suvorilar Bog'i Mahmud qo'rg'oniga yetgach, xuddi bir narsani yo'qotganday, bir on tapir-tupur qilib turishdi-da, chap qo'ldagi Ko'shki davlat saroyiga emas, o'ng qo'lga, shahar tashqarisiga qarab burilishdi. Sal o'tmay soyning u yuzidagi uylar, rastalar, do'konlar, machit va karvon-saroylar orqada qolib, oldinda bir-biriga tutashib ketgan yassi qirlar ko'rindi, qirlar ortida «Mozori kalon» qabristoni machitining tillakori gumbazi yarqirab ketdi.

Beruniy hayron bo'lib, yonida ot choptirib borayotgan sohibi devonga qaradi. Devon boshlig'i ko'zini yumib, ma'yus bosh chayqadi: «Sabr qiling, mavlono!»

Zum o'tmay, qabriston qo'rg'oni ham o'ngda qolib, oldinda qalin archazor qirlar ko'rindi. Dimoqqa yosh archa va yovvoyi giyohlarning nozik bo'yi gup-gup urdi, so'ng, qirlar orasida keng sayhonlik namoyon bo'ldi. Yosh archalar bilan qurshalgan bu sayhonlik o'rtasiga xuddi mo'jaz tilla qasrni eslatuvchi sap-sariq ipak saroparda tikilgan edi. Saropardadan yiroqroqda na bir chodir ko'rinar, na chodir atrofida g'imirlab yurgan allaqanday soyalar ko'zga chalinardi. Archazor suv quygandek jim-jit, ovloqdagi qabriston kabi mungli sukutda edi...

Sohibi devon, navkarlar yordamida otdan tushib, uvishib qolgan oyoqlarini uqalarkan:

— Mavlono,— dedi allaqanday yolvorib.— Olampanohning ahvoli og'ir. Ne istak bildirsa yo'q demaysiz, azizim!

Shu payt qarshidagi ipak saropardadan to'pig'igacha qora libosga o'ranib, yuzini qora durra bilan to'sib olgan novcha bir ayol chiqib, yuzidagi durrasini sal ko'tardi.

— Assalomu alaykum, mavlono!

«Xatlibegim?»

Xatlibegim, qora durrasini qayta yuziga tortib, sohibi devonga yuzlandi:

— Kechagi so'zim yodingizdadur? Bu suhbat pinhona qolmog'i lozim! Fursat ziq, tez kiring, taqsirim! Men sizlarni Osmon malikasi saroyida — o'z xosxonamda kutamen!..

Xatlibegim shunday dedi-da, oyoq ostidagi mayin giyohlarni ship-ship bosib, archazor orasiga kirib ketdi.

Beruniy beixtiyor yuragi uvishib, sohibi devon orqasidan saropardaga kirdi. Bittayu bitta sham yoqilgan yuz kishilik ulkan saroparda bo'm-bo'sh va nimqorong'i edi. Saropardaning chap tomonida, baland qilib to'shalgan oq kigizlar ustidan boshiga qora telpak, egniga uzun qora jun chakmon kiygan bir odam... (Yo rab! — bu odam sulton Mahmud G'aznaviy edi) uzala tushib yotardi!

Saropardada odatdagi zeb-ziynatlardan asar ham yo'q, sultonning kiyim-boshidan tortib, yerga to'shalgan kigiz, mustahab uchun qo'yilgan jom va qumg'onlar, hammasi eski va allaqanday g'arib edi...

Sulton saropardaga kimdir kirganini sezib, o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ldi, biroq Abu Nasr Mishkan janoblari chaqqonlik bilan pildirab borib, boshi ostidagi yostiqlarni ko'tarib qo'ydi. Sulton o'ymoq tagidagi simobday miltiragan ko'zlari bilan Beruniyga bir on sinovchan tikildi, so'ng: «Yaqinroq kel!» deb imo qildi-da, ko'zini yumdi.

— Mavlono Abu Rayhon! Ne chora, hammamiz ham oqiz bandamiz. Chumchuqday jonimiz yaratguvchining hukmidadur. Va lekin... xudovandi karim ko'nglinga bir

armon solmish, ul ham bo'lsa... Ibn Sino hazratlarini bir ko'rmoqdur! — Sulton siyrak kipriklari orasidan sizib chiqqan ko'z yoshini «qult» etib yutindi-da:

— Ollo shohid! — deb xitob qildi. — Ollo shohid, bu armonni ko'nglimga yaratguvchim o'zi solmish! Bas, sizni chaqirmoqdan murodim shulkim, bu so'nggi armonim o'zim bilan birga go'ringa ketmagay!

Sohibi devon shosha-pisha cho'ntagidan dastro'molini olib ko'ziga bosdi.

— Davlatpanoh! Inshoollo, niyatingiz mustajob bo'lur. Ariz Abulvafo Sariqdan xabar keldi: Ibn Sino hazratlarini olib, bir hafta burun Teginoboddan chiqqan emish. Mana, mavlono Abu Rayhon ham bukun yo'lga chiqar, ul zoti sharifni qarshi olib, tezda G'aznaga yetkazadur.

«Yo tavba! Nahot bu so'zlar rost bo'lsa? Nahot Abu Ali, yigirma yildan buyon sulton Mahmudga xizmat qilishdan bosh tortib, musofir yurtlarda darbadar kezib yurgan Abu Ali endi G'azna tomon yo'l olgan bo'lsa? Nahot Abu Rayhon u bilan diydor ko'rishmoq baxtiga muyassar bo'lsa?

Sulton Beruniyning yuzida aks etgan hayajonni boshqacha tushundi, chog'i:

— Faqirni afv eting, mavlono, — dedi chuqur xo'rsinib. — Tunov kuni jahl ustida sizga qattiq ozor berdim. Ne chora — saltanat yumushlari shunday ekan-kim, taxt sohibi birda o'z fuqarosining boshini silasa, birda qattiqqo'l bo'lmoqdan boshqa chora yo'q ekan!

Beruniyning dilida bir zum «yarq» etib yongan sham qayta so'ndi. Uning qalbida qat-qat bo'lib yotgan tug'yonlar, uyqusiz tunlarda sultonga aytishni armon qilgan so'zlar lop etib qayta esiga tushdi. Yoshlik chog'larida, adolatsiz ishlardan yuragi lovillab yongan paytlarida Beruniy bu so'zlarni sulton bilan yuzma-yuz turib gaplashishni orzu qilar, ustodi Abdusamad avval kabi dor tagida turib bo'lsa ham ko'nglidagi dardlarini tap tortmay aytish umidida yurardi. Mana, o'sha damlar keldi, yuragida yig'ilgan hamma dardu sitamlari, hamma alam, hamma isyonlarini to'ksa arziydigan qasosli onlar

keldi. Va lekin... boshiga oltin toj o'rniga eski qalpoq, egniga zarrin libos o'rniga qora chakmon kiyib, eski kigiz ustida uzala tushib yotgan bu g'arib sulton!.. Uning quduq tagidagi bir tomchi simobday miltiragan mungli ko'zlari!..

— Subhonollo! So'zimga inoning, allomai davron! Osiy banda qilgan gunohlarimni bilamen. Shu sababdan, mana, go'ristonga keldim. Niyatim — valilar qabrini tavof aylab, ularning ruhini shod etmoqdur? Qaysiki bandai mo'minning ko'ngliga nohaq ozor bergan bo'lsam, ahdim — barchaning ko'nglini ovlamoq, mulkiga xiyonat qilgan bo'lsam, o'n barobar ko'proq qilib qaytarib bermoqdur. Zero, faqirdan jabr ko'rgan har bir bandai mo'min kaminaning gunohidan o'tib, uni afv etgay!.. Mana, sohibi devon shohid! Uch kun muqaddam shahri Tusga yana bir tuya oltin, bir tuya kumush yo'lladim. Murodim — ul malikul kalom... Abulqosim Firdavsiy hazratlarining maqbarasiga marmar sag'ana o'rnatib, tavallud topgan shahrida yana bir masjidi jome qurdirmoqdur!..

«Yo parvardigor! Bu insof, bu afsus-nadomatlarni bu g'ofil bandangning ko'ngliga o'ttiz-qirq yil muqaddam solsang bo'lmasmidi? Nechun faqat umrining so'ngida, ko'ziga Azroil alayhissalom ko'ringanda insofu adolatga keltirding bu qahri qattiq bandangni?»

Sulton Beruniydan javob kutib, bir daqiqa sukut saqladi, so'ng yana o'sha mahzun ovozda davom etdi:

— Sizga yolg'on, olloga rost, mavlono! Mana, o'n yildirkim, men ul nazm sultoni Abulqosim Firdavsiyni ranjitganimdan pushaymonmen! Nechun o'shanda ul malikul kalomni o'z qanotimga olmadim, nechun ichiqora vazirlar so'ziga kirib, uni G'aznadan haydadim? Nechun yozgan kitobini olib, boshidan oltinu javohir sochmadim?

Sultonning ovozi to'satdan tizginsiz bir o'kinch bilan yangrab ketdi-yu, Abu Nasr Mishkan quyilib kelgan ko'z yoshlarini qult-qult yutib:

— Oftobi olam? — deb zorlandi. — Bu ishda pushaymon chekmang! Agar Abulqosim Firdavsiy, — ollo unga



ravzai rizvondan joy ato qilgay! — o'sha daqiqada takabburlik qilmay, sizday amiralmo''mininga izhori ixlos etganida, agar nazm ahli baxillik qilib, sizday olampanochni chalg'itmaganida... siz bu ishni qilmas edingiz?..

— Tashakkur, azizim!

Beruniy indamay boshini xam qildi. Shu zahotiyog Afshon shod dahasidagi eski hammom ko'z oldiga keldi. Hammom to'la kafangado shoirlar, mutriblar, miskinu majruhlar o'rtasida, bir qo'lida kosa to'la kumush tanga, bir qo'lida may, bo'y-basti kelishgan, sersoqol, serjahl bir mo'ysafid turar, u ust-ustiga qadah ko'tarib, kosadagi kumush tangalarni hovuchlab osmonga otar, biroq yerga daranglab sochilgan tangalarga hech kim qaramas, hamma uning ulug'vor vajohati va isyonkor so'zlariga mahliyo bo'lib qolgan edi:

— Nazm sultoni atalmish kamina ham «Shohnoma»ni yozguncha senlar kabi gado edim! Bukun «Shohnoma»ni yozib tugatganimda ham o'shandayin gadomen!.. Mana, «Shohnoma»ning pulini olinglar! Yarmini senlarga, yarmini sulton G'aznaviyning o'ziga in'om etamen. Toki, ul sohibqiron hindlar yurtiga yurish qilib, g'aznasi bo'shab, kambag'al bo'lib qolmishlar!

Sersoqol, serjaql shoir shunday deb, yana bir siqim tangani osmonga otadi, yerga tushgan kumush tangalar allaqanday sho'x jaranglab, har tomonga yumalab ketadi. Bu sho'x darang-durungni miskinu majruhlarning xurram qiyqirig'i bosib ketadi:

— Ofarin, ustod!

— Yo'q, siz gado emas, gadolar pirisiz! Ustod!

— Piri emas, shohi de, tentak, gadolar shohi!

Bu voqeani eslashi bilan Beruniyning yodiga negadir malikul sharob tushdi-yu, endi og'zini ochmoqchi bo'lgan edi, amiralmo''minin uning so'zini bo'ldi:

— Ibn Sino hazratlariga yetkazgaysiz, mavlono! Ul zoti sharif G'aznai munavvarada eng yuksak ikrom topg'usidir. Saroyga tashrif buyurgan kuni vazni barobar oltin in'om etamen. Tabarruk boshidan jom-jom dur va

javohir sochamen! G'aznaning eng bahavo joyidan marmar qasr qurib, haramimdan istagan kanizini sovg'a qilamen!..

«Ajab dunyo ekan bu dunyo! Kuni kecha butun ro'yi zaminni zir titratgan, arkoni harb va arkoni davlat oldida ilm ahlini sariq chaqaga olmagan bu mag'rur shoh bukun Ibn Sinoning oyog'iga yiqilmoqqa rozi! Haqiqatan... al-qassosil minalhaq! Haqiqatan qasosli dunyo ekan bu dunyo!»

— Ko'nglingiz to'q bo'lsin, mavlono! Ibn Sino hazratlari qanday martabaga erishsa, siz ham shunday martabalarga erishursiz!..

Beruniy Malikul sharob to'g'risida gapirish mavridi kelganini sezib, ta'zim qildi:

— Bu yaxshiligingizni toabad unutmaymen, davlatpanoh! Ammo... bir qoshiq qonimdan kechsangiz... sizga bir iltimosim bor!

— So'zlang, mavlono!

— Iltimosim shulki... davlatingiz soyasida Malikul sharob degan bir g'arib shoir bor.

— G'arib emas... shakkok mayparast ul! Xo'sh?

— Kaminani kechirgaysiz, davlatpanoh! Ammo... bilimam nechun, keksalik manziliga qadam qo'ygan bu nogiron shoirmi kimlardir zindonga tashlabdur. Uning keksaligi hurmati...

Sulton yotgan joyida betoqat qimirlab, qoqsuyak qo'lini ko'tardi.

— Boshqa paytda arzingiz inobatga o'tmas edi, mavlono! Zerokim, ul betavfiq mayparast... Xo'p! Mavlononing arzi yerda qolmasin. Farmon yoz, Abu Nasr!

Beruniy ikki qo'lini ko'ksiga qo'yganicha orqasi bilan yurib, saropardadan chiqdi, chiqarkan: «Sadafni ham so'rab-surishtirsam bo'lur edi», degan fikr ko'nglidan o'tdi, biroq bu fikridan darhol qaytdi.

«Yo'q, bu dunyo ustunlaridan bir mahalda ikki narsani iltimos qilib bo'lmas. Yaxshisi, bu iltimos bilan Xatlibegimga murojaat qilmoq joiz!»

## *O'n sakkizinchi bob*

Beruniy bilan sohibi devon saropardani tark etgandan keyin sulton a'zoyi badani allaqanday bo'shashib, uzoq yotdi.

Kecha kunbotish oldida «Mozori kalon» qabristoni yaqinidagi bu qirlarga kelib qo'nganidan keyin biqinidagi sanchiq xiyol pasayib, tinimsiz qaqshab og'rigan jismi sal orom olgan, bu orom qalbida umid shamini yoqqan edi. Bu sham hamon miltirab turardi...

Ana, qabriston tomondan azon ovozi eshitildi. Mo'minlarni bomdod namoziga chaqirgan bu ovoz tog'larda aks sado berib, shunday tiniq yangradiki, sultonning a'zoyi badani jimirlab, ko'zidan yosh chiqib ketdi. Nazarida, bu ovoz qabriston maschitidan emas, yo'q, g'oyibdan kelayotgan ilohiy ovoz bo'lib tuyuldi-yu, nechundir marhum padari buzrukvorining bir gapi esiga tushib ketdi.

U mahalda sulton hali yosh edi. Padari buzrukvori amir Sabuqtegin, — ollo uning oxiratini bezavol, imonini basalomat qilg'ay! — Nishopurga yurish boshlagan chog'lar edi.

Xuddi hozirgiday iliq bahor kunlari edi. Nishopur yo'lidagi adirlar, qirlar, ko'z ilg'amas sayhonliklar yamyashil giyohlar bilan qoplangan, qir va dashtlarni to'ldirgan hisobsiz lashkar ham qandaydir ko'tarinki ruhda edi. Har kuni namozi asr payti qo'shin bir joyga borib qo'nar, shunda ulkan qarorgoh chumoli uyasiday g'imirlab qolar, kechasi dashtda behisob gulxanlar yonar, qo'ylar, otlar, ho'kizlar so'yilar, doshqozonlar osilib, marhum qiblagohi uchun qurilgan yuz kishilik saropardaga barcha amirlar, lashkarboshilar, vaziru vuzaro to'planar, ularga eng nozik taomlar tortilar, eng mashhur mutriblar, xonanda va sozandalar yig'ilib, tongotar bazmlar bo'lardi...

Bir kuni, esida bor, Nishopur yaqinidagi Hokisor degan joyga yetib borishdi. Yo'lning ikki tomoni baland adir edi. Bu adirlarga yetganda amir Sabuqtegin to'satdan boshqalardan o'zib ketdi-da, bir qirdan ikkinchi

qirga ot surib, uzoq aylanib yurdi. Hamma hayron, lashkarboshilar unga yaqinlashishni ham, orqada qolishni ham bilishmas, amir esa, lom-mim demay hamon ot surar, har qirga chiqqanida atrof-tevarakka uzoq tikilib qolar, so'ng, yana lom-mim demay, oldida ko'ringan boshqa bir qirga ot surib ketardi.

Nihoyat, navbatdagi qirga chiqqanida qidirgan narsasini topdi chog'i, otdan sakrab tushdi-da, tiz cho'kib qayta-qayta yer o'pdi. Ketma-ket ot choptirib borgan yosh Mahmud otasining qo'lida katta bir temir qoziqni ko'rdi. Padari buzrukvori, ko'zida yosh, bu qoziqni qayta-qayta o'par, so'ng, qiblaga yuzlanib bot-bot sajda qilardi. Hamma hayron, padari buzrukvori esa, namoz o'qishda davom etar, bir rakaatdan keyin ikkinchi rakaatga kirishar edi. Nihoyat, u yuziga fотиha tortib, o'rnidan turdi-da, qoziq topilgan tepalikka saroparda tikishni, qo'ylar so'yilib, butun lashkarga ziyofat berishni amr qildi.

O'sha kuni xufton namozidan keyin padari buzrukvori saropardaga hamma lashkarboshilarni yig'ib, Buxoro bozorida qul bo'lib sotilganidan keyin boshiga tushgan musibatlarni so'zlab berdi. Uni sotib olib, Nishopurga haydagan quljallob shunday xasis ekanki, ostidagi oti yo'lda yiqilib qolganida o'lgan otning egar-jabduqlarini ham uning yelkasiga ortib, bu bepoyon cho'li biyobondan yayov haydabdi...

— Yelkamda egar-jabduq, — degan edi o'shanda padari buzrukvori. — Yalang oyoq tikan bosib, salkam bir hafta yayov yurdim. Shundaykim, bu cho'li biyobonda ko'rgan azob-uqubatlrim, chekkan zahmatlarimni xudovandi karim hech bir bandasining boshiga solmag'ay... Oxir-pirovardida, jonim halqumimga kelib, yurishga madorim qolmay ado bo'lganimda mana shu tepaga, hozir saroparda tikilib, sizlar o'tirgan joyga kelib qo'ndik. Faqir yolg'iz soyam qolgan edi. Bir qultum suv ichishga majolim yo'q, shu yerga kelib quladimu tilim-tilim bo'lib ketgan oyog'larimni uqalab, tong otguncha nola chekdim. Yozug'i ne ojiz bandangning, deb ko'kka tavallo qildim. Oxiri charchoq yengib, ko'zim ilingan

ekan, tush ko'rdim... Tushimda... qo'luda aso, boshida salla, oppoq bir qariya tepamga kelib:

— Hey, bandai g'ofil! — deb xitob qildi. — Nechun parvardigori olamga bunchalar ohu faryod qilasen? Nechun bunchalar g'ussa chekassen?

— O, valine'mat, buzrukvor! Faqir yig'lamay kim yig'lasun? Mening boshimga tushgan bu ko'rgulik hech bir mo'minning boshiga tushmasin!

— Innalloho maassobirin! — dedi oppoq chol. — Ollo sabr qilguchilar bilan birgadir. Sabr qil, bo'tam. Faqiru haqir Xizr alayhissalom bo'lamen. Sabr qilsang... boshingga tushgan bu musibatlardan yaqin kunlarda forig' bo'lase, toleing baland, istiqboling yorug' bo'l-g'usidir. Ulug' martaba va toju taxt kutadur seni! Shukrona bildirib, sabr qil, bo'tam!..

— Uyg'onib ketsam... ko'rganlarim tush ekan... — degan edi o'shanda padari buzrukvori ko'ziga yosh olib.— Tong yaqin bo'lsa-da, karvon ahli uyquda edi. Darhol o'rnimdan turdim, tahorat qilib namozga kirishdim. Karvon ahli g'aflat uyqusidan uyg'onguncha kamina ellik rakaat namoz o'qidim. Har rakaatdan keyin a'zoyi badanimdagi og'riq tarqab, oxir-pirovardida jis-mimda shunday bir quvvat sezdimki, qolgan yo'lni otday yelib yugurib bosdim. Nishonpurga ikki kun deganda kirib bordik. Nishopur bozorida taqdir kaminani somoniylar sipohsolori Alpteginga ro'baro' qildi. Amir Alptegin, — ollo ruhlarini masrur qilgay! — salohiyatli lashkarboshi, mard va tanti odam edi. Ul zoti sharifning faqirga mehri tushib, o'ziga nadim qilib oldi. Faqir ham unga halol xizmat qildim, jangu jadallarda ot surib, bergan tuzini oqladim. Shu-shu, birlamcha, ollo taoloning inoyati, ikkilamchi, Xizr alayhissalomning duoi saodati mustajob bo'lib, mana, sohibi toj bo'ldim!..

Sulton padari buzrukvorining bu hikoyasini eslarkan, kecha ham, bugun ham, negadir Xizr alayhissalom uning ham tushiga kiradiganday, unga ham shifo tilab, oq fotiha qiladiganday tuyulardi.

Sulton ko'zini yumib, ko'kka tavallo qilib yotarkan, bir necha bor burchakda, saropardaning sham shu'lasi

yetmagan g'ira-shira joyida, oppoq bir chol unga tikilib turganday, go'yo uning muloyim afsungar ovozi qulog'iga chalinganday bo'ldi. Biroq har safar ko'zini kattaroq ochib, o'sha tomonga tikilib qarashi bilan nuroniy qariya qaygadir gumdon bo'lardi. Mana, hozir ham shunday bo'ldi. Nazarida, chodimning pardasi ko'tarilib... qo'lida aso... boshida oppoq dastor, nuroniy bir qariya, yo'q, qariya emas, chehrasidan ajib nur yog'ilib turgan Xizr alayhissalomning o'zi kirib keldi. Xizr alayhissalom poygakda to'xtab, unga bir nimalar deb shivirladi. Yo rab! Nahot tushida ayon bo'lgan narsalar tag'in behuda ro'yoga aylansa? Nahot ko'zini ochishi bilan bu mehriboni boshafqat qariya yana qaygadir gumdon bo'lsa?.. Yo'q, sulton ko'zini ochmaydi. So'zlang, valine'mat! Qo'l oching, bandai ojizni o'z hifzi himoyatingizga olib, bir duoi saodat qiling, piri murshid! Faqir esa, tunu kun istig'for aylab, qolgan umrimni toat-ibodat bilan o'tkazgaymen!

Shu payt qulog'iga:

— Olampanoh! — deb asta shivirlagan ovoz eshitildi. Ovoz sulton tasavvuridagi hazrat Xizr ovoziday muloyim va sehrli emas, sal xirilloh va o'ktam edi. Lekin sulton ko'zini ochmay: «Yo jabbor! Yo xalloq! — deb shivirladi. — O'zingga ming qatla shukurkim, osiy bandangning so'nggi tilagini vojib qilding!»

— Davlatpanoh? — bu safar ovoz aniqroq eshitildi. — Ko'zingizni oching. Tong otdi. Barcha ahli mo'min Mozori kalon qabristonida hoziru nozir. Bomdod namozi qazo bo'lmasin!

Endi batamom ayon bo'ldi — gapirayotgan Xizr alayhissalom emas, piri murshid qozi Sayid edi! Ammo sulton birdan ko'ngli suv ichganday yorlshib:

— Pirim, — deb xitob qildi. — Siz hozir faqirga hazrat Xizr alayhissalom timsolida ayon bo'ldingiz. Peshonamni silab, duoi saodat tiladingiz! Piri murshid duosi — muhri xudodir! Xudo xohlasa, endi shifo topg'usimen, pirim, shifo topg'usimen!

Janob Sayid ko'zlarini ko'kka tikdi, kahrabo tasbeh ushlagan oppoq qo'llarini ochib:

— Ilohi omin! — deb yuziga fotiha tortdi. — Inshoollo, har laylu nahor takbir tushirib, mashoyixlardan siz amiralmoʻmininga kushoyish tilab, duo qilib turibmizkim, bu duoi xayrimiz mustajob boʻlgʻay! Dard — mehmon, shifosini bersa ajab emas. Ilohi balong yukini tortmoqqa quvvat va muhabbating mehnatini tortmoqqa sabr bergaysen. Qani, bismillohir rahmonir rahim!

Sultonning chuqur botgan koʻzlari zimiston kulbadagi shamday yarqilab ketdi-yu, qurigan terakday qovjiragan tanasida allaqanday notabiiy bir kuch sezib, sekin oʻrnidan turdi.

Tashqarida, archazorga tikilgan saropardaning bir yonida hammasi birday safrorang jubba kiygan ulamoi zabardastlar qoʻl qovushtirib turar, bir yonida esa arkoni harb va arkoni davlat, vaziru vuzaro va aʼyonu boyonlar saf tortgan edi.

Oftob hali chiqmagan, yiroqdagi qorli togʻlar usti endi oqara boshlagan, biroq tevarak-atrof yashnab-yasharib ketgan. Oyoq ostidagi boʻliq maysalar orasida chigirtkalar chirillar, Afshon soy tomonda qurbaqalar qurillar, dimoqqa archa, naʼmatakgul, yavshan, boʻzti-kan va yovvoyi piyoz gup-gup urardi...

Sulton birdan quyilib kelgan qandaydir ichki bir tuygʻuga boʻysunib, orqasiga, Afshon soy ortidagi shaharga oʻgirilib qaradi.

Suyukli shahri! Padari buzrukvoru amir Sabuqtegin asos solgan, lekin uning, sultoni sohibqironning peshona teri, mehru muhabbati, zar va zoʻri bilan kamol topgan... suyukli shahri Gʻaznai munavvara!

Shahar tutash bogʻlar orasidan yaxshi koʻrinmas, faqat Bogʻi Firuz ortidagi Osmon malikasi qasrining oq marmar peshtoqlari bilan Koʻshki davlat saroyining lojuvard gumbazi elas-elas koʻzga chalinardi.

Osmon malikasi!

Sulton, negadir, Gʻaznada qurdirgan barcha saroy, koʻshk va qasrlari, behisob machitlari orasida ulkan oq qushga oʻxshagan mana shu marmar saroyini yaxshi koʻradi. Bogʻi Firuz bilan maʼsum kelinchakni eslatuvchi

mana shu oq qasr dilining hushi, ko'nglining oromi! Bog'i Firuzdagi osuda yo'lkalar, qishin-yozin kumush favvoralar suviga cho'milgan musaffo gulzorlar, chiniy koshinlar bilan bezatilgan tiniq hovuzlar va hovuzlarda suzib yurguvchi oqqushlar, kamalak rangli tovuslar, xurmo va ananas yanglig' nodir daraxtlar o'sguvchi ko'rkam xiyobonlar!

«E, yaratgan egam! Nahot bu go'zallikni, bu qasri muazzamlar, bu jannatmonand bog'larni barpo qilib, endi rohatu farog'atda yashayman deganida hammasidan mosuvo qilsang? Nahot uning, amiralmo'aminin atalmish sulton Mahmud G'aznaviyning taqdirini go'ristonda tentirab yurgan anov gadolar va yo'qsillar taqdiri bilan barobar qilsang? Boradigan joyi ham o'sha gadolar boradigan besh gaz sovuq go'r bo'lsa. Unda nechun Qur'oni karimda: «As salotin zulallohi fil azr», ya'niki, «sultonlar yerdagi soyamdur», deding? Nechun ularni bandalaring ustidan baland ko'tarding, e, sarvari koinot?» Sultonning xayolini Ali G'aribning:

— Taxtiravonni keltiring! — degan o'ktam ovozi bo'ldi. Unga Abul Hasanakning allaqanday quvnoq, xurram tovushi qo'shildi:

— Shoshmang, hazratim, men, men o'zim...

«Gur» etib yopirilib kelgan katta olomon taxtiravonni dast ko'tarib oldi-da, talashib-tortishib qabriston tomon yo'naldi.

Raiyatning boshida imom Sayid borardi. Egnida keng safrorang jubba, boshida surmarang salla, imom Sayid, qo'lidagi asoni yerga duk-duk qadab, to'ygan g'ozday asta-asta qadam tashlar, uning yurishida, oppoq qoshlari tagiga yashiringan katta-katta sarg'ish ko'zlarining mamnun porlashida, ko'ksiga tushgan chiroyli soqolining kumushrang jilosida ichki bir viqor va mamnuniyat barq urib turardi. Ha, u endi o'zidan mamnun bo'lsa arziydi. Axir kimsan, butkul ro'yi zaminni zir titratgan sultoni sohibqironni o'z iqtidoriga bo'ysundirib, yot desa yotadurg'on, tur desa turadurg'on qildi! Rost, sulton hech qachon janob Sayidga qarshi borgan emas. Poyqadami yetgan yurt borki, hamma joyda uning istagi



bilan yangi machitlar qurdirib, barcha peshvoi din va ulamoi zabardastlarga homiylik qilgan, yuksak rutbalar bilan ko'ngillarini xushnud etgan. Va lekin hech qachon bunchalik tobe, bunchalik mute ham bo'lgan emas! Garchi, pirining pandu nasihatlarini tardid<sup>1</sup> etmasa ham, pinhona o'z bilganini qilgan, bil'aks, anov allomai mutakabir Abu Ali ibn Sinoga zimdan elchi yuborib, kechayu kunduz uning yo'lini poylab o'ltirmas edi! Imom xufiyalarining xabar berishicha, sulton hatto anov betavfiq Abu Rayhon Beruniyni ham hibsdan chiqarib, maxsus divsuvorlar bilan Ibn Sinoga yuborishga ahd qilgan. Shu boisdan ham imom hazratlari boya saropardaga kirganda sultondan norozi edi, lekin bu o'rtada, chamasi, sultonning ruhida nogahoniy bir o'zgarish ro'y berdi, u Xizr alayhissalom to'g'risida so'z ochib, imomning ko'nglini chog' qildi. «Sizni Xizr alayhissalom timsolida ko'rdim», dedi. Bas, endilikda uning aytgani aytgan, degani degan! Endilikda hech bir kimsa, hatto ul takabbur hakim Ibn Sino ham sultonning jilovini o'z qo'liga ololmaydi! Sulton endi toabad imom Sayid hazratlariga musallamdur<sup>2</sup>.

... Sulton taxtiravon qattiq silkinganini sezib, ko'zini ochdi. Yuksakda, boyagidan ham tiniqlashgan ko'm-ko'k osmon qa'rida yolg'iz oq bulut suzib yurardi. Yo'q, bu bulut emas, bulut shaklidagi bir odam, ustida hakimlar ridosi, boshida hakimlarning uchli oq qalpog'i, soqoli ko'ksiga tushgan nuroniy bir kimsa! Yo rab! Hakimi davron... Ibn Sino emasmi bu? Ha, ha, hazrat Ibn Sino! Xuddi o'zi! Boya Xizr alayhissalom ko'ziga ko'ringani bejiz emas! Xizr alayhissalom hakimi davron Ibn Sino timsolida ayon bo'lsa ajab emas. Istiqbolning hayrli alo-mati bu!

Sulton birdan tomog'i g'ib bo'g'ilib, ko'zini yumdi. Shu payt daryoday guvillagan olomon ovozi qulog'iga kirdi.

«Imonsiz Malikul sharob! Butkul xazinangni sadaqa qilsang ham qilgan gunohlaringni yuvolmaysen», dedi.

<sup>1</sup> T a r d i d — rad qilmoq.

<sup>2</sup> M u s a l l a m — taslim.

Yo'q, sulton mardumi mo'minga yaxshilik qilg'on ekan, mana, butun G'azna ko'chib chiqmish! Yurishga qodir ahli imon borki, bari istiqboliga kelmish. Faqat... Qutlug'qadam aytgan Bobo Xurmo qayda? Uni topmoq darkor! Kingaki ozor bergan bo'lsa, hammasini qidirib topmoq va ko'nglini olmoq darkor. E, yaratgan egam! Nechun insofu adolat to'g'risidagi bu o'ylar uning xayoliga endi kelmish? Nogahon yopishgan manov baloi nahs bilan birga kelmish?

Azim daryo tobora kuchliroq guvillamoqda edi. Ana, zikr tushgan darveshlarning vahimali «huv-huv»lari, navkarlarning «po'sht-po'sht»lari va hatto ayrim xitoblar qulog'iga chalina boshladi.

— Bu ne? Kimning tobuti bu?

— Tobut emas, taxtiravon bu, xumkalla! Poshshoi olam!

— Xudo rahmat qilg'ay! Insofli poshsho edi sulton Mahmud!

Sulton nogahon taxtiravonni larzon urdirib, qaddini tikladi. U qabriston qo'rg'oni oldiga yig'ilgan behisob olomonni ko'rdi. Ot o'ynatgan suvorilar, zarbof to'nlariga o'ralgan arkoni davlat va arkoni harb, kashkullarini silkitib, dud va tutun ichida zikr tushgan darveshlar, kosov qo'llarini cho'zib, sadaqa so'ragan gadolar, uvada to'nli moxovlar, oq g'ozday kerilgan ulamoi zabardastlar!

Sulton bebosh daryoday ko'pirib-toshgan bu olomonni ko'rib, bir daqiqa hushidan ayrilib, garang bo'lib qoldi. So'ng:

— Qayt orqangga! Qayt!— deb baqirdi-da, taxtiravonga chalqancha yiqildi.

### ***O'n to'qqizinchi bob***

Beruniy bilan sohibi devon Abu Nasr Mishkan navkarlar qurshovida Afshon soyga yaqinlashib qolganlarida, qarshida Mozori kalon qabristoni tomon yo'l olgan olomon ko'rindi. To'p-to'p darveshlar, bir-birlari bilan so'kishgan, allanimalarni talashgan gadolar, ot

o'ynatib «po'sht-po'sht»lagan zodagonlar, asolarini do'qillatib, ko'kka nola qilgan majruhlar najot tilagan xastalar, sog'lar, piyoda va otliqlar chindan ham qirg'oqlardan toshib chiqqan selday yopirilib kelardi. Faqat Afshon soy sohili emas, g'ira-shira tong qorong'iligiga burkangan shahar ham cho'p suqilgan ari uyasi-day guvillar, dahalarda gulxanlar yonar, qorovullarning shaqildog'i shaqillar, uyoqdan-buyoqqa chopgan ot tuyoqlarining dupuri osmoni falakka chiqqan edi. Lekin ajabo: Osmon malikasi saroyi ham, saroy ortidagi Xatlibegimning alohida ko'shki ham suv quygandek jimjit, qo'rg'on oldidagi ulkan maydon kimsasiz, xi-yobon va gulzorlarda tirik bir jon ko'rinmas edi...

«Mehmon»larni ko'shk oldida kutib olgan yosh kaniz bosh devon sohibini bir chetga imlab, qulog'iga allanimalarni shivirladi-da, zar sochilgan shaffof durrasi bilan og'zini to'sganicha Abu Rayhonga qarab ta'zim qildi.

— Marhamat qilsinlar, mavlono... Begim sizni kutmoqdalar!

Kanizning ko'zlari nechundir kulib turardi.

Beruniy oq marmar zinadan chiqib, baland peshayvon orqali uzun yo'lakka kirdi. Yo'lakning ikki tarafida qator o'ymakor eshiklar saf tortgan, tokchalaridagi toshfonuslar shu'lasida eshiklarning oltin tasmalari va ularga qadalgan dur va javohirlar ko'k, qizil, nafarmon ranglarda nafis jilo sochardi.

Oldinda borayotgan yosh kaniz to'rdagi eshikni ochib, tezgina ichkariga kirib chiqdi-da, yana boyagiday bilinar-bilinmas kulimsirab, navozish bilan bosh egdi:

— Marhamat, mavlono!

Beruniy negadir xiyol yuragi o'ynab, ichkariga kirdi. Xatlibegim devorlariga shaftoli va bodom gulli nozik so'zana va palaklar tutilgan katta chorburchak xonaning to'rida, nozi ne'matlar bilan to'ldirilgan do'ngalak xonataxta orqasida qizil shoyi bolishlarga suyanib o'tirardi. Shiftdagi chamberak qandilga terilgan hisobsiz shamlar shu'lasida xonadagi ipak gilamlar, tokchalardagi yoqut piyola va kumush barkashlar, fil suyagidan yasalgan g'aroyib quti va qutichalar, nodir ziynatlar, ziynatlargina

emas, zarrin liboslarga o'rangan Xatlibegimning o'zi ham allaqanday notabiiy yarqirab ketgan, go'yo xona to'rida jonli ayol emas, tokchalardagi oltin ma'budalarning bittasi joy olgan edi.

Beruniy kirib, ta'zim qilishi bilan «oltin ma'buda»ga jon kirdi, yoqut ko'zli tilla uzuq va yirik oltin bilaguzuklar taqilgan qo'llarini uzatib, takalluf bilan yonidan joy ko'rsatdi.

— Xush kelibsiz, mavlono, to'rga o'ting.

Beruniy begim ko'rsatgan joyga o'tib o'tirarkan, mushk-anbar va upa-elikning xushbo'y hidi dimog'iga «gup» etib urildi.

Bukun begimning liboslari ham, pardo-andozlari ham boshqacha, zar sochilgan ko'k shoyi ko'ylak ustidan qizil baxmal mursak kiygan, boshiga harir shoyi durra tashlab, durra ustidan inju qadalgan toj qo'ndirgan. Qoracha yuziga qalin upa surib, qiyg'och ko'zlariga surma tortilgan, hatto tishiga surkalgan tishqolisi ham yangilangandek, gapirganda tishlari qora sadafday yaltillab ketardi. Beruniy ixtiyorsiz suratda begimning harakatlarini kuzatarkan, bundan ko'p yillar ilgari, sind muzofotidagi ko'l sohilida pinhona uchrashganlarida ham dimog'iga mushk-anbarning xuddi shunday nozik hidi «gup» etib urgani yodiga tushdi. O'shanda ham Xatlibegim mana shunday qimmatbaho zarrin liboslar kiyib, yuziga nozik bo'yoqlar surkab olgandi. Lekin unda, begimning shaxsiy saropadasida pinhona uchrashganlarida, bu o'ktam qoracha juvonga hammasi yarashar, zarrin libos ham, yuziga surkalgan upa-elik ham, qiyg'och ko'zlariga tortilgan surma va hatto tishqoli surtilgan tishlari ham — hammasi yoqimtoy va jozibali edi. Hozir esa uning yuzi... hind kohinlari va afsungarlari kiyadigan niqobni eslatar, faqat surma tortilgan suzuk ko'zlari allaqanday chaqnab, xushomad aralash iltijo bilan javdirab turardi...

«Qoramtir ayol yuziga upa surtsa... qora qozonga un chaplaganday bo'lar ekan. Aqlli xotin, nechuk bunga farosati yetmaydi?»

— Sharobmi yo sharbatmi, mavlono?

— Sharbat, — dedi Beruniy va Xatlibegimning yupqa lablarida zuhur bo'lgan istehzoli tabassumni ko'rib, qo'shimcha qildi. — Ne chora, nahr-ul hayot shunday tez oqar ekankim, sharob ichadurg'on yoshlik chog'larimiz o'tdi-ketdi, begim.

Begimning suzuk ko'zlarida favqulodda sho'x uchqunlar jilva qildi, tishqoli surtilgan qora sadaf tishlari g'alati yarqirab ketdi.

— Bil'aks, endi kuchga to'lgansiz, mavlono!

— Tashakkur, begim...

— Yoshlik paytlarim o'tgan, deb nola qilasis, uyin-gizda esa... o'n gulidan bir guli ochilmagan sohibjamol-lar xizmat qiladi!

Beruniy «yalt» etib qaradi. Upa chaplagan niqobli yuz hanuz sovuq kulimsirardi!

«Alvasti!.. Sadafibining boshiga yetgan bu alvasti!»

— Ayol zotini ma'zur tutasiz, mavlono, sizga bir og'iz so'zim bor. O'n gulidan bir guli ochilmagan ul sohibjamol... sizga faqat joriyalik qilgan edimi yoki...

— So'zingizni angladim, begim. Ul sho'rlik ma'suma... Faqirning yurtidan olib kelib sotilgan bir joriyadir. Bu joriya bilan bizning elimiz bir, tilimiz bir!... — Beruniy hayajon ichida o'tirgan joyida bir tebranib qo'ydi. — Hibsda yotgan chog'imda... kulbai vayronamga bir guruh sarbozlar bostirib kelib sho'rlik ma'sumani olib ketmish, begim.

Xonaga bir daqiqa chuqur sukut cho'kdi. Bu sukutni Xatlibegimning sovuq kulgisi buzdi:

— Bir guruh sarbozlar bostirib kirib, suyukli joriyangizni olib ketgan bo'lsa... buni men g'aribga arz qilganingiz qiziq, mavlono!

— Faqirning gunohidan o'ting, begim, miskin kulbanga bostirib borgan ul sarbozlar saroydan emish!..

— Bilmam! Sultoni salotinning ahvoli sizga ayon! Boringki, ahvoli yaxshi bo'lganda ham, sulton sizning joriyangizga zor emas, mavlono. Ollo taolo unga shifo bergay! Shifo bersa... haram to'la paripaykar. Sizning joriyangiz bu gulruxsorlar oldida cho'rilikka ham o'tmaydi, mavlono...

Xatlibegimning zaharxandasi Beruniyning yuragidagi shubhani so'ndirish uyoqda tursin, battan o't yoqdi.

«Shu jodugar! Sho'rlkning boshiga yetgan shu jodugar!»

O'rtaga cho'kkan jimlikni Xatlibegimning birdan o'zgargan tahdidli ovozi bo'ldi:

— Oftobi olam sizga o'z tilagini izhor etgandur, mavlono!

— Izhor etdilar, begim. Ibn Sino hazratlari yo'lga chiqqan emish!

Xatlibegim betoqat bosh chayqab:

— Siz ul hakimi hoziq... Ibn Sino hazratlarini taniy-sizmi? — deb so'radi.

— Taniymen. Biz Xorazmda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida besh yil birga xizmat qilganmiz, begim...

— Ofarin! Tanisangiz sizdan bir iltimos, mavlono, — Xatlibegim tirnoqlariga xina qo'yilgan uzun qoramtir barmoqlarini Beruniyning qo'liga qo'ydi-da, yaqinroq surilib o'tirdi.

— Sizdan yashiradurg'on siri pinhonim yo'q, mavlono. Bir mahallar o'zingiz saboq bergan shogirdingiz amir Mas'uddan kecha ajab bir maktub oldim. Xabaringiz bor, ul shahzoda vallahd Isfahonda lashkar tortib turmish!

Xatlibegim negadir ko'ziga yoshi olib, bir daqiqa jim qoldi.

— Ul sadoqati boqiy shogirdingiz, amir Mas'ud yozmishkim, hakimi davron Ibn Sino hazratlari G'aznaga borishdan bosh tortib, hanuz Hamadon tomonda qochib yurgan emish!..

Beruniy yer ostidan Xatlibegimga o'g'rincha qaradi. Begim, dasturxon tagidan ikki buklagan bir maktubni olib ko'rsatdi-da, qayta dasturxon tagiga yashirdi.

— Ha, shahzodai valiahd xuddi shunday deb yozmish. Siz bilmaysiz, mavlono, bu vaziri a'zam Ali G'arib bilan anov hez... meni afv eting, mavlono, anov xushchehra hezalak Abul Hasanak!.. Bu ikki quzg'unning niyatlari yomon, mavlono! Agar sultoni sohibqiron bu fonyi dunyoni yetim qoldirib, u boqiy dunyoni obod

etsa... bu ikki battol shahzodai valiahdni toju taxtdan mosuvo qilib, o'rniga anov befarosat shahzoda Muhammadni ko'tarmoq niyatidadur... So'zim ayonmu, mavlono?

— Vazirlar to'g'risidagi so'zingiz ayon, begim. Ammo hazrat Ibn Sino!..

— Men ham shunga hayronmen, mavlono, — dedi Xatlibegim. — Ul hakimi hoziq G'aznaga kelishdin bosh tortib, Hamadon tomonlarda qochib yurgan bo'lsa... sulton aytgan bu Ibn Sino qaydan keldi? Bu Ibn Sino Teginoboddan topilgan emish, mavlono!

Xatlibegimning so'zlarida aql bovar qilmas bir sirasror bor edi! Beruniy beixtiyor yoqasini ushlab:

— Ajab jumboq! — deb yubordi. — Siz aytmoqchisizki, Teginoboddan chiqqan bu Ibn Sino boshqa hakim, ya'niki, soxta Ibn Sino demoqchisiz, begim?

Xatlibegim qattiq uf tortib, boshini sarak-sarak qildi.

— Bilmam, mavlono. Men uni ko'rmagan bo'lsam... Chin Ibn Sinomi, soxtami — bu jumboqni yolg'iz siz yecha olasiz, mavlono!

— Durust. Ammo bu ishdan, ya'niki, chin Ibn Sino o'rniga soxta Ibn Sinoni topib, uni sultoni salotiga ro'baro' qilmoqdan maqsadlari ne bu ikki vazirning?

— Maqsadlari? O, mavlono, mavlono! Allomai zamon degan nomingiz bilan bu ikki shaytonning firib yumushlariga aqlingiz yetmaydi. Maqsadlari — amiralmo'mininning boshiga yetmoq! Bu soxta Ibn Sino qo'li bilan unga og'u berib o'ldirmoq! — dedi Xatlibegim, dedi-yu, o'z so'zidan o'zi qo'rqib, ko'zlari olazarak bo'lib eshikka qaradi.

Beruniy boshi garang, tili lol, churq etmay o'tirardi. Boya Ibn Sino to'g'risidagi xabarni eshitganida yuragiga yopirilib kelgan quvonch endi tamom so'ngan, uning o'rinini yana o'sha eski alamli o'ylar egallagan edi.

«Haqiqatan, nechun uni, fikri zikri kitob bilan band bo'lgan bir sho'rlik allomani bu qabih ishlarga sherik qilmoqchi bo'ladilar? Hokimiyat uchun, toju taxt uchun, bani odamlar ustidan hokimlik qilmoq uchun hech bir tubanlikdan qaytmas ekanlar, o'zlari qilsin bu tubanlikni!

Uning yolg'iz tilagi — bu fitna-fasodlardan yiroq yurib, qolgan umrini mutolaa va mushohadaga bag'ishlamoq edi! Nahot bu razil ishlar sabab, eng so'nggi niyatidan ham mosuvo bo'lsa?»

Xatlibegim, go'yo uning ko'nglidagi g'alayonni sezgandek, shitob bilan o'rnidan turdi.

— Qolgan so'zni sizga sohibi devon... Abu Nasr Mishkan janoblari aytar. Siz uchun ot-ulov, xufiyalar, navkarlar — hammasi shay! Shoyad Teginoboddan topilgan bu hakimi davron o'shal siz bilgan chin Ibn Sino bo'lsa!...

— Shoyad! — Beruniy jimgina ta'zim qilib eshik tomon yurdi.

— Bir on sabr qiling, mavlono! — Xatlibegim uchiga inju qadalgan zarrin shippagi bilan ipak gilamlarni sharpasizgina bosib borib, tokchadagi oltin barkash orqasidan bejirimgina bir quticha oldi.

— Kecha saroyga savdo ahli tashrif buyurib, arzimas bir narsa hadya qilgan edilar. Ko'rib qimmatini aytsangiz, mavlono.

Xatlibegim, allaqanday sirli kulimsiraganicha, qutichani ochdi. Fil suyagidan yasalgan bejirimgina qutichaning tagida... ko'k, qizil, nafarmon va yana allaqanday nozik ranglarda jilolangan yirik bir javohir yotardi! Yo tavba! Bu o'sha, Piri Bukriy ko'rsatgan, ne-ne shohu gadolarning qo'lidan o'tgan, ne-ne mudhish voqealarga sabab bo'lgan va oxir-pirovardida Sadafbibi uchun va'da qilingan mash'um javohirning o'zi edi.

Beruniyning nazarida, go'yo birdan oftob chiqdi-yu, ko'z oldini to'sib turgan tuman tarqab ketdi! Xuddi Hindistonda, Nanda shahri yonidagi toqqa chiqqanida to'satdan miyasida nimadir «yarq» etib, yer kurrasining shakli ayon bo'lganidek, hozir ham hamma narsa ayon bo'ldi: bu sovg'a Xatlibegimga Sadafbibi uchun kelgan! Munofiq Piri Bukriy Sadafbibi uchun in'om qilgan bu javohirni!

Beruniy birdan quti o'chib, begimga tik boqdi.

— Bu javohir... ko'p yovuz ishlarning shohidi



bo'lgan, ko'p shohu gadolarning boshini yegan javohirdur, begim...

Xatlibegimning qisiq ko'zlari hayrat bilan porladi.

— Ajab hangoma! So'zlang, mavlono!

— Bu javohirning tarixi uzoq, begim. Nasib bo'lsa bir kun so'zlab berurmen. Buning bahosi ham... bebahodur. Va lekin, qancha bebaho bo'lmasin, bir sho'rlik ojizaning xayot-mamotini bu toshga bog'lamoq... adolatdan bo'lmas, begim!

— Sho'rlik ojiza?

— Nechun ajablanasiz, begim? Bu javohir... mening joriyam, sho'rlik Sadafbibi uchun in'om qilingandur sizga, begim!..

Xatlibegimning upa surtilgan qoracha yuzi to'satdan nafrat aralash g'azabdan bujmayib ketdi.

— Joriyangizmi yo o'ynashingizmi bu manjalaqi?

— Begim!..

— Bas! Sizga ruxsat, mavlono! Amri poshsho — vojibdur! Farmoni oliyni bajo keltiring, mavlono!

Beruniy begimning o't chaqnagan nigohidan ko'zini uzib, boshini xam qildi.

— Qulluq, begim! Ammo... Faqirning arzini ham inobatga oling! Sho'rlik joriya saroyda bo'lsa ozod qiling! Agar anov firibgar bukrining qo'lida bo'lsa — ul battol buki qo'yib yuborsin begunoh ma'sumani!..

— Ma'suma? — Xatlibegim teskari burilib, devordagi ipak gilamni asta timalarkan:

— E, yaratgan egam! — deb nido qildi. — E, rasuli barhaq! Qaysi gunohlarim uchun bu xo'rlik, bu haqorat?.. Tirnog'imga arzimaydigan bir cho'ri! Ko'chada qolgan bir manjalaqi!

Beruniy indamay eshik tomon yo'naldi.

«Yo tavba! Ne-ne bek va amirlar turganda kimsan amiralmo'minining suyuqli singlisi bo'lmish bu xotining ishqiq faqirday keksa bir allomaga tushsa...»

Beruniy eshikni sekin ochib, o'zini yo'lakka oldi. Ichkaridan hamon Xatlibegimning bo'g'iq, alamli yig'isi eshitilib turardi.

## Yigirmanchi bob

Hibsxona to'ntarilgan qozondagi zimiston edi. Malikul sharobni boshlab kelgan sarbozlar uning qo'hdan kishanini, ko'zidan qahin bo'z belbog'ini yechib, eshikdan itarib yuborishdi. Malikul sharob oyoqlari ostidagi to'nkaga o'xshash bir narsaga qoqilib ketdi-yu, bor og'irligi bilan yuztuban yiqildi, boshi qattiq bir narsaga tegib, anchagacha hushiini yig'olmay yotdi. Uning ikki ko'zi shiftda edi. Shiftdagi do'ppidekkina tuynukdan tushgan bir hovuch nur yerto'laning kaftdek joyini ham yoritmas edi. Eng yomoni — yerto'lada biror jonzot o'lgan bo'lsa kerak, zindonni to'ldirgan kana va kalamush hidiga o'laksa hidi qo'shilgan, ko'ngilni ozdiruvchi bu qo'lansa hidga toqat qilib bo'lmas, biroq toqat qilmay iloj yo'q, boshini toshga urib dodlasa, dodini hech kim eshitmas edi!

Yo'q, kimdir bor! Hibsxonaning allaqaysi bir burchagida kimdir betoqat pitirlaganday, asta ingraganday bo'ldi.

Malikul sharob sekin boshini ko'tarib, qulog'ini ding qildi.

— Hoy, kim bor bu baloi jahannamda?

Qibla tomondagi zimiston burchakdan:

— Malikul sharob? — degan zaif ovoz keldi.

— Bobo Xurmo? — Malikul sharob oyoq ostida yumalab yotgan zarang kosa, jom va qumg'onlarni ag'dar-to'ntar qilib, ovoz kelgan tomonga emakladi.

Beligacha qip-yalang'och Bobo Xurmo taqir bo'yrada uzala tushib yotar, uning soch-soqoli burungidan ham o'sib ketgan, ko'zlari yumuq, harorati baland, allaqanday xirillab nafas olardi.

— Suv! Bir qultum suv!

Malikul sharob qorong'ida yer timirskilab, — uning ko'zi zimiston yerto'laga endigina o'rgana boshladi, — qora qumg'onni topib keldi. Bobo Xurmo qumg'on jo'mragiga tishini shaq-shaq urib, suv icharkan:

— O! — dedi bezgak tutganday qaltirab. — Qani endi o'sha gulgun sharbatingdan bir piyola bo'lsa, Malikul

sharob! Loaqal bir piyola! O't ichida qovurlamen, azizim, o't ichida!

Malikul sharob endigina uning badanida sog' joyi qolmaganini ko'rdi, qorni, ko'kragi, bo'yni, hatto yuzlari ham qamchi izlaridan taram-taram bo'lib ko'karib ketgandi!

Malikul sharob chakmonini yechib, uning boshi ostiga qo'ydi, belbog'ini yozib, ustiga yopdi.

— Sho'rlik Bobo Savdoyi! Qaysi gunohlaring uchun seni qiynoqqa soldilar bu battollar?

— Gunohlarim? — dedi Bobo Xurmo yotgan joyida to'lg'anib. — Birdan-bir gunohim sening mayxonangda aytgan ertagim!

— Ertaging?

— Ha, tunov kuni, tuslik ikki sayyoh tashrif buyurgan oqshom beshafqat bir kimsani taxtga o'tkazgan nodon fuqaro to'g'risida so'zlagan ertagim yodingdami? Yodingda bo'lsa, o'shal ertagim uchun! Go'yo bu ertak bilan kamina sulton sohibqironning izzatini yerga urgan emishmen. Uni johil va berahm, G'azna ahlini esa nodonga chiqargan emishmen!..

Malikul sharob bo'g'ilib ketayotganday bo'lib, bo'z ko'ylagining yoqasini shartta yulqib ochdi-da, holsizlanib devorga suyandi.

Yo tavba! Necha marta uning o'ziga ham xuddi shunday bema'ni ayblar taqishgan, birda shakkoklikda, birda dahriylikda, yana birda esa saltanat qudrati va amiralmo'minin obro'siga putur yetkazishda ayblab, necha marta zindonga tashlashgan. O'zlari to'qigan bo'htonlarga iqror qilishga urinib, ne-ne qiynoqlarga solishmagan uni! Yaxshiyam, sulton Mahmud yoshlik chog'lari-da, yuragida insof va adolat tuyg'usi tamoman so'nib bitmagan mahallarda, Nargizabonu sabab, sobiq g'ulomi Qutlug'qadamning daxlsizligi to'g'risida birdan-bir adolatli farmon bergan ekan. Malikul sharob, har safar boshiga qilich kelganida, shu farmonni dastak qihb, qutulib ketardi. Ammo bu safar... Bu safar sultonga bir balo bo'lganga o'xshaydi. Avval Beruniyni hibs qildirdi, undan keyin o'zini Ibn Sino deb atagan anov telba may-

parastni! Mayparastdan keyin uning shogirdini, shogirdidan so'ng manov sho'rlik Bobo Xurmo Savdoyini, Savdoyidan keyin uni! Hatto Sadafbibi ham qaygadir yo'qolgan. Beruniy zindon qilingan kuni kechasi bir guruh navkarlar bostirib borib, uni ham qayoqqadir olib ketishgan! Yo alhazar! Kimki Malikul sharobga yaqin bo'lsa, hammasi hibsdan! Endi bu hibsdan, o'laksa hidi anqigan bu jahannamdan tiriklayin chiqa oladimi, yo'qmi — buyog'i yolg'iz olloga ayon!

Mayli! Unga baribir. uni bu bevafo dunyo bilan bog'lab turg'uvchi na bir ilinj qoldi, na bir yaxshi umid! Faqat bir narsa qiynaydi uni, u ham bo'lsa Nargizabonu!..

Nargizabonuni eslashi bilan hozirgina mayxonada o'zini sarbozlarning oyoqlari ostiga tashlab, faryod chekkan kampiri ko'z oldiga keldi-yu, tirmoqlarigacha zirqirab ketdi.

Sarbozlar majruh kampirning faryodiga quloq solishmadi. Kampir, qilich kesgan mayib qo'llari bilan sarbozlarning etagiga tirmashib, bo'sag'agacha emaklab bordi va o'sha yerda yumalab qoldi. Qo'lga kishan urilgan Malikul sharob esa, yerda yiqilib qolgan kampir tomon bir-ikki talpinib ko'rdi, biroq sarbozlarning qo'llari temir kishanlardan ham mahkam edi, yaralangan qushday pitir-pitir qildi-da, «shilq» etib yiqildi.

Yo'q, bu mash'um yumushlar bejiz emas, bu yerda teran bir sir-asror bor. Anov telba sayyoh ham bir baloni boshlab keldi! Boshda, bu sayyoh mayxonaga pinhona kirib kelganida, ayniqsa, xushsurat shogirdining qo'lida-gi suratni ko'rganida Malikul sharob uning Ibn Sino ekaniga chippa-chin ishondi! Sayyoh esa... sayyoh bir haftagacha Malikul sharobning yerto'lasiga yashirinib olib, kechayu kunduz ichdi, shunday ichdiki, oxir-pirovardida o'z qusug'iga o'zi bulg'anib qoldi. Maydan hushiga kelgan chog'larida esa, saroy va sulton haqidagi mishmishlarni so'rab-surishtirar, mayxona eshigini qiya ochib, mayxo'riarning gap-so'zlariga o'g'rincha quloq solar, so'ng, yana yerto'laga tushib, xumlarni quchoqlaganicha ichkilikka mukkasidan ketardi!

Umrida mug'ambirlik ko'chasi dan o'tmagan oqko'ngil odam, Malikul sharob shunda ham gumonsiramagan edi, bir kuni tun yarmida yerto'lada ko'tarilgan allaqanday g'ala-g'ovurdan uyg'onib ketdi. U yerdan qattiq so'kingan bo'g'iq ovozlari, taraqturuqtovushlari eshitilardi. To'satdan, eshik taraqlab ochilib, kimdir alpang-talpang yurib chiqdi. Bu — yosh sayyoh edi. Uning yuzlari tirnalgan, ko'zlari ola-kula, o'ziyam oyog'ida zo'rg'a turardi.

— Bu ne to'polon? Ne bo'ldi? — dedi Malikul sharob qattiq ranjib.

— Anov... Abu Shilqim! — dedi yosh sayyoh yig'i aralash g'o'ldirab. — O'zini Ibn Sino deb, ahli mo'minlarni tunab yurgan Abu Shilqim ibn Shahvoniy. Sirini ochsam dorga tortiladi! — Shogird shunday dedi-yu, o'z so'zidan o'zi qo'rqib ketdimi yoxud sababi mastlikmi, yuztuban tushib, darhol pinakka ketdi.

Malikul sharob o'zlarini Ibn Sino deb, oqko'ngil avomni to'nab yurguvchi qalloblar haqida ko'p eshitgan edi. Bu safar ham xuddi shunday firibgarlardan biriga duch kelganini sezib, uni haydashga chog'langan edi, biroq xuddi o'sha kecha bir guruh navkarlar mayxonaga nogahon bostirib kelib, «Ibn Sino hazratlarini» qo'l-oyog'idan bog'lab olib ketishdi.

Malikul sharobning xayolini Bobo Xurmoning asta ingragan ovozi bo'ldi.

— Suv beraymi, pirim?

— Yo'q-yo'q... Kamina senga bir so'z aytmoqchi edim, yodimdan ko'tarildi! Hm.. Ha, yodimga tushdi! Bu yozuvlar... o'sha kuni mayxonangga mehmon bo'lib kelgan ikki sayyohni ko'p so'rab-surishtirdilar, Malikul sharob!

— Nechun?

— Bilmam, azizim! Bu yerda ne sir-asror bor, yolg'iz ollo biladi. Ammo shu ikki sayyoh bila anov... imomni ko'p surishtirdilar quzgunlar!

— Qaysi imom?

— Qaysi bo'lur edi! O'shal birodaring imom Ismoil G'oziyini aytamen. Oo!.. Qani endi bezavol yoshlik chog'larim qaytib kelsa! Imom Ismoil lashkarida ot

surib, yo bu imonsizlarni qirg'inbarot qilsam, yo jang maydonida shahid o'lsam!

Malikul sharob devorga suyanganicha ko'zini yumdi, yumgan zahoti darhol imom Ismoilning qilich tekkan chandiq yuzi, lochinning ko'zlariday tiyrak, o'tkir ko'zlari yodiga tushdi.

Malikul sharob ham necha marta imomning Ko'hi-sheer darasidagi qarorgohiga bosh olib qochmoqchi bo'lgan, lekni imom uning bu istagini xushlamagan edi. «Saltanatdagi ahvolni bilib turmoq uchun G'aznada pinhoni makonimiz bo'lmog'i darkor, bu ishda sening mayxonangdan yaxshi joy yo'q», deb, uni niyatidan qaytargan edi. «Nahot ilonning yog'ini yalagan bu makkorlar bu sirdan ham ogoh topgan bo'lsalar?»

— O, yovuzlar, yovuzlar! — dedi Bobo Xurmo ingrab. — Hamma narsadan voqif bular! Yer ostida ilon qimirlasa — biladilar bu kazzoblar!

— Nechun bilmasinlar? Bir odamga o'n ayg'oqchi, o'n xufiya!..

— O, Malikul sharob! Bu mal'un xufiyalar orasida inongan tog'ingni ko'rasen hali! Qil o'tmas qadrdoningni ko'rasen hali!..

Malikul sharob beixtiyor yuragi uvishib:

— Qil o'tmas qadrdonim? — deb so'radi.

— Ha, taassuflar bo'lg'aykim, inongan tog'ing ham ayg'oqchi ekan!

«Inongan tog'im? Kim ekan u inongan tog'im! Yopiray! Bir balo bo'ldi bu saltanatga! Na davlat tinch, na sulton!»

Malikul sharob payg'ambar yoshiga kirib, ne-ne fojialarni ko'rmadi! Sho'rlik mardumi mo'min ajal kelsa «o'lim haq» deb, taqdirga tan berib, bu noraso dunyo bilan befig'on, befaryod, bezabongina vidolashadi. Qirq yil saltanat tebratib, davru davron surgan bu sulton esa... tilida «o'lim olloning inoyati», desa ham, dilida tavahum, jununlar holiga tushib qoldi!

Bundan uch kun muqaddam, mayxo'rlar tarqab, mayxona uyquga cho'mganida, Malikul sharobni bozor qorovuli kirib uyg'otdi.

— Seni kekxa bir devona yo‘qlab kelmish!

— Neki ahmoq yo‘qlab kelsa uyg‘ota berasanmi, nodon? Devona bo‘lsa bir burda non sadaqa qil!

— Kechirgaysen, Malikul sharob. Devona aytadiki, vaziri a‘zamdan keldim deb! Qo‘lida bir xalta oltin! Mana, o‘zi ham kirdi...

Malikul sharob yalt etib eshikka qaradi, qaradi-yu, o‘z ko‘zlariga ishonmay angrayib qoldi. Yo tavba! Bo‘zag‘ada... amiralmo‘minin sulton Mahmud turardi!.. Ustida eski quroq chopon, boshida xorazmcha eski cho‘girma, belida qizil bo‘z belbog‘!

U: «Indama, ovozing chiqmasin!» degan ma‘noda kaftini labiga bosdi, so‘ng, bozor qorovuliga yuzlanib:

— Sen boraver! — deb g‘o‘ldiradi-da, oyog‘ini arang sudrab ichkariga kirdi.

Qorovul qo‘lidagi toshfonusni tokchaga qo‘yib, shosha-pisha xonadan chiqdi, chiqishi bilan sulton, go‘yo kimdir oyog‘iga bolta urganday, tizzalari qaltirab, yerdagi eski namatga holsizgina cho‘kkaladi, shunda belidagi xaltasi yerga tegib, darang-durung ovoz chiqardi.

«Qorovul aytgan oltin! Yopiray! Oltinlarni ne qiladi? Devona sifatida tun yarmida ne matlabda tentirab yuribdi bu jununsifat sulton?»

Amiralmo‘minin, ko‘zlari yumuq, og‘ir hansirab ancha o‘tirdi.

— Birodarim Qutlug‘qadam! — dedi sulton, allaqanday nogiron, mahzun tovushda. — Tunov kungi so‘zlarining hanuz yodimda, hanuz kechalari uyqu bermaydi menga!

Sal hushiga kelgan Malikul sharob nogahon yuragi «shig‘» etib:

— Bir qoshiq qonimdan kechgaysen, amirim! — dedi. — Qurib ketgur rindona kayfiyat sabab, faqir o‘sha kuni ko‘nglingga ozor berdim...

— Yo‘q, yo‘q! — Sulton zaif chirog‘day miltiragan ko‘zlarini bir ochib, qayta yumdi. — So‘zimga inon, Qutlug‘qadam, agarchand ollo taolo o‘z inoyatini darig‘ tutmay bu dardi bedavodan forig‘ qilsa... men ham darveshlikni ixtiyor etib, bir tunda dorussaltanatdan

chiqib ketar edim. Ustimga janda, boshimga kuloh kiyib, «huv» deb boshimni olib chiqib ketar edim, tilamchilik ila kun kechirib, qilgan gunohlarimni yuvar edim! E, yaratgan egam! O'zingdan o'zga g'amguzorim yo'q! — dedi sulton to'satdan allaqanday faryod chekib. — Va lekin... nahot bu mayparast aytganday savob yumushlarimdan qilgan gunohlarim ko'p bo'lsa? Yo'q, inonmaymen bu gapga! Ammo... inonmasam ham, mana, bir xalta oltin olib keldim, Qutlug'qadam! O'shal o'zing aytgan yetim-yesirlarga ulashgaysen! Kerak bo'lsa... yuz xalta desang ham keltirib berurmen...

Sulton so'zini tugatmagan ham ediki, eshik sharaqlab ochildi-da, g'ira-shira xonaga... vaziri a'zam Ali G'arib kirib keldi.

Sulton go'yo Ali G'arib emas, ko'ziga baloi azim ko'ringanday talmovsirab:

— Ali G'arib? — deb xitob qildi.

— Yo rab! — dedi Ali G'arib yoqasini ushlab. — Sultoni sohibqiron gado kiyimida? Bu ne hol? Sizga ne bo'ldi, olampanoh?

Sulton, nogiron jismi qalt-qalt titrab:

— Yo'qol ko'zimdan battol! — deb baqirdi. Biroq vaziri a'zam amiralmo'mininning hayqirig'iga bo'ysunish o'rniga yerga tiz cho'kib, sultonning oyoqlarini quchoqlab oldi.

— Sadoqati boqiy qulingizni afv etgaysiz, olampanoh! Va lekin... birov ko'rsa ne deydi? El-yurt eshitsa ne bo'ladi, o'tobi olam?

— Daf bo'l, iblis!

— Mayli, faqirni o'ldirsangiz o'ldiring! Ammo... bukun darg'azab bo'lsangiz ertaga tashakkur aytasiz faqirga! Hech bir kimsa ko'rmagay sizni, olampanoh! — Ali G'arib shunday deb, qo'ynidan qizil shoyi belbog' chiqardi-da, sultonning yuziga tashlab eshikka yuzlandi:

— Sardor!

Tashqarida tapir-tupur oyoq tovushlari eshutilib, xonaga ikki navkar kirib keldi.

— Ko'taring bu gadoni! Olib chiqib, aravaga soling!



Yuzi qizil shoyi belbog' bilan o'ralgan sulton bir-ikki marta pitir-pitir qildi-da, uzala tushib yotib oldi. To navkarlar sultonni ko'tarib olib chiqib ketguncha Ali G'arib bir chekkada qovog'ini uyib sukut saqlab turdi, so'ng Malikul sharobga qarab:

— So'zimni qulog'ingga quyib ol, betavfiq! — dedi past, tahdidli tovushda. — Tuya ko'rdingmi — yo'q! Biya ko'rdingmi — yo'q! Bil'aks, po'stingni shilib, ichiga somon tiqamen, shayton!

...Ha, bir balo bo'ldi bu saltanatga! Hammayoq xufiya! Hammayoq ayg'oqchi! Hammayoq vahima!..

— Qil o'tmas qadrdoning deding, Bobo Xurmo!

— Ha, ul quzg'un sening tuzingni ichib, tuzlug'ingga...

Bobo Xurmoning so'zi og'zida qoldi, chunki shu payt zindoning qo'sh tavaqali zalvarli eshigi g'ichir-g'ichir qilib, bazo'r ochildi-da, toshfonus ko'targan ikki sarboz ko'rindi.

— Osiy banda Qutlug'qadam! Chiq zindondan!

Malikul sharob qorong'ida Bobo Xurmoning boshi uzra egildi.

— Alvido! Diydor ko'rish nasib etmasa rozi bo'l, Bobo Xurmo! — Malikul sharob bo'g'ziga tiqilgan ko'z yoshini ichiga yutib, o'rnidan turarkan, Bobo Xurmoning: «Iloyo kaminaning boshiga tushgan bu uqubat sening boshingga tushmagay, azizim!» — deb shivirlaganini eshitdi.

Ikki sarboz — biri oldinda, biri orqada, Malikul sharobni zindondan olib chiqishdi-da, uzun tor yo'lakdan qayoqqadir boshlab ketishdi.

Malikul sharob, tekis yo'lakda qoqinib-surinib borarkan, uni kutayotgan qiynoqlar to'g'risida emas, hamon Bobo Xurmoning so'zlari to'g'risida o'ylardi.

Yopiray, kim ekan u, Malikul sharobga qil o'tmas qadrdon tutinib, boz ustidan gap tashib yurgan? Tuzini yeb, tuzlug'iga tuflab yurgan bu battol kim? Piri G'ijjakiymi yo anov keksa nashavand Bobo Hofiz Bulbuliymi yoxud... Piri Bukriymi?.. Yo'q, yo'q, o'z elidan ayrilib, musofir yurtida yuragi qon bo'lib yurgan bu

majruh mashshoq bunday tubanlikka bormaydi! Nafosat va nazokat ahlidan bu yovuzlik chiqmaydi!

To'satdan, tor yo'lakning ikki tomonidagi turnaqator eshiklardan biri ochilib, ichkaridan... yalang'och qilich ushlagan echkisoqol bir navkar chiqdi. Sarbozlar uni ko'rishlari bilan o'zlarini chetga olib, Malikul sharobga yo'l berishdi. Navkar mahbusga boshdan-oyoq tikilib qaradi, bo'z ko'ylagi tagidan ozg'in tanasini paypaslab ko'rdi, keyin, qovog'ini uyanicha, ichkariga imo qildi: «Kir!»

Malikul sharob, birinchi daf'a yuragi allanechuk uvi-shib, qiya ochiq eshikdan ichkariga kirdi. Uning ketidan sersoqol navkar ham kirib, eshikni zich yopdi. Torgina chorburchak xona, tokchadagi toshfonusni hisobga olmaganda, deyarli jihozsiz, unda faqat ikki kursi turar, ularning biri bo'sh, ikkinchisi esa... vo darig'! Kimsan vaziri a'zam, Ali G'arib janoblarining o'zlari o'tirar edi!..

Malikul sharob shaytonga saboq berguvchi bu qari tulkini ham, undan avval qirq yil hukm surgan sobiq bosh vazir Xo'ja Ahmad Maymandiyini ham yaxshi bilar, ular davrida necha marta hibsga tushgan, birda shakkolik, birda dahriylik, yana birda saltanat sha'niga yomon so'zlar aytding, degan kechirilmas gunohlar bilan zindonga solingan, ammo hech qachon shaxsan vaziri a'zamning tergoviga musharraf bo'lmagan edi!..

U beixtiyor kinoyali kulimsirab, poygakda to'xtagan edi, Ali G'arib:

— Nasl-nasabing qul bo'lsa-da, Malikul sharob degan noming bor,— dedi blinar-bilinmas kulimsirab. — Marhamat, kursiga o'tir, Qutlug'qadam!

— Tashakkur! — Malikul sharob kursiga o'tirishi bilan vaziri a'zam o'rnidan turib ketdi-da, qo'llarini orqasiga qilib tor, shipshiydam xonani bir aylanib chiqdi. Uning harakatlari asabiy, qovog'i soliq, ukki ko'zlari uyqusizlikdan qizarib, battar kirtayib qolgandi.

«Sirti yaltiroq, ichi qaltiroq umr! Bosh vazir bo'lish ham oson emas! Ammo oson bo'lmasa, bu azob-uqubati ni yelkasiga ortib ne qiladi bu pakana fosiq? Qo'rasi to'la qo'y, xazinasi to'la ganj, harami to'la kaniz! Ayshini

urib, kayfini surib yotmaydimi bog'i bo'stonida! Yo'q, yotib bo'пти bu qari tulki! Hokimiyat kerak bu iblisga! Bani odam ustidan; o'zi yanglig' bandalar ustidan hokimlik qilmoq dardiga muftalo bo'lgan bu dajjol!»

Ali G'arib, to'satdan yurishdan to'xtab:

— Osiy banda Qutlug'qadam! — dedi sekin, muloyim tovushda.— Bizga shu narsa ayonkim, bundan chaması uch hafta muqaddam, sening mayxonangga bir keksa sayyoh o'z shogirdi bilan pinhona kelib qo'nmish. Va bir hafta mehmon bo'lmish. Kim edi va ne muddaoda kelgan edi bu sayyoh?

Vaziri a'zam so'zini muloyim boshlasa ham, oxirini tahdid bilan tugatdi-yu Malikul sharob bir on allaqanday talmovsirab qoldi.

— Bu sayyohning ne maqsadda yurgani faqirdan ko'ra siz janoblariga ayonroq emasmu, taqsir?

— Sabab?

— Sababi... shu daqiqada janoblarining qo'lidatur ul firibgar!

— Firibgar?

— Ha, o'zini hazrat Ibn Sino deb, sho'rlik avomni to'nab yurgan bir battol ekan ul sayyoh!

— Hmm! — Ali G'arib, xuddi noxush gap eshitgan odamday, yuzi bujmayib, qovog'ini uydi. — Xo'sh, soxta tabib ekanini qaydan bilding uning?

— Kamina yomon odamni ming chaqirim naridan bilamen, taqsir! Kimsan, hakimi davron Ibn Sino hazratlariga nomunosib yurish-turishlaridan, mast-alast qiliqlaridan, telba-teskari gap-so'zlaridan bildim, hazratim!

— Xulqi atvoridan! — dedi vaziri a'zam, negadir birdan g'azabi jo'shib. — Ibn Sino hazratlarini farishta deb kim aytdi senga?

— Farishta emasdur, va lekin...

— Sen ul hakimi davron... Ibn Sino hazratlarining suratini ko'rdingmu? O'shal mashhur va ma'lum suratkash, allomai zamon Abu nasr Arroq chizgan suratni ko'rdingmu?

— Ko'rdim, taqsiri olam.

— Xo'sh? O'xshaydimu?

— O'xshaydi...

— Ikki tomchi suvday o'xshaydi! — dedi Ali G'arib. Malikul sharob vaziri a'zam janoblarning maqsadiga tushunolmay, bir lahza jim qoldi.

— Yo so'zim noto'g'rimi, Qutlug'qadam?

— To'g'ri va lekin ul firibgar...

— Firibgar! — dedi Ali Farib, kirtaygan ko'zlarini chaqchaytirib. — Firibgar bo'lsa nechun unga mayxonang to'ridan joy berding? Aziz mehmon deb, shohlarga ko'rsatmagan lutf-karam aylading, boshingga ko'tarib e'zozlading! E'zozlab turib, saltanatga qarshi pinhona suhbatlar qurding? — Vaziri a'zam oppoq lo'ppi qo'lini musht qilib tugdi-da, poshnasi baland qizil saxtiyon etigi bilan yerda dik-ik sakrab, Malikul sharobga yaqinlashdi. — Yolg'iz bu sayyoh emas, mana, qirq yildirki, G'aznai munavvarada neki iprindi-siprindilar, neki gado, neki qalang'i-qasang'i, dordan qochgan neki qalloblar bo'lsa hammasiga boshpana berasen! Ular bilan kufr majlislar qurasen! Va bu majlislarda saltanat sha'niga bo'htonlar yog'dirib, shakkoklik qilasen!..

Malikul sharob, qo'llarini kursi suyanchig'iga tirab, asta o'rnidan turdi.

— Taqsiri olam! Agar qirq yildan beri shakkoklik qilg'on bo'lsam, saltanat sha'niga yomon so'zlar aytib bo'htonlar yog'dirg'on bo'lsam nechun faqirning tilini sug'urib olmadingiz? Nechun oyog'imdan dorga osib, ostimdan o't qo'ymadingiz, janobi bosh vazir?

— Zaharxanda qilma, betovfiq! Agar amiralmo'minin... sababi yoshlik, farmon berib qo'ymaganida, o'zim bilar edim ne qilmoqni. Ammo... Bas! Endi pichoq suyakka borib taqaldi! Endi sening qilmishlaring ayon bizga! Bosgan har bir qadaming, aytgan har bir so'zing ayon bizga! Tomchi sel bo'lmas, dushman el bo'lmas! Anov quzg'un imom Ismoil bilan tiling bir sen imon-sizning!

— Qaysi imom Ismoil, taqsir?

— Hozir bilasen qaysi imom? — Vaziri a'zam, ukki ko'zlari cho'g'day yonib, eshikdagi echkisoqol navkarga yuzlandi. — Chaqir o'rgamchini!

«O'rgamchi» so'zini eshitishi bilan Malikul sharob «shilq» etib kursiga o'tirib qoldi.

«O'sha! Piri Bukriy! Odamlar uni nechundir «qora o'rgamchi», deb ko'p xushlamas edi. Malikul sharob bo'lsa, musofir deb, ko'ngli o'ksik, mayib-majruh tug'ilgan, yurtidan ayrilgan bir g'aribu notavon deb unga rahm-shafqat qilgan, uyining to'ridan joy berib, boshini silagan edi!.. U iblis bo'lsa tuzini ichib, tuzlug'iga tupurib yurgan ekan! Vo darig'! Nahot bu gap rost bo'lsa? Nahot o'z kuylari bilan bir uy mayxo'rlarni yig'latib yurgan bu bukri bunday tuban sotqinlikka borsa?»

Malikul sharob o'tirgan joyida g'ujanak bo'lib, ko'zini chirt yumib oldi. Shu payt eshikda qandaydir bir sharpa eshitildi, so'ng Ali G'aribning:

— Qani, so'zla, o'rgamchi! — degan tahdidli ovozi qulog'iga chalindi-yu, qo'rqinqirab ko'zini ochdi.

Poygakda... Piri Bukriy turardi. Yo'q, bu Malikul sharob bilgan Piri Bukriy emas, boshqa bir bukri edi! U odatdagi qora chakmon o'rniga keng zarbof to'n kiyib, boshidagi eski kuloh o'rniga uchiga dur qadalgan suvsar telpak qo'ndirib olgan, o'ziyam, soqol-mo'ylovlari qaychilanib, allaqanday yosharib ketgan edi. Faqat ko'zlari, o'sha, bolalarning ko'zlariday ma'sum ko'm-ko'k ko'zlari allaqanday bejo javdirardi!

Malikul sharob Piri Bukriyning chehrasiga jirkanish aralash taajjub bilan tikilab qararkan, to'satdan, «Sadafibi!» degan fikr miyasida yashinday yarq etdi. «Ha, bu bukrining yasanib olgani bejiz emas, sho'rlik qizni qo'lga tushirgan bu qari o'rgamchi!»

Bu fikr Malikul sharobni shunday hayratga soldiki, tili gapga kelmay, bir on angrayib qoldi, so'ng, qayoqdandir olisdan vaziri a'zamning tovushi qulog'iga chalindi:

— Ha, bukri, nechun og'zingga talqon solib olding? So'zla! Bor haqiqatni so'zla! Hammasini eshitsin bu nobakor!

Malikul sharob yalt etib Piri Bukriyga qaradi. Bukriy qo'ltig'idan qora charm jildlik qalin bir kitobni olib, vaziri a'zamga ta'zim qildi:

— Taqsim! Mana, marhamat, hammasi bitilgan bu daftarga! So'nggi yigirma yilda bu shakkok mayparastning kufr kulbasida neki so'z aytilgan bo'lsa, saltanat sha'niga, poshshoyi olam va siz janoblarining sha'niga dog' tushirguvchi neki fisqi fujur gap bo'lgan bo'lsa — hammasi bu daftarga bitilgan! Kunma-kun, so'zma-so'z bitilgan, taqsim!

Piri Bukriy shunday dedi-da, qalin daftarni kaftlarida tutganicha, vaziri a'zam tomon yurdi. U Malikul sharobdan hadiksirab, uni chetlab o'ta boshladi. Biroq Malikul sharob sapchib o'rnidan turdi-yu:

— O, quzg'un, o, nokas! — deb mushtini ko'tardi. — Salkam yigirma yil tuzimni ichib, tuzlug'imga tupurgan nonko'r! Nega yer yutmaydi sen iblisni? Nega?

Piri Bukriy ko'zlari ola-kula bo'lib, dahshat ichida orqaga tisarildi. Ammo Malikul sharob bir hatlashda unga yetib, zarbof to'ning yoqasidan oldi:

— Bu sotqinliging uchun, yigirma yil bu qora daftarga bitgan ig'vo so'zlaring uchun ne olding? Ne shon-sharaf topding, ne martabalarga erishding, bukri shayton? — Malikul sharob shunday deb, bukrining qo'lidagi qora charm jildli qalin daftarni yulib oldi-da, qulochkashlab boshiga tushirdi. Piri Bukriy «ih» deb, boshini ushlaganicha yerga cho'kkalab qoldi. Malikul sharob unga qarab yana talpindi. Biroq shov-shuvni eshitib, chopib kirgan echkisoqol navkar uning qo'llaridan qayirib, eshik tomon sudradi.

Malikul sharob navkar bilan olishib, eshikdan chiqarkan, to'ra haykalday qotib qolgan vaziri a'zam bilan yerda ingrab yotgan bukriga ijirg'anib qaradi va bor kuchini to'plab bukrining yuziga tufladi:

— Bu kuningdan beshbattar bo'l, battol!

## *Yigirma birinchi bob*

### 1

Beruniy hech narsaga tushunolmay qoldi. Uni G'aznadan olib chiqqan navkarlar goh karvon yo'lidan yursa, goh pistirma joylarga burilib, tog'u toshlar, qir va adirlar, jarliklarni panalab ketardi. Katta karvon yo'lida esa qandaydir shubhali choparlar, qo'sh otli divsuvarlar, sallalariga nayzasimon kumush nishon qadalgan mushriflar betinim ot surishar, biri Teginobod tomon yo'l olsa, biri, bil'aks, G'azna tomon ot choptirib o'tardi.

Beruniyni boshlab ketayotgan mushrif xuddi iskovuch itdek, hamma narsani oldindan sezardi, yiroqda odam qorasi ko'ringan zahoti uning kimligini bilib, goh navkarlarni pistirmaga boshlar, goh, aksincha, o'z yo'lida dadil davom etar, choparlar bilan salomlashib, hol-ahvol so'rashib o'tardi.

Xatlibegim boshliq bir qancha arkoni harb va arkoni davlat bir tomonda vaziri a'zam Ali G'arib va uning tarafdorlari bir tomonda, toju taxt uchun pinhoniylar kurash ketayotganini Beruniy yaxshi bilardi. Ammo bu kurash bunchalik shiddatli tus olgani xayoliga ham kelmagan edi. Boz ustiga, qayoqdandir paydo bo'lgan bu sirli Ibn Sino! Uning nomi bilan bog'liq bu qorong'i mishmishlar! Bu ayovsiz pinhoniylar kurash!

Har safar, navkarlar maxfiy mushrifning imosi bilan otlarning boshlarini pistirmaga burarkan, Beruniy ich-ichidan zil ketar, qay balodan bu tuban ishga aralashib qoldim, degan fikr uni qattiq azoblar edi. Shunday paytlarda rasadxonadagi sokin hujrasi, xontaxtada qolgan qo'lyozmalari, javonidagi kitoblari ko'z oldiga kelardiyu, yuragi battar achishib ketardi.

Beruniy so'nggi yillarda, yoshlik davridan o'tib, keksalik manziliga qadam qo'yganidan beri fursat deb atalmish ne'matning qadrini juda yuksak baholaydigan bo'ldi. Behuda o'tgan har bir daqiqa uni qattiq iztirobga solar, hatto hordiq onlari ham huzur o'rniga ko'nglini g'ash qilardi. Ayniqsa, «Qal'ai qahr»ni ko'rish «baxtiga muyassar» bo'lgandan beri bu tuyg'u kuchayib ketdi.

Nazarida, o'ylab qo'ygan ko'p rejalari, xususan, ma'danlar haqidagi bosh kitobi bilan nabotot olami to'g'risidagi asarlari yozilmay qoladiganday tuyulib, ko'nglidagi g'ashlik battar kuchayar edi, ayni zamonda, bo'lg'usi uchrashuv ham uni tobora hayajonga solmoqda edi. To'g'risini aytganda, Beruniy qaydandir paydo bo'lgan bu sirli tabib Xatlibegim aytganidek, yolg'on Ibn Sino emas, chin Ibn Sino bo'lib chiqishini istar, juda-juda istardi. Sulton o'z yo'liga, ular esa... qani endi, sababi bu qing'ir ish bo'lsa ham, diydor ko'rishmoq nasib etsa! Diydor ko'rishib, yoshlik chog'larini bir eslashsa! Avval Buxoroda, Afshona qirlarida yonboshlab yotib, to'yib-to'yib dardlashgan onlarini, keyin Gurganjda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyidagi «Majlisi ulamo» yig'inlarida bo'lgan bahs-munozaralarni eslashib, ajib nurga yo'g'rilgan o'sha mas'ud damlar haqida suhbatlashsa, sababi yoshlik, oralaridan o'tgan nizo va nifoqlar uchun kechirim so'rashib, ko'ngillaridagi g'uborlarni yuvishsa!

Ibn Sino, so'nggi somoniylar inqirozidan keyin Buxoroni tark etib, Gurganjga kelgan mahalda Beruniy Ma'mun ibn Ma'mun saroyidagi eng nufuzli allomalardan hisoblanar, u «Majlisi ulamo»ning doimiy raisi edi.

Ma'mun ibn Ma'mun tug'ilishdan nimjon, kasalmand, hadikchi odam edi. U, sulton Mahmud sabab, toju taxti doim silkinib turgani uchun hamma narsadan, hatto o'z soyasidan ham cho'chir edi. Yomon tush ko'rsa tushidan qo'rqr, osmonda momaqaldiroq qaldirasa, momaqaldiroqdan, yashin chaqnasa, yashindan vahimaga tushar, shuning uchun ham saroyda nafaqat shoir va allomalar, har xil folbinlar, afsungarlar, azayimxonlar ham ivirsib yurardi. U birda mashhur allomalarning majlislarida ishirok etsa, birda bu «kufr ishi» uchun ulamoi zabardastlardan uzr so'rab, ularning etagida namoz o'qir, yana birda esa, folbinlar va kohinlar «tilsimi»ga inonib, qabristonlarda tunab chiqardi. Shu boisdan «Majlisi ulamo»ning yig'inlarida ko'proq tabiat ofatlari — bot-bot bo'lib turadigan bo'ron va dovullar, Jayhunning bebosh toshqinlari, elga qirg'in keltiruvchi vabo va chechak kasallari to'g'risida gap borardi.



Ibn Sino u mahalda yosh edi. Biroq yosh hakimning har bir so'zi chuqur ilm va mantiqqa asoslanar, u tibbiyot pirlari — Uqlidus va Jolinus, Abubakir ar-Roziy va Buqrot hakim allomalarning kitoblarini yoddan bilar, hatto Arastuning ilohiyat bobidagi mashhur asarini ham ipidan-ignasigacha o'rgangan, zotan, majlisda qanday murakkab masala ko'tarilmasin, hammasi to'g'risida fikr bildirishga qodir edi.

Beruniy har safar Ibn Sino va uning Gurganjdagi obro'si haqida o'ylaganida keyinchalik unga yozgan xatlari, to'g'rirog'i, bu xatlarida yo'l qo'ygan gustohliklari esiga tushadi-yu, ko'ngli g'ash bo'ladi. Xayolidan esa: Bu dag'alliklarga sabab ne? Inson nomiga nomunosib raqobat dardi emasmi?» degan fikr o'tib, dil-dilidan iztirob chekadi.

Yo'q, Ibn Sino hech qachon manmanlik qilgan emas, unga esa hurmatsizlik alomatini ko'rsatgan emas. Ular ilk bor Buxoroda uchrashgan mahallaridayoq yosh Abu Ali Beruniyini «ustod» deb atagan edi, ko'p yillardan keyin Gurganjda uchrashganlarida ham «ustod» so'zini og'zidan tushirmadi.

Yo'qsa, nechun Beruniy keyinchalik, tabiat sirlari to'g'risidagi yozishmalarida, alxusus, Arastuning «Ilohiyat»i haqida, jismlarning issiqlik va sovuqlikda kengayishi va torayishi to'g'risida xat yozishganlarida Ibn Sinoga nisbatan qo'pollik qildi, allomalar sha'niga yarashmaydigan gustohlikka yo'l qo'ydi? Yozishmalar ham mayli, Ibn Sino Jurjon hokimi Qobus ibn Vushmagirning qizi Zarrinabonuning iltimosi bilan shaharlar orasidagi masofalarni o'lchash to'g'risida risola yozganida Beruniy uning bu risolasini kamsitdi, hatto uni yerga uruvchi maktublar yo'lladi? Nechun?

Buning sababi ham o'sha dard, inson sha'niga, xususan, allomalar sha'niga nomunosib raqobat tuyg'usi emasmi?

Uchrashuv onlari yaqinlashgan sayin bu o'ylar Beruniyini ko'p qiynar, ko'p ezar edi!

G'azna — Teginobod yo'li ko'm-ko'k adirlar orasidan o'tar, dam keng sayhonliklar, hududsiz yalanglik-

larga chiqar, dam yana bir-biriga o'xshash yam-yashil yassi qirlarni oralab ketardi.

Gohi-gohida uzoq-yaqinda baland tog'lar ko'zga chalinar, yo'l tor va qorong'i daralarga sho'ng'ir, sharqirab oqqan soy va daryolarni yoqalab ketardi...

Safarning ikkinchi kuni kechqurun ular baland qir yonbag'rida joylashgan katta bekatga yetib, qo'nishdi.

Bekatning ulkan sardobasi bor, aftidan, u katta karvonga mo'ljallangan edi. Lekin sardobadan ham burun Beruniyning diqqatini bekat ortidagi baland qir jalb etdi. Uzoqdan ulkan gumbazga o'xshab ko'ringan bu qir nimasi bilandir Nanda shahri yaqinidagi yuksak tog'ni eslatardi. Beruniy qirni uzoqdan ko'rgandayoq g'alati bo'lib ketdi-yu, bekatga yetib, otdan tushishlari bilan maxfiy mushrifdan ijozat so'rab, qir tomon yo'l oldi.

Oftob ufqqa yonboshlagan, butun olam uning iliq nuriga g'arq bo'lgan. Qir yonbag'rida suruv-suruv qo'y-qo'zilar o'tlab yurar, tushovlangan otlar, sigirlar, toshdan toshga sakrab yurgan oq echkilar ko'rinardi. Bekat qo'rg'onining har joy-har joyidan tutun ko'tarilar, havoni tezak va yovshan hidi tutgan edi!..

Ha, xuddi o'zi! Nanda shahri yonidagi tog' ham xuddi shunday ko'm-ko'k, xuddi shunday baland, tevarak-atrof esa bundan ham tekis, bundan ham beqiyos, behudud bir sayhonlik edi!..

Hanuz yodida: u har yuz qadam ko'tarilganda bir to'xtab, ufqqa qarar, ufq esa yana bir necha chaqirim chekinib, yangi kengliklar, pastdan ko'rinmagan yiroq manzaralar namoyon bo'lardi... Har safar yangi balandlikdan yangi ufq ochilganda Beruniy bu nuqtadan xayolan chiziq o'tkazib, turgan joyiga nisbatan hosil bo'lgan burchakni belgilar ekan, favqulodda ulkan bir kashfiyot oldida turganini sezib, yuragi gurs-gurs urardi!

Haqiqatan, g'alati yaralgan ekan inson aql-idroki! U go'yo xasis baqqolday ilm deb atalmish durdonalami bitta-bitta terib, miyaning eng xilvat burchaklariga yig'ib qo'yaverar ekan. Ammo nimadir turtki bo'lib, kechasi yongan mash'alday «yarq» etib yonmaguncha bu xilvatdagi durdonalar ham jilo berib yarqirab ketmas ekan!

Beruniyning nazarida, Nanda tog'idagi hodisa uning uchun ana shunday mash'al xizmatini qildi-yu, xayolida yig'ilib yurgan fikrlarga ajib bir tiniqlik kiritdi! Ha, bu voqeadan ancha oldin, samoviy hodisalarni kuzatib, mashhur rasadxonalarda yulduzlar jadvahni tuzib yurgan paytlarida ham yer kurrasining shakli haqidagi bu fikr uning ko'nglidan ko'p marotaba o'tgan edi! Lekin o'sha kuni, Nanda tog'idagi xarsangtosh ustida o'tirib, toqqa chiqish jarayonida namoyon bo'lgan g'aroyib hodisa to'g'risida xayol surarkan, ilgari qilgan taxminlari aniq va mukammal bir shaklga kirdi!

O'sha oqshom, Beruniy tog' tepasida, osmon to'la yulduzlarga tikilib tong ottirdi. Mijja qoqmay tong ottirdi! U dunyoda eng baxtli odam edi! Chunki o'sha kecha unga tabiatning buyuk bir siri ayon bo'lgandi!

...Kechki oftob ufqqa qo'ndi, qirlar ustini qoplagan harir tuman orasida u xuddi eritilgan bir jom oltinga o'xshardi. Ana, bu bir jom oltin go'yo ulkan nahrga cho'mganday yer qa'riga asta cho'mib ketdi. Lekin Beruniy bilar, agar u bu qirdan balandroq qirga chiqib boqsa, botgan oftob hamon botmagan bo'ladi, hamon jom to'la oltinday balqib turadi!

Rost, Beruniy bu ulug' kashfiyoti haqidagi risolasini hali allomalar davrasida e'lon qilmadi, chunki biladi: oddiy allomalar uyoqda tursin, eng katta munajjmlar ham bu risolani idrok etishga ojizlik qiladi!

Hayhot! Unga besh qo'lday aniq ko'rinib turgan haqiqat boshqalarga qorong'u, unga ayon bo'lgan sir-sinoatlar boshqalar uchun jumboq! Uni ezayotgan narsa ham shu! Uning kashfiyotlariga aqli yetadigan, farazlarining mag'zini chaqa oladigan na bir yo'ldoshi bor, na bir sirdoshi! Hayotda aqli aqlingga teng bir hamdaming, qilgan kashfiyotlaring, o'ylagan o'ylaringga tushunadigan, dardlaringga hamdard bo'ladigan bir kimsang bo'lmasa ham qiyin ekan! Qani endi yonida Ibn Sino bo'lsa! Ibn Sino u qilgan kashfiyotlar, u yozgan kitoblarning mag'zini chaqa olardi, ularning qadriga yetardi!

Ufqdagi bir jom oltin batamom yerga singib ketdi, yiroq-yiroqlarda lovillab yongan shafaq asta so'ndi. Qora

duxobaday tiniq osmonda ilk yulduzlar yondi, bekat hujralarining darichalari yorishdi...

Beruniy asoga suyanib, sekin o'rnidan turdi.

2

Yo, qudratingdan!

Xiragina moychiroq arang yoritgan tor hujraning to'rida... boshida eski qalpoq, egnida eski olacha chakmon, keksa bir odam o'tirardi!..

— Malikul sharob!

— Ofarin, allomai zamon! Taniding-a! — Malikul sharob yonidagi xurjunini bir chetga surib, o'rnidan turdi.

Uning soch-soqoli avvalgidan ham o'sib ketgan, o'ziyam cho'pday ozib, allaqanday bukchayib qolgan, biroq hanuz ilgariqiday xurram ko'rinar, og'zidan bilinar-bilinmas sharob hidi kelardi...

Beruniy aziz birodarining ahvolidan yuragi zirqirab, quchog'ini ochib ko'rishdi.

— Yopiray! Hibsdan chiqdingmi yo mayxonadan keldingmi, azizim?

Malikul sharob, boshidagi eski qalpog'i bilan yuzko'zlarini artib, kinoyali kulimsiradi:

— G'alati so'zlarni so'zlaysen, allomai davron! Malikul sharobga zindon ham mayxona, mayxona ham mayxona! Tilasang senga ham quyib beramen! — Malikul sharob shunday deb, eski chakmonining belbog'ini yechdi, qo'ynidan kichikroq bir meshni sug'urib olib, uni shaloplatib chayqatdi:

*Bu dunyo bir hibsxona, bilib ol,  
U dunyo ham emas jannat, kelib qol,  
U ham ortmas ulug'lardan, ko'ngil uz,  
Kuning bitmay yayrab, o'ynab-kulib qol!*

Malikul sharob meshning og'zidagi charm ipni yechdi, boshini orqasiga tashlab, qultillatib bir-ikki ho'plam sharbat ichdi-da, meshni Beruniyga uzatdi.

*Bu dunyoi qo'tir, o'tar-da ketar,  
Qani, Abu Rayhon, ol, meshni ko'tar!*

Beruniy o'zini tutolmay beixtiyor kulib yubordi-yu, darhol lab-lunjini yig'ishtirdi.

Malikul sharob, garchi bir qarashda juda xushnud ko'rinsa ham, gap-so'zlari va xatti-harakatlarida ilgari unga yot bo'lgan chuqur bir nogironlik sezilib turardi. Zotan, u so'nggi yillarda may ichishni yig'ishtirib qo'ygan, uni qanchalik ulug'lamasin, o'zi kamdan-kam og'ziga olardi. Endi esa...

Beruniy g'ira-shira qorong'ilikda qadrdonining zahil yuziga, ichga botib ketgan g'amgin ko'zlariga tikilib-tikilib qaradi.

— Senga ne bo'ldi, Malikul sharob? Sulton zindoniga tushgan hech bir bandai mo'min undan omon chiqqan emas. Mana, qutulib chiqibsen, shukr qil, azizim!

— Yo'q, Abu Rayhon! Sen bilmaysen! Kaminaning yuragini qon qilgan narsa zindon emas! Zindonda yegan kaltaklarim ham emas! — Malikul sharob shunday deb xitob qildi-da, egnidagi eski chakmonini shartta yechib, yerga otdi. Uning qovurg'alari turtib chiqqan nimjongina tanasida sog' joy yo'q, hammayog'i ko'k bo'yoq surtilganday taram-taram bo'lib ko'karib ketgan, chumchuqday jon bu ojiz tanadan «pir» etib uchib ketmaganiga hayron bo'lardi kishi.

— Yo'q, Abu Rayhon! Malikul sharobni qiynagan narsa zindon azobi emas, yo'q! Kaminani qiynagan narsa... qil o'tmas qadrdonimning xiyonati! Ha, sen haq ekansen, Abu Rayhon! Kamina rahm-shafqat qilib yurgan Piri Bukriy tuban bir sotqin ekan! Anov mal'un vaziri a'zamning xufiyasi ekan! Yigirma yildirki, kulbai vayronamda ne majlis, ne so'z bo'lsa — hammasini diliga jo qilib, kitobiga bitib, oqizmay-tomizmay yetkazib yurgan ekan bu firibgar bukri!..

Beruniy indamay devorga suyanib turardi. U Piri Bukriyni qanchalik yomon ko'rmasin, uning bu tuban ishlaridan bexabar edi. Malikul sharob mayxonasida mayxo'rlik qilib, nayu navosi bilan hammaning ko'nglini olib, zimdan gap tashib yurgan bir iblis ekanini xayoliga ham keltirmagan edi!..

— O, bani odam! Bani odam! — dedi Malikul sharob fig'oni chiqib. — Bani odamning bu tubanligi oldida nechun bu osmon ag'darilib yerga tushmaydi? Nechun asfalasofilinga ketmaydi bu noraso olam? Ul tuban ayg'oqchi bilmaydiki, bu dunyoda kimki vafo qilsa vafo, jafo qilsa jafo topg'usidir! Kamina esa, uni musofir deb, faqiru haqir deb, rahm-shafqat qilib yuribmen! May ichsam, ul kazzobsiz ichmas edim, osh yesam, ul quzg'unsiz yemas edim! Ul battol bo'lsa.. so'zlagan har bir so'zimga yuz so'z qo'shib, yaxshi kalomimni yomonga yo'yib, anov makkor vaziri a'zamga yetkazib yurgan ekan!.. Yo tavba! Bu tuban yumushga qo'l urgan ul sotqinni bir ko'rsang edi, Abu Rayhon! Kuni kecha gadoday ivirsib yurgan bu azozil zarbof to'nlarga o'ralib olmish, soch-soqolini qirtishlab, yasharib ketmish ul bukri!

«Sadafbibi! Sho'rlik Sadafbibi!»

Beruniy tishini tishiga bosib hamon devorga suyanib turar, dilida esa ilgari hech qachon his etmagan alamli tuyg'ular jo'sh urardi. Qani endi, shu topda shartta chiqib, G'azna tomon ot surishning iloji bo'lsa! Hech joyda to'xtamay, to'g'ri G'aznaga kirib borsa, kirib borsa-yu, burgaga tuzoq qo'ygan bu iblisning do'koniga bostirib kirib giribonidan ushlasa!

— Yo'q! — dedi Malikul sharob. — Na adolat bor bu osiy bandalarda, na insof va na haqiqat!.. Qirq yil elda qatlu qirg'in qilib, endi Azroil qo'lida to'lg'anib yotgan bu sulton esa... o'zini «hakimi davron» deb, hammani shilib yurgan bir qallobni chin Ibn Sino deb e'lon qilsa!

Beruniy, garchi bu gapni eshitgan bo'lsa ham, beixtiyor bir sapchib tushdi:

— Hammani shilib yurgan bir qallob? So'zingni anglamadim, Malikul sharob?

— Nechun anglamaysen? Vaziri a'zam topgan bu Ibn Sino — chin Ibn Sino emas. Ali G'aribning o'zi yanglig' bir makkor! Shaharma-shahar izg'ib yurgan bir mayparast, o'zini Ibn Sino deb, avomni to'nab yurgan bir qallob! Vaziri a'zam topgan bu «hazrat» Ibn Sino o'shal battol! Laqabi Abu Shilqim ibn Shahvoniy!

— Abu Shilqim ibn Shahvoniy? Ajab laqab! Bu sirni qaydan bilding?

Malikul sharob maqtov eshitgan yosh boladay qiqir-lab kuldi:

— Sirni aytdim, asrorini so'rama, Abu Rayhon! Ammo yodingda bo'lsin. Bu sirni butun dorus-saltanada faqat ikki kishi biladi. Biri — ul shaytoni layn Ali G'arib, biri — Kaminai kamtarin! Bas! Sen chin Ibn Sinoni tanisang, kamina bu soxta Ibn Sinoni taniymen! Ikkovimiz ham bu mudhish sirdan voqifmiz! Va lekin bu voqiflik bizga ne keltiradi — yaxshilikmi yoxud yomonlik — buni yolg'iz ollo biladi, Abu Rayhon!..

Beruniy javob bermadi. Uning ko'ngliga hozir na gap sig'ardi, na hazil-mutoyiba!

Malikul sharobning gaplari, Sadafbibi taqdiri, chin va yolg'on Ibn Sino haqidagi mudhish hangoma — buning hammasi uning ko'nglidagi osoyishtalikni izdan chiqar-gan, xayoli yana to's-to'polon bo'lib ketgandi.

### 3

Odatda tong qorong'usida yo'lga tushadigan navkar-lar bu safar kun chiqdi hamki, o'rinlaridan qo'zg'alish-madi. Beruniy bilan Malikul sharobni hech kim bezovta qilmadi, ular go'yo mushriflarning eslaridan chiqqan edi. Faqat tushga yaqin qayoqdandir ikki suvori ot choptirib keldi-yu, rabot cho'p suqilgan ari uyasiday g'uwillab qoldi. Farroshlar bekat qo'rg'onining ichu sirtini supu-rishga kirishishdi, turnaqator tizilgan meshkobchilar sar-dobadan suv olib, katta yo'lga suv sepishdi, otboqarlar otxonalardan eng chopqir otlarni olib chiqib, yangi egar-jabduqlar urishdi. Beruniy bilan birga ketgan sarbozlar esa, go'yo Ibn Sino atalmish hakimi davronni emas, ayovsiz dushman lashkarlarini qarshi olishga hozirlik ko'rayotgandek, qilichlarini qayrab, otlarini shay qilib qo'yishdi. Sal o'tmay Beruniylar joylashgan hujraga ularni boshlab kelgan puchuq mushrif tashrif buyurdi. U egniga yangi zarbof to'n kiygan, belini og'ir kumush kamar bilan bog'lab, boshiga kokil osilgan dubulg'a qo'ndirib olgandi.

Puchuq mushrif bandiga popuk taqilgan egri qilichini etigiga shaq-shuq urib, yerni tap-tap bosib kirib keldi, qovog'ini uyib, har bir so'zini qilichday kesib-kesib gapirdi, biroq xatti-harakatlarida qandaydir ichki bir g'alayon sezilib turardi.

— Mavlono! — dedi u Beruniyga murojaat qilib. — Hozir... hakimi davron... Ibn Sino hazratlari yetib keladurlar. Ul oftobi olamning amru farmonlari shulkim, biz ul mo'tabar zotni o'z qanotimiz ostiga olib, sog'salomat dorus-saltanaga yetkazmog'imiz darkor... Siz ul zoti oliylarini yaxshi taniysiz, mavlono?

Beruniy sekin bosh irg'adi.

— Taniymen, agar bu Ibn Sino faqir bilgan o'shal Abu Ali ibn Sino bo'lsa...

Puchuq mushrif Beruniyning kinoyasiga tushunmagan bo'lib, Malikul sharobga yuzlandi:

— Siz ham taniysiz?

— Bilmam. Kamina Abu Shilqim ibn Shahvoniy degan bir kimsani taniymen, xolos!

— Ibn Shahvoniy?

— Balli, janobi mushrif! Yaqinda G'aznai munavarada Abu Shilqim ibn Shahvoniy degan bir firibgar paydo bo'lgan edi, faqir o'shal firibgarni taniymen, xolos!

Puchuq mushrif «bu odamning aqli joyidami», degan ma'noda qovog'ini uyib, Beruniyga bir qarab oldi-da, qo'lini qilichining bandiga qo'ydi.

— Bu ishda qanday sir-asror bo'lmasin, kaminadan boshqa biror tirik jon bilmasligi darkor! Bil'aks, boshingiz ketadur! Neki sir-sinoat bo'lsa, dorus-saltanaga bor-gach, devoni davlatda so'zlab berursiz. Hozir esa shu narsa yodingizda bo'lsin: mavlono Beruniy hazrat Ibn Sino bilan birga soyabon aravada ketadilar. Siz esa... navkarlar bilan birga bo'lasiz! Farmoni humoyun shu erur!

Beruniy jimgina bosh egdi. Malikul sharob bir nima demoqchi edi, puchuq mushrif «gap tamom», degan ma'noda qo'lini ko'tardi.

— Farmoni oliy — hukmi xudodur! Tamom, vassalom!



Kun choshgohdan oshib, oftob nayza bo'yi ko'tarilganda, bekat minoralaridan «Ko'rindi! Ko'rindi!» degan sadolar eshitildi.

Sal o'tmay ufqda, bir-biriga tutashib ketgan ko'm-ko'k adirlar ortida katta oq bulut ko'rindi. Bu — ot-aravalar ko'targan chang-to'zon edi. Zum o'tmay, to'zon orasidan otilib chiqqan bir guruh suvorilar ko'zga chalandi.

Rabot oldidagi katta yo'lni puchuq mushrif boshliq navkarlar egallagan, yo'l chetida otboqarlar yigirma chog'li otlarni shay qilib turishar, ularning orqasida esa, suv to'la meshlarini orqalab olgan meshkobchilar ko'rinardi.

Beruniy bilan Malikul sharob qo'rg'on darvozasi oldida, negadir rangi o'chib, dir-dir titrab turgan bekat nazoratchisi yonidan joy olishdi.

Meshdagi mayni ichib tugatgan Malikul sharobning kayfi chog' edi. U goh o'zicha sekin xirgoyi qilar, goh: «O, kazzob! O, quzg'un!» deb so'kinib qo'yardi. Beruniy esa... Beruniy hamon o'sha g'alati holatda edi. Xatli-begim bilan Malikul sharobning gapidan keyin ko'nglida uyg'ongan g'alayon endi junbishga kelgan, uzoqdagi oq bulut yaqinlashgan sayin uning dilidagi g'alayon ham tobora ortib borardi.

Ana, ufqdagi oq to'zon orasida bir guruh navkarlar, navkarlardan keyin sariq ipak mato bilan yopligan soyabon arava ko'rindi. Uzoqdan katta chodirni eslatgan bu arava to'rt tomonidan o'ttiz-qirq nafar suvori bilan qurshab olingan, go'yo soyabon aravada Ibn Sino otlilik hakimi emas, butun ro'yi zaminni tiz cho'ktirgan jahongir suron solib kelardi!..

Ana, aravani qurshab olgan suvorilar aniqroq ko'rindi. Oldinda qora terga tushgan ko'k qashqa arg'umog'ini yeldirib, o'sha Abu Shilqim ibn Shahvoniyni Teginobodga kuzatib borgan cho'tir mushrif kelardi. Mushrifning qoramtir cho'tir yuzi bo'g'riqqan, ko'zlari chaqchaygan, go'yo bekat oldidagi katta yo'lda amiralmo'mininning elchilari emas, yovuz qaroqchilari yig'ilgan edi!

Nihoyat, aravani qurshab olgan sarbozlar tasir-tusur ot surib yetib kelishdi. Ular katta yo'lni to'sib turgan navkarlarga besh-o'n qadam yetmay to'xtashdi. Shu zahotiy oq oldinda kelayotgan cho'tir mushrif uzangiga oyoqlarini tirab, egar ustida qaddini rostladi-yu, bo'g'iq, tahdidli ovozda:

— Bekat begi! — deb qichqirdi. — Charchagan otlar darhol almashtirilsin! Qolganlariga suv va yem berilsin!

Cho'tir mushrif so'zini tugatmagan ham ediki, so-yabon aravaga yopilgan ipak mato qimirlab, tuynuk ochildi-da, boshiga kulohsimon ko'k qalpoqcha kiyib, ustidan oppoq simobiy salla o'rab olgan bir kimsa ko'rindi.

Uzunchoq xushsurat yuzi issiqdan bo'g'riqqan, kal-tagina mosh-guruch soqoli o'ziga yarashgan bu ulamo-namo kimsa ko'zlari xushnud charaqlab, tevarak-atrofga qiziqsinib qaradi, qaradi-yu, to'satdan:

— Malikul sharob! — deb qichqirib yubordi.

Malikul sharob negadir sarosimaga tushib, Beruniyga yuzlandi.

— O'sha! Xuddi o'zi! Abu Shilqim ibn Shahvoniy!

— Malikul sharob! — xushnud qichqirdi aravadagi kimsa. — Ofarin! Faqirday hakimi davronga peshvoz chiqqan shoiri zamon Malikul sharob dunyo turguncha tursinlar!

Malikul sharob Beruniyning biqiniga turtib, qiqirlab kuldi.

— Mast! G'irt mast, muttaham!

Ibn Shahvoniy qo'lini ko'tarib yana bir narsa dem oqchi bo'ldi, biroq kimdir uning oyog'idan ushlab qat-tiq tortdi chamasi, qo'lini ko'targanicha soyabon arava ichiga gumdon bo'ldi-yu, ochilgan tuynuk qayta yopildi.

Bir zum tildan ayrilib, gung bo'lib qolgan olomon orasida piq-piq kulgu va g'ala-g'ovur ko'tarildi. Bu g'ala-g'ovur Beruniyni boshlab kelgan puchuq mushrifni hushiga keltirdi chog'i, u ostida yer depsingan otini cho'tir mushrif tomon niqtadi.

— Janob mushrif! Ul oftobi olamning farmoni oliy-lari shulkim, bu allomai davron... Ibn Sino hazratlarini kaminaning tasarrufiga topshirg'aysiz!

— Qani o'shal farmoni humoyun?

— Mana! — mushrif boshidagi kokilli dubulg'asi tagidan to'rt buklangan zarhal qog'ozni olib havoda silkitdi, lekin uni cho'tir mushrifga topshirish o'rniga to'satdan qilichni shartta qinidan sug'urib:

— Bo'shat yo'lni! — deb amr qildi.

— Labbay? Bunday farmoni oliydan faqirda yuztasi bor! — cho'tir mushrif ham qilichni shartta qinidan sug'urdi. Mushriflar bilan barobar ikki tomondagi navkarlar ham qilich sug'urdilaru bir-birlariga tashlandilar. Jang hidini sezgan arg'umoqlar achchiq kishnab osmonga sapchidi, olamni vahshiy qiyqiriq va qilichlarning sharaq shurug'i tutdi.

— Bo'shat yo'lni!

— O'zing bo'shat!

— Bos!

— Ur!

— Ur, ha, ur! Sur, ha, sur!

Shundan keyin nima bo'ldi — buni hech kim bilolmay qoldi. Katta yo'l bo'yidagi qirg'in qanchalik tez boshlansa, shunchalik tez tugadi. Beruniy hatto hushini yig'ib ham ololmadi.

U: «To'xtang! Bu ne qabohat? O'rtadagi nizoni aqlidrok bilan yechmoq darkor!» demoqchi bo'ldi, hatto o'zini otlar tagiga tashlab bo'lsa ham qirg'inni to'xtatmoqchi edi. Lekin buning o'rniga negadir Malikul sharobni quchoqlaganicha joyida qotib qoldi. Hushiga kelganida esa, qirg'in tugagan, teginobodlik cho'tir mushrif Xatlibegimning puchuq mushrifini chopib tashlagan, uning navkarlaridan faqat bir nechtasigina omon qolgan, ular ham uzoqdagi adirlar tomon lapanglab qochib ketmoqda edi.

O'z raqibini chopib tashlagan cho'tir mushrif qonga botgan qilichini qiniga solib, osmonga sapchigan ko'k qashqa arg'umog'ini katta yo'lga burarkan, yonidagi suvoriga Beruniy bilan Malikul sharob tomon ishora qilib bir nima dedi. Shu zahotiyoyq bir nechta suvori ot choptirib kelib Malikul sharobga tarmashishdi, uning oyoq-qo'llarini bog'lab, arava tomon sudrab ketishdi.

Hamon karaxt bo'lib turgan Beruniy shundagina hushiga keldi-yu, cho'tir mushrif tomon intildi.

— Janob mushrif! Bu darvesh — faqir bir shoir! Sultoni salotinning farmoni bor! Daxlsizdur ul!

Cho'tir mushrif Beruniyga qayrilib ham qaramadi. Qon hidi va jang suronidan quturib, hamon osmonga sapchigan qora arg'umog'iga qamchi urib:

— Ketdik! — deb xirilladi-da, otining jilovini qo'ydi. Uning orqasidan boshqalar ham tasir-tusur ot surishdi.

Beruniy bekat darvozasiga suyanganicha joyida qotib qoldi.

## *Yigirma ikkinchi bob*

### 1

«Bukun subhi sodiq chodirdan chiqib ketgan shayx peshindan keyin xachir yetaklab olgan sersoqol bir mo'ysafidni boshlab keldi. Shayx g'ayritabiiy bir haya-jonda edi. U sersoqol kimsani chodirda qoldirib, kam-nani chodir ortidagi tepaga boshlab chiqdi, egnidagi chakmonini giyohlar ustiga yozib, yonboshladi. Men uning so'ziga muntazir bo'lib, yoniga cho'nqaydim.

Shayx ko'zlari yumuq, uzoq xayolga tolib o'tirdi, so'ngra:

— Hamadondan darak yo'qmi? — deb so'radi.

— Darak yo'q, — dedim.

— Hamadondan ot-ulov, oziq-ovqat kelsa... Isfahonga yo'l olurmiz... — dedi shayx.

Ajab gap! Kuni kecha Isfahondan amir Mas'ud elchilari kelganini eshitib, Hamadondan pinhona qochib chiqqan shayx, bukun endi Isfahonga yo'l olurmish!..

— Isfahonda... qora o'lat kezib yurgan emish, — dedi shayx. — Uyma-uy, ko'chama-ko'cha, dahama-daha qora o'lat kezib yurgan emish!..

Boshimga bir xum sovuq suv quyilganday vujudimni qaltiroq bosdi.

— Qora o'lat kezib yurgan shaharga borib, o'zini shamga urgan kapalak holiga tushmaylik, ustod,— dedim.

Shayxning nigohida sovuq qahr, lablarida kinoyali tabassum zohir bo'ldi.

— Balli, o'g'lim! Isfahonda qora o'lat charx ursin! Ahli mardum boshiga og'ir musibat tushsin, «hakimi davron» nomini olgan faqir esam, jon shirin, boshimni olib qochay! Balli, azizim!

O'ylamay so'zlaganimdan qattiq o'sal bo'ldim. Boz ustiga, shayxning Isfahonda qolgan inisi Abu Mahmud yodimga tushib, qora terga tushdim. So'z nishabini boshqa tomonga burish murodida shayxdan vabo va qora o'lat yanglig' baloi ofatlarning sababini so'radim.

— Sababini o'lat xuruj qilgan shaharning o'ziga borib aniqlamoq darkor, — dedi shayx. — Va lekin, Buqrot hakim, Jolinus, Abubakir ar-Roziy kabi tabiblar, qadimiy Rum, Qohira, Hind va Chin tarixchilarining guvohlik berishicha, jangu jadallar sabab, Isfahonday gavjum shaharlar qamalda qolib ochlik, yalang'ochlik xuruj qilgan chog'larida vabo yanglig' baloi ofatlar avj olg'usidir. Ul mo'tabar allomaning kitoblarida zikr qilinishicha, bunday musibatli kunlarda yer qa'ridagi barcha insu jins yuzaga chiqib, o'lat yeyishga tutinadur, o'lat hidi va o'lat qonini uyma-uy tashiydur. Bilasen: kasal borki, yuqmaydi, kasal borki, kishidan kishiga o'tadi. Qora o'lat ham sichqon va kalamushlar bilan uydan uyga o'tib, o'lim sudrab yurguvchi nuqs ofatdur. Ajab emaski, Isfahon boshiga tushgan bu qora kunlarni o'shal maxluqlar boshlab kelgan bo'lsa!

Zarrinrud daryosining chap sohili yodimga tushdi. Shahrisonidan chiqib, daryodan o'tish bilan yo'qsillar dahasi boshlanadi. Qing'ir-qiyshiq ko'chalar, kulbai vayronalar, bostirmalar, g'arib karvonsaroilar, temirchilar, chilangarlar, taqachilar, beshiksozlar, egarchi va sangtaroshlar, tobutsoz va pichoqchilarning xaroba do'konlari nigohim oldiga keldi. Nazarimda, hammayoqda murdalar qalashib yotganday, ular orasida daydi itlar, och mushuklar, sichqonu kalamushlar izg'ib yurganday bo'lib, jismim muzlab ketdi.

— Bilmam, — dedi shayx, — qo'rqqanga qo'sha ko'rinur, deydilar. Goho ofat keltiruvchi boshqa kasal-

liklarni «vabo» deb vahimaga tushadilar. Bilmam, agar bu yo'lovchining «qora o'lat», degani rost bo'lsa — uning davosi ham mushkuldir. Borib ko'rganda ayon bo'lur. Ammo neki dori-darmon, neki dorivor giyoh bo'lsa — hammasini sandiqlarga joylamoq darkor, hammasini olib ketmoq darkor! Shokalon degan anov yo'lovchi senga yordam beradi.

— Bu yo'lovchi kim? Isfahonlikmi? — deb so'radim. Bu savolimdan shayx g'alati ahvolga tushdi.

— Yo'q, bu yo'lovchi Isfahondan emas, Buxoroi sharifdan, — dedi shayx. — Kamina tavallud topgan Afshonadan. Bolalik chog'larimizda bir dahada birga yong'oq o'ynab katta bo'lganmiz. Kamina Buxorodan ketganimdan keyin bu sho'rlikning boshiga ham ko'p savdolar tushibdi. — Shayx shunday deb, ajab bir sevgi xangomasini so'zlab berdi.

Afshonalik sersoqol yo'lovchining zurriyoti bilan Isfahonga, amir Mas'ud saroyiga in'om qilib yuborilgan turkiy sanam o'rtasidagi bu ishq xangamasi shayxni nechundir qattiq iztirobga solgan edi.

— Men bu sho'rlik yigitni ko'rmog'im darkor, — dedi shayx. — Albatta qo'rmog'im darkor!.. Yoshsan, o'g'lim, muhabbat jafosi boshingga tushmagan. Muhabbat jafosini tortmabsen, bu foniyl dunyoga kelmabsen!

Kamina: «Bu ne jafo ekan, so'zlab bering, ustod», deb kulgan edim, shayx ma'yus bosh chayqab: «Yo'q, ishq dostonini so'zlab bo'lmas, — dedi. — Bu dostonni yozmoq mumkin, nazmga solib kuylamoq mumkin, ammo uni birovga so'zlab bo'lmas, kimki so'zlasa qadri ni yerga urar, azizim!»

Shayx shunday deb uzoq fikrga soldi. Men ustodning mahzun chehrasiga qarab dilidan nelar kechganini, yuragida ne dardlar borligini o'yladim. Shayx yoshligida bo'y-basti kelishgan, bag'oyat xushsurat yigit bo'lgan. Ne-ne sanamlar uning vasli orzusida oh chekib o'tganlar. Jurjon hokimi Qobus ibn Vushmagirning qizi Zarrinabonu shayxga shaharlar orasidagi masofalarni o'lchash usuli haqida kitob yozdirish bahonasida uni lutfan saroyga taklif etgan. Shayx Zarrinabonu aytgan

risolani yozib bergan, bonu esa risola buyoqda qolib, shayxning o'ziga muhabbat izhor qilgan. Ray hokimasi malikai Saida ham shu ahvolga tushgan. U shayxni molixuliya<sup>1</sup> dardiga muhtalo bo'lgan o'g'lini davolatish matlubida chaqirtirgan. Ammo shayxni ko'rib, o'zi oshiq bo'lib qolgan. Shayx yoshi bir joyga borgan bu malikaning izhori ishqidan zo'r-bazo'r qochib qutulgan. Zotan, shayx ayol zotining dardini ham, ko'nglini ham bag'oyat chuqur tuyadi. Men buni bundan besh-olti yil muqaddam «Al-Qonun»ning oltinchi jildi bitilganda bildim. Bu jildning bir necha fasli<sup>2</sup> ojjizalarning kasallari va ularni davolashga bag'ishlangan.

Shayx bu fasllarda ayollar jismi, ularning olatidagi eng qaltis kasalliklar, yomon shishlar, hayz ko'rish va ko'rmaslik, farzand bo'lish va bo'lmaslik sabablari haqida, bu kasalliklarni davolash yo'llari, alxusus, bu ishda jarrohiya usullarini qo'llash to'g'risida shunday bilimdonlik va shunday nozik tafsilotlar bilan bayon qilgankim, kamina o'qib lol qoldim, toki bu faslni yozmoq uchun og'ir dardga chalingan necha-necha ojjizalarni ko'rmoq va ularni davolamoq lozimdur. Boz ustiga, bu shunday dardki, Azroil alayhissalom eshikdan kirib kelmaguncha ayol zoti tabibga ko'rinmaydilar. Bir safar Isfahonda badavlat bir savdogar o'z mahbubini behush holda tun yarmidan oshganda olib kelgani yodimda. Shayx buni bilgani uchun bu ishni katta odob va ibo bilan qilar edi, bu boisdan ko'plar unga pinhona murojaat qilar edilar.

«Al-Qonun» kitobining yana bir fasli — oshiqlar vujudi va ularning sevgi aloqalariga bag'ishlangan. Shayx bu nozik masalada ham ajib zukkolik va mayinlik bilan fikr yuritgankim, mahbublarning shayxga bu yo'sin mehr qo'yishining boisini kamina shu faslni o'qiganimda angladim. Shayx uqtiradiki, sevgida ruh bilan vujudni bir-biridan ajratib bo'lmas, oshiq-ma'shuqlar visol onlarida bag'oyat muloyim bo'lmoqlari lozim, alxusus er,

---

<sup>1</sup> M o l i x u l i y a — asab kasalligi.

<sup>2</sup> F a s l — bob ma'nosida.

toki mahbub jismi shunday yaralganki, ul mayinlikka tashnadur. Shayx bu nozik muammolarni shunday sharmu hayo va ibo bilan bayon etadiki, uning dilnavozligi va nazokatiga taxsinlar o'qidim.

Shayx hanuz mahzun o'ylar og'ushida edi. U mening betoqat bo'lganimni sezib: «Men ul sho'rlikni, amir Mas'udga in'om qilib yuborilgan ul baxtiqaro ojizani ko'rmog'im lozim»,— deb qattiq uf tortdi.

Men shayxdan: «Ul sho'rlikni taniysizmi deb so'radim. «Yo'q, men ul bechoraning onasini tanir edim», dedi shayx. Men boshqa savol berishga jur'at etmadim.

Kun botib, qosh qorayganda chodirga qaytdik. Xufton namozidan keyin shayx chodirga sham yoqtirib, qog'oz-qalam so'radi. Men shayxning ko'ngli nazm va navo ishqida ekanini angladim.

Shayx kuy va nazm bobida qalam tebratishga ahd qilsa, tanholikni ko'ngli tusab qoladi. Ilm bobida bir narsa yozishga jahd qilganida esa, bil'aks, shogirdlarini yig'adi, o'zi aytib turib, ularga yozdirishni yaxshi ko'radi, ammo she'r ishqida yongan chog'larida tanholikka mayl bildiradi.

Bu safar ham shunday bo'ldi. Men shayxning xayol og'ushida asta tebranib, lablari pichirlab o'tirganini ko'rdim-da, uning xayolini hurkitishdan iymajib, bir chekkaga joy solib yotib oldim.

Qattiq uyquga ketibmen, bir mahal qulog'imga hazin bir ovoz kirganday bo'ldi. Kimdir yurakni ezib, suv qilib yuborguvchi bir tovushda nola qilar, dardu hasratlarini aytib yig'lar edi. Uyg'onib ketdim.

Shayx chodirning to'rida boshini xam qilib, o'zi yasagan g'ijjakda mungli bir kuyni chalib o'ltirardi. Uning yonida Shokalon degan boyagi sersoqol mo'y-safid bolishga yonboshlab yotardi. Yonib bo'layozgan sham shu'lasida shayxning mijjalarida yosh tomchilari simob zarralariday miltirab turardi. Bildim — shayx hozir chodirda emas, xayolan o'zi chalayotgan hazin kuy qanotlarida boshqa bir olamda parvoz qilib yuribdi...

Kuy tindi.



Shayx mijjalaridagi yosh tomchilarini kafti bilan artib, hamshahariga qarab jilmaydi.

— Qariganda ko'ngli bo'sh bo'lib qolar ekan kishi, Shokalon!

— Ayb qarilikda emas, asli kishini yig'latadigan kuy bo'libdi, — dedi Shokalon, — bitgan bayting ham yurakni tilka-pora qiladi, bastalagan kuying ham. Yana bir o'qi, Abu Ali!..

Shayx bir xo'rsinib oldi-da, ko'zlarini yumib sekin o'qidi:

*Dilimda ona yurt dog'i,  
bu dardning bormi davosi,  
Eram bog'idan afzaldir  
ona yurtningni sahrosi.  
Ko'zimga to'tiyo qilgum  
agar bir kun guzar etsam,  
Musofir xirqasin tashlab  
diyorim vasliga yetsam.*

— Hayhot! — dedi shayx boshini sarak-sarak qilib. — Musofir bo'lmay, musulmon bo'lmas, deganlari rost ekan. Judolik ne, tug'ilgan yurtidan ayrilib, musofir bo'lmoq ne, faqirdan so'r, Shokalon! Ko'zimni bir daqiqa yumsam... nigohim oldiga Afshona qirlari keladi, bolalikda cho'milgan ariqlar va buloqlar keladi. Ko'zim uyquga ketsa... Buxoro ko'chalari, Juyi Mo'liyon dahasi tushimga kiradi. Uyg'onib ketib, tong otguncha to'lg'anib chiqamen...

— O, Abu Ali! Abu Ali! — dedi Shokalon uf tortib. — Afshona ham, Buxoro ham sen bilan Afshonayu sen bilgan Buxoro emas!..

— Ne chora? — dedi shayx, — ne chora, Shokalon! Sening so'zlaringga inonmay ilojim yo'q. Ammo... ne bo'lmasin, ko'zimni bir on yumsam, nigohim oldiga bolalik chog'larim keladi. O'shal bog'lar, o'shal qirlar, o'shal suvlar esimga tushadi. Qarigan chog'imda bir ko'rsam, Afshona bog'larini bir kezsam, Buxoro ko'chalaridan bir o'tsam, padarim qabrini bir ziyorat qilsam, shundan boshqa tilagim yo'q, Shokalon...

— Inshoollo, tilaging qabul bo'lg'ay, Abu Ali! — dedi Shokalon.

— Mayli, — dedi shayx, — sen yotib damingni ol, mening uyqum qochdi, dalaga chiqib, bir aylanib kelamen...

Shayx shamlarni o'chirib chodirdan chiqdi.

Ertasiga Hamadondan keladigan yuklar yetib keldi. Biz rabotni tark etib, Isfahon tomon yo'l oldik».

*(Abu Ubayd al-Juzjoniy xotiralaridan).*

## 2

Sipohsolor<sup>1</sup> Abu Tohir tong chog'i ot choptirib kelganida butun saroy oyoqqa turgan, hovlidagi toshfonuslar, qandillardagi shamlar yoqilgan, qilichlarini sharaqshuruq qilgan navkarlar, ranglari quv o'chgan haram bekalari, tasbeh o'g'irgan ulamolar va yana allaqanday qora ko'lagalar uyoqdan-buyoqqa izg'ib yurar, sham shu'lasini yoritolmagan g'ira-shira burchaklardan: «Simob! Simob! — degan shivir-shivir ovozlari eshitilardi. — Buxoro sanami amirning qulog'iga simob quymish!»

Ikkinchi oshyonadagi salomxonada, tabiblar bo'lsa kerak, uzun oq yaktakli uch-to'rt odam qaqshab-qaltirab turar, to'rdagi shabiston eshigi berk, ichkaridan sekin ingragan bo'g'iq ovoz eshitilardi.

Salomxonaga shitob bilan kirib kelgan Abu Tohir shitob bilan yurib borib eshikni ochdi. Ichkaridan kelayotgan bo'g'iq nola eshik ochilganda qattiqroq eshitildi-yu, eshik yopilishi bilan so'ndi.

Amir Mas'ud, ne-ne janglarda yovga ayovsiz qiron keltirgan, Hindiston chakalakzorlarida quturgan yo'lbaralar bilan yakkama-yakka olishgan amir Mas'ud, boshini zarbof to'nni etagiga o'rab, yerda yumalab yotar, uning alamli ingrashini ulkan chorburchak xonaning qubbasimon shiftida aks sado berib, sovuq yangrardi. Amirning tepasida qo'rquvdan kosasi dir-dir titragan notanish bir tabib bilan rangida rang qolmagan eshik og'asi turardi.

<sup>1</sup> Sipohsolor — bosh qo'mondon.

Abu Tohir tez yurib borib amirning yoniga tizza bukdi.

— Valine'mat.

Amir tuzoqqa tushgan qushday pitir-pitir qilib, zarbof to'ni etagidan boshini soqit qildi. Xuddi otasining ko'zlariday qiyg'och ko'zlari qontalashgan, yonoqlari bo'rtib chiqqan cho'yanday qop-qora yuzi allaqanday ko'karib ketgan.

— Abu Tohir!— dedi amir Mas'ud, to'satdan ko'zlarida o't chaqnab.— Ul makkor sahronishin Alitegin padari buzrukvorim uchun kaminadan o'ch olmoqqa qasd qilibdi! In'om etgan fohishasi simob quydi qulog'imga, simob!..

— Qani farishta niqobidagi ul jodugar? — dedi amir, qontalashgan ko'zlarini eshik og'asiga qadab.

Eshik og'asi ikki bukilib ta'zim qildi.

— Ul jodugar aqlidan ozmish, amiri kalon!

— Aqlidan ozgan bo'lsa... tiriklayin go'rga tiqmoq lozim ul yosumanni! Hmm... — Amir yana qulog'ini changalladi-yu, yuztuban tushib boshi bilan yer suzishga kirishdi.

Abu Tohir betoqat bo'lib:

— Inshoollo, shifo topasiz, valine'mat! — deb xitob qildi. — Faqir amirimga ajab bir xabar topib keldim! Tobariston darvozasining darvozaboni... darvesh kiyimida uch nafar noma'lum kimsalarni tutibdur.

— Noma'lum kimsalar? Men ajaldan so'zlasam, sen noma'lum kimsadan so'zlaysen!..

— Amiri kalon! — dedi Abu Tohir zorlanib.— So'zimning «berdi»sini eshiting. Bu darveshlarning biri o'zini... hazrat Ibn Sino deb atarmish!..

— Hazrat Ibn Sino?

— Baayni shunday!

— E, Yaratgan egam! Valine'mat padari buzrukvorim bo'yi barobar oltin va'da qilganida ham borishdan bosh tortib, qochib yurgan hazrat Ibn Sino endi darvesh qiyofasida o'z oyog'i bilan yurib kelmish! — Amir, qontalashgan qisq ko'zlarini lo'q qilib, boshini likillatdi, likil-

latganda bir on tinchigan og'riq qayta xuruj qildi chog'i, quloqlarini shap ushlab:

— Ibn Sino bo'lsa qayda? — deb ingradi. — Olib kel uni darhol! Yo xalloq! Shoyad bu hakimi hoziq sabab, o'zing bergan bu dardi bedavoni o'zing daf qilsang!

Abu Tohir apil-tapil o'rnidan turib, tashqariga otildi.

Bu payt Sino bilan Abu Ubayd saroyning bog' tomonidagi hovlidagi, bir mahallar havzi kavсар nomini olgan marmar hovuz bo'yida o'tirishar edi.

Hali kun chiqmagan, biroq hovlidagi chinor va sadalar nafis lolarang shu'laga chulg'angan, oftobni sog'ingan qushlarning kuyi avjiga chiqqan. Tong yeli ovloq qir giyohlarining sal taxir, o'tkir hidlarini ufurardi. Qayerdandir yaqindan, qilich-qalqonlarning sharaq-shumg', «Hah, ur! Xah, chop!» degan bo'g'iq xitoblar eshitilar, aftidan, saroy ortidagi hovlida sarbozlar mashq qilishmoqda edi.

Ibn Sino g'alati bir holatda edi.

U kecha namozi asrda Abu Ubayd va Shokalon bilan birga Tabariston darvozasiga yetib kelganida kimligini oshkor qilmoqchi emas edi. U o'z sheriklari bilan darvesh qiyofasida darvozadan o'tib, shaharni dahamadaha, ko'chama-ko'cha aylanib chiqmoqchi, qora o'lat to'g'risidagi mudhish gaplarning rost-yolg'onligini so'rab-surishtirmoqchi va shunga qarab biror tadbir ko'rmoqchi edi. Keyin hovlisiga o'tib, inisi Abu Mahmuddan xabar olish niyatida edi. Uning hovlisi saroydan yiroq emas, Zarrinrud daryosining mashriq tomonida, Shahriston machitining ortidagi Quyi Gunbaz dahasida, serdaraxt, sersoya, osoyishtagina bir ko'chada.

Buxoroga o'xshash Isfahonning ham o'n ikki darvozasi bo'lar, ustiga tog'da yuk ortilgan fillar ham bemalol o'ta oladigan bu darvozalardagi hamma darvozabonlar uni yaxshi tanir edi. Agar Tobariston darvozasida ilgarigi darvozabon bo'lganida «Ibn Sino» degan kalimaning o'zi kifoya qilardi, biroq amir Mas'ud tayinlagan yangi darvozabonlar «Ibn Sino» degan nomni eshitganlarida ham pinaklarini buzishmadi, yo ishonishmadi, yo ishonishsa ham parvo qilishmay, kechasi bilan

ushlab o'tirishdi. Faqat tong chog'i og'iz-burnini qora mato bilan bog'lab olgan bir sardor borib, ularni otga mindirib olib ketdi.

Shahar hali uyqudami yo barcha mardumi mo'min uni tark etganmi, qal'a uzra qandaydir sovuq sukunat hokim edi. G'ira-shira ko'chalar, chorrahalar, guzarlarda qandaydir qora soyalar yo'q, soya emas, o'lik yig'ib yurgan sarbozlar ko'zga chalinardi... Ha, Ibn Sino yanglishmadi, ustlariga qora libos kiyib, og'iz-burunlarini qora mato bilan o'rab olgan sarbozlar, qo'llarida panshaxa, ko'chama-ko'cha o'lik yig'ib yurishardi...

Ular daryo sohilidagi guzarlar, tor ko'chalar, xaroba kulbalar bo'sag'asida cho'zilib yotgan murdalarni xuddi to'nkani tepgandek tepib ko'rishar, so'ng, qo'llaridagi panshaxani yerda cho'zilib yotgan murdaga pichanga sanchigandek sanchib, dast ko'tarishardi-yu, orqalaridan kelayotgan aravaga otishardi.

Nimqorong'i ko'chalarda o'lik yig'ib yurgan qora soyalar, ayniqsa Puli Shahritson ko'prigidan o'tib, Naqshi jahon maydoniga yaqinlashganlarida ko'payib ketdi.

Vo darig'! Shokalon aytgan mash'um gaplar rost chiqdi, rost!..

Ibn Sino, yuragi tinimsiz zirqirab, bir-ikki joyda to'xtamoqchi bo'ldi. Biroq ularni boshlab borayotgan sardor, qamchi o'qtalib, to'xtashni qat'iy man qildi.

Naqshi jahon maydonidan o'tishlari bilan o'ng qo'lda, daryoning u yuzida «Hisor» kutubxonasining yuksak peshtoqlari ko'zga chalindi.

Suyukli maskan! So'nggi yillarda ruhiga safo, ko'ngliga tasalli berib kelgan birdan-bir oromgoh! Allomalar, shoirlar, tolibi ilmlar qarorgohi!.. Ibn Sinoning o'z hovlisi ham kutubxonaga yaqin. Kuyi Gunbaz dahasi kutubxona ortidagi guzardan boshlandi. Lekin bu ne? Kutubxonaning baland tillakori gumbazi o'pirilib tushgan, atrofdagi do'kon va rastalarga o't ketgan bo'lsa kerak, ulkan kultepaga aylangan edi!

Ibn Sino yuragi qattiq siqilib, otining boshini beixtiyor o'ngga burdi, biroq oldinda ketayotgan sardor yana

qahr bilan burilib: «Orqamdan qolma!» deb ishora qildi... yana ozgina yursa hovli-joyini, yoru birodarlarini ko'rardi, inisi Abu Mahmud tirikmi, yo'qmi — boxabar bo'lardi. Ne chora? Ko'rolmadi. Bilolmadi!

Mana endi, ko'ngli xufton, saroy hovlisida, marmar sarhovuz sohilidagi marmar supada o'tiribdi. Ro'paradagi ikki oshyonalik havorang marmar saroy moviy osmondagi tiniq yarqiraydi, bog'da bulbullar sayraydi, dala gilyohlari nozik atir ufuradi, issiq non va qovurilgan go'sht hidi dimoqqa gup-gup uradi, go'yo shaharda na qora o'lat bor, na ochlik-yalang'ochlik!

Ibn Sino ichida achchiq kulimsirab, ko'zini yumdi!

Ha, nechun bunga ajablanasen, Abu Ali? O'zing bilgan Shamsuddavla davrida ham, bu shaharda ko'p yillar hokimlik qilgan Alouddavla chog'larida ham shu ahvol emasmidi? Mana shu baland devorning u tomonida birov och bo'lsa, birov to'q, birovning usti but bo'lsa, birov yalang'och emasmidi? Bu tomonida esa, mana shu sarhovuz o'rtasidagi ana u gumbazli shiypon tagida har oqshom misli ko'rilmagan bazmi jamshidlar bo'lardi. Bu yerga barcha arkoni harb va arkoni davlat yig'ilar, tiniq, xushbo'y sharob favvoralardan oqqan suvday oqar, eng mashhur sozanda va navozandalar o'ltirish ahlining ko'nglini xushlar, gohi-gohida esa, hovuzning u chekkasidagi so'ri oldiga harir parda tutilib, unga yosh, go'zal kanizlar taklif qilinar, ular yarim-yalang'och bo'lib raqsga tushishar edi...

Hamadonda-chi? Alouddavladan avval Shamsuddavla hokimlik qilgan chog'larda-chi?

Bir kun sog' bo'lsa, o'n kun xasta, bir kun hushyor bo'lsa, o'n kun sarmast — Shamsuddavla meshday qornini mayga to'lg'azib, telba-teskari ishlar qilar, junbishga kelgan chog'larida o'zini ulug' sarkarda deb his etar, faqat qo'shni shahar va qo'shni davlatlar emas, mashriqda sulton G'aznaviy, mag'ribda Rungacha zabt etish haqida aql bovar qilmas rejalar tuzardi. Saroyga yig'ilgan a'yonu boyonlar esa, qo'llarida limmo-lim qadah, mast-alast hokimga hamdu sanolar o'qishar, o'zini amiralmo'minin deb atagan sahronishin sulton

G'aznaviyni kalaka qilishib, tentak Shamsuddavlani ko'klarga ko'tarib maqtashardi, uni birda fotihi muzaffar deyishsa, birda bo'lg'usi amiral-muslimin, deb ayyuhan-nos ko'tarishardi...

Shon-shuhrat orzusida yongan telba hokim esa bu madhiyalardan battar shishar, shu on, shu daqiqa qo'shin tortishga chog'lanardi. Ha, u tungi bazmi jamshidlarda jo'shib junbishga kelar, ertalab esa, mesh-day qornini changallab, dod-faryod chekar, kechagi «fotihi muzaffar» ertalab kuchala yegan itdek tirishib, iltijo to'la ko'zlari bilan Ibn Sinoning ko'zlariga mo'ltirab qarardi. Uni birda «hazratim», desa, birda «taqsiri olam», deb chaqirar, uning aytganini tarki vojib qilmasdi. Ibn Sino esa, sababi yoshlik, adolatli shoh haqidagi ko'nglidagi ezgu orzusini ro'yobga chiqarish istagi bilan yonar, o'lim dahshatidan qo'yday yuvosh bo'lib, ko'zlari mo'ltirab yotgan «fotihi muzaffar»ni insofli va diyonatli hokimga «aylantirish»ga tutinardi. Shu niyatda telba hokimga har kuni huqna qilar, og'ziga doru quysa, suyulgan miyasiga ezgu istaklar, adolatli shohlar haqidagi ertak va rivoyatlar, buyuk allomalarning buyuk orzularini «quyishga» tutinardi. Shunda yana bir ajab hol sodir bo'lar, Ibn Sino dorularidan yengil tortgan go'dakfe'l, telba hokim uning ezgu o'ylarini, yetimparvar, gadoparvar shohlar haqidagi ertak va rivoyatlarni jon qulog'i bilan eshitardi. «Hazratim»ning har bir so'zini ma'qullardi, nogahon yopishgan bu bedavo darddan davo topsa, inshoollo, o'zi ham shunday ezgu ishlar qilishga qasam ichardi. Ibn Sino esa, yana sababi yoshlik, oqko'ngillik, meshqorin Shamsuddavlaning bergan va'dalari, ichgan qasamlariga oppa-oson inonardi. Inongani uchun ham unga vazir bo'lishga rozilik bergan, keyin vazirlik mansabiga suyanib, devoni lashkarga ajratilgan pullarni devoni davlat ixtiyoriga o'tkazgan, qo'shin sonini kamaytirib, madrasalar, karvonsaroylar qurish, ariqlar qazib, dashti biyobonlarga suv chiqarish rejalarini tuzgan edi. Lekin, e voh! Uning rejalari amirlar qilichini qinidan chiqargan, insofga yuz tutgan «odil shoh!» esa... qornidagi og'riq sal pasayib,

kechalari ko'ziga ko'ringan Azroil alayhissalom daf bo'lishi bilan hazrat Ibn Sinoga bergan va'dalari ham yodidan chiqardi! Va'dalar o'rniga Hamadon bog'idagi xuddi mana shunday gumbazli shiypon tagida yana ilgari bazmi jamshidlar boshlanar, yana may va sharob favvoralaridan oqqan suvday oqar, yana sozanda va xonandalarning kuy va qo'shiqlari osmoni falakka ko'tarilar, yana burungiday hamdu sanolar o'qilib, kechagina igna yutgan itday ingrab yotgan «oddiy shoh» yana jahonni tiz cho'ktirish orzusi bilan yonar edi! Bu hol necha marta takrorlandi! E voh, faqat amir Shamsuddavlaning puch orzulari emas, Ibn Sinoning ma'rifat va ezgulik haqidagi orzulari ham — hamma-hammasi puch xayol bo'lib chiqdi!

Ibn Sinoning xayolini:

— Hazratim? — degan ovoz bo'ldi.

Hovuzning oldida sipohsolor Abu Tohir qo'l qovushtirib turardi.

— Marhamat! Amiri kalon lutfan ko'rmoq istaydur sizni! — Abu Tohir Abu Ubaydning egnidagi quroq jandasiga shubha bilan qarab qo'ydi. Buni payqagan Ibn Sino:

— Bu yigit shogirdim bo'lur, — dedi. — Kaminaga yordam berur. Yo'l boshlang, janobi sardor!

Tanish koshonaning behisob shamlar zo'rg'a yoritgan tor va uzun yo'laklari kimsasiz edi. Ikki yonda saf tortgan ikki tavaqali behisob o'ymakor eshiklar berk, marmar zinalardagi gilamlar yig'ishtirib olingan, yo'lak shipshiydam va ko'rimsiz edi.

Ikkinchi qavatdagi ulkan salomxonaning burchagida bir guruh oq jubbali ulamolar g'uj bo'lib turishar, ularning ko'zlarida qo'rquv va tashvish aks etardi.

Abu Tohir bilan kirib kelgan ikki darveshni ko'rganda ular «gur» etib, bir qo'zg'alib olishdi-yu, yana jim bo'lib qolishdi. O'rta qo'rtaga cho'kkan jimlikda:

«Ibn Sino darvesh qiyofasida? Voy tavba! Qay biri Ibn Sino?» — degan shivir-shivir ovozlar eshitildi.

Abu Tohir ikki tavaqali naqshinkor eshikni asta ochib, Ibn Sino bilan Abu Ubaydga yo'l berdi.



Shifti va devorlari nozik pushtirang koshinlar bilan ziynatlangan keng, biroq allaqanday fayzsiz xona g'irashira edi.

Boya Abu Tohir kirganda gilam ustida yumalab yotgan amir Mas'ud bir mahallar Shamsuddavla, keyin Alouddavla o'tirgan serjilo oltin kursida o'tirar, u o'ng qulog'ini mahkam ushlab olgan, ko'zlari yumuq, ko'kimtir keng yuzida cheksiz bir iztirob muhrlangan edi.

Amir, Abu Tohirning «Valine'mat!» deb shivirlagani ni eshitib, ko'zini ochdi-yu, eshikda ta'zim bajo keltirib turgan ikki qalandarga uzoq qadalib qoldi. Uning ko'kimtir yuzidagi iztirob taajjub bilan, taajjub shubha bilan almashdi.

— Hazrat Ibn Sino?.. O'zini Ibn Sino deb da'vo qilg'on kim?

— Faqir, davlatpanoh!

— Vo ajabo! — dedi amir. — Sen o'shal... hakimi davron Ibn Sino bo'lsang... u amiralmo'aminin elchi yuborganida nechun yashirinding? Nechun mening mushriflarim borganda Hamadonni tark etib, bosh olib qochding? Nechun qochdingu, nechun endi o'z oyog'ing bilan yurib kelding?

Ibn Sinoning lablariga bilinar-bilinmas tabassum yugurdi.

— Agar amiri kalon kaminadan norozi bo'lsalar, Isfahonni darhol tark etishga hozirmen, davlatpanoh!

— Yo'q-yo'q! Men tashrifning sababini so'radim, xolos!

Ibn Sino chuqur xo'rsinib, boshini pastroq egdi.

— Amiri kalon! Kaminani Isfahonga olib kelgan birdan-bir sabab — vabodur!

— Vabo?

— Ma'zur ko'rasiz, amirim, vabomi yo kavsusmi<sup>1</sup>, hozir bir narsa deyishga ojizmen. Va lekin shaharda uyma-uy o'lat kezib yurmish, degan mash'um xabar qulog'imga yetib bordi. Bu mash'um xabar...

---

<sup>1</sup> Kavsus — tif.

— Shaharda qora vabo kezib yurgan bo'lsa... inchunin, hukmi ollo shu erur! — dedi amir, dedi-yu, to'satdan yuzi qattiq bujmayib, o'ng qulog'ini changal-lab oldi.

— Simob! Makkor Alitegin yuborgan jodugar simob quy-mish qulog'imga. Simob!

«Makkor Alitegin yuborgan jodugar?» — Ibn Sino yuragida ko'tarilgan g'alayonni zo'rg'a bosib, taxtga yaqinlashdi.

— Simob? Qanday simob?

— Ul firibgar Alitegin...

— Avval og'riqdan so'zlang, amirim! Beto'xtov og'riydimi yo?..

— Yo'q-yo'q... dam og'rib, dam to'xtaydur. Bigiz suqqanday bezillab og'riydur!

— To'xtaganda-chi? Darhol to'xtaydurmi yo og'riq davom etadurmi?

— Darhol to'xtaydur, darhol! Mana, to'xtadi, olloga shukr, to'xtadi... Yo'q-yo'q, tag'in boshlandi. Miyamga o'tdi. Quloq pardamni teshib miyamga o'tdi! Simobning o'zi emas, og'u qo'shilgan simob bu, og'u! E Yaratgan egam! Yozug'im ne mening, yozug'im?

«O, qattol! Berahm-beshafqat qattol! Sen keltirgan bu qatlu qirg'in, bu ochlik-yalang'ochlik, bu ofat — yozug'ing emasmi, dajjol?»

Ibn Sino bo'g'ziga kelgan alamni zo'rg'a ichiga yutib:

— Kamina ul kanizni ko'rmog'im darkor, — dedi. — Ul kaniz...

— Ko'rmog'im darkor! Subhonollo! Avval bu azob-dan qutqar meni! Agar chindan o'shal hakimi davron... hazrat Ibn Sino bo'lsang, bu baloi nogahoniydan qutqar avval! Keyin... kerak desang, hasmingga ol ul jodugarni!

— Ko'nglingiz to'q bo'lsin, qulog'ingizni davolay-men, amirim. Ammo... davolashdan avval sizga bir arzim bor...

— Avval davola, so'ngra aytasen arzingni!

— Sabr qiling, amiri kalon! Arzim shulki, shahar dar-vozalari darhol ochilmog'i darkor. Bu baloi ofat og'ushi-da qolgan sho'riik ahli mardum qir-adirlarga chiqib,

bahor giyohlaridan bahramand bo'lmog'i lozim. Shu bukun barcha jarchi va barcha tabiblarni saroyga yig'moq joiz! Faqir dorivor giyohlar nomini aytib beramen. Jarchilar va tabiblar jar solib, bu giyohlarni mardumi mo'minga aytmoqlari lozim! Guzarlarda doshqozonlar qurdirmoq darkor. Dorivor giyohlarni qaynatib, suvini uyma-uy ulashmoq lozim. Bil'aks barcha ahli mo'min qirilib ketur, amiri kalon!

— Yo xalloq! — amir qo'lini qulog'idan olib, qontalashgan ko'zlarini Abu Tohirga qadadi. — Sen... qay go'rdan topib kelding bu telba darveshni? — dedi u, qaltiroq bosib, lekin bir daqiqa tingan og'riq qayta xuruj qildi chamasi, kursidan sekin sidirilib tushib, yerdagi gilamga yuztuban yotib oldi. — Hakimi hoziq Ibn Sino emas, makkor bir shayton bu! Bil'aks... neki arzi bo'lsa, avval davolab, keyin aytsa o'lurmu bu xunrez?

— Hozir davolaymen, amirim, hozir... Faqat faqirning sharti yodingizda bo'lsin! — Ibn Sino shunday dedi-da, Abu Tohirga yuzlandi. — Uchinchi sheringim qayda? Darhol toping uni! Tuyada dori-darmon solingan sandiqlar bor. Farmon bering. Darhol keltirsinlar!..

— Darhol! — dedi amir ingrab. — Darhol!

Abu Tohir apil-tapil yurib xonadan chiqdi, Ibn Sino oyoq uchida yurib Abu Ubaydning yoniga bordi.

— Sen hovliga tushib, qizil sandiqni och!..

Abu Ubayd uning so'zini eshitishga sabri yetmay:

— Ustod! — deb shiviriadi. — Ustod! Chindan amirning qulog'iga simob quyilganmu?

Ibn Sino kaftini og'ziga qo'ydi.

— Yo'q, chamasi, qulog'i yiringlab, qurt tushgan...

Abu Ubaydning ko'zlaridagi qo'rquv vahimaga aylandi.

— Qurt?

— Hmm! — ingradi amir. — Qaydasen, hakimi hoziq? Daf qil bu baloi ofatni! Bo'ying barobar oltin beramen, oltin!

Ibn Sino amirga javob bermay, Abu Ubaydga yuzlandi.

— Qizil sandiqni ochsang, ko'k shishachada misr boqilasining shirasini ko'rasen. Uning yonidagi qora xaltada yanchilgan kust, sariq xaltada nazli o'ti bor. To'xta! Nafarmon shishachada kovul urug'ining qaynatmasi ham bor. Chopib tushib, hammasini olib kel!

— Darhol! — dedi amir, boshi bilan yer suzib. — Hoy, kim bor? Saroybon? Darhol keltir dorularni, darhol!..

### 3

Amir Mas'ud uyqudan uyg'onsa ham qimir etishga qo'rqib to'shagida uzoq yotdi. U qattiq uxlagan bo'lsa kerak, oftob mashriqdan mag'ribga qo'ngan, xilvatxonaning kungay tomonini qoplagan sheroziy gilamlar, faqat gilam emas, butun xona — nozik lojuvard koshinlar bilan ziynatlangan shift, shiftdagi jimjimador billur qandil, qandilga terilgan shamdonlar, devorlarga osilgan qilich va qalqonlar — hammasi go'yo qonga bo'yalganday tiniq qirmizi rangga kirgan edi.

Amirning qulog'iga qadalgan sanchiq taqa-taq to'xtagan, xayoli ravshan, horg'in jismi ajib bir orom va farog'atda edi. U ko'pdan beri vujudida bunday rohat-farog'at sezmagani, faqat bolalik chog'larida, kechalari suyuqli ammasi Xatlibegimning quchog'ida yotib, uning mayin siynasini o'ynab erkalangan ma'sum bolalik chog'laridagina shunga o'xshash ajib bir holatda bo'lardi xolos.

«Yo karim! Bu ko'rsatganingga ming qatla shukur! Osiy bandangdan o'z inoyatingni darig' tutmading. Yomonlar yo'llagan baloi ofatni o'zing daf etding!»

Ha, kechasi quloq-miyasiga nishtarday sanchilgan og'riqdan uyg'onib ketganida, amir bu foniy dunyo bilan vidolashish onlari keldi, deb o'ylagan edi. Yo'q, olloning mehri karamiga qarangki, Ibn Sino timsolida bu hakimi balogardonni yetkazdi!

Bu hakimi hoziq safro rangli uch-to'rt tomchi malham tomizib, mayizdekkina bir narsani ichirdi hamki, amir ko'zi uyquga ketganini o'zi ham bilmay qoldi...

Mana endi, toliqqan vujudida g'alati orom, xayoli oftobday munavvar, osuda xilvatxonada yolg'iz yotibdi.

Ajab savdo! Nahot egniga quroq janda, boshiga eski kuloh kiyib olgan bu keksa qalandar chindan ham hakimi davron atalmish hazrat Ibn Sino bo'lsa?.. Agar chindan ham o'shal Ibn Sino bo'lsa... nechun darvesh kiyimida keldi? Nechun ermish! O'z ixtiyorim bilan kelishimga sabab — shaharda uyma-uy kezib yurgan qora o'lat demadimi bu darvesh? Vabomi — kavsusmi, xullas kalom, ahli mardumning boshiga tushgan baloi ofat sabab, rahm qilib keldim, demadimi u? Ha, shunday dedi! Shahardagi barcha jarchi, barcha tabiblarni chaqirmoq kerak, dedi. Dorivor giyohlarim bor, dahadalarga doshqozonlar o'rnatmoq lozim, bu dorivor giyohlarni qaynatib, ahli mo'minga ulashmoq darkor, dedi. Shahar darvozalarini ochib, mardumi mo'minni qir va adirlarga chiqarmoq lozim, toki men aytgan dorivor giyohlarini terib yesinlar, dedi.

Vabo! Qora o'lat!

Mana, bir oydan oshdiki, bu baloi azimdan amirning o'zi ham qattiq vasvasada. U saroy darvozalarini taqataq yoptirgan. Odam bolasi uyoqda tursin, pashsha ham kirolmaydi. Lekin pashsha kirolmasa ham bir-biridan sovuq xabarlar qulog'igacha yetib kelmoqda. Uyma-uy kezib yurgan qora o'lat to'g'risidan it, mushuk va hatto kalamushlarni yeya boshlagan yo'qsillar to'g'risidagi mudhish mishmishlar amirni ham vahimaga solmoqda, kechalari kafanga o'ralgan o'liklar, juldur chopon gadolar, qoqsuyak tilamchilar tushlariga kirib, oromini buzmoqda. Shu boisdan ham dovrug'i olamga ketgan bu allomai zamonning o'zi oyog'i bilan kirib kelgani yaxshi bo'ldi. Yaxshi bo'ldi-yu, biroq uning kelishi bilan boshqa bir g'oyat nozik va g'oyat qaltis muammo tug'ildi. Agar darvesh qiyofasidagi bu kimsa chindan ham o'shal hakimi davron Ibn Sino bo'lsa, amir uni darhol, shu bugunoq dorus-saltanaga, padari buzrukvorining huzuriga jo'natmog'i lozim! Chunki hazrat Ibn Sino Isfahonga, amir Mas'ud saroyiga tashrif buyurgani to'g'risidagi bu xabar G'aznai munavvaraga yetib borsa, davosiz dard

otashida qovrilib yotgan valine'mati ne deydi? Usiz ham o'z pushtikamaridan bo'lgan farzandidan hadiksirab, uni toju taxtdan mosuvo qilish niyatida yurgan otasi qahr qilichini yalang'ochlamasmikin? Yalang'ochlaydi! Bas! Bu xabar ovoza bo'lmasligi darkor, uni hech kim, alxusus, taniydigan odamlar ko'rmasligi joiz! Agar lozim bo'lsa boshqa tabib va jarchilar jar solsinlar, doshqozonlarda dorivor giyohlarni qaynatib, fuqaroga ulashsinlar, Ibn Sino esa... Yo'q, uni hech kim ko'rmasligi ma'qul, saroyda turganini hech kim bilmasligi darkor!

Amir shu to'xtamga keldi-yu, yostig'i ostidan shaqildog'ini olib shaqillatdi. Eshik og'asi yo'q bo'lsa kerak, Abu Tohir kirib, amirning qarshisiga tizza bukdi, bukarkan:

— Olloga shukr! — deb kulimsiradi u. — Rang-ro'yingiz yaxshi, amiri buzrukvor!

Amir qovog'ini uyib:

— Anov... Darvesh qiyofasidagi tabib qayda? — deb so'radi.

— Tabib... Ijzatingiz bilan hamadonlik jodugarni ko'rgani ketdi, valine'mat.

— Hmm... — amir, parqu yostiqlarini qo'ltig'iga tortib, oyoqlarini ko'rpachaga uzatdi. U ham otasiga o'xshab, eng yaqin nadimlariga oyoq uqalatishni yaxshi ko'rardi.

Buni bilgan Abu Tohir beixtiyor amirning oyoq tomoniga siljidi. Lekin shu payt eshik beruxsat ochildi-yu, eshik og'asi kirib, ta'zim qildi:

— Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, amirim, divsuvor!

— Qaydan?

— Dorus-saltanadan, amiri kalon! Ul mehri daryo Xatlibegimdan maktub keltirmish!

Amir shitob bilan o'rnidan turdi-da, to'rdagi yo'l-bars terisi bilan qoplangan naqshinkor kursiga borib o'tirdi.

— Ijzat et, kirsin!

Eshik og'asi chiqishi bilan bo'sag'ada boshida divsuvorlar nishoni qadalgan qunduz telpak, egnida qalin jun

chakmon, belini kumush kamar bilan bog'lab olgan, ko'zlari uyqusizlikdan qontalashgan bir navkar kirib, poygakka tiz cho'kdi-da, lom-mim demay qamchisining dastasini burashga kirishdi.

— Maktub!

Divsuvor hamon indamay qamchisining dastasini burar edi. To'satdan, dastaning bosh tomoni ajralib, qolgan qismida ingichka kavak ko'rindi. Divsuvor kavakdan naycha qilib o'ralgan bir qog'ozni olib amir o'tirgan kursi tomon emaklab kela boshladi.

— Kimxob to'n!

Amir qaltiroq qo'llari bilan naysimon maktubni yozib, o'qishga kirishdi. Uning qiyg'os ko'zlari qog'oz sathidagi chumoli izi yanglig' mayda satriar ustida yugurarkan, hayajondan bo'g'riqqan qoramtir yuzida taajjub alomati zohir bo'ldi. Taajjub hayrat bilan almashtirdi-yu:

— Subhonollo! — deb o'rnidan turib ketdi.

Abu Tohir rangi o'chib:

— Ne mujda bor? — deb so'radi. — Ul valine'mat amiralmo'minin, inshoollo, salomatdurlar?

— Salomat! Inshoollo, salomat! — Amir to'satdan asabiy xaxolab kuldi. — Ul hakimi davron... hazrat ibn Sino dorussaltanada... emish!

— Yo tavba! Hazrat Ibn Sino G'aznai munavvarada paydo bo'lgan emish! Uni o'sha, ikki oy muqaddam kelib ketgan ariz Abulvafo Sariq Teginoboddan topib borgan emish. Vaziri a'zam Ali G'arib bilan anov... hezbachcha Abul Hasanak as'asayu dabdaba bilan kutib olgan emish hazratlarini!

— Vallohu a'lam! — dedi Abu Tohir yoqasini ushlab.

— Sen ersa... bu darveshga inonib yuribsen!

— Amiri kalon! Davlatpanoh! — Abu Tohir kimning oldida turgani yodidan chiqib yoqasini ushlaganicha u yoqdan bu yoqqa yurdi. — Yo'q, yo'q, bu so'zga inonmang, valine'mat! Ya'niki, dorus saltanada paydo bo'lgan ul Ibn Sino... chin Ibn Sino emas, yolg'on Ibn Sino!

Amirdan sado chiqmadi. U to'rdagi kursiga suyan-ganicha uzoq o'yg'a toldi. Tuynukdan quyilgan qizg'ish

shu'lada uning otasining yuziday dag'al keng yuzi niqobday sovuq, siyrak qoshlari qattiq chimirilgan, taqasimon murti tagidagi yupqa lablari allanimalarni pichiriar, u go'yo o'z-o'zi bilan gaplashar edi.

— Yolg'on Ibn Sino nechun kerak u ikki korchalonga?

— Nechun? — dedi Abu Tohir, kinoyali kulimsirab. — Harqalay, yaxshi niyat uchun emasdur, amirim!

— Inchunin?

— Inchunin amiralmo'amininning ishonchini qozonmoq, so'ng davolash bahonasida shu soxta Ibn Sino qo'li bilan... — Abu Tohir o'z gumonidan o'zi qo'rqib ketib «yalt» etib amirga qaradi.

Amir, qisq ko'zlari battar qisilib, unga tikanday qadalib turardi.

— Qo'li bilan ne? «Xudo»sini aytding, «berdi»sini ham ayt, Abu Tohir!

— Valine'mat, siz aytgan ul ikki makkor hech narsadan qaytmaydi! Ul soxta hakim qo'li bilan og'u berishdan ham qaytmaydi ul ikki shayton!

Amir belidagi egri qilichni ko'zguday yaltiragan etigiga shaq-shaq urib, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Uning tor peshonasi tirishib, yuzida ko'pdan beri yuragini kemlrayotgan chuqur bir iztirob aks etdi.

Abu Tohir haq! Suyukli ammasidan kelgan xufiya maktubda ham shunga o'xshash bir fikrning shabadasi bor, Xatlibegim ishonchli divsuvorga ham uncha inonmagan bo'lsa kerak, buni ochiq aytmagan, lekin baribir, maktubida shu gapga ishora bor. Amir esa... yo'q, amir o'z padariga yomonlikni ravo ko'rmaydi... Ammo... valamat padari buzrukvorining bu mislsiz adolatsizligi! To'ng'ich zurriyoti, shar'iy valiahd shahzoda Mas'ud turganda anov telba kenjatoyini valiahd deb ovoza qilgani!..

«Yo'q, yolg'iz otasi emas, anov ikki vazir, shaytonni avrab o'z nog'orasiga o'ynatgan anov ikki quzg'un aybdor bu xo'rlik, bu haqorat, bu adolatsizlikka! Keksa padarini ilonday chirmab olgan o'shal ikki iblis aybdor hamma baloga! Bas, bul hazrat Ibn Sinoni yuborib



ko'zini ochmoq darkor padarining, ko'zini ochib, po'stini shilmoq lozim anov ikki battolning! Po'stini!»

— So'zimga quloq sol!— dedi amir, to'satdan yurishdan to'xtab. — Sen shunga iqrorsankim, dorus-saltanada paydo bo'lgan ul Ibn Sino chin Ibn Sino emas, bul Ibn Sino — chin Ibn Sinodur!

— Shunday, amirim!

— Agar bu so'zga imoning komil bo'lsa ne qilmoq darkor, Abu Tohir?

— O'ylab ko'rmoq darkor, valine'mat!

— O'ylab ko'rmoq ermish! Hozir, shu bukun eng chopqir otlar bilan o'n nafar navkar shaylagaysen! Oziq-ovqat, kiyim-kechak — hammasi taxt bo'lsin! Subhi sodiq hazrat Ibn Sinoni shul navkarlar bilan G'aznai munavvaraga yo'llaysen! Shundaykim, ko'pi bilan ikki haftada dorussaltanada hoziru nozir bo'lg'ay! So'zim ayonmu, Abu Tohir?

Abu Tohir lom-mim demay bosh egdi:

— Ayon, amiri kalon!

### ***Yigirma uchinchi bob***

Mana, ikki kundirki, vaziri a'zam Ali G'arib Osmon malikasi saroyining salomxonasida sulton huzuriga kirolmay sarg'ayib o'tiripti.

«Hazrat Ibn Sino», ya'niki Hirotdan dabdaba va as'asa bilan olib kelingan Abu Shilqim ibn Shahvoniy ikki kundan beri sulton huzuridan chiqmaydi.

Ali G'arib «hakimi davron» hazratlarini faqat bir marotaba, Teginoboddan kelib saroy oldida soyabon aravadan tushayotganida ko'rdi, xolos.

Aravadan tushgan «hazratlari» darvoza oldida turgan xo'rozday qip-qizil, yum-yumaloq vaziri a'zam bilan bosh irg'abgina ko'rishdi-da, uning yonida turgan xushqad, xushsurat a'yonga murojaat qildi:

— Ma'zur tutasiz, agar yanglishmasam, janoblari... vaziri buzrukvor Abul Hasanak ibn...

Abul Hasanak miyig'ida kulimsirab Ali Qaribga ishora qildi:

— Vaziri buzrukvor janoblari — bu kishi bo'ladilar.

Lekin «hazratlari» bosh vazirga qayrilib ham qaramadi. Uning mastona suzilgan ko'zlari Osmon malikasining yuksak marmar peshtoqlarida edi.

Bosh vazirga «hazratlari»ning mana shu qilig'i, uni tanib tanimaganlikka olgani ayniqsa alam qildi. Vo darig'! Uning oldida tunov kungi qo'rquvdan dir-dir qaltiragan soxta «hakimi davron» emas, go'yo chin hazrat Ibn Sinoning o'zi, balki undan ham serviqor, undan ham basavlat bir kimsa turardi!

— Bilishimcha, — dedi bu kimsa, ovozi vazmin do'rllab. — Bilishimcha, ul oftobi olam faqirni shu qasri benazirda kutmoqdalar. Qani, boshlang, vaziri a'zam! — «hazratlari» boshidagi simobiy dastori va egnidagi oppoq ridosini to'g'rilab, saroy tomon yo'l oldi. Uning og'zidan «gup» etib may hidi keldi. Buni sezgan Ali G'arib yalt etib ariz Abulvafo Sariqqa qaradi. Naynov Abulvafo ikki bukilib ta'zim qildi:

— Ne chora, taqsirim? «Hazratlari» aytdilarkim, yaxshi may yaxshi doru emish...

Vaziri a'zam Abulvafo Sariqning gapidagi kinoyani ichiga yutdi-da, «hazratlari»ni hammomga solib, yangi liboslar kiydirishlarini buyurdi. Uning «hakimi zamon»ga oid bergan bittayu bitta buyrug'i shu bo'ldi. Chunki hammomdan yangi liboslar kiyib chiqqan Abu Shilqim ibn Shahvoniy vaziri buzrukvorning yonidan viqor bilan yurib o'tdi-da, salomxonaga nozik mushkanbar atrini sepib, sultonning shabistoniga kirib ketdi. Hammomga uni Abul Hasanak olib kirgan edi, sultonning huzuriga ham Abul Hasanak olib kirib ketdi. Ikki qarg'a topishdi. U esa, bu ishga bosh-qosh bo'lgan vaziri a'zam esa, mana ikki kundirki, salomxonada, ikki ko'zi shabistonning dur va sadaflar bilan ziynatlangan naqshinkor eshigida amirl-mo'mininning bir og'iz so'ziga zor bo'lib o'tiribdi...

Kechadan beri xilvatxonaga kimlar kirib, kimlar chiqmadi! Ayniqsa xazinadorlar bilan bakovullar serqat-

nov bo'lib qolishdi. Xazinadorlar barkash-barkash oltin dinorlar, yoqalariga inju, yoqut va marvarid qadalgan zarbof to'nlar ko'tarib o'tishar, bakovullar esa nozik dorivor giyohlar atrini sochgan tog'-tog' bedana kaboblar, archa ko'mirida pishirilgan barra qo'zilar va yana ming xil nozik taomlarni betinim tashishar, shafaqrang sharob solingan billur idishlarni ko'tarib o'tishardi... Bir necha oydan beri go'riston sukunatiga cho'mib, ulkan maqbaraga o'xshab qolgan Osmon malikasiga to'satdan jon kirib, ari uyasiday g'uvillab qoldi. Kalondimog' eshik og'alari, chaqqon, serharakat yosh mahramlar, bakovullar, rang-barang kapalaklarday lip-lip uchib yurguvchi haram bekalarining yuzlariga tabassum, lablariga kulgu yugurgan, hammaning og'zida oftobi olamga shifo keltirgan «hakimi hoziq Ibn Sino hazratlari»ning muborak nomi, «allomai zamon»ning mo'jizakor doru darmonlari, ajalni daf etguvchi sehrgar muolajalari!..

Goho-goho ikki tavaqali o'ymakor eshik asta ochilib, Abul Hasanakning boshi ko'rinar, shunda ostonada amru farmon kutib qo'l qovushtirib turgan xazinadorlar, bakovullar, vazirining so'zini imo-ishorasidanoq ilg'ab olg'uvchi sodiq mahramlar unga qarab talpinishar edi. Chetroqdagi yumshoq kursida o'tirgan vaziri a'zam ham shosha-pisha o'rnidan turar, u ham Abul Hasanak tomon umid bilan talpinar edi. Lekin Abul Hasanak qovog'ini solib, haqoratomuz bir harakat bilan to'xtatadi-da, xazinador va bakovullarga beradigan farmonini berib, asta orqasiga qaytadi. Bosh vazirning sultonning salomatligi to'g'risidagi savoliga esa:

— Alhamdulillah, yaxshi, alhamdulillah! — deb doimo bir xil va doimo noaniq javob qaytaradi.

Vaziri a'zam kecha shu tariqa namozi asrgacha o'tirdi, keyin shabistonga kirishdan umidini uzib, Ko'shki ma'murga qaytishga majbur bo'ldi, so'ng kechasi, saroy uyquga ketganda, shaxsiy ayg'oqchisi bo'lmish bosh bakovulni oldirib, bo'layotgan ishlarni surishtirdi.

Bosh bakovulning aytishicha, «hakimi davron»ning poyqadami yoqqan, sultonning vujudidagi sanchiq

to'xtab, ancha yengil tortgan. Shu sababdan davlatpanoh «hakimi zamon»ga bir necha barkash oltin in'om etgan, boz ustiga, xilvatxona bilan mashvaratxona o'rtasidan «hakimi davron»ga alohida bir xona ajratilgan. Poshshoyi olam ko'zi ilingan chog'larida «hakimi hoziq» bilan Abul Hasanak shu xonada istirohat qilishar emish.

Vaziri a'zam xufiyaning so'zini eshitib, tong otguncha mijja qoqmadi, xuddi qavat-qavat shoyi ko'rpalarda emas, tikanda yotgandek ag'anab chiqdi.

Yo'q, Ali G'arib hech qachon xudovandi karimning qudratiga shak keltirgan emas. Va lekin, o'zini kimsan «hazrati Ibn Sino» deb, ahli mo'minni chalg'itib yurgan bu firibgar tabibning dorulari sultonning davosiz dardiga davo bo'lishi! Bu dorulardan shifo topgan oftobi olamning u makkorga barkash-barkash oltinu javohirlar in'om qilib, ustiga zarbof to'nlar yopishi! Bu battol tabibni topgan Ali G'arib bir chetda qolib, barcha ehsonlarni yaratgan egam jamol berib, aql bermagan anov hezalak vazirning olishi! Darhaqiqat, teskari dunyo deganlari rost ekan bu dunyoni!

Bugun peshinda salomxonaga to'satdan Xatlibegim kirib keldi. Egnida uzun qora baxmal ko'ylak va tugma o'rniga injular qadalgan qora duxoba mursak, boshida zar sochilgan qora ipak ro'mol, Xatlibegim chekkadagi yumshoq kursida o'tirgan Ali G'aribga bir o'qrayib qaradi-da, uning salomiga alik ham olmasdan, shabiston tomon yo'naldi. Biroq eshikda turgan ikki mahram aql bovar qilmas bir betakalluflik bilan begimning yo'lini to'sishdi.

Xatlibegimning upa surtilgan qoramtir yuzidan qoni qochib, surma tortgan qisq ko'zlari charaqlab ketdi.

— Meni tanidinglarmu, itbachchalar yo ko'zlaring ko'rmu?

— Tanidik, oliyhimmat ona begim, tanidik. Va lekin... ijozat yo'q, ona begim...

— Ijozat bo'lmasa kirib arz qil!..

— Arz qilib bo'lmas, ona begim!

— Kim bor xilvatxonada? Darhol xabar ber: oftobi

olamdan hol so'rgani Xatlibegim qadam ranjida qilmish, deb ayt, itbachcha!

Nimasi bilandur Abul Hasanakka o'xshab ketadigan xushsurat eshik og'asi rangi oqarganicha xilvatxonaga kirib ketdi. Xatlibegim esa keskin burilib, vaziri a'zamga qaradi, go'yo uni endigina ko'rganday, shitob bilan yurib, oldiga bordi.

Ali G'arib salomxonaning to'ridagi kichkinagina o'ymakor eshik tomon chekinib, chog'roq xonaga kirdi. Orqasidan Xatlibegim ham kirdi, eshikni zich yopib, bosh vazirning ko'zlariga tik qaradi:

— Bu saroyda... bu saltanatda ne yumushlar sodir bo'lmoqda, janobi vaziri a'zam?

— Faqir... faqir ham hayronu hayratdamen, begim!

— Hayratdasen! Hamma baloga bosh bo'lib, endi hayratdasen, vaziri a'zam! Kim bor xilvatxonada?

— Anov... Abul Hasanak.

— Abul Hasanak? Anov xotinchalish hezalak vazir? Tag'in kim?

— Tag'in... hakimi davron... hazrat Ibn Sino!

— Ibn Sinomi yo... o'zini Ibn Sino deb, ahli mo'minni chalg'itib yurgan bir muttahammi?

— Ona begim! Oliyhimmat begim! — dedi Ali G'arib zorli iltijo bilan. — Avvalambor, Yaratgan egam, qolaversa, shu hakimi davronning muolajasi sabab, oftobi olamga yopishgan baloyi ofat, inshoollo, daf bo'lmish. Amiralmo'minnining ahvoli ruhiyasi yaxshi, ko'ngli ravshan topmish. Inshoollo...

— Yaxshi bo'lsa.. nechun bu it emgan qulbachchalar yo'limni to'sadi? Yo Xatlibegim bilan sulton Mahmud bir qursoqdan tushmaganmu? Yaminuddavla amir Sabuqteginning pushtikamaridan bo'lgan zurriyot emasmu Xatlibegim?

— Begim! Oliyhimmat begim!..

— Oliyhimmat! — dedi Xatlibegim masxaraomuz. — Agar bu tabib o'sha... hammaga ma'lum va mashhur Ibn Sino hazratlari bo'lsa... nechun uni ahli mardumdan pinhon tutasiz?

— Begim!

— Nechun mavlono Abu Rayhon Beruniydan yashirdingiz uni? Yo bu ikki alloma do'stu birodar ekanidan xabarlari yo'qmu janoblarining?

— Oлло shohid! — dedi bosh vazir munchoq ko'zlarini shiftdagi tuynukka tikib. — O'limdan xabarim bor va lekin bundan xabarim yo'q, begim.

— Malikul sharob qayda?

— Malikul sharob? — Bosh vazir javob berib ulgur-madi, shu payt eshik ochilib, bo'sag'ada rangi oqargan eshik og'asi paydo bo'ldi.

— Oliyhimmat begim, afv etsinlar. Kirishga ijozat bo'lmadi!

Xatlibegim, xuddi bexosdan zarb yegan odamday, turgan joyida chayqalib ketdi-yu, yumshoq kursining naqshinkor suyanchig'ini changallab oldi. Aftidan, eshik og'asining so'zi umrida rad javobini eshitmagan bu shaddod xotinga malomat toshidan ham qattiq tekkan edi. Begimning tirnoqlariga xina qo'yilgan uzun qoramtir barmoqlari kursi suyanchig'ida dir-dir titrar, yupqa lablari xuddi yaralangan qush qanotlariday pirpirab uchardi.

— Bu so'zni kim aytdi senga, eshik og'asi? Anov hez... hezbachcha vazirmi yo...

— Har ikkovi, begim. Vazir ham, ul hakimi zamon... hazrat Ibn Sino ham! Olampanohning o'zlari ham begimni ko'rishga ro'yxushlik bermagan emishlar!

— Yolg'on! Yolg'on so'z bu, eshik og'asi! Daf bo'l ko'zimdan! — Xatlibegim shartta burilib, vaziri a'zamga qaradi. Burilganda bo'ynidagi qat-qat zebigardon va marvarid shodalari, quloqlaridagi yoqut ko'zli oltin sirg'alari nafis jaranglab ketdi-yu, yuksak qubbasimon shiftga g'alati aks-sado berdi.

— Vaziri a'zam! — dedi Xatlibegim. Uning ovozi birdan o'zgarib, vazmin va sovuq ohang kasb etdi. — Ul hezalak vazir bilan sening baxtingga amiralmo'minin shifo topg'ay! Agar mabodo bu qabih yumushlaring, bu hiylai nayranglaring sabab... bir falokat yuz bersa!..

— Ona begim! — Ali G'arib qo'llarini ko'kka cho'zib to'satdan yerga tiz cho'kdi. — Sizning qahringiz faqirmi

cho'chitadi, begim! Ollo taolo o'zi yetkazgan bu najot farishtasini makkorga chiqarib, faqirni nayrangboz deysiz! Yozug'im ne mening? Yozug'im yetti iqlimni oyoqqa turg'azib, chopar ustiga chopar, elchi yo'llab toptirib kelganimmi bu hakimi hoziqni?

Eshikka borgan Xatlibegim keskin o'girilib qaradi:

— Shu so'zlaring rost bo'lsa... kalomulloi sharifni o'pib qasamyod qilasen!

— Yo jabbor! Yo xalloq! — dedi Ali G'arib, hamon ko'kka qo'l cho'zib. — Qasamyod qilamen!

— Qasamyod qilsang... ertaga mavlono Abu Rayhonni saroyga yo'llaymen. Mavlono bu hakimi davron bilan suhbat qurib, izhori ixlos qilajak! Men og'amning, bir qursoqdan tushgan yolg'iz og'amning ahvoli ruhiyasini bilmog'im darkor, uning diydorini ko'rmog'im lozim.

Xatlibegim, qora ro'mol o'ralgan takabbur boshini baland ko'targanicha, shitob bilan yurib xonadan chiqdi. Vaziri a'zam esa, o'rnidan turishga majoli yetmay, o'tirgan joyida o'tirib qoldi. Bu o'ktam, erkakshoda xotin uni yomon ko'rishini, uning bittayu bitta maqsadi og'asi o'rniga suyakli jiyani amir Mas'udni taxtga ko'tarish ekanini vaziri a'zam yaxshi biladi. Amir Sabuqteginning — ollo uning gunohlarini kechirgay! — Yolg'iz qizi, sultoni salotinning suyakli singlisi bo'lmish bu takabbur begimning bosh suqmagan ishi yo'q, saroyda sohibi devon Abu Nasr Mishkan kabi o'z odamlari, arkoni harb va arkoni davlat orasida o'z tarafdorlari, o'z xufiyalari bor. Vaziri a'zam buni biladi, juda yaxshi biladi, biroq shunday bo'lsa ham, uning bunchalik qahri qattiq ekani ni birinchi ko'rishi!

Mavlono Abu Rayhonni yuborar emish! Topgan so'zini qarang bu farishtasiz alvastining!

Ali G'arib biladi: bu zanjibashara alvasti bilan o'sha dahriy mavlono Beruniy orasida pinhoni bir sir bor. U takabbur allomaning boshiga mushkul tushsa bas, bu jodugar darhol hoziru nozir bo'ladi, darhol uni o'z panohiga oladi. Mana, yaqinda ul betavfiq mavlono sultonning g'azabiga duchor bo'lib, «Qal'ai qahr»ga tushganida ham uni shu yosuman qutqarib oldi, qo'lga far-

mon tutqazib, maxfiy mushrif bilan «hakimi davron»ni qarshi olgani jo'natdi. Yolg'iz Beruniy emas, anov shakkok shoir Malikul sharobni ham qo'lga oldi. «Mitti tulki», deb nom chiqargan bosh devon sohibi Abu Nasr Mishkanni ishga solib, u mayparast shoirni zindondan chiqardi va Abu Rayhonning orqasidan yugurtirdi!

Yaxshiyamki, vaziri a'zamning xufiyalari bu jodugarning xufiyalaridan chapdastroq ekan, hamma ishning oldini olishga muvaffaq bo'lishdi. «Hakimi davron» atalmish bu soxta Ibn Sinoni tanib qolishi mumkin bo'lgan odam borki, hammasini qayta hibsga soldi. Endi bu «hakimi zamon»ni taniydigan birdan-bir odam qoldi, u ham bo'lsa mana shu alvasti aytgan imonsiz Beruniy!

«Osiy bandangni o'zing kechirgaysen, e Yaratgan egam! Ali G'arib ne qilmasin, sening yerdagi soyang bo'lmish amiralmusliminga mehru sadoqat azmida qildi. Mana hozir ham izhori ixlos ahdidida uning ostonasida tiz cho'kib o'ttiribdi. Faqirdan faqat yaxshilik ko'rgan bu ko'rnamaklar esa uni xor qilib, ustiga chiqib oldilar! Axir bu ne haqorat? Ne ko'rgulik? Qaysi gunohlari uchun bu intiqomni ravo ko'rasen, e xudovandi karim?..»

Vaziri a'zam yaqinlashayotgan oyoq tovushlarini eshitib apil-tapil o'rnidan turdi. Eshikda, ko'zlari hadik bilan javdirab... Abul Hasanak turardi.

— Anov... qari yosuman daf bo'ldimu?

— Daf bo'ldi.

— Xayriyat! — Abul Hasanakning lablariga allaqanday istehzo aralash sho'x kulgu yugurdi. — Faqirni kechirgaysiz, taqsirim! Ul hakimi davron, «Ibn Sino hazratlari»ning xohishi shu edi!

— Kaminaga «hakimi davron» emas, oftobi olamdan so'zlang, janob vazir!

— Oftobi olam otdaydurlar!

— Otday?

— Shundaykim, ko'ngillari may va moh<sup>1</sup> tilamish! Hozir mashvaratxonaga qirq gulidan bir guli ochilmagan sohibjamollar, sozanda va navozandalar yig'ilur!

---

<sup>1</sup> Oy yuzli malak ma'nosida



— Sozanda va navozandalar? Hazil-mutoyibaning oʻrni emas, janob...

— Hazil-mutoyiba? — Abul Hasanak mastona qiqir-lab kuldi-da, eshikni yopib shivir-shivirga oʻtdi. — Bu hakimi hoziq siz topgan soxta Ibn Sino emas, oʻshal, olamga mashhur va maʼlum chin Ibn Sinoning oʻzgi-nasidur, taqsiri olam. Shundaykim, bu allomai zamon ming bir dardga davo topgʻusidir, hattokim (ollo oʻzi afv etgay!) oʻlikni tiriltirmoqqa qodirdurlar. Inonmasangiz orqamdan yuring, taqsirim!

Abul Hasanak bilan Ali Gʻarib salomxonaga, salom-xonadan xilvatxonaga, undan mashvaratxonaga oʻtdilar.

Baland qubbasimon shiftiga behisob billur qandillar osilgan oʻrdaday keng, muazzam mashvaratxonaning toʻridagi serjilo oltin taxt oʻrniga ulkan soʻri oʻrnatilib, unga lolarang ipak gilamlar, gilamlar ustiga qat-qat shoyi koʻrpachalar yozilgan edi. Bu koʻrpachalarda... oftobi olam oq parqu yostiqlarga yonboshlab yotardi... Sultonning oʻng tomonida egnida banoras toʻn, boshida moʻrisimon koʻk duxoba taqya ustidan simobiy salla oʻrab olgan «hakimi davron»... ibn Shahvoniy chordana qurib oʻtirar, chap tomondan esa shoir Unsuriy joy olgan. Ularning oldidagi dasturxonda nozik giyohlar boʻyini taratgan qip-qizil bedana kaboblar, archa hidi ufurgan qovurmalar, nafis yoqut va firuza likopchalarda oltinday tovlangan shinnilar, guldor chiniy taqsimchalar-da yuz xil shirinliklar, shafaqrang may, gulob va shar-batlar toʻla billur idishlar saf tortgan.

Mashvaratxonaning toʻrt burchagidagi toʻrtta yoqut kosalardan harir koʻkimtir tutun koʻtarilar, tutun bilan birga mushk-anbar, archa, kiyik oʻti, rayhon va yana qandaydir dorivor giyohlarning oʻtkir va xushboʻy hidi dimoqqa gup-gup urardi.

Sulton, eshikda paydo boʻlgan bosh vazirni koʻrib, favqulodda chaqqon harakat bilan qaddini rostlab oʻtirdi, qovoqlari shishgan koʻzlari allaqanday suzilib:

— Ofarin senday vaziri aʼzamga! — deb zaharxanda qildi. — Senga oʻxshash suyangan togʻlarim kaminaga goʻr qazib, kafan bichib yurgan edinglar. Mana, Yarat-

gan egam o'z inoyatini darig' tutmay, hakimi davron...  
Ibn Sino hazratlarini yetkazdi...

Sultonning rang-ro'yi uncha o'zgormasa ham, qurigan terakday qoqsuyak gavdasida qandaydir pinhoni bir kuch, kishini tahlikaga solguvchi avvalgi shiddat paydo bo'lgan, kuni kechagina piligi pasaytirilgan chirog'day miltirab turgan qisq ko'zlari bugun qayta chaqnaqcharaqlab ketgandi.

Ali G'arib, vujudini sovuq ter bosib, so'ri oldiga cho'kkaladi.

— Oftobi olam! Inshoollo, arzi ixlosingiz Yaratganning qudrat qulog'iga borib yetg'ay! Hazrat Ibn Sinoni yetkazgan ul sarvari koinot sizday amiralmusliminni o'z hifzi himoyatiga olib, barcha baloi nahslarni daf qilg'ay! Umri saodatingizga saodat qo'shg'ay! G'animlaringiz kuyib, xeshu aqrabolaringiz xushnud bo'l-g'ay! Ilohi omin...

— Omin!.. O'rmingdan tur, Ali G'arib! Faqirga o'z sadoqatingni izhor qiladurg'on saodatli onlar keldi!

Ali G'arib, qo'li ko'ksida, jur'atsizgina o'rnidan turib, shoyi ko'rpachalar to'shalgan so'ri chekkasiga omonatgina o'tirdi. O'tirarkan, shoir Unsuriyning lablarida bilinar-bilinmas tabassum jilva qilganini ko'rib qoldi. Soqol-mo'ylovini qaychilab, allaqanday yasharib ketgan Unsuriy Abul Hasanak bilan negadir o'g'rincha ko'z urishtirib oldi.

«Yo rab! Bu ne imo-ishora! Ne savdo?»

— Sadoqati zohir qulingiz toabad xizimatingizga muntazirmen, olampanoh!

— Muntazir bo'lsang... bir xizmat borkim, uni sidqidildan otqarsang toabad minnatdor bo'lamen. U dunyo bu dunyo bu yaxshiligingni unutmaymen.

— Bosh ustiga, davlatpanoh!

— Bosh ustiga bo'lsa... ul ne'mat, ya'niki, malikul kalom Unsuriy aytgan «ne'mati ilohiy!» yodingdami, Ali G'arib?

— Ne'mati ilohiy?

— Ha, mana bu kitobda bitilgan «ne'mati ilohiy!» — shoir Unsuriy xontaxta ostidan ko'k saxtiyon jildli og'ir

kitobni qo'liga olib Ali G'aribga yuzlandi. — Yodingizda bormi, bundan bir oy muqaddam shu masalada mashvarat chaqirilgan edi. Hech bir alloma bu jumboqqa javob topmagan, anov allomai gumroh Abu Rayhon esa bu kitobda bitilgan so'zlarni cho'pchakka chiqargan edi...

— Cho'pchak? Hazar, alhazar! — Boyadan beri qandaydir ulug'vor sukutga cho'mib o'tirgan «hakimi davron» o'ychan nigohini yerdan uzib, shiftga tikdi. — Hindlar yurtida necha yil yurib, ul «ne'mati ilohiy» qaydaligin bilmasa? Hazar, alhazar unday allomai zamonga!

Mittigina chiniy piyolaga «qult-qult» sharob quyayotgan Abul Hasanak yalt etib «hakimi davron»ga qaradi.

— Chaqirmoq kerak uni! Chaqirib adabini bermoq darkor uning!

— Yo'q-yo'q, — dedi «hakimi davron», nimadandir hadiksirab. — Kamina unday gumrohlar bilan yuz ko'rishishdan hazar qilamen! Yodingizda bo'lsin, janobi vazir! Ul «ne'mati ilohiy» Ko'hi Sarandipda o'sadur! Ha, o'shal, Odam Ato bilan Momo Havo jannatdan keyin makon qilgan Ko'hi Sarandipda o'sadur!.. Ko'hi Sarandip esa Hindiston bilan Chin o'rtasidadur. Ya'nikim, Hindiston sarhadidan o'tgach, hamisha mashriqqa yuz tutib, otda qirq kechayu qirq kunduz yurasiz. Qirq shahar, qirq nahr va qirq tog'dan oshib tushasiz. Shunda nigohingiz oldida bir ummon namoyon bo'lurkim, kemaga tushib, yana qirq kun suzasiz. So'ng ko'z oldingizda qirq orol namoyon bo'lur. Qirq orolning o'rtasida go'zallikda tengsiz bir orol. Orola esa odam alayhissalom makon qurgan Ko'hi Sarandip zuhur bo'lurkim, unda o'shal mo'jiza daraxt, ya'niki, ul sarvari koinotning qudrati bilan yaralgan «ne'mati ilohiy» o'sadur!

— Otda qirq kun, kemada qirq kun — hech vaqo emas! — Abul Hasanak qo'lidagi piyolani bo'shatib, shoir Unsuriyga yer ostidan o'g'rincha bir qarab qo'ydi. — Vaziri a'zam janoblari bunday safarlarga o'rganib qolgandurlar!

— Balli! — dedi shoir Unsuriy. — Toju taxtimizning shonu shavkati, dinul islomning dasti shamshiri, saltanatning faxri iftixori oftobi olamning salomatligi yo'lida

chekilgan har qancha zahmat har bir sadoqati boqiy mahram uchun rohatu farog'atdur!

«Vo darig'! Nechun men bu shirinzabon to'tiqushning shakar tilini o'z vaqtida sug'urib olmadim, sug'urib olib, itlarga tashlamadim! Nechun?»

«Hakimi davron» hazratlari viqor va salobat bilan o'tirgan joyida bir tebranib:

— Ofarin sizga, malikul kalom! — deb xitob qildi. — Bahodirligu dilovarlikda yagona bo'lmish oftobi olamning sihati yo'lida har qancha g'urbat cheksak — oz! Zeroki, ul ne'mati ilohiy shundaykim...

— O'likni tiriltiradur!..

— Yo'q!..— dedi Abu Shilqim ibn Shahvoniy asta bosh tebratib. Uning allaqanday viqorli, xushsurat chehrasida sokin va xiyol g'amgin bir ifoda zuhur bo'ldi. — O'lim — hukmi ollodur! Va lekin, tuproqdan loy qorib Odam Atoni yaratgan, so'ng, nafasidan ufurib jon ato qilgan xudovandi karim shunday ne'mat ham yaratmishkim, bu ne'mati boqiyini qirq kun har laylu nahor iste'mol qilgan bandasi... xasta bo'lsa ming bir dardiga davo topadur, keksa bo'lsa qirchillama yigitga aylanadur.

Shoir Unsuriy negadir ko'ziga yosh olib:

— Ofarin sizga, Ibn Sino hazratlari! — deb xitob qildi.

— Oftobi olam!— dedi Abul Hasanak,— qirq yashar chog'ingiz yodingizdamu?

— Faqirning yodida! — shoir Unsuriy o'rmidan turib, ta'zim bajo keltirdi. — Qirq yoshida olampanoh Hindistonni zabt etib, Xuroson va Movarounnahrni tiz cho'ktirganlar!

Abul Hasanakning mastona suzilgan ko'zlarida sho'x uchqunlar jilva qildi:

— Hindiston emas, hind parivashlarining qalblarini zabt etganlar! Xuroson emas, Xurosonning ohu ko'zli sohibjamollarini, Movarounnahr emas, Movarounnahrning bodomqovoq huriliqolarini rom qilganlar deng, malikul kalom!..

Vaziri a'zam ko'z ostidan sultonga o'g'rincha nazar tashladi. Sulton, siyrak mo'ylovining uchlari pastga

osilib, ko'zlari suzilib yotar, bir qarashda behol yiqilib qolgan shirakayf odamga o'xshardi.

Ali G'aribning o'g'rincha nazar tashlaganini ko'rib qolgan «hakimi davron» negadir bezovtalanib, banoras to'ning cho'ntagidan to'rt buklangan zarvaraqqoq'oz olib yozdi-da, undan mayizdekkin bir narsani olib, sultonga uzatdi.

— Baniyati shifo, davlatpanoh! Yaxshi niyat qilib, bu doruni ichib yuboring. Inchunin, bu doru «ne'mati ilohiy»ning ayni o'zi bo'lmasa ham, uning inisidur!

«Yo tavba, dorumi bu yo afyunmi?»

Sulton Abul Hasanak tutgan bir piyola sharbat bilan doruni ichib yubordi-da, bir necha daqiqa ko'zlarini yumib qimir etmay o'tirdi. Sulton bilan birga «hakimi davron» ham unga tikilganicha qotib qoldi. Nihoyat, sultonning ko'kimtir yuziga sezilar-sezilmas qizillik yugurdi. Buni ko'rgan ibn Shahvoniy yengil tortib, Abul Hasanakka qaradi. Abul Hasanak ham «ofarin sizga» degandek unga qarab bir jilmayib qo'ydi.

Nihoyat, sulton yumuqqo'zlarini ochdi. U xuddi boshqa bir olamga parvoz qilib qaytgan odamdek atrofiga allaqanday hadik bilan qaradi-yu, ko'zi vaziri a'zamga tushib:

— Ha! — dedi nimanidir eslab. — Senga uch kun muhlat, qari tulki! Istagan g'ulom, istagan ot-ulov, istagan ganjingni ol! Devoni davlatning nomidan barcha viloyat va muzofot hokimlariga farmoni oliy yo'lla! Ko'hi Sarandipga borib ul ne'mati ilohiyni olib kelmoq uchun neki yordam darkor bo'lsa — barini muhayyo qilsinlar senga! So'zim ayonmu?

— Ayon, valine'mat!..

«E xudo! Iblisni jilovlab mingan bu battol tabibni qaygo'rdan topdim? Bir baloi nogahondan qutulamen deb, boshimga ming baloi nogahon orttirdim».

— Ayon bo'lsa, darhol yo'lga chiq! Qirq kechayu qirq kunduz u yoqqa, qirq kechayu qirq kunduz bu yoqqa, jamiki sakson kunda hakimi davron hazratlari aytgan ne'mati ilohiyni dasturxonim ustiga qo'yasen!

Vaziri a'zam, tili lol, qulog'i kar, haykalday qotib qoldi. U to'satdan tiz cho'kib yolvorgisi, ne'mati ilohiy

haqidagi bu gaplarga emas, ro'parada savlat to'kib o'tirgan «hakimi davron»ning o'zi ham avomni chalg'itib yurgan soxta tabib ekanini aytgisi, buning hammasini o'zi o'ylab topganiga iqror bo'lgisi keldi. Lekin bu fikr xayoliga qanchalik tez kelgan bo'lsa, shunchalik tez daf bo'ldi. E voh, endi bu gaplarni gapirmoq tugul uchini ham chiqarib bo'lmas edi!..

To'satdan, sulton yostig'i tagidan tilla shaqildog'ini olib shaqillatdi:

— Tag'in bir barkash oltin, tag'in bir zarbof to'n! Ali G'aribning vujudini zirqiratgan og'riq xiyol tarqadi. U umrida ko'p zarbof to'nlar kiygan, behisob oltinlar olgan, biroq har safar, oftobi olamning tabarruk qo'llaridan yangi to'n kiyib, yangi in'omlar olganida a'zoyi badani yayrab, ko'zidan yosh chiqib ketardi...

Zum o'tmay, eshik og'asi yelkasida zarbof to'n, qo'lida bir barkash oltin, ta'zim qilib kirib keldi. Buni ko'rgan vaziri a'zam vujudiga issiq hayajon yugurib o'rnidan turdi, turdi-yu, keltirilgan in'omlar unga emas, «hakimi davron»ga atalganini sezib, suratday qotib qoldi.

Abul Hasanak, o'rnidan sakrab turib, eshik og'asi-ning qo'lidan zarbof to'nni oldi-da, ta'zim bilan «hakimi davron»ga tutdi. Shoir Unsuriy esa, xuddi kumush barkashda oltin emas, «ne'mati ilohiy» uyib qo'yilganday tamshana-tamshana laganni qo'lga oldi.

— Oltin muborak, hazratim!

— Sarupo muborak, hazratim!

Ibn Shahvoniy yelkasiga tashlangan zarbof to'nni to'g'rilab, oltin barkashni olarkan, hamon o'sha viqor va o'sha salobat bilan bosh egdi.

— Toabad minnatdormen, olampanoh!

— Tashakkur, hazratim! Xasta jismimga yopishgan bu baloi nahsdan forig' bo'lgan kunim oltinu javohirga ko'mamen sizni! Zero, itingizning tovog'igacha oltin bo'lsin! Tag'in ne tilagingiz bor, so'zlang, hazratim, hammasi muhayyo bo'lur!

«Hakimi davron» sirli jilmayib, sipolik bilan bosh egdi:

— Faqir... siz oftobi olamning salomatligidan boshqa tilagim yo'qdur, olampanoh. Va lekin bani odamning

salomatligi yolg'iz uning jismi emas, ruhiga ham bog'liqdur, valine'mat! Inchunin, ko'ngil nechog'liq ravshan, dil nechog'lik safo bo'lsa, jism ham shunchalik tetik bo'lg'usidur. Shu boisdan faqiru haqir istar edimki, bu qasri oliyda hech bir g'am-anduh makon qurmasa! Bil'aks, G'aznai munavvarada neki mashhur va ma'lum xonanda va sozanda bo'lsa, barchasi shu dargohi muaz-zamga yig'ilsa! Soz chalib, siz olampanohning ko'nglini xushlasa! Haramingizda neki yosh kanizlar bo'lsa, bu davrai saodatda gul-gul yashnab, xiromon aylasa! Toki, ularning chehrai shamslarini ko'rib, qalbingizda yigitlik istagi jo'sh ursa! Tomirlaringizdagi qoningiz ko'pirib, vaslingiz ishqida yongan ul ofatijonlarga saodat ato qilsangiz!

Abul Hasanak shirakayf ko'zlarini suzib:

— Ofarin, hakimi davron! — deb xitob qildi. Unga shoir Unsuriy jo'r bo'ldi:

— Tasanno sizga, hakimi hoziq! Faqat ilmi hikmat bobida emas, shakarguftorlik bobida ham faqir sizdan mot bo'ldim, mot!

Ali G'arib sultonga yana o'g'rincha nazar soldi. Sulton, ko'zlari suzilib, sirli ishshayib o'tirar, aftidan, boyagi mayizdekkina narsa uni g'alati bir holga solib qo'ygan edi. «E, Yaratgan egam! Bu ne hol, ne hodisa! Men aqlimdan ozdimmi yo g'aflat tuzog'iga tushgan bu telbalar aqli hushlaridan ayrilib, g'irt tentak bo'ldimi?».

— Darhaqiqat, may va mahubda sir ko'p! — «Hakimi davron» ko'zlari hayrat va ilhom bilan porlab sultonga yuzlandi: — Oftobi olam ijozat bersalar, ibratli bir rivoyat so'zlab bersam. Inchunin, bundan besh-olti yil muqaddam eski g'animingiz, Buxoro hokimi Alitegin fisqi fasod gaplarga inonib, kaminani zindonga tashladi. Zindonkim, unga qirq zina bilan tushiladi! Sadoqatli qulingiz bu jahannamda qirq kun ilonu chayonlarga yem bo'lib yotdim. Ammo ollo taolo faqirga rahm qildi. Ya'niki, qirq kun deganda ul sahronegin amir shunday bir davosiz dardga chalindikim, noiloj tag'in kaminai kamtaringa yolvorib keldi! Shunda faqir unga shart qo'ydim: zindonga tushadurg'on qirq zinaning har birida

onasi o'pmagan bir sohibjamol tursin! Va har birining qo'lida bir piyola may bo'lsin! Ne chora, davosiz dard sabab, ul battol faqirning shartlarini rad qilish chorasini topmadi. Kamina esa, qirq kunda adoyi tamom bo'lg'on kamina esa... qirq zinaning har pillapoyasida bir to'xtadim, sohibjamol tutgan maydan bir ho'plab, gulg'uncha lablaridan bir bo'sa oldim. Va shu yo'sin may va bo'sa yordamida zinama-zina ko'tarildim. Sizga yol-g'on, olloga chin, olampanoh, qirq ho'plam may bilan gul yuzli nozaninlar labidan olgan qirq bo'sa sabab, behol jismimga shunday bir quvvat ato bo'ldikim, qirqinchi pillapoyaga yetganimda otday bo'lib, zindondan o'zim sakrab chiqib ketdim, olampanoh!

— Aqli shuurlariga tasanno hazratimning! — Abul Hasanak bilan shoir Unsuriyning ketma-ket xitoblari mashvaratxonani yangratib yubordi.

Sulton ham o'rnidan qo'zg'alib:

— Qani o'shal ofatijon nozaninlar? — deb so'radi, so'radi-yu, nigohi bosh vazirga tushib, qiyg'och ko'zlari to'satdan cheksiz bir quvonch bilan charaqlab ketdi. — Keldingmi, vaziri a'zam? Olib keldingmi ul ne'mati ilohiyini?

Hamma barobar burilib sultonga qaradi, hammaning hatto shirakayf Abul Hasanakning ko'zlarida ham qo'rquv va sarosima aks etdi. Mashvaratxonaga birdan jimlik cho'kdi, bu jimlikda eshik orqasidan childirmaning darang-durungi, setor va g'ijjaklarning g'it-g'iti eshiltildi, ayollarning piq-piq kulgusi, zebi-ziynatlarning nozik jarangi quloqqa chalindi.

Vaziri a'zam, tirnoqlarigacha muzlab, yerga tiz cho'kdi.

— Olampanoh! Bir qoshiq qonimdan keching, olampanoh!

— Hanuz topib kelmadingmi ul ne'mati ilohiyini? Hanuz ivirsib yuribsenmi bu yerda? Yo'qol! Daf bo'l ko'zimdan, battol!

Abul Hasanak o'rnidan sakrab turdi-da, gilamda yumalab yotgan vaziri a'zamning ketiga bir tepdi.

— Daf bo'l, makkor!



— Daf bo'li..

Vaziri a'zam, ko'zida yosh, apil-tapil o'rnidan turib, eshik tomon pildiradi. Salomxonada childirmaning gijbangi avjga chiqmoqda, dutor va setorlarning darangdurungi, raqqosalarning sho'x kulgusi yangrardi.

## *Yigirma to'rtinchi bob*

### 1

«Amir Mas'ud farmon qilgandek uch hafta emas, to'rtinchi haftaning chorshanba kuni namozi asrda G'azna yaqinidagi bir bekatga kelib tushdik. Aytishlaricha, G'aznaga yarim kunlik yo'l qolgan emish. Har kungidek, ertaga subhi sodiq yo'lga chiqsak, peshiniga qolmay G'aznai munavvaraga kirib borar ekanmiz.

Yopiray! Bosib o'tgan yo'lni o'ylasam... hayratdan yoqamni ushlaymen. Salkam to'rt hafta tunu kun babbarobar ot suribmiz. Baxtimizga, fash bahor yaxshi keldi, olloning inoyati bilan kunlar iliq bo'ldi. Faqat g'uriylar yurtining chuqur daralar va qorli tog'laridan o'tish chog'ida ko'p aziyat chekdik.

Bu tog'laru tubsiz daralarda qor ketmagan ekan, shunday joylar bo'ldiki, otlar qorinlarigacha qorga botib qoldi. Agar navkarlar g'ayratli, otlar yaramli bo'lmaganda, ehtimol, jismimiz bu tog'u toshlar orasida yaxlab, ruhimiz u boqiy dunyoga parvoz qilardi. Ammo oying yarmi qorong'u bo'lsa, yarmi yorug' deganlaricha bor ekan. Bu uqubatlar evaziga uzoq yo'lda shunday fusunkor joylar uhradiki, bu ko'm-ko'k qirlar, chaman gullagan bog'u rog'lar, hadsiz-hududsiz yaylovlarni ko'rib, bu foniy dunyoning ko'ru jamoliga lol qoldik. Alxusus, Hirot tevaraklari go'zallikda benazir ekan. Bu muzofotning mashriq tomonidagi Bog'dis vodiysidan hisobsiz sersuv tiniq daryochalar oqib o'tar ekan. Bu daryochalar oralig'idagi o'tloqlarni ko'rib ko'zingiz to'yamaydi, bog'lar, tokzorlar, ekinzorlar bir-biriga tutashib ketgan, hammayoq ko'm-ko'k, musaffo, har qadamda zilol chashma. Shundaykim, bu tiniq chashmalarga havzi kavsar ham teng kelolmas.

Boya g'uriylar yurtining qorli tog'larini aytdim. Darhaqiqat, bu tog'lar bizga ko'p azob berdi. Ammo osmoni falakka tiralgan bu tog'lar oralig'ida Bomiyon degan bir voaha bor ekankim, uni bamisoli bog'i firdavs deysiz.

Vohaning uzunligi nari borsa uch-to'rt farsang, kengligi ko'p bo'lsa bir farsang kelar. Biroq uning qoq o'rtasidan sersuv daryo sharqirab oqib yotar ekan, daryoning ikki qirg'og'i go'zallikda tengsiz, bepoyon bir bog'kim, kirsangiz chiqqingiz kelmaydi. Bu ko'rkam bog'larga shunday tartib berilgankim, unda shaftolizordan xurmozorga, xurmozordan bodomzorga, bodomzordan uzumzorga o'tasiz. Hammayoqda bulbullar xonish qiladi, har qadamda rang-barang, g'aroyib qushlar pir-pir uchadi, har bir daraxt tepasida laylaklar qo'nib o'tiribdi.

Bu vohaning yana bir g'alati tomoni shundakim, daryoning ikki yonidagi xarsangtoshlarga Budda degan hindlar ma'budining ikki bahaybat haykali o'yib yasalgan. Birining bo'yi kamida yuz gaz keladi, ikkinchisining 60—70 gaz. Toshga o'yilgan bu ma'budlarning yonlarida behisob g'orlar bo'lib, ular ham g'aroyib suraflar bilan bezatilgan.

Xullas kalom, yo'l azobi evaziga ko'p ajoyib narsalarni ko'rishga muyassar bo'ldik.

Aytishlaricha, sultonning eng chopqir divsuvorlari har kuni yigirma-o'ttiz farsang<sup>1</sup> yo'l bosib, G'aznadan Isfahonga ikki haftaga qolmay kirib borar emishlar. Ular tezchopar otlarining yoniga yana bir sara otni shatakka olib, ularni navbatma-navbat minar ekan, bekatlarda esa, divsuvorlar uchun maxsus otlar shay turar ekanmi, yetib borishlari bilan otlar almashinar ekan.

Bizga ham shu tartib joriy etildi. Tartib shunday edikim, bizdan oldin ketgan divsuvorlar bekatlarda eng sara otlarni shay qilib, kutib turar edilar. Biz yetib borishimiz bilan charchagan otlarni topshirib, yangi otlarga minar edik. Bir necha muzofotlardan esa ot o'rniga yuguruk tuyalar berdilar. Shayx yuguruk tuyalarga ilgari

<sup>1</sup> 150—180 kilometr ga to'g'ri keladi.

ham mingan ekan, kamina minmagan edim, bu ajab holni qarangi, yuguruk tuyalar yugurmoqqa kirishsa eng chopqir bedovlarni ham ortda qoldirib ketar ekan, bedov charchasa charchar ekanki, yuguruk tuya charchamas ekan. Ammo, sababi keksalik, yuguruk tuyalar bu safar shayxga to'g'ri kelmadi. Zotan bu olis, sermashaqqat yo'l shayxni qattiq qiynab, tamom holdan toydirdi.

Garchand, shayx uchun ot va tuyalarga maxsus kaja-va va maofa<sup>1</sup> o'rnatib bersalar ham, garchand yo'lning bir qismini soyabon aravalarda o'tsa ham, sababi keksalik, ustod ko'p aziyat chekdi. Boz, vujud qiynog'iga ruhiy azob qo'shilib, shayx ko'p qiynaldi.

Darhaqiqat, yaxshilikka yomonlik, degan ko'hna matal rost ekan. Bil'aks, shayxning muolijasidan shifo topgan noinsof amir Mas'ud loaqal uyiga borib, inisi Abu Mahmud tirikmi, yo'qmi, xabar olishga ijozat bermasmidi? Na inisi bilan diydor ko'rishishga ijozat etdi, na simob quydi, degan tuhmat bilan zindonga tashlangan Buxoro malagini ko'rishga ruxsat berdi!

Bu yerda ne sir-asror bor — hanuz bilmaymen, ammo bu sho'rlik sanamni ko'rishga ijozat bo'lmagani shayxga ayniqsa qattiq tegdi. Isfahondan G'aznaga ketadigan kuni kechasi shayx mijja qoqmay tor hujrada yurib chiqdi. Subhi sodiq o'n nafar navkarlar qurshovida yo'lga chiqdik. Puli Shahrison ko'prigidan o'tib, Hirot darvozasi tomon yo'l oldik. Kimsasiz ko'chalarda hanuz qora o'lat sharpasi hokim edi. Yuzlari va og'izlarini qora mato bilan o'rab olgan qora ko'lagalardan boshqa tirik bir jon ko'rinmas edi. Ular har joy-har joyda yumalab yotgan murdalarni aravalarga ortib yurar edilar...

Biz Puli Shahrison ko'prigidan o'tib, o'ng qo'lga burilganimizda Kuyi Gunbaz gazarining maschiti va maschit orqasidagi «Hisor» kutubxonasi muazzam binosi ko'rindi. Kutubxonaning yumaloq gumbazi o'pirlilib tushgan, shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan muhtasham binoning faqat baland peshtoqlari omon qolgan edi, xolos.

---

<sup>1</sup> M a o f a — charmdan yasalgan kursiga o'shsh o'indiq.

Shayx, ikki ko'zi guzarda, otining jilovini tortib to'xtatdi. Uning hovlisi kutubxonaning orqasida, Kuyi Gunbaz guzarining boshida, qo'l cho'zsa tegadigan joyda edi. Biroq oldinda borayotgan chag'irko'z shopmo'ylov mushrif shayxning to'xtaganini ko'rib, uning yoniga bostirib keldi-da, otining sag'risiga ust-ustiga qamchi urdi. Shayx mushrifga lom-mim demadi, ammo bu mash'um voqeadan keyin bir haftagacha og'ziga talqon solib oldi, go'yo chag'irko'z mushrifning qamchisi zarbidan tili soqov, qulog'i kar bo'lib qoldi. Faqat o'n kunlar o'tib, Hirot tog'lari va guriylar darasidan chiqib olganimizdan keyingina, chehrasi xiyol yorishdi. Kechalari keng sayhonliklarda yoxud ulkan bekat chekkalarida to'xtab, gulxan yoqib picha hordiq chiqargan chog'larimizda, uncha-muncha gaplashadigan bo'ldi.

Biz har kuni kamida yigirma farsang yo'l bosar edik, ammo qancha yo'l yurib, qayerga yetib qo'nmaylik, o'sha joyga bizdan oldin uzunquloq gap yetib borar edi. Shundaykim, biz yetib borgan joyda bir qancha xastalar, mayib-majruhlar paydo bo'lib qolar edi. Ular shayxning kelayotganini qaydan bildi, bu sir-asrorni kimdan eshitdi — bu narsa yolg'iz olloga ayon, ammo davosiz dardga muhtalo bo'lgan bu sho'rliklar dod-faryod bilan shayxning oyog'iga yiqilib, najot so'rar, navkarlar urib-so'ksalar ham ketmas edilar. Shunda shayx navkarlarni to'xtatib, ularni davolashga kirishar edi.

Zotan, shayx safar chog'ida ham orom ne, hordiq ne — bilmadi, bir zum imkon bo'lsa, bas, yo'lda uchragan dasht giyohlarini yig'ar va darrandalarni kuzatar, gohida ko'nglidagi g'am-anduh xiyol tarqab, dili ravshan tortgan chog'larida yo'ldagi tog' va daralar haqida fikr yuritar, chamamda, bu og'ir yo'lda ham u bo'lg'usi kitoblarini o'ylar edi!

Darhaqiqat, shayx hatto raqiblar ig'vosi bilan «Faraj» qal'asiga qamalganida ham fursatni bekor o'tkazmagan, tunu kun mutolaa va mushohada bilan band bo'lgan edi.

Qal'a begi ibn Yaqzon insofli, adolatli, diyonatli odam edi.

U shayxga «Faraj» qal'asidagi eng tinch, eng osuda xonani bo'shatib berib, osh-suvidan xabar olib turgan, qog'oz-qalam — hammasini muhayyo qilib bergan edi. Kamina har bomdod qalam-qog'ozlarni olib shayxning huzuriga kirar edim. Shayx aytib turar, men esa yozib olar edim, shu yo'sin to'rt oy bu qal'ada yotganimizda shayx o'zining eng barkamol she'riy va nasriy asarlarini yozib tugatgan edi. «Hayy ibn Yaqzon», «Qushlar risolasi» va «Salomon va Ibsol» degan qissalarini, ko'p she'r-lari, musiqa bobidagi risolasining bosh qismi va mantiqqa oid bir qancha asarlarini shayx o'sha qal'ada, mahbuslikda bitgan edi. Keyinchalik shayx: «Bu dunyoda bir yomonlikning bir yaxshiligi ham bo'ladi, raqiblarim ig'vosi sabab, «Faraj» qal'asiga qamalmaganimda, ehtimol, bu asarlarim yozilmas edi», deb kulib yurgan edi!..

Lekin «Faraj» qal'asida mahbus bo'lib yotganida, shayx bir daqiqa ham g'am-anduh chekmagan edi. U mahalda shayx hali yosh edi. Har subhi sodiq boshlanadigan suhbatlarimiz goho tun yarmigacha, goho tong otguncha davom etar, kunlar qanday o'tganini bilmas edik. Endi esa shayx qattiq iztirobda edi. Uning yuragini allaqanday pinhoniylar bir alam, hech kimga aytib bo'lmaydurg'on intihosiz bir dard tunu kun kalamushday kemirar edi.

Bu pinhoniylar dard siri-arini ehtimol hamshahari Shokalon bilsa, biroq Shokalon Isfahonda qolib ketdi, shayx qancha yalinib-yolvormasin, Shokalonni birga olib ketishga ijozat bo'lmadi.

Har oqshom, sahroda to'xtab, gulxan yoqib dam olishga chog'langan paytlarimizda, shayx yiroq-yiroqlarga ketadi-da, tanho uzoq aylanib yuradi.

Shayxga orom bermagan bu g'am-anduhlarning sababi ne? Buni men ko'p yillardan keyin bildim. Ma'lum bo'lishicha, shayx yoshlik chog'larida amir Mas'udga in'om qilib yuborilgan buxorolik malakning onasiga muhabbat qo'ygan ekan. Ammo taqdiri azal sabab, sevgilisi bilan qovusha olmagan ekan. Shu boisdan ham Isfahonda, amir Mas'ud zindonida qolgan sho'rlik qizning qismati unga orom bermay ko'p qiynalgan ekan.

Shoyad endi shayxning omadi kelib, sulton sihat topsa! Shayx esa yuzi yorug' bo'lsa! Shunda sulton ham, ehtimol, lutfi ehson ko'rsatib, tila tilagingni der, shayx esa ul baxtiqaro malakning jonini tilab olar!.. Shoyad shunday bo'lsa!..

Shayx qattiq charchagan edi, bekatga kelib qo'ni-shimiz bilan o'z hujrasiga kirib yotib qoldi, men taom tayyorlashga kirishdim».

*(Abu Ubayd al-Juzjoniy xotiralaridan.)*

2

Yo'l azobi — go'r azobi, deganlari bejiz emas ekan. Boz ustiga, Isfahondan chiqqandan beri yuragini qiy-malagan notinch o'ylar, Shokalon aytgan gaplar, amir Mas'ud zindonda qolgan Bo'tako'zbeгим qizining taqdiri — buning hammasi diliga bir zum orom bermay, tamom holdan toydirgan ekan, Ibn Sino hujraga kirib cho'zildi-yu, ko'zi uyquga ketdi. Biroq bu ne? Ko'zi ilinishi bilan quloqlari ostida mungli kuyday hazin bir ovoz yangradi:

«Men sho'rlikni kechirgaysiz, hakim hazratlari! Ko'z yoshimga rahm qiladigan, zorimni eshitadigan bir kim-sani topolmay, tag'in sizga bo'zlab keldim!»

«Yo tavba! Bo'tako'zbeгим! Kamina seni olamdan o'tgan desam!..»

«Ha, men olamdan o'tganmen, hazratim. Suyagim Oloy tog'larining etagiga qo'yilmish, O'guz tog'ining bag'riga ko'milmish!»

«Yo rab! O'lgan odam tirilib kelsa! Bo'taday bo'zlab yursa!»

«Ne qilay? Yolg'iz qizimning boshiga tushgan musi-batni bilursiz. Onaizor, bu musibatni eshitib, go'rimda tinch yotolmadim, oh chekib, olloga iltijo qildim. Bilmam, ohim arshi a'lloga borib yetdimi yo toshni erit-gan ko'z yoshlarim ko'kni ham eritdimi, Yaratgan egam qayta jon ato qildi. Go'rimdan chiqdimu bo'tasidan ayrilgan oq tuyaday bo'zlab, qizimni izlab Isfahonga bor-dim. Biroq dodimni eshitadigan tirik bir jon topmadim.

Shu-shu, dilim vayron, ko'zim giryon, tag'in ortingizdan quvlab keldim, hazratim. Men uni ollodan tilab olgan edim. Sizning pushtikamaringizdan bo'lmasa ham, sizdan bo'lganday suyar edim uni!».

«Aytmasang ham angladim buni. O'zim bilgan Shokalon aytdi. Ammo ne chora, begim?»

«Ne chora? O'shal mash'um firoq onlari ham «ne chora», deb noligan edingiz, bugun yana noliysiz. Bu ne badbaxt dunyo ekanki, yomonlikka chora bo'lmasa? Men g'aribning boshidan nelar kechganini hech bir kimsa bilmasa?». «Sen ham bilmaysen, begim!..»

«Yo'q, bilamen. Men sho'rlikni ko'nglingizdan o'chirib, o'rniga kitoblar bitdingiz. Hakimi davron, degan nom chiqardingiz. Men g'arib esam... Dunyoda Oloy tog'lariday ulkan tog'lar yo'q ekan. Uning qorlariday oppoq qorlar ko'rmadim, suvlariday shirin suvlar ichmadim, Oloy yaylovlariday ko'rkam yaylovlar yo'q ekan olamda! Men esam... ko'zim yo'lda, xayolim Afshona qirlarida, erta ko'klam siz bilan ot surib o'ynagan lolazor dashtlar ishqida oy-yillarim o'tdi, oy-yillarim o'tdi! Kunduz ko'zim to'rt: karvon yo'llariga tikildim, tunlarda unsiz bo'zlab tong ottirdim, siz esa...»

«Sen yozgan kitoblarimni sanaysen, orttirgan shonshuhratimni so'zlaysen. Men esam... seni bir ko'rmoq uchun yozgan barcha kitoblarim, orttirgan barcha shonshuhratimdan voz kechar edim! Bir daqiqa ikkilanmay hammasidan voz kechar edim, begim, azizim, ko'z ochib ko'rgan sevgilim!»

«Sevgilim dedingiz! Shu so'zingiz rost bo'lsa... ollodan tilab olgan yolg'izimni sizga topshirdim! Mana, sulton Mahmudni davolash murodida G'aznaga yo'l olib-siz. Men ham ortingizdan bo'zlab keldim. Omadingiz yurib, sulton shifo topsa, dodimni unga yetkazgaysiz! Yodingizda bo'lsin: sizning pushtikamarinizdan bo'lmasa ham, sizdan bo'lganday sevar edim uni! Agar qizim bir narsa bo'lsa... suyagim Oloy tog'larida, arvohim qarg'ish tekkan Isfahonda, toabad bo'zlab o'tamen, hazratim, bo'zlab o'tamen!..»

Ibn Sino allaqanday bosinqirab uyg'onib ketdi. U

devorlariga qizil ipak gilamlar tutilgan serhasham hujrada yotar, tokchalardagi shamlarning aksari o'chirilgan, hujra g'ira-shira, faqat shiftdagi do'ppidekkina tuynukdan oppoq yorug' yulduzlar charaqlab turardi.

Yo tavba! Bu ne? Tushimi, o'ngimi?

Ibn Sino tush ko'rish hodisasi haqida ko'p o'ylagan, uning sirlarini o'rganishga ko'p uringan. Ammo... yo'q, bu tush emas, nazarda, u hozir tirik begimni ko'rgan, uning alam to'la tanish, muloyim ovozini eshitgan edi!..

...Ha, o'sha kuni, Isfahonga kelib, amir Mas'udning qulog'ini davolagan kuni, u Bo'tako'zbekimning qizini ko'rish umidida edi. Og'riq azobidan qutulgan amir uyquga ketishdan avval zindon qilingan sho'rlik malakni ko'rishga ijozat bergan ham edi. Biroq zindonbon uni ko'rsatish uchun amirning muhri bosilgan farmoni oliy talab qildi, biroq amir uyqudan uyg'onib, bu farmon olinguncha saroyda qandaydir bir voqea sodir bo'ldi, chamasi, hibsdan yotgan Qorako'zbekimni ko'rsatish uyoqda tursin, uning o'zini hibsga olishdi. Bir kecha hibsdan saqlab, ertasiga tong qorong'usida... qo'l-oyoqlarini bog'lamasalar ham, bog'lagandan beshbattar qilib buyoqqa olib kelishdi!

Ibn Sino yuragi qattiq siqilganini sezib, yostiqqa yonboshladi-da, asta ko'zini yumdi. Yumishi bilan nechundir nigohi oldiga yana Afshona ortidagi yamyashil qirlar keldi. Qir ustida ulkan oq o'tov. Pastda, qir atrofida esa, boshqa kichikroq o'tovlar, oq, qizil, qora o'tovlar... Bahor. Dalalar, dalalargina emas, hatto jonsiz qumliklarga ham jon bitgan, hammayoq tillarang chuchmomalar, bo'ztikanlar, baxmalday mayin yovshan va shuvoqlar bilan qoplangan, tiniq qo'zigullar, ravoch va xushbo'y kiyik o'tlari, mitti chitirgul va sariqbosh gullar orasida behisob lolaqizg'aldoqlar cho'g'day yonadi, o'tovlar yonida boshlaridagi qizil qalpoqchalariga ukki patlari qadalgan xipchabel, bodomqovoq qiz-kelinchaklar sochlariga taqilgan kumush tangalarni mayin jiringlatishib, chopqillashib yurishadi.

Kechalari tiniq, seryulduz Afshona kechalari, behisob



o'toviar oldida gulxanlar yonadi, qarorgohdan yiroqda, poyonsiz dashtning xilvat joylarida qiz-yigitlar yig'ilishadi, so'ng, birda sho'x, birda xiyol ma'yus qo'shiq va laparlar cheksiz-chegarasiz dasht uzra sokin daryoday ohista oqadi.

Yosh Abu Ali bu hazin laparlarni eshitib, qir bag'rida yonboshlab yotarkan, nazarida, qandaydir ulkan kemaga tushib, boshqa bir go'zal olamga suzib ketayotganday bo'ladi. To'satdan, uning qo'liga kimningdir mayin, iliq kafti asta tegadi, go'yo muloyim bir qushcha kehb qo'ngandek tuyuladi.

— Taqsir, bekam yo'qlaydur sizni!

Bodomqovoq, qiyg'ochko'z kaniz mitti qushchaday muloyim qo'lini Abu Alining qo'lidan uzmay uni qayoqqadir boshlaydi. Atrof zim-ziyo. Abu Ali hech narsani ko'rmaydi, biroq abjir kaniz hech narsaga qoqinmay qalin saksovulzor tomon boshlaydi-da, qayoqqadir yetaklab ketadi.

Ana, yuqorida, yulduz to'la osmonga qo'shilib ketgan qir ustida oq o'tov ko'zga chalinadi.

O'tovga yaqin qolganda tanish bo'ribosarlarning vahimali irillashi eshitiladi-yu, zimiston tun qa'ridan ikki yasovul chiqib keladi.

— Bu kim tun yarmida sang'ib yurgan?

— Hakim hazratlari! — deydi kaniz. — Hakim hazratlarini bekam yo'qlamishlar!..

Abjir kaniz Abu Alini sekin turtib, o'tov tomon yo'llaydi.

O'tovning qanotiga osilgan qandilda bittayu bitta moychiroq miltiraydi. Uning zaifgina shu'lasida o'tov burchagiga tutilgan chimildiq ko'rinadi.

Abu Ali kirishi bilan chimildiqning bir cheti ko'tarilib, go'yo oqqushning bo'yniday oppoq nozik qo'llar ko'rinadi-yu, betoqat harakat qiladi: «Beri keling!».

Abu Ali yuragi tuzoqqa tushgan qushday pitirlab, chimildiqqa yaqinlashadi. Shu payt chimildiq ochilib oppoq nozik qo'llar uning bo'ynidan quchib, pastga tortadi.

— Hazratim!

Yerga tiz cho'kkan Abu Ali yuzida Bo'tako'zbegining cho'g'day issiq yuzini, hayajonli nafasini his etadi. Begining sochlaridan dala giyohlarining xushbo'y nozik bo'ylari, lablaridan allaqanday totli va sho'rtang ta'm keladi...

— Ustod!

Ibn Sino, xayol og'ushidan zo'rg'a qutulib, ro'parasida qo'l qovushtirib turgan shogirdi Abu Ubaydga qaradi.

— Ovqat keltiraymi, ustod?

— Tashakkur, azizim.

— Sizga ne bo'ldi, ustod? Kun bo'yi tuz totmadingiz!..

— Zarari yo'q, tabobatda goho ochlik to'qlikdan foydaliroqdur, — Ibn Sino shunday deb bir kulimsirab qo'ydi-yu, shogirdining yo'l azobidan kirtayib qolgan ko'zlaridagi tashvishni ko'rib, ko'ngli xiyol yumshadi.

— Mayli, azizim, kamina hovliga chiqib, birpas nafas olib kelay. Keyin ovqatni birga baham ko'ramiz.

Kecha oysiz, biroq seryulduz edi. Bekat hali uyg'oq, behisob hujralarning darichalari behisob mitti yulduzlar-day miltiraydi, biroq hovlida odam siyrak, faqat qayerdadir olisda, darvoza tomonda gulxan yonar, u yerdan g'ala-g'ovur ovozlar, asabiy xitoblar, gohi-gohida esa «gur-gur» kulgu eshitilardi.

Ibn Sino bir-bir bosib gulxan tomon yurarkan, davradan kelayotgan ovozlar qulog'iga chalindi:

— Topib bo'libsiz adolatni, xomkalla! Bu dunyo tugul, u dunyodan ham topolmaysen uni!

— Hamma barobar emas, tentak! Aqlli poshsholar ham o'tgan bu dunyoda!

— Aqlli poshshoni o'z ko'zing bilan ko'rdingmi, nodon?

— O'zing nodon!

G'ala-g'ovur, kulgu, asabiy xitoblar avjiga chiqdi. Ibn Sino ichida kulimsiraganicha qadamini jadallatdi, shu payt orqasida qandaydir soya paydo bo'lib:

— Hazratim! — deb shivirladi. — Bormang uyoqqa, betavfiq qarmatiylar yig'ilgan u yerda!

Biroq Ibn Sino to'xtash o'rni qadamini tezlatdi-da, gulxanga yaqinroq joyda yumalab yotgan to'nkaga ko'zi tushib, unga cho'nqaydi. Uni ta'qib etgan soya to'xtab orqaga chekindi va cho'kka tushib kavsh qaytarayotgan tuyalar panasiga o'zini oldi.

Ibn Sino to'nkaga cho'nqaygan zahoti gulxan yonida yonboshlab yotgan, egniga ko'k chakmon, boshiga ko'k kuloh kiygan, bo'y-basti kelishgan, faqat o'ng qoshining ustida katta chandig'i bor bir qalandar:

— Hoy, mo'minlar! — deb xitob qildi. — Kamina bu jumboqni yechib berguvchi bir rivoyat eshitganmen. Kimki bu rivoyatni tinglamoqni istasa... bir tanga-yarim tanga sadaqa qilsin!

Davrada piq-piq kulgu eshitildi.

— Rivoyatni ham aqchaga sotasenmu, noinsof!

— Oxir zamon kelganidan nishona bu!

— Ko'p valdiramay, aqchang bo'lsa ber — eshitaylik rivoyatni!

Ibn Sino peshonasi chandiq bu xushqad barvasta qalandarni qayerdadir ko'rganday bo'ldi, biroq harchand urinmasin, qayerda ko'rganini eslay olmadi-yu, cho'ntagidan uch-to'rt dirham topib, uning kulohiga tashladi.

Qalandar chandiq peshonasini silab, unga bir zum tikilib qaradi-da, yig'ilgan xayr-ehsonni belbog'iga tugib, hikoyasini boshladi:

— Shundaykim, bir poshsho kunlardan bir kun tush ko'rmish. Tushida yetti oriq hokiz yetti semiz ho'kizni yeb qo'ymish. Uyqudan uyg'onib ketgan poshsho qo'rqqanidan darhol donishmandlarni yig'ib, ulardan tushining ta'birini so'rmish. Shunda eng keksa bir donishmand aytibdiki, mamlakatda yetti yil to'qchilik bo'ladi, odamlar farovon turmush kechiradi, so'ng qattiq qurg'oqchilik boshlanib, yetti yil ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan ochlik va qahatchilik yuz beradi.

— Bunga qarshi ne chora ko'rmoq darkor? — deb so'rabdi poshsho.

— Boshda bo'ladurg'on yetti yil farovonlik chog'idan keyin keladurg'on yetti yillik qahatchilikka yetadurg'on don-dun va yetti yillik suv g'amlamoq darkor!

Alqissa, donishmandning ta'biri ro'yobga chiqib, yetti yil obi havo yaxshi kelmish. Hammayoq to'kin-sochin, mamlakat obod bo'lmish. Shundaykim, donishmandning ta'biri hatto xotirdan ko'tarilmish. Bir kun poshshoyi olam donishmandni chaqirib: taqsir, ta'biringiz rost bo'lsa siz aytgan ochlik va qurg'oqchilik qayda? — deb ta'na qilibdi.

Shunda donishmand:

— Shoshmang, poshshoyi olam,— debdi,— bir kun uyqudan qattiq qorningiz ochib uyg'onasiz. Shu kuni men aytgan qurg'oqchilik boshlanib, mamlakat ochlik va qahatchilikka yuz tutadi.

Filhaqiqat, ertasiga poshsho uyqudan qattiq qorni ochib uyg'onibdi. Shu-shu, qattiq qurg'oqchilik kelib, ochlik va qahatchilik boshlanibdi. Bu baxtsizlik yetti yil davom etmish. Yo'g'onlar cho'zilib, ingichkalar uzilmish. Agar to'qchilik yillari donishmand aytgan suv va g'alla g'amlanmaganda, barcha ahli mo'min qirilib ketar ekan. Shunda poshshoyi olam yana kekxa donishmandni chaqirib, qachon bu qurg'oqchilik va qahatchilik tugaydi, deb so'rabdi. Donishmand aytibdiki, poshshoyi olam, bir hafta sabr qilgaysiz. Bir haftadan keyin qurg'oqchilik tugab, qattiq yomg'ir yog'adi. Ammo, demish donishmand, barcha ahli mo'minga xabar qilgaysiz. Birinchi yomg'ir suvini hech kim ichmasin, toki kimki uni ichsa, aqldan ozadur!

Poshsho jarchilarga farmon berib, donishmandning so'zini elga yetkazibdi. Lekin bu gapga quloq solguvchi bir kimsa bo'lmabdi. Poshshodan boshqa hamma yomg'ir suvini ichib, hamma bab-barobar aqldan ozibdi. Shu-shu, hech kim poshshoning amr farmonlariga itoat etmaydigan bo'libdi. Shunda poshshoyi olam kekxa donishmandni uchinchi bor chaqirtirib, bu baloga qarshi ne chora ko'rmoq darkor, deb maslahat so'rabdi. Donishmand javob bermishki, bu baloning birdan-bir chorasi — siz ham o'shal suvdan ichasiz, fuqaro shundagina amri oliylaringizga itoat qiladur, debdi.

Chorasiz qolgan poshshoyi olam ham o'sha yomg'ir suvidan ichib, o'ziyam aqldan ozibdi. Aqldan ozib, telba-

teskari farmonlar bera boshlabdi. Shunda telba fuqaro teiba poshshodan mamnun bo'lib, uning telba-teskari farmonlariga jon-dildan itoat etadigan, amru farmonlarini shak keltirmay vojib qiladigan bo'libdi.

Qalandarning so'nggi gaplari zo'r qahqaha va zaharxanda xitoblar ostida ko'milib ketdi:

— O, ho, ho! Baayni G'aznadagi ishlardan so'zlad-ing, darvesh!

— Balli! Agar biz ham nodon bo'lmasak qilichidan qon tomgan bu telba sultonga qulluq qilib yurarmidik?

G'ala-g'ovur va qiyqiriq battar avjiga chiqdi. Shu payt gulxan ortidagi zim-ziyo qorong'ilikdan:

— Ushlang bu qarmatiylarni! — degan tahdidli xitob yangradi. — Bu karvonsaroy bedinlar uyasiga aylanmish! Dahriylaru qarmatiylar yig'ilmish bu uyaga! Ushlang bu murtaidlarni!

Cho'kka tushgan tuyalar panasidan, go'yo shu tahdidli ovozni poylab turganday, qilich yalang'ochlagan besh-o'n nafar navkar yopirilib chiqdi.

Ibn Sino uyog'i nima bo'lganini yaxshi anglamay qoldi. Chamasi, gulxan tevaragida o'tirgan gadolar sapchib turdilaru «qoch!» degan xitob bilan o'zlarini har tomonga urishdi. Ibn Sino ham sakrab o'rnidan turdi, biroq hali joyidan jilmagan ham ediki, kimdir kelib, uning qo'lidan ushladi.

— Bu shakkok qarmatiylar sizga ne kerak, hazratim? Hujrangizga kirib dam oling! Subhi sodiq yo'lga chiqamiz!

Ibn Sino indamay orqasiga qaytdi. To's-to'polonni eshitgan Abu Ubayd ham hujradan yugurib chiqqan edi, birgalashib hujraga qaytdi.

Ajabo! Dorussaltana ostonasida qarmatiylar to'g'ri-sidagi bu gaplar! Peshonasi chandiq bu xushqad, barvas-ta qalandar va uning g'alati rivoyati!

Ibn Sino uni qayerdadir ko'rgan, ehtimol davolagan. Salkam qirq yil tabiblik qilib, u minglarcha, balki o'n minglarcha xastalarni davolagan. Shunday bo'lsa ham, odatda, davolagan kishisi yodida turar edi. Bu qalandarni ham eslaganday bo'ldi, uni qayerdadir davolagani

aniq, ammo qayerda? Gurganjdami, Jurjondami yoxud Hamadon va Raydami? Qayerda?.. Qayerda? Qayerda?..

Ibn Sino ko'zi ilindimi, yoqmi — o'zi ham bilmay qoldi. Qulog'iga yana allaqanday shov-shuv, qilichlarning sharaq-shurug'i, kimlarningdir ingragan, so'kingan ovozi, ot tuyoqlarining dupuri eshitilganday bo'ldi, so'ng, zulfinlar sharaqlab, hujraning ikki tavaqali o'ymakor eshigi taraqlab ochildi. Bo'sag'ada... qo'rquvdan dag'-dag' titragan Abu Ubayd, Abu Ubaydning orqasida esa, boshiga ag'darma telpak, egniga ko'k chakmon kiyib, beliga egri qilich taqib olgan norg'ul bir yigit ko'rindi.

— Ustod! — Abu Ubayd, negadir, ko'ziga yosh olib Ibn Sinoni quchoqlab oldi. Norg'ul yigit esa, tavoze bilan bosh egib, salom berdi.

— Qo'rqmang, hazratim! Bizning lashkarimiz... «haq va adolat» lashkaridur, taqsirim!

«Haq va adolat lashkari!»

Ibn Sino hayrat bilan yigitning shiddatli qoramtir yuziga tikildi.

«Donishlar va allomalar tilidagi bu muqaddas so'zlarni qaydan biladi bu yigit?»

— Hozir bekatni bosgan ham shu... «haq va adolat» lashkarimi, o'g'lim?

— Yo'q! — yigit boshini mag'rur ko'tardi. — Biz karvonsaroyini emas, sulton Mahmud sarbozlarini bosdik, taqsir! Matlabimiz — bu mustabid sultonni taxtdan ag'darib, yurtda haq va adolat tiklamoqdur! — Yigit shunday deb, yana qo'l qovushtirib ta'zim qildi. — Sizdan iltimos: «Ko'shki qasos» atalmish qarorgohimizga tashrif buyurgaysiz! Kaminaning so'zi emas, «haq va adolat» lashkarining sardori imom Ismoil G'oziy hazratlarining iltimosidur bu!

— Imom Ismoil G'oziy?

— Shunday, hazratim!

Norg'ul yigit Ibn Sinoning javobini kutmay, orqasiga o'girildi-da:

— Otlar qayda?— deb qichqirdi. Qayerdandir yaqindan:

— Otlar shay, sardor! — degan ovoz eshitildi.

Tong otgan, ufqdagi qorli cho'qqilarning tepasi oqarib qolgan, artilgan shishaday tiniq moviy osmonning u yer-bu yerida so'nggi yulduzlar so'nayotgan shamday zaif miltirardi.

Qo'rg'on o'rtasida, kechasi gulxan yongan joyda, qo'llari orqasiga bog'langan bir nechta isfahonlik sarbozlar yotar, biroq ular orasida shopmo'ylov mushrif ko'rinmas, darvoza oldida esa «haq va adolat» lashkarining suvorilari bo'lsa kerak, boshlariga ko'k yoping'ich tashlab, egnilariga ko'k chakmon kiygan besh-o'nta otliqlar ko'zga chalinardi.

Sardor aytgan «Ko'shki qasos» bekatdan bir-ikki farsang yiroqda, kichikroq soy yoqasidagi qalin archazor orasida ekan, Ibn Sino bir guruh suvorilar qurshovida o'rmondagi qalin chakalakzor va qamishzorlar orasidan otini yeldirib borarkan, miyasida hamon o'sha notinch o'ylar g'ujg'on uradi.

«Haq va adolat» lashkari!.. Boshlariga ko'k yoping'ich tashlab, ustlariga ko'k chakmon kiyib olgan bu suvorilar qarmatiylar ekani endi unga ayon! Ammo... imom Ismoil G'oziy kim? Ismoil G'oziy... Ismoil G'oziy Isfahonda, telba amir Shamsuddavla davrida, «Yaratg'uvchi oldida shohu gado barobar», deb chiqqan va bu da'vosi uchun maschiti jomeda o'qilgan xutbada «shaytoni lain» deb qoralanib, yuz darra yegan, devqomat bir qalandar bo'lardi. Agar Ibn Sino yanglishmasa, uning ismi ham Ismoil, ha, Imom Ismoil edi!

«Yo'q, Isfahon qayda-yu, G'azna qayda? Imom Ismoil dorussaltana ostonasida ne qiladi!»

Ana, oldinda ot o'ynatib borayotgan suvorilar chuqur jarlikdan ot surib o'tishdi-yu, o'ng tomondagi archazorga sho'ng'ib ketishdi. Sal yurmasdan, archazor siyraklashib, oldinda qator ko'k chodirlar, hisobsiz qamish kapa va bir necha o'tov tikilgan ko'kalamzor maydon ko'rindi.

Maydonning har joy-har joyida sarbozlar to'p-to'p bo'lishib qilichbozlik va nayzabozlikdan mashq qilishar,

daraxtlarga kamonlardan o'q uzishib, kurash tushishar, o'tovlar ortidagi o'choqlardan pag'a-pag'a bug' va tutun ko'tarilar, aftidan, u yerda ovqat pishirilardi.

Ibn Sinoni boshlab kelgan sardor orqasiga o'girilib, «ketimdan yuring!» degan ma'noda imo qildi-da, otining boshini mashriq tarafdagi katta ko'k chodir tomon burdi. Ko'k chodirning ikki yonida ikki sarboz qilich yalang'ochlab turardi. Sardor shartta yoqasini ochib, bo'ynidagi uchburchak ko'k tumorchasini ko'rsatdi-da, ichkariga kirib ketdi. Zum o'tmay, chodirdan qaytib chiqib, otda o'tirgan Ibn Sinoga ta'zim qildi:

— Piri murshid sizni so'raydur. Marhamat qilg'aysiz, hazratim!

Ibn Sino Abu Ubayd yordamida otdan tushdi, chodir bo'sag'asida bir lahza to'xtab, ust-boshini tuzatdi, so'ng, negadir yuragi gurs-gurs urib, ichkariga kirdi.

Tagiga bo'yra to'shalgan katta saropardaning to'rida chap qo'lini ko'k mato bilan o'rab, bo'yniga osib olgan novcha bir qalandar qiblaga qarab cho'kkalab o'tirardi. Qalandarning oldida ko'k joynamoz, orqasidagi ilgakda ko'k chakmon va ko'k yoping'ich osig'liq turar, ularning yonida qilich-qalqon va kamon o'qlari terilgan ko'k charm sadoq ko'rinardi.

Ibn Sino poygakda to'xtab, joynamozda cho'kkalab o'tirgan sersoqol qalandarga tikilib qaradi-yu, beixtiyor yuragi «shig'» etdi.

Ko'zlarini yumib, qiblaga qarab tilovat qilib o'tirgan bu barvasta qalandar... yo rab!.. kechasi g'alati cho'pchak aytib, hammani kuldirgan, bundan o'n yil muqaddam esa Isfahon maschitida ulamoi kiromlar la'natiga uchragan... qop-qora, barvasta qalandar imom Ismoil G'oziy edi! U, aftidan, bomdod namozini o'qib bo'lib, tasbeh o'girib o'tirar, boshida ko'k salla, egnida ko'k bo'z ko'ylak, chuqur xayolga tolgan edi.

Ibn Sino hamon tili lol, namoz o'qib o'tirgan imomga jimgina tikilib turarkan, ko'z oldiga Puli Shahrison ko'prigining ortidagi chilangarlar dahasi keldi.

Oysiz, zimiston kecha. Ibn Sinoni boshlab borgan odamlar uni torgina bir hovliga, hovlidan kichkinagina,



zax hujraga boshlab kirishadi. Tokchadagi moychiroq sho'lasida Ibn Sino hujraning to'rida uzala tushib yotgan yarim yalang'och bir kimsani ko'radi, kimsaning qamchidan tilim-tihm bo'lgan taqir boshi, yuzi, bo'yni, yelkalari qop-qora qon, ko'zlari yumuq.

Ibn Sino behush kimsaga yaqinroq borib, bo'yraga tiz cho'kadi-yu, o'shandan uch-to'rt kun avval maschiti jomedagi xutbadan keyin yuz darra yegan novcha qalandarni taniydi.

Darhaqiqat, bu o'sha, «Yaratg'uvchining oldida shohu gado barobar», deb chiqqan va bu da'vosi uchun xutbada la'natlanib ayovsiz kaltaklangan qop-qora barvasta qalandar edi!..

Ibn Sino o'shanda behush yotgan bu qalandarni bir oy pinhona davolab oyoqqa turg'azgan, ammo undan keyin qismati ne bo'ldi, bundan bexabar edi!

Dunyoning ishlari g'alati ekan. Mana, taqdiri azal ularni yana duch qildi! Kelib-kelib G'aznai munavvara ostonasida duch qildi!

Imom Ismoil joynamozini yig'ishtirib, tavoze bilan qo'l qovushtirdi:

— Faqir kulbimizga xush kelibsiz, hakim hazratlari, qadamlariga hasanot, marhamat, to'rga o'tsinlar!

Ibn Sino imom ko'rsatgan joyga o'tib o'tirarkan, uning sinovchan tikilib qolganini payqab, yana boyagiday g'alati bo'lib ketdi. Imomning peshonasi va o'ng qoshi ustidagi chandig'i, sal qisilgan ko'zlari, o'ziga yarashgan soqol-mo'ylovi, butun vajohatidan allaqanday sehrli bir kuch va pinhoniyl bir iqtidor yog'ilib turar, har bir harakatida o'ziga ishonch va qat'iyat sezilardi.

Boshiga ko'k yoping'ich yopingan bir navkar kirib, o'rtaga bo'z dasturxon yozdi, dasturxonga sopol ko'za bilan ikki sopol piyola va ikkita arpa non qo'ydi-da, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Imom Ismoil sog' qo'li bilan sopol ko'zadan arpa go'ja quyib Ibn Sinoga uzatarkan, bilinar-bilinmas kulim-siradi:

— Chamamda, hazratlari tunda kaminani tanimadilar?

— Tunda tanimagan edim, ammo...

— Tanimaganingiz ajablanarli hol emas, hazratim. Isfahonda kechgan ul voqealarga salkam o'n yil bo'lmish. Ammo faqirni bir oy pinhona davolab, jonsiz jismimga qayta jon ato qilganingiz toabad yodimdadir, hazratim!

— Tashakkur! — dedi Ibn Sino va imomning ko'k mato bilan o'rab, bo'yniga osib olgan qo'liga zimdan ko'z tashladi. — Chamamda, taqsim yana muolajaga muhtojdurlar!

— Ha, — dedi imom, o'ng qo'li bilan yarador qo'lini asta silab. — Ming taassuf, tundagi to'qnashuvda bir necha yigitlarimiz jarohatlandilar.

— Marhamat, yordam bermoq lozim bo'lsa — kami-na xizmatlariga hozirmen!

— Minnatdormen, taqsir. Ammo sizning yordamin-gizdan ham zarur bir gap bor.— Imom to'satdan qovo-g'ini uyib, Ibn Sinoga sinovchan tikildi. — So'zimga quloq soling, hazratim. Biz bu qarorgohdan darhol ketmog'imiz darkor. Sababi — hazratlarini izlab dorus-saltanadan nogahon lashkar bostirib kelish xavfi bor! Bas, hazratimdan bir narsani so'rab olmog'im lozim.

— Bosh ustiga!

— Kamina eshitgan edimki, hazratlari bu berahm mustabid sultonga xizmat qilishdan toabad bosh tortib, qochib yurmishlar deb! Bu so'z rost bo'lsa... nechun bu ahdingizdan qaytib, uni davolagani keldingiz, taqsir?

Imomning xiyol bo'g'iq ovozida allaqanday norozi va tahdidli ohanglar yangradi.

— Ne chora, — dedi Ibn Sino chuqur xo'rsinib. — Biz hakimlar uchun shohu gado barobardur. Xasta borki, xoh shoh bo'lsin, xoh gado — uni davolamoq biz uchun ham farz, ham qarzdur, taqsir! Ammo...

— Bilmam, hazratim. Bu betavfiq sultonga yopishgan bu dardu bedavo... taqdiri azalning xayrli hukmi emas-mu? Qirq yillik qatlu qirg'inlari, jabru sitamlari, to'kkan daryo-daryo qonlari uchun ko'k yuborgan intiqom emas-

---

<sup>1</sup> Katta gunoh.

mu? Bas, bunday beshafqat mustabid shohni davolamoq gunohi kabir<sup>1</sup> emasmu, hazratim?

Ibn Sino imomning allaqanday qahr va ilhom bilan porlagan ko'zlaridan ko'zini olib qochdi. Ajabo! Qahrli ko'zlaridan o't chaq nab turgan bu imomning so'zlarida donishmandlarga xos bir mantiq va adolat bor edi!

Imom Ismoil go'yo uning o'ylarini ilg'ab olganday:

— Ha, — deb xitob qildi. — «Haq va adolat» lashkarining g'oziyolari bugun-erta g'azovat tug'i ostida birlashib, yurtimiz tuprog'ini bul mustabid shoh zulmidan forig' etmoq azmidadur!

«G'azovat tug'i? Yo tavba! Agar «haq va adolat» lashkari degan so'z rost bo'lsa... nechun bu kurash g'azovat tug'i ostida boshlanadur?» — dedi Ibn Sino ichida. Lekin darhol bundan o'n-o'n besh yil muqaddam Misrda, imom az-Zohir boshchiligida bo'lib o'tgan zanjilar isyoni lop etib yodiga tushdi. Bu zanji qullar isyoni ham g'azovat tug'i ostida o'tganini Ibn Sino yaxshi bilar edi. Biroq, yaxshi bilsa ham shafqatsiz qon nafasi sovuq shabboda bo'lib tegdi-yu, ko'nglini yoritib turgan iliq nur so'ndi-qoldi. Imom esa buni sezmay:

— Tasanno! — dedi chehrasi ochilib. — Sukut — alo-mati rizo! Agar kaminaning so'ziga rozi bo'lsangiz, bizning lashkarimizga qo'shilgaysiz, hazratim!

Ibn Sino bazo'r hushini yig'ib:

— Tashakkur,— deb qo'lini ko'ksiga qo'ydi.— Ammo... taqsirimning lashkari sulton Mahmud lashkariga teng kelurmu?

— Sultonning tayanchi — behisob lashkar bo'lsa, bizning tayanchimiz haq va adolatdur! Makonimiz osmon barobar tog'lardur! Bas! Fursat ziq, hazratim, yo «ha» degaysiz, yo «yo'q»

Ibn Sino hamon nima deyishini bilmas edi. Uning ko'z oldiga yaqindagina ne mashaqqatlar bilan bosib o'tgan tog' va daralar keldi, keldi-yu, bir zum imomning so'ziga kirgisi, uning lashkariga qo'shilib, «hayyu hayt», deb o'sha tog'larga, sulton qo'shinlari, uning mash'um xufiyalari va mushriflari yetolmaydigan cho'qqilarga chiqib ketgisi keldi. Ammo...

— Taassuflar bo'lsinkim, kamina sarboz bo'lib tug'ilgan emasmen...

— Sarboz bo'lib tug'ilmasangiz ham sarbozu sarkardalardan yuz chandon ortiq izzatu ikromda bo'lasiz, hazratim.

— Toabad minnatdormen. Va lekin... Kamina butun fikri zikrim ilmi hikmatdadur. O'ylab qo'ygan asarlarim, boshlab qo'ygan kitoblarim bor — shularni nihoyasiga yetkazsam...

— Kitobmi yo odil shohlar haqinda cho'pchakmi? — dedi imom Ismoil chandiq qoshlari asabiy pirpirab. — Men siz allomalarga hayronmen! Odil shohlarni qo'msab va yomon hokimlarni la'natlab yostiqlay-yostiqlay kitoblar bitasiz. O'zlaring esa... sulton Mahmud yanglig' mustabid shohlar xizmatida qulluq qilib yurasiz.

— Ne chora? — dedi Ibn Sino va imomning ko'zlari sovuq chaqnaganini ko'rib, boshini egdi. — Boz ustiga, Isfahon qora o'lat iskanjasida qolgan. Umidim — tezroq qaytib bormoq, qaytib borib sho'rlik mardumi mo'minning xizmatida bo'lmoq...

— Bas! — Imom G'oziy sog' qo'lini bir siltab o'rni-dan turdi. — Sizga ijozat, hazratim.

— Ruxsat etsalar jarohatlangan qo'llarini ko'rsam...

— Tashakkur! — dedi imom G'oziy, xuddi arazlagan boladay chandiq yuzini ters burib. — Qo'lim singanmi, yo'qmi, shuni aytib bersangiz bas.

Ibn Sino imomning qo'lidagi qalin bo'z lattani asta yechdi. Imomning bilagini qilich kesgan, uzun va chuqur yarasiga nimadir sepilgan, lekin qon hanuz to'xtamagan edi.

Ibn Sino imomning shishib ketgan bilagini asta-asta ushlab ko'rdi. Imom, rangi devor, tishini tishiga qo'yganicha, jimgina bosh egib turardi.

Ibn Sino yarani avaylab artib, qayta bog'ladi.

— Xayriyat, suyak omon...

— Xayriyat, — dedi imom ham.

— Ammo yarangiz xavfli. Faqirga bir odam qo'shib berasiz. O'qilon zahri bilan achchiq bodom yog'idan yasalgan doru beramen. Uni har kuni ikki mahal surtasiz!

— Tashakkur! — dedi imom Ismoil, hamon qovog'i ochilmay. — Sizga ruxsat, hazratim! Mening sarbozlarim sizni rabotga eltib qo'yadilar. Va lekin yodingizda bo'lsin: mabodo, hazratlari biror yordamga muhtoj bo'lib qolsalar... G'aznada Malikul sharob degan bir shoir bor. Uni dorus-saltanada tanimagan odam yo'q. O'shal bandai mo'minga xabar qilgaysiz. Xayr, sulton sarbozlari bostirib kelguncha bekatga yetib oling. Omon bo'ling, hazratim!

Imom G'oziy shitob bilan yurib chodirdan chiqdi.

Ibn Sino chodirda yolg'iz qoldi. U imom G'oziyning iltimosini rad etib, to'g'ri qildimi yo noto'g'rimi — buni o'zi bilmas edi.

### ***Yigirma beshinchi bob***

Kechasi Osmon malikasi saroyda o'tgan tongotar bazmi jamishiddan so'ng mast uyquga ketgan vazir Abul Hasanak kimningdir turtkisidan bazo'r ko'zini ochdi. Tepasida, qo'lida dir-dir titragan sham, «nazm bo'stoni-ning bog'boni» shoir Unsuriy turardi.

Xona bo'm-bo'sh, o'rtada turgan xontaxta chetga surilgan, unda yeyilmay qolgan bir lagan qovurdoq, may to'la billur idishlar, yoqut va firuza piyolalar betartib yumalab yotar, yonidagi to'shak esa bo'm-bo'sh, kechasi «hazrat Ibn Sino» bilan bo'lgan mayxo'rlikdan so'ng yonida qolgan haram bekasi uni tark etgan, to'g'rirog'i, beka emas, vazir janoblarining o'zi uni behayo-besharm bir so'zi uchun ketiga tepib, haydab yuborgan edi!..

— Xo'sh, sabab tun yarmida ajinaday tentirab yurib-sen? — dedi Abul Hasanak, qayta joyiga cho'zilib. — Na o'zing uxlaysen, na boshqalarga uyqu berasen!..

Shoir Unsuriy, qo'lidagi sham battar titrab, to'shak yoniga cho'kkaladi.

— Mash'um xabar valine'mat!

— Mash'um xabar? — Abul Hasanak ustidagi shoyi ko'rpani otib yuborib, qaddini rostlab o'tirdi. — Oftobi olam?..

— Oftobi olam, olloga shukur, salomatlar, — dedi Unsuriy shoshib. — Ammo... G'aznaga hazrat Ibn Sino kelmish!

— Qochmish? — dedi Abul Hasanak talmovsirab. — Qayoqqa qochmish?

— Qochmish emas, kelmish! Isfaxonlik chin hazrat Ibn Sino kelmish! Shundaykim, go'yo saroydagi bu Ibn Sino emas, amir Mas'ud yo'llagan o'shal Ibn Sino — chin hazrat Ibn Sino emish!..

Abul Hasanak aftini bujmaytirib, zaharxanda qildi:

— Bul Ibn Sino, ul Ibn Sino! Taqsirim qaydan topdilar bu xabarni?

— Kamina bu xabarni Piri Bukriydan eshitdim. Bu makkor bukri esa, xabaringiz bor, bilmagan sir-asrori yo'qdur. Piri Bukriyning aytishicha, Xatlibegim boshliq bir guruh amirlar Isfahondan kelgan ul Ibn Sinoni ertandin as'asayu dabdaba bilan qarshi olmoqqa chog'langanlar. Chog'langanlar orasida anov mutakabbir alloma Abu Rayhon Beruniy ham bor emish. Bu ishga hattokim qadrdon xeshingiz... vaziri a'zam Ali G'arib ham bosh qo'shgan emish!..

— Ali G'arib? — Abul Hasanak o'rnidan sapchib turib, xontaxta yoniga bordi. Itoatsiz qo'llari bilan yoqut piyolani to'ldirib may quydi-da, bir ko'tarishda bo'shatib, xonani aylanishga tutindi.

«Bul Ibn Sino, ul Ibn Sino! Chin Ibn Sino, yolg'on Ibn Sino!»

Ajabo! Bir-ikki hafta muqaddam «hazrat Ibn Sino» atalmish bu kimsa saroyda paydo bo'lgandan buyon bu gaplar uning xayolidan tamom ko'tarilgan edi. Anov imonsiz Ali G'arib qayerdandir topib kelgan bu iblis soxta Ibn Sino ekanini, olamda hakimi davron atalmish chin Ibn Sino borligi, u qayerdadir yiroqlarda, amir Mas'ud turgan Isfaxon tomonlarda qochib yurgani vazir janoblarining xayolidan batamom ko'tarilgan edi!

O'zini «hazrat Ibn Sino» deb atagan bu kimsa dorusaltanaga qadam qo'ydi hamki, saroyda g'alati ishlar boshlanib ketdi. Hamma uning hukmi va sehriga maftun

bo'lib, go'yo aqli hushidan ayrilib qoldi. Avvalambor, so'nggi bir necha oydan buyon saroyda, nainki saroy, butun saltanatda hukm surgan tavahhum va tahlika qaygadir daf bo'lib, hamma yengil nafas oldi, motam kayfiyati tarqab, qandaydir yengil, xushnud, safoli kunlar boshlandi, go'yo osmonni qoplagan qora bulutlar tarqab ketdi-yu, yarqirab oftob chiqdi. Motam libosini kiygan haram bekalari, bakovullar, xazinadorlar, xonanda va sozandalarga jon kirdi, shu-shu, serlazzat bazmi jamshidlar, kayfi safo, musiqa va mushoiralar bir-biriga ulanib ketdi. Bu kayfiyat, bu xushnudlikning bosh sababi esa, birlamchi, olloning inoyati, ikkilamchi, «hakim hazratlari»ning muolijasi bo'ldi. Shu muolija sabab jar yoqasiga borib qolgan amiralmo'aminin kundan-kunga «beri qaray» boshladi. Bir-ikki haftadayoq diliga orom, beliga quvvat kirdi, shundaykim, bundan bir necha kun muqaddam, dorus-saltana ahliga ko'rinib, mardumi mo'minlarga o'z chehrai shamslarini namoyon etib, ularni baxtiyor qilish ishtiyoqi tug'ildi. Shu boisdan, G'aznai munavvara ko'chalari supurilib-sidirildi, maydon va guzarlarga suv sepilib, daraxtlardagi changlar yuvildi, hovuzlarga suv quyilib, favvoralar ishga tushirildi, do'kon va rasta peshtoqlariga qimmatbaho ipak va shoyi matolar tutildi, bozorlar va karvonsaroylarda neki shubhali kimsalar, gadolar, qalang'i-qasang'ilar, neki iprindi-siprindi yo'qsillar bo'lsa, hammasi shahar tashqarisiga haydaldi. Kecha, nihoyat, hamma ishlar intihosiga yetdi. Saroy oldidagi maydonda sultoni salotinning shaxsiy g'ulomlari bo'lmish yetti yuz suvori saf tortdi. Ularning hammasi egnilariga bir xilda qizil chakmon, boshlariga qizil popukli mis dubulg'alar kiygan, hammasi birday qilich yalang'ochlab, hammasi birday oq bedov mingan. Faqat har yuz suvorining boshida turgan yasovullargina egnilariga ko'k baxmal to'n kiyib, hammasi bir xil qora arg'umoq mingan, qo'llarida esa, yalang'och qilich o'rniga ko'k tug' ushlashgan.

Peshinga yaqin Osmon malikasi qasri oldidagi keng maydonga ot o'ynatgan amiru umaro, kimxob va zarbof to'nlarga o'rangan arkoni davlat, hammasi bir xil safro-

rang jubba kiygan ulamoi kiromlar yig'ilishibdi. So'ng, qasr burjlarida o'nlarча nog'oralar gumburlab, o'nlarча karnaylarning payvast na'rasi osmonu falakni zir titratdi-yu, saroydan... bir yonida imom Sayid, bir yonida Abul Hasanak bilan «hazrat Ibn Sino», amiralmo''minin chiqib keldi. Sul-tonning boshida... uchiga injular qadalgan qunduz telpak, egnida tilla tasmalar bilan ziynatlanib, tugma o'rniga dur va yoqut qadalgan qizil zarbof to'n, belida besh yuz misqollik tilla kamar, oyog'ida poshnalariga kumush tepki qoqilgan qizil charm etik. Uning yonoqlari turtib chiqqan, keng, suyakdor yuzi hamon mumday sarg'ish, ammo chuqur botgan ko'zlari tungi alangaday charaqlab turar, qadam tashlashlari bardam va shiddatli edi. Sul-ton darvozadan chiqishi bilan unga tuyoqlaridagi taqalaridan tortib egarjubduqlarigacha sof qizil tilladan yasalgan, peshonasiga zor popildiriqlar taqilgan sevimli qora qashqa bedovini ro'para qilishdi. Biroq amiralmo''minin otga minishdan avval, maydonda bab-barobar ta'zim bajo keltirib turgan minglarcha, yo'q, o'n minglarcha sadoqati zohir a'yonu boyonlarga, qilich yalang'ochlaganlaricha serrayib qolgan suvorilar va ko'k tug' ushlagan yasovullarga uzoq va sinovchan tikilib turdi, keyin, qo'ltig'idan olgan nadimlarni siltab, uzangiga oyoq qo'ydi, qo'ydi-yu, o'n ming olomonning jo'r va hayratomuz xitobi ostida o'zini egarga oldi!

Nog'oralar gumburi va karnaylar sadosi yana osmoni falakka chiqdi. Shu muzaffar sadolar ostida behisob arkoni harb va arkoni davlat qurshovida, qilich yalang'ochlagan yetti yuz suvori va ko'k tug'larini hilpiratgan yuzlarcha yasovullar davrasida amiralmo''minin dorus-saltana ko'chalaridan, suv sepilib yog' tushsa yalagudek qilib qo'yilgan chorraha va guzarlardan, kumush favvoralar o'rnatilgan maydonlaridan, ko'k, qizil, sariq matolar bilan bezatilgan rasta va do'konlar oldidan qora qashqa bedovini o'ynatib o'tdi. Xachir minib, xurjunlarini kumush va tilla tangalarga to'ldirib olgan xazinadorlar ko'chalar va guzarlarni to'ldirgan olomonning boshiga hovuch-hovuch pul sochdi. Shu



yo'sin, yerga sochilgan tangalarning jarang-jurungi, bu tangalarni talashib-mushtlashgan olomonning hayqirig'i va otlar dupuri ostida sulton Ko'shki davlat ro'parasidagi maschiti jomega yetib bordi.

Yuksak peshtoqlari osmoni falakka sanchilgan, lojuvard tillakori gumbazlari oftobda kamalak rangida tovlangan bu muhtasham maschitning yuz namozxonga mo'ljallangan marmar maydoniga qizil guldor paloslar to'shalgan edi. Amiralmo'minin shu maschit ayvonida, hamma bir xil safforang jubba kiygan minglarcha ulmoi zabardastlar davrasida maydonga yig'ilgan yuz ming namozxon ishtirokida peshin namozini o'qidi. Namozdan keyin imom Sayid maschit mehrobidan turib va'z aytdi, barcha mo'minlarning to'kkan ko'z yoshlari va qilgan duoi jonlari ko'kka yetib borganini, Yaratgan egam o'z marhamatini darig' tutmay, «hazrati Ibn Sino»ni yetkazib, o'zi bergan dardini o'zi daf etganini so'zladi va ko'ziga yosh olib, duoga qo'l ochdi: iloyo jafong yukini tortmoqqa toqat va muhabbating mehnatini chekmoqqa bardosh ato qilgaysen. Omin!

Imomning va'zi va butun dorus-saltanani larzaga keltirgan yuz ming kishining jo'r «ilohi omin»idan keyin eng mo'tabar martabadorlar, amirlar, devon beklari Bog'i Firuzga lutfan taklif etildi.

Bog'i Firuzning qoq o'rtasiga, gumbazli shiypon yonidagi marmar hovuz tevaragiga rang-barang hind gilamlari to'shalib, besh yuz kishiga dasturxon tuzatilgan edi.

Osmon beg'ubor, tiniq, oftob seli go'dak kulgusiday yoqimtoy edi. Ko'm-ko'k yassi qirlar bag'ridagi behudud Bog'i Firuz jannatday go'zal, hammayoq yam-yashil, tiniq, musaffo, har bir daraxt, har bir gul tagida bulbullar sayrar, qovurilayotgan go'sht, qalampir va piyozning o'tkir hidiga hovuz bo'ylaridagi rayhon hidi, qir giyohlarining sal taxir nozik bo'ylari qo'shilib, havoni allaqanday betakror xushbo'y atir nafasi to'ldirgan edi. Hovuzning ikki yonidagi ikki supani xonanda va sozandalar egallagan, sozlarning kuyi bog'dagi bulbullar ovozigaga qo'shilib, yuraklarda shirin orzular va allaqanday xayoliy go'zal hislar uyg'otardi.

Amiralmo''minin, bir yonida Abul Hasanak, bir yonida «hazrat Ibn Sino», ko'k gumbazli shiyponga chiqib, suyanchiqlari yoqut va javohirlar bilan ziynatlangan, ustiga sher terisi tashlangan yumshoq kursiga o'tirdi, qolgan martabadorlar esa hovuz tevaragidagi shoyi ko'rpachalardan joy olishdi.

Nozik havorang koshinlar bilan qoplangan hovuz suviga bir kun avval besh ming kallaqand tashlangan, istagan kishi o'tirgan joyida piyolasini cho'zib, sharbatga aylangan bu suvdan to'ygunicha sipqarishi mumkin edi!

Ziyofat yana «hakimi davron hazratlari»ni ulug'lashdan boshlandi. Amiralmo''minin unga o'z qo'li bilan og'ziga siqquncha oltin oshatib, egniga boshdan-oyoq yangi sarupo yopdi, so'ng, nazm bo'stonining bog'boni shoir Unsuriy avval sultoni salotinga, keyin «hazratlari»ga bag'ishlangan ikki yangi qasidasini o'qib berdi. Yangi qasida yangi kuylarga, kuylar qadahlar jarangiga ulanib ketdi-yu, bazmi jamshid avjiga chiqdi. May daryo bo'lib oqdi, somsapazlar barra qo'zi go'shtiga dorivor giyohlar qo'shilgan issiq somsalarini ko'z-ko'z qilishdi, kabobpazlar archa cho'g'larida jizg'anak qilingan va archa bo'yi taralgan dumba aralash jigar kaboblarini namoyish etishdi, kabobdan keyin yoqut kosalarda kiyik o'ti, rayhon va murch solingan sho'rvai sher, sho'rvai sherdan keyin qisiq ko'z nozaninlar surati solingan chiniy laganlarda bedana go'shtli qizil palov tortildi.

Sulton boshda xiyol xomush edi. O'qilgan qasidalar, chalingan kuylar, dunyo turguncha turishini tilab aytilgan hamdu sanolarga jimgina quloq solib, birda kinoyali kulimsirab, birda go'yo tinimsiz o'qilayotgan bu madhiyalarni xushlamaganday allaqanday mahzun xayollarga cho'mib o'tirdi.

Bazm qizib, palov tortilgan mahalda «hakimi hoziq hazratlari» amiramol''mininga bir piyola may tutdi. Sulton bu mayni ichdi-yu, go'yo ichiga olov kirganday banogoh sergak tortdi. Belidagi besh yuz misqollik oltin kamarini olib, bir chekkaga otdi, tugma o'rniga behisob javohirlar qadalgan zarbof to'nini ham yechib o'rnidan

dast turdi-da, xodaday uzun, qoqsuyak qo'llarini mashshoqlar tomon uzatib:

— Bas! — dedi qisiq ko'zlari cho'g'day yonib. — Bas, bu qo'shiq, bu hamdu sanolar!

Hovuz bo'yidagi g'ala-g'ovur, supalardagi mashshoqlarning ting'ir-ting'iri tinib, oraga sovuq, tahdidli sukunat cho'kdi. Qizargan, bo'g'riqqan yuzlar oqarib, mastona suzilgan ko'zlar gumbazli shiypon tomon hadik va qo'rquv bilan tikildi.

— Dunyo turguncha turg'aysiz! Fayzi ilohiy toabad yor bo'lg'ay! — dedi sulton kesatib. — Bazm ustida madhiya o'qimoq oson, ammo vafodor nadim bo'lmoq mushkul bu dunyoda! Ha, hammaning ichini ko'rib turibdi sulton Mahmud! Dillaringda ne o'y, ko'ngillaringda ne g'araz, kallalaringda ne fisqi fujur — barini ko'rib turibdi sulton G'aznaviy! Bukun kaminaga hamdu sano o'qigan a'yonu boyonlar... kecha unga o'lim tilagan edi dillarida! — sulton shunday deb, bir qadam oldinga yurdi, yurishi bilan pastda, dasturxon atrofida o'tirganlar bir gaz orqaga tisarilishdi.

— Ha, kimki vafo qilsa vafo, jafu qilsa jafu topg'usidir bu dunyoda! Kimki sulton G'aznaviyga choh kavlagan bo'lsa, o'zi shu chohga qulagusidir! Sulton Mahmud esa, dini islom yo'lida hamisha kamarbasta, yaqin kelgusida mashriqda Kashmir, mag'ribda qaysari Rum, qo'yingki, poyqadamim yetmagan joy qolmas!..

Shoir Unsuriy pildirab kelib, shiypon zinasiga tiz cho'kdi-da, ko'ziga yosh olib:

— Ilohi omin! — deb xitob qildi.

Mastona ovozlari bir-biriga qovushmay zaifroq yangradi:

— Ilohi omin!

— Ammo... kimki, tili shakar, dili zahar bo'lib yomonlik tilasa, toabad eslarida saqlasinlar! — Sulton shunday deb, shiypon ustunini quchoqladi-da, pastga, yemish to'la xontaxtalar orqasiga g'ujanak bo'lib o'tirgan martabadorlarga qadalib-qadalib qaradi, go'yo ular orasida eng ashaddiy dushmanini qidirayotganday uzoq tikilib turdida, to'satdan:

— Anov iblisi lain... vaziri a'zam qayda?— deb so'radi.

Abul Hasanak shosha-pisha ta'zim bajo keltirdi.

— Olampanohning munavvar xotiralarida bo'lsa, ul mug'ambir tulkini hakim hazratlari aytgan «ne'mati ilohiy»ni topib kelmoq uchun Ko'hi Sarandipga yo'llagan edik, davlatpanoh!

— Hanuz qaytmadimi ul makkor?

— Yaqinda qaytmog'i darkor, olampanoh!

— Hmm! — dedi sulton ko'zini yumib. — Sharbat!

Hovuz tevaragidagi a'yonu boyonlar naqshinkor ustunni quchoqlab turgan sultondan ko'zlarini uzolmas, ular go'yo ilon sehriga ilingan baqalarday joy-joylarida serrayib qolishgan edi.

Sulton Abul Hasanak tutgan sharbatni asta va uzoq simirib, piyolani qaytarib berdi-da, yana hovuz atrofida baqalarday ko'zlari chaqchayib o'tirgan a'yonlariga qaradi, go'yo ularning orasidan yana bir ashaddiy dushman-ni qidirmoqqa kirishdi.

— Ha, aytganday, anov shakkok shoir... Malikul sharob qayda? — to'satdan so'radi sulton. So'rashi bilan hovuz bo'yidagi saroy ahli bab-barobar «uf», deb, yengil nafas oldi.

— Ul shakkok shoir...— dedi Abul Hasanak, nechun-dir talvasaga tushib.— Xabarim yo'q, davlatpanoh! Iprindi mayxonasida qusug'iga belanib yotgandir ul betavfiq!

— Farmon ber, darhol topib kelsinlar ul imonsizni! O'ziga umr tilash o'rniga sultonga o'lim tilagan g'alamislardan biri o'shal quzg'un edi! Chaqir — holini ko'rsin sultoni salotinning!..

Amiralmo'minin shunday deb joyiga borib o'tirdi. O'tirishi bilan nimadandir bezovtalanib, allaqanday pitir-lab qolgan ibn Shahvoniy yonini kavlashtirib, zarhal qog'ozga o'ralgan moshdekkina safrorang bir dori oldi-da, sultonga uzatdi.

— Bir ho'plam sharbat bilan ichib yuboring, davlatpanoh. Belingizga quvvat, dilingizga surur bag'ishlaydi bu doru!

Darhaqiqat, doridan keyin chorak soat ham o'tmadi-

ki, sultonning qiyg'och ko'zlari artilgan dinorday yarqirab, yupqa lablariga kulgu yugurdi-yu, to'satdan amir Aliteginning kenja xotinini ko'rish istagini bildirdi.

Abul Hasanak ichida «hakim hazratlari»ga yana bir bor tahsinlar o'qib darhol taxtiravonni ro'baro' qildi. So'ng, « Ibn Sino hazratlari» bilan sultonni saroyga eltib, maxfiy go'shaga kiritdi-da, Osmon malikasi qasrining behisob xonalaridan birida ibn Shahvoniy bilan birga ayshni davom ettirdi!..

Yo xalloq! Hamma, hamma ishlar yaxshi ketayotgan bir mahalda... bu mash'um xabar! Go'yo sultonni davolagan bu «hakimi davron» Ibn Sino emas, Xatlibegim bilan anov battol Ali G'arib topgan ul Ibn Sino — chin Ibn Sino emish!.. Boz ustiga, burgaga tuzoq qo'ygan bu vaziri a'zam yaqin-yaqinlargacha Xatlibegim bilan amir Mas'udni ko'rarga ko'zi, otishga o'qi yo'q edi. Endi esa, ular bilan til topishgan emish! O'zi topgan «hazrat Ibn Sino»dan aynib, boshqa Ibn Sinoni topgan emish!.. Hay attang! Agar Abul Hasanak eski raqibining bu qadar qabihligini bilganida tunov kuni uni «ne'mati ilohiy»ni topib kelish uchun Ko'hi Sarandinga emas, to'ppa-to'g'ri asfalasofilinga jo'natib qo'ya qolar edi!

Abul Hasanak bilar, sultonning farmoni bilan Ko'hi Sarandipga jo'natilgan bosh vazir Gardiz tog'lari orasidagi Ko'handiz qal'asida yashirinib yotardi. Toshga o'yilgan ming pillapoyalik bu maxfiy qal'ada eng ashaddiy g'animlar saqlanar, shunday bo'lsa ham, darg'azab sultonning ko'zidan yiroq bo'lishni istagan bosh vazir o'sha qal'aga maxsus joy qildirib, kalamushday bekinib olgan, chamasi, qayoqqa yashiringanini hech kim bilmaydi, deb o'ylardi. Lekin Abul Hasanak buni bilar, bosh vazir Ko'handiz qal'asi tugul, yetti qavat yerning tagiga kirib ketsa ham bilgan bo'lardi. U faqat fursat poylar, «ne'mati ilohiy»ni topib kelishga ketadigan sakson kun o'tgach, uni yoqasidan ushlab, yashirinib yotgan kavagidan sudrab chiqishni rejalab qo'ygan edi! Ammo bu rejani tuzarkan, Abul Hasanak uni Ko'handiz qal'asida tavbasiga tayanib yotibdi, deb o'ylagan edi! Burgaga tuzoq qo'ygan bu qari tulki esa tavbasiga tayanmoq

uyoqda tursin, anov yosuman Xatlibegim tarafiga o'tipti, o'tgani ham mayli, amir Mas'ud yuborgan chin Ibn Sinoni sultonga ro'baro' qilmoqchi bo'lganlar bilan til biriktiribdi! Bas, bu quzg'un bosh qo'shgan ishdan qo'rqmoq darkor! Har qalay, ehtiyot shart. Qaerdadir aysh qilib yotgan «hakimi davron» hazratlarini topib, uni bu gapdan ogoh qilib qo'ymoq lozim!

Abul Hasanak hamon ro'parasida titrab-qaqshab turgan Unsuriyga qarab kinoyali kulimsiradi:

— Yo'l boshlang, nazm bo'stonining bog'boni! « Ibn Sino hazratlari»ni topib, bu xushxabarlarni unga yetkazmoq darkor!

Saroy mast uyquda, boshdan-oyoq mayin ipak gilamlar to'shalgan uzun yo'lak kimsasiz edi. Tokchalardagi oltin shamdonlar va shiftga osilgan chamberak qandillarda bitta-yarimtagina sham yonar, ularning xira shu'lasida nimqorong'i yo'lak allaqanday sirli va sovuq tuyulardi.

Abul Hasanak bilan shoir Unsuriy, qo'llarida sham, ikki yondagi turnaqator o'ymakor eshiklarni bitta-bitta ochib, yo'lakning oxirigacha borishdi.

Biri katta, o'rtamiyona, bir chog'roq, lekin hammasi birday qimmatbaho jihozlar — g'aroyib suratlar solingan rang-barang paloslar, hind ibodatxonalarining oltin ma'budalari, serjilo billur idishlar, yoqut va zabarjad kosalar, fil suyagidan yasalgan haykalchalar, tilla barkashlar bilan ziynatlangan bu xonalarning hammasi bo'm-bo'sh; go'yo kutilmagan bir ofat ro'y berganu, saroy ahli hamma boylik, hama buyumlarni tashlab, bosh olib qochgan...

Abul Hasanak yo'lak oxiriga yetgach, qayoqqa yurishni bilmay, bir lahza hang-mang bo'lib turib qoldi.

Kechasi sultonni pinhoniyligini go'shasiga eltib qo'yganlaridan keyin Abul Hasanak «hazrat Ibn Sino» bilan birga boyagi xonaga kirib, mayxo'rlikni davom ettirgan, so'ng, haram bekalaridan birini chaqirib, ikkita kaniz keltirishni buyurgan edi.

Haram bekasi yoshgina bir kanizni boshlab keldi-da, o'zi ham davraga qo'shildi. Uning maqsadiga tushungan «hakim hazratlari» yosh kanizni tanladi, chekiga haram

bekasi chiqqan Abul Hasanak esa, unga g'ashi kelib, qumaloq solishni taklif qildi. Ammo omadi yurishmadi. Qumaloq solinganda chekiga yosh kaniz chiqqan «hakimi davron» kanizni boshlab chiqib ketdi-yu, Abul Hasanak haram bekasi bilan qoldi.

Haram bekasi ham durkungina, ko'hlikkina juvon edi. Abul Hasanak taqdiridan nolimay, unga bir piyola may tutib quchog'iga olmoqchi bo'ldi. Biroq beka Abul Hasanakka taqlid qilib, may to'la piyolani bir ko'tarishda bo'shatdi-da, oppoq, momiq qo'llari bilan vazir janoblarining yuzini silarkan:

— Voy tavba! — deb kuldi.

— Xo'sh, nechun ajablanasiz, bekam?

— Qosh-ko'zlaringizga! — dedi kaniz erkalanib. — Xudo sizga shunday qosh-ko'z in'om qilganu ishq hunarida...

— Xo'sh, xo'sh?

— Ishq hunarini... anov hakim hazratlariga in'om etgan!

Abul Hasanak qah-qah otib kuldi:

— Avval kaminani bu ishda bir sinab ko'ring, keyin so'zlaysiz, bekam!

— Yo'q! — haram bekasi erkalanib uning yuziga sekin shapati urdi. — Urinib yurmang, janoblari, baribir, bu ishda hakim hazratlariga teng kelolmaysiz!

Shundan keyin nima bo'ldi — avval tarsaki tushirdimi yoxud oldin bir tepib, keyin tarsaki tushirdimi — buni Abul Hasanakning o'zi ham bilmay qoldi, faqat uchib ketgan bekaning dod solib o'zini eshikka urgani esida qoldi, xolos.

Mana, hozir ham bekaning masxaraomuz gapi yodiga tushgan vazir janoblarining ko'nglida hasad aralash raqobat tuyg'usi alanga oldi-yu, yo'lak oxiridagi marmar zinalardan ikkinchi qavatga ko'tarila boshladi.

Bu yerda ham ikki tomon turnaqator eshiklar bo'lib, sultonning mashhur maxfiy go'shasi yo'lakning eng oxirida edi. Bu yerdagi shamlarning deyarli hammasi o'chirilgan, faqat eng tupkarida bittayu bitta sham miltirar, qorong'i yo'lak tubsiz g'orday sirli va behudud tuyulardi.

Abul Hasanak, rangi o'chib, dir-dir titray boshlagan shoirga bir qarab qo'ydi-da, oyoq uchida odimlab, yana eshiklarni birin-ketin ocha boshladi. Shoir Unsuriy uning orqasida arvohday ergashib borar, mo'ralab qarashga ham jur'at etmas edi.

U avval lablari unsiz pichirlab, ochib-yopilgan eshiklarni sanab bordi, keyin pinhoniyo go'shaga yaqinlashgan sayin qo'rquv va hayajondan sanoqni ham unutib qo'ydi. Mana, maxfiy go'shaga bittagina xona qoldi. Abul Hasanak bu xonaning fil suyagidan jilo berilgan eshigini asta ochib ichkariga kirdi, kirdi-yu, go'yo xonada mudhish bir narsani ko'rganday dahshat bilan orqaga tisarildi:

— Olampanoh!

— Olampanoh? — Unsuriy vazir janoblarining vahimali shivirlashidan dahshatga tushib, orqaga chekindi. — T-tirikmilar, olampanoh?

— Tirik! Mast uyqudalar! Ammo... anov battol hakim qayda? — Abul Hasanak chiroyli serkiprik ko'zlarini piritarib, shoirga bir zum tikilib turdi, so'ng shitob bilan yurib borib, maxfiy go'shaning tilla tasmalar qoqilgan zalvarli eshigini yulqib ochdi!

Xona charog'on edi. Undan tushgan yorug' nur Abul Hasanak bilan Unsuriyning ko'zini qamashtirib yubordi.

— Vo darig'!

Devor va shiftlariga yalang'och erkak va ayollarning ishqiy holatlarini tasvirlovchi hayosiz suratlar solingan o'rdaday keng xonaning to'rida, qavat-qavat shoyi to'shak ustida, tanasi hayosizlarcha ochilib qolgan bir kanizni quchoqlab... «hakimi davron hazratlari» dong qotib uxlab yotardi!

Abul Hasanak yalt etib Unsuriyga qaradi. Shoir Unsuriy, bir devorlardagi behayo suratlariga, bir to'rdagi oppoq ipak to'shakda chirmashib yotgan «oshiq-ma'shuqlar»ga tikilganicha, bo'sag'ada g'alati tamshanib turardi!

Abul Hasanak zaharxanda bilan qo'lidagi shamni «puf» etib o'chirdi-da, qahr bilan yurib borib, «hakimi hazratlari»ning maymunday sertuk ketiga bir tepdi.



«Hakimi davron» cho‘chib ko‘zini ochib-yu, apil-tapil o‘rnidan turdi. Uni tepganda uyg‘onib ketgan kaniz tepasida qaqqayib turgan vazir janoblarini ko‘rib, qichqirib yubordi. Bu o‘sha, kechasi uni ishq hunarida ojizsiz deb, masxara qilib kulgan haram bekasi edi!

— Yo‘qol ko‘zimdan, behayo fohisha!

Abul Hasanak bekani ham tepishga chog‘landi, biroq yalang‘och beka abjirlik bilan yerdagi oq ro‘jaga yopinib, o‘zini eshikka urdi.

Sal hushiga kelgan «hakimi davron» ham shoshapisha keng ipak shalvarini kiyib, egniga to‘nini yopdi.

Abul Hasanak oyoqlarini kerib, uning tepasida chang solishga hozir turardi.

— Xo‘sh, g‘alamis? Olampanohning bu tabarruk go‘shasini harom qilmoqqa kim ijizat berdi senga?

— Olampanoh... o‘zlari ijizat etdilar, janobi vazir!

— Olampanoh! Manov behayo haram bekasini ham qo‘yningga olampanoh soldimi, battol?

— Shunday, taqsirolam, o‘z... o‘zlari ijizat etdilar!

— Iblis! — dedi Abul Hasanak, yana hasad alangasida yonib. — Hammani avrab, nog‘orangga o‘ynatib bo‘lding! Endi kuning bitdi sen quzg‘unning! Chin Ibn Sinoga yuzma-yuz bo‘lasan shu bugun!

— Chin... chin Ibn Sino?

— Ha, chin hazrat Ibn Sino kelmish G‘aznaga! Amir Mas‘ud shahri Isfahondan topib yubormish uni!

— Amir Mas‘ud yubormish! — «Hakimi davron» Abu Shilqim ibn Shahvoni hayosiz suratlar solingan devor-ni paypaslab, asta o‘rnidan turdi. Dir-dir titragan qo‘llari bilan yuz-ko‘zlarini ishqab: — Ajabo! — deb, yoqasini ushladi. — Nahot sizday dono vazir bu yolg‘on gaplarga inonsalar?

— Yolg‘on?

— Yolg‘on bo‘lmasa... ul valine‘mat amiralmo‘mininni bu dardi bedavodan forig‘ qilgan kim? Faqirmi yoxud... amir Mas‘ud topgan ul soxta Ibn Sinomi? — Abu Shilqim ibn Shahvoni oxirgi so‘zlarini allaqanday o‘ksib aytdi-yu, boshini egib jim qoldi.

Abul Hasanakning ko'zlaridagi boyagi qahr hayrat va umid bilan almashdi. «Hakim hazratlari» buni payqadi chog'i:

— Mayli! — dedi birdan dadillanib. — Agar vazir janoblari faqirdan shubha qilgan bo'lsalar... shifo topgan kimsa, ya'niki, amiralmo'minin o'zlari aytsinlar — kim chin hazrat Ibn Sino, kim soxta?! Sultoni salotin o'zlari yechsinar bu jumboqni!

Eshikda hanuz tamshanib turgan Unsuriy bu so'zni eshitib:

— Ofarin sizga, hazrat Ibn Sino! — deb chapak cha-lib yubordi. Ibn Shahvoniy esa uchlari qaychilangan mosh-guruch mo'ylovini silab kulimsiradi:

— Haram bekasini bekor haydadingiz, janobi vazir! Chaqiring uni! Men sizga shunday bir doru beraykim, ishq hunarida kaminadan yuz chandon o'zib ketasiz! — «Hakimi davron» mastona qah-qah otib kuldi. — Yo'q, yo'q, haq so'z bu, valine'mat! Sultoni salotin peshingacha uyqudan uyg'onmaydilar! Haram bekasini chaqirtiring. Suluv kanizlardan keltirsinlar! Anov keksa shoir ham bu dunyoga kelibdi — noumid ketmasin! Bizga qo'shilib bu jannatda bir davron sursin, sho'rlik!

## *Yigirma oltinchi bob*

G'aznai munavvarada chin hazrat Ibn Sino paydo bo'lgani haqidagi xabarni shoir Unsuriyga Piri Bukriy yetkazgan bo'lsa, Beruniyga sohibi devon Abu Nasr Mishkan janoblari yetkazdi.

Beruniy so'nggi bir-ikki hafta rasadxonada bo'lib, shom chog'i shahar hovlisiga qaytgan edi. Qaytishi bilan sohibi devon ham kirib keldi.

Xudo bo'y-bastdan urib qolgan bo'lsa ham, aql-zakovatdan benasib qilmagan, o'zini hamisha vazmin va basavlat tutadigan bu odam hozir allaqanday besarb va betoqat edi. U Beruniyning iltifotlariga quloq solmay, Sabhuga «chiqib tur!» deb imo qildi-da, eshikni zich yopib, hayajon bilan shivirladi:

— Darhol kiyining, mavlono! Birodari azizingiz... hazrat Ibn Sino poytaxtimizga qadam ranjida qilmishlar!

«Ibn Sino» nomini eshitganda Beruniyning yuragi beixtiyor «shigʻ» etdi, biroq shu zahotiyuq bir oydan beri boʻlayotgan mojarolar, dorus-saltanada yurgan hayratomuz mish-mishlar yodiga tushib, labiga kulgu yugurdi.

— Olampanohga qancha Ibn Sino kerak? Bir soxta Ibn Sino yetmaydimi? Ikkinchi soxta Ibn Sino ne kerak, taqsim?

Sohibi devon rad ifodasida oppoq sallador boshini chayqadi:

— Yoʻq-yoʻq, bu Ibn Sino soxta emas chin Ibn Sinodur, mavlono! Isfahonda turgan amir Masʻud oʻzi yoʻllagandur hazratlarini!

— Inshoollo, soʻzingiz rost boʻlsin! Ammo... amir Masʻud yoʻllagan bu Ibn Sino chin Ibn Sino boʻlsa, saroydagi anov « Ibn Sino»ni ne qilasiz, taqsim?

— Fosh qilamiz! Yolgʻiz uni emas, anov hezbachcha vazir... Abul Hasanakni ham qoʻshib fosh qilamiz, mavlono!

Beruniyning lablaridagi tabassum achchiq kulguga aylandi.

— Bilmam, taqsim, siz aytgan ul soxta Ibn Sinoning dorulari sultonga sihat keltirib, davosiz dardini daf etgan emish!

— Yolgʻon!

— Yolgʻonmi, chinmi, kecha amiralmoʻmininni oʻz koʻzingiz bilan koʻrdingiz. Maschiti jomeda siz aytgan ul battol hakimga oʻqilgan hamdu sanolarni oʻz qulogʻingiz bilan eshitdingiz...

— Eshitdim... ammo... bari bir inonmaymen! Ul makkor kimsa hakim emas, ilonning yogʻini yalab, qonini soʻrgan bir firibgardur! O, mavlono, mavlono! — dedi sohibi devon, oppoq boshini alam bilan tebratib. — Shaytondan tarqagan bu shayton saroyda nelar qilib, ne oʻyinlar koʻrsatmoqda — hech birini bilmaysiz! Ul mugʻambir afsungar jodu va afyun bilan sultonni aqlu hushidan ayirmish. Davlatpanohning koʻzini ochmoqchi boʻlgan xeshu aqrabolar esa — quvgʻindadur! Hatto bu

firibgarni topgan vaziri a'zam Ali G'aribning o'zi ham olampanohning qahriga yo'liqqandur!

— Siz esa... ul firibgarni fosh qilamen, deb chiranasiz!

— Men emas, siz bilan chin hazrat Ibn Sino fosh qilmog'i darkor ul qallobni! Hamma umid siz ikkovlaringda, mavlono! Toki, o'zini chin Ibn Sino deb, olampanohni o'z sehriga ilintirgan bu g'alamisning soxta hakim ekanini fosh qiladurg'on boshqa bir kimsa yo'qdur, mavlono!

— Yo'q, uni biladurg'on yana bir kimsa bor!

— Kim ul?

— Shoir Malikul sharob! Ul sho'rlikning birdan-bir gunohi — bu makkor jodugarni taniganidur! Tanigani uchun bir zindondan ikkinchi zindonga tashlanur, siz esa...

— Hmm... — sohibi devon Beruniyga qarashdan uyalganday nigohini chetga oldi, so'ng, mitti jussasiga mos tushmagan bir qat'iyat bilan: — Xo'p! — dedi, kichkinagina mushtini tugib. — Malikul sharobni zindondan chiqarmoq chorasini ko'ramiz! Ammo shu narsa yodingizda bo'lsin, mavlono, dorus-saltanaga tashrif buyurgan birodaringiz chin Ibn Sino ham hozir Malikul sharob kabi xatar ostidadur!

«Xatar» so'zi Beruniyga xuddi sarmast odamning boshiga quyilgan bir paqir sovuq suvday ta'sir etdi. U birdan hushyor tortib:

— Hazrat Ibn Sino qayda hozir? — deb so'radi.

— Rasadxonada! Hakim hazratlarini anov betavfiq Abul Hasanak xufiyalaridan ehtiyot qilmoq niyatida rasadxonaga tushirmoqni lozim topdik. Rasadxonada o'zlaridan boshqa hech kim bo'lmas. Hazratlari olampanohning chehrai shamslarini ko'rishga muyassar bo'lgunlaricha birodaringiz bilan birga bo'lursiz, mavlono!

Beruniy sohibi devonning gapiga endigina ishondi-yu, yana boyagiday yuragi gurs-gurs urib, jimgina bosh egdi.

— Sukut — alomati rizo! Darhol kiyining, mavlono!

Mashriq tomondagi tog'lar ustida quchoqqa sig'mas to'lin oy go'yo sof tilladan yasalgan oltin jomday yarqirab turar, olam uning allaqanday osuda, tiniq shu'lasiga g'arq bo'lgan, ko'chalar, maydonlar, chorrahalar yorug' va xiyol sirli edi.

Bir necha oy sovuq tahluka qo'ynida yotgan shahar kechagi tantanalardan keyin sal iliganga o'xshar, tun yarmidan oshib qolgan bo'lsa ham, karvonsaroylardan musiqa ovozlari eshitar, guzarlarda gulxan yoqib o'tirgan qorovullar ko'zga chalinardi.

Beruniyni qurshab olgan o'n nafar suvori shahardan chiqqach, pasqam archazor qirlar osha otlarining boshini mag'rib tomon burishdi. Sutday tiniq oy shu'lasida olisdagi qorli cho'qqilar ko'zga chalinardi. Cho'qqilar tomondan g'ir-g'ir shabada esar, archa va yovvoyi giyohlarning aralash-quralash nozik atri dimoqqa gup-gup urardi.

Beruniyning saman yo'rg'asini «chuh-chuh»lashning hojati yo'q, u boshqa otlar qurshovida bir me'yorda beozor yo'rg'alab borar, zotan, Beruniy qanday va qayoqqa ketayotganlarini o'ylamas, uning butun fikri zikri bo'lg'usi uchrashuvda edi. Bu uchrashuv, ajabo, uning xayolida bir-biriga zid, notinch o'ylar, dilida esa xijolat aralash pushaymon uyg'otmoqda edi.

Shak yo'q: Abu Alining kelgani yaxshi! Ular Gurganj sarhadida vidolashibdiki, Abu Rayhon uni bir ko'rishga intiq-intizor! U bilan olam haqida, tabiat sirlari haqida, o'lim va hayotga bog'liq yechilmas jumboqlar haqida to'yib-to'yib suhbatlashish, boshlaridan o'tgan yaxshiyomon gaplar, kechgan kechmishlar to'g'risida yotib dardlashish, oralaridan o'tgan nizo-nifoqlar uchun kechirim so'rab, ko'ngil tugunlarini yozish orzusida yurardi! Mana, orzusiga ham yetdi hisob! Lekin orzusiga yetgan bir mahalda bu mash'um ishlarning boshlanishi! O'zini Ibn Sino deb e'lon qilgan bu firibgarining paydo bo'lishi! Uning aql bovar qilmas nayranglari-yu, bu nayranglar sabab, saroydagi fitna-fasodlarning avj olishi!..

Bundan bir oy muqaddam, aql bovar qilmas bu mash'um ishlar boshlanganda Beruniy sal o'tmasdanoq

ularning misi chiqib, haq qaror topishiga inongan edi. Yo'q, aksi bo'ldi! Shaytonga saboq bergan bu mug'ambir qanday dorular ishlatgani hammaga qorong'u, ammo haqiqat shuki, bir necha oydan beri og'ir dard otashida qovurilib yotgan amiralmo'minin «hazratlari»ning muolijasidan shifo topib, oyoqqa turdi. Shaharda tarqalgan sovuq mishmishlarga barham berish niyatida sulton kecha birinchi marta ko'chaga chiqdi, misli ko'rilmagan as'asayu dabdaba bilan dorus-saltana guzarlari va maydonlaridan ot surib o'tdi, maschiti jomeda yuz ming namozxon ishtirokida besh rakaat namoz o'qib, Bog'i Firuzda besh yuz kishiga ziyofat berdi!

Bas, bu og'ir, notinch vaziyatda aziz birodarining ahvoli ne bo'ladi? Yigirma yil mustabid shohga xizmat qilishdan bosh tortib qochib yurgan allomai zamon, nahot endi telba taqdirning teskari o'yinlari sabab, g'ururini poymol etib, katta boshini kichik qilib chin Ibn Sino ekanini isbot qilishga majbur bo'lsa? Bu ham, mayli, soxta Ibn Sino tevaragida boshlangan bu mashmasha, Xatlibegim bilan vaziru vuzaro va amiru umaro o'rtasida tobora avj olayotgan berahm, beshafqat kurash orasiga tushib qolsa nima bo'ladi?

Ana, o'ngda Gardiz qal'asining qo'rg'oni ko'rindi. Qo'rg'ondan o'tish bilan yo'l birdan o'rlab ketdi-yu, oldinda, to'lin oy shu'lasida olmosday yarqiragan qorli tog' o'rkachida rasadxona binosi ko'zga chalindi. Binoning ikkinchi oshyonasidagi do'ngalak darichalari so'nayotgan yulduzlarday o'jiz miltirar, aftidan, keksa munajjim mavlono Abu Tolib Farruxiy hanuz uyg'oq edi.

Odatdagiga xilof, rasadxona qo'rg'oni oldida... qo'llarida tig' ushlagan ikki navkar turardi. Beruniyni boshlab kelgan navkarlar uni otdan tushirib, orqalariga qaytishdi. Beruniy uvishib qolgan oyoqlarini uqalay-uqalay, hovliga kirdi. Katta bog'ni eslatuvchi serdaraxt hovli kimsasiz, rasadxona jimjit edi. Uning qo'sh tavaqali zalvarli eshigi berk edi. Beruniy, go'yo Ibn Sinoni uyg'otib yuborishdan qo'rqqanday, eshikning ulkan mis halqalaridan tutib asta taqillatdi. Darhol ichkarida yengil oyoq sharpasi

eshitilib, eshik asta ochildi. Bo'sag'ada, qo'lida toshfonus, yosh muarrix Abulfazl Bayhakiy turardi. Oyog'ida kavush, egnida yo'l-yo'l bo'z yaktak, Abulfazl Beruniyini ko'rib:

— Ustad! — deb shiviriadi allaqanday vahima bilan.— Rasadxonaga... Hazrat Ibn Sino tashrif buyurdilar! Soxta emas, chin Ibn Sino, ustod! Yonlarida shogirdlari ham bor!

Beruniy beixtiyor kulimsirab:

— Hazratlari qaydalar? — deb so'radi. — Istirohatdalarmu?

— Yo'q, ustod. Shogirdlari pastda, istirohatdalar. O'zlari yuqorida, rasad<sup>1</sup> bilan mashg'uldurlar!

— Rasad bilan?

— Shunday, ustod! Olatlar yordamida Dubbi akbar burjlarini o'lchash bilan banddurlar!

Beruniy bir-bir bosib qarshisidagi marmar zina tomon yurdi, biroq zina pillapoyalariga oyoq qo'yarkan, negadur to'satdan bir mahallar Abu Aliga yozgan xatlari, to'g'rirog'i, xatlardagi zaruratsiz gustohliklari esiga tushib, yana boyagiday xijolat aralash pushaymon tuyg'usi quyilib keldi. Bunga dorus-saltanada bo'layotgan mojarolarni aytish tashvishi qo'shildi-yu, Beruniy, zina tutqichlariga suyanganicha, uzoq turib qoldi.

Yo'q,na maktublardagi gustohliklari uchun uzr so'rashga zarurat tug'ildi, na dorus-saltanada sodir bo'layotgan mudhish voqealarni izohlab o'tirishga! To'g'rirog'i, uzr ham so'radi, mudhish voqealarni aytib ham berdi, lekin buning hammasi keyin, bir necha kun davom etgan tongotar suhbatlar chog'ida, Beruniy orzu qilgan «yotib dardlashishlar» vaqtida aytildi. Abu Ali esa go'yo shunday bo'lishini oldindan bilganday bu gaplarni kulib eshitdi, faqat kulgusi allaqanday ma'yus va dardli chiqdi. Biroq bu gaplar keyin bo'ldi. Hozir esa...

Beruniy kirganda xonaning o'rtasidagi yoysimon sudsi faxri<sup>2</sup> yonida, shiftdagi katta tuynukning tagida,

---

<sup>1</sup> R a s a d — falakni kuzatish.

<sup>2</sup> S u d s i f a x r i — sekstant.

odatda Beruniy o'tiradigan suyanchig'i baland yumshoq kursida... boshiga mo'risimon ko'k qalpoq, egniga ko'k kimxob to'n, ustidan yengsiz oq yaktak kiygan bir mo'ysafid kallasini osiltirib o'tirardi!

Beruniy oyoq uchida yurib, kursining yoniga bordi.

Mo'ysafidning tizzasidan ipak qog'ozda Dubbi akbar yulduzlarining sudsi faxrida aks etgan burjlari chizilgan bo'lib, tagiga bir necha satr izohlar yozilgan, lekin bu izohlarni yozgan qalam gilam ustida yumalab yotar, Ibn Sino pinakka ketgan edi!

Yopiray! Ulkan boshini horg'in osiltirib kursida uxlab yotgan bu mo'ysafid... nahot o'sha Abu Ali ibn Sino bo'lsa? Beruniy bilgan Abu Aliga ham o'xshar, ham o'xshamas edi! Beruniy bilgan Ibn Sinoning soqol-mo'ylovlari saqichday qop-qora va bejirim edi, bu horg'in mo'ysafidning mosh-guruch soqoli esa ko'ksiga tushgan! Beruniy bilgan Ibn Sinoning cho'zinchoq xushsurat chehrasida bitta ham ajin yo'q edi, kursida beholgina uxlab yotgan bu mo'ysafidning oftob va shamollarda qoraygan yuzi silliq bo'lsa ham, yumuq ko'zlarining tebrasiga, lablarining chetlariga chuqur izlar tushgan, horg'in chehrasida qandaydir tizginsiz alamlar muhri bosilgan edi! Faqat sham shu'lasida mis barkashday yaltiragan katta do'ng peshonasi-yu, uzun qiyg'ir burni Beruniy bilgan burungi Ibn Sioni eslatardi, xolos!

Beruniy, yuragi allaqanday achishib, sekin orqaga qayta boshladi, biroq shu payt, kursidagi mo'ysafid uyg'onib ketdi-yu, asta o'rnidan turdi. Uning horg'in chehrasida, chuqur botgan tiniq ko'kimtir ko'zlarida taajjub aralash hayrat aks etdi, so'ng bu hayrat yoshiga mos tushmagan muloyim bir tabassum bilan almashdi.

— Assalomu alaykum, ustod!

Yo tavba! Bu sal bo'g'iq, osoyishta ovoz, muloyim kulimsirab turgan bu ko'kimtir ko'zlar, bu katta do'ng peshona — hamma, hammasi tanish, aziz, qadrdon edi!

— Vaalaykum assalom, Abu Ali!

Beruniy Ibn Sinoning novcha, nazarida, burungidan ham novcharoq, ozg'in qaddini bag'riga bosarkan:

— Vo darig'! — deb «qult» etib yutindi.— Seni ko'radurg'on kuni ham bor ekan, Abu Ali!



Ular, go‘yo diydor ko‘rishganlariga hanuz ishonolmay, bir-biriga qayta-qayta tikilib qarashar va qayta-qayta quchoqlashib ko‘rishishar edi. Nihoyat, kursilarini surib, yuzma-yuz o‘tirisharkan, Ibn Sino xiyol g‘amgin kulimsirab:

— Tangriga shukur,— dedi ko‘zini Beruniydan uzmay. — Hanuz burungiday bardam, burungiday salomat ko‘rdim sizni, ustod.

— E voh! Sen bilgan Abu Rayhon emasmen. Umrning eng nurli onlari o‘tib ketdi, Abu Ali!

— Ne chora? Taqdiri azalning qonuni shu ekan, ustod!

— Nahot senday hakimi davron ham bu qonunni o‘zgartira olmasa, Abu Ali!

Ibn Sino horg‘in ko‘zlarini yumib, yana mahzun kuldi:

— Yoshlikda, shubha neligin bilmay yurgan aql zaif choqlarda nainki bu qonun, hatto ajalni ham daf etishga inonar edik! Mana endi, keksalik manziliga yetib, oqu qaroni taniganimizda ayon bo‘ldiki, olam siriarini yechishga ojiz bir banda ekanmiz, ustod!

— Qariganda endi aqlimiz kirdi de, Abu Ali!

— Bilmam, ustod!.. Faqir aqlim kirdimi, yo‘qmi — buni aytolmaymen. Ammo... buyuk alloma Suqrot aytganidek, shuni bildimki, hanuz hech narsani bilmas ekanmen, ustod!

Ibn Sinoning o‘z ustidan xiyol kulib, xiyol kinoya bilan gapirishlari Beruniyga ayniqsa xush yoqdi-yu, mehr bilan tikilib:

— Kaminani uyaltirma, Abu Ali! — dedi yolvorib. — «Al-Qonun»day buyuk asar yaratib, «shayx ur-raisi» nomini olgan senday allomai zamon faqirni «ustod» deyishing yarashmas, bil‘aks, men seni «ustod», desam yarashadur, Abu Ali!

— Kamtarlik — inson ziynatidur, bilamen. Ammo... siz ham meni uyaltirmang, ustod!

— Mayli! Gap bir-birimizni ulug‘lashda emas, Abu Ali!

— Shunday, ustod!

Ular, go‘yo bu lutfu iltifotlardan xijolat chekkanday,

bir zum jim qolishdi. Beruniy yuragini chulg'ab olgan hayajon bilan hanuz olishib:

— Faqir seni o'ylaganimda, nechundir doim Gurganjda, vidolashuv kechasida aytgan so'zlaring yodimga tushardi, Abu Ali, — dedi.

— Ha, vido kechasi mening ham yodimda, ustod.

Beruniy miyig'ida bir kulib qo'ydi:

— Qalay, orzu qilgan odil shohlarni topdingmu, Abu Ali?

— Topdim, — Ibn Sino ham horg'in ko'zlarini yumib, g'amgin kulimsiradi. — Qayga bormay — hamma joyda «odil shohlarga» duch keldim, ustod. Shundaykim, oxir pirovardida ulardan yashirinishga joy topolmay qoldim. Jurjonda Qobus ibn Vushmagirning «adolatidan» zo'rg'a qochib qutuldim. Rayda o'zingiz bilgan malikai Saida!..

«Malikai Saida» nomini eshitishi bilan negadir Xatli-begim bilan bo'lgan uchrashuv yodiga tushdi-yu, Beruniyning ko'zlarida sho'x uchqunlar chaqnadi:

— Eshitishimcha... oshini oshab, yoshingi yashab bo'lgan ul malikai gulruhsor senga oshiqu beqaror bo'lgan emish. Bu so'z haqiqatmu, Abu Ali?

— Ne chora! Taqdirning bu o'yinini ham ko'rdik, ustod! — kuldi Ibn Sino. — Shundaykim, ul malikai gulruxsorning mehri adolatidan sichqonning ini ming tangga bo'ldi. Ammo, e voh, yomg'irdan qochib do'lga, ya'niki, malikai Saidadan qochib Shamsuddavlagaga tutildim. Bunisi undan ham mehribon, undan ham adolatli edi, ustod.

— Bir-biridan mehribon, bir-biridan adolatli de?

— Shunday, ustod. Siz-chi? Siz ham bu tomonlarga adolat qidirib kelgan edingiz...

— Ha, adolat deganda boyo'g'li to'g'risidagi rivo-yat yodimga tushadir, Abu Ali! G'aznani ko'ra oldingmu?

— Oz-oz ko'rdim, ustod. Haqiqatan, go'zallikda benazir bir shahri muazzam bo'libdi! Ammo... bu go'zallik, bu maschitu minoralar, ko'shku saroylar kimlar va nelar hisobiga...

— Bilamen, Abu Ali! O‘z yurtini obod qilmoq uchun boshqa yurt, boshqa shaharlarni zer-zabar qilmoq — gunohi azimdur. Hammasini bilamen, Abu Ali. Dorusaltanada qurilgan muhtasham saroylar, ko‘rkam qasrlar, maschitu minoralar uchun hindlar yurtidagi o‘nlab shaharlar talon-taroj bo‘lganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Va lekin... hozir o‘zing iqror bo‘lding: bu odil shohlardan dunyo ko‘zimga qorong‘u ko‘rindi, deding! Biri biridan «odil», biri biridan «oqil» deding! Bas, sulton Mahmud xizmatida bo‘lmasam, Shamsuddavla xizmatida bo‘lur edim. Shamsuddavla bo‘lmasa, malikai Saida xizmatida bo‘lur edim. Ne chora, Abu Ali? — Beruniyning tovushi nogahon cheksiz g‘am-anduh bilan yangrab ketdiyu, Ibn Sino beixtiyor yuragi uvishib:

— Ustod!— dedi qo‘lini Beruniyning tizzasiga qo‘yib.— Yo‘q, ustod, sulton Mahmud xizmatiga kelganingiz uchun sizni ayblamoqqa haqqim yo‘q. Bilamen — kelishdan bosh tortsangiz, sizni ham faqir kabi oyoq-qo‘llaringizdan bog‘lab olib kelur edilar. Ilgari bo‘lmasa ham endi bir narsaga aqlim yetdi, ustod: bu dunyoda hamma narsa, yaxshilik ham, yomonlik ham nisbiy ekan. Kim bilsin, agar siz bu mustabid shoh xizmatiga kelishdan bosh tortganingizda... ehtimol, bu muazzam rasadxona bunyod bo‘lmas edi!

Beruniy birdan chehrasi yorishib, bir qubbador shiftdagi ulkan maxsus tuynikka, bir pastdagi sudsi faxriga, bir devorlardagi jadvallarga qaradi.

— Ha, bu rasadxona kamina uchun bir taskinu tasalli dargohi bo‘ldi, Abu Ali! Sen kabi men ham dunyo ko‘zimga qorong‘u ko‘ringan onlarda shu dargohga kelib, ilm bilan, mutolaa va mushohada bilan o‘zimni ovutamen. Bu tuynukdan ko‘ringan anov sitoralar oldida bani odam umrining o‘tkinchihigi haqida o‘ylab, tasalli olamen. So‘ng, bu olam, bu falakiyot sirlarini o‘rganish uchun allanechuk bir rag‘bat va quvvat topamen bu rasadxonada! Nasib qilsa yaratgan taqvimlarim, chizgan jadvallarim — hammasini ko‘rsatamen, Abu Ali!

Ibn Sino ustodning dilidagi dardlarini butun vu-

judi bilan his etganday unga hayrat va mehr bilan termilib:

— Hindiston-chi? — deb so'radi. — Hindiston haqida katta kitob bitgan emishsiz. Uni xattotlarga berib ko'chirtirgandursiz, ustod?

Beruniy sekin uf tortdi:

— Uni xattotlarga bermoq uchun avval sulton Mahmudga ko'rsatmog'im darkor, Abu Ali!

— Nechun, ustod?

— Nechun? Nahot «odil shohlar» odatini bilmaysen. Abu Ali? «Hindiston» deganda sulton Mahmud uning muzaffar yurishlari to'g'risida yozilgan bir qasida, uning qatlu qirg'inlarini sharaflab, nomini bashariyat tarixida qoldirguvchi bir asar deb o'ylaydi! «Hindiston» esa bu buyuk va mazlum elga faqirning yuragida tug'ilgan ulug' ehtiromdan bir tomchidir, Abu Ali!

Ibn Sino ko'zlari yosh tolibi ilmning ko'zlariday hayrat bilan porlab:

— Loaqal bir nusxasi tayyordur, ustod? — deb so'radi. — Tayyor bo'lsa, bir necha kunga bo'lsa ham bersiz!

Beruniy ko'zini qisib kuldi:

— Marhamat, agar sen «Al-Qonun»dan bir nusxa bersang, men ham «Hindiston»dan bir nusxa bera-men!

— Boshma-bosh deng?

— Boshma-bosh!

Suhbat goh ilmi hikmat, yozilgan va yozish orzusida ko'ngillariga tugib qo'ygan kitoblar haqida bo'lar, goh boshdan kechgan umr savdolariga o'tardi. Ilm va kitoblar haqida gap ketganda suhbatga qandaydir jon kirar, ikkisi ham ko'zlari chaqnab, yuzlariga qon yugurar, umr savdosiga o'tganida esa suhbat sokin, ammo allaqanday hazin bir nur bilan yo'g'rilar edi.

Ikkisi ham bir-birlarining dilida qat-qat bo'lib yotgan dardu hasratlarni, boshlaridan o'tgan musibatlarini bir-biriga aytishdan iymanar, bu g'am-anduhlarni chuqur his etganlari holda, yuraklarida chandiqlik bo'lib qolgan eski yaralarni tirnashni istamas, to'g'rirog'i, tirnash befoyda

ekanini yaxshi anglar, shuning uchun ham telba taqdirning telba o'yinlari haqidagi gaplarni chetlab o'tishga harakat qilishar, bunga iloj bo'lmaganida esa, gap ohangi yengil, ammo sal mungli hazil-mutoyibaga burilar edi. Suhbat shu yo'sin tong otguncha davom etdi.

## ***Yigirma yettinchi bob***

Vaziri a'zam Ali G'arib Xatlibegimning amri bilan o'z ko'shkiga qaytib kelganida tun yarimdan oshgan edi.

Xatlibegimning maxfiy maktubini vaziri a'zamga Piri Bukriy yetkazdi. Maktub bilan birga u saroyda bo'layotgan hamma mojarolardan bosh vazirni voqif qildi. Bu gaplardan keyin Piri Bukriy vaziri a'zamga o'z dardu hasratlari, o'z iltimoslarini izhor qilmoqchi edi. Lekin Xatlibegimning maktubini o'qib chiqqan vaziri a'zam shunday hayajonga tushdiki, Piri Bukriyning gaplarini chala-chulpa eshitdi-da, iltimoslarini tinglashga sabri yetmay, darhol otga mindi. Ko'shkka bosh vazirdan avval yetib kelgan mushriflar eshik og'asini ogoh qilib qo'ygan ekan, u vaziri a'zam bilan Piri Bukriyni darvoza oldida kutib olib, to'g'ri ko'shkka boshladi. Biroq ko'shkka kirgach, odatdagidek, ikkinchi qavatga emas, pastga, birinchi qavatning tagidagi yerto'laga o'xshash maxfiy xonalarga boshladi.

Bu yerda bir-biriga tutash ikki xona bo'lib, birinchisida bittayu bitta eski kursi turar, ikkinchi xona ham, garchi jihozlari g'aribgina bo'lsa-da, har qalay, tagiga katta qizil yumshoq palos to'shalib, o'rtaga noz-ne'matlar to'la xontaxta qo'yilgandi.

Vaziri a'zam egnidagi odmigina olacha to'nini yechib qoziqqa ildi, boshidagi eskiroq suvsar telpagini olib, shaftoli gulli gilam do'ppisini to'g'rilab kiydi-da, qo'llarini orqasiga qilib, xayol og'ushida keng, chorburchak xonani aylanishga tutindi.

Piri Bukriy, munchoqday ko'zlari sadoqat va umid bilan javdirab, poygakda qo'l qovushtirib turar, u xuddi xo'jasidan suyak kutayotgan kuchukka o'xshar, biroq

xo'jasi o'z g'ami, o'z o'ylari bilan band, vafodor kuchugiga qaramas edi.

Vaziri a'zam so'nggi bir-ikki haftada o'zini juda oldirib qo'ygan, naqsh olmaday qip-qizil, lo'ppi yuzlari so'lib-sarg'ayib, munchoq ko'zlari ichiga botib ketgan, kalta, yo'g'on bo'yni ingichka tortib, tomoq ostlari qari tustovuqning tomog'iday osilib qolgan edi.

Vaziri a'zamning ahvolini ko'rgan Piri Bukriy ko'nglidagi dardu hasratlarini aytishini ham, aytmasligini ham bilolmay hang-mang bo'lib turgan edi, nogahon tashqarida tap-tap oyoq tovushlari eshitildi-da, eshik shitob bilan ochilib, xonaga... Xatlibegim kirib keldi.

Egnida odatdagi qora ipak ko'ylak o'rniga to'pig'iga tushgan qizil baxmal ko'ylak, yoqasi va yenglariga sariq ipak shokilalar tikilgan qizil mursak, oyog'ida saqichdek yaltillagan uchi egik bejirim qizil etikcha, Xatlibegim, yuziga tutilgan shaffof shoyi durrasini orqasiga tashlab, bir to'rda bosh egib turgan vaziri a'zamga, bir poygakda tosh bo'lib qotib qolgan Piri Bukriyga qaradi-yu, yupqa lablarini himarib:

— Hi, kuyovto'ra! — deb kuldi. — G'unajinni no'xtalay oldilarmi yo hanuz no'xta sololmay ovoralarmu?

Beginning hazili zaharli qamchiday tegsa ham, Piri Bukriy allaqanday qiyshanglab kuldi:

— O'zingizdan qolar gap yo'q, begim. Yosh narsa...

— Chaynalmay, chinini ayta bering, kuyovto'ram! Agar jilovlay olmagan bo'lsalar haram bekasini yuboramen, o'zlari jilovlab mindirib qo'yadilar!

— Toabad minnatdormen, begim! — Piri Bukriy hamon hiringlab kulganicha qo'yniga qo'l soldi. — Oliyhimmat begimga atalgan bir sovg'am bor edi, fursatdan foydalanib...

Xatlibegi keskin harakat bilan Piri Bukriyni to'xtatdi:

— Hozir sovg'a-salomning fursati emas. Undan yuz chandon zarur gap bor! Daf bo'lsinlar, kuyovto'ram!

— Qulluq, begim, qulluq! — Piri Bukriy shosha-pisha orqasiga tisarilib, xonadan chiqdi. U oldin eshikni zich yopmoqchi edi, keyin, xayoliga allaqanday bir fikr kelib, qiya ochiq qoldirdi-da, birdan holsizlanib, devorga

suyandi, suyanishi bilan ichkaridan Xatlibegimning odatdagiday o'ktam, qahrli tovushi eshitildi:

— Hamma qilgulikni qilib qo'yib, endi nechun pistirmalarda pusib yuribdilar, taqsirim? Suf sizday vaziri a'zamga!..

Ali G'arib bir nimalar deb g'udrandi, biroq uning so'zlarini yana Xatlibegimning betoqat, darg'azab ovozi bo'ldi:

— Bas! Nolai fig'oningizni yig'ishtiring, janob vazir! Bu makkor soxta Ibn Sinoni topgan men emas, uni topgan taqsirimning o'zlaridur! Hay attang! Mana endi bilindi Xo'ja Ahmad<sup>1</sup> hazratlarining qadri! Barcha arkoni harb va arkoni davlatning qahriga yo'liqqan bir hezalakni daf qilishga aqlingiz yetmasa... vaziri a'zam bo'lib ne qilasiz, taqsirim?

— Soyaboni marhamat, begim! Devorning ham qulog'i bor! — Ali G'arib hadiksirab kelib eshikni zich yopdi chog'i, ovozlari eshitilmay qoldi.

Piri Bukriy, odatda, qulog'ini devorga qadab bo'lsa ham, bunday pinhoniylar gaplarni bilib olishga urinar edi, hozir esa, ko'ngli g'ash, yuragida intihosiz bir alam, beholgina sudralib borib, chetroqda turgan eski kursiga asta cho'kdi.

Ajabo: uning ko'z oldida hamon Xatlibegimning kinoyali tabassumi turar, quloqlari ostida zaharli gaplari yangrar edi! Bu gaplardan uning yuragi og'rimasdan kimning yuragi og'riydi?

Mana, bir oydan oshdiki, Xatlibegimning navkarlari kimsan Horun ar-Rashidning bebaho javohiri evaziga Sadafbibini uning qo'liga olib borib topshirishdi.

Bibining sharafiga Piri Bukriy o'z do'koniga tutash bir hovli-joyini sotib olib, gulday yasatib qo'ygan edi. Bibini vaziri a'zam ko'shkidan qolishmaydigan shu ko'rkam hovli-joyiga tushirdi, xizmatiga keksa oqsoch yollab, o'zini noyob zarrin liboslarga o'rab tashladi, yerto'lasidagi eng yashirin sandiqlarini ochib, bo'yniga

---

<sup>1</sup>X o' j a A h m a d M a y m a n d i y — sulton Mahmudning ko'p yillik bosh vaziri.

eng qimmatbaho marjonlar, quloqlariga oltin sirg'alar, qo'llariga tilla bilaguzuklar, hatto oyoqlariga oltin xolxollar taqib, boshidan la'l va injular sochdi. Ammo ne foyda? Sadafbibini hanuz uni ko'rsa bo'rini ko'rgan qo'zi-choqday qaltiraydi, qaltirasa ham mayli, yumaloq kulcha yuzidan qoni qochib, ko'zlari hazar aralash allaqanday nafrat bilan chaqnaydi... Kechalari esa yoniga yo'latmaydi, na uning ohu faryodlariga quoq soladi, na keksa oqsochning pandu nasihatlarini do'q-pisandalariga!..

Ko'p yillardan beri Piri Bukriyning xizmatida yurgan keksa oqsoch bir necha marta unga Sadafbibini haydab yuborishni, egnidagi bebaho liboslarini yechib olib, o'zini quljallobga pullashni maslahat berdi, agar shunday qilsa, undan ming chandon ko'hlik, ming chandon muloyim, bezabon kanizlarni topib berishni va'da qildi. Biroq... ne chora? Poshshoning ishq qurbaqaga tushmish, degandek, ko'ngilga amr qilib bo'lmas ekan. Piri Bukriy, har chand urinmasin, o'z hislarini jilovlay olmadi.

Piri Bukriy garchi majruh bo'lsa ham, garchi yoshi payg'ambar yoshiga yaqinlashib qolgan bo'lsa ham, bir yigit tengi kuchi bor. Xatlibegim aytmadanoq Sadafbibini hech kimning yordamisiz o'z kuchi bilan no'xtalab olishga bir necha bor urinib ham ko'rди. Biroq Sadafbibini ham, jussasi chog'roq, nozik qiz bo'lsa-da, urishqoq mushukday olishib, Piri Bukriyga bo'y bermadi, shundaykim, har safar u qizning go'shasidan soqollari yulini, yuzlari timalib chiqdi!

Yo'q, agar Piri Bukriy istasa, Xatlibegim aytganidek, uni allaqachon no'xtalab olardi. O'zining kuchi yetmasa, itday vafodor oqsochning yordamida, oyoq-qo'llarini bog'lab bo'lsa ham no'xtalab olardi. Biroq bibining ko'zlaridagi bu cheksiz nafrat, kulcha yuzlaridagi bu jirkanih!.. Yo'q, kishining nafsoniyatini poymol qiluvchi bu nafratga toqat qilish qiyin! Qiyin, biroq u toqat qilib yuribdi, tishini tishiga qo'yib bo'lsa ham, alamdand yuragi qonqashasa ham chidab kelmoqda.

E, yaratgan egam! Bu ne ko'rgulik? Piri Bukriy umrida ikki marta shunday xor bo'ldi. Biri Qiyotda, otasining qadr doni bo'lmish nasroniy savdogarning beva qizi



Rayhonabonuga ishq tushganida, biri endi, Sadafbibiga duch bo'lganida! Boz bu telba taqdirning telba o'yinini qarangki, har ikki safar ham uning muhabbatiga pand bergan odam — Abu Rayhon Beruniy bo'ldi. Taqdir nechun ularni bir-biriga raqib qilib qo'ydi? Rayhonabonu sabab Qiyotda qirpichoq bo'lib, yo'llari ajrashib ketgan ikki raqib, nechun salkam qirq yildan keyin yana bu shaharda duch kelishdi, nechun taqdir yana oralariga bu malakni soldi? Piri Bukriy bu jumboqni yechishdan ojiz. U faqat bir narsani biladi: gar ayovsiz qismat uni Abu Rayhonga ro'baro' qilmaganida uning hayoti o'zgacha yo'ldan ketardi! Shak yo'q — o'zgacha bo'lardi! Yoshlik chog'larida Rayhonabonu visoliga yeta olmasa ham, bu safar Sadafbibining visoliga yetardi! Hozir esa... Piri Bukriy Sadafbibining go'shasiga kirishga ojiz, uning bo'sag'asida o'z yog'iga o'zi qovurilib yotarkan, har kecha uning: «Ustod! Ustod!» degan nidolarini eshitadiyu, qulog'iga qizning faryodi emas, bamisoli og'u quyilganday, vujud-vujudlarigacha achishib ketadi!

Yo rab! Yozug'i ne uning? Qaysi gunohlar uchun uni bu noraso dunyodagi eng katta saodat — muhabbat saodatidan mosuvo qilding? Gunohi — mayib-majruhligimi? Ammo... uni mayib-majruh qilgan kim? Gunohkor bandangni o'zing kechirgaysen, va lekin, uni majruh qilib, bandalaringga kalaka qilgan ham o'zing emasmu, parvardigori olam?

Ha, bundan qirq yil muqaddam, yo'q, qirq besh yil muqaddam, kichkinagina, qop-qoragina Abu Rayhon Qiyot bozorlarini supurib, do'kondorlar xizmatini qilib yurgan chog'larida, Piri Bukriy o'n besh yoshlar chamasidagi nozikkina xushsurat bir o'spirin edi! O'zi sal rangpar, kasalmand bo'lsa ham, yelkasidagi bukridan asar ham yo'q edi! Hazar<sup>1</sup> tomonlardan kelib, Qiyotga katta do'kon ochgan otasi esa, — ollo uning gunohini kechirgay, — nasroniy dinidagi mashhur savdogarning qizi Rayhonani unga olib berib, boyligiga boylik, dovrng'iga dovrug' qo'shmoq orzusida yurardi.

---

<sup>1</sup> H a z a r — hozirgi Kaspiy dengizi.

Lekin... e voh! Balo qayda? Bossang, oyog'ing ostida, deganlari rost ekan!

U bir haftagina betob bo'ldi. Ammo dard uni shunday iskanjaga oldiki, azaldan kasalmand, nozik-nihol o'spirin, baloi otash ichida qovurilib, bir hafta hushini bilmay yotdi. Hushiga kelganda esa... tepasida yig'lab o'tirgan otasini ko'rdi. Otasining yonida hakimlar kiyimida allomanamo bir kimsa o'tirardi.

Piri Bukriyning ko'krak qafaslariga sovutga o'xshash bir narsa kiydirgan, sovutning ichi esa nazarida, issiq loyga o'xshash qattiq va yoqimli bir narsa bilan to'ldirilgan edi.

Bir oydan keyin allomanamo kimsa unga kiydirilgan «sovut»ni yechib, tanasini qora loydan soqit qildi-da, qo'ltig'idan suyab, o'rnidan turg'azdi.

U hakim yordamida turishga turdi-yu, faryod chekib, qayta o'zini to'shakka otdi. Uning nozik-nimjon bo'lsa ham novchagina bo'y-basti kamida bir qarich kichraygan, zaif ko'kragi bo'rtib chiqqan, yelkasida esa... kallaqantday xunuk, bedavo bir o'rkach paydo bo'lgandi!..

Baloi nogahon bo'lib yopishgan shu o'rkach tufayli u bir yilgacha odamlarning ko'ziga ko'rinmay, o'z do'konlari tagidagi yerto'lada ko'ksini zaxga berib yotdi. Dunyo ko'ziga qorong'u ko'rinib, ko'kka nola qilib yotdi, hatto ota-onasini ko'rishga ham toqati bo'lmadi. Uning dardu alamlarini tushunadigan, cheksiz hasratlariga hamdard bo'ladigan bittayu bitta do'sti qoldi, u ham bo'lsa... ikki qarichgina qamish nay edi!

U ochilmasdan xazon bo'lgan umri, ko'ngli faryodlariyu barbod bo'lgan sevgisi — hamma-hammasini shu hamdard do'stiga so'zlar, yurak-bag'ri qon, ko'zlarida shashqator yosh, tunu kun tinimsiz bo'zlar edi!

Lekin uning ko'ngliga taskinu tasalli berguvchi bu do'st, nimqorong'i yerto'lada kechayu kunduz yangragan bu nolai faryod undan burun ota-onasini ado'i tamom qildi. Avval onaizori yiqildi, keyin otasi. O'limidan uchto'rt kun avval otasi uni yerto'la tepasidagi o'z xoxonasiga chaqirtirib oldi.

— Gunohkor padaringni kechir, bolam, — dedi shoʻrlilik ota boshini yostiqdan arang koʻtarib. — Bilamen, sen mening gunohlarim uchun kuyding, bolam. Olloning xohishi shu ekan, ne chora, boʻtam? Soʻzimga inon, oʻgʻlim, bir yildan beri gunohkor otangni yolgʻiz bir gʻam, bir tashvish qiynaydi: bu oʻtkinchi dunyodan koʻz yumsam nogiron zurriyotimning holi ne boʻlur, degan qaygʻu koʻnglimga orom bermaydi, bolam! Yodingda boʻlsin: bani odam och qashqirdan yomon — kim ojiz, kim nogiron — avvalambor shularni yeydi! Valekin shuni ham bilib qoʻy, jigarim. Bani odamning qudrati uning husni jamoli va boʻy-bastida emas, orttirgan boyligida! Poshsholarning kuchi ham boshidagi tojida emas, xazinasidagi ganjida!

Padari poki, — ollo unga ravzai rizvondan joy ato qilgʻay! — shunday deb, unga qarshidagi tokchanning pastki gʻishtlarini koʻchirishni buyurdi. Gʻisht tagida oʻra boʻlib, undan ikkita katta xum chiqdi. Xumlarning biri oltin zeb-ziynatlarga toʻla edi, ikkinchisi nodir toshlarga!

— Yodingda boʻlsin, bolam, — dedi otasi, soqolini koʻz yoshi bilan yuvib. — Faqirga bobongdan bir xum ganj tekkan edi, men uni senga ikki xum qilib topshiramen. Bu boylikni koʻz qorachigʻingday asragaysen, toki, u sening qora kunlaringga ham, masʻud damlaringga ham yaragʻusidir!

Hayhot! Ota soʻzlarining faqat birinchi qismigina haqiqat boʻlib chiqdi. Padari qoldirgan ganjlar haqiqatan ham Piri Bukriyning qora kunlariga yaradi. Masʻud damlar esa... e voh! Piri Bukriy otasidan qolgan ikki xum ganjni oʻn barobar koʻpaytirdi, ammo oʻn barobar oshgan boylik ham otasi aytgan baxtu saodatni inʻom etolmadi!.. Padari pokidan qolgan ganjlarga ishonib avval Rayhonabonuga yopishib koʻrdi, endi Sadafbibiga. Lekin, e voh, koʻngliga yaqin na sevikli mahbub topdi, na bir doʻst!

Piri Bukriyning xayolini yana Xatlibegimning qahrli ovozi boʻlib yubordi. U dik etib oʻrmidan turdi-da, oyoq uchida boʻsagʻaga borib, qulogʻini eshikka tutdi.

Xatlibegim, go‘yo har bir so‘zini qilich bilan kesgan-  
day kesib-kesib gapirardi:

— Inongan amirlaringizni ishga soling, vaziri a‘zam!  
Osmon malikasi saroyiga eng sodiq sarbozlaringizni  
qo‘ying! Shundaykim, chin Ibn Sino hazratlari bu mu-  
borak dargohga qadam ranjida qilganlarida... hech bir  
kimsa yo‘llarini to‘smasin!

Piri Bukriy tap-tap oyoq tovushlarini eshitib, darhol  
o‘zini chetga oldi. Eshik sharaqlab ochilib, ichkaridan  
Xatlibegim chiqdi. Uning surma tortilgan qiyg‘och  
ko‘zlari allaqanday chiroyli chaqnar, upa-elik surtilgan  
qoramtir yuzi lovillab yonardi.

— Ha, kuyovto‘ra! — dedi Xatlibegim, bo‘sag‘ada  
to‘xtab. — Tarki odat — amrimahol, so‘zimizni poylab  
turibsenmu bu yerda?

— Yo‘q-yo‘q! Faqiru haqir begimning xizmatlariga  
muntazirmen! — Piri Bukriy shunday deb, qo‘ltig‘iga  
qo‘l soldi-da, eski lattaga o‘ralgan yumaloq bir narsani  
olib, begim tomon yurdi: — Bag‘dod zargarlari yasagan  
noyob bilaguzuk! Nodir yoqutlar bilan ziynatlangandur,  
begim!

Xatlibegim sovg‘ani olmoqchi bo‘lib qo‘l cho‘zdi-da,  
darhol qo‘lini tortib oldi.

— Bag‘dod zargarlari yasagan noyob bilaguzuk  
o‘ragan lattangni qara! Odamning ko‘ngli ayniydur! Siz  
oling, vaziri a‘zam! Keyin eltib berasiz! — Xatlibegim  
ikki bukilib turgan bukriga ijirg‘anib tikilib qaradi-da,  
yana zaharxanda qildi: — Kuyovto‘ra degan sal qaddini  
rostlab yuradi, azizim! Qaddingizni tuting! Erta-buruskun  
haram bekasini yuboramen: erka g‘unajiningizga kuchin-  
giz yetmasa, o‘zi jilovlab, ustiga mindirib qo‘yadi!

Begim shunday dedi-da, hanuz kinoyali kulimsira-  
ganicha xonadan chiqdi.

## *Yigirma sakkizinchi bob*

### 1

Xatlibegimning xufiyalari to'rtinchi kuni xuftonda kelishdi. Bu paytda hazrat Ibn Sino Isfahondan G'aznaga nima maqsadda keltirilgani ikki allomaning ham eslaridan chiqqan, zotan, uzluksiz va allaqanday intiq-intizor suhbat bilan bo'lib, butun olam xotiralaridan ko'tarilgan edi!

Odatda, ertalabki nonushta vaqtida boshlanadigan bu suhbatlar aksar tun yarimigacha, hatto tong otguncha davom etar, kunlar tunlarga, tunlar esa kunlarga ulanib ketar, biroq bir-birlarining gapini eshitish ishtiyoqi, hayot, olam va tabiat haqidagi fikrlarini bilish istagi, muloqot chanqoqligi so'nish uyoqda tursin, bal'aks, tobora ortib borardi.

Beruniy, garchi bir mahallar tabiat muammolari to'g'risida, xususan oftob nurlarining hayotiy kuchi, issiqlik va sovuqlik ta'sirida jismlarning kengayishi, torayishi va nihoyat shaharlar oraliqidagi masofalarni o'lchash usullari borasida Ibn Sino bilan ancha munozara qilgan, hatto bu masalalarga bag'ishlangan mak-tublarida alloma degan nomga nomunosib gustohlikka borgan bo'lsa ham, Ibn Sinoning yetuk salohiyatiga, ayniqsa, tibbiyot bobidagi iste'dodiga hech qachon shubha qilgan emas. Lekin, u endigina, rasadxonaning tinch, osuda xonalarida o'tirib, «Al-Qonun» va «Ash-Shifo» kitoblarining mazmunini, nazm, musiqa va falsafaga oid asarlarini o'z og'zidan eshitganidagina uning naqadar buyukligi va olamshumul shuhrati sabablarini anglab olgandek bo'ldi.

Birinchi suhbadayoq negadir tibbiyot masalalari qo'zg'aldi. Ibn Sino Beruniyning iltimosi bilan suhbatni «ilmi tashriq»dan boshlab, undan inson a'zolariga xos kasalliklarga, kasalliklardan davolash usullariga, ya'niki, nabotot olamiga o'tdi, so'ng, yarim hazil, yarim chin tarzda Beruniyning tomirini ushlab, uning dardlarini va hatto bu dardlarni qo'zg'agan sabablarni aytib berdi va shu yerning o'zidayoq doru hozirlashga kirishdi. Garchi,

suhat ustida ikkovidan boshqa hech kim bo'lmasa ham, bu gap zum o'tmay butun rasadxonoga tarqaldi-yu, rasadxonada kimki bo'lsa, yoshu qari, xastayu sog' — hamma hakimi davronga bir ko'rinib qolish orzusini izhor eta boshladi.

Ibn Sino, odatda, «kasal»ning dardini so'rab-suriishtirib ham o'tirmas, ko'z qorachiqclarini, burun kataklari, og'zi va tomog'ini ko'zdan kechirar, lozim bo'lsa yechintirib ko'rar, keyin boshini xam qilganicha, qo'lidan ushlab, tomir urishlariga jimgina quloq solardida, xastaning dardini o'ziga gapirib berardi. Hakimi davronning topqirligidan lol qolgan betob o'zini yo'qotib qo'yar, Ibn Sino esa, shogirdi Abu Ubaydni chaqirib, darhol doru hozirlashni buyurardi.

Beruniy ulug' donishmandlarda chuqur ilm va o'tkir zakovtdan tashqari qandaydir nozik, ilohiy bir tuyg'u bo'lishini bilardi. Ibn Sinoda bu ilohiy va noyob tuyg'u ayniqsa kuchli ekanini Beruniy birinchi daqiqalardan oq sezdi. Nazarida, Ibn Sino ko'zini yumganicha, xastaning bilagini ushlab, uzoq sukutga tolarkan, faqatgina betobning tomir urishlari emas, balki o'z dilidagi ilohiy tuyg'ularga ham quloq solar, bu tuyg'ular esa uni sira «aldamas» edi! Uning gap-so'zlari, muomalasi, fikr-mulohazalarida ham xuddi shunday o'zgacha bir salohiyat va chuqur insoniy nazokat sezilib turardi.

Ibn Sinonning har bir so'zida, chehrasida, horg'in ko'kimtir ko'zlarining allaqanday sokin boqishida hayotda ko'p musibatlarni boshidan kechirgan dono odamlardagina bo'ladigan xiyol ma'yus bir joziba, kishini o'ziga darhol rom qilib olguvchi bir mehrigiyo bor edi!.. Shu boisdan, ular bir-birining dilini, gap-so'zlarini, dardlarini imo-ishoralardan oq ilg'ab olishardi. Ular endi yoshlik chog'laridagiday ko'p munozara va mubohasa qilishmas, bil'aks, bir-birlarining fikr-mulohazalariga chuqur e'tibor bilan quloq solishar, faqat bir masaladagina ko'p tortishardi: Beruniy ko'proq Ibn Sinoni so'zlatgisi kelar, uning kitoblari, olam va tabiat haqidagi o'ylarini ko'proq bilgisi kelar, Ibn Sino esa aksincha, Beruniyni ko'proq gapirtirishni istardi, ayniqsa, Hindis-

tonni ko'p surishtirar, bu yurtning iqlimi, tog'u toshlari, daryo va ko'llari, ummonlari, shaharlari, kuy va qo'shiqlari, o'tmish va hoziri, ertak va rivoyatlari — hamma-hammasini bilgisi kelardi. Kechalari esa, shiftdagi maxsus tuynuk tagida o'tirib, sudsi faxri va boshqa olatlar yordamida yulduzlar holatini kuzatishar, jadval va taqvimlarga aniqliklar kiritishar edi.

Ibn Sino o'zi ham bir mahallar Rayda, malikai Saida iltimosiga ko'ra, rasadxona qurgan edi. Biroq u qurgan rasadxona bu rasadxona oldida ancha g'arib, olatlar ham Beruniy yaratgan olatlarga tenglasha olmas edi. Chunki Beruniy bu rasadxonani qurishda faqat arab va rum munajjimlari emas, hind allomalarning falakiyot bobidagi mashhur asarlaridan ham foydalangan, ko'p olatlarni ham Hindistondan olib kelgan.

Osmon to'la yulduzlarning sirli miltirashi, sayyoralarining olatlar sathidagi aksi ikki allomaning xayolini yana yechilmas muammolar, olam va koinot haqidagi azaliy va serjumboq savollarga burardi. Zotan ularni ayniqsa yaqinlashtirgan narsa ham shu serjumboq savollar, ikkisini ham ko'pdan beri qiynab kelayotgan teran falsafiy o'ylar bo'ldi: olam ne? Hayot ne? Yaratg'uvchi ne?

Ajabo: bu yechilmas falsafiy muammolarga yondashishda ularning o'ylari ham, dardlari ham juda-juda o'xshash edi. Beruniy bu masalada ikki javhar'ni tan olar, ya'niki, borliqning ibtidosi moddiy va ruhiy javhar, deb bilardi. Ibn Sino uning fikriga qo'shildi, faqat yaratg'uvchining mavjudligini ham tan olmoq lozim, deb qo'shib qo'ydi. Zotan, u ham Beruniy kabi olamni yaxlit va murakkab borliq, deb tushunar, hamma mavjud narsalarni ikkiga, ya'ni, zaruriy vujud va imkoniy vujudga bo'lar, ularning o'zaro munosabati esa sabab va oqibat munosabatidir, degan e'tiqodda edi. Beruniy uning gaplarini jon qulog'i bilan eshitar, chunki bu fikrlar uning o'z fikrlari, uni ko'p qiynab, kechalari uyqu bermay yurgan pinhoni o'ylari va pinhoni dardlari bilan hamohang edi! Lekin, e voh, olam haqidagi o'ylari

---

<sup>1</sup> Substansiya.

qanchalik hamohang bo'lmasin, bu o'ylar oxir-pirovardida tag'in o'sha ma'yus fikrlarga, mavjud borliqning boqiyli va bani bashar umrinig o'tkinchiligi, tabiatning mukammalligi va inson hayotining mislsiz norasoligi haqidagi g'amgin xayollarga borib taqalardi. Xayollar esa dillarida tosh bo'lib yotgan «Nechun shunday? Nechun?» degan eski va alamli savollarni tug'dirardi.

Darhaqiqat, nechun shunday? Nechun metin zarurat asosiga qurilgan bu olam, bu cheksiz koinot, bu sayyoralar harakati va tabiat hodisalarida buyuk bir qonuniyat va aql-zakovat mavjud? Bani bashar esa... tirik mavjudotlar mukammali bo'lmish bani bashar esa... xurofot, nechun zulm va adolatsizlik tutqunidan chiqolmaydi? Nechun?..

Rost, olam bino bo'ptiki, hech bir donishmand bu jumboqni yecholmagan. Ular buni bilishadi, bilishgani uchun ham bu to'g'rida kam gaplashadilar, dillarida armon bo'lib yotgan dardu hasratlarini qo'zg'amaslik uchun bu mavzuni ehtiyotkorlik bilan chetlab o'tishga urinadilar, lekin qancha harakat qilishmasin, bu so'nmas dard, haq va adolat haqidagi bu intihosiz armon bot-bot qayta yopirilib keladi-yu, mungli kuyday ko'ngillarini qayta-qayta vayron qiladi.

Ibn Sino birinchi kuni kechasi Isfahonda bo'lgan voqealarni, noyob kutubxonasi yong'inga uchraganini, yolg'iz inisi Abu Mahmudni esa hatto daraklash imkoni ham bo'lmaganini gapirib bergan, kuyunib, yonib gapirib bergan edi. Shu boisdan Beruniy bu gaplarni uning ko'nglidan chiqarishga, diliga ozor beradigan narsalardan uni avaylashga ko'p urindi. Shu boisdan saroydagi mojarolar, xususan, o'zini Ibn Sino deb, sultonning ustiga minib olgan anov makkor hakim haqidagi gaplarni aytgisi kelmadi, nazarida, bu gaplar aziz birodarini qattiq haqorat qilib, diliga chuqur ozor beradigandek tuyuldi. Biroq pastda, xattotlar va shoirlar davrasida istiqomat qilayotgan Abu Ubayd bu mishmishlardan ogoh bo'lib, ustoziga yetkazgan ekan, Ibn Sino o'zi shu to'g'rida so'z ochib qoldi. Beruniy ehtiyotkorlik bilan bo'lsa ham, ba'zi gaplarni gapirib berishga majbur bo'ldi. Ibn Sino



soxta «hakimi davron» to'g'risidagi g'alati hangomani eshitarkan, avval ma'yus jilmayib o'tirdi, oxirida esa qah-qah otib kulib yubordi.

— Baayni ko'ngildagi ish bo'libdi! — dedi u ko'z yoshlarini artib. — Soxta Ibn Sinomi, chin Ibn Sinomi — sultonni davolabdimi — marra o'shaniki! Ofarin va tasanno! Endi, ijozat bersalar — kamina Isfahonga qaytib ketar edim, ustod!..

Beruniy ich-ichidan kuyunib: «O, azizim, azizim! — dedi ichida. — Qani endi sening qaytishingga ijozat olmoq oson bo'lsa!.. Nomi rasadxona, hibsga tushganingdan bexabarsen, azizim! Bu tuzoqdan salomat chiqib ketgaysen, ishqilib!»

...Bugun rasadxonada shamlar yoqilib, odatdagidek, yulduzlarni kuzatishga kirishishlaridan oldin, Beruniy, yarim hazil-yarim chin, zoyicha tuzib, Ibn Sinoning taqdirini aytib berishga ahd qildi. Munajjimlar qoidasi bo'yicha u peshin chog'ida quyoshning holatini belgilab oldi, kechasi zoyicha soniyalarini hisoblab chiqdi, jadval tuzdi, so'ng, Mirrix va Mushtariy yulduzlarining burjlarini aniqladi... Zoyichada shu narsa ayon bo'ldiki, Ibn Sino uchun yaqin kunlarda saodatli onlar boshlanar, uning yulduzi yorug', taqdiri baland edi!..

Beruniy, garchi zoyichaga ishonmasa ham, bu gapni xushnud kulib gapira boshlagan edi, eshik beruxsat ochilib, sallasiga nishon qadalgan baland bo'yli, zanjidek qop-qora bir sarboz kirib keldi. Bu — soxta hakimni boshlab kelgan va Raboti Sangin yonida Xatlibegimning xufiyalarini chopib tashlagan cho'tir mushrif edi! Bu safar u nechundir saroyga Ibn Sino bilan Beruniyni chaqirib kelibdi.

Beruniy hayajon ichida Ibn Sinoga yuzlandi:

— Shoyad hozir zoyichada ko'ringan saodat yulduzi — istiqbolning xayrli foli bo'lsa, azizim?

Ibn Sino indamadi. U, odatdagidek, kinoya aralash g'amgin kulimsirab, o'rmidan turdi.

«Hakimi davron» Abu Shilqim ibn Shahvoniy G'aznaga chin Ibn Sino hazratlari kelganini birinchi bor eshitganida pinagini buzmagan bo'lsa ham, keyin oq astoydil taraddudga tusha boshladi. Taraddudga tushishi-ning boisi esa sultonning salomatligida edi.

Ibn Shahvoniy, garchi tavakkalning tagi tosh ekanini bilsa ham, ishni boshda tavakkaldan boshlagan, sultonni davolashga kirisharkan, dorularining qudratidan ham ko'ra umri bino bo'ptiki, uni hech qachon tark etmagan omadga, qolaversa, afyuni a'loning sehriga inongan edi! Shu boisdan ham sulton uning muolijasi sabab, tez kundayoq shifo topib, o'rnidan turib ketganida ibn Shahvoniyning o'zi ham hayratdan yoqasini ushlagan edi! Zero, sultonning bunchalik tez sihat topishining sirsinoati ne? «Hazrat Ibn Sino» degan nomning sehrimi yoki «Al-Qonun»dan olingan dorularning kuchimi, yoxud afyuni a'loning qudratimi — buni ibn Shahvoniyning o'zi ham bilmas edi! Shu sababdan birinchi kunlari bu mo'jizadan o'zi ham lol qolib, toleiga shukrona bildirgan edi. Lekin so'nggi kunlarda, xususan, G'aznaga chin hazrat Ibn Sino tashrif buyurgani haqida gap tarqalgandan beri nima ham bo'ldi-yu, sultonning sihati xiyol orqaga keta boshladi. Buning sababi ne? Dorularning kuchi ketdimi yo afyuni a'loning ta'siri susaydimi yoxud hazrat Ibn Sino uzoqdan turiboq sehr qildimi — ibn Shahvoniy bu sir-asorning ham tagiga yetolmay garang. Bosh ustiga, so'nggi paytlarda nechundir juda pitirlab qolgan Abul Hasanak bugun har kungidan ham noxushroq bir xabar keltirdi. Go'yo sultonning suyukli singlisi Xatlibegim Ko'handiz qal'asida yashirib yotgan anov qari quzg'un Ali G'aribni chaqirtirib olgan emish. «Bu makkor tabibni o'zing topib, o'zing sultonning qahriga duchor bo'lgan eding, endi uni o'zing daf etmog'ing lozim», deb ul shaytonni ham gijgijlagan emish! Xatlibegimdan madad olgan Ali G'arib esa, amirul umaroni ishga solib, Abul Hasanakning odamlarini chetlatayotgan emish, hatto saroy darvozalariga

ham o‘z nadimlari va o‘z sardorlarini qo‘ygan emish. Shundaykim, shu bukun Xatlibegim Isfahondan kelgan hazrat Ibn Sinoni sultonga ro‘baro‘ qilib, ularni fosh etmoq niyatida emish!..

Abul Hasanak bu gaplarni shunday bir sovuq vahima bilan gapirdiki, ibn Shahvoniyning xayoliga kelgan birinchi fikr qochmoq bo‘ldi! Biroq qandaydir ichki bir tuyg‘u, eng xatarli onlarda uni qaltis yo‘llardan hamisha asrab kelgan ichki bir tuyg‘u bu safar ham yordamga keldi-yu, tiliga kelgan gapni ichiga yutdi.

— Davlatpanohning ahvoli qalay! — dedi Abu Shilqim ibn Shahvoni yuragini chulg‘ab olgan sovuq tahlikani jilovlashga urinib.

— Olampanoh hanuz uyqudalar. Kechasi bergan dorungiz...

— Uyqu — salomatlik garovidir! — dedi ibn Shahvoni yuzining so‘zini bo‘lib. — Anov yosuman... Xatlibegim qachon keladi?

— Barcha xufiya ishlar saroyda tunda bo‘ladi! Kechasi, xuftondan keyin kelmog‘i darkor, hazratim.

— Bir o‘zimi yo isfahonlik anov makkor... O‘zini Ibn Sino deb yurgan anov makkor tabibni ham boshlab kelurmi?

«Ul Ibn Sino yolg‘on emish! Ul yolg‘onu, bu battol chin Ibn Sino emish! Ofarin!»

Abul Hasanak alam bilan bosh chayqab:

— Qani endi... yolg‘on Ibn Sino yolg‘iz bo‘lsa? — dedi. — Yonida guvohi ham bor!

— Guvohi?

— Ha, G‘aznada Abu Rayhon Beruniy degan bir allomai betavfiq borkim, bu kimsa chin Ibn Sinoni tanir emish!

— Chin Ibn Sino! — dedi ibn Shahvoni yuzining to‘satdan ko‘zlari chaq nab. — Chamamda, Xatlibegim topgan bu makkor hakimning chin Ibn Sin ekaniga vazir janoblari ham inonib qolganga o‘xshaydurlar?

— Yo‘q-yo‘q, kamina...

Ibn Shahvoni yuzining betoqat qo‘l siltab, Abul Hasanakning gapini bo‘ldi:

— Avval taom, ba'daz kalom! Sharob va taom, janobi vazir!— buyurdi u va eshikka borib qolgan Abul Hasanakni to'xtatdi.— Ha, yodimda borida aytib qo'yay: olampanoh bukun namozi asrgacha uxlaydilar. Uyg'ongan zahoti mana bu doruni bergaysiz!

— Oftobi olam uyg'ongan zahoti siz hazratimni yo'qlaydilar.

— Yo'qlasalar, bir bahona topgaysiz! Kamina namozi asrdan keyin olampanohning huzurlarida hozir bo'lamen. Ungacha... eng yaxshi sharoblardan toptiring! Lozim bo'lsa... anov imonsiz Malikul sharobga odam yuboring! Eng ko'hna, eng a'lo maylaridan oldiring! Yodingizda bo'lsin, janob vazir: bukun bizning qismatimiz olampanohning ahvoli ruhiyatiga bog'liqdur! Bas! Olgan dorularingizni o'z vaqtida berib, ortidan yaxshi may tuting! Qolganiga kamina o'zim yo'l topamen. Inshoollo, ishimiz o'ngidan kelur!.. Ha, to'xtang, tag'in bir so'z! — Ibn Shahvoniy shunday deb, Abul Hasanakni yana to'xtatdi. — Basharti... omad yor bo'lib, amiralmo'minin ul firibgarni... o'zini Ibn Sino deb, yurtni to'nab yurgan ul battol hakimni tark etsalar... uni darhol yo'qotmoq darkor!

Ibn Shahvoniy vazir janoblari chiqib ketguncha kutib turdi-da, yerga to'shalgan mayin ipak gilamlarni bir-bir bosib, o'z xosxonasini bir aylanib chiqdi.

U G'aznaga hazrat Ibn Sino kelganini eshitganidan beri oyog'i tagidan chiqqan bu «baloi nogahon»ga qarshi chora qidirar, biroq qancha qidirmasin, xayoliga biror tuzuk fikr kelmas edi. Hozir ham nima qilishini bilmas, o'ktamlikda sultondan qolishmaydigan uning shaddod singlisi Xatlibegim hazrai Ibn Sinoni boshlab kelganida nima tadbir ko'rishini tasavvur etolmas edi.

Lekin bakovullar keltirgan sharobdan bir kosa ichib, issiq bedana kaboblardan yeb, kimsasiz, osuda xosxonani asta aylanarkan, to'satdan miyasiga g'aroyib bir fikr keldi-yu, yana xontaxtadagi may to'la ko'zaga qo'l cho'zdi. Uning miyasiga kelgan bu fikr shunday noyob va shunday g'alati ediki, Abu Shilqim ibn Shahvoniy ustustiga yana bir necha kosa may ichib, to'rdagi banoras

ko'rpachalarga yonboshladi. U kallasida yulduzday «yarq» etgan bu fikrga sayqal berib, xayolida uni obdan «pishitmoqchi» edi, biroq so'nggi kunlardagi tashvishu tahlikalar tamom holdan toydirgan ekan, miyasida hamon o'sha o'y, o'sha tashvish, pinakka ketganini o'zi ham sezmay qoldi.

U kimningdir turtkisidan uyqondi. Tokchadagi kumush shamdonlarga terilgan shamlar yoqilgan, xona kunduzgiday yorug' edi. Tepasida vazir janoblari qo'l qovushtirib turar, uning horg'in yuzidagi kunduzgi tashvish, bir kundayoq kirtayib qolgan ko'zlaridagi kunduzgi qo'rquv hanuz so'nmagan edi.

— Tursinlar, hazratim, davlatpanoh yo'qlaydur sizni.

— Kayfiyatlari qalay olampanohning?

— Kayflari chog', ammo... hozir Xatlibegim anov... hazrat Ibn Sinoni boshlab keladur...

Ibn Shahvoniy go'yo tanasiga ilon tekkanday bir sapchib tushdi, biroq shu zahotiyuq kunduz miyasiga kelgan g'aroyib fikr yodiga tushdi-yu, miyig'ida kulimsiraganicha, o'rmiidan turdi.

Chor atrofi parqu yostiqlar bilan o'ralgan sulton pinhoni ishratxona yonidagi shabistonning to'rida yonboshlab yotar, uning oldidagi sakkiz qirrali o'ymakor xontaxta odatdagiday noz-ne'matlarga to'la, may solingan billur idishlar, barkash-barkash somsalar, lagan-lagan parranda go'shtlari, shinni va sharbat quyilgan guldor piyola va taqsimchalar dasturxonga sig'mas, faqat xonanda va sozandalar yetishmas edi, xolos.

Sulton, nechundir, yorug'ni ko'p xushlamas, shiftdagi ulkan chamberak qandilga terilgan shamlarning uchdan birigina yoqilgan, shabiston nimqorong'i, shuning uchun ham sultonning yuzi yaxshi ko'rinmas edi.

Abu Shilqim ibn Shahvoniy tavozi bilan salom berib, xontaxtaning ro'parasiga cho'nqaymoqchi edi, sulton kulimsirab yonidan joy ko'rsatdi. Ibn Shahvoniy itoatkorlik bilan sulton ko'rsatgan joyga o'tib o'tirarkan, yer ostidan amiralmo'ninga bir qarab oldi-yu, darhol yengil tortdi. Mayga qo'shib berilgan afyuni a'lo yaxshi

ta'sir etgan chog'i, sultonning lablarida kulgu, chuqur botgan qisiq ko'zlarida xushnud tabassum o'ynardi.

— Ajab hol, hakim hazratlari bukun o'z odatlariga xilof xiyol xomush ko'rinadilar? Kun bo'yi qayda edilar, hazratim?

— Kamina... kun bo'yi siz valine'matimga doru tayyorlash bilan band bo'ldim, oftobi olam!

— Tashakkur va tasanno! — dedi sulton, siyrak moshguruch soqolini silab. — Yaratgan egamga shukur, mana, avvalambor, xudovandi karim, ikkilamchi, siz hazratimning duoi jonlari va muolijalari sabab, men ham bukun dilim xush, jismim osoyish, o'ltiribmen kuy va musiqa ishqida!.. Ammo siz... siz qattiq charchabsiz, hazratim. Oling, bir piyola may sipqaring, toki charchoqlaringiz daf bo'lib, ko'nglingiz yayrasin!

Ibn Shahvoniy mahzun bosh chayqab, sekin uf tortdi.

— Nechun oh chekasiz? Sizga ne bo'ldi, hazratim?

Ibn Shahvoniy yana ovozi g'amgin titrab:

— Oftobi olam! — debi xitob qildi. — Bu bevafo dunyoda neki g'am-anduh bo'lsa bizday faqiru haqirlar boshiga tushgay. Sizday oftobi olam esa...

— Yo'q! — dedi sulton mamnun kulimsirab. — Dilingizda ne anduh bor — to'king barini!..

— Agar olampanoh bir qoshiq qonimdan kechsalar...

— So'zlang, hazratim!

— So'zlasam... — Ibn Shahvoniy nafasi bo'g'ilib, bir zum duduqlanib qoldi. — Bukun kechasi... kamina yomon tush ko'ribmen, uni aytishdan ham qo'rqamen, davlatpanoh!

— Yomon tush? — sulton, negadir, «hazratlari»dan nariroq surilib o'tirdi.

— Xo'sh? Xo'sh?

— Tushim shundaykim, siz valine'mat «ne'mati ilohiy»ga yo'llagan anov bevafo vaziri a'zam Ko'hi Sarandipdan qaytib kelgan emish.

Sulton allaqanday rangi o'chib:

— Xo'sh? — dedi. — Olib kelibdimi ul «ne'mati ilohiy»ni?

Ibn Shahvoniy alam bilan bosh chayqab:

— Siz ham ul betavfiqdan shu soʻzni soʻrar emishsiz, olampanoh!

— Xoʻsh? — dedi sulton betoqat boʻlib. — Ul betavfiq ne dedi?

— Ul betavfiq oyoqlaringiz ostiga yiqilib, «neʼmati ilohiy»ni topmaganini arz qilar emish.

— Hmm...

— Va lekin, dermishkim, olampanoh bir qoshiq qonimdan kechsinlar, «neʼmati ilohiy» oʻrniga hazrat Ibn Sinoni topib keldim! — der emish ul quzgʻun.

— Hazrat Ibn Sino?

— Shunday, valineʼmat! Ul quzgʻun hazrat Ibn Sino deb shunday bir kimsani boshlab kelgan emishkim, ul kimsa kaminaga goʻyo egizak qoʻziday oʻxshar emish!

— Ajab tush! — Sulton ibn Shahvoniyning soʻzini oxirigacha eshitmay, oldindagi may toʻla yoqut piyolani olib asta sipqardi-da, yoshli koʻzlarini artdi.

— Darhaqiqat, ajab tush? Xoʻsh, xoʻsh? Uyogʻi ne boʻldi?

— Uyogʻi... siz olampanoh ul qallobdan soʻrar emishsizkim: sen topib kelgan bu kimsa hazrat Ibn Sino boʻlsa, bu kim, deb kaminai kamtaringa ishora qilar emishsiz, davlatpanoh!

— Xoʻsh, xoʻsh?

— Ul kazzob esa... ul kazzob faqirni koʻrsatib: «Oftobi olam! — deb faryod chekarmish. — Siz inonib yurgan bu makkor chin Ibn Sino emas, oʻzini Ibn Sino deb el-ulusni toʻnab yurgan bir battol, chin hazrat Ibn Sinoni men topib keldim, olampanoh», deb oʻzi boshlab kelgan kimsani koʻrsatar emish!

— Yo tavba, bu ne tush? — sultonning labidagi kulgu asta soʻnib, goʻyo yuziga yana sovuq niqob kiyib oldi.

— Bas! Oxiri ne boʻldi bu tushning? Oxirini soʻzlang, hazratim!

— Oxiri... — Ibn Shahvoniy tomogʻi gʻip boʻgʻilib, «qult» etib yutindi. — Oxiri... Hayhot! Siz olampanoh ham ul quzgʻunning soʻziga inonib, faqirni jallodlar qoʻliga topshirdingiz!..

— Siz esa... Bu tushga ishonib, anduh chekib o'ltirib-siz! — Sulton allaqanday bo'g'iq tovushda qah-qah otib kuldi. — G'am yemang, hazratim. Donolar aytmoqchi, suv aksiga oqmaydi, ammo tush aksiga yuradur!

Sultonning so'zi og'zida qoldi. Nogahon eshik beruxsat ochilib, xonaga... Xatlibegim kirib keldi.

Ibn Shahvoniy bu xotin to'g'risida juda ko'p eshitgan bo'lsa ham, o'zini birinchi ko'rishi edi, beixtiyor seskanib, a'zoyi badanidan qora ter chiqib ketdi.

Egnida odatdagidek to'pig'iga tushgan qora shoyi ko'ylak, boshida zar sochilgan qora shoyi ro'mol, yuzida harir qora durra, Xatlibegim, poygakda to'xtab, sulton bilan ibn Shahvoniyga bir zum unsiz tikilib qoldi, so'ng, qushday talpinib borib, sultonning oyog'iga cho'kkaladi.

— Og'ajonim! Mehriboni soyabonim, og'ajonim!..

Sulton, qovog'i soliq, qoqsuyak qo'lini singlisining yig'idan titragan ozg'in yelkasiga qo'ydi.

— Tun yarmida bu ne yurish? Kim chorladi seni, oppog'im?

— Og'ajon! — dedi Xatlibegim to'satdan faryod chekib.— Besh vaqt namozni kanda qilmay shukr qoidasini bajo keltirib yurgan sizday amiralmo'minin!.. Endilikda bu may, bu rindona kayfiyatlar!.. Sizni hidoyat yo'lidan urgan bu firibgar afsungarni qaydan topdingiz, og'ajon?

Sulton, xuddi kaftiga cho'g' tekkanday, qo'lini singlisining titroq yelkasidan tortib oldi.

— Bu ne so'z, ne qiliq, Xatli? O'lim to'shagida yotgan og'angga sihat keltirgan, dong'i olamga ketgan hakimi davronni firibgar demoq!..

— So'zimga inoning, og'ajon! — Xatlibegim yuzidagi durrasini jahl bilan yelkasiga otib, yosh bilan yuvilgan yuzini ochdi. — O'zini «hakimi davron» deb yurgan bu quzg'un, chin Ibn Sino emas, yolg'on Ibn Sino, og'ajon, yolg'on Ibn Sino! Chin hazrat Ibn Sino endi kelmish, og'ajon! So'zimga inoning — endi kelmish!

Ibn Shahvoniy yalt etib sultonga qaradi.

— Yopiray! Tushimmu bu, o'ngimmu?

Xatlibegim uning so'ziga e'tibor bermay o'rnidan sapchib turdi-da, shitob bilar yurib borib, eshikni ochdi:



— Taqsim! Hakimi davron... Ibn Sino hazratlari! Marhamat qilgaysiz!..

O'tirgan joyiga haykalday qotib qolgan Abu Shilqim ibn Shahvoniy, nogahon allaqanday pitir-pitir qilib o'rnidan turmoqchi bo'lgan edi, sulton, sovuq kulimsiraganicha, uning tizzasiga qo'lini qo'yib to'xtatdi.

Eshikda... Abu Ali ibn Sino ko'rindi. Egnida yangi kimxob to'n ustidan kiyilgan yangi oq rido, boshida ko'k taqya ustidan o'ralgan oppoq simobiy salla, u poygakda to'xtab, bosh egib salom berdi, salom berarkan, avval sultonga, so'ng uning yonida o'tirgan Abu Shilqim ibn Shahvoniyga zimdan bir qarab oldi.

«Qoradori! — Ibn Sino eshikdan kirib sultonga ko'zi tushishi bilanoq bu fikr xayolida chaqmoqday chaqnadi. — Bundan chiqdi tabib kiyimidagi bu odam.. Yo tavba! Nimasi bilandir unga o'xshab ketadigan bu qirg'iyburun, xushsurat odamni qaerdadir ko'rgan edi u! Lekin qaerda? Qachon?..»

O'rta cho'kkan mudhish jimlikda Abu Shilqim ibn Shahvoniyning:

— Subhonollo! — deb shivirlagan hayajonli titroq ovozi eshitildi. — Yo tavba! Tushim! Xuddi tushimda ko'rganlarim, olampanoh!

Xatlibegim bir to'rda allanimalarni pichirlab o'tirgan Ibn Shahvoniyga, bir eshikda hamon bosh egib turgan ibn Sinoga qaradi-yu, yana boyagiday: «Og'ajon!» deb xitob qildi. Biroq sulton qo'lini ko'tarib singlisini to'xtatdi. U ham avval poygakda qo'l qovushtirib turgan Ibn Sinoga, so'ng o'ng tomonida allanimalarni pichirlab o'tirgan Abu Shilqim ibn Shahvoniyga uzoq tikilib qaradi-da, siyrak murtini silab, kinoyaomuz kulimsiradi.

— Ajab hol! Bir joyda, bir mahalda ikki Ibn Sino! Ikki hakimi davron!.. Bu g'alati jumbog'ni kim yechadi? — Sulton shunday deb, eshikda hamon jimgina bosh egib turgan Ibn Sinoga qaradi.

— Og'ajon!

— Shoshma, Xatli! Hazratlari so'zlasin avval!

Ibn Sino yer ostidan to'rda o'tirgan kimsaga yana bir

qarab oldi. Kimsa, rangi devor, hanuz aqlidan ozgan odamday allanimalarni pichirlab o'tirardi.

«Yo'q, Ibn Sino yanglishmadi, u bu odamni qaerdadir ko'rgan! Ko'rgan! Biroq... qayerda? Qachon? Vo darig'! Nahot bu... bu o'sha, yoshlik chog'larida Buxoroi sharifda, Juyi Mo'liyon dahasida birga o'sgan Abu Halim ibn Faysal... yo'q-yo'q, Abu Halim emas, shilqimligi va fohishabozligi uchun Abu Shilqim ibn Shahvoniy, deb nom chiqargan erkatoiy boyvachcha bo'lsa? Ha, o'sha! Xuddi o'zi!! Yo tavba!»

Sulton esa... may va afyundan qisiq ko'zlari nosog'lom chaqnaib o'tirgan bu sarmast, qoqsuyak odam Ibn Sino tasavvur etgan sulton Mahmud G'aznaviyga, qirq yil olamni titratib turgan fotihi muzaffarga ham o'xshar, ham o'xshamas edi! Uning qurigan terakday uzun, qoqsuyak gavdasida, butun qahri vajohatida sahnronishin hokimlarga xos pinhoni bir kuch sezilib turar, biroq ajal muhri bosilgan yalpoq sarg'ish yuzida, qisiq ko'zlarining nosog'lom chaqnashida kishini cho'chitadigan telbanamo bir vahima bor edi!..

Ibn Sinoning xayolini sultonning sovuq zaharxandasi bo'ldi.

— Ha, nechun og'izlariga talqon solib oldilar? So'zlasinlar, hazratim!

Ibn Sino ta'zim bajo keltirib:

— Olampanoh kechirgaylar! — dedi bilinar-bilinmas kulimsirab. — Shu bugungacha faqir Abu Ali ibn Sino ekanimga ishtiboh qilmas edim. Va lekin endi, huzurlarida bu hazratlarini ko'rib, o'zimga-o'zim inonmay qoldim, poshshoyi olam!

Abu Shilqim ibn Shahvoniy sultonning qulog'iga egilib:

— Yo tavba! — deb shivirladi. — Tushim! Xuddi tushimda ko'rganlarim, olampanoh!

«Tush» so'zini eshitgan sulton to'satdan qisiq ko'zlari yarq etib ochilib ketdi.

— Seni bu dargohga kim yo'lladi, kim seni hakimi davron Ibn Sino deb dong taratdi, ey osiy banda? «Ne'mati ilohiy»ga ketgan anov quzg'un... vaziri a'zam qayda?

Xatlibegim yana sultonning yoniga tiz cho'kib, uning katta, qoqsuyak qo'llarini o'pdi.

— Oftobi olam! Ibn Sino hazratlarini topib kelgan vaziri a'zam emas! Bu zoti sharifni siz olampanohga sadoqati boqiy farzandingiz shahzoda Mas'ud yo'llagan-dur, og'ajon!

Shahzoda Mas'ud nomini eshitgan sulton kutilma-ganda qaltiroq bosib, sovuq kuldi:

— Agar amir Mas'ud yo'llagan bo'lsa, hazratlariga inonmoq darkor!

— Og'ajon! — Xatlibegim sultonning qo'lini qo'yib yubormay qayta-qayta o'pdi. — Nechun inonmaysiz, og'ajon? Hazratlarini taniydurg'on odamlar bor. Mavloni Abu Rayhon Beruniy bor!

— Mavloni Beruniy ne kerak bu ishda? Kim chin Ibn Sino, kim yolg'on — bu jumboqni hozir o'zim yechamen! — Sulton qo'lini singlisining qo'lidan tortib olib qaddini rostlab o'tirdi. — Ul «ne'mati ilohiy» qayda o'sadi? Kimki chin Ibn Sino bo'lsa — buni bilmog'i darkor! Bu ilohiy doru uning yonida bo'lmog'i darkor! So'zim to'g'rimu, hazratim?

Ibn Shahvoniy birdan yuziga qon yugurib:

— Tasanno, oftobi olam! — deb yubordi. — Buyuk donolikning nishonasidur bu so'z!

Ibn Sinoning yodiga «ne'mati ilohiy» to'g'risidagi Beruniyning hikoyasi tushdi-yu, labidagi kulgini yashirish uchun boshini pastroq egdi. U dorus saltanada bo'layot-gan g'aroyib hangomalarning bir chekkasini eshitgan bo'lsa ham, bunday hiylayu nayrangga duch kelishini tasavvur etmagan edi. Uni ayniqsa sulton lol qoldirdi. U davosiz dard bani odamni har ko'yga solishini bilsa ham, bu qaysar hokimi mutlaqni bunday ayanchli va junun holda ko'raman, deb o'ylamagan edi. Uning o'zi-chi? Kelib-kelib qarigan chog'ida, bu berahm, mustabid shoh saroyida «ne'mati ilohiy» haqidagi jumboqni yecholmay «soxta Ibn Sinoga aylanishini» tasavvur etganmidi? Darhaqiqat, bu teskari dunyoning telba o'yinlarini anglab bo'lmas ekan!

Ibn Sino hamon o'yga tolib, poygakda bosh egib

turar, uning dilidagi hislar quyunday charx urar, alam zaharxandaga, zaharxanda achchiq alamga aylanar edi.

— Xo'sh, nechun hazratlari tili lol, qulog'i kar bo'lib qoldilar? Chin Ibn Sino bo'lsalar, jumboqni yechsinlar, hazratim!

Ibn Sino lablaridagi alamli kulguni yashirishga urinib:

— Oftobi olam bir qoshiq qonimdan kechgaylar! — dedi ohista. — Faqir shu bukungacha o'zimni Ibn Sino deb yurgan edim, ammo endi Ibn Sino emasligimga inondim, zero, olampanohning bu savolini yechishga ojizmen!

Sulton yostig'ining tagidan oltin shaqildog'ini olib shaqillatmoqchi bo'ldi. Biroq Ibn Sino kutilmagan bir qat'iyat bilan qo'lini ko'tarib uni to'xtatdi. Uning ko'kka moyil katta-katta ko'zlarida, qalin qoshlarining chimirilishida, talvasasiz, mag'rur va vazmin turishida kishini o'ziga rom qiluvchi shunday bir kuch bor ediki, sulton bu zohiriy kuchga beixtiyor taslim bo'lib, shaqildog'ini ko'targanicha qotib qoldi.

— Hakimlar hech qachon, hech kimga hatto o'z g'animlariga ham, alxusus, ular betob bo'lsa, — dedi Ibn Sino har bir so'zini chertib-chertib, — yomonlik tilagan emas. Kamina sizga ham sihat tilaymen, amiralmo'minin! Hakim hazratlariga esa... — Ibn Sino sultonning yonida hamon pitirlab o'tirgan ibn Shahvoniya qarab, miyig'ida kuldi. — Janob Abu Shilqim ibn Shahvoniyni esa hazrat Ibn Sino bo'lganlari bilan chin qalbimdan qutlaymen!

Ibn Shahvoniy shitob bilan o'midan turib:

— Farmoni oliy — amri xudodur! — deb baqirdi. — Daf qil bu mug'ambirni, Abul Hasanak!

— Og'ajon! — Xatilibegim, ko'zida yosh, sultonning tizzasidan quchdi, biroq sultonning qandaydir suyuqlik to'la idishga qo'l cho'zganini ko'rib, o'midan sakrab turdi-da, o'zini tashqariga urdi. Zum o'tmay yo'lakdan uning:

— Hazratlarini qo'yib yubor, hezbachcha! — degan bo'g'iq, o'ktam ovozi eshitildi.

## Yigirma to'qqizinchi bob

### 1

Yo tavba! Yo alhazar! «Al-Qonun» va «Ash-Shifo»ni yaratib, dong'i butun olamga ketgan, hakimi davron va hattoki shayx ur-ra'is nomini olgan xazrat Ibn Sino yolg'onga chiqib, ikki makkor vazir firib niyatda «o'ylab» topgan bir iblis chin Ibn Sino deb topilmish! Buyuk allo-ma va pok inson haqoratomuz so'zlar bilan saroydan haydalib, Ibn Sinoning nomini bulg'ab ahli mo'minni to'nab yurgan bir shaytoni lain bo'yi barobar ganjga ko'milmish!.. O, bu telba dunyo, telba dunyo!

Beruniy hech qachon bunchalik fig'oni chiqmagan, hech qachon bunchalik darg'azab bo'lmagan edi. Nazarida, Ibn Sinoni emas, uning o'zini mislsiz tahqir qilishgan, Abu Alini emas, uni soxta Beruniyga chiqarib, saroydan haydashgan edi!..

U yuragini o'rtagan ichki alamdan cho'zinchoq qoramag'iz yuzi battar qorayib, rasadxonaning keng, osuda xonasini tinimsiz aylanar, goh oyoq ostidagi olatlar va kursilarga qoqilar, goh rasad tuynugi oldida to'xtab, ko'kdagi yulduzlarga tikilganicha alamli sukutga tolar, biroq zum o'tmay mash'um voqea qayta esiga tushardi-yu: «O, mal'unlar, mal'unlar!» deganicha yana asabiyl holatda rasadxonani aylanishga kirishar edi.

Ibn Sino esa, aksincha, odatdagidan ham vazmin ko'rinar, lablarida, horg'in ko'zlarida xiyol mahzun tabassum, Beruniyni tinchitishga urinar, dam-badam kulib:

— Kuyunmang, ustod! — deb yolvorardi. — Bani odam bino bo'ptiki donolar g'urbatda, nodonlar izzatda emasmu? Nechun ajablanasiz, ustod?

Beruniy yurishdan to'xtadi, ko'zini yumib, qattiq uf tortdi.

— Yo'q, men ajablanmaymen, Abu Ali! Sen aytdan achchiq haqiqatni faqir ham bilamen. Va lekin bilsam ham toqat qilolmaymen. Har safar bu mash'um haqiqat yuragimni tilka-pora qiladi, illo men qornimga emas, qadrimga yig'laymen. Senday allomalarning qadriga yig'laymen, azizim Abu Ali!

— Ne chora, ustod? O'zingiz bilasiz, donolar faryodi ko'kka borib yeta bermas ekan! To'g'risini aytsam, kamina taqdirning bu o'yinidan hatto minnatdormen! Mening yolg'iz istagim — tezroq, iloj bo'lsa bugun-ertadan qolmay bu yerdan ketmoq!

Beruniy yana yurishdan to'xtab, tasdiq ishorasida boshini egdi.

— Ha, ha, sen ketmog'ing darkor, azizim. Bu notinch shahardan tezroq ketganing ma'qul. Ammo... qanday ketasen? Senga ot-ulov kerak, oziq-ovqat kerak, yo'l ko'rsatadigan odamlar kerak!..

Ibn Sino bolalarcha bir samimiyat bilan ko'zini qisib kuldi:

— Siz sarbozlar qurshovida qolgan bu rasadxonadan olib chiqa olsangiz bas, uyog'iga kamina o'zim yo'l topamen, ustod.

— Yo'q, yo'l topish sen o'ylagancha oson emas, Abu Ali. Sen sulton Mahmud ayg'oqchilarini tasavvur ham qilolmaysen!

— Tasavvur qilamen, ustod. Ammo G'aznada Malikul sharob degan bir darvesh bo'lmog'i darkor. O'shal darveshga yo'l topib bersangiz bas...

Beruniy ko'zlarini katta ochib:

— Malikul sharob? — deb xitob qildi. — Sen... sen ul darveshni qaydan bilasen, Abu Ali?

Ibn Sino o'ziga yarashgan mosh-guruch soqolini silab, xushnud kuldi:

— Faqir bilmagan sir-asror yo'q, ustod! Malikul sharob uyoqda tursin, hatto bu yurtda sulton Mahmudga qarshi qilich charxlagan bahodirlarni ham bilamen!

— Yopiray! Kim ekan ul bahodirlar?

Ibn Sino eshikka bir qarab oldi.

— Imom... Ismoil G'oziy!..

Beruniy ham beixtiyor eshikka ko'z tashladi.

— Imom Ismoil?

— Balli, ustod! Ahvolimdan Malikul sharob xabar topsa bas, ul imomga yetkazadi. Alqissa, bu tutqundan pinhona qutulub chiqsak, uyog'i imom Ismoilga havola. Faqat Malikul sharobni topib, uni bu ishdan ogoh qilmoq lozim, xolos!

Malikul sharob hibsdan ozod bo'ldimi, yo'qmi —

Beruniy bundan bexabar edi. Lekin uning xayoliga kelgan bu fikrni boshqa o'y, boshqa savollar surib chiqdi: G'aznadan uch yuz farsang yiroqda yurgan Abu Ali Malikul sharobni qaydan biladi? Imom Ismoilni-chi? Nahot Malikul sharob imom bilan pinhoniy aloqada bo'lsa?

Tog'u toshlar orasiga makon qurib, boy tijorat ahli va man-man degan a'yonu boyonlarni zir titratib yurgan, lekin hech kimga, hatto sulton Mahmud lashkarlariga ham tutqich bermay kelayotgan, maschitlarda allaqachon la'natlangan bu isyonkor, dovyurak odamni bilsayu, bu sirni undan, qil o'tmas qadrdoni Abu Rayhondan sir tutsa?

Beruniyning chuqur o'yga tolganini ko'rgan Ibn Sino allaqanday hijolat chekib:

— Siz ko'p qayg'urabermang, ustod! — dedi. — Agar Malikul sharob bo'lmasa...

— Malikul sharobni so'rab-surishtiraman, — dedi Beruniy. — Ammo... — Uning xayolidan: «Malikul sharob hibsdan chiqdimi, yo'qmi — buni o'zim ham bilmaymen!» degan fikr o'tdi-yu, bu fikrni ichiga yutib, takrorladi. — Darhol surishtiraman!

— Ammo rasadxona sulton nazoratida! — dedi Ibn Sino, go'yo uning fikrini ilg'ab olib. — Kaminani mana shu narsa tashvishga solmoqda. Chunki... imom Ismoil navkarlari bostirib kelsa qon to'kilishi muqarrar. Faqir esam... qon to'kilishini istamaymen!..

— Uning ham chorasi topilur! — dedi Beruniy. — Rasadxonaning ostida tog' ortiga olib chiqadigan lahim<sup>1</sup> bor! Ehtiyot shart deb, sulton o'zi qurdirgan bu lahimni!

Ibn Sino yalt etib Beruniyga qaradi.

— Kamina bu lahimdan chiqib qochsam... sizning ahvolingiz ne bo'lur? Boshingiz baloga qolmasmu, ustod?

Beruniy betoqat bosh chayqab, uning so'zini bo'ldi:

— Bu bosh ne musibatlarni ko'rmagan bosh, Abu Ali! Boshga tushganini ko'z ko'rar, deydilar! Kaminani bu tashvish emas, noraso dunyoning nopok ishlari kuydiradi, Abu Ali!

— Ne chora, ustod?

---

<sup>1</sup> L a h i m — yer osti yo'li.

Yo'q, ko'hna olamning bu teskari o'yinlari ikkalasi uchun ham yangilik emas. Ikkisi ham bu azaliy adolatsizliklardan nola qilish befoyda ekanini nozik his etadi, shu boisdan ham ko'p musibatlarini boshlaridan kechirib, ko'nikib ketgan allomalarga xos bir donolik bilan dam xiyol kulimsirab gapirishar, dam mahzun o'ylarga ketishar edi. Biroq tirik odam, goho-goho, alamli o'ylar xuruj qilib kelganda, xususan Beruniy, to'satdan portlab ketganini o'zi ham sezmay qolardi.

Bu safar Beruniy qo'llarini ko'ksida qovushtirganicha, osmonga tikilib uzoq sukutga toldi, so'ng, qahrli bo'g'iq ovozi allaqanday samimiy va o'ychan ohang kasb etib, tiniq yangradi:

— Yo tavba! Bu go'zal olam, bu musaffo osmon, bu yorug' yulduzlar, qo'yingki, bu mukammal olamni bunyod etgan xudovandi karim, nechun o'z bandasini bundayin nomukammal qilib yaratdi? Agar bu foniylar dunyo, Abu Ali, sen aytganday buyuk zarurat va yetuk aql-idrok asosiga qurilgan bo'lsa, nechun bu ulug' qonuniyat bani bashar hayotiga kelganda o'z kuchini yo'qotdi?

— Osiy bandangni o'zing kechirgaysen, e Yaratgan egam! Va lekin... agar bandangni loydan yaratib, unga o'z nafasingdan ufurib jon ato qilganing rost bo'lsa, nechun bu jon bilan birga unga jaholat va qalloblik, xudbinlik va razolat yanglig' tuban istaklarni qo'shib berding? Nechun unga boshqa hech bir tirik zotga ato qilmagan o'tkir tafakkur va yetuk aql-zakovat in'om etib, bu aql-zakovatni tubanlik, razolat va qabohat yo'lida ishlatmoqni ravo ko'rding? — Beruniy, go'yo ko'kdan sado kutganday, bir nafas sukutga cho'mdi. Ibn Sino go'yo uning mungli kuyday sokin oqqan ovoziga sehrlanganday boshini osiltirganicha mahzun xayollarga tolgan edi.

— Yo'q! — dedi Beruniy, hamon dard to'la o'sha o'ychan ovozda. — Kamina bid'at va xurofot asirlari bo'lmish ulamoi zabardastlar aqidasi g'arib kalomlariga inonmaymen, e sarvari koinot. Kamina ham, azizim Abu Ali kabi bu olam zarurat qonuniga qurilganiga inonamen, bani odam esa sen ato qilgan aql-idrok va insofu adolat asosida hayot kechirmog'i lozim ekaniga imon keltiramen! Ammo bu tubanliklarni ko'rib yana o'z



o'timda o'zim qovurilamen. Ne chora? Axir o'zing ato qilgan aql-zakovat qayda-yu, bani bashar hayotidagi bu tubanlik va bu razolat qayda? Shu boisdan irodang va qudrating oldida sajda qilgan ojiz banda, sen yaratgan bani bashar hayotidagi bu qabohat va jaholatni idrok etishga ojizmen, ojizmen!..

Ibn Sino asta yurib Beruniyning yoniga bordi. Go'yo uning teran o'ylarini hurkitib yuborishdan qo'rqqanday, sekin uning yelkasidan quchdi.

— Behuda iztirob chekasiz, ustod! Zero, siz aytgan bu razolat va jaholat yangilik emasdur bu ko'hna dunyoda!

— Bilamen, Abu Ali! Hammasini bilamen! Ammo... «Al-Qonun»ni yaratgan Ibn Sinoni bunday xoru zor qilmoq!..

— Qo'ying, ustod! Nahot bu haqdagi rivoyatni eshitmagan bo'lsangiz?

— Ne rivoyat?

— Shundaykim, buyuk bir donishmand bani basharning nopok istaklari va tuban ehtiroslarini bir uyga qamab qo'yilgan uch maxluq — odam, to'ng'iz va arslonga o'xshatgan ekan. Bani odam deganda u aql-idrokni nazarda tutibdi, to'ng'iz deganda insonning chirkin xohishlarini, arslon deganda esa qahru g'azabini nazarda tutibdi. Bu uch maxluqning qaysi biri zo'r chiqsa, qamalagan uyda o'sha ustunlik qilar emish.

— Xo'sh, xo'sh?

— Bu qissadan hissa shulki, to'ng'iz bilan sher, ya'niki, tuban ehtiroslar qanchalik zo'r bo'lmasin, bani odam, ya'niki, aql-idrok yengusidir!

— Hayhot! — dedi Beruniy asta bosh chayqab.

— Bu ko'hna dunyoni kaminadan yaxshi bilasiz, ustod. Yuz yillar, balki ming yillar o'tar, ammo bari bir, oxir-pirovardida hamma narsadan aql-idrok ustun chiqqusidir!

— Ming yillar! — dedi Beruniy. — Ming yillar!.. Donishmand haq: bani odam to'ng'iz bilan sherni yengadi! Faqir ham bunga ishonamen! Ammo... kamina bugunni o'ylab kuyamen, Abu Ali!

Ibn Sinoning lablarida yana o'sha, kishini o'ziga rom qiluvchi kinoya aralash muloyim tabassum zuhur bo'ldi.

— Bugunning tashvishi o'ziga yetar, ustod!

— Darhaqiqat, hozir falsafiy o'ylarning vaqti emas, Abu Ali! — Beruniy shunday dedi-da, yosh tarixnavis Abulfazl Bayhaqiyni chaqirib, Ibn Sinoni unga topshirdi. O'zi esa lahim orqali rasadxonadan chiqib, shaharga otlandi.

Hali Malikul sharobni topish va uning yordamida Ibn Sinoning salomini imom Ismoilga yetkazish kerak, ammo bu ishdan foyda chiqadimi, yo'qmi — buyog'i qorong'u edi.

## 2

Beruniy shahar hovhsiga kirib borganida tong otib qolgan, xira tortgan kemtik oy Mozori kalon ortidagi tog'lar ustida zaifgina miltirab turar, osmon to'la yulduzlar go'yo kemtik o'yning zaifligidan sevinganday, allaqanday charaqlab ketgandi.

Tong salqin, mayin, orombaxsh edi, dasht giyohlari, barra ko'kat va rayhon hidi dimoqqa gup-gup urardi. Hammayoq jimjit. Darvoza negadir qulflanmagan, katta serdaraxt hovli jimjit, osuda, faqat hovlining etagida ariq asta jildirar, qaerdadir olisda tegirmon novidan quyilgan suvning sokin guvillashi eshitar, goho-goho, uzoq-yaqinda itlar hurar, hanuz mudhish tahlikadan qutulmagan shahar endi uyg'onmoqda edi.

Beruniy, hamon g'amgin o'ylar og'ushida, asta yurib hovlining etagiga bordi, ariq bo'yiga cho'nqayib, yuzini yuvdi, bo'ylari bir qarich bo'lib qolgan mitti rayhonlarga qo'l urib, hidlab ko'rdi, so'ng, bir-bir bosib uy tomon odimladi.

Ajab hol. Sabhu hujrasining darichasi yorug', aftidan, u uyqudan turib, mutolaaga kirishgan edi.

Beruniy oyoq uchida yurib, daricha oldiga bordi. Sabhu hujraning qibla tomonida cho'kkalab o'tirar, qo'lida qandaydir qizil mato, ko'zlari yumuq, dam boshini yerga urib allanimalarni pichirlar, dam qo'lidagi qizil matoni o'par edi. Tokchadagi xira fonus shu'lasida Sabhuning yuzi ko'rinmas, biroq butun xayoli, butun vujudi bilan ko'kka iltijo etib, ibodat qilayotgani ko'rinib turardi.

Beruniy, ko'ngli allanechuk bo'lib, darichaga yaqin-

roq bordi-yu, beixtiyor yuragi «shig'» etdi. Sabhuning qo'lidagi qizil mato... Sadafbibining qizil guldor ro'moli edi!

Sabhu goh bu ro'molni o'pib, goh boshini yerga urib, o'z xudolaridan biriga, baxt va omad xudosi Shivagami, yo hayot-mamot xudosi Borahimgami, yoxud bosh xudo Vishnagami, kingadir, iltijo etar, takror-takror sajda qilib, nola chekardi.

Beruniy yuragi qattiq achishib, devorga suyandi, suyangan zahoti negadir hibsdan avval Sadafbibi bilan bo'lgan tungi suhbat esiga tushdi. Qizning uning hujrasiga hurkak kiyikday asta yurib kirib kelgani, qarshisiga tiz cho'kib, yig'lab aytgan so'zlari, bu so'zlar ko'nglida allaqanday shirin umid qo'zg'agani xotirasida jonlandiyu, yuragi vijdon azobidan battar zirqirab ketdi. Nazarida go'yo ikki yoshning boshiga tushgan bu musibat uchun u ham aybdor, go'yo o'sha daqiqalarda yoshiga nomunosib umidlarga bormay, ularni qovushtirib qo'yanida bu jafo sodir bo'lmas edi!

Beruniy uyga kirishga yuragi dov bermay, asta ko'chaga chiqdi. Shoyad Malikul sharob sho'rlik bibidan xabar topgan bo'lsa! Shoyad imom Ismoil vositasida bo'lsa ham qizni qutqarish chorasi topilsa!..

Sangtaroshlar dahasiga kiraverishda o'ziga to'qroq dehqonlar, xorijiy savdogarlar, zargar va misgarlar, bozori chaqqon hunarmandlar rastasi saf tortgan, yo'q-sillar, gadolar, mayda kosiblar makoni bo'lmish Malikul sharob mahallasiga shu rastalar orqali o'tib borilardi.

Ana, oldinda serdaraxt guzar ko'rindi. Guzardagi ilk do'kondorlar; halvofurush va qandolatpazlar, somsapaz va nonvoylar o'z do'konlarini ochishgan, havoda dimoqni qitiqlovchi tandir somsa, holva va kabob hidi tarala boshlagan edi.

Rastalar oldida charm kamzul kiygan meshkobchilar og'ir meshlaridan yerga suv separ, farroshlar uzun supurgilari bilan yo'llarni supurar, chap qo'ldagi katta karvonsaroy hovlisida savdo taraddudiga tushgan tijorat ahli chumoliday g'imirlab qolishgan edi.

Beruniy, gavjum guzardan o'tib, attorlar va zargarlar rastasi bo'ylab ketdi. Bu yerga ham suv sepilgan, far-

roshlar yog' tomsa yalagudek qilib supurib qo'yishgan edi. Lekin, qiziq, odatda juda barvaqt ochiladigan serhasham do'konlardan birortasi ham ochilmagan, ochilganlari qayta yopilmoqda, nimadandir hayajonga tushgan do'kondorlar shivir-shivir qilishib, rasta oxiridagi bozor tomon shoshilmoqda edi.

Agar Beruniyning yodidan chiqmasa, Piri Bukriyning do'koni ham bozor yaqinida edi. Ana, muyulishda uning do'koni ham ko'rindi. Biroq... bu ne to'olon? Do'kon oldi arosat, hamma o'sha tomonga qarab yugurmoqda edi.

Beruniy ham beixtiyor qadamini tezlashtirarkan, atrofdan kelayotgan vahimali gap-so'zlar qulog'iga chalindi:

— Sho'rluk Piri Bukriy olamdan o'tibdi!  
— Xudo rahmat qilgay! Yaxshi odam edi!  
— Tuf de, gumroh! Yaxshi bo'lsa shunday qilurmi?

— Ne qilibdi?  
— O'zini o'zi osib qo'yibdi!  
— Astag'firullo!..  
— Bilmay so'zlama, tentak! Piri Bukriy emas, cho'risi o'zini o'zi osib qo'yipti!  
— Yo alhazar!

Odam oqimi tobora toshib, do'kon oldida katta olomonga aylangan edi.

Beruniy, birdan iskanjaga olgan sovuq tuyg'udan yuragi siqilib, ariday g'uvillagan olomon orasiga kirdi, yakka-kift bo'lib, olomonni bazo'r yorib oldinga o'tdi. Birovlar uni tanib, birovlar allomalarga xos sipo kiyimiga qarab, yo'l berishdi. Olomon uzra hamon o'sha vahimali gap, bir-birini inkor etuvchi o'sha shivir-shivir hokim edi.

To'satdan, do'kon eshigi taraqlab ochildi-yu, ichkaridan boshi xumday, pakanagina, chorpahil bir kimsa alpang-talping yurib, yo'q, yurib emas, yugurib chiqqida, olomonni ko'rib, qoqqan qoziqday qotib qoldi.

— Yo tavba! Ichkaridan xuddi Azroildan qochganday qochib chiqqan bu yoqavayron, yalang oyoq, yalang bosh odam... Piri Bukriy edi!.. Uning soqol-mo'yovlari yulingan, bo'g'riqqan yuzi, tuksiz taqir boshi va hatto bir

kallaqantday yelkasida do'ppayib turgan o'rkachigacha — hammayog'i qop-qora qon, ko'zlarida, go'dakning ko'zlariday ma'sum ko'zlarida dahshatli bir ifoda qotib qolgan edi!..

Bukrining vajohati shunday qo'rqinchli ediki, g'ala-g'ovur birdan so'nib, ariday g'uwillagan olomon suv quyganday jim bo'lib qoldi.

Piri Bukriy, dahshat muhrlangan moviy ko'zlarini olazarak qilib, bir on angrayib turdi, so'ng, xodaday osilib qolgan uzun qo'llarini paxsa qilib:

— Yo'q! — deb qichqirdi. — Bu qiz... bu joriyani men osanim yo'q! O'zini-o'zi osib qo'ydi ul behayo!

Bukri shunday deb, uvvos tortib yig'lashga tutindi-yu, to'satdan, ro'parasida haykalday qotib qolgan Beruniyga ko'zi tushib, yig'idan to'xtadi. Xuddi uni tanib-taniyolmaganday, ko'zlarini katta ochib, bir daqiqa serrayib turdi, so'ng, yerga tiz cho'kib, uning oyoqlarini quchoqladi.

— Men badbaxtni kechirgaysen, mavlono, kechirgaysen!

Beruniy, go'yo aqli hushidan ayrilganday, hanuz karaxt bo'lib turardi. U bir o'yida oyoqlari ostida yumalab yotgan bukrini bir tepib, ichkariga kirgisi, sho'rlik qizni ko'rgisi keldi. Biroq sirtmoqda chayqalib turgan qizning jasadini tasavvur qildi-yu, hamon yerda yumalab yotgan bukrining titroq qo'llaridan oyog'ini bazo'r tortib olib... asta orqaga chekindi. Uning yuragi tinimsiz bezilab og'rir, nazarida, kimdir ko'ksiga zanglab qolgan o'tmas pichoq qadaganu qayta sug'urib olmagan edi.

Vo darig'! Qarigan chog'ida bu ne musibat, ne ko'rgulik? Ohuday go'zal, musichaday begunoh bu qiz uning chiroqsiz hujraday nursiz, shu'lasiz hayotida milt etib yongan bir sham edi, mana, bu sham ham so'ndi. Yo tavba! Nahot boya tong chog'i qilgan pok niyati, ko'nglidagi xudbin istaklarni jilovlab, sho'rlik qizni kelin qilish orzulari ko'kka borib yetmadi? Agar borib yetgan bo'lsa, bu ne shafqatsizlik, ne adolatsizlik, e sarvari koinot?

Beruniy, guzarga chiqqach, tanish meshkobchidan bir kosa sovuq suv so'rab oldi-da, uni ichib, sada tagida uzoq o'yga tolib o'tirdi.

... Hali barvaqt bo'lsa ham, Malikul sharob mayxonasining oldida odam gavjum, birovlar mayxona ostonasida boshlarini xam qilib xayolga cho'mib o'tirar, birovlar uyoqdan-buyoqqa izg'ib yurardi. «Ajabo! Bu ne? Nechun ko'pchilikning boshi xam? Nechun hamma sukutda? Nahot?»

Bo'sag'ada o'tirgan mayib-majruhlar jimgina chekinib unga yo'l berishdi.

Beruniy usiz ham bezillab og'rigan yuragi battar uvishib, eshikni jur'atsizgina ochdi.

Odatdagiday g'ira-shira mayxona bo'm-bo'sh edi. To'rdagi tokchada bittagina moychiroq horg'in lipillar, tokchani tagida egniga olacha to'n kiygan notanish bir kimsa kulohlik boshini osiltirib o'tirar, u uyg'oqmi, pinakka ketganmi, bilib bo'lmas edi.

«Malikul sharob! Xayriyat!»

Poygakda to'xtagan Beruniy qibla tomondagi burchakda... ustiga oq mato yopilgan jasadga ko'zi tushdi. Jasadning oyoq tomonida kimdir boshini osiltirib o'tirar, u ham Malikul sharobga o'xshab chuqur sukutda edi. Beruniyning ko'nglidan: «Nargizabonu» degan fikr o'tib, a'zoyi badani muzlab ketdi.

Malikul sharob oyoq sharpalarini eshitib, asta boshini ko'tardi, Beruniyni tanib, o'rnidan turishga harakat qildi, biroq turolmadi. Beruniy tez yetib borib, u bilan ko'rishdi. Keksa darvesh tunov kungidan ham ozib-to'zib, faqat soyasi qolgan edi.

— Qalaysen, azizim? Hibs degan baloi azimdan omon-eson qutuldingmu?

Malikul sharob dag'al barmoqlari bilan tomog'ini silab, «qult» etib yutindi, uning tokchadagi moychiroqday horg'in miltiragan ko'zlari to'satdan jiqqa yoshga to'ldi.

— Kamina omon chiqdim, ammo... Bobo Xurmo... Bobo Xurmodan ayrilib qoldik, Abu Rayhon!..

Beruniy yuziga fotiha tortdi-da, burchakka o'tib marhumning yuzini ochib ko'rmoqchi bo'ldi, biroq Malikul sharob:

— Qo'ya ber, Abu Rayhon, — deb uni to'xtatdi. — Gung darvesh qur'on o'qib o'ltiribdi. O'qiy bersin...

Sho'rlik Bobo Xurmo! U ko'rgan azoblarni ollo hech bir bandasining boshiga solmasin! Kecha hibsdan chiqishda chivinday joni halqumida edi, kulbai vayronamga yetolmay jon taslim qildi, sho'rlik! Peshinga chiqaramiz. Dafn marosimida bo'lasenmu yo...

— Bo'lmasam gunohga botamen, ammo...

— Bilamen. G'aznaga chin hazrat Ibn Sino tashrif buyurgan emish.

— Buni qaydan bilding?

— Yodingda bo'lsin, Abu Rayhon. Malikul sharob bilmagan sir-asror yo'q. Bu johil sultonning johil nadimlari uni ham ustod Firdavsiy yanglig' tahqirlagan emish. Anov firibgar Abu Shilqim ibn Shahvoniyni chin Ibn Sino deb, chin hakimi davronni yolg'on Ibn Sinoga chiqargan emish! Bu ishga kuyunma, Abu Rayhon. Bil'aks, bu ham sulton Mahmudga ko'k yuborgan bir alomatdur!

— Filhaqiqat. Ammo hazrat Ibn Sinoning hayoti xavf ostida, Malikul sharob!

— Bilamen. Hammasini bilamen, Abu Rayhon. Men o'zim odam yubormoqchi edim! — Malikul sharob shunday deb, Beruniyning qulog'iga shivirladi:

— Imom Ismoilan odam kelgan. Bu tabarruk nomdan xabaring bormu?

— Bor. Sen aytmasang ham eshitganmen, Malikul sharob!

— Kamina bu gapni shar'iy zaifam Nargizabonudan ham sir tutamen, Abu Rayhon. Alqissa, hazrat Ibn Sinoga ne yordam kerak? Darhol xat yozib ber. Imomning odami kutib o'ltiribdi! — Malikul sharob shunday deb, to'rdagi tokchadan qog'oz-qalam olib berdi, so'ng, Beruniy yozgan maktubni nosqovog'iga yashirib, tashqariga chiqib ketdi-da, darhol qaytib kirdi.

— Kechqurun namozi asrga qolmay javob keladi. Istarsang, kulbai vayronamda kut, istasang...

U so'zini tugatolmadi. To'satdan mayxonaning eshigi sharaqlab ochildi-da, kimdir ichkariga kirib, bir narsani «gurs» etib yerga tashladi. Malikul sharob eshik tomonga yalt etib qaradi-yu:

— Shoir Unsuriy? — deb xitob qildi.

— Xotiralariga tasanno, Malikul sharob! Tanidilar, azizim, tanidilar! E-e, mavlono Beruniy ham shu yerda ekanlar-da! Borakallo, borakallo! — shoir Unsuriy banoras to'ning etagi bilan yer supurganicha, alpangtalpang yurib kelib avval Beruniy bilan, keyin Malikul sharob bilan ko'rishdi, ko'risharkan, go'yo ko'ngilsiz gapning oldini olmoqchi bo'lganday:

— Faqir Ko'shki davlatdan, oftobi olamning huzurlaridan kelmoqdamen, — dedi peshona terini artib. — Ya'niki, ul valine'mat amiralmo'mininning bag'oyat zarur topshirig'ini lutfan yetkazgani keldim, azizlar!

Shoir hayajondan entikib, nimqorong'i burchakka bir qarab qo'ydi.

— Ul bandai ojiz Bobo Xurmo qaydadur, azizim Qutlug'qadam?

Malikul sharobning uyqusizlikdan kirtaygan ko'zlari yarq etib ochilib ketdi.

— Agar sultoni salotin Bobo Xurmoni yo'qlagan bo'lsalar... kech yo'qlabdilar! Bu foniylar dunyoni yetim qoldirib, boqiy dunyoni munavvar qilmish ul bandai xokisor!

— Ollo rahmat qilg'ay! Qachon?

— Shu bukun! Agar sho'rlik Bobo Xurmo yegan kaltaklarning o'ndan birini yeganlarida janoblari ham hibsdan chiqmasdanoq Bog'i Eramga parvoz qilar edilar!

Unsuriy, go'yo Malikul sharobning bu achchiq kinyasini eshitmaganday, lablarini pichirlatib, yuziga fotiha tortdi-da, yoqasini ushlab:

— E, Yaratgan egam! — deb shivirladi. — Shu bukun ul bandai ojiz Bobo Xurmo... amiralmo'mininning tushiga kirmish!

— Nechun ajablanasiz, nazm bo'stonining bog'boni? — dedi Malikul sharob zaharxandalik bilan. — Bobo Xurmo hali ko'p kiradi sultoni salotinning tushlariga!

Unsuriy, hanuz ko'zlari yumuq, lablari asta pichirlab, tilovat qilardi.

Sulton uni kecha shom chog'i o'z shabistoniga chaqirtirgan edi.

Unsuriy kirganda qandillardagi shamlarning ko'pchiligi o'chirilib, shabiston allaqanday sirli ruh kasb etgan edi. Sulton o'rdaday keng, ammo allaqanday huvillab



qolgan bo'm-bo'sh xonaning to'rida, baland shoyi to'shak ustida chalqancha yotardi.

«Hakimi davron» bilan Abul Hasanak qayoqqadir gumdon bo'lgan, xonada allaqanday vahimali sukunat hokim edi.

Unsuriy, vujudini sovuq ter qoplab, bo'sag'ada ancha turdi, keyin, o'zini zo'rg'a bosib, sultonning oyoq tomoniga o'tib o'tirdi.

Sulton sog' paytlarida Unsuriyga oyoq uqalashni yaxshi ko'rardi. Amiralmo'minning bu odati esiga tushgan Unsuriy ko'rpa tagidan chiqib turgan qoqsuyak oyoqlarga asta qo'l cho'zdi, cho'zishi bilan sulton cho'chib ko'zini ochdi.

Unsuriy, badanidagi tuklari tig' bo'lib, sal orqaga surildi.

— Azizim Unsuriy! — dedi sulton, ovozi bazo'r eshilib. — Boya namozi asrda ko'zim ilingan ekan, anov gado... Bobo Xurmo degan Bog'i Firuzdagi xurmozorning egasi tushimga kirmish. Ustida kafan yanglig' oq libos, yalang oyoq, yalang bosh, anov eshikdan kirib kelmish. Bir narsalarni so'zlab tahdid qilmish. Ne dedi, so'zini anglamadim. Sendan so'raymen: xazinadordan bir xurjun oltin olib, uni izlab top! Shu oltinlarni berib, uni rozi qil! — Sulton quduq tagidagi suvday miltiragan mungli ko'zlarini shiftga tikib:

— Yo parvardigor! — deb xitob qildi. — Osiy bandangni o'z hifzi himoyatingga ol! Kingaki yomonlik qilgan bo'lsam, yaxshilik qilgum bor! Murodim — faqat yaxshilik qilmoq, endilikda, faqat yaxshilik! — Sulton kipriklari orasida tirqirab chiqqan ko'z yoshlarini artishdan ojiz qult-qult yutinib Unsuriyga qaradi:

— Anov hazrat Ibn Sino bilan Abul Hasanak qayda? Nahot «ne'mati ilohiy»dan darak bo'lmasa! E, Yaratgan egam! Yozug'im nedur mening?..

...Unsuriy cho'chib ko'zini ochdi.

— Yo qudratingdan! Amiralmo'minin Bobo Xurmong rozi-rizoligini ol, deb bir xurjun oltin yuborgan edi! Bir xurjun oltin!

— Tirikligida xoru zor qilib, o'lganida izzat-ikrom ko'rsatishdan ne foyda?— dedi Malikul sharob kuyunib.— Hayhot! Endi bu sho'rlik Bobo Xurmoga oltin ne kerak?

Shoir Unsuriy to'satdan ko'ziga yosh olib:

— Sho'rlik amiralmo'minin! — deb hiqilladi. —  
Bilmam, necha kunlik umri qoldi olampanohning!

Beruniyning ko'nglidan: «Ne'mati ilohiy»ni topib bergan anov muttaham tabib qayda? Yo bu hakimi davron topgan «ne'mati ilohiy» olampanohga shifo keltirmadimi, taqsirim?» degan fikr o'tdi, biroq Unsuriyning nidosidan sultonning ahvolini tasavvur etdiyu, gustohlik qilgisi kelmay, bo'g'ziga kelgan achchiq so'zlarni ichiga yutdi.

— Hammasi ollodan! — shoir Unsuriy shunday deb, eshik tomon yurdi. Biroq eshikdan chiqayotganida Malikul sharob:

— To'xtang, janobi Unsuriy! — deb uni to'xtatdi. — Agar amiralmo'minin bu begunoh gadoning ruhini shod etmoqchi bo'lsa... Bobo Xurmoning o'z yeridan, Bog'i Firuzdan bir parcha joy bersin!.. Biz bu sho'rlikni suyuqli xurmozoriga dafn etaylik!

Unsuriy yerdagi xurjinni arang ko'tarib yelkasiga tashlarkan:

— Oftobi olamga yetkazamen bu so'zingizni! — deb g'udrandi.

— Yetkazing! Sultonning javobini namozi asrgacha kutamiz!

Malikul sharob «to'g'ri qildimmi, yo'qmi?» deganday, savol nazari bilan Beruniyga qaradi. Biroq Beruniy o'z o'ylari bilan band edi. Ko'ngli notinch, u dam rasadxonada qolgan Ibn Sinoni o'ylab bezovta bo'lar, dam yodiga Sadafbibi tushib, tirnoqlarigacha zirqirab ketardi.

Lekin qancha urinmasin, Ibn Sino kelgandan beri ayniqsa ko'p ezayotgan o'ylar, telba taqdirning g'alati o'yinlari, bani odam qismatining yechib bo'lmas jumboqlari, o'lim va hayot, insof va adolat haqidagi alamli o'ylar miyasidan chiqmas, biroq o'ylagan sayin o'yining tagi ko'rinmas, bil'aks, xayoli chalkashib borardi. Ajabo: u yoshlik chog'larida «o'lim haq» degan so'zni eshitganida bu so'z juda adolatsiz bo'lib tuyular edi. Endi esa bu so'zda buyuk bir adolat borligiga inondi. Darhaqiqat, agar amiralmo'minin atalmish bu mustabid shoh yana ming yil yashasa, bani basharning ahvoli ne bo'lur edi? Bas, endilikda bu dunyo ustunlaridan, ya'niki, sherlar va

shohlardan yiroq yurmoq darkor! Bu yolg'on dunyoda ilmi hikmatdan, mutolaa va mushohadadan katta baxt yo'q ekan! Ishqilib, telba taqdir uni bu so'nggi baxtdan ham mosuvo qilmagay! Ibn Sinoni tutqundan qutqazib, o'zi tutqun bo'lmagay hali!

Namozi asrda sultondan xushxabar keldi.

Bobo Xurmoni Bog'i Firuzning bir chekkasiga dafn etishdi.

Osmonni siyrak kulrang bulutlar qoplab, iliq yomg'ir yog'a boshladi. Biroq yig'ilgan olomon — yuz chog'li gadolar, mulla mirquruq shoirlar, hofiz va mashshoqlar — hech kim joyidan jilmadi.

Gung darvesh qabr tepasida o'tirib, uzoq tilovat qildi. Uning mungli ovozi hali tinmagan ham ediki, qayerdadir, yaqinda, qabriston devorlari ortida, boshqa bir mungli kuy yangradi. Vo ajabo! Bu yuraklarni sel qilg'uvchi nay ovozi edi!..

Tilovatdan keyin o'rinlaridan endi turgan odamlar, ust-boshlari shalabbo bo'lsa ham, bu chashmaday tiniq, hazin kuyni eshitib, joy-joylarida qotib qolishdi.

— Bechora Piri Bukriy! — dedi kimdir.

— Aqldan ozmish, sho'rlik! — dedi ikkinchi birov.

— G'alat dunyo! Aqldan ozsa ham nay chalishni unutmabdi! — dedi uchinchi birov.

Odamlar turnaqator bo'lib, Afshon soy tomon jilishdi. Malikul sharob bilan Beruniy bog' ortidagi mungli kuy tugaguncha jimgina quloq solib o'tirishdi, so'ng odamlar ketidan yurib, qabristondan chiqishdi.

Iliq yomg'ir hamon maydalab yog'ar, biroq odam yomg'irdan qochgisi kelmas, aksincha, osmonga qarab, asta yog'ayotgan iliq tomchilarga yuzini tutib turgisi kelardi.

Malikul sharob yo'lda to'xtab:

— Har qalay, mening unga rahmim keladi, — dedi uf tortib. — Piri Bukriyni aytamen. Ne bo'lganda ham — baxtsiz odam!

U boshidagi kulohini olib, yuzidan yomg'ir tomchilarini artdi-da, qalpog'ining yirtig'idan naycha qilib o'ralgan xat olib berdi. Bu — imom Ismoildan kelgan javob bo'lib, u juda qisqa edi. «Xufton chog'i sarboz-larim sizlarni tayinlagan joyingizda kutadilar. Fursatni boy

bermang. Shu kecha Abul Hasanak navkarlari rasadxonani bosish ehtimoli bor!»

Beruniy betoqat bo'lib, Malikul sharobga qaradi.

— Imom ne deпти? Yaxshi so'zmu?

— Yo'q. Kamina darhol rasadxonaga yetib bormog'im lozim! Ko'lik<sup>1</sup> kerak, Malikul sharob!

— Hozir topamiz, azizim! — Malikul sharob shunday dedi-da, izma-iz kelayotgan uvada to'nli bir qalandarni chaqirib, qulog'iga allanimalarni shivirladi. Qalandar qabriston tomonga yugurib ketdi-yu, zum o'tmay bo'liq bir jiyron otni boshlab keldi.

— Ming afsus!— dedi Malikul sharob kulimsirab.— Shu bukun boshimizga tushgan bu kulfatlar qaytmasin deb, bir kosadan may ichmoq umidida edim, Abu Rayhon.

— Nasib qilsa icharmiz. Omon bo'l, Malikul sharob!

— Taassuflar bo'lg'aykim, kamina shuncha yil hazrat Ibn Sinoni bir ko'rish orzusida yurardim, nasib etmagan ekan, ko'rolmadim. Salomim va yaxshi kalomimni yetkazgaysen. Omad yor bo'lsin ul zoti sharifga. Omon bo'l, Abu Rayhon!

Ularning nazarida, ko'ngillaridagi hamma alam, hamma so'z aytilib bo'lganday, aytiladigan dardu hasrat qolmaganday tuyulardi, biroq vidolashuv onlari yaqinlashgan sayin, izhori ixlos istagi, dardlashish tilagi tobora ortib borar, go'yo dillari tubidagi eng katta orzu-istaklar, eng hazin tuyg'ular ifodasi so'nggi daqiqalarga qolgan edi! Biroq imom Ismoil aytgan xatarli daqiqalar tobora yaqinlashmoqda, fursatni boy berib bo'lmas, zotan, bu xatardan cho'chimaganda ham, aytiladigan dardu hasrat tugamas, buni ikkovi ham yaxshi anglar edi.

Beruniy Abu Aliga o'z «Hindiston»ining Sabhu ko'chirgan eng tiniq nusxasini in'om etdi, Ibn Sino esa, «Al-Qonun»ning eng nodir qo'lyozmasini mehr va ixlos bilan tutdi.

Imom Ismoil sarbozlari, Beruniy aytganday, lahimdan chiqqan joydagi qalin archazor orasida otlarni shay qilib turishardi.

Ikki do'st, ikki alloma bu onlarning qaytib kelmasligini, endilikda diydor ko'rishish nasib etmasligini butun

<sup>1</sup> Ot-ulov ma'nosida.

vujudlari bilan his etishar, shu boisdan ham, o'zlarini qanchalik vazmin tutmasin, judolik tuyg'ulari og'ushidan chiqolmas edilar.

Beruniy birinchi bo'lib Abu Alini quchib bag'riga bosdi.

— Alvido, azizim. Diydor ko'rishmoq nasib etmasa rozi bo'l, jigarim! Kimki seni xor qilgan bo'lsa, o'zi xor bo'lsin! Seni imom Ismoilga, imomni olloga topshirdim, Abu Ali!

Ibn Sino ustozini quchib, beixtiyor ko'ziga yosh oldi.

— Kaminadan g'am yemang, ustod! So'zimga inoning: faqir ko'p jafolarni ko'ra berib ko'sa bo'lganmen, men bukun o'z taqdirim emas, sizni o'ylab qo'rqamen! Siz kaminani bu pinhoniylahimdan qochirib, o'z boshingiz baloga qolmasa deb qo'rqamen, ustod! Ehtimol bir-ikki oy imom Ismoil himoyatida bo'lursiz?

— Agar sen birga bo'lsang...

— E voh! Faqir Isfahonga tezroq yetib bormog'im lozim! Birlamchi, qora o'lat changalida qolgan Isfahon ahliga yordam bermog'im darkor. Ikkilamchi, yozishni orzu qilgan kitoblarim bor!

— Bilamen. Odil shohlar to'g'risida kitob boshlagansen!..

— Mendan kulasiz, ammo odil shohlarni ulug'lab kitob bitmadingizmi, ustod?

— Ne chora? Men ham bitganmen, Abu Ali!

Beruniy, ma'yus kulimsirab, Ibn Sinoni so'ng bor quchoqladi. Ular go'yo bu daqiqalarning betakror ulug'ligini his etganday, uzoq jim qolishdi, so'ng, imom Ismoil sarbozlarining betoqat harakatlariga bo'ysunib, quchoqlarini yozdilar.

— Omon bo'ling, ustod. Bu yaxshiligingizni toabad unutmaymen!

Beruniy beixtiyor ko'ziga yosh oldi.

— Oq yo'l! Boshing toshdan bo'lg'ay, azizim!

## *Xotima*

«Bugun to'rt yuz sakson birinchi yil hijriy muharram oyining o'n sakkizi kuni allomalar majlisiga ketgan shayx, namozi asr chog'i, qo'lida allaqanday maktub, qattiq hayajonda kirib keldi.

G'aznai munavvaradan qaytgandan beri kamina shayxni bu ahvolda ko'rmagan edim.

Shu yil ko'klamda G'aznai munavvaradan sog'-salomat qaytib kelganimizdan keyin sal o'tmay dorusaltanadan, sulton Mahmud olamdan o'tdi, degan, — ollo uning qabrini yumshoq qilgay! — sovuq xabar kelgan edi. Xabarui yo'llagan Xatlibegimning yozishicha, savr oyining oxirida bu dunyoni yetim qilib, u dunyoni munavvar etgan sulton Bog'i Firuzga dafn qilinib, saltanatda-qirq kechayu qirq kunduz motam boshlangan emish.

Bu xabarni eshitgan amir Mas'ud ham boshdan-oyoq oq libos, kiyib, motam tutgan va ertasigayoq qo'shin tortib, G'azna tomon safarga chiqqan edi. Safarga otlarnarkan, amir, yuzida zohiran qayg'u, botinan quvonch, barcha a'yonu boyonlarni saroyga taklif qilgan, hatto shayxni ham chaqirib, hanuz zindonda yotgan Qorako'zbeqimni ozod etish to'g'risida amru farmon bergan edi. Amir Mas'ud Isfahonni tark etgandan beri shaharda osoyishtalik hukm surar, qora o'lat ham daf bo'lib, shayx nodir kutubxonasini tiklash yumushlari bilan band edi. Uni faqat bir narsa qattiq tashvishga solar — ustod Beruniydan hanuz darak yo'q edi!.. Shu boisdan shayxning qo'lidagi maktubni ko'rib, kamina qattiq seskandim. Olloga shukur, ustod Beruniy salomat ekanlar. Maktub ustodning sadoqati boqiy shogirdi, salohiyatli muarrix Abulfazl Bayhakiydan bo'lib, unda amir Mas'ud boshlagan qatlu qirg'inlar hikoya qilingan ekan.

— Amir, ota farzandi emasmu, dorussaltanaga yetib bormasdanoq ming-ming kishilarning boshlarini olibdi.

Ikkala vazir ham qatl qilinibdi. Ular egilgan boshni qilich kesmas deb, barcha lashkar, barcha ganjni olib, amirga peshvoz chiqsalar ham, uning oyog'ini o'pib yig'lasalar ham, gunohlaridan kechmabdi. Ali G'aribni Nishopurda, o'z inisining uyida, mehmondorchilik chog'da chavaqlab tashlabdilar. Abul Hasanakni esa qarmatdiy deb (taqdirning g'alat o'yinidan qo'rqqulik!) Hirot bozorida toshbo'ron qildiribdi! Dahshat! Mana, o'zing o'qib ko'r. Mana bu yerini o'qi! — Shayx shunday deb, qo'lidagi maktubni menga uzatdi.

Kamina ko'p husnixat xattotlarning dastxatini ko'rganmen, ammo Abulfazl Bayxakiyning dastxatiday chiroyli dastxatni ko'rmaganmen.

Suls usulida yozilgan bu maktubda shunday so'zlarni o'qidim:

«Abul Hasanakni dor tagiga, — bunday jazodan o'zing asragaysen, e, Yaratgan egam! — keltirib, ust-boshini yechishni amr qildilar. Abul Hasanak, shalvarini ko'tarib, belini mahkam bog'ladi, eskirgan, ammo qimmatbaho siyohrang jubbasini va ko'ylagini yechdi va surmarang sallasiga qo'shib bir chekkaga otdi. So'ng yolg'iz ishtonda, kumushday oppoq tanasi va ko'hlik chehrasini yig'ilgan olomonga namoyon qilib, dor tagida to'xtadi. Olomon, garchi Abul Hasanakdan yaxshilik ko'rmagan bo'lsa ham, uning holiga achinib, yum-yum yig'ladi. Jallodlar uning yuziga tosh tegmasin deb, toki kallasini Bag'dod xalifasiga in'om qilib yuborish niyatida edilar, boshga temir niqob kiydirdilar.

Shundan keyin olomonga qarab, «Toshbo'ron qilinglar bu imonsizni!» deb amr qildilar. Ammo rahmdil avom, garchi Abul Hasanakni yomon ko'rsa ham, unga tosh otishni istamadi. Olomon orasidan: «Dorga osiladurg'on bir sho'rlikni toshbo'ron qilishning ne hojati bor? Undan ko'ra dorga osinglar, tezroq!» degan xitoblar eshitildi va katta g'alayon boshlandi. Ammo bozor maydonini qurshab olgan suvorilar ot surib kelib, g'alayonni bosdilar. So'ng jallodlar Abul Hasanakning bo'yniga sirtmoq solib, oyoqlari ostidagi kursini tepib yubordilar va yana olomonga qarab toshbo'ron qilishni buyurdilar. Olomon yana sukut qildi.

Shunda gadolarga pul ulashib, Abul Hasanakni toshbo'ron qilishga da'vat etdilar. Ular dorda pitirlab jon

berayotgan Abul Hasanakka tosh otdilar, ammo Abul Hasanak jon taslim qilib bo'lgan edi.

Jalldolar uning boshini tanidan judo qilib, oyog'idan dorga osib qo'ydilar<sup>1</sup>.

Abul Hasanakning Abul Sahl Zavzoniyl degan eski tanishi bo'lg'usi edi. Bu odam o'sha kuni ko'p nufuzli bek va bekdodalarni mehmonga chaqirib, katta ziyofat berdi. May daryoday oqib, ziyofat ayni qizigan chog'da qopqoqlik oltin jom keltirdilar.

— Bu yangi pishgan mevalar, — dedi abul Sahl Zavzoniyl. — Mazasini tatib ko'raylik!

— Tatib ko'raylik! — dedilar mehmonlar ham.

Oltin jomning qopqog'ini oldilar. Qarasalar, jomda... Abul Hasanakning qonga bo'yalgan boshi!..

Dahshatga tushgan mehmonlar mehmonxonani tashlab qochdilar...

Qasosli dunyo ekan. Abul Hasanak, — ollo uning gunohlarini kechirgay, — ahli mo'minga ko'p jabr qilgan edi, jazosini tortdi. Jazosini tortmagan yolg'iz anov makkor, o'zini hazrat Ibn Sino deb, hammani, hatto sul-toni salotinni ham to'nab, xurjun-xurjun ganjini olib qochgan Abu Shilqim ibn Shahvoniy qoldi, xolos. Aytadilarki, burgaga tuzoq qo'ygan ul firibgar Movarounnahr tomonlarda hanuz o'zini hazrat Ibn Sino deb sho'rlik avomni to'nab yurgan emish...»

Maktub shu yerga kelganda kamina beixtiyor shayxga qaradim. Shayx xayolga tolib o'tirgan edi, mening qaranimni ko'rib o'rmidan turdi.

— Donolar haq, — dedi shayx. — Bu ko'hna dunyoda kimki jafu qilsa, jafu, vafu qilsa, vafu topg'usidir.

— Abu Shilqim ibn Shahvoniy-chi? — dedim men.

Shayx uning nomini eshitib, xushnud kuldi.

— Ibn Shahvoniy taqdiri azalning ajab jumbog'i. Bu jumboqni donolar ham yechishga ojizlik qilur! — dedi shayx. — Ustod Beruniyl haq. Bu dunyo ustunlaridan yiroq yurmoq darkor. Darhaqiqat, bu olamda mutolaa va mushohada baxtidan ulkan baxt yo'q ekan. Qo'lingga qog'oz-olam ol, ishga kirishaylik, azizim! — shayx shunday deb, kutubxona eshigini ochdi».

*(Abu Ubayd al-Juzjoniyl xotiralaridan).*

<sup>1</sup> Abulfazl Bayhakiyning guvoh berishicha, Abul Hasanakning jasadi dorda yetti yil osilib turgan, hech kim uni dordan olib dafn qilmagan.



## *Ko'hna dunyo saboqlari*

Aziz kitobxon!

80-yillarning boshlarida, «qizil imperiya», mustabid tuzum inqirozi avjiga chiqqan, oyoqda arang turuvchi, munkillab qolgan xasta mustabid hukmdorlar birin-ketin taxt-mansab almashayotgan, yuqori doiralarda davrasida qabohat, boshboshdoqlik, amal talashish, korrupsiya g'oyat kuchaygan bir sharoitda mazkur romanning paydo bo'lishi hushyor ziyolilar nazarida go'yo zulmatni yoritgan yashin kabi chaqnagan edi. Ming yillik ko'hna o'tmish — sulton Mahmud G'aznaviy umrining so'nggi kunlari, buyuk allomalar — Beruniy, Ibn Sinolarning achchiq qismati haqidagi bu roman shaxsan menga negadir ayni o'sha kezlardagi vaziyatni eslatar edi. Asardagi qator personajlar timsolida men tanish katta mansabdorlar, mashhur ijodkor ziyolilar qiyofasini aniq ko'rganday bo'lgan edim. Roman qo'lyozmasi bilan tanishgach, Odil akaga ko'ngildan kechgan gaplarni aytganimga, u kishi: «Zinhor-bazinhor bu haqda gap ocha ko'rmang, shunaqa gaplar oralab qolguday bo'lsa romanning yo'li taqa-taq to'siladi», degan edilar... Lekin, baribir, oshkora bo'lmasa-da, bu fikr asar qo'lyozmasi muhokamasida, matbuotdagi chiqishlarda boshqacharoq imo-ishoralar tarzida aytili, yozildi; asar zamonaviy ruh bilan sug'orilganligi, muallif kechmishdan bugungi kun uchun saboqlar chiqargani alohida ta'kidlandi. Jumladan, «Literaturnaya gazeta» o'sha kezlari shunday deb yozgan edi:

«Yoqubovning romani markazida Ibn Sino hamda Beruniy taqdiri, ular yashagan davr turadi. Muallifning xulosalari va umumlashmalari keng, shuning uchun tarixiy materialga ajib aktual ma'no bag'ishlaydi. Zamonlar osha qilingan sayohat teran falsafiy umumlashmalar chiqarishga imkon beradi. Romanda tasvirlangan barcha

voqealar hujjatlar bilan cheklab qo'yilmagan. Odil Yoqubov tarixni ko'rib turadi, tarix bilan bahslashadi, zamon-doshlarga uzoq o'tmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berayotganday bo'ladi. U tarixga bugungi davr nuqtai nazaridan qaraydi».

Bu so'zlarda «Ko'hna dunyo» romanining tub mohiyati ochib berilgan. Darhaqiqat, bu roman avvalo ulug'allomalar Beruniy va Ibn Sino taqdiri, ular yashagan davr haqida bahs etadi. Ammo u bizdagi mavjud tarixiy-biografik romanlardan, jumladan, «Navoiy», «Yulduzli tunlar» poetikasidan tubdan farq qiladi. Xuddi avvalgi tarixiy romani «Ulug'bek xazinasi»da bo'lgani kabi bu yerda ham qahramonlari hayotini xronologik tarzda hikoya qilish yo'lidan bormaydi, ikkala alloma hayotidagi jiddiy bir palla — bor-yo'g'i bir oydan oshiqroq davr hodisalarini qalamga oladi. Qahramonlar hayotidagi bu palla shunday bir dovonki, bu dovondan ularning butun bosib o'tgan yo'li, o'tmish va kelajagi yaqqol ko'rinadi. Voqealar sodir bo'lgan maskan shunday bir bekatki, bu bekatda xilma-xil odamlar to'qnash keladilar, bu yerda umr bo'yi davom etgan ziddiyat, mojarolar muayyan intihosiga yetadi, dillarda armon bo'lib yotgan dardu hasratlar to'kib solinadi, siru asrorlar oshkor bo'ladi, umrlar sarhisob etiladi, muallif personajlarga qo'shilib hayot jumboqlari ustida qizg'in bahslar olib boradi.

Romanga asos qilib olingan hodisa — umr bo'yi sulton Mahmud G'aznaviyni xushlamagan, sulton ta'qibidan olislarda yurgan Ibn Sinoning pirovardida uning huzuriga kelishi, yigirma yil judolikdan so'ng G'aznada Beruniy bilan diydorlashuvi voqeasi hayotda aynan bo'lgan-bo'lmagani ma'lum emas. Biroq yozuvchi fantaziyasining mahsuli bo'lmish bu hodisalar badiiy haqiqatning go'zal namunasi, noyob badiiy modeli darajasiga ko'tarilgan. Qarang, ulug'alloma, bir tomoni zo'rlik, qolaversa tabiblik burchi taqozosi bilan keksalik chog'ida, xasta hoida ne-ne mashaqqatlar bilan necha kunlar yo'l yurib, aziz va mag'rur boshini egib ma'naviy raqibi — mustabid hukmdor huzuriga uni davolash uchun keladi. Ammo bu yerda uning nafsoniyati oyoq osti qilinadi. Saroyda allaqachon Ibn Sino niqobi ostida

soxta, firibgar hakim paydo bo'lgan va hiyla-nayranglar orqali hukmdor e'tiborini qozongan. Sulton shu darajaga tushib qolganki, chin Ibn Sino bilan firibgar hakimni bir-biridan farqlay olmaydi, firibgarni boshga ko'tarib, chin hakimi davronni tahqirlab saroydan haydaydi...

«Ko'hna dunyo»dagi bu syujet intrigasi katta ramziy-umumlashma xususiyatga ega. Haqiqiy iste'dod sohiblari, chin zahmatkash daholar bu yoqda qolib, xoru zor bo'lib, soxta, firibgar «ijodkor»larning obro'-e'tibor qozonishi hamma davrlarga, ayniqsa, mustabid hukmdorlar siyosatiga xos tarixning ajib bir sirli jumbog'idir. Roman ana shu sirli jumboq ustida iztirob bilan o'ylashga, bahsga undaydi o'quvchini.

Ro'y bergan adolatsizlik ikki buyuk allomada ikki xil taassurot qoldiradi. Charxi kajraftorning xilma-xil o'yinlarini, jabru sitamlarini ko'p ko'rgan Ibn Sino bu telba dunyoning mudhish nayranglariga go'yo beparvoday qaraydi. Beruniy esa g'azab, afsus-nadomatlardan o'zini qo'yarga joy topolmaydi. Bu xildagi kontrastli holat ham hodisaning dramasi yanada keskinlashtiradi, bahs ruhini kuchaytiradi.

Ibn Sino bilan ustoz Beruniyning G'aznadagi uchrashuvi, Beruniy xonadonidagi muloqotlar, ko'ngil rozlari, ilm-fan, tabiat, koinot va jamiyat muammolari haqidagi bahslar ifodasi romanning eng jozibali, huzurbaxsh sahifalarini tashkil etadi. Bir vaqtlar ustoz Beruniy bilan shogird Ibn Sino orasida jiddiy ilmiy tortishuvlar bo'lgan, ustoz shogirdning ayrim qarashlarini keskin tanqid ostiga olgan, bunda ba'zan adolatsizliklarga ham yo'l qo'ygan... Mana endi o'sha bahslarga yakun yasash, oydinlik kiritish, ko'ngildagi g'uborlarni ko'tarish, umuman, ikki alloma hayotida tutgan yo'l, umr saboqlarini sarhisob etish, qarashlarni muvofiqlashtirish payti keladi. Shunisi muhimki, ikki alloma orasida qizg'in munozaralar, tanlangan yo'llarda, qarashlarda ayrim farqlar yuz bergan bo'lishiga qaramay, ular aslida bir maslakdagi ulug' shaxs — siymolardir. Asarni o'qiganda biz buni butun qalbimiz bilan his etib turamiz. Garchi G'aznadagi uchrashuv yozuvchi ijodiy fantaziyasining samarasi bo'lsa-da, tarixiy haqiqatga mosdir; chunki ikki buyuk

alloma ilmiy-ijodiy merosining tarixiy taqdiri, ular orasidagi mushtarakliklar bu haqiqatni to'la tasdiqlaydi.

Beruniy taqdirining romandagi talqini ham g'oyat ibratli. Bu olim hayoti nisbatan osoyishtaroq kechgan. U uzoq vaqt G'aznaviylar saroyida muqim turib ilm-fan bilan mashg'ul bo'lgan, ilm-fan manfaatini deb shaxsiy mayliga zid o'laroq, saltanat bilan murosaga borgan. Shunisi xarakterliki, adib nisbatan osoyishta kechgan bu alloma umrining ichki dramasini, fojiasini butun keskinligi bilan kitobxonga yetkazadi.

Avvalo, ulug' maqsadni deb uzoq yillar shaxsiy maylga zid yo'l tutib yashashning o'zi ulkan fojia. Buyuk gumanist mustabid sultonning ko'p adolatsizliklarini o'z ko'zi bilan ko'rib turadi; u shohning Hindiston yurishlarida qatnashgan, bu o'lkadagi mislsiz qirg'in, zulmlarning bevosita shohidi bo'lgan... Bularni eslaganda Beruniy adadsiz iztiroblar ichida qovuriladi. Buning ustiga garchi Beruniy hukmdor bilan ma'lum murosaga borgan bo'lsa-da, baribir, har qadamda saltanatdan jabr ko'radi, uning eng oddiy so'rovlari ham saroyda javobsiz qoladi, yaqin kishilarni himoya etolmay qiynaladi; firibgar, soxta hakimning obro'-e'tibor topishi, hakimi davron Ibn Sinoning tahqirlanishi — bunday adolatsizliklarning guvohi bo'lish Beruniy uchun cheksiz kulfat, azob-iztirob.

Romanda saroy muhiti, saltanat ichidagi ziddiyatlar, sulton Mahmud G'aznaviy ruhiy dramasi ifodasi ham keng o'rin olgan. Roman tarixga sinfiy yondashish talabi ustivor bo'lgan, jahongir shohu sultonlar haqida ijobiy gap aytish man etilgan, jumladan, sulton Mahmud G'aznaviyga salbiy munosabat avj pallaga ko'tarilgan kezlarda dunyoga kelgani tufayli, bu obraz talqinida davr ruhi asoratlari ma'lum darajada o'z muhrini qoldirgan. Asar muallifi sulton Mahmud G'aznaviyini ko'proq mustabid hukmdor sifatida ko'rsatishga jazm etadi; sultonning ezgu ishlari, qurgan qasrlari, yaratgan go'zallikda benazir jannatmonand bog'lari, barpo qilgan machit va madrasalari, ilm-fan kishilariga qilgan saxovatlarini, janglardagi shijoati, mardligi, tantiligini ham e'tirof etgan holda, uning hayotda yo'l qo'yan xatolari, adolat-

sizliklari, gunohlari uchun umr so'ngida chekkan ruhiy qiynoqlari ifodasiga kengroq o'rin beradi.

Yozuvchi asarda shunday yo'l tanlagan ekan, u bunga haqli. «Ko'hna dunyo» G'aznaviy haqidagi ilmiy risola emas. Adabiy asarda adib o'z badiiy niyatidan kelib chiqib tarixiy shaxslarga turli nuqtai nazardan yondashaverishi mumkin. Bilamizki, «Navoiy» dostonidagi Iskandar obrazi tarixiy shaxs Aleksandr Makedonskiydan keskin farq qiladi. Mariya Styuartni F. Shiller o'zicha, V. Skott boshqacha, S. Sveyg yana o'zgacha talqin etadi. Kleopatraning U. Shekspir, A. Pushkin, B. Shou va Cho'lpon asarlaridagi, shuningdek, 60-yillari Amerika san'atkorlari yaratgan filmdagi talqinlari naqadar xilma-xil... Ehtimol, biror o'zbek adibi sulton Mahmud G'aznaviy obraziga murojaat etib tamomila boshqacha, ya'ni uning ko'proq ijobiy tomonlarini ko'rsatishga jazm qilib, bu ishni qoyil qilib ado etsa, marhamat, bunday ijodiy jasoratni faqat tabriklash mumkin. «Ko'hna dunyo»da sulton ko'proq mustabid sifatida gavalantirilgan ekan, bu ham umuman olganda tarixiy haqiqatga zid emas, bu murakkab tarixiy siymo hayotida buning uchun yetarli asoslar bor.

Asarda G'aznaviyi biz keskin ruhiy iztiroblar iskanjasida uchratamiz. Sulton umrining oxirgi damlari, u og'ir davosiz dardga mubtalo. Bir tomondan, dardiga davo istaydi, ikkinchi tomondan, o'lim haq, foni dunyodan ketish oldida umri davomida qilgan gunohlarini eslab eziladi; imkon qadar gunohlardan forig' bo'lishga intiladi, jabrdiydalar ko'nglini olmoq payiga tushadi. Biroq sultonning bu ezgu niyat yo'lidagi xatti-harakatlari yangidan-yangi ko'ngilsizliklar, ruhiy iztiroblar keltiradi; eng yomoni, sulton o'z qo'li bilan yaratgan hokimlik tartiboti oldida o'zi ojiz qoladi, u xayrli ishlar qilmoqchi bo'lganida saroydagi, toj-taxt tevaragidagi muhit bunga imkon bermaydi.

«Ko'hna dunyo» milliy romanchiligimiz poetikasini muhim yangi xususiyatlar bilan boyitdi. Adibning «Ulug'bek xazinasi» romanidayoq polifonik ifoda tarziga moyillik sezilgan edi, yozuvchi «Diyonat» va «Ko'hna dunyo» romanlarida shu tasvir prinsiplarini izchil davom

ettiradi. Dadil aytishi mumkinki, bu uch asar ayni shu polifonik tafakkur tarzi bilan o'zbek romanchiligi poetikasiga yangilik olib kirdi, polifonik tafakkur, xususan, «Ko'hna dunyo» romanida o'zining yaxshi samaralarini berdi.

Bu roman, boya aytilganidek, boshdan-oyoq munozara-bahs ruhi bilan yo'g'rilgan. Avvalo roman uchun tanlangan hayotiy material, kashf etilgan badiiy model — vaziyatning o'zi jumboq xarakteriga ega; chin alloma Ibn Sino bu yoqda qolib soxta tabib, firibgarning obro'-e'tibor qozonishi — «taqdiri azalning bu ajib jumbog'i» kitobxonni bahs-munozaraga chorlaydi, bu hodisa esa o'z navbatida xilma-xil jumboqlarni keltirib chiqaraveradi, asardagi deyarli barcha personajlar xarakteri, qismati, ular bilan bog'liq epizodlar jumboq tusini oladi; bu hol shunchaki hodisa va xarakterlarni qiziqarli, sirli-sehrli qilish uchungina xizmat etmaydi; yozuvchi ayni o'sha jumboqlar sababiyatini tahlil etish yo'lidan boradi, ular ustida jiddiy va qizg'in bahs yuritadi, natijada o'sha sirli hodisalarning, xarakterlarning asl ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy mohiyati ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Bilamizki, monologik romanlarda hodisa va personajlarga bir nuqtai nazardan yondashish ustun turadi, barcha polifonik romanlar qatori «Ko'hna dunyo»da esa hodisa va qahramonlarga xilma-xil tomondan yondashish xarakterli. Asarda qalamga olingan hodisa va xarakterlar jumboqli bo'lish bilan barobar ziddiyatlidir. Bu ziddiyatlarning ko'rinish turlari ham rang-barang. Bu hol romandagi bahslar olamini g'oyat kengaytiradi.

Roman personajlari hayotdagi mavqei, maslak-e'tiqodiga ko'ra ikki guruhga ajraladilar. Bir tomonda hukmdorlar, saltanatga xizmat etuvchi, o'z shaxsiy manfaati yo'lida hech narsadan qaytmaydigan xudbin, yovuz, munofiq firibgarlar; ular har bob bilan ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga to'sqinlik qiladilar, oyoq osti etadilar, mehnatkash xalq vakillariga zug'um, zulm o'tkazadilar. Ayni paytda o'sha «maslakdoshlar» — sulton Mahmud, amir Mas'ud, Xatlibegim, Abul Hasanak, Ali G'arib, Piri Bukriy, Ibn Shahvoniylar orasida murosasiz ziddiyat, olishuv, to'qnashuvlar ketadi... Ikkinchi tomondan,

ijtimoiy taraqqiyot yo'lida turgan, saltanatdan jaf o'rgan kishilarning saltanatga cheksiz nafrati, isyoni va unga qarshi goh pinhona, goh oshkora kurashi... Shu bilan barobar avtor mana shu maslakdoshlar qarashlaridagi muayyan tafovutlarga ham e'tiborni tortadi. Chunonchi, ulug' alloma — Ibn Sino bilan Beruniy oralarida qizg'in munozaralar bo'lib o'tadi, el-yurt, adolat g'amida yurgan Ibn Sino adolat uchun kurashga otlangan Imom Ismoil maslagini qabul qila olmaydi.

Yozuvchining mahorati, ayniqsa personajlarning ruhiy olami qalb bahsini bera olishda yorqin ko'rinadi. Asardagi deyarli har bir personaj qalbidan keskin drama kechadi, ularning har biri o'zi bilan o'zi olishadi. Har bir qalbning dramasi, bahsi o'ziga xos; ifoda tarzi betakror. Sulton Mahmudni biz vasvasayu tahlika, pushaymonlar iskanjasida ko'rsak, Piri Bukriyni hasad, alam-o'kinchlar olovida yonayotgan holatlarda uchramiz; amir Mas'ud, Xatlibegim, Abul Hasanak, Ali G'ariblarning ham alam-iztiroblaridan, hattoki goho firibgar Ibn Shahvoniyning tavba-tazarrusidan ogoh bo'lamiz; Malikul Sharob, Nargizabonu, Bobo Xurmolarning qalb faryodi o'quvchini larzaga soladi, ulug' allomalar — Ibn Sino bilan Beruniylarning dil rozi, alamli o'ylari, qalb tug'yoni, isyoni roman simfoniyasining eng shiddatli, baland pardalarini tashkil etadi. Polifonik romanlarda bo'lgani kabi «Ko'hna dunyo»da ham biz personajlarni birinchi galda qalb bahsi, nidosi, tug'yoni orqali to'laroq bilib olamiz. Personajlarning qalb bahsi, nidosi, ayni paytda ularning hayot falsafasi, haqiqati, konsepsiyasi hamdir. Personajlar qalb dramasi orqali o'zlariga va hayotga baho beradilar. Shu tariqa romandagi har bir yetakchi personaj mustaqil, muayyan shaklga tushgan, konseptual ovoz — ohangdir; bu ovozlari esa rang-barang, binobarin polifonikdir.

To'g'ri, avtor ayrim personajlar, masalan, Ibn Shahvoniy, Piri Bukriylarning tashqi qiyofasi, xatti-harakatlarini ham ancha batafsil ta'rif-tavsif etadi, boya aytilganidek, xarakterlar orasidagi to'qnashuvlarni ham ancha keng ko'rsatadi, lekin, baribir, romanda qahra-

monlarning qalb bahsi, dramasi nidosi — ohangi orqali namoyon etish yetakchilik qiladi.

Romanda personajlar ovozidan boshqa hikoyachi shaxs sadolari ham mavjud. Asar voqealari asosan ikki shaxs — muallif va Abu Ubayd al-Juzjoniy tilidan hikoya qilinadi. Ibn Sino bilan bog'liq voqealar ko'proq Juzjoniy xotiralari tarzida, qolgan voqealar esa muallif nigohi orqali beriladi. Bu ikki hikoyachi shaxsning ifoda usuli, ohangi bir-biridan farqlanadi; Juzjoniy bayonida xolis-ob'ektivlik hukmronlik qilsa, avtor ifodasida voqealarga faol munosabat, dadil aralashish ustun. Go'yo personajlar qalbida, ruhiyatida boshlangan bahs-munozara avtor qalbida davom etadi, aniqrog'i, muallif personajlar qalbida kechgan bahslar bilan bahsga kirishadi, ularga o'z munosabatini tayin etadi, natijada mavjud bahslar yanada qizg'inroq, shiddatliroq tus oladi. Shunday qilib personajlar sadolariga hikoyachilar, xususan, avtor ovozi qo'shib, romandagi polifoniya yanada serjilolik kasb etadi...

Shu kuzatish mulohazalardan ko'rinib turibdiki, «Ko'hna dunyo» romani polifonik xususiyatlari bilan o'zbek prozasidagi izlanishlar ufqini ancha kengaytirdi. Adib ayni shu polifonik ifoda vositasida tarixiy haqiqatni, tarixiy shaxslar taqdirini, davr dramasini, davrning ko'pqirrali ziddiyatlarini, o'tish saboqlarini yangicha, ta'sirchan ochishga, badiiy inkishof etishga muvaffaq bo'ladi.

*Umarali NORMATOV*



79800

«Asr oshgan asarlar»

ODIL YOQUBOV

**KO'HNA DUNYO**

*Roman*

Toshkent  
«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
2015

Muharrir *G. Xaitova*  
Musavvir *U. Sulaymonov*  
Texnik muharrir *D. Gabdraxmanova*  
Sahifalovchi *A. Nisanbayeva*  
Musahhah *M. Ziyamuhamedova*

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011 y.**

Bosishga ruxsat etildi 22.09.2015. Bichimi 84x108<sup>1</sup>/<sub>32</sub>. «Tayms» garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 20,2. Nashriyot hisob tabog'i 21,2. Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 4038. Bahosi kelishilgan asosda.

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.



ISBN 978-9943-26-402-1



9 789943 264021